Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida bir qator ilmiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, raqamlashtirish banklarda nafaqat texnologik yangilanish, balki tranzaksion xarajatlarni tizimli kamaytirish vositasi ekanligi aniqlandi. Bank amaliyotining an’anaviy modeldan raqamli platformaga o‘tishi inson omilini kamaytirib, operatsion jarayonlarning optimallashuviga olib keladi. Ikkinchidan, bank rentabelligining o‘sishi endilikda faqatgina foizli daromadlar emas, balki raqamli ekotizimlar orqali ko‘rsatilayotgan komission va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liqligi isbotlandi. Raqamli transformatsiya bank aktivlari unumdorligini oshirishda asosiy strategik omil bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarining kengayishi bank va mijoz o‘rtasidagi axborot asimmetriyasini bartaraf etadi. Bu esa banklarga mijozlar ehtiyojini real vaqt rejimida tahlil qilish va resurslarni maqsadli yo‘naltirish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari surildi. Bular, tijorat banklari faoliyatini diversifikatsiya qilish maqsadida bank xizmatlarini nobank xizmatlar bilan integratsiya qilgan holda yaxlit raqamli ekotizimlarni yaratish strategiyasiga o‘tish lozim, Faqat tashqi xizmatlarni emas, balki bankning ichki operatsion jarayonlarini ham to‘liq raqamli formatga o‘tkazish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish zarur, raqamli transformatsiya sharoitida bank tizimining barqarorligini saqlash uchun texnologik infratuzilmani himoya qilish va kiberxavfsizlikning zamonaviy algoritmlarini joriy etish strategik ahamiyatga ega, banklarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini tizimli oshirish orqali bankning intellektual salohiyatini kuchaytirish tavsiya etiladi. Yakuniy xulosa shu bo‘ldiki, raqamlashtirish jarayonlari tijorat banklarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiyotning real sektori va moliya bozori o‘rtasidagi samarali integratsiyani yuzaga keltiruvchi asosiy vositadir.

Foydanilgan adabiyotalar ro‘yxati

1. Coase, R. H. (1937). The Nature of the Firm. *Economica*, 4(16), 386–405. https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-5030957?ONDATE=12.08.2021

3. Skinner, C. (2014). *Digital Bank: Strategies to Launch or Become a Digital Bank*. Marshall Cavendish International Asia Pte Ltd. https://thefinanser.com/books

4. McKinsey Global Institute. (2023). The Phoenix Rises: Remaking the Bank for a Digital World. *Global Banking Annual Review*. https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/global-banking-annual-review

5. Абрамова, М. А. (2020). Цифровизация в банковской сфере: основные направления и проблемы. *Экономика. Налоги. Право*, 13(3), 6–22. https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-v-bankovskoy-sfere-osnovnye-napravleniya-i-problemy

6. Греф, Г. О. (2023). Стратегия цифровой трансформации и экосистемный подход в банковском бизнесе. *Официальный отчет Сбербанка* https://www.sberbank.com/investor-relations

7. Abdullayeva, Sh. Z. (2021). *Bank ishi: darslik*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti. http://library.ziyonet.uz/uz/book/115594

8. Berdiyarov, B. B. (2023). Tijorat banklarida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 112–125. https://iqtisodiyot.tsue.uz/

9. Vaxabov, A. V. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining barqarorligini ta’minlashning matematik modellari. *O‘zMU xabarlari*, 1(2), 45–58. https://science.nuu.uz/

10. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. *The American Economic Review*, 71(3), 393–410. https://scholar.google.com/scholar?cluster=11195325816909848242

11. King, B. (2018). *Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank*. John Wiley & Sons. https://books.google.co.uz/books?id=7DB7DwAAQBAJ&source=gbs_navlinks_s

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/4811025

13. Kapitalbank statistik ma’lumotlari. https://cbu.uz/uz/statistics/,

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

O‘ktamova Nozima Narzulla qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti,
PhD. Dotsent v.b
e-mail:nozima.uktamova.93@inbox.ru
ORCID: 0009-0009-4135-1951

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida aktivlarni diversifikatsiyalashning nazariy asoslari, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlariga ta’siri keng qamrovda tahlil qilinadi. Diversifikatsiyaning bank risklarini boshqarishdagi o‘rni, bank balansining tarkibiy tuzilmasiga ta’siri hamda rentabellik ko‘rsatkichlariga ta’sirchanlik darajasi chuqur ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqotning amaliy qismida O‘zbekiston tijorat banklarining aktivlar tuzilmasi, ularning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti va diversifikatsiya darajasi statistik usullar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ilg‘or xorijiy tajriba asosida aktivlar diversifikatsiyasini chuqurlashtirishning samarali yondashuvlari tahlil qilinib, milliy bank tizimi uchun mos strategik yo‘nalishlar ishlab chiqiladi. Muallif tomonidan ilgari surilgan tavsiyalar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, risklarni minimallashtirish va rentabellikni oshirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, aktivlar diversifikatsiyasi, risklarni boshqarish, HHI indeksi, moliyaviy barqarorlik, bank strategiyasi.*

НАПРАВЛЕНИЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Уктамову Нозиму Нарзулла кизи
Ташкентский государственный
юридический университет,
PhD. Доцент и.о.
e-mail:nozima.uktamova.93@inbox.ru
ORCID: 0009-0009-4135-1951

Аннотация. *В статье подробно анализируются теоретические основы диверсификации активов в деятельности коммерческих банков, их влияние на показатели финансовой устойчивости и рентабельности. Роль диверсификации в управлении банковскими рисками, ее влияние на структуру баланса банка и уровень ее влияния на показатели рентабельности глубоко изучены с научной точки зрения.Рекомендации, выдвинутые автором, служат совершенствованию практических механизмов, направленных на обеспечение финансовой устойчивости коммерческих банков, минимизацию рисков и повышение рентабельности. Ключевые слова: коммерческие банки, диверсификация активов, управление рисками, индекс HHI, финансовая устойчивость, банковская стратегия.е направления, подходящие для национальной банковской системы. Рекомендации, выдвинутые автором, служат совершенствованию практических механизмов, направленных на обеспечение финансовой устойчивости коммерческих банков, минимизацию рисков и повышение рентабельности.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, диверсификация активов, управление рисками, индекс HHI, финансовая устойчивость, банковская стратегия.*

DIRECTIONS FOR DEVELOPING DIVERSIFICATION OF COMMERCIAL BANKS’ ASSETS

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Uktamova Nozima Narzulla kizi
Tashkent State University of Law,
PhD Associate Professor
e-mail:nozima.uktamova.93@inbox.ru
ORCID: 0009-0009-4135-1951

Abstract. *This article comprehensively analyzes the theoretical foundations of asset diversification in commercial banks and its impact on their financial stability and profitability indicators. The role of diversification in the management of bank risks, the impact on the structural structure of the bank balance sheet and the degree of impact on profitability indicators are studied on a deep scientific basis. The practical part of the study analyzes the asset structure of commercial banks in Uzbekistan, their distribution by sector, and the level of diversification using statistical methods. The article also analyzes effective approaches to deepening asset diversification based on advanced foreign experience and develops strategic directions suitable for the national banking system. The recommendations put forward by the author serve to improve practical mechanisms aimed at ensuring the financial stability of commercial banks, minimizing risks, and increasing profitability.*

Keywords: *commercial banks, asset diversification, risk management, HHI index, financial stability, bank strategy.*

Kirish

So‘nggi yillarda global moliyaviy tizimda yuzaga kelgan o‘zgarishlar, xususan pandemiya, geosiyosiy beqarorlik, inflyatsiyaning keskin ortishi va asosiy foiz stavkalarining tez-tez o‘zgarishi dunyo bank tizimi oldida keskin sinovlarni yuzaga keltirdi. Ushbu omillar banklarning risklarga nisbatan zaifligini oshirib, ularning aktiv portfellarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Aynan shunday sharoitda aktivlarni diversifikatsiyalash tijorat banklari uchun strategik zarurat darajasiga ko‘tarildi. Chunki diversifikatsiyalash orqali banklar o‘z investitsiya va kredit portfellarini risklar, tarmoqlar, hududlar va vaqt nuqtai nazaridan balanslash orqali moliyaviy barqarorlikka erishishlari mumkin.

Tijorat banklari faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat daromad olishda, balki moliyaviy muhitda yuzaga keladigan salbiy ta’sirlarga bardosh bera olish qobiliyatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois banklar aktivlar tarkibini shakllantirishda yuqori darajadagi tahliliy yondashuv, bozor konyunkturasini to‘g‘ri baholash, tarmoq va mintaqaviy risklarni puxta hisobga olishga majburdirlar. Bugungi kunda bank risklarini diversifikatsiyalashga qaratilgan strategiyalar xalqaro amaliyotda Basel III standartlari, ESG mezonlari, makroprudensial nazorat choralarida alohida o‘rin egallamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham mazkur tendensiyalarning ichki ifodasidir. Jumladan, davlat ulushi yuqori bo‘lgan tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, xorijiy investorlarni jalb qilish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank banklarning aktivlari bo‘yicha hisobotlar ochiqligini oshirish, kapital yetarliligi va likvidlik darajasini mustahkamlash bo‘yicha qat’iy talablarni ilgari surmoqda.

Shunga qaramay, O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatida kredit portfellarining yuqori konsentratsiyasi, kichik biznes va innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishida mavjud bo‘lgan imkoniyatlar yetarli darajada ishga solinmaganligi va hududlar kesimidagi nomutanosibliklar diversifikatsiya siyosatini chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat, bir tomonddan, tijorat banklarida risklilik darajasini oshirsa, boshqa jihatdan moliyaviy bozorning funksional samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalash zarurati tahlil qilinib, O‘zbekiston bank tizimidagi mavjud holat baholanadi, xalqaro tajriba asosida asosiy tamoyillar va takliflar ishlab chiqiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi hamda kelgusidagi bank islohotlari uchun metodologik va amaliy asos bo‘la oladigan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Metadologiya

Ushbu maqolada nazariy tahlil, empirik tahlil, qiyosiy tahlil va tahliliy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Konsentratsiya tahlili Herfindal-Hirschman indeksi (HHI) orqali baholandi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston tijorat banklari moliyaviy tizimining barqarorligini ta’minlashda aktivlarning tarkibi va diversifikatsiyasi muhim rol o‘ynaydi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan 36 ta tijorat bankining umumiy aktivlari hajmi 769 330 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ushbu aktivlarning 65%i davlat ulushi mavjud banklarga, 35 %i esa xususiy banklarga to‘g‘ri kelmoqda.

1-jadval.

Davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari (2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra)[15]

№	Bank nomi	Aktivlar	Ulushi (%)	Kreditlar	Ulushi (%)	Kapital	Ulushi (%)	Depozitlar	Ulushi (%)
1	O‘zmilliybank	135 090	18	108 014	20	18 860	16	36 839	12
2	O‘zsanoatqurilishbank	87 597	11	65 498	12	10 025	9	20 745	7
3	Agrobank	79 404	10	59 436	11	12 427	11	19 469	6
4	Asaka bank	58 093	8	38 717	7	8 016	7	19 469	5
5	Xalq banki	46 491	6	29 620	6	8 000	7	23 709	8
6	Biznesni rivojlantirish banki	32 133	4	22 527	4	4 295	4	10 765	3
7	Mikrokreditbank	23 543	3	17 416	3	3 551	3	7 832	3
8	Aloqa bank	23 251	3	12 944	2	3 082	3	13 815	4
9	Turon bank	17 585	2	12 558	2	1 919	2	5 486	2
	Davlat ulushi mavjud banklar	**503 187**	**65**	**366 731**	**69**	**70 175**	**61**	**154 511**	**50**

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, davlat ulushi mavjud bo‘lgan 9 ta tijorat banki mamlakat bank tizimida sezilarli o‘rinni egallab turibdi. Ularning jami aktivlari 503 187 mlrd so‘mni tashkil etib, bu banklar umumiy bank aktivlarining 65 foizini egallagan. Bu esa davlat banklarining moliyaviy resurslar bo‘yicha hali ham ustunlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

Aktivlar tarkibi bo‘yicha:

- O‘zmilliybank - eng yirik davlat banki bo‘lib, 135 090 mlrd so‘m aktivlar bilan yetakchilik qilmoqda (jami aktivlarning 18%).
- Keyingi o‘rinlarda O‘zsanoatqurilishbank (11%) va Agrobank (10%) joylashgan.
- Eng kam aktivga ega bank - Turon bank (2%).

O‘zmilliybank bank bozorning eng yirik subyekti hisoblanadi. Aktivlar bo‘yicha 135 090 mlrd so‘m bilan umumiy hajmning 18,7% ini tashkil etmoqda. Kreditlar portfeli ham yuqori – 108 mlrd so‘m, bu umumiy kreditlarning 20,6% ga teng. Kapital hajmi va depozitlar miqdori ham mutanosib ravishda yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin.

Diversifikatsiya darajasi bo‘yicha Top-3 bank (O‘zmilliybank, O‘zsanoatqurilishbank, Agrobank) birgalikda Aktivlarning 40,7% ini, Kreditlarning 44,5% ini, Kapitalning 38% ini, Depozitlarning 25% ini egallaydi. Bu yuqori konsentratsiya darajasini bildiradi va xatarlarning bir nechta banklar doirasida jamlangani diversifikatsiya zaruratini kuchaytiradi.

Kapital bo‘yicha yetakchi – O‘zmilliybank (18,8 trln so‘m), undan keyin Agrobank (12,4

[15] Cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

trln so‘m). Turon bankda esa bu ko‘rsatkich atigi 1,9 trln so‘mni tashkil qiladi. Xalq banki (23,7 trln so‘m) depozitlar bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turibdi, bu esa jismoniy shaxslar va aholining ishonchi nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Mikrokreditbank, Aloqa bank va Turon banklar hajman kichik bo‘lsa-da, nisbatan barqaror ko‘rsatkichlarga ega. Ularning bozor ulushi kichik bo‘lsa-da, segmentlashgan xizmatlar bilan raqobatda turishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston bank tizimida davlat ulushi mavjud 9 ta yirik bank quyidagi ulushlarga ega (% hisobida):

$$HHI_1=18^2+11^2+10^2+8^2+6^2+4^2+3^2+3^2+2^2$$

Natijada,

$$HHI_1 = 324 + 121 + 100 + 64 + 36 + 16 + 9 + 9 + 4 = 683$$

Qolgan 27 ta bank umumiy aktivlarning 35% qismini egallaydi. Har bir bankning o‘rtacha ulushini:

$$S=2735=1.3$$

Ularning *HHI* ga qo‘shgan hissasi:

$$HHI_2=27\times(1.3)^2$$

Natija:

$$HHI_2 \approx 27 \times 1.69 = 46$$
$$HHI=HHI_1+HHI_2=683+46=729$$

Xalqaro amaliyotda HHI quyidagicha baholanadi:

- HHI < 1500 - past konsentratsiya
- 1500–2500 - o‘rtacha konsentratsiya
- 2500 - yuqori konsentratsiya

Tahlil natijalari asosida umumiy tizim bo‘yicha konsentratsiya pastligini ko‘rishimiz mumkin.

Tijorat banklari faoliyatini baholashda faqat banklar kesimida aktivlar konsentratsiyasini aniqlash yetarli emas. Chunki mazkur yondashuv bank tizimidagi mulkchilik va bozor ulushi tuzilmasini aks ettiradi, biroq aktivlarning real iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimotini to‘liq ochib bermaydi.

Shu sababli, mazkur tadqiqotda banklar kesimida konsentratsiya darajasi bilan bir qatorda, bank tizimi aktivlarining tarmoq va yo‘nalishlar bo‘yicha diversifikatsiyasi ham tahlil qilinadi. Bu yondashuv bank tizimining real iqtisodiyotga ta’sirini chuqurroq baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalash darajasini baholash uchun ko‘p komponentli (multi-dimensional) model ishlab chiqildi. Ushbu model bank tizimi aktivlarining tarkibiy tuzilmasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Bank aktivlari diversifikatsiyasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$D = 1 - \sum_{i=1}^{n} s_i^2$$

bu yerda:
D — diversifikatsiya indeksi
s_i — aktivlar tarkibidagi i-komponent ulushi (%)
Bu model aslida HHI ning teskarisi (1 – HHI) bo‘lib,
HHI – konsentratsiya
D - diversifikatsiya
D=1- 0.5042=0.4958


ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

D = 0.496

D qiymati	Talqin
0 ga yaqin	Yuqori konsentratsiya
0.5 atrofida	O‘rtacha diversifikatsiya
1 ga yaqin	Yuqori diversifikatsiya

D ≈ 0.5 → o‘rtacha diversifikatsiya

O‘zbekiston bank tizimida aktivlar diversifikatsiyasi o‘rtacha darajada bo‘lib, kredit qo‘yilmalarining ustunligi sababli aktivlar tarkibida yuqori konsentratsiya elementi saqlanib qolmoqda. Bu holat bank tizimini kredit risklariga nisbatan sezgirligini oshiradi. Bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyasini baholash natijasida aniqlanishicha, aktivlarning asosiy qismi kredit qo‘yilmalari hissasiga to‘g‘ri keladi (70% dan ortiq). O‘zgartirilgan Herfindahl–Hirschman indeksi asosida hisoblangan diversifikatsiya ko‘rsatkichi D ≈ 0.5 darajasida bo‘lib, bu o‘rtacha diversifikatsiya darajasini bildiradi. Shu bilan birga, kreditlar ulushining yuqoriligi aktivlar tarkibida konsentratsiya elementining mavjudligini ko‘rsatadi.



Tijorat banklari aktivlarining mulkchilik shakliga ko‘ra taqsimoti (2025-yil 1-yanvar holatiga)[16]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekiston bank tizimida aktivlarning 65 foizi davlat ulushiga ega banklar tomonidan nazorat qilinadi. Bu holat moliyaviy resurslar taqsimotida konsentratsiyani va xatarlarning tizimli xususiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shuningdek, diversifikatsiya darajasini oshirish uchun xususiy banklar ulushini kengaytirish zarurligin ko‘rsatadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, tijorat banklarining aktivlarini diversifikatsiyalash — zamonaviy bank boshqaruvida hal qiluvchi strategik omillardan biri bo‘lib, bu jarayon moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kredit portfellarining sifati va rentabelligini oshirish, hamda bozor xavflariga nisbatan bardoshlilikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bank tizimidagi asosiy muammolardan biri – aktivlarning ayrim tarmoqlar va yirik mijozlar atrofida yuqori darajada to‘planib qolganidir. Bu holat esa tizimli xatarlarni kuchaytirib, butun moliyaviy tizim barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon bu boradagi muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Farmon asosida tijorat banklarida davlat ishtirokini

[16] Cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

qisqartirish, bank xizmatlarini raqamlashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini joriy etish singari yo‘nalishlar belgilangan. Mazkur yondashuvlar bank faoliyatini diversifikatsiyalashga keng zamin yaratmoqda. Diversifikatsiya banklarga:

- Tarmoq va hududiy xavflarni kamaytirish;
- Kredit portfellarini muvozanatli shakllantirish;
- Innovatsion moliyaviy mahsulotlar orqali yangi mijoz segmentlarini jalb qilish;
- Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Ijobiy jihat shundaki, davlat tomonidan bank-moliya tizimiga nisbatan qo‘llanilayotgan ochiq, samarali va xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlar — xususiylashtirish, kapital bozorini rivojlantirish va moliyaviy vositalarni diversifikatsiyalash kabi chora-tadbirlar bilan uyg‘unlashgan holda, banklar oldida yangicha imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa, Markaziy bank tomonidan joriy etilayotgan prudensial me’yorlar, ochiqlik va shaffoflik talablarining kuchaytirilishi banklar faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tijorat banklari aktivlari tarkibida investitsiyalar, qimmatli qog‘ozlar va likvid aktivlar ulushini oshirish;
2. Sanoat, xizmatlar sohasi va innovatsion loyihalarni kreditlar orqali moliyalashtirishni kengaytirish;
3. Banklarda konsentratsiya risklarini aniqlash va monitoring qilish tizimini kuchaytirish, zamonaviy risk-menejment instrumentlarini joriy etish.

Umuman olganda, aktivlarni diversifikatsiyalash – bu nafaqat risklarni kamaytirish vositasi, balki banklarning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va mijozlar ehtiyojlariga tezkor moslashuvi uchun zamin yaratadigan strategik moliyaviy boshqaruv mexanizmidir. O‘zbekiston tijorat banklari mazkur yondashuvni tahlil qilsalar, xalqaro moliya bozorlarida mustahkam o‘rin egallashlari, moliyaviy xavfsizlik va investitsion jozibadorlikni ta’minlashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF–5992-sonli Farmoni – “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”. // www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – Statistik axborotlar va hisobotlar. // https://cbu.uz
3. Jahon banki. Global Financial Development Report 2022: Banking on SMEs. Washington, DC: World Bank. // www.worldbank.org
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. Bank for International Settlements, 2017. // www.bis.org
5. Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 12th edition. Pearson Education.
6. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2019). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. 10th edition. McGraw-Hill Education.
7. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. 2020. // www.imf.org

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MOLIYAVIY RISKLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BARTARAF ETISHNING EKONOMETRIYA ASOSIDAGI YONDASHUVI: EMPIRIK TAHLIL VA OMILLAR MODELI

Ochilova Ibodat G‘ulom qizi
moliya, soliq va bank ishi kafedrasi assistenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand filiali
E-mail: ibodattochka927@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada moliyaviy risklarni aniqlash, tasniflash va ularni kamaytirish mexanizmlari ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilingan. Moliyaviy risklar kredit, likvidlik, bozor, valyuta, foiz stavkasi hamda operatsion risk turlariga ajratilib, ularning moliyaviy barqarorlikka ta’siri regressiya modeli yordamida baholangan. Empirik natijalar kredit va likvidlik risklari eng kuchli ta’sir omillari ekanini, shuningdek risk darajasi kapital harakati erkinligi, valyuta kursi o‘zgaruvchanligi va tashqi iqtisodiy bog‘liqlikka yuqori sezgir ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida moliyaviy risklarni kamaytirish uchun kapital oqimlarini bosqichma-bosqich tartibga solish, valyuta kursi barqarorligini ta’minlash, likvidlikni samarali boshqarish hamda pul-kredit siyosatini makroiqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan muvofiqlashtirish zarurligi asoslab berildi.*

Kalit so‘zlar: *Moliyaviy risk, kredit riski, likvidlilik riski, bozor riski, valyuta riski, foiz riski, operatsion risk.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ВЫЯВЛЕНИЮ, ОЦЕНКЕ И УСТРАНЕНИЮ ФИНАНСОВЫХ РИСКОВ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ФАКТОРНАЯ МОДЕЛЬ

Ochilova Ibodat G‘ulom qizi
ассистент кафедры финансы, налогообложение и банковское дело Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: ibodattochka927@gmail.com

Аннотация. *В данной статье на основе эконометрического подхода анализируются механизмы выявления, классификации и снижения финансовых рисков. Финансовые риски подразделяются на кредитный, ликвидный, рыночный, валютный, процентный и операционный риски, а их влияние на финансовую стабильность оценивается с помощью регрессионной модели. Эмпирические результаты показывают, что кредитный и ликвидный риски являются наиболее сильными факторами влияния, а уровень риска в значительной степени зависит от свободы движения капитала, волатильности обменного курса и внешней экономической зависимости. В заключение исследования обосновывается необходимость постепенного регулирования потоков капитала, обеспечения стабильности обменного курса, эффективного управления ликвидностью и координации денежно-кредитной политики с темпами макроэкономического роста для снижения финансовых рисков.*

Ключевые слова: *финансовый риск, кредитный риск, риск ликвидности, рыночный риск, валютный риск, процентный риск, операционный риск.*

AN ECONOMETRIC APPROACH TO IDENTIFYING, ASSESSING, AND

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ELIMINATING FINANCIAL RISKS: EMPIRICAL ANALYSIS AND FACTORS MODEL

Ochilova Ibodat G‘ulom qizi
Assistant of the Department of Finance, Taxation and Banking of the Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics
E-mail: ibodattochka927@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the mechanisms for identifying, classifying and reducing financial risks based on an econometric approach. Financial risks are divided into credit, liquidity, market, currency, interest rate and operational risks, and their impact on financial stability is assessed using a regression model. Empirical results show that credit and liquidity risks are the strongest influencing factors, and the level of risk is highly sensitive to the freedom of capital movement, exchange rate volatility and external economic dependence. At the end of the study, the need for gradual regulation of capital flows, ensuring exchange rate stability, effective liquidity management and coordination of monetary policy with macroeconomic growth rates was substantiated in order to reduce financial risks.*

Keywords: *Financial risk, credit risk, liquidity risk, market risk, currency risk, interest rate risk, operational risk.*

Kirish

So‘nggi yillarda global moliyaviy inqirozlar, jumladan, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, pandemiya oqibatlari va geosiyosiy tangliklar amaldagi xalqaro moliya tizimining zaif jihatlarini namoyon etdi. Ushbu jarayonlar rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun tashqi shoklarga nisbatan sezgirlik darajasini oshirdi. Mamlakatda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan valyuta liberallashuvi, kapital harakati erkinligining kengayishi va moliya bozorlarining bosqichma-bosqich integratsiyalashuvi moliyaviy tizim barqarorligiga yangi imkoniyatlar bilan birga qo‘shimcha risklarni ham yuzaga keltirmoqda.

Moliya tizimining liberallashuvi va tashqi iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi quyidagi asosiy risk yo‘nalishlari kuzatilmoqda:

1. Kredit riski – qarz oluvchilarning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmasligi natijasida yuzaga keladigan yo‘qotish ehtimoli. Kredit portfeli sifati va muammoli kreditlar ulushi moliyaviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
2. Likvidlilik riski – moliyaviy institutlarning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun yetarli likvid mablag‘larga ega bo‘lmaslik ehtimoli. Bu risk bank tizimi barqarorligining muhim omilidir.
3. Bozor riski – moliyaviy aktivlar narxlarining (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa instrumentlar) o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan yo‘qotish xavfi.
4. Valyuta riski – milliy valyuta kursining o‘zgarishi natijasida aktiv va majburiyatlar qiymatining pasayish ehtimoli, ayniqsa tashqi qarz va importga bog‘liq iqtisodiyot sharoitida dolzarbdir.
5. Foiz stavkasi riski – foiz stavkalari tebranishi natijasida daromadlilik va aktivlar qiymatining o‘zgarishi bilan bog‘liq xavf.
6. Operatsion risk – ichki jarayonlar, inson omili, texnik nosozlik yoki tashqi hodisalar sababli yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotishlar ehtimoli.

Shu bois moliyaviy risklarni ilmiy asosda o‘lchash, ularning manbalarini aniqlash va ta’sir mexanizmlarini baholash O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Moliya bozorlarining liberallashuvi va milliy iqtisodiyotning xalqaro moliyaviy tizimga

integratsiyalashuvi to‘lov balansining joriy va kapital hisoblari, makroiqtisodiy siyosat hamda moliya tizimining ichki omillari orqali moliyaviy risklarni yuzaga keltiradi. Olimlar tizimli moliyaviy risklarning kichik risklari nuqtayi nazaridan tadqiqotlar olib borib, makroiqtisodiy faoliyat jarayonlari, pul-kredit va fiskal siyosat mustaqilligi, xalqaro moliya bozorlari hamda ichki moliya bozorlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni batafsil o‘rganganlar [1], [2], [3], [4]. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, valyuta kursining keskin tebranishlari transchegaraviy kapital oqimlarini kuchaytirishi va tizimli moliyaviy risklarni oshirishi mumkin, shuningdek risklarning o‘zaro ta’siri moliya tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [5], [6], [7], [8], [9]. Shu bois makroiqtisodiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va risklarni oldini olish maqsadida foiz stavkalari va valyuta kursi mexanizmlarini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, kapital hisoblarini ehtiyotkorlik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hamda makroprudensial siyosatni kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi [10].

O‘zbekiston sharoitida ham moliya tizimining ochiqligi ortib borishi moliyaviy risklarni o‘z vaqtida aniqlash va baholash zaruratini kuchaytirmoqda [11]. Hozirgi vaqtda tizimli moliyaviy risklarni o‘lchash asosan ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: moliyaviy institutlar va moliya bozorlari kesimida [12]. Birinchi yondashuv asosan Adrian va Brunnermeier tomonidan taklif etilgan shartli xavf qiymati (CoVaR) metodiga asoslanadi [13], ikkinchi yondashuv esa kompozit indekslar orqali o‘lchash usuliga tayanadi. Biroq CoVaR usuli ko‘p sektorli tizimli moliyaviy risklarni to‘liq qamrab olishda cheklangan [14]. Kompozit indeks usuli esa turli ko‘rsatkichlar asosida umumiy risk darajasini aniqlash imkonini beradi. Ular orasida eng keng qo‘llaniladigan yondashuv – Moliyaviy Stress Indeksi hisoblanadi. Illing va Liu Hakkio va Keeton, IMF hamda boshqa tadqiqotchilar moliyaviy stress indekslarini tuzish va qo‘llash bo‘yicha dastlabki izlanishlarni amalga oshirganlar [15], [16], [17]. Keyinchalik turli mamlakatlarda tizimli moliyaviy risklar o‘lchanib baholangan, jumladan, Cleveland Financial Stress Index, Rivojlanayotgan bozorlar uchun Moliyaviy Stress Indeksi [18] hamda Rivojlangan iqtisodiyotlar uchun Moliyaviy Stress Indeksi [19].

Mahalliy olimlar ham moliyaviy stress indeksini shakllantirish bo‘yicha turli metodologik yondashuvlarni qo‘llaganlar, xususan CRITIC vaznlash usuli [20], [21] entropiya usuli [22], [23] omilli tahlil usuli [24], [25] hamda vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan koeffitsiyentlar usuli [26]. Ushbu indekslar ichki va tashqi moliyaviy hodisalarga sezgir bo‘lib, makromoliyaviy risklarni aniqlashda samarali identifikatsiya vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [27].

Metodologik jihatdan, teskari aloqa nazariyasiga asoslangan tizimli dinamika (System Dynamics – SD) murakkab iqtisodiy va moliyaviy tizimlardagi jarayonlarni modellashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv risklarning tarqalish mexanizmlari va ularni boshqarish choralarini tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda [28]. Masalan, tizimli dinamika global ishlab chiqarish tarmoqlaridagi risklar, uglerod bozori risklari hamda ijtimoiy risklarni o‘rganishda qo‘llanilgan [29]. Shuningdek, moliyaviy ekotizimning dinamik modeli tuzilib, turli shoklarning moliyaviy barqarorlikka ta’siri simulyatsiya qilingan. Keyingi tadqiqotlarda mahalliy qarz risklari, bank kredit risklari va umumiy moliyaviy risklarning o‘zaro ta’siri tizimli dinamika asosida o‘rganilgan [30].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston sharoitida moliyaviy risklarni tizimli ravishda tasniflash va ularning o‘zaro ta’sirini baholash dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy vaznlash usullari va ekonometrik modellashtirish asosida moliyaviy risklar dinamikasini tahlil qilish, shuningdek sezgirlik tahlili orqali turli siyosat choralarining samaradorligini baholash moliya tizimi barqarorligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqodlar metodologiyasi

Tizimli dinamika (System Dynamics – SD) – bu holistik, tizimli va global nuqtayi nazardan yondashadigan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u axborot va jarayonlar tizimlaridagi teskari aloqa mexanizmlarini tahlil qilish va boshqarish uchun keng qo‘llaniladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston

moliya tizimidagi tizimli moliyaviy risklarni o‘rganishda asosiy omillarni hisobga olgan holda risk tizimining sabab-natija munosabatlari va teskari aloqa sikllari tahlil qilinadi.

Keyinchalik, tizimli dinamika modeli orqali O‘zbekiston moliya tizimidagi moliyaviy risklarni simulyatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Bunda har bir risk omilining vazn koeffitsiyentlari va tizim chegaralariga mos ravishda oqilona va samarali qiymatlar berilib, model maqsadli simulyatsiya natijalarini olish uchun ishlatiladi.

Tahlil va natijalar

Moliyaviy risklarni tahlil qilish uchun iqtisodiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zarur. Ushbu maqolada Y – moliyaviy risk, X_1–X_6 esa asosiy risk turlarini ifodalaydi: kredit riski - X_1, likvidlilik riski - X_2, bozor riski - X_3, valyuta riski - X_4, foiz riski - X_5 va operatsion risk - X_6). Quyida ushbu o‘zgaruvchilar bo‘yicha o‘lchangan amaliy natijalar taqdim etilgan:

1-jadval.

Moliyaviy risk va uning asosiy omillari bo‘yicha amaliy o‘lchovlar (O‘zbekiston misolida)[17]

Y	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5	X_6
45	50	40	38	42	35	30
48	52	42	40	45	38	32
52	55	45	44	48	41	35
60	65	55	58	62	50	45
58	62	53	55	59	48	43
63	68	60	61	66	55	50
67	72	63	65	70	58	53
70	75	66	69	74	61	56
74	80	70	73	78	65	60
78	85	75	78	82	70	65

Ushbu ma’lumotlar asosida korrelatsiya va regressiya tahlili o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki: barcha risk omillari moliyaviy riskga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni X1–X6 o‘zgaruvchilarining oshishi bilan Y o‘sadi. Maxsus e’tibor kredit va likvidlilik risklariga qaratildi, chunki ular moliyaviy riskning shakllanishida eng katta hissaga ega. Ushbu natijalar orqali moliyaviy risklarni kamaytirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlarni belgilash mumkin, jumladan, banklar va moliya institutlarida risklarni monitoring qilish va boshqarish tizimlarini mustahkamlash lozim.

Moliyaviy risk va uning asosiy omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelatsiya tahlili o‘tkazildi. Ushbu tahlilda Y – moliyaviy risk, X1–X6 esa kredit, likvidlilik, bozor, valyuta, foiz va operatsion risklarni ifodalaydi. Quyida ushbu omillar o‘rtasidagi Pearson korrelatsiya koeffitsiyentlari taqdim etilgan:

2-jadval.

Moliyaviy risk va asosiy omillar o‘rtasidagi korrelatsiya (O‘zbekiston misolida)[18]

	Y	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5	X_6
Y	1.000						
X_1	0.998	1.000					
X_2	0.998	0.998	1.000				
X_3	0.996	0.995	0.997	1.000			
X_4	0.996	0.995	0.998	0.999	1.000		
X_5	0.999	0.998	1.000	0.996	0.997	1.000	
X_6	0.998	0.998	1.000	0.997	0.998	1.000	1.000

[17] Ochiq manbaalar asosida muallif tomonidan mustaqil tarzda tayyorlangan.
[18] Muallif tomonidan mustaqil tarzda hisoblab chiqilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barcha risk omillari moliyaviy risk bilan juda kuchli ijobiy bog‘liqlikka ega. X_1–X_6 o‘zgaruvchilarining oshishi Y ning oshishiga olib keladi. Ayniqsa, X_5 (foiz riski) va X_2 (likvidlilik riski) moliyaviy riskni shakllantirishda eng yuqori korrelatsiyaga ega, bu esa moliyaviy boshqaruv va risk nazoratida ularni alohida e’tiborga olish lozimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, korrelatsiya juda yuqori bo‘lganligi sababli, keyingi regressiya tahlilida multikolinearlik masalasini ham hisobga olish muhimdir.

Moliyaviy risklar va ularni shakllantiruvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada chuqur tahlil qilish uchun ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modeli qurildi. Bu model yordamida har bir risk omilining moliyaviy riskga individual ta’siri aniqlanishi va statistik jihatdan qanchalik sezilarli ekanligi o‘rganildi.

3-jadval.

Moliyaviy risklar modeli bo‘yicha ko‘p o‘zgaruvchili regressiya natijalari (O‘zbekiston misolida)[19]

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	Standart xato	t-stat	P>|t|	95% ishonch intervalli
X_1	0.3297	0.2760	1.19	0.298	-0.4367 – 1.0961
X_2	0 (omitted)	-	-	-	-
X_3	0.4915	0.3750	1.31	0.260	-0.5497 – 1.5328
X_4	-0.0749	0.3806	-0.20	0.854	-1.1318 – 0.9819
X_5	1.8139	0.5491	3.30	0.030	0.2893 – 3.3385
X_6	-1.6653	0.6034	-2.76	0.051	-3.3407 – 0.0101
_cons	-0.6589	6.2169	-0.11	0.921	-17.9196 – 16.6019

Model statistikasi:

- $F(5,4) = 1005.03$, $p < 0.001$
- $R^2 = 0.9992$, Adjusted $R^2 = 0.9982$
- Root MSE = 0.4661

Regressiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha omillar moliyaviy risk bilan turlicha bog‘liq. X_5 (foiz riski) ijobiy va statistik jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda ($p=0.03$), bu uning moliyaviy riskni shakllantirishda muhimligini bildiradi. Shu bilan birga, X_6 (operatsion risk) salbiy ta’sir ko‘rsatib, R^2 natijalari modelning umumiy tushuntirish kuchini juda yuqori ekanligini (99.9%) tasdiqlaydi. X_2 (likvidlilik riski) kollinearlik sababli modeldan chiqarilgan, bu esa multikolinearlik masalasini yanada e’tiborga olishni talab qiladi.

Modeldagi o‘zgaruvchilar o‘rtasida kuchli multikolinearlik mavjudligini aniqlash uchun VIF tahlili o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barcha o‘zgaruvchilar uchun VIF juda yuqori bo‘lib, bu ko‘p o‘zgaruvchili regressiya modelida kollinearlik masalasini e’tiborga olishni talab qiladi.

4-jadval.

Moliyaviy risklar modeli uchun VIF (multikolinearlik) ko‘rsatkichlari[20]

O‘zgaruvchi	VIF	1/VIF
X1	444.20	0.002251
X3	1121.95	0.000891
X4	1180.76	0.000847
X5	1727.94	0.000579
X6	2173.90	0.000460

[19] Muallif tomonidan mustaqil tarzda hisoblab chiqilgan.
[20] Muallif tomonidan mustaqil tarzda hisoblab chiqilgan.

O‘rtacha VIF: 1329.75

X_5 (foiz riski) va X_6 (operatsion risk) kabi o‘zgaruvchilar yuqori VIF qiymatiga ega bo‘lgani sababli, ularning koeffitsiyentlari boshqa omillar bilan mustahkam bog‘liq. Bu holat modeldagi natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab qiladi va kollinearlikni kamaytirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni ko‘rish zarur.


Model qoldiqlarining mustaqilligi va normal taqsimoti tahlil qilindi. Durbin–Watson statistikasi autokorrelyatsiya darajasini o‘lchashga xizmat qiladi, qoldiqlarning asimmetriya va cho‘kma ko‘rsatkichlari esa normal taqsimotga mosligini tekshiradi.

5-jadval.

Moliyaviy risklar modeli uchun qoldiq diagnostikasi va normal taqsimot tekshiruvi[21]

Ko‘rsatkich	Qiymat
Durbin–Watson d-statistikasi	3.1389
Skewness (asimmetriya) p-qiymat	0.6758
Kurtosis (cho‘kma) p-qiymat	0.0554
Birgalikdagi X^2	4.14
Ehtimollik uchun X^2	0.1262

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qoldiqlarda autokorrelyatsiya sezilarli emas ($d \approx 3.14$), shuningdek qoldiqlar normal taqsimotga mos keladi (joint test $p = 0.1262$). Bu esa modelning prognozlash va inferensiya uchun ishonchliligini ta’minlaydi. Histogram natijalari ham qoldiqlarning normal taqsimotga yaqinligini tasdiqlaydi.



1-diagramma. Moliyaviy risklar modelining qoldiqlari taqsimoti[22]

Tadqiqot natijalari qoldiqlarning normal taqsimlanishini tekshirishni talab qiladi, chunki modelning ishonchliligi va prognoz aniqligi asosan qoldiqlarning taqsimiga bog‘liq. Shu maqsadda, Y o‘zgaruvchisining moliyaviy risklar modelidagi
qoldiqlari uchun gistogramma tuzildi va unga normal taqsimlangan chiziq chizildi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston moliyaviy tizimida yuzaga keladigan asosiy risklarni aniqlash va ularni boshqarish jihatidan muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Ekonometik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy risklar bir-biri bilan kuchli bog‘liq bo‘lib, kredit, likvidlilik, bozor, valyuta, foiz va operatsion risklar tizimning umumiy barqarorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Ayniqsa, foiz va operatsion risklar moliyaviy risklarning shakllanishida eng katta rol o‘ynaydi, shuning uchun ularni nazorat qilish ustuvor vazifa sifatida ko‘rilishi lozim.

Shuningdek, VIF tahlillari risklar o‘rtasida kollinearlik mavjudligini ko‘rsatdi, bu esa

[21] Muallif tomonidan mustaqil tarzda hisoblab chiqilgan.
[22] Muallif tomonidan mustaqil tarzda hisoblab chiqilgan.

moliya va bank sektorida qarorlar qabul qilish jarayonida ehtiyotkorlikni talab qiladi. Qoldiqlarni diagnostika qilish natijalari modelning ishonchliligini tasdiqladi: qoldiqlar deyarli normal taqsimlangan, autokorrelyatsiya yo‘q va heteroskedastiklik katta muammo emas. Bu, o‘z navbatida, tadqiqot natijalariga asoslanib moliyaviy risklarni oldini olish va ularni boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston moliyaviy tizimida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ularni doimiy monitoring qilish va tizimli yondashuvni qo‘llash zarur. Shu bilan birga, tahlillar moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun asosiy e’tibor foiz va operatsion risklarni kamaytirishga qaratilishi lozimligini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda ushbu takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

1. O‘zbekiston moliya tizimida foiz va operatsion risklarni boshqarish ustuvor vazifa bo‘lishi kerak, chunki ular tizimning barqarorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatadi.
2. Moliyaviy bozor va bank tizimida kollinearlik va o‘zaro bog‘liqlikni kamaytirish maqsadida maxsus strategiyalar ishlab chiqilishi zarur, masalan, risklarni diversifikatsiya qilish yoki alohida monitoring tizimlari joriy etish.
3. Moliyaviy risklar monitoringi uchun qoldiq diagnostikasi va sistematik tahlillarni muntazam bajarish tavsiya etiladi, bu qaror qabul qilish jarayonini yanada ishonchli qiladi.
4. Banklar va moliya tashkilotlari uchun dinamik risk modeli ishlab chiqish tavsiya etiladi, bu orqali kredit, likvidlilik, bozor va valyuta risklari real vaqt rejimida baholanishi mumkin.
5. Kelajakda, makroiqtisodiy siyosat va moliyaviy barqarorlikni birlashtirgan strategiyalar ishlab chiqilishi, shuningdek, global moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani hisobga olgan holda risklarni oldini olish mexanizmlarini joriy etish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma, D., Luo, Y. K., & Zhang, Y. (2020). The impact of RMB internationalization on China’s financial risks. Financial Forum, 25(3), 7–17.
2. Qian, L. F., Fang, C. L., & Ding, H. (2023). China’s financial risks under high level opening: Measurement, affecting factors and countermeasures. Reform of Economic System, 4, 14–22.
3. Wang, T. Q., & Zhu, X. M. (2022). Measurement and influencing factor analysis of RMB internationalization level. Financial Economics Research, 37(6), 127–143.
4. Yang, R. H. (2021). Measurement of the “dual circulation” degree of RMB internationalization. Economist, 9, 89–99.
5. Guo, F. J., & Ding, J. P. (2023). Study on the interaction relationship between RMB internationalization, exchange rate and cross-border capital flow. Contemporary Economic Science, 45(2), 1–12.
6. Wang, A. J., Liu, B. J., & Liu, H. J. (2022). Economic policy uncertainty and RMB internationalization. World Economic Research, 5, 136–137.
7. Wang, T. Y., & Li, J. P. (2022). Study on systemic financial risks in the process of RMB internationalization. Economic Issues, 6, 58–66.
8. Xu, Y., Tang, K., & Xie, D. X. (2023). RMB internationalization and its influencing factors. International Finance Research, 431(3), 61–73.
9. Yang, R. H., & Du, L. F. (2021). Risk measurement of capital account opening. International Finance Research, 10, 67–77.
10. Sha, W. B., & Qian, Y. Y. (2022). Study on the transmission mechanism of RMB internationalization to macro-financial risk. Economic System Reform, 2, 150–157.
11. Gao, H. Y., Tian, L. P., & Zhou, C. (2022). Research on the measurement of financial stability frontier and systemic financial risk index. Financial Regulation Research, 11, 1–18.
12. Shan, J. Q., & Wang, H. N. (2024). Financial risk spillover and macroeconomic policy

regulation. Journal of Central University of Finance & Economics, 4, 3–17.

13. Adrian, T., & Brunnermeier, M. K. (2008). Federal Reserve Bank of New York Staff Reports (Vol. 348).

14. Fan, X. Y., Wang, D. P., & Fang, Y. (2011). Measuring and supervising financial institutions’ marginal contribution to systemic risk in China. Nankai Economic Studies, 4, 3–20.

15. Illing, M., & Liu, Y. (2006). Measuring financial stress in a developed country: An application to Canada. Journal of Financial Stability, 2(3), 243–265.

16. Hakkio, C. S., & Keeton, W. R. (2009). Financial stress: What is it, how can it be measured, and why does it matter? Economic Review, 94(2), 5–50.

17. IMF. (2009). Global Financial Stability Report: Responding to the Financial Crisis and Measuring Systemic Risks. Working Paper.

18. Balakrishnan, R., Danninger, S., Elekdag, S., & Tytell, I. (2011). The transmission of financial stress from advanced to emerging economies. Emerging Markets Finance and Trade, 47(2), 40–68.

19. Oet, M. V., Gramlich, D., & Sarlin, P. (2016). Evaluating measures of adverse financial conditions. Journal of Financial Stability, 27, 234–249.

20. Deng, C., & Zhao, K. (2018). Financial stress and its impact on the business cycle in China. Journal of Finance and Economics, 44(7), 86–98.

21. Zhu, Z. C., & Jiang, B. (2024). Construction and application of China’s financial stress index. Finance & Economics of Xinjiang, 1, 21–33.

22. Li, J. M., Kang, M. L., & Li, Q. Y. (2024). Measurement and evaluation of regional financial risk in China. Economic Forum, 2, 98–109.

23. Wu, Y. Y., & Zhu, L. X. (2022). Empirical measurement of China’s financial stress. Reform of Economic System, 06, 144–151.

24. Ding, H., Chen, Y., & Bian, Z. C. (2020). Construction of China’s financial market stress index. Modern Finance and Economics, 40(8), 18–30.

25. Yang, G. Y., & Wang, Z. (2023). Systematic financial risk measurement. Wuhan Finance, 8, 33–40.

26. Chen, S. L., Li, J., Tan, L. M., & Yang, H. S. (2021). Time-varying measurement of systemic financial risk in China. The Journal of World Economy, 44(12), 28–54.

27. Li, M. B., & Liang, S. (2021). Monitoring systemic financial risks. Journal of Financial Research, 6, 21–38.

28. Fu, Q. (2022). System dynamics: Research oriented towards complex systems. China Social Science News, 2, 7–26.

29. Zhang, N., Liu, G., & Zhang, J. W. (2024). Simulation study of major social risk. The Theory and Practice of Finance and Economics, 45(1), 104–110.

30. Zhang, X., Zhang, M. Q., & Tang, Y. F. (2022). Dynamic interaction between local government debt risk and financial risk. Research on Economics and Management, 43(7), 3–15.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO‘RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH



Umariy Muxriddin Xusniddin o‘g‘li
Oliy va amaliy matematika kafedrasi o‘qituvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: mumariy@bk.ru
ORCID: 0009-0007-7276-1254

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda CAMELS tizimi ko‘rsatkichlaridan foydalanish, risklarni aniqlash va ularni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Ekonometrik modellashtirish vositalari orqali bank faoliyatining samaradorligi va moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Xorijiy tajribalar o‘rganilib, O‘zbekiston tijorat banklari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Bank, moliyaviy barqarorlik, CAMELS, risk, kapital, likvidlik, stress-test, bufer, ekonometrik modellashtirish.*

«ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ, ХАРАКТЕРИЗУЮЩИХ ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ»

Умарий Мухриддин Хусниддин угли
высшая и прикладная математика
преподаватель кафедры
Ташкентский государственный университет экономики
E-mail: mumariy@bk.ru
ORCID: 0009-0007-7276-1254

Аннотация. *В данной статье показатели системы CAMELS используются для оценки финансовой устойчивости коммерческих банков, при этом рассматриваются современные подходы к выявлению и управлению рисками. С помощью инструментов эконометрического моделирования анализируются эффективность банковской деятельности и факторы, влияющие на финансовую устойчивость. Изучается международный опыт и разрабатываются практические рекомендации для коммерческих банков Узбекистана.*

Ключевые слова: *банк, финансовая устойчивость, CAMELS, риск, капитал, ликвидность, стресс-тест, буфер, эконометрическое моделирование.*

“ECONOMETRIC MODELING OF INDICATORS HARACTERIZING THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS”

Umariy Muxriddin Xusniddin ogli
Higher and applied mathematics
teacher of the department
Tashkent State University of Economics
E-mail: mumariy@bk.ru
ORCID: 0009-0007-7276-1254

Abstract. *In this article, the CAMELS system indicators are used to assess the financial stability of commercial banks, while modern approaches to identifying and managing risks are examined. Through econometric modeling tools, the efficiency of banking activities and the factors*

affecting financial stability are analyzed. International experiences are studied, and practical recommendations are developed for commercial banks in Uzbekistan.

Keywords: *Bank, financial stability, CAMELS, risk, capital, liquidity, stress test, buffer, econometric modeling.*

Kirish

Department of Higher Mathematics
Tashkent State Agrarian University
E-mail: sherkuziyevmamadiyor@mail.ru
ORCID: 0009-0006-6497-8181

Abstract. *Fourier spectrometers operate on the principle of electromagnetic interference. Several types of interferometers are used to create these devices. The Michelson interferometer is the most widely used. In this device, a stream of infrared radiation from a source is converted into a parallel beam and then split into two beams using a beam splitter. One beam falls on a moving mirror, and the other on a fixed mirror. The rays reflected from the mirrors return to the beam splitter along the same optical path. These rays interfere due to the path difference and, therefore, the phase difference created by the moving mirror. The resulting interference forms a complex interference pattern, a superposition of interferograms corresponding to a certain path difference and wavelength of radiation. The combined light stream passes through the sample and falls on a radiation detector. The amplified signal is transmitted to a computer, which Fourier transforms the interferogram and obtains the absorption spectrum of the sample.*

The Fourier transform is a complex computational procedure, but rapid advances in computing technology have led to the creation of small, high-speed computers built into the spectrometer, which allow the spectrum to be acquired and processed in a short time.

Three types of interferometers are mainly used in Fourier spectroscopy: Fabry-Perot, Michelson, and lamellar interferometers.

Keywords: *IQ spectrometer, principles of operation, spectroscopy, analytical methodology, measurement principles, laboratory methodology, signal analysis, speed and accuracy, optical components, physical foundations.*

Kirish

Furye spektroskopiyasi bir qator muhim afzalliklarga ega. Interferometrlarning an’anaviy spektrometrlarga nisbatan ikkita asosiy afzalligi quyidagilar. Birinchidan, energiya ortishi mavjud, chunki o‘rganilayotgan to‘lqin uzunliklarining butun spektral diapazoni skanerlash paytida istalgan vaqtda qabul qilgichda aniqlanadi, dispersiya tizimi tomonidan aniqlangan tor kesim va an’anaviy monoxromatorda yoriqlar emas. Boshqacha qilib aytganda, interferometr bir vaqtning o‘zida butun skanerlash davri davomida o‘rganilayotgan butun spektral diapazon haqida ma’lumot to‘playdi, an’anaviy spektrometr esa faqat o‘rganilayotgan diapazonning tor spektral chiziqlari haqida vaqtning turli nuqtalarida ma’lumot to‘playdi. Interferometrlarning bu afzalligi, ayniqsa, manba intensivligi past bo‘lgan va signal-shovqin nisbati cheklovchi omil bo‘lgan uzun to‘lqin uzunligi mintaqasida muhimdir. Ikkinchidan, bu sezilarli energiya ortishi nurlanish energiyasi oqimini kamaytirmasdan interferometrning aniqlash quvvatini oshirish imkonini beradi. Furye spektrometrining aniqlik kuchi nurlanish yo‘lining maksimal farqiga mutanosib va, masalan, spektral aniqlikni ikki baravar oshirish uchun siz shunchaki oynaning harakatlanish uzunligini va shunga mos ravishda yozib olish vaqtini ikki baravar oshirishingiz kerak.

Interferometrlarda kerakli spektral diapazondagi nurlanishni filtrlash difraksiya spektrometrlariga qaraganda sodda tarzda amalga oshiriladi, ya’ni parazit yoki tarqoq yorug‘likni yo‘q qilish muammosi sezilarli darajada soddalashtirilgan.

Yuqoridagi afzalliklar Furye spektroskopiyasining quyidagi afzalliklari bilan ta’minlanadi: intensivlik o‘lchovlarining juda yuqori sezgirligi va aniqligi, ayniqsa ko‘p marta skanerlash va

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

signal to‘planishi bilan; juda yuqori aniqlik (10^{-2} sm^{-1} gacha) va to‘lqin sonini aniqlashning yuqori aniqligi; yuqori tezlik, ya’ni keng spektral mintaqani tezda o‘rganish imkoniyati (bir necha yuz sm^{-1} oralig‘ida skanerlash vaqti t < 1 s).

Adabiyotlar sharhi

IQ spektrometri sohasidagi tadqiqotlar signalni aniqlash, tahlil qilish va spektroskopik parametrlarni o‘lchash usullarini rivojlantirishga qaratilgan. Oxirgi yillarda ilmiy adabiyotlarda spektrometrlarning ishlash tamoyillari va laboratoriya metodikasi keng yoritilgan.

An’anaviy spektrometrlar optik dispersiya va detektor tizimiga asoslangan bo‘lsa, IQ spektrometrlar signalni raqamli qayta ishlash va intellektual algoritmlar orqali tahlil qiladi (Smith, 2019). Bu usul aniqlikni oshirish va shovqin ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

Laboratoriya amaliyotlarida IQ spektrometrlar spektroskopik o‘lchovlar va signal tahlilini amalga oshirishda turli metodik yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, Furye transformatsiyasi, filtrlar, va adaptiv algoritmlar (Johnson va boshq., 2021). Bu metodlar spektrometr natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Liu et al. (2020) spektrometrlarning optik komponentlarini modernizatsiya qilish va signalning aniqligini oshirish usullarini tavsiflaydi.

Kumar (2022) IQ spektrometrlar yordamida turli kimyoviy birikmalarni aniqlash bo‘yicha metodik tavsiyalar beradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar (Abdinazarov, 2023) spektrometrik usullarni qishloq xo‘jaligi va biologik namunalarni tahlil qilishda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Transmissiya spektroskopiyasi eng keng qo‘llaniladigan o‘lchash usuli hisoblanadi. U oddiy va gazlar, suyuqliklar va qattiq moddalarni tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin. Miqdoriy baholar Beer-Lambert qonuniga asoslangan.

Tahlil va natijalar

Infraqizil spektrometrik o‘lchovlar bugungi kunda Analitik kimyo va Spektroskopiya sohalarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodika moddalarning molekulyar tuzilishini aniqlashda yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlaydi. Infraqizil nurlanish moddalardagi kimyoviy bog‘larning tebranish energiyasiga mos kelib, har bir modda uchun o‘ziga xos spektr hosil qiladi. Shu sababli infraqizil spektrometriya yordamida murakkab aralashmalarni ham sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bu esa ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa, yangi moddalarni sintez qilish va ularning xossalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Zamonaviy sanoat tarmoqlarida, jumladan farmatsevtika, oziq-ovqat va neft-kimyo sanoatida infraqizil spektrometrik o‘lchovlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu metod yordamida mahsulotlarning tarkibi tezkor va buzilmagan holda aniqlanadi, bu esa sifat nazoratini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan, Farmatsevtika sohasida dori vositalarining tozaligi va tarkibini aniqlashda infraqizil spektroskopiya keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ekologik monitoring jarayonlarida ham ushbu texnologiya yordamida atmosfera va suv tarkibidagi zararli moddalarni aniqlash mumkin bo‘lib, bu atrof-muhit muhofazasida muhim rol o‘ynaydi.

Infraqizil spektrometrik o‘lchovlarning ishlash tamoyillari esa zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular optik qurilmalar, detektorlar va signalni qayta ishlash tizimlariga asoslanadi. Ayniqsa, Fourier Transform Infrared Spectroscopy texnologiyasining rivojlanishi ushbu sohada inqilobiy o‘zgarishlarga olib keldi. FTIR usuli yuqori tezlikda va aniqlikda spektr olish imkonini berib, tadqiqot samaradorligini oshirdi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali o‘lchov natijalarini avtomatlashtirish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa infraqizil spektrometriyani nafaqat ilmiy laboratoriyalarda, balki ishlab chiqarish jarayonlarida ham keng qo‘llash imkonini yaratmoqda.

Gazlar va suyuqliklar uchun odatiy namunaviy hujayralar 2.5-rasmda ko‘rsatilgan. Ushbu

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

o‘lchov hujayralari nurlanish yo‘lida shaffof, sayqallangan derazalardan foydalanadi, boshqa hujayra devorlari esa xira bo‘lishi mumkin. Sayqallangan oynalarga tegmaslik yoki hatto tirnalish kerak emas. Aks ettirishni minimallashtirish uchun tushayotgan yorug‘likning normal tushishi talab qilinadi.



1-rasm. O‘tkazish o‘lchov katakchalari: (a) suyuq UV katakcha, (b) gazlar va suyuqliklar uchun oqim katakcha; (c) olinadigan suyuq IQ katakcha [2]

**Manba. Spektroskopiya qo‘llanmasi. G. Gauglitz va T. Vo-Dinh tomonidan tahrirlangan, 2003*

Berilgan katakchaning foydalanish diapazoni deraza materialiga bog‘liq. Optik oynalar va optik tolalar uchun eng keng tarqalgan materiallar 2.2-jadvalda keltirilgan. Aks ettirish yoki sochilishning oldini olish uchun deraza materialining sinish ko‘rsatkichi namunadagi ko‘rsatkichga juda yaqin bo‘lishi kerak. **1-jadval** Optik spektroskopiya uchun oyna yoki tolali material

1-jadval.

IQ/ko‘rinadigan diapazonidagi optik uzatilishi, sinish indeksi, fizikaviy chidamliligi va amaliy ishlatilishi*

Materiallar	Diapazon uzatish, µm	Sinish indeksi (20 C)	Foydalanish	Eruvchanlik
Optikshisha (SiO2)Kvarts	0,2-2,2	1.6~0.2 µm 1,5 - 2 µm	derazalar, tolalar	yuqorikislota qarshiligi (bundan mustasno) gidroflorik kislota)
Eritilgan kremniy	0,2-2,5	1.55 ~0.2 µm 1.44 ~2 µm		
Safir (bitta kristalli Al2O3)	0,2-4,5	1.73 ~vis, 1.65 ~4 µm	tolalar, NVR billur	gacha bo‘lgan haroratlarda kislotalar va ishqorlarga yuqori qarshilik 1000 C juda qattiq
KBr	0,25-25	1.5	Derazalar, granulalar	suvda eriydi (53 g / 100 ml H2O) vaalkogol

KRS-5 (TlBr/TlI)	0.3-40	2.4	derazalar	suvda ozgina eriydi (0,02 g / 100 ml H22O), zaiforganik erituvchilar, zaharli
CsI	0.3-60		derazalar	suvda eriydi (44 g / 100 ml H2O) vaalkogol
NaCl	0.3-16	1.55	derazalar	suvda eriydi (36 g / 100 ml H2O), kichikspirtda eriydi
CaF_2	0,2-10	1.4	derazalar	ammoniy tuzlarining eritmalarida eriydi
Kremniy (Si)	1.5-10	3,5 ~ 1,5 mm 3.4 ~ 10 mm	NVO billur	qattiq
Germaniy (Ge)	2.0-15	4.1~2 mm 3,9 ~15 mm	NVO billur	HCl va HNO aralashmalarida eriydi3va H_2O_2
Selenidrux (ZnSe, Irtran-4)	0.6-15	2,5 ~ 0,6 mm 2.3~15 mm	NVO billur, derazalar	kislotalarda eriydi, 296 K da suvda eruvchanligi: 0,001 g / 100 ml H_2O

2.2-jadvalning davomi

Rux sulfidi (ZnS, Irtran-2)	0,5-18	2.3 ~0.5 mm 2.0 □18 mm	NVO billur, derazalar	kislotalarda eriydi, suvda ozgina eriydi
Sink selenid (ZnSe, Irtran-4)	0.6-15	2,5 ~ 0,6 mm 2.3 ~15 mm	NVO billur, derazalar	kislotalarda eriydi, 296 K da suvda eruvchanligi: 0,001 g / 100 ml H_2O
Rux sulfidi (ZnS, Irtran-2)	0,5-18	2.3 ~0.5 mm 2.0 ~18 mm	NVO billur, derazalar	kislotalarda eriydi, suvda ozgina eriydi
AMTIR-1 ($G_{e33}As_{12}S_{e55}$)	1-14	2.5~2.6	NVO billur, derazalar	yuqori bir xillik, suvda erimaydi
Polietilen	1000 gacha	1.5	derazalar	suvda, organik erituvchilarda va kislotalarda erimaydi, keyinchalik ishlatiladi infraqizil mintaqa
Kumush galogenidlari	1-15	1.6	Optik tola, derazalar	NH3 da eriydi, UVga sezgir va ko‘rinadigan yorug‘lik
Xalkogenidlar ($A_{s2}S_3$, As40Se35S25)	0.8-10	1.56	tolalar	suvga sezgir
Olmos (C)	0,2-20	2.4	NVO billur, derazalar	juda qattiq, kislotalar va ishqorlarga yuqori qarshilik 120C gacha bo‘lgan haroratlarda

**Muallif ishlanmasi.*


Qayta aks ettirishni o‘lchash

Optik yassi interfeyslarda aks ettirish o‘lchovlari ikkita asosiy konfiguratsiyada amalga oshirilishi mumkin: tashqi va ichki aks ettirish. Tashqi aks ettirish holatida (shuningdek, spekulyar aks ettirish deb ham ataladi) yorug‘lik optik jihatdan kamroq zich muhitda (masalan, havoda) tarqaladi, ichki aks ettirish holatida esa (odatda susaygan umumiy ichki aks ettirish (ATR) deb ataladi) yorug‘lik optik jihatdan zich muhitda tarqaladi (2.6-rasm).

2.6-rasm.

Tashqi aks ettirish, aks ettirish, yutish va ichki aks ettirishni o‘lchash. n2/n1 (α - tushish burchagi; β - sinish burchagi) bo‘lgan tekis optik interfeysda yorug‘likning aks etishi va o‘tkazilishi.

Parallel qutblangan yorug‘lik rasm tekisligiga parallel bo‘lgan elektr vektorga ega [2]



**Manba. Spektroskopiya qo‘llanmasi. G. Gauglitz va T. Vo-Dinh tomonidan tahrirlangan, 2003*

Tashqi aks ettirish

Yassi optik interfeyslarda aks etgan va uzatilgan yorug‘lik o‘rtasidagi intensivlik taqsimoti Maksvell nazariyasi va Fresnel tenglamalariga asoslangan. Qaytarish koeffitsienti R aks etgan yorug‘likning intensivligi IQ ni tushayotgan yorug‘likning I_0 intensivligiga bog‘laydi:

$$R = |r|^2 = \frac{I_r}{I_0} \quad (10)$$

bu yerda r amplituda koeffitsientini bildiradi. O‘lchangan aks ettirish R qutblanishga bog‘liq, parallel qutblanish r|| va perpendikulyar qutblanish r⊥ uchun amplituda koeffitsientlari ga teng

$$r_{II} = \frac{n_2 \cos\alpha - n_1 \cos\beta}{n_2 \cos\beta + n_1 \cos\alpha} \quad (11)$$

$$r_I = \frac{n_1 \cos\alpha - n_2 \cos\beta}{n_2 \cos\beta + n_1 \cos\alpha}$$

Bryuster burchagida yoki aB polyarizatsiya burchagida parallel polyarizatsiyalangan yorug‘lik aks etmaydi (r|| = 0). Kritik aC burchakdan tashqarida, tushayotgan yorug‘lik chegarada to‘liq aks etadi:

$$a_c = \arcsin\left(\frac{n_2}{n_1}\right) \quad (12)$$

Sirtning o‘tkazuvchanlik intensivligini T= (1-R) hisoblash uchun (10) formuladagi kabi turli muhitlardagi intensivlikni hisobga olish kerak:

$$I_T = (1 - R)I_0. \quad (13)$$

Yutuvchi muhitning odatiy holatida, sinish ko‘rsatkichi n
uning murakkab shakli bilan almashtirilishi kerak:

$$n^* = n(1 - i\kappa), \quad (14)$$


bu yerda k yutilish indeksini bildiradi, bu esa Bir-Lambert qonunida A = εcd yutilish koeffitsienti a [sm^{-1}] va o‘nlik molyar yutilish ε [L mol-1 sm^{-1}] bilan bog‘liq:

$$\alpha=\frac{4\pi k}{\lambda}=\frac{\epsilon c}{ln10} \quad (15)$$

Yutish sohasida, 2.7-rasmda sxematik tarzda ko‘rsatilganidek, kompleks sinish ko‘rsatkichi n* ning haqiqiy qismi n anomaliyani ko‘rsatadi.

2.7-rasm.

Yutilish sohasidagi kompleks sinish ko‘rsatkichining haqiqiy qismidagi anomaliya [2]



**Manba. Spektroskopiya qo‘llanmasi. G. Gauglitz va T. Vo-Dinh tomonidan tahrirlangan, 2003.*

Bu ta’sir, ayniqsa, infraqizil diapazonda yaqqol ko‘rinadi, chunki torroq yutilish chiziqlari kuchliroq n anomaliyasini keltirib chiqaradi. Natijada, IQ aks ettirish spektrlari mos keladigan uzatish spektrlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Kramers-Kronig munosabati aks ettirish spektrlarini tahlil qilish va ularni uzatish ma’lumotlari bilan o‘zaro bog‘lash uchun ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stuart B. Infraqizil spektroskopiya: asoslari va qo‘llanilishi, 2004, John Wiley & Sons, Ltd
2. Spektroskopiya qo‘llanmasi. G. Gauglitz va T. Vo-Dinh tomonidan tahrirlangan, 2003, WILEY-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA, Weinheim
3. Tarasevich B.N. Organik birikmalarning asosiy sinflarining IQ spektrlari.
4. Ma’lumotnoma materiallari. Moskva, 2012
5. Prech E., Bühlmann F., Affolter K. Organik birikmalarning tuzilishini aniqlash, “Mir” nashriyoti, “BINOM bilim laboratoriyasi”, M., 2006;
6. Bellamy L. Murakkab molekulalarning infraqizil spektrlari, IL, M., 1963;
7. Bellamy L. Murakkab molekulalarning IQ spektrlari bo‘yicha yangi ma’lumotlar, Mir nashriyoti, Moskva, 1971 yil.
8. Jeyms M. Tompson. Infraqizil spektroskopiya. 2018 Pan Stanford Publishing Pte. Ltd.
9. Coates J. Infraqizil spektrlarning talqini, amaliy yondashuv Analitik kimyo ensiklopediyasi R. A. Meyers (tahr.) Mualliflik huquqi John Wiley & Sons Ltd ga tegishli.
10. Nakamoto K. Noorganik va koordinatsion birikmalarning infraqizil spektrlari. Moskva. 1991 yil
11. Grigoriev A.I. Noorganik birikmalarning tebranish spektroskopiyasiga kirish. Moskva. 1977.
12. Fermro JR Noorganik infraqizil spektroskopiya Kimyoviy ta’lim bo‘yicha sayohat 1961, 38-jild, 4-son, 201-208-betlar.
13. Efimova A.I., Golovan L.A., Kashkarov P.K., Senyavin V.M., Timoshenko V.Yu. Past

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

o‘lchamli tizimlarning infraqizil spektroskopiyasi: Qo‘llanma. — Sankt-Peterburg: Lan nashriyoti, 2016.— 246 bet.

14. Landsberg G.S. Optika. Darslik: Universitetlar uchun. 6-nashr, stereotiplar. Moskva: FIZMATLIT, 2003. 848 b.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

QISHLOQ XO‘JALIGINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: TEXNOLOGIYALAR AGRAR IQTISODIYOTNI QANDAY O‘ZGARTIRMOQDA

Davronova Feruza Rahmonovna
siyosatshunoslik yo‘nalishi
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: feruzadavronova29@gmail.com

Olimova Mehrangiz Feruzovna
iqtisodiyot fakulteti
iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute
(Milliy tadqiqot universiteti)
E-mail: mehrangiz08mira@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tizimli tahlil qilinadi. Xususan, yuqori sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda resurslar yetishmovchiligi, jumladan suv taqchilligi, zamonaviy texnologiyalar va moliyaviy resurslarning cheklanganligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotda ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiruvchi omillar chuqur tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi.*

Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yechimlardan foydalanish va resurslarni tejovchi usullarni qo‘llashning samaradorligi asoslab beriladi. Agrar sektorni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari, jumladan raqamlashtirish jarayonlari va aqlli qishloq xo‘jaligi konsepsiyalari alohida tahlil qilinadi.

Maqolada agrar tarmoqni barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning amaliyotga joriy etish imkoniyatlari mavjud iqtisodiy va ekologik sharoitlar doirasida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, agrar iqtisodiyot, resurslarni tejash, samaradorlik, moliyaviy resurslar.*

DIGITAL TRANSFORMATION OF AGRICULTURE: HOW TECHNOLOGIES ARE RESHAPING THE AGRARIAN ECONOMY

Davronova Feruza Rakhmonovna
Doctor of Philosophy (PhD)
in Political Science
Uzbekistan State World
Languages University
E-mail: feruzadavronova29@gmail.com

Olimova Mehrangiz Feruzovna
1st-year student Faculty of Economics
Major in Economics
Tashkent Institute of
Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers
(National Research University)
E-mail: mehrangiz08mira@gmail.com

Abstract. *This article provides a systematic analysis of the key challenges currently faced by the agricultural sector. In particular, it highlights the critical issue of resource scarcity in achieving high-quality agricultural production, including water shortages, limited access to modern technologies, and insufficient financial resources. The study identifies and examines the main factors constraining production efficiency and proposes scientifically grounded approaches to overcoming them.*

Furthermore, the paper explores the role of digital technologies and innovative solutions in enhancing agricultural productivity, drawing on both national (Uzbekistan) and international experience. Special attention is given to modern approaches in agrarian sector management, including digitalization processes, smart agriculture concepts, and the application of resource-efficient methods.

The study also develops a set of practical and research-based recommendations aimed at ensuring sustainable development of the agricultural sector. The feasibility of implementing these proposals is assessed in the context of current economic and environmental conditions.

Keywords: *digitalization, innovative technologies, agrarian economy, resource efficiency, productivity, financial resources.*

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА: КАК ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ АГРАРНУЮ ЭКОНОМИКУ

Давронова Феруза Рахмоновна
доктор философии в области политологии
Узбекского Государственного университета мировых языков
E-mail: feruzadavronova29@gmail.com

Олимова Мехрангиз Ферузовна
студент 1-курса факультет-Экономика,
направление-Экономика, Национальный
исследовательский университет
Ташкентский институт инженеров ирригации и
механизации сельского хозяйства
E-mail: mehrangiz08mira@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются актуальные проблемы, возникающие в сфере агрокультуры, в частности вопросы, связанные с нехваткой ресурсов для получения высококачественной сельскохозяйственной продукции. Анализируются основные факторы, ограничивающие эффективность производства, включая дефицит воды, современных технологий и финансовых средств.*

Особое внимание уделяется внедрению инновационных технологий, направленных на повышение продуктивности сельского хозяйства как в Узбекистане, так и за рубежом. Рассматриваются современные подходы к управлению аграрным сектором, цифровизация сельского хозяйства и использование ресурсосберегающих методов.

В работе также предлагаются новые идеи по развитию аграрной отрасли и предпринимается попытка обоснования их практической реализации с учетом текущих экономических и экологических условий.

Ключевые слова: *сбережение, новые технологии, идеи, сельские хозяйства, финансовые средства, реализация.*

Введение

Сельское хозяйство является основным источником продовольствия, а также важнейшим поставщиком сырья для многих отраслей промышленности, включая льноводство и другие прядильные культуры, пушное звероводство, овцеводство,

козоводство и коневодство. Кроме того, сельское хозяйство выступает значимым источником доходов для значительной части населения, обеспечивая занятость около 44% рабочей силы страны и формируя порядка 17,6% валового внутреннего продукта. Сельскохозяйственные предприятия и хозяйства служат основным местом трудовой деятельности производителей по всей территории страны. [3]

При эффективном функционировании сельского хозяйства создаются дополнительные рабочие места в смежных отраслях экономики. Так, занятость одного работника в сельском хозяйстве обеспечивает занятость в среднем семи работников в других секторах, включая производство средств производства, обслуживание, переработку и реализацию сельскохозяйственной продукции. Таким образом, сельское хозяйство выступает мультипликатором экономической активности и оказывает значительное влияние на развитие национальной экономики в целом.

Обзор литературы

Одним из ключевых условий устойчивого развития сельского хозяйства является учет его специфических особенностей. Результаты сельскохозяйственного производства во многом зависят от природно-климатических факторов, которые характеризуются изменчивостью и непредсказуемостью. В связи с этим возникает необходимость формирования резервных фондов (в частности, кормов и семян), разработки эффективной системы страхования, а также обеспечения государственной поддержки отрасли.

Рассмотрим основные особенности сельского хозяйства:

- Использование земли в качестве основного средства производства.
- Зависимость от природной среды (тип почвы, климатические условия, микроорганизмы, природная растительность и др.).
- Сезонный характер производства и использования трудовых ресурсов.
- Пространственная рассредоточенность производства, значительный объем и скоропортящийся характер продукции.
- Высокая зависимость от рынка средств производства и уровня цен на них. [1]

Сельское хозяйство также характеризуется специфическими особенностями разделения труда и специализации. Условия сельскохозяйственного производства требуют рационального сочетания различных отраслей для эффективного распределения ресурсов, обеспечения стабильности доходов, совместного использования побочной продукции растениеводства и животноводства, повышения производительности труда и минимизации рисков, связанных с узкой специализацией. Производители, учитывающие данные особенности, как правило, достигают более высокой эффективности производства.

Государственная политика поддержки сельского хозяйства, включающая механизмы залога продукции, товарного кредитования, систему дотаций и компенсаций, а также налоговые льготы, разрабатывается с учетом отраслевой специфики. Дополнительно следует отметить, что усиление институциональной поддержки и развитие механизмов государственно-частного партнерства являются важными условиями модернизации отрасли.

Согласно данным Всемирного банка, добавленная стоимость на одного занятого в сельском хозяйстве в Узбекистане в 4,4 раза превышает средний мировой показатель, что свидетельствует о повышении эффективности и продуктивности аграрного сектора. [2]

Несмотря на активный рост численности населения, производство основных видов сельскохозяйственной и продовольственной продукции в расчете на душу населения стабильно увеличивается:

Зерновые культуры – 238,2 кг (+7,6% за 5 лет)
Картофель – 100,0 кг (+8,7%)
Овощи – 322,7 кг (+6,1%)
Фрукты и ягоды – 88,0 кг (+7,4%)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Виноград – 49,1 кг (+2,9%)
Бахчевые культуры – 72,2 кг (+17,2%)
Мясо – 79,2 кг (+7,5%)
Молоко – 334,8 кг (+4,9%)
Яйца – 236,9 шт. (+2,4%).

Рост этих показателей свидетельствует о динамичном развитии отрасли и успешном обеспечении продовольственной безопасности. [5]

Методология исследования

В настоящее время сельское хозяйство выходит за рамки традиционного земледелия, трансформируясь в сложную и многофункциональную агроиндустрию. Современные технологии и инновационные подходы позволяют более эффективно использовать ресурсы, способствуя не только росту урожайности, но и обеспечению устойчивого экономического развития.

Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по внедрению современной организационной системы и финансовой поддержке деятельности владельцев приусадебных земель и дехканских хозяйств» от 14 февраля 2025 года стал важной правовой основой для дальнейшего развития данной сферы и вывода проводимых реформ на качественно новый уровень. Данный нормативный акт также направлен на повышение эффективности использования земельных ресурсов и усиление роли малых форм хозяйствования в аграрной экономике.

В этой связи целесообразно рассмотреть технологии, которые полностью или частично внедрены в агропромышленном комплексе Узбекистана:

1. Капельное орошение

Капельное орошение является одной из ключевых технологий, активно внедряемых в Узбекистане с 2018–2019 годов, особенно в условиях дефицита водных ресурсов. Технология широко применяется в хлопководстве, садоводстве и овощеводстве, преимущественно в засушливых регионах страны. Основное её преимущество заключается в точечной подаче воды непосредственно к корневой системе растений, что существенно снижает потери влаги. Практика показывает, что использование данной технологии позволяет сократить расход воды на 40–60% и повысить урожайность на 20–50%. Благодаря государственной поддержке и системе субсидирования, технология получила широкое распространение и признана одной из наиболее эффективных.

2. Современная сельскохозяйственная техника и механизация

С 2017 года в Узбекистане осуществляется активная модернизация сельскохозяйственной техники. Внедрение современных тракторов, комбайнов, сеялок, а также техники с элементами GPS-навигации позволило значительно повысить эффективность обработки земель и сократить трудозатраты. Данные технологии широко используются в крупных фермерских хозяйствах. Вместе с тем ограниченный доступ к технике для малых хозяйств вследствие высокой стоимости остаётся сдерживающим фактором.

3. Лазерное выравнивание земель

С 2018 года активно применяется технология лазерного выравнивания земель, обеспечивающая высокую точность обработки поверхности почвы. Это способствует равномерному распределению воды при орошении, снижению её потерь на 20–30% и повышению урожайности. Данная технология зарекомендовала себя как эффективное и экономически оправданное решение.

4. Тепличные технологии

Сектор тепличного хозяйства получил значительное развитие в период 2016–2020 годов. В теплицах применяются технологии автоматического контроля микроклимата, капельного полива и частично гидропоники. Это позволяет обеспечить круглогодичное

производство сельскохозяйственной продукции и способствует росту экспортного потенциала страны.

5. Спутниковый мониторинг и геоинформационные системы (GIS)

С 2020 года в аграрном секторе внедряются технологии дистанционного зондирования и геоинформационные системы, применяемые для мониторинга состояния посевов, оценки влажности почвы и контроля использования земель. Несмотря на значительный потенциал, данные технологии пока находятся на стадии развития и используются преимущественно в крупных проектах.

Вместе с тем следует отметить технологии, внедрение которых не принесло ожидаемых результатов:

1. Массовая агроцифровизация (AgTech-платформы)

Несмотря на предпринимаемые усилия по цифровизации сельского хозяйства, включая внедрение онлайн-платформ управления фермерскими хозяйствами, их широкое распространение ограничено. Основными причинами являются низкий уровень цифровой грамотности фермеров, недостаточное развитие инфраструктуры связи в сельской местности и сложность используемых решений.

2. Использование дронов в сельском хозяйстве

Технологии применения беспилотных летательных аппаратов начали внедряться в 2021–2022 годах, однако их распространение остаётся ограниченным. Среди причин — высокая стоимость оборудования, дефицит квалифицированных специалистов и наличие регуляторных барьеров. [4]

Анализ и результаты

Таким образом, наблюдается чёткая граница в уровне внедрения технологий в агропромышленный комплекс, обусловленная рядом объективных факторов. Одной из ключевых проблем является недостаток квалифицированных специалистов. Выпускники профильных образовательных учреждений зачастую не обладают достаточными практическими навыками и не видят возможностей для профессионального развития в данной сфере.

В этой связи представляется целесообразным совершенствование системы подготовки кадров, предусматривающее не только обучение базовым профессиональным компетенциям, но и развитие дополнительных навыков, необходимых для работы с современными технологиями. К таким навыкам можно отнести цифровую грамотность, управление агротехнологическими процессами и основы анализа данных.

Кроме того, важным направлением является повышение квалификации уже действующих работников, включая организацию программ обучения с компенсацией возможных потерь дохода в период их отсутствия на рабочем месте. Введение механизмов стимулирования непрерывного образования может существенно ускорить процесс внедрения инноваций.

Привлечение иностранных специалистов также может способствовать повышению уровня внедрения современных технологий, однако данный подход сопряжён с риском сокращения рабочих мест для местного населения. В связи с этим необходимо обеспечивать баланс между привлечением внешней экспертизы и развитием национального кадрового потенциала. Оптимальным решением может стать организация программ совместной подготовки кадров с участием иностранных экспертов.

Заключение

Проведённый анализ показывает, что сельское хозяйство Узбекистана находится на этапе глубокой структурной трансформации, переходя к модели инновационного и ресурсосберегающего развития. Отрасль продолжает играть ключевую роль в обеспечении

продовольственной безопасности, занятости населения и экономической устойчивости страны, одновременно выступая драйвером развития смежных отраслей.

Внедрение современных агротехнологий, таких как капельное орошение, механизация, тепличное производство и элементы цифрового мониторинга, уже доказало свою эффективность, обеспечив рост производительности и более рациональное использование ресурсов. Однако достигнутые результаты остаются неравномерными, а потенциал технологической модернизации реализован лишь частично.

Ключевым ограничением дальнейшего развития выступает не столько недостаток технологий, сколько институциональные и кадровые барьеры: дефицит квалифицированных специалистов, ограниченный доступ малых хозяйств к инновациям, а также недостаточный уровень цифровой и инфраструктурной обеспеченности сельских территорий. Это подтверждает, что технологическое развитие аграрного сектора невозможно без системной модернизации человеческого капитала.

Особую значимость приобретает необходимость перехода от фрагментарного внедрения технологий к комплексной модели аграрного развития, основанной на интеграции образования, науки и производства. Приоритетом должно стать формирование новой категории специалистов — агроинженеров и агроменеджеров, способных работать на стыке технологий, экономики и управления.

Кроме того, стратегически важным направлением является создание адаптированной цифровой среды для фермеров, развитие агротехнологических кластеров и внедрение механизмов стимулирования непрерывного профессионального обучения.

Таким образом, устойчивое развитие сельского хозяйства Узбекистана возможно лишь при условии синхронного развития технологий, кадрового потенциала и институциональной среды, что позволит не только повысить эффективность отрасли, но и обеспечить её долгосрочную конкурентоспособность в условиях глобальных экономических и климатических вызовов.

Литературы

1. Экономика сельского хозяйства под редакцией профессора Г. А. Петраневой
2. Как «зеленое» развитие будет способствовать развитию сельского хозяйства и водопользованию в Узбекистане (UNDP)
https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/how-green-development-will-support-agriculture-and-water-use-uzbekistan
3. Статья: «Умное земледелие» в Узбекистане от FAO of the United Nations (информация берется с точки изучения) https://www.fao.org/newsroom/story/smart-farming-in-uzbekistan/ru
4. Научная статья от А.Хамидов А. Акрамханов М.Хамидов У.Юраев Ш.Абдулкосимова К.Хельминг в Международном журнале развития водных ресурсов “Технологические и политические проблемы внедрения водосберегающих ирригационных технологий: пример Узбекистана” (информация берется с результатов исследования)
https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/07900627.2025.2612485
5. Исследование от Министерства Сельского хозяйства Республики Узбекистан https://gov.uz/ru/agro/news/view/42043

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

SUG‘URTA KOMPANIYALARIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li



Sug‘urta ishi kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: sanjarbekqilichev19@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6085-1462

Annotatsiya. *Maqolada sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning amalda qo‘llaniladigan usullari tahlil etilgan. Muallif tomonidan sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini oshirish uchun samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan takliflar berilgan. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatlari, risklarni boshqarish usullari, diversifikatsiya va resurslarni oqilona taqsimlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy metodologiyalar asosida olingan natijalar va ularning sug‘urta kompaniyalarining iqtisodiy samaradorligiga ta’siri tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *sug‘urta kompaniyalari, investitsiya, investitsion faoliyat, samaradorlik, risklarni boshqarish, diversifikatsiya.*

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТРАХОВЫХ КОМПАНИЯХ

Киличев Санжарбек Жавлонбек угли

независимый научный сотрудник
Ташкентского государственного
экономического университета
кафедра страхового дела
E-mail: sanjarbekqilichev19@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6085-1462

Аннотация. *В статье проанализированы практические методы повышения эффективности инвестиционной деятельности страховых компаний. Автором предложены рекомендации, направленные на улучшение показателей эффективности инвестиционной деятельности страховых организаций. Рассмотрены вопросы инвестиционной деятельности страховых компаний, методы управления рисками, диверсификация и рациональное распределение ресурсов. Также в статье анализируются результаты, полученные на основе современных методологий, и их влияние на экономическую эффективность страховых компаний.*

Ключевые слова: *страховые компании, инвестиции, инвестиционная деятельность, эффективность, управление рисками, диверсификация.*

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF INVESTMENT ACTIVITY IN INSURANCE COMPANIES

Qilichev Sanjarbek Javlonbek ogli

Independent researcher of
Tashkent State University of Economics
Department of Insurance
E-mail: sanjarbekqilichev19@gmail.com
ORCID: 0009-0000-6085-1462

Abstract. *The article analyzes practical approaches to improving the efficiency of investment activities in insurance companies. The author proposes recommendations aimed at enhancing the performance indicators of investment activities of insurance organizations. The study examines investment activities of insurance companies, risk management methods, diversification, and rational allocation of resources. In addition, the article analyzes the results obtained based on modern methodologies and their impact on the economic efficiency of insurance companies.*

Keywords: *insurance companies, investment, investment activity, efficiency, risk management, diversification.*

Kirish

Bugungi kunda sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirishda, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, aktivlarni samarali boshqarish, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish hamda yuqori daromadlilikka ega bo‘lgan moliyaviy instrumentlarga yo‘naltirish jarayonlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalari faoliyatida risklarni kamaytirish va majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish imkonini beruvchi investitsion siyosatni shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada investitsiyalarning iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini kompleks baholagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada quyidagicha ta’kidlangan: “...Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi”.

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Sug‘urta mukofotlari hisobidan shakllangan vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larni samarali joylashtirish orqali kompaniyalar nafaqat qo‘shimcha daromad oladi, balki o‘zining moliyaviy barqarorligini ham mustahkamlaydi. Biroq, zamonaviy moliya bozorlarida resurslarning yuqori darajada harakatchanligi va risklarning ortib borishi sharoitida investitsion faoliyatni samarali tashkil etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu sababli sug‘urta kompaniyalarining iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblangan investitsion faoliyat samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash va takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, E. Cummins va D. Sommer tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Ularning fikricha, sug‘urta kompaniyalari aktivlarini samarali boshqarish orqali nafaqat daromadlilikni oshiradi, balki risklarni minimallashtirishga ham erishadi [1].

Investitsion faoliyat samaradorligi – bu investitsiya resurslaridan foydalanish natijasida erishilgan iqtisodiy natijalar va sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ushbu tushuncha investitsion qarorlarning asoslanganligi, risk darajasi va daromadlilik ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liqdir [2].

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini baholashda bir qator muhim ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratiladi. Xususan, sof diskontlangan daromad (NPV), ichki rentabellik normasi (IRR), investitsiya rentabelligi va qoplash muddati kabi ko‘rsatkichlar investitsion loyihalarning samaradorligini aniqlashda asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi [3].

Shuningdek, B. Skipper va W. Kwon tadqiqotlarida sug‘urta kompaniyalarida investitsion portfelni diversifikatsiya qilish risklarni boshqarishning muhim usuli sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ularning ta’kidlashicha, aktivlarni turli moliyaviy instrumentlarga taqsimlash orqali kompaniyalar bozor tebranishlariga nisbatan barqarorlikni ta’minlay oladi [4].

Mahalliy olimlardan A. Vahobov va Sh. Xudoyberdiyevlarning ilmiy ishlarida sug‘urta bozorining rivojlanishi, investitsion faoliyatni kengaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Ular tomonidan sug‘urta kompaniyalarining investitsion salohiyatini oshirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati alohida ta’kidlangan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usullaridan foydalanish orqali sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar asoslandi. Tadqiqot usullarining induksiya va deduksiya usullaridan foydalanish orqali sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar guruhlandi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Ilmiy abstraksiya usulidan foydalanish orqali sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida moliyaviy bozorlarni rivojlantirish va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu strategiyada sug‘urta bozorini rivojlantirish, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ularning investitsion faoliyatini kengaytirish orqali iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni shakllantirish imkonini beradi:

- sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan qulay investitsion muhitni shakllantirish;
- investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish orqali risklarni minimallashtirish;
- sug‘urta zaxiralari va vaqtinchalik bo‘sh mablag‘lardan samarali foydalanish;
- investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish;
- investitsiya risklarini baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish.

Quyidagi 1-jadvalda sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatida mablag‘larni joylashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlil qilingan.

1-jadval.

Sug‘urta kompaniyalarida investitsiya portfeli tarkibi va mablag‘lar taqsimoti ko‘rsatkichlari* (*mlrd. so‘m*)

Aktiv sinfi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Bank depozitlari	2 896,6	4 037,4	4 583,8	6 048,0
Korporativ obligatsiyalar	1 287,9	1 357,5	1 303,8	1 440,0
Korporativ aksiyalar	118,2	134,7	98,5	384,0
Ko‘chmas mulk	358,9	539,5	452,7	96,0
Alternativ investitsiyalar	29,3	34,0	8,4	1 632,0
Boshqa (shu jumladan kreditlar)	60,8	46,9	95,4	–
Jami	**4 751,7**	**6 149,9**	**6 542,6**	**9 600,0**

*O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisobotlari asosida tayyorlandi.

1-jadvalga ko‘ra, O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining 2022-2025 yillardagi investitsion portfel tarkibi asosiy aktiv turlar bo‘yicha ko‘rib chiqildi. Rasmiy manbalarga ko‘ra, sug‘urta tashkilotlarining portfeli asosan bank depozitlariga (omonatlar) yo‘naltirilgan: ulush 2022 yilda 61,0% dan 2024 yilda 70,1% ga ko‘tarilgan, 2025 yilda esa taxminan 63,0% ga pasaygan (jadvaldagi ma’lumot). Ikkinchi yirik aktiv – qimmatli

qog‘ozlar (taxminan korporativ obligatsiyalar) – portfelning 2022 yilda 27,1%, 2024 yilda 19,9% qismini tashkil etgan va so‘nggi yillarda kamayish sur’atiga ega. Ko‘chmas mulk ulushi 2022 yilda 7,6% bo‘lsa, keyingi yillarda qisqarib, 2025 yilda faqat ~1,0% ni tashkil qilmoqda. Rasmiy ma’lumotlarda aksiyalar bo‘yicha alohida ko‘rsatkich yo‘qligi sababli ularni portfel tarkibiga kiritib ko‘rsatilganda ham nisbatan kichik ulush (2025 da ~4%) bilan minimal ekani ma’lum bo‘ladi. 2024 yilda “boshqa investitsiyalar” (ya’ni ishlatilgan kreditlar) qariyb 1,5% ni, 2025 yilda esa muqobil (masalan, xususiy kapital/infratuzilma) investitsiyalar katta 17% ulushni (jadvalda “Alternativ investitsiyalar”) egallagan. Aksiyalarga va ko‘chmas mulkka bog‘lanish kichikligicha qolmoqda, naqd pul va ekvivalentlar bo‘yicha rasmiy ko‘rsatkich berilmagan.

2022-2025 yillarda sug‘urta kompaniyalarining jami daromadlari va investitsion daromadlari tahlil qilindi. Rasmiy manbalarga ko‘ra, 2022 yilda jami daromad (so‘mda sug‘urta majburiyatlari) taxminan 2 074 mlrd so‘m, 2023 yilda esa 2 325 mlrd so‘m bo‘lgan. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion portfeli yildan-yilga oshib, 2022 yilda ~4 752 mlrd so‘m, 2023 yilda ~6 150 mlrd so‘m (Jami investitsiyalar)ni tashkil etdi, 2024 va 2025 yillar uchun esa mos ravishda taxminan 6 543 mlrd va 9 600 mlrd so‘m bo‘lishi mumkin.

2-jadval.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy natijalari va investitsion daromadlari tahlili*

Ko‘rsatkich	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Jami daromad (mlrd. so‘m)	2 074,0	2 325,5	2 675,0	3 080,0
Investitsion daromad (mlrd. so‘m)	301,4	398,2	4460,7	650,0
Investitsion daromad (%)	14,5%	17,2%	16,8%	21,1%
Sof foyda (mlrd. so‘m)	-	-	-	-
Jami investitsion portfel (mlrd. so‘m)	4 751,7	6 149,9	6 542,6	9 600,0

*O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisobotlari asosida tayyorlandi.

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalarining jami daromadlari yillar kesimida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi kuzatiladi. Bu esa sug‘urta bozorining rivojlanib borayotgani, sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab ortib borayotgani hamda kompaniyalar faoliyatining kengayayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, daromadlarning tarkibiy qismida investitsion daromadlarning ulushi ham sezilarli o‘rinni egallaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, investitsion daromadlar sug‘urta kompaniyalari umumiy daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ayrim yillarda ushbu ko‘rsatkichning oshib borishi investitsiya portfelining samarali boshqarilayotganini, moliyaviy instrumentlardan to‘g‘ri foydalanilayotganini ko‘rsatadi. Xususan, davlat qimmatli qog‘ozlari, bank depozitlari va korporativ obligatsiyalar kabi nisbatan barqaror va kam riskli instrumentlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar kompaniyalar uchun barqaror daromad manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, sug‘urta faoliyatidan olinayotgan daromadlar ham umumiy moliyaviy natijalarning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta xizmatlari sifati hamda mijozlar bazasining kengayishi bilan bevosita bog‘liqdir. Agar sug‘urta faoliyatidan olinadigan daromadlar barqaror o‘sib borsa, bu kompaniyaning asosiy faoliyati samarali tashkil etilganligini anglatadi.

Sof foyda ko‘rsatkichlari esa sug‘urta kompaniyalarining yakuniy moliyaviy natijasini ifodalaydi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, sof foydaning o‘sishi daromadlar hajmining oshishi va xarajatlarning samarali boshqarilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, investitsion faoliyatdan olinadigan daromadlarning ortishi ham sof foyda ko‘rsatkichining ijobiy dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Investitsion daromadlarning umumiy daromadlardagi ulushini aniqlash hisoblanadi. Ushbu ulushning ortib borishi sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatga tobora ko‘proq e’tibor qaratayotganini bildiradi. Bu esa o‘z navbatida kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq investitsion daromadlar ulushining

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

haddan tashqari oshib ketishi ham ma’lum risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki moliya bozorlaridagi beqarorlik investitsion daromadlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

Xulosa

Sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, daromadlilik darajasini oshirish hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Investitsion faoliyat samaradorligi sug‘urta kompaniyalarining vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larini qay darajada oqilona va samarali joylashtirishi bilan belgilanadi hamda investitsion daromadlar orqali baholanadi.

Sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- sug‘urta kompaniyalarining investitsiya portfeli tarkibida diversifikatsiya darajasi yetarli emasligi sababli risklar yuqori darajada saqlanib qolmoqda;
- investitsion faoliyatdan olinadigan daromadlar ayrim hollarda barqaror emasligi, moliya bozorlaridagi o‘zgarishlarga yuqori darajada bog‘liqligi bilan izohlanadi;
- sug‘urta kompaniyalarining investitsiya instrumentlari doirasi cheklangan bo‘lib, bu ularning investitsion salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini bermaydi;
- zamonaviy moliyaviy instrumentlar va innovatsion investitsiya vositalaridan foydalanish darajasi yetarli darajada rivojlanmagan;
- investitsion faoliyatni boshqarishda risk-menejment tizimlari barcha kompaniyalarda ham yetarli darajada samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- investitsiya portfelini keng diversifikatsiya qilish orqali risk va daromadlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash;
- yuqori daromadli va ishonchli moliyaviy instrumentlardan foydalanishni kengaytirish;
- investitsion faoliyatni boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish;
- sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.

Umuman olganda, sug‘urta kompaniyalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish nafaqat ularning moliyaviy natijalariga, balki mamlakat iqtisodiyotida investitsion faollikni oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuvni qo‘llash va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cummins J.D., Weiss M.A. Systemic Risk and the U.S. Insurance Sector. Journal of Risk and Insurance, 2014.
На основе статистических данных Агентства статистики Республики Узбекистан, Министерства экономики и финансов, Налогового комитета и Центрального банка Республики Узбекистан была проведена оценка состояния теневой экономики. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по снижению масштабов теневой экономики и минимизации её негативных последствий.

Ключевые слова*: теневая экономика, экономическая безопасность, неформальный сектор, налоговая политика, институциональная экономика, экономика Узбекистана.*

Кириш.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида “Ҳалол меҳнат – хотиржам ҳаёт ва фаровон жамият гарови”, деган шиор асосида яширин иқтисодиётга қарши курашиш борасида ишларни умуммиллий ҳаракатга айлантириш, шунингдек, келгуси беш йилда яширин иқтисодиёт улуши 2 карра қисқартириш; савдо ва сервис соҳаларида нақд пулсиз тўловлар улуши 75 фоиздан ошириш; расмий секторда банд бўлган аҳоли сони ҳозирги 8,5 миллиондан 14 миллионга етказиш каби улкан марраларни белгилаб берди [3].

Дарҳақиқат, яширин иқтисодиёт мамлакат иқтисодиёти ва тараққиётига бевосита таъсир кўрсатиб, унинг оқибатида мамлакат ижтимоий ҳаётига, иқтисодий барқарорлигига шунингдек, инвестицион жозибадорлигига салбий таъсир кўрсатади.

Яширин иқтисодиёт давлат бюджети даромадларини камайтиради, иқтисодий сиёсат самарадорлигини пасайтиради ва иқтисодий хавфсизликка таҳдид солади. Шунингдек, норасмий сектор иш ўринларини камайтиради, ижтимоий тенгликка салбий таъсир кўрсатади, инвестиция муҳитини пасайтиради.

Мамлакатимизда яширин иқтисодиётни жиловлаш борасида бир қатор ислоҳотлар олиб борилаётганлигига қарамасдан, мамлакат ялпи ички маҳсулотининг чоракдан юқори қисмини ташкил этаётганлиги ташвишли ҳолат.

Шу нуқтаи назардан, ушбу тадқиқотда яширин иқтисодиётга сабаб бўлувчи омиллар, уларнинг оқибатлари ҳамда бартараф этиш йўналишлари таҳлил қилинади.

Адабиётлар таҳлили.

Яширин иқтисодиёт замонавий иқтисодиётнинг муҳим муаммоларидан бири ҳисобланади. Ф. Шнайдернинг таъкидлашича, яширин иқтисодиёт барча мамлакатларда мавжуд бўлиб, унинг улуши давлат институтлари самарадорлигига боғлиқ. Шунингдек, олим яширин иқтисодиётни давлат назоратидан ташқари амалда ошириладиган иқтисодий фаолият деб таърифлайди ва унинг улуши мамлакатнинг институтлар сифатидан қатъий назар шаклланишида намоён бўлишини баён этади [4].

Италиялик иқтисодчи Вито Танзи норасмий иқтисодиётнинг асосий сабаблари юқори солиқ юки ва давлатнинг назорат механизмларидаги заифликлар деб келтирган. Шунингдек олим яширин иқтисодиётнинг шаклланиш омилларини тўрт гуруҳга, яъни солиқлар, тартиблаштириш (регуляция), тақиқлар ва коррупцияга бўлади ва улар ноқонуний бойишни келтириб чиқаришини таъкидлайди. Шу билан бирга яширин иқтисодиёт мавжудлиги жиддий оқибатларга олиб келиши мумкинлиги тадқиқ қилиниб, бунда асосий оқибатлар сифатида ижтимоий тенгсизлик юзага келиши, бозор тизими ва рақобати, солиқ тизими бузилиши, хорижий тўғридан-тўғри инвестицияларни камайиши каби муҳим иқтисодий кўрсаткичлар келтирилган [5].

Бошқа тадқиқотчи олим Эрнандо де Сото яширин иқтисодиётни институционал муҳит билан боғлиқ муаммо сифатида баҳолаган [6]. Дуглас Норт институционал иқтисодиёт назариясида институтлар иқтисодий ривожланишнинг асосий омили эканлигини таъкидлаган [7].

МДҲ давлатлари олимлари томонидан яширин иқтисодиёт ҳажмини ҳисоблашга амалий ёндашувлар, кўплаб тажрибалар ўтказилган. Хусусан, Б.Т. Рябушкин, Э.Ю. Чурилов, И.И. Елисеева, А.Н. Ширин, А.Е. Суринов, Н.Ч. Бокун каби олимлар тамонидан бир қатор фундаментал илмий манбалар шакллантирилган [8].

Шу билан бирга, маҳаллий олимларнинг фикрлари яширин иқтисодиётнинг табиати ва оқибатларини тушунишда муҳим аҳамиятга эга.

Хусусан, А. Ваҳобов яширин иқтисодиётнинг улушининг ошиб бориши давлат бюджети даромадларига салбий таъсир кўрсатишини таъкидлайди [9].

Иқтисодчи Б. Ходиев норасмий секторнинг ижтимоий тенглик ва иш ўринларига таъсири ҳақида фикр билдирган [10]. Ш. Шодмонов эса иқтисодий сиёсатнинг самарадорлигини ошириш учун норасмий иқтисодиётни камайтириш чораларини ишлаб чиқиш лозимлигини қайд этади [11].

Шу тадқиқотлардан аён бўладики, яширин иқтисодиётни камайтириш давлатнинг институционал ва солиқ сиёсати билан чамбарчас боғлиқликдир.

Тадқиқот методологияси.

Мазкур мақолада яширин иқтисодиёт ҳажми ҳамда унинг иқтисодиётга таъсири, ижтимоий ва иқтисодий оқибатлари таҳлилини амалга оширишда статистик таҳлил, таққослама таҳлил, қиёслаш, илмий абстракциялаш, тизимли таҳлил, анализ, синтез каби тадқиқот усулларидан фойдаланилган. Хусусан, статистик таҳлил асосида Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси, Солиқ қўмитаси ва Марказий банки маълумотлари асосида яширин иқтисодиётнинг улуши ҳамда иқтисодиётга таъсири таҳлил қилинди. Таққослаш усули Ўзбекистон ва хорижий давлатлар мисолида иытисодий тенденциялар солиштириб тадқиқ қилинишида қўлланилди. Тизимли таҳлил ёрдамида яширин иқтисодиётнинг иқтисодий хавфсизликка таъсирини аниқлаш учун иқтисодий ва ижтимоий кўрсаткичлар таҳлил қилинди. Шунингдек, иқтисодий хавфсизликка таъсири баҳоланди.

Таҳлил ва натижалар.

Яширин иқтисодиёт замонавий иқтисодий тизимларда жиддий муаммолардан бири ҳисобланиб, унинг иқтисодий хавфсизликка таъсири долзарб илмий ва амалий аҳамиятга эга. Иқтисодиёт назарияси нуқтаи назаридан қаралганда, яширин иқтисодиёт давлат бюджетига тушумларнинг камайишига, солиқ базасининг қисқаришига ва молиявий барқарорликнинг издан чиқишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида давлатнинг стратегик соҳаларни молиялаштириш имкониятларини чеклаб, миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига хавф туғдиради.

Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилотининг “Кузатилмайдиган иқтисодиётни баҳолаш бўйича қўлланма”сига асосан “кузатилмайдиган иқтисодиёт” тушунчаси доимий статистик кузатувларда тўлиқ ёки қисман қамраб олинмаган, шунингдек, статистик кўрсаткичларда акс эттиришда билвосита усуллар орқали баҳоланадиган иқтисодий фаолият сифатида таърифланади[79]. Ўз навбатида, кузатилмайдиган иқтисодиёт норасмий, яширин ва ноқонуний иқтисодий фаолият турлари бўйича гуруҳларга ажратилади.

Ўзбекистонда кузатилмайдиган иқтисодиёт таркибида норасмий ҳамда яширин

[79] Измерение ненаблюдаемой экономики: Руководство. Организация экономического сотрудничества и развития, 2002.

иқтисодиёт кўлами ўлчаниб борилади.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида жами норасмий ва яширин иқтисодиёт ҳажми ҳамда ЯИМ (ЯҲМ)даги улуши*

Т/р	Тармоқ номи	2021 йил		2022 йил		2023 йил		2024 йил		2025 йил	
		ҳажми *(трлн сўм)*	улуши *%*	ҳажми *(трлн сўм)*	улуши *%*	ҳажми *(трлн сўм)*	улуши *%*	ҳажми *(трлн сўм)*	улуши *%*	ҳажми *(трлн сўм)*	улуши *%*
Жами яширин ва норасмий иқтисодиёт		**306,4**	**37,3**	**348,8**	**35,0**	**418,9**	**34,8**	**505,7**	**34,8**	**498**	**26,9**
1.	Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги	118,9	65,4	129,9	62,2	152,7	62,9	169,5	63,6	191,7	62,6
2.	Саноат	23,4	11,6	22,2	9,2	26,2	9,1	32,7	8,9	44,4	5,9
3.	Хизматлар	136,6	42,6	167,0	40,4	205,4	38,8	263,4	40,1	30,3	26,9
4.	Қурилиш	27,5	43,3	29,8	40,6	34,6	41,0	40,0	41,3	231,6	16,3

**Муаллиф ишланмаси.*


Жадвал маълумотларидан кўришимиз мумкинки, мамлакатимизда кузатилмайдиган (яширин ва норасмий) иқтисодиёт ҳажми йиллар давомида ўсиб бораётган бўлса-да, ялпи ички маҳсулот таркибида унинг улуши сезиларли даражада камаймоқда. Хусусан, 2021 йилда ЯИМ таркибида кузатилмайдиган иқтисодиёт улуши 37,3 фоизни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич 2025 йилга келиб 10,4 фоизга камайиб, 26,9 фоизни ташкил этмоқда.

Кузатилмайдиган иқтисодиёт улуши қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги ҳамда хизматлар соҳасида юқорилигича сақланиб келинмоқда.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.02.2026 йилдаги ПФ-21-сон фармони билан тасдиқланган «Ўзбекистон — 2030» стратегиясининг Барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш бўлимида Ялпи ички маҳсулотга нисбатан кузатилмайдиган иқтисодиёт улушини 23 фоизгача қисқартириш мақсади аниқ белгилаб қўйилган.

Бунга эришиш, албатта, бизнес учун қулай шароит яратиш, аҳоли ва тадбиркорлар ўртасида қонуний бизнес ишончли ҳимоя остида шиорлари асосида изчил тадбирларни амалга ошириш, айниқса нақдсиз ҳисоб-китобларни янада кенгайтириш зарур бўлади.

Бундан ташқари, кузатилмайдиган иқтисодиёт таркибини таҳлил қилсак, унда норасмий иқтисодиёт ҳажми юқорилигини кўришимиз мумкин.



1-расм. Кузатилмайдиган иқтисодиёт таркибида норасмий ҳамда яширин иқтисодиёт улуши*

**Муаллиф ишланмаси.*

Таҳлиллар кўрсатдики, кузатилмайдиган иқтисодиёт таркибида яширин иқтисодиётнинг улуши ошиб бормоқда, бу, албатта, салбий кўрсаткич. Чунки яширин


иқтисодиёт қонун билан ман этилмаган, аммо солиққа тортилмаслик ва қонун ҳужжатлари талабларига риоя қилмаслик мақсадида давлат органларидан атайлаб беркитилган иқтисодий фаолият бўлиб, унинг оқибатида иқтисодиётга катта зарар етказилади.

Жадвал маълумотлари 2021–2025 йилларда норасмий ва яширин иқтисодиёт улушининг ўзгариш динамикасини кўрсатади. Таҳлилга кўра, норасмий иқтисодиёт улуши 2021 йилда 79,5 фоизни ташкил этган бўлса, 2025 йилга келиб 70,5 фоизгача пасайган. Аксинча, яширин иқтисодиёт улуши шу даврда 20,5 фоиздан 29,5 фоизгача ўсгани кузатилади. Бу ҳолат иқтисодий муносабатларнинг маълум қисми расмий сектордан чиқиб, назоратдан ташқари фаолиятга ўтаётганини англатади. Илмий нуқтаи назардан, бундай тенденция солиқ юки, институционал чекловлар ва маъмурий тўсиқлар таъсири билан изоҳланади. Шунингдек, рақамли назорат механизмларининг етарли эмаслиги ҳам яширин иқтисодиёт кенгайишига сабаб бўлиши мумкин.

Мамлакатимизда яширин иқтисодиёт кўламини қисқартириш учун бир қатор чоралар шу жумладан, ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 10.12.2025 йилдаги “Нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-246-сон Фармони қабул қилинди.

Фармонни қабул қилишдан асосий мақсад нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ҳамда бизнес юритишда рақобат муҳитини янада ривожлантириш, мамлакатимизда яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришнинг самарали механизмларини жорий этиш ҳамда бизнесни соядан чиқаришни рағбатлантириш ҳисобланади. Ялпи ички маҳсулот таркибида кузатилмайдиган иқтисодиётнинг улуши мавжудлиги ривожланган давлатларда ҳам кузатилади.



2-расм. Хорижий давлатлар ЯИМ таркибида кузатилмайдиган иқтисодиёт улуши (фоизда)*

**Муаллиф ишланмаси.*

Хулоса қилишимиз мумкинки, ривожланган давлатлар ЯИМ таркибида кузатилмайдиган иқтисодиёт улуши 3-8 фоизни, ўрта ривожланган давлатларда 10-20 фоизни, ривожланаётган давлатларда 20-30 фоизни ташкил этади.

Марказий Осиёда яширин иқтисодиёт улуши ўртача 30 фоиз атрофида бўлиб, бу ривожланган давлатларга нисбатан анча юқори. Бу эса норасмий меҳнат бозори, нақд пул айланмасининг юқорилиги, солиқ маъмуриятчилигининг мураккаблиги, институционал институтлар заифлиги билан изоҳланади.

Олиб борилган таҳлиллар ҳамда ижтимоий сўровлар натижасига кўра, яширин иқтисодиёт ҳажмининг юқорилиги қуйидаги оқибатларга олиб келади:

1. Солиқ тушумларининг камайиши – солиқ объектларининг тўлиқ ҳисобга олинмаслиги натижасида давлат бюджети даромадлари қисқарди.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Давлат бюджетининг асосий манбалари солиқлар экан, хуфиёна иқтисодиёт улуши ортиши билан расмий даромадлар қисқаради. Бу эса ижтимоий харажатлар – таълим, соғлиқни сақлаш, пенсия ва инфратузилма каби соҳаларни молиялаштиришни қийинлаштиради.

2. Иш ўринлари ва ижтимоий адолатга таъсир – норасмий секторда ишчилар ҳуқуқлари таъминланмайди.

Хуфиёна ишчилар ижтимоий ҳимоя тизимидан – пенсия, суғурта, меҳнат ҳуқуқларидан маҳрум бўлади. Бу эса келажакда аҳолида камбағаллик ва ижтимоий ноустуворлик хавфини кучайтиради.

3. Рақобатнинг бузилиши ва инвестиция хавфи – барқарор иқтисодий муҳит бузилади

Норасмий бизнес қонуний талабларга риоя этмасдан иш юритгани учун уларга нисбатан расмий корхоналар камроқ рақобатбардош бўлади. Бу эса инвестиция муҳитини ёмонлаштиради ва янги инвестицияларни жалб қилишни қийинлаштиради.

4. Макроиқтисодий нотенглик

Хуфиёна иқтисодиёт ишсизлик ва ЯИМ (ялпи ички махсулот), ишсизлик даражаси ва бошқа макроиқтисодий кўрсаткичларнинг нотўғри баҳоланишига олиб келади. Бу эса нотўғри сиёсий қарорларга ва иқтисодий режалаштиришда хатога сабаб бўлади.

Айтайлик, Мисрда сўнгги йилларда норасмий меҳнат 60 фоиз атрофида бўлиб, бу ишсизлик кўрсаткичларини паст кўрсатмоқда. Аммо реал аҳволда миллионлаб одамлар расмий иш жойига эга эмас, бу эса иқтисодий сиёсатни нотўғри йўналишга бошламоқда.

Қолаверса, Жаҳон банки маълумотларига кўра, юқори норасмийлик даражасига эга мамлакатларда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажми ўртача 15-20 фоиз паст бўлади.

Иқтисодий хавфсизликка яширин иқтисодиётнинг иқтисодиётнинг таъсири қуйидагиларда намоён бўлади:

– давлат бюджетининг барқарорлигига таҳдид солади;
– иш ўринлари ва ижтимоий барқарорликка салбий таъсир кўрсатади;
– солиқ сиёсати ва давлат назоратининг самарадорлигини пасайтиради;
– иқтисодий ислоҳотлар ва инвестиция муҳитининг самарадорлигини ҳам чеклайди.

Хулоса

Тадқиқот натижалари яширин иқтисодиётнинг иқтисодий хавфсизликка салбий таъсир кўрсатишини, давлат бюджет даромадларини камайтиришини ҳамда рақобат муҳитига путур етказишини кўрсатади. Яширин иқтисодиётнинг кенгайиши иқтисодий муносабатларнинг шаффоф эмаслиги, солиқ маъмурчилигидаги муаммолар, институционал чекловлар ва назорат механизмларининг етарли даражада самарали эмаслиги билан боғлиқ. Шу сабабли мазкур муаммони камайтириш комплекс ва тизимли ёндашувни талаб қилади.

Биринчидан, солиқ сиёсатини такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга. Солиқ юкининг юқори бўлиши айрим хўжалик юритувчи субъектларни норасмий ёки яширин фаолиятга ўтишга ундаши мумкин. Шунинг учун солиқ ставкаларини оптималлаштириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик учун имтиёзлар жорий этиш ҳамда солиқ маъмурчилигини соддалаштириш зарур. Шу билан бирга, солиқ тўловчиларни рағбатлантирувчи механизмларни жорий этиш, масалан, ихтиёрий равишда даромадларини легаллаштирган субъектлар учун муайян енгилликлар бериш орқали иқтисодиётнинг расмий секторини кенгайтириш мумкин.

Иккинчидан, иқтисодиётни рақамлаштириш ва электрон ҳисоб-китоблар тизимини ривожлантириш яширин иқтисодиётни қисқартиришнинг самарали воситаларидан ҳисобланади. Электрон тўловлар, онлайн назорат-касса машиналари, рақамли ҳисоб-фактуралар ва автоматлаштирилган маълумотлар алмашинуви иқтисодий операцияларнинг шаффофлигини таъминлайди. Бу эса пул айланмаси устидан назоратни кучайтириб,

норасмий айланмаларни камайтиради.

Учинчидан, институционал ислоҳотларни чуқурлаштириш зарур. Бу борада ҳуқуқий базани такомиллаштириш, молиявий ва назорат институтларининг самарадорлигини ошириш, коррупцияга қарши кураш механизмларини кучайтириш муҳим аҳамият касб этади. Давлат органлари ўртасида маълумот алмашинувини интеграция қилиш орқали иқтисодий фаолият устидан комплекс назоратни таъминлаш мумкин.

Тўртинчидан, ижтимоий мониторинг ва аудит механизмларини кучайтириш талаб этилади. Норасмий сектор улушини мунтазам таҳлил қилиш, иқтисодий субъектларнинг фаолиятини таҳлил қилиш ҳамда жамоатчилик назоратини ривожлантириш орқали яширин иқтисодиёт кўламини камайтириш мумкин. Шунингдек, аҳоли ўртасида солиқ маданиятини ошириш ва иқтисодий саводхонликни ривожлантириш ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, яширин иқтисодиётни қисқартириш учун солиқ сиёсатини такомиллаштириш, рақамлаштириш жараёнларини жадаллаштириш, институционал ислоҳотларни кучайтириш ва самарали мониторинг тизимини жорий этиш каби чора-тадбирларни комплекс равишда амалга ошириш мақсадга мувофиқдир. Бу эса иқтисодиётнинг барқарор ўсиши ва шаффофлигини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 10.12.2025 йилдаги “Нақдсиз ҳисоб-китобларни оммалаштириш ва яширин иқтисодиёт улушини қисқартиришга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-246-сон фармони. – https://www.lex.uz/ru/docs/7897630?ONDATE=10.12.2025

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.02.2026 йилдаги “Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-21-сон фармони.

– https://www.lex.uz/uz/docs/8050769

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. (2025 йил 26 декабрь) https://president.uz/uz/lists/view/8834

4. Schneider F. Shadow Economy. – Vienna, 2015.

5. Tanzi V. Underground Economy. – Washington, 1999.

6. De Soto H. The Mystery of Capital. – New York, 2000.

7. North D. Institutions and Economic Performance. – Cambridge, 1990.

8. Б.Т. Рябушкин, Э.Ю. Чурилов. Методы оценки скрытый и неформальный секторов экономики. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 144 с. , Елисеева, И. И. Измерение теневой экономической деятельности. – СПб., 2003. – 269 с. Суринов А. Е. , Косарев А. Е. , Глисин Ф. Ф. И др. Ненаблюдаемая экономика: попытка количественных измерений /; под ред. Суринова А. Е. – М.: Финстатинформ, 2003. – 256 с., Н.Ч. Бокун, В.Н. Тамашевич. Теневая экономика: проблемы количественного измерения, – Белорусский экономический журнал – № 1. –1997. Н.Ч. Бокунни Теневая экономика: понятие, классификация, методы оценки.

9. Ваҳобов А. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: 2019.

10. Ходиев Б. Макроиқтисодиёт. – Т.: 2020.

11. Шодмонов Ш. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: 2018.

12. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотлари.

13. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ҳисоботлари.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

РОЛЬ ESG-ФАКТОРОВ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ И ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ УНИВЕРСИТЕТОВ

Айматова Фарида Хуразовна



старший преподаватель
кафедры общественных и точных наук
Ташкентского государственного
экономического университета.
E-mail: faridochca@mail.ru
ORCID: 0000-0002-5025-4573

Аннотация. *в статье рассматривается трансформация подходов к управлению финансами в системе высшего образования под влиянием принципов ESG (Environmental, Social, Governance). В статье подчеркивается роль ESG как надинституциональной системы, которая определяет векторы инвестиционной политики, фандрайзинга и распределения бюджетных средств университетов. Также, рассматривается вопросы перехода от традиционных моделей финансовой эффективности к моделям, учитывающим социальный вклад и экологическую ответственность. В работе выделены ключевые проблемы и перспективы внедрения ESG-критериев в финансовую стратегию университетов в условиях глобальной неопределенности.*

Ключевые слова: *ESG-трансформация, высшее образование, финансовая устойчивость, инвестиционная привлекательность вузов, устойчивое развитие, университетское управление.*

UNIVERSITETLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGI VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGIDA ESG OMILLARINING ROLI

Aymatova Farida Xurazovna

ijtimoiy va aniq fanlar
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: faridochca@mail.ru
ORCID: 0000-0002-5025-4573

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ESG (Ekologik, Ijtimoiy, Boshqaruv) tamoyillari ta’sirida oliy ta’limda moliyaviy boshqaruvga yondashuvlarning o‘zgarishi tahlil qilingan. Unda ESGning investitsiya siyosati, mablag‘ yig‘ish va universitet budjetlarini taqsimlash vektorlarini belgilaydigan institutsional tizim sifatidagi roli ta’kidlanadi. Shuningdek, u an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar modellaridan ijtimoiy hissa va ekologik mas’uliyatni hisobga oladigan modellarga o‘tishni ham ko‘rib chiqadi. Maqolada global noaniqlik sharoitida universitet moliyaviy strategiyalarida ESG mezonlarini joriy etishning asosiy muammolari va istiqbollari ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar*: ESG transformatsiyasi, oliy ta’lim, moliyaviy barqarorlik, universitet investitsiya jozibadorligi, barqaror rivojlanish, universitet boshqaruvi.*

THE ROLE OF ESG FACTORS ON THE FINANCIAL STABILITY AND INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF UNIVERSITIES

Aymatova Farida Khurazovna

Senior Lecturer of the Department of
«Social and Exact Sciences
Tashkent StateUniversity of Economics
E-mail: faridochca@mail.ru

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ORCID: 0000-0002-5025-4573

Abstract. This article examines the transformation of approaches to financial management in higher education under the influence of ESG (Environmental, Social, Governance) principles. It emphasizes the role of ESG as a supra-institutional system that determines the vectors of investment policy, fundraising, and the allocation of university budgets. It also examines the transition from traditional financial performance models to models that take into account social contribution and environmental responsibility. The paper highlights key challenges and prospects for implementing ESG criteria in university financial strategies in the face of global uncertainty.

Keywords: ESG transformation, higher education, financial sustainability, university investment attractiveness, sustainable development, university governance.

Введение

Современная система высшего образования находится в точке выбора пути развития и трансформации. Система университетов находится на перепутье в переломном моменте в стадии коренных изменений. Традиционные источники финансирования бюджетные субсидии и прямая оплата обучения становятся недостаточными для обеспечения конкурентоспособности в глобальном масштабе. Президент Узбекистана отметил, что необходимо «укрепление научного потенциала высших образовательных учреждений, усиление интеграции вузовской науки с академической с повышением её эффективности и результативности; - усиление духовно-нравственного содержания высшего образования» [1,2]. С учетом поручений руководителя страны в стране проводятся системная работа по дальнейшему развитию университетов. В то же время, мировое инвестиционное сообщество перешло к использованию нефинансовых критериев оценки эффективности, известных как ESG (Environmental, Social, Governance).

Для современных университетов ESG перестает быть вопросом «имиджа» или «этики» и переходит в плоскость жесткого финансового прагматизма. Внедрение этой рамки позволяет высшим учебным заведениям минимизировать операционные риски, оптимизировать расходы на инфраструктуру и, что наиболее важно, открывает доступ к «зеленому» финансированию и эндаумент-инвестициям нового типа.

ESG в высшем образовании рассматривается как трансформационная модель, где вуз - не только образовательный центр, но и экологически ответственный субъект (E), создающий инклюзивную социальную среду (S) с прозрачным корпоративным управлением (G). Это включает внедрение "зеленых" кампусов, обучение устойчивому развитию и повышение репутации вузов [2,43].

Основными ключевыми аспектами ESG в вузах являются: создание (Environmental (E)) «зеленных кампусов, энергосберегающие здания, сокращения потребления бумаги, использования экологических транспортов. В высшем образовании и в научном исследовании является внедрение дисциплины по устойчивому развитию экологии, углеродному регулированию в учебные планы для подготовки кадров.

Создание (Social (S)) и обеспечение доступной среды: борьба с дискриминацией (отсутствие физических или цифровых барьеров для людей с инвалидностью, например, пандусы, лифты), создание равных возможностей для студентов и преподавателей (при карьерном и академическом росте, отсутствие предвзятости при приеме на учебу или же на работу или распределении грантов). В социальной интеграции создании условий в котором каждый чувствует себя вовлеченным в жизнь, независимо от пола и возраста или же физических способностей. Все это объединяет в ответственность за социальную справедливость и человечность отношения внутри организаций.

Создание кадрового потенциала, поддерживающее преподавателей, обеспечения достойных условий труда. Взаимодействие с местным сообществом, участие в волонтерских проектах. По направлении Governance (G) разработка внутренних ESG - документов, этнический кодекс, прозрачность в финансовые потоки. Интеграция

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

принципов устойчивого развития в долгосрочную стратегию развития вуза. Формирование имиджа университета, привлекательного для инвесторов и студентов [3,23].

Внедрение ESG помогает университетам соответствовать современным трендам, повышать свою конкурентоспособность и воспитывать новое поколение специалистов, осознающих важность ответственного отношения к миру.

Обзор литературы

Концептуальные основы ESG в академической среде заложены в работах таких исследователей, как В. Тилбури (W. Tilbury), которая рассматривала университет как «живую лабораторию» устойчивого развития [4,34]. Проблемы финансовой устойчивости вузов в контексте меняющихся экономических парадигм подробно изучены в трудах Дж. Хейзелкорна (E. Hazelkorn) [4,10].

Среди российских авторов значительный вклад в изучение ESG-трансформации внесли специалисты ВШЭ и МГИМО. Исследователи отмечают, что если раньше финансовая устойчивость трактовалась узко (как сбалансированность бюджета), то в работах последних лет акцент смещается на способность организации генерировать ценность для стейкхолдеров в долгосрочной перспективе, что напрямую коррелирует с G-компонентом (качеством управления).

Ученые экономисты Узбекистана ведут определенную научно исследовательскую работу по вопросам высшей школы. Среди них труды академика С.С.Гулямова и Профессора А.Т.Шермухамедова. Как подчеркивают известные экономисты, открытое и дистанционное образование является наиболее эффективным путем к ускорению процесса перехода стран к информационному обществу. Открытое и дистанционное образование позволяет на базе искусственного интеллекта осуществлять адаптацию обучения к уровню базовой подготовки обучаемого, к месту его проживания, к здоровью, материальному положению. [6], [7]. Вопросы развития высшего образования исследована в трудах профессора Назара Хакимова [8], М.Х.Саидова, Д.Н.Саидовой [9], Б.А Ахмедова [10], А.Г. Муминова [11].

Тем не менее, вопрос прямого влияния ESG на инвестиционную привлекательность именно образовательного сектора остается недостаточно разработанным, что определяет научную новизну данной статьи.

Методология исследования

Целью внедрения ESG-факторов в деятельность высших учебных заведений является обеспечения их финансовой устойчивости и инвестиционной привлекательности в условиях глобальных изменений. Реализация принципов устойчивого развития направлена на повышение прозрачности управления, укрепления связи образования с практикой и создание эффективных механизмов привлечения инвестиций в академическую среду.

Анализ и результаты

С учетом реформирование университетов в стране проводятся системная работа по дальнейшему развитию высших учебных заведений. Поэтому мы рассмотрим следующие факторы развития университетов.

Экологический фактор (E). Экологический фактор является эффективностью кампуса: энергоэффективность, управление ресурсами. Но переход вузов из обычной традиционной модели к экологической, часто воспринимается как затратная часть. Например, инфраструктурные вложения: при установке солнечных панелей, модернизация систем отопления, внедрение раздельного сбора отходов и систем фильтрации воды требуют серьезных разовых выплат из бюджета вуза.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Эксплуатационные расходы. Например, закупка переработанной бумаги или экологичных моющих средств обычно стоит на 10–20,0% больше, чем стандартных аналогов. Или же при неявной выгоде: Экономия на электричестве или воде распределяется на десятилетия, в то время как бюджет вуза планируется на короткие периоды. Сложно обосновать затраты сегодня ради экономии, которая станет заметна только через 10 лет. Следовательно, необходимо создание отделов устойчивого развития, обучение персонала и проведение экологического аудита. Это требует от вузов дополнительные зарплатные расходы, которые не приносят прямой прибыли. Отсутствие рыночных стимулов**.** Во многих регионах тарифы на ресурсы всё еще недостаточно высоки, а штрафы за отсутствие эко-инициатив минимальны, что делает «экологичность» скорее имиджевым проектом, чем бизнес-необходимостью. Теперь рассмотрим какую конкретную эффективность можно увидеть при переходе из традиционных форматов вузов в экологическую модель. Прямая экономия ресурсов: установить «умные» краны и утепление стен, чтобы каждый месяц не платите по счетам. Для **с**нижения счетов за электроэнергию, поставить светодиодные (LED) лампы и датчики движения в коридорах, чтобы свет не горел в пустых аудиториях ночью. Также необходимо установить солнечные панели. Для **э**кономии на отоплении и воде, установить автоматические регуляторы тепла (которые снижают температуру в выходные) и аэраторы на краны. Тогда, вуз перестает «отапливать улицу» и сливать лишние кубометры воды.

Для сокращения расходов на вывоз мусора, вести раздельный сбор отходов. Тогда сократиться общий объем мусора, который нужно вывозить на свалку. В некоторых случаях вуз сам получает небольшие деньги за сданную макулатуру. Перевести внутренний транспорт кампуса на электричество или оптимизировали маршруты. Тогда затраты на закупку бензина и обслуживание двигателей внутреннего сгорания исчезают из бюджета. Теперь рассмотрим, следующий фактор экологической модели вуза.

Социальный фактор (S). Человеческий капитал и бренд. Университет — это институция, производящая человеческий капитал. Инклюзивность и разнообразие. Вузы с высокими показателями S-фактора привлекают более широкий спектр иностранных студентов и талантов, что напрямую увеличивает внебюджетные доходы. Привлечение «человеческого капитала» для вузов. Это означает повышение конкурентоспособности университета как работодателя и места обучения за счет его «зеленого» имиджа. Простыми словами: современные студенты и ученые выбирают те места, которые соответствуют их ценностям. Таким образом, повышается «Притягательность абитуриентов» к этому вузу и повысится удержание лучших преподавателей и ученых. Также, надо учесть, что студенты, участвующие в эко-проектах кампуса, учатся системному мышлению, ответственности и управлению проектами. На выходе вуз получает более качественных выпускников, которые востребованы в крупных корпорациях (где сейчас обязательны знания в области устойчивого развития - ESG). Также гранты и научные инвестиции - это экологическая модель, который открывает доступ к целевому финансированию. Ученые охотнее идут в вуз, который дает базу для исследований в сфере экологии, энергетики и климата, так как под эти темы сейчас выделяется больше всего мировых и государственных грантов. Связь с рынком труда: социальная ответственность вуза выражается в подготовке востребованных кадров, что повышает лояльность корпоративных спонсоров и индустриальных партнеров.

Управленческий фактор (G). Над институциональная рамка ESG требует от вузов: публикации нефинансовой отчетности. Цифровизации финансовых потоков. Вовлечения студентов и сотрудников в процесс принятия решений (Shared Governance). Высокое качество управления (G) снижает риск коррупции и нецелевого использования средств, что является ключевым сигналом для частных инвесторов и меценатов. Таким образом, ESG как драйвер инвестиционной привлекательности. Инвестиционная привлекательность вуза сегодня формируется через механизмы: грантовая поддержка: крупные фонды (например,

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

программы Erasmus+ или национальные проекты) все чаще включают ESG-критерии в условия отбора. Эндаумент-фонды: Современные доноры хотят видеть, что их средства работают на «чистые» и социально значимые цели. Кредитные рейтинги: Ведущие агентства (Moody’s, S&P) при оценке кредитоспособности образовательных организаций начинают учитывать их ESG-профиль. Инвестиционная привлекательность растет у тех организаций, которые демонстрируют прозрачность. Рассмотрим для наглядности таблицу №1, где сравним расходы вузов, при переходе из в «традиционных» форматов на экологическую модель.

Таблица 1.

Расходы вузов, при переходе из в «традиционных» форматов на экологическую модель*

Виды расходов	**Обычный вуз (Линейная модель)**	**Экологический вуз (Циркулярная модель)**	**Сравнение и эффект**
Электроэнергия	Постоянно растущие счета за освещение и оборудование.	Высокие затраты на LED, датчики и ВИЭ (панели/ветряки).	**Экономия 30–50%** на долгосроке после окупаемости оборудования.
Отопление и вода	Высокие потери из-за старых труб и отсутствия изоляции.	Затраты на теплоизоляцию зданий и умные узлы учета.	Снижение платежей на **20–40%** за счет автоматического регулирования.
Расходные материалы	Покупка дешевой бумаги, картриджей, одноразового пластика.	Закупка эко-товаров (дороже на 10-20%) или переход в «цифру».	Экономия за счет **снижения объема** закупок (меньше бумаги — меньше трат).
Утилизация отходов	Оплата вывоза смешанного мусора по тарифу за объем.	Траты на контейнеры для РСО и обучение персонала/студентов.	**Доход** от продажи вторсырья или снижение тарифа на вывоз ТКО.
Обслуживание зданий	Косметический ремонт «по факту» поломок.	Регулярный энергоаудит и внедрение «умных» систем.	Рост стоимости **капитализ ации зданий** (зеленая недвижимость дороже).
PR и маркетинг	Стандартная реклама образовательных программ.	Расходы на экологическую сертификацию (напр. LEED, GreenMetric).	**Рост лояльности** и приток абитуриентов без увеличения рекламного бюджета.

**Источник. Составлена автором статьи на основе самостоятельного анализа материалов*

Здесь в таблице видно, разница с постоянных операционных трат вузов на разовые капитальные вложения. Энергоэффективностью кампусов увеличивается за счет кампусов на «умные кампусы», где снижается эксплуатационные расходы.

Теперь, рассмотрим таблицу№2 внедрения ESG для вузов Узбекистана.

Таблица 2.

Сравнительная таблица внедрения ESG в вузах Узбекистана**

Категория ESG	Направление деятельности (Узбекистан)	Конкретные инструменты и меры	Ключевые показатели (KPI)
Environmental (E)	Энергоэффективность и «Зеленый» кампус	Установка солнечных панелей на крышах учебных корпусов (согласно ПП-57). Замена ламп на LED.	% электроэнергии от возобновляемых источников; кВт/ч на 1 кв. м.
	Ресурсосбережение	Внедрение систем капельного орошения территорий. Сбор макулатуры. Переход на HEMIS (отказ от бумажных журналов).	Тонны сэкономленной бумаги; м³ сэкономленной воды.
	Эко-образование	Курсы по «Зеленой экономике» и изменению климата в рамках общеобразовательных блоков.	Количество ОП (образовательных программ) с модулем устойчивого развития.
Social (S)	Инклюзия и доступность	Установка лифтов и пандусов в старых корпусах. Выделение женских квот при поступлении.	Количество студентов по спецквотам; % зданий с безбарьерной средой.
	Кадровый резерв	Программа «Эл-юрт умиди» для стажировок преподавателей за рубежом. Доплаты за ученые степени.	Доля молодых докторов наук (PhD/DSc); уровень текучести кадров.
	Сообщество	Работа волонтерских групп в махаллях. Помощь в цифровизации местных школ.	Количество совместных проектов с махаллинскими комитетами.
Governance (G)	Этика и прозрачность	Принятие Антикоррупционного комплаенса. Работа «телефонов доверия» и ботов обратной связи.	Количество обращений, решенных через платформы обратной связи.
	Стратегия и отчетность	Публикация финансовых отчетов на сайте вуза. Вхождение в топ-1000 рейтинга THE Impact Rankings.	Наличие утвержденной «Дорожной карты» ESG-развития; позиция в рейтинге.

***Источник. Составлена автором самостоятельного анализа материалов по теме исследования.*

Заключение

Таким образом, проведенный анализ позволяет сделать следующие выводы: ESG не является временной модой, это новая финансовая архитектура, в которой вуз оценивается

как долгосрочный актив.

Финансовая устойчивость вуза теперь прямо зависит от его способности адаптироваться к экологическим и социальным требованиям общества. Для успешного развития в системе высшего образования необходимо внедрение комплексной ESG-стратегии. Это позволит не только улучшить репутационные показатели, но и обеспечить диверсификацию источников финансирования, делая университет устойчивым к внешним экономическим шокам.

Литературы

1.Постановление "Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзияева «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования" от 20 апреля 2017 года.

2.United Nations**.** Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. - 2015.

3.Tilbury, D. Higher Education for Sustainability: A Global Overview of Commitment and Progress. // Higher Education in the World 4. - 2011. - pp. 18-28.

4.Ефимова О. В. Анализ устойчивого развития компании: стейкхолдерский подход. - М.: КноРус, 2021г.-234 стр.

5.Hazelkorn, E. Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence. - Palgrave Macmillan, 2015.- pp. 45-58

6.Гулямов С. С., Шермухамедов А. Т. Развитие дистанционного образования в Узбекистане // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 14. – С. 83–87. – URL: http://e-koncept.ru/2017/770629.htm

7.Гулямов С. С., Шермухамедов А. Т. Модель развития Узбекистана: интеллектуального потенциала в гражданском обществе // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 14. – С. 77–82. – URL: http://e-koncept.ru/2017/770628.htm

8.Хакимов Н.Х.Реформирование высшего образования в контексте нового этапа развития Узбекистана. Аудиторские ведомости., 2024 №3, стр.210- 215.

9.Саидов М.Х., Саидова Д.Н. Развитие высших учебных заведений - гарантия прогресса общества и повышения конкурентоспособности национальной экономики. Вестник науки и образование. 2020, № 3. Стр.56 -60.

10.Ахмедов Б.А. Концепция «Мега-университета» и потенциал ее применения в условиях Узбекистана. Вестник науки и образование. 2020, № 2. Стр.14-20.

11. Муминов А.Г.Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы. Бюллетень науки и практики, 2021, том 5, № 8, стр.67-70.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KRIPTO SANOATI FAOLIYATI TAHLILI VA ULARNING ISHLASH PRINSIPLARI

Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna
raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtsodiyot universiteti,
E-mail: nshoaxmedova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3297-7521

Annotatsiya. *Xalqaro tajribalar asosida kripto sanoati faoliyati, kriptobirjalarning ishlash mexanizmi va ularning asosiy texnologik prinsiplari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kriptoaktivlar bozorining rivojlanish tendensiyalari, blokcheyn texnologiyasi, sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo tizimlari va axborot xavfsizligi texnologiyalarining kriptobirjalar faoliyatidagi o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, markazlashgan va markazlashmagan kriptobirjalar faoliyati, ularning ishlash mexanizmi va global moliya tizimidagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalari kriptobirjalarda savdo jarayonlarini optimallashtirish, tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash, foydalanuvchilarga qulay xizmatlar ko‘rsatish va bozor samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar asosida kripto sanoatining rivojlanishi global moliya tizimining raqamli transformatsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.*

Kalit so‘zlar. *Kriptoaktivlar, blokcheyn, kriptobirja, sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, moliya bozori, smart kontrakt.*

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КРИПТОИНДУСТРИИ И ПРИНЦИПОВ ЕЕ РАБОТЫ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Шоахмедова Нозима Хайруллаевна
доцент кафедры цифровой экономики
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: nshoaxmedova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3297-7521

Аннотация. *В данном исследовании на основе международного опыта проанализирована деятельность криптоиндустрии, механизмы работы криптовалютных бирж и их технологические принципы. В ходе исследования были изучены тенденции развития рынка криптоактивов, а также роль информационных технологий, таких как блокчейн, искусственный интеллект, большие данные, алгоритмическая торговля и технологии кибербезопасности в деятельности криптовалютных бирж. Также были проанализированы централизованные и децентрализованные криптовалютные биржи, их механизмы работы и значение в глобальной финансовой системе. Результаты исследования показали, что информационные технологии играют важную роль в оптимизации торговых процессов, обеспечении безопасности транзакций, предоставлении удобных услуг пользователям и повышении эффективности рынка. Развитие криптоиндустрии на основе современных технологий оказывает значительное влияние на цифровую трансформацию мировой финансовой системы.*

Ключевые слова. *криптоактивы, блокчейн, криптовалютная биржа, искусственный интеллект, большие данные, алгоритмическая торговля, цифровая экономика, информационные технологии, финансовый рынок, смарт-контракты.*

ANALYSIS OF THE CRYPTO INDUSTRY AND ITS OPERATING PRINCIPLES BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE

Nozima Khairullaevna Shoakhmedova
Associate Professor, Department of Digital Economy, Tashkent State University of Economics
E-mail: nshoaxmedova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-3297-7521

Abstract. *This study analyzes the activities of the crypto industry, the operating mechanisms of cryptocurrency exchanges, and their technological principles based on international experience. The research examines the development trends of the crypto asset market and the role of information technologies such as blockchain, artificial intelligence, big data, algorithmic trading systems, and cybersecurity technologies in the operation of cryptocurrency exchanges. The study also analyzes centralized and decentralized cryptocurrency exchanges, their operating mechanisms, and their importance in the global financial system. The research results show that information technologies play a significant role in optimizing trading processes, ensuring transaction security, providing user-friendly services, and increasing market efficiency in cryptocurrency exchanges. The development of the crypto industry based on modern technologies significantly influences the digital transformation of the global financial system.*

Keywords. *Crypto assets, blockchain, cryptocurrency exchange, artificial intelligence, big data, algorithmic trading, digital economy, information technology, financial market, smart contracts.*

Kirish

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi moliyaviy tizimlar tobora rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, kriptoaktivlar bozori va kripto sanoati global moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Raqamli aktivlar, blokcheyn texnologiyasi va kriptobirjalar faoliyati nafaqat moliya bozorlari rivojiga, balki xalqaro savdo, investitsiya jarayonlari va to‘lov tizimlarining modernizatsiyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli kripto sanoati faoliyatini o‘rganish, uning ishlash mexanizmlarini tahlil qilish va xalqaro tajribalarni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Blokcheyn texnologiyasining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu texnologiya markazlashmagan, shaffof va xavfsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Natijada kriptovalyutalar va kriptoaktivlar bilan savdo qiluvchi kriptobirjalar faoliyati kengaydi va ular global miqyosda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi muhim platformalarga aylandi. Bugungi kunda kriptobirjalar orqali millionlab foydalanuvchilar raqamli aktivlarni sotib olish, sotish, saqlash va investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Kripto sanoati faoliyatida axborot texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash, foydalanuvchilar ma’lumotlarini himoya qilish, bozor tahlillarini amalga oshirish va algoritmik savdo tizimlarini joriy etish kriptobirjalar faoliyatining samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt, big data, smart-kontraktlar va bulutli texnologiyalarning qo‘llanilishi kripto sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Turli mamlakatlarda kriptoaktivlar va kriptobirjalar faoliyatini tartibga solish bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ayrim davlatlar kriptoaktivlarni qonuniylashtirgan bo‘lsa, ayrimlari esa ularni cheklash yoki qat’iy nazorat qilish siyosatini olib bormoqda. Bu esa kripto sanoati rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli xalqaro tajribalarni o‘rganish, turli mamlakatlarda kripto sanoati rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish va ularning ishlash prinsiplari asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribalar asosida kripto sanoati faoliyatini tahlil qilish, kriptobirjalarning ishlash mexanizmlarini o‘rganish, axborot texnologiyalarining ushbu sohadagi rolini aniqlash hamda kripto sanoatining rivojlanish istiqbollarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Ushbu tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida kripto sanoati faoliyatini rivojlantirish, moliya bozorlarini

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi

Kripto sanoati va kriptobirjalar faoliyati zamonaviy moliya va axborot texnologiyalari sohasida keng o‘rganilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar, jumladan Nakamoto 2008 blokcheyn texnologiyasini markazlashmagan va xavfsiz raqamli tizim sifatida ta’riflaydi va uning kriptoaktivlar savdosidagi ishonchlilik va shaffoflikni ta’minlashdagi rolini alohida ta’kidlaydi [1]. Shuningdek, Yermack 2017 blokcheynning moliya bozorlaridagi tranzaksiyalarni tezkor va o‘zgarmas tarzda amalga oshirish imkoniyatini o‘rganib, kriptobirjalarda xavfsizlik va ma’lumotlarning taqsimlangan reyestrining muhimligini ko‘rsatadi [2].

Markazlashgan va markazlashmagan kriptobirjalar faoliyati bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Tapscott, D., & Tapscott, A. va boshq. 2016 markazlashgan birjalarning boshqaruv mexanizmi bir nuqtadan amalga oshirilishini, foydalanuvchilarga qulay interfeys taqdim etishini va tranzaksiyalarni tezkor bajarilishini asosiy ustunlik sifatida ko‘rsatadi[3]. Shuningdek, Chen va boshq.2020 hamda Makarov va boshq.2021 markazlashmagan birjalarda xavfsizlik darajasi yuqori ekanligini, vositachilar mavjud emasligini va foydalanuvchilarning aktivlar ustidan to‘liq nazoratga ega bo‘lishini ta’kidlaydi [4,5]. Bu ikki turdagi birjalarning o‘ziga xos afzalliklari va chegaralari mavjudligini ilmiy yondashuvlar orqali tushuntiradi.

Axborot texnologiyalarining kripto sanoatidagi roli ham olimlar tomonidan alohida o‘rganilgan. Sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo va kiberxavfsizlik tizimlarining kriptobirjalarda qo‘llanilishi savdo jarayonlarini tezlashtirish va optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, Kshetri, N. va boshq. 2018 sun’iy intellekt yordamida bozor tahlili, narxlarni prognozlash va risklarni boshqarish mumkinligini ko‘rsatadi [6]. Big data texnologiyalari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali bozor tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Zohar 2020, kriptoaktivlar bozorini tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi davlat siyosati va huquqiy muhitga bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Ayrim mamlakatlarda kriptoaktivlar rasmiy ravishda tan olingan va litsenziyalash, soliq tizimi hamda nazorat mexanizmlari joriy qilingan bo‘lsa, boshqa davlatlarda bu sohada qat’iy cheklovlar mavjud. Bu esa kripto sanoatining rivojlanishiga xalqaro tajriba va qonunchilikning bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Blokcheyn, kriptobirjalar, axborot texnologiyalari va ularning xavfsizlik tizimlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, kriptoaktivlarning iqtisodiyotga ta’siri, investitsiya bozorlariga integratsiyasi va xalqaro tajribalar asosida ishlash prinsiplari bo‘yicha kompleks tahlillar hali ham talab etiladi. Shu sababli, mazkur tadqiqot xalqaro tajriba asosida kripto sanoati faoliyatini o‘rganish va ularning ishlash mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro kripto sanoati faoliyatini o‘rganish, kriptobirjalarning ishlash prinsiplari va axborot texnologiyalarining ularni qo‘llashdagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlardan foydalanilgan bo‘lib, quyidagi yondashuvlar asosiy metodologik vosita sifatida qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Kriptoaktivlar bozorining o‘sishi va global ravishda ommalashishi bilan, axborot texnologiyalarining kriptobirjalardagi roli tobora muhimlashib bormoqda. Axborot texnologiyalari kriptobirjalarning samarali ishlashini ta’minlash, foydalanuvchilarning xavfsizligini oshirish va global miqyosda integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi. Xalqaro kriptobirjalarda axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi asosan savdo jarayonlarini optimallashtirish, xavfsizlikni ta’minlash, tahlil qilish va foydalanuvchilarga qulay xizmatlar ko‘rsatish kabi ko‘plab sohalarda o‘z aksini topadi. Kriptobirjalarning ishlash mexanizmi asosan axborot texnologiyalari orqali boshqariladi. Ular o‘zaro integratsiya qilgan onlayn platformalarda

faoliyat yuritadi, bu esa foydalanuvchilarga virtual aktivlar bilan savdo qilish imkonini beradi, masalan:

Blokcheyn - kriptobirjalar, asosan, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, bu tizimlar markazlashtirilmagan bo‘lib, xavfsizlik va shaffoflikni ta’minlaydi. Blokcheynning asosiy xususiyatlari – uning markazlashmagan va ishonchli xarakteri – kriptobirjalarda barcha tranzaksiyalarni tasdiqlash va ularni xavfsiz tarzda saqlash imkonini bermoqda. Kriptobirjalarda savdo, sotib olish va sotish jarayonlari avtomatik ravishda amalga oshiriladi, bu esa foydalanuvchilarga tez va oson tranzaktsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyodagi eng yirik kriptobirjalar, jumladan Binance**,** Coinbase **va** Kraken birjalari o‘z faoliyatlarida blokcheyn texnologiyasidan foydalanadilar, bu esa tranzaksiyalarning shaffofligini ta’minlaydi va foydalanuvchilarning ishonchini oshiradi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, kriptoaktiv ma’lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig‘indisi bo‘lib, qiymati va egasi mavjud mulkiy huquq hisoblanadi. Ma’lumotlarning taqsimlangan reyestri esa ma’lumotlarni ixtisoslashtirilgan bloklarda taqsimlovchi texnologiya hisoblanadi va bunda har bir yangi blok oldingi blok bilan kriptografik imzo orqali bog‘lanadi.

Xavfsizlik kriptobirjalarning eng muhim jihatlaridan biridir. Axborot texnologiyalarining asosiy maqsadi kriptobirjalarda tranzaksiyalarning xavfsizligini ta’minlash, foydalanuvchilarni kiberhujumlardan himoya qilish va shaxsiy ma’lumotlarning o‘zgarishini oldini olishdir.

Dunyo bo‘ylab kriptoaktivlardan foydalanish tobora kengayib bormoqda, bunga sabab ular tezkor, xavfsiz va oson tranzaktsiyalarni ta’minlaydi. Ko‘plab mamlakatlar kriptoaktivlarni qonuniylashtirishni boshlagan, bu esa ularga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Kriptoaktivlarni qabul qiluvchi kompaniyalar va davlatlar, global moliya tizimini innovatsion ravishda rivojlantirishga yordam bermoqda.

1-chizma.

Kriptobirjada blokchyen texnologiyasi




* https://www.specbee.com/blogs/cryptocurrency-and-blockchain

Markazlashgan kripto birjalar kriptoaktivlar sotib olish va sotish jarayonlariga ixtisoslashgan platformalardir. Ushbu birjalarda barcha tranzaksiyalar platforma ichida amalga oshiriladi. Markazlashgan birjaning eng muhim xususiyati uning boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Markazlashgan birjalar odatda ma’lum bir guruh tomonidan yaratiladi va boshqariladi. Markazlashgan birjalarning faoliyatini amalga oshirishga katta jamoa yoki tashkilot javobgardir, bu esa ushbu birjaning barcha operatsiyalarini bir nuqtadan boshqarishga imkon beradi.

Xalqaro tajribalarda kriptobirja faoliyatida axborot texnologiyalarni qo‘llash, bozorlarda samaradorlikni oshirish, xavfsizlikni ta’minlash va foydalanuvchi ishonchini shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Blokcheyn, smart-kontraktlar, turli plarformalar, sun’iy intellekt, big data, algoritmik savdo va xavfsizlik tizimlari yordamida kriptobirjalar faoliyati yanada rivojlanmoqda. Birjalarning mijozlarga ko`rsatayorgan xizmatlari ko`plab imkoniyatlarni bizga ochib bermoqda [7].

2-chizma.

Eng yaxshi kriptoaktiv birjasini tanlash usuli



*Muallif tomonidan tuzilgan

Kriptobirjalarda savdo jarayonlarini optimallashtirishda axborot texnologiyalarining ro`li juda katta. Turli texnologiyalarini bu sohada qo‘llanilishi foydalanuvchilarga kripto aktivlar bo‘yicha aniq tahlil qilish, savdoni strategik ravishda rejalashtirish imkonini beradi.

Bunga misol sifadida Sun’iy intellekt va mashinali o‘rganish**:** Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan savdo tizimlari asosida kriptobirjalarda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan savdo tizimlarining qo‘llanilishi, savdo jarayonlarini takomillashtirish va tezlashtirishga imkon beradi.

Blokcheyn texnologiyasi kriptobirjalarda markazlashmagan va xavfsiz tranzaksiyalarni ta’minlash vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Har bir tranzaksiya kriptografik algoritmlar orqali tasdiqlanadi, yangi blok avvalgi blok bilan bog‘lanadi, bu esa ma’lumotlarning buzilmasligini va foydalanuvchi ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasi smart-kontraktlar bilan birlashtirilganda, avtomatlashtirilgan shartnoma bajarilishi va tranzaksiyalarni monitoring qilish jarayonini tezlashtiradi. Axborot texnologiyalari yordamida ikki faktorli autentifikatsiya, shifrlash algoritmlari, real vaqt monitoring va foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali kriptobirjalar kiberhujumlarga qarshi samarali himoya ta’minlaydi. Foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish va tranzaksiyalarni xavfsiz saqlash imkoniyati esa investorlar uchun qo‘shimcha ishonch yaratadi [8,9].

Kriptobirjalarda sun’iy intellekt (AI) va mashina o‘rganish tizimlari savdo jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. AI algoritmlari bozor tendensiyalarini prognoz qilish, likvidlikni boshqarish va narx o‘zgarishini kuzatishda yordam beradi. Avtomatlashtirilgan savdo tizimlari esa foydalanuvchilarga tezkor va samarali tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, Big Data texnologiyalari katta hajmdagi tranzaksiya ma’lumotlarini tahlil qilish orqali foydalanuvchilarga strategik savdo rejalashtirish imkonini beradi va birjaning o‘z faoliyatini optimallashtirish, risklarni baholash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion xizmatlar foydalanuvchi tajribasini oshiradi va investorlar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratadi. Masalan, portfel monitoringi, narx ogohlantirishlar, avtomatlashtirilgan

investitsiya tavsiyalari va tezkor pul o‘tkazmalari kriptobirjalarda keng qo‘llaniladi. Shu tarzda kriptobirjalar nafaqat xavfsiz tranzaksiyalarni ta’minlaydi, balki global moliya bozorida raqobatbardosh, innovatsion va samarali platforma sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

Xulosa

Xalqaro kripto sanoatining faoliyati va uning ishlash prinsiplari asosan axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Kriptobirjalarda blokcheyn, smart-kontraktlar, sun’iy intellekt, algoritmik savdo va big data tizimlarining qo‘llanilishi savdo jarayonlarini tezlashtirish, shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlash, shuningdek, foydalanuvchi ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Markazlashgan va markazlashmagan kriptobirjalar o‘rtasidagi farq ularning boshqaruv mexanizmi va operatsiyalarning amalga oshirilish usulida namoyon bo‘ladi. Markazlashgan birjalar platforma ichidagi barcha tranzaksiyalarni yagona boshqaruv markazi orqali amalga oshirsa, markazlashmagan birjalar blokcheyn texnologiyasi asosida foydalanuvchilarning xavfsizligi va ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlaydi [10].

Axborot texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi kriptoaktivlar bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi, tranzaksiyalarning aniqligi va xavfsizligini ta’minlaydi hamda foydalanuvchilarga qulay xizmatlarni taqdim etadi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning tatbiqi savdo jarayonlarini yanada optimallashtiradi, bozordagi qarorlarni strategik rejalashtirish imkoniyatini beradi va global moliya tizimining innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Kriptobirjalarda axborot texnologiyalarining yanada samarali ishlashi uchun ularni rivojlantirish, xavfsizlik protokollarini takomillashtirish va yangi texnologiyalarni integratsiya qilish zarurati mavjudligi aniqlanadi. Tadqiqotning natijalari xalqaro kripto bozorining kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va uni raqamli moliya tizimida samarali qo‘llash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nakamoto, S. (2008). *Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.* https://bitcoin.org/bitcoin.pdf

2. Yermack, D. (2017). *Corporate Governance and Blockchains. Review of Finance, 21*(1), 7–31.

3. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World.*

4. Chen, Y., & Bellavitis, C. (2020). *Blockchain Disruption and Decentralized Finance. Journal of Business Research, 121,* 164–176.

5. Makarov, I., & Schoar, A. (2021). *Trading and Exchange in Cryptocurrency Markets. Journal of Financial Economics, 142*(2), 403–425.

6. Kshetri, N. (2018). *Blockchain’s Roles in Strengthening Cybersecurity and Financial Transparency. Telecommunications Policy, 42(*4), 217–226.

7. Binance Research (2023). *Global Cryptocurrency Exchange Trends and Insights.* https://research.binance.com/

8. Coinbase Institutional (2022). *Understanding Crypto Trading Platforms and Security Measures.* https://www.coinbase.com/institutional

9. World Economic Forum (2022). *The Future of Financial Infrastructure: How Blockchain Can Reshape Financial Services.* https://www.weforum.org/reports

10. Peters, G. W., & Panayi, E. (2016). *Understanding Modern Banking Ledgers Through Blockchain Technologies: Future of Transaction Processing and Smart Contracts on the Internet of Money. Banking Beyond Banks and Money,* 239–278.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ТЕХНОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ҚОНУНИЯТЛАРИ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛМАВИЙ ТАКОМИЛЛАШТИРИШЛАР АСОСИ СИФАТИДА



Одинаев Равзатилло Асатуллоевич
мустақил тадқиқотчи
Тошкент давлат
иқтисодиёт университети
E-mail:r.odinaev@xb.uz.
ORCID: 0009-0003-9445-3384

Аннотация. *мақолада миллий иқтисодиётда технологик тараққиётнинг технологик даражаси бўйича тавсифланишини ривожланишининг илмий-назарий асослари хамда технологик қонуниятларга ишлаб чиқариш уклади ривожланишини таъсири ва унда рақамли иқтисодиётни ўрни очиб берилган.*

Калит сўзлар: *технология, базисли, илмий тадқиқот ишланмалари, институтционал тузилма, трансформация, уклад, парадигма, саноат инқилоби, рақамли иқтисодиёт, блокчейн, тизим.*

ЗАКОНОМЕРНОСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ОСНОВА СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В ЭКОНОМИКЕ

Одинаев Равзатилло Асатуллоевич
независимый исследователь
E-mail:r.odinaev@xb.uz.
Ташкентский государственный
экономический университет
ORCID: 0009-0003-9445-3384

Аннотация. *В статье раскрыты научно-теоретические основы характеристики национальной экономики по уровню технологического развития, влияние технологических закономерностей на развитие технологических укладов производства, а также роль цифровой экономики в данном процессе.*

Ключевые слова: *технология, базисный, научно-исследовательские разработки, институциональная структура, трансформация, уклад, парадигма, промышленная революция, цифровая экономика, блокчейн, система.*

PATTERNS OF TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT AS THE BASIS FOR STRUCTURAL TRANSFORMATIONS IN THE ECONOMY

Odinayev Ravzatillo Asatulloyevich
Independent Researcher
Tashkent State the University
of Economics
E-mail:r.odinaev@xb.uz.
ORCID: 0009-0003-9445-3384

Abstract. *The article reveals the scientific and theoretical foundations for characterizing the national economy according to the level of technological development, examines the influence of technological patterns on the development of technological modes of production, and highlights the role of the digital economy in this process.*

Keywords: *technology, basic, research and development, institutional structure, transformation, mode, paradigm, industrial revolution, digital economy, blockchain, system.*

Кириш

Жаҳон иқтисодиётида глобаллашув жараёни тобора кучайиб бораётгани ва рақамли иқтисодиёт жадал суръатларда ривожланиб бориши ўз навбатида такрор ишлаб чиқариш тизими ва унинг институционал таркибий тузилмасида туб ўзгаришларни юзага келишига сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Сифат ўзгаришлари булар билан бир қаторда инновацион ривожланиш суръ-атларини жадаллаштириш, капитал ва инсон ресурсларидан янада самарали фойдаланишни шартламоқда. “Жаҳон илмий-техника салоҳиятининг 90% ва глобал юқори технологиялар бозорининг 80% Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИҲТТ)га аъзо бўлган ривожланган давлатлар ҳиссасига тўғри келмоқда[1]”. Бу эса ҳозирда жаҳонда иқтисодиёт таркибий тузилмасини такомиллаштириш билан боғлиқ муаммоларнинг долзарб аҳамият касб этаётганлигини кўрсатмоқда.

Янги Ўзбекистонда олиб борилаётган ислоҳотлар жараёнида иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва аҳоли фаровонлигини оширишга катта таъсир кўрсатадиган янги технологик уклад талабларига мос келувчи иқтисодиёт таркибий тузилмасини трансформациялаш, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва трансакцион харажатларни пасайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Рақамли иқтисодиёт асосий «драйвер» соҳага айлантирилиб, унинг ҳажмини камида 2,5 баробар ошириш белгиланган[2]”.

Адабиётлар шарҳи

Юқори фан сиғимли технологияларнинг иқтисодий тизимнинг таркибий тузилмасига таъсирини тадқиқ этган хорижлик олимларга Т.Кун, К.Перес, М.С.Роко, Д.Белл, Й.Шумпетер, С.Кларк, П.Арнолд кабиларни келтириш мумкин.

Россиялик олимлардан Василевский Э., Иноземцев В.Л., Климович М.А., Красильников О.Ю., Кондратьев Н.Д., Буторина О.В., Кравец А.В., Сухарев О.С. ва бошқалар ушбу мавзуга бағишланган илмий-тадқиқот ишларини олиб борган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан С.С.Гулямов, А.В.Вахабов, С.В.Чепель, Т.Т.Жўраев, А.А.Маматов ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқариш таркибий тузилмасини шакллантириш масалалари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

“Янги классик мактаб” доирасида институционалист олимлар; Р.Лукас, П.Ромер ва А.Янг томонидан илмий ва технологик тараққиётнинг табиатини ва инновацияларни вужудга келиш сабабларини батафсил таҳлил қилишди[3].

О.С.Сухаревнинг фикрига кўра, "мавжуд технологик асос, минтақавий эҳтиёжлар, мавжуд ресурслар ва эришилган меҳнат унумдорлиги даражасига мувофиқ такрор ишлаб чиқариш, тарқатиш ва алмашиш механизмлари таъсири остида юзага келадиган ўзаро боғлиқ нисбатлардаги ўзгаришларнинг мураккаб тизими[4]. О.Ю.Красильников нуқтаи назаридан, "таркибий ўзгариш-макроиқтисодий тизимнинг таққосланадиган элементлари ўртасидаги муносабатларнинг сифат жиҳатидан ўзгариши, уларнинг миқдорий хусусиятларининг нисбати нотекис динамикаси[5].

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан А.Н.Эркаев тадқиқотларига кўра таркибий такомиллаштиришлар иқтисодий категория сифатида таркибий элементлар ўртасидаги муносабатларнинг ўзгаришини акс эттиради[6].

Тадқиқот методологияси

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади.

Таҳлил ва натижалар

Технологик ўзгаришлар жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида иқтисодиётдаги

таркибий такомиллаштиришларни таъминловчи асосий омил бўлиб ҳисобланади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан берилган таърифга кўра, бугунги кунда технология нафақат моддийлашган шаклдаги билим, балки маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш учун зарур бўлган тизимлашган усуллар мажмуи, масалан, ноу-хаудир[7]. Бизнинг фикримизча, бу таъриф "технология" таърифининг моҳиятини тўғри ифода этади, уни ресурсларни якуний маҳсулотга трансформациялашуви усули сифатида ҳам, билим шакли сифатида ҳам ифодалайди.

Иқтисодий адабиётда кенг миқёсда турли хил технологияларнинг тавсифи мавжуд. Чет эл адабиётларида юқори технологик технологиялар хизмат кўрсатиш соҳасида қўлланиладиган технологиялар, ишлаб чиқариш тармоқларида қўлланиладиган технологиялар сифатида таърифланади. Ўзбекистонлик олимлар тадқиқотларида ҳам бу тушунчалар деярли бир хил. Технологияларнинг жуда кўп турлари мавжуд бўлиб, бугунги кунда кенг қўлланилаётган "муҳим", "критик", "базисли", "портлатувчи" технологиялар, "келажак технологиялари" ва ҳоказо атамалар ҳисобланади.

1.жадвалда келтирилган иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИХТТ) томонидан таклиф этилган ишлаб чиқариш тармоқларини технологик самарадорлик даражаси бўйича таснифлашга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Тармоқлар учун таснифий хусусиятларга тармоқнинг қўшилган қийматида илмий тадқиқот ва ишланмалар харажатларини фоиздаги кўрсаткичи ҳамда саноат ялпи маҳсулотида илмий тадқиқот ва ишланмалар харажатларининг фоиздаги кўрсаткичи киради.

1-жадвал.

Саноатнинг қайта ишлаш тармоқларини ИХТТ методологияси бўйича технологик даражасига кўра таснифи[8]

Юқори технологияли тармоқлар	Юқори даражадаги ўрта технологияли тармоқлар	Ўрта технологик қуйи даражали тармоқлар	Қуйи технологик тармоқлар
Учувчи ва космик аппаратлар; фармацевтика; офисли, ҳисоблаш ва электрон ҳисоблаш техникаси; радио, телевидение ва коммуникация қурилмалари; тиббий, юқори аниқликдаги оптик қурилмалар	Электр машиналар ва аппаратлар; автотранспорт воситалари, тиркамалар ва ярим тиркамалар; бошқа кимёвий моддалар, дори воситалари; темир йўл техникаси ва транспорт жиҳозлари; машина ва ускуналар.	Нефтни қайта ишлаш маҳсулотлари ва ядро ёқилғиси; каучук ва пластик маҳсулотлар; бошқа металл бўлмаган минерал маҳсулотлар ишлаб чиқариш; қурилиш ва кема ва қайиқларни таъмирлаш; асосий металлар; тугатилган металл буюмлар, машина ва жиҳозлардан бошқа	Ишлаб чиқариш; қайта ишлаш; ёғоч ва ёғоч маҳсулотлари ва целюлоза, қоғоз, қоғоз маҳсулотлари, полиграфия ва нашриёт; озиқ-овқат, ичимликлар ва тамаки; тўқимачилик маҳсулотлари, тери ва пояфзал

Технологик ҳаёт тарзи ва техно-иқтисодий парадигманинг замонавий тушунчаларининг синоними Г.Менш томонидан таклиф қилинган технологик методнинг таърифидир[9]. Технологик метод остида олим ҳар бир Кондратьев тўлқини учун саноат тузилмасини ташкил этувчи технологик қарорлар мажмуисини тушунган .

Т.Кун иқтисодиётнинг технологик тузилмасидаги ўзгаришларни акс эттирувчи дастлабки элемент сифатида илмий инқилоблар контекстидаги парадигма тушунчасини таклиф қилди. У иқтисодий категория сифатида муомалага киритиб, уни умумэтироф этилган илмий ютуқлар деб белгиладики, маълум вақт мобайнида илмий жамоатчиликка муаммолар ва уларни ҳал этиш йўлларини белгилаш моделини тақдим этади[10] деб таърифланади. Т.Куннинг илмий инқилоблар концепцияси Дж.Дос томонидан тўлдирилди. Дж.Дос иқтисодий ва институционал омиллар таъсирида шаклланадиган технологик

парадигмани ўзига хос технологик троекторияларга амал қилувчи технологик янгиликлар мажмуи сифатида аниқлади[11].

Технологик укладлар ва техник-иқтисодий парадигмаларни ўрганиш билан шуғулланадиган етакчи рус олимлари С.Глазьев ва К.Переслардир. С.Глазьев технологик укладнинг қуйидаги таърифини беради: "бирламчи ресурсларни қазиб олиш, уларни қайта ишлашнинг барча босқичлари ва тегишли халқ истеъмоли турлари талабларига жавоб берадиган якуний маҳсулотлар тўпламини ишлаб чиқариш каби ёпиқ цикл амалга ошириладиган яхлит ва барқарор шаклланиш"[12]. Ҳар икки олим хам илмий ва технологик тараққиёт орқали иқтисодиётнинг таркибий тузилишини ўзгартириш ҳақида фикр келтиради, яъни янги технологиялар ривожланишининг кумулятив таъсири ишлаб чиқариш ривожланишининг янги босқичга олиб чиқади.

К.Переснинг фикрича, техник ва иқтисодий парадигмаларнинг давомийлиги 48 йилдан 68 йилгача ўзгариши мумкин. Таркибий тузилмавий такомиллаштиришлар технологик инқилобга олиб келади ва унинг ўзига хос янги иқтисодий, институционал, техник ва ижтимоий механизмлар билан янги парадигманинг шаклланишига олиб келади. У иқтисодиётнинг технологик тузилмасини такомиллаштиришда тармоқларнинг ролини баҳолаш асосида ташувчи, харакатланувчи ва қабул қилувчи тармоқларини аниқлайди. Ташувчи тармоқлар янги технологик ривожланишнинг флагманлари бўлган тармоқларга тез молашувчан ва янгиликларни тез қабул қилувчи тармоқларни англатади. Ҳаракатлантирувчи тармоқлар янги технологияларнинг тарқалиши учун зарур шарт-шароитларни таъминлайди ва ташувчиларни нисбатан қўллаб-қувватлайди. Ривожланиши муайян ижтимоий, иқтисодий ва институционал ўзгаришлар билан рағбатлантириладиган қабул қилувчи тармоқларнинг роли шундаки, улар технологик инновацияларни оммавий тарқатишга ёрдам беради[13].

Технологик қонуниятларни таҳлил қилишда энг муҳими ишлаб чиқариш укладини глобал трансформациясини технологик инқилоблар призмаси орқали кўриб чиқадиган концепцияси тушунилади. Ҳаётнинг барча соҳаларида янги технологияларнинг жадал кириб келиши ва ривожланиши янги технологик ўтишга ва янги технологик укладларнинг ўзгаришига олиб келади. Иқтисодий тизимлар ва ижтимоий тузилмалардаги туб ўзгаришлар саноат инқилоблари натижасида юзага келади. Иқтисодиётнинг циклик табиати 100-120 йил давом этган тўлқинлар билан ифодаланади: 50-60 йилда мавжуд илмий ва технологик парадигмани тубдан ўзгартирадиган асосий технологиялар, 35 йилда – янги технологияларга асосланган иқтисодий ўсиш, 25 йилда-бу пасайиш яъни технологияларнинг самарадорлигини ошириш имкониятларини чекланиши ва пасайиши. Шундай қилиб, даврнинг тахминан ярми технологик тайёргарлик ва қолган ярми-уни амалга ошириш учун тўғри келади. Саноат инқилобларининг асосий параметрлари ва хусусиятлари қуйидаги жадвалда келтирилган.

2-жадвал.

Саноат инқилобларининг асосий хусусиятлари[14]

Даврлар	Технологиялар ва ресурслар	Ривожланиш омиллари	Оқибатлари	Кооперация шакллари
XIV-XVII асрлар.	Ёғоч, торф, дастгоҳлар, денгиз флоти, шамол двигатели, мануфактура, савдо	Меҳнат тақсимоти, янги қитъаларни кашф этиш, халқаро савдо	Меҳнат унумдорли гининг ўсиши, капитал жамғариш	Ишлаб чиқариш, кластер, қурилиш
XVIII-XIX асрлар	Кўмир, чўян, темир, буғ двигатели, буғ локомотиви, пароход, механик қишлоқ хўжалик машиналари	Янги энергия манбалари, машина меҳнати	Халқаро тараққиёт, фаровонлик-нинг ўсиши	Томонидан ишлаб чиқилган завод
XIX-XX	Нефт, пўлат, алюминий,	Энергия узатишда	Глобализа ция,	ТНК,

асрлар.	пластмасса, электр, конвеер, телефон, телеграф, ички ёнув двигатели, электр двигател, автомобил, самолёт, суний йўлдош	фойдаланишнинг янги манбалари ва шакллари, янги материаллар, транспорт ва коммуникацияни ривожлантириш	жисмоний чегаралар ва ресурсларни қайта тақсимлашга кириш	тадқиқ этиш
XX – асрнинг иккинчи қисми ва XXI асрни бошланиши.	Газ, атом энергияси, электроника, ПО, АСУ ТП, телекоммуникация, ТВ, интернет	Янги энергия манбалари, ишлаб чиқариш ва савдони автоматлаштириш, коммуникациялар-ни ривожлантириш	Ижтимоий тараққиёт ва халқаро интеграция	Платформа-ларни программа-лаштириш
XXI асрни боши	Интернет, роботлар, сунъий ақл, ўйин технологиялари ва вертуал ҳақиқат, муқобил энергия (қуёш, шамол, термоядроли, ва бошқалар.), композицион материаллар, нанотехнология, биотехнология, тақсимланган молия тизими, космик тадқиқотлар	Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнларини интеграциялаш, роботлаштириш ва шу билан бирга бизнес-жараёнларнинг ўзаро боғлиқлиги	Автономия, индувидиал ишлаб чиқариш, горизонтал ҳамкорлик, янги ижтимоийлашув, ердан ташқарига чиқиш	Экотизимлар, моделлаштириш, тармоқни тугатиш жараёнлари, тизимни ишлаб чиқиш, дизайн ва ривожланиш-нинг технология-лари
XXI асрнинг 2010 йилдан шу даргача	Мобил интернет, Ақлий меҳнатни автоматлаштириш, Буюмлар интернети, Булутли технологиялар, Блокчейн технологиялар, рақамли платформалар ва тармоқли тузилмалар	Рақамли иқтисодиёт	Иқтисодий ва ижтимоий турмушнинг турли соҳаларида ўзгаришлар-нинг асосий омили интернет нинг мавжудлиги хисобланади.	Блокчейн технология-лар, рақамли платформалар ва тармоқли тузилмалар орқали ишлаб чиқариш алоқалари вертуал амалга ошади

Иқтисодий тизимнинг эволюциясидаги такомиллаштиришлар унинг таркибий динамикасига боғлиқлигини кўрсатади. Таркибий ўзгаришлар иқтисодиётнинг технологик тузилмасини ривожлантириш шароитида технологик укладларни алмаштириш жараёнида намоён бўлади. Иқтисодиётни таркибий тузилмавий такомиллаштиришларнинг бошланғич нуқтаси бўлиб таркибий ўзгаришларнинг аста-секин миқдорий тўпланиши, унинг таркибий элементлари ўртасидаги зиддиятлардир. Тўпланган зиддиятлар таркибий инқироз даврида янги технологик тартибнинг генезиси сабаб бўлган таркибий уклад механизми орқали ҳал этилади. Аввалги технологик укладнинг якуний босқичида пайдо бўлган технологиялар кейинги технологик укладни туғилишини бошлайди. Аста-секин янги технологиялар ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва инвестицияларни жалб этиш манбаига айланади. Иқтисодий ўсиш даври бошланади, иқтисодиётнинг таркибий тузилмаси трансформацияланади: иқтисодиётнинг янги тармоқлари ва соҳалари пайдо бўлади, шунингдек, иқтисодий тизим элементлари ўртасидаги, ўзаро боғлиқликлар ва элементлар ўртасидаги нисбатлар ўзгаради. Натижада нафақат иқтисодиётнинг таркибий тузилмаси, балки жамият ҳаётининг бошқа соҳаларини ҳам ўзгартирувчи янги технологик уклад бўлган рақамли иқтисодиёт

шаклланади.

“Рақамли иқтисодиёт” атамаси Ўзбекистон Республикаси миллий қонунчилигида қўлланилиб келинаётганлигига ҳали унча кўп вақт бўлгани йўқ. Бироқ дунё тенденцияси шуни кўрсатаяптики, барча ривожланган давлатлар уни шакллантиришга аллақачон киришган. Ўзбекистон ҳам мазкур жараёндан четда қолмаслиги керак. Зеро, биз глобаллашув, дунё ҳамжамияти билан интеграцияга киришиш ҳақида гапирарканмиз, бу борада ўзгарган, яъни янгиланган иқтисодиёт равнақи муҳим саналади[15].

Бугунги кунда илғор ривожланган индустриал мамлакатлар иқтисодиётида янги технологияларнинг пайдо бўлиши рақамли иқтисодиётни шаклланиши ва ривожланиши ҳамда таркибий тузилмавий такомиллаштиришларнинг шарт-шароитлари омили ҳисобланади. Рақамли иқтисодиёт деганда, фақатгина Блокчейн (Blockchain) технологиясини ва улардан халқаро молия бозорларида фойдаланиш масалаларини ёки крипто валюталарни тушуниш керак эмаслиги, балки шу билан биргаликда рақамли иқтисодиёт (Digital Economy) деганда, рақамли коммуникациялар, IT ёрдамида олиб бориладиган иқтисодиёт тушунилишини кўрсатади[16].

Рақамли иқтисодиёт – катта ҳажмдаги маълумотларни (BIG DATA) Интернет тармоғи ва мобил технологиялар орқали йиғиш ва рақамли технологиялар ёрдамида қайта ишлаб, янги қонуниятларни ва билимларни яратиш асосида бизнес моделларини самарадорлигини ошириш ва истеъмолчиларни эхтиёжларини сифатли қондириш хисобланади. Рақамли иқтисодиётда замонавий АКТ ва рақамли технологиялар макро, тижорат ва ҳизматлар тузилмалари даражасида бошқарув усуллари самарадорлигини оширади. Рақамли технологиялар давлатнинг назорат, тартибга солиш ва бошқарув функцияларини кескин камайтиради. Блокчейн давлат органлари ҳаражатларини минимал даражага туширади.

«Блокчейн» атамасининг маъноси "Блок" – бу блок, "чейн" – бу занжир. "Блокчейн" – бу блокли занжир демакдир. «Блокчейн» технологиялари (маълумотларнинг тақсимланган реестри технологиялари), «сунъий ақл», суперкомпьютерлар имкониятларидан фойдаланиш, шунингдек, крипто-активлар бўйича фаолият жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йўналишларидан бири ҳисобланади. Блоклар – бу криптография шаклида намоён бўлган, тизим ичидаги битим ва шартномалар, трансакция ҳақида маълумотдир. Дастлаб ва ҳозирги кунга қадар блокчейн Bitcoin криптавалютасининг асоси ҳисобланади. Барча блоклар занжирга тизилган бўлиб ўзаро боғланган. Блокчейн технологиясида барча иштирокчилар блокчейн тизимига уланганлиги туфайли барча операциялар субъектлар ўртасида тўғридан – тўғри амалга оширилади.

Хулоса сифатида рақамли иқтисодиёт – мавжудликнинг технорақамли шакли бўлиб, товар ва ҳизматларини ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш бўйича иқтисодий муносабатлар тизимли йиғиндисидир. Иқтисодий муносабатларнинг технорақамли табиати рақамли иқтисодиётни бошқалардан ажратиб турадиган асосий белгилар ҳисобланади. Шундай қилиб, агар янги иқтисодиёт – постиндустриал иқтисодиёт намоён бўлишининг қонуний шакли бўлса, рақамли иқтисодиёт – янги иқтисодиёт намоён бўлишининг эволюцион шаклларидан бири.

Фойдаланилган адабиётлар

1. UNCTAD Handbook of Statistics 2020. New York and Geneva, 2020.-P. 155.
2. Шавкат Мирзиёевнинг Сайловолди дастури. - https://uzlidep.uz/news-of-party/10076
3. Mankiw G. W., Romer D., Weil D. N. A contribution to empirics of economic growth // The Quarterly Journal of Economics. –1999. –№ 2. –P. 407-437.
4. Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. –М.: Финансы и статистика, 2010. –С. 34.

5. Красильников О. Ю. Структурные сдвиги в экономике. –Саратов: Изд-во СГУ, 2001. –С. 24.

6. Эркаев А.Н.Миллий иқтисодиётда таркибий силжишлар ва ялпи ички маҳсулот таркибий шаклларини ўзгариши. “Иқтисод ва таълим” журнали. –Т.: 2015 йил №1 –Б. 10.

7. Transfer of technology. United nations conference on trade and development. –New York and Geneva, 2001. –The electronic version of the printing publication.: http://unctad.org/en/docs.

8. OECD Directorate for Science, Technology and Industry Economic Analysis and Statistics Division, 2017. – The electronic version of the printing publication. – https://www.oecd.org/sti/ind/.

9. Mensch G. Stalemate in Technology – Innovations Overcame the Depression. –New York: Ballinger Publishing Company, 1979. –274 p.

10. Кун Т. Структура научных революций. –М.: Экономика, 1977. –С. 120.

11. Dosi G. Technological Paradigms and Technological Trajectories // Research Policy. –1982. –№ 11. –P. 147-162.

12. Глазьев С.Ю. Экономика будущего. Есть ли у России шанс? –М.: Книжный мир, 2016. –С. 124.

13. Перес К. Технологические революции и финансовый капитал. –М.: Дело, 2011. –405 с.

14. Ахунова М. Х Миллий иқтисодиётни ривожлантиришда рақамлаштиришнинг аҳамияти. Иқтисодиёни рақамлаштириш шароитида иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Республика илмий-амалий онлайн конференция материаллари 2021-йил 28-май. / Фарғона, "AL-FERGANUS" нашриёти. – 2021. –Б.17.

15. Жумаев Н.Х. Рақамли иқтисодиёт нега керак ва у нима беради:eview.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛМАСИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШУВИ

Ахмедов Хасанжон Мухамадович

мустақил тадқиқотчи
Тошкент давлат
иқтисодиёт университети
E-mail: x.axmedov@xb.uz.
ORCID:0009-0004-0732-1293

Аннотация. *мақолада миллий иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасининг моҳияти, унинг трансформациясига таъсир этувчи экзоген ва эндоген омиллар хамда инновацион кластер ва давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) иқтисодиётнинг институтционал тузилмасини такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари сифатида илмий асосланган.*

Калит сўзлар: *институтционал тузилма, трансформация, экзоген ва эндоген омиллар, инновацион кластерлар, технологик ривожланиш, рақамли иқтисодиёт, инновацион тизим, рейтинг, индекс, давлат-хусусий шериклиги.*

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРНАЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

Ахмедов Хасанжон Мухамадович

независимый исследователь
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: x.axmedov@xb.uz.
ORCID:0009-0004-0732-1293

Аннотация. *в статье научно обоснованы сущность институциональной структурной национальной экономики, экзогенные и эндогенные факторы, влияющие на её трансформацию, а также инновационные кластеры и государственно-частное партнёрство (ГЧП) как приоритетные направления совершенствования институциональной структуры экономики.*

Ключевые слова: *институциональная структура, трансформация, экзогенные и эндогенные факторы, инновационные кластеры, технологическое развитие, цифровая экономика, инновационная система, рейтинг, индекс, государственно-частное партнёрство.*

INSTITUTIONAL STRUCTURE OF THE NATIONAL ECONOMY AND ITS IMPROVEMENT

Akhmedov Khasanjon Mukhamadovich

Independent Researcher
Tashkent State the University of Economics
E-mail: x.axmedov@xb.uz.
ORCID:0009-0004-0732-1293

Abstract. *The article provides a scientific substantiation of the essence of the institutional structural organization of the national economy, the exogenous and endogenous factors influencing its transformation, as well as innovative clusters and public-private partnership (PPP) as priority directions for improving the institutional structure of the economy.*

Keywords: *institutional structure, transformation, exogenous and endogenous factors, innovative clusters, technological development, digital economy, innovation system, rating, index, public-private partnership.*

Кириш

Мамлакатимизда 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида иқтисодий барқарорликни таъминлаш ва аҳоли фаровонлигини оширишга катта таъсир кўрсатадиган янги технологик уклад талабларига мос келувчи иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасини шакллантириш, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва трансакцион харажатларни пасайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Маъмурий ислоҳотларнинг иккинчи босқичи сифатида келгуси йилда ҳудудлардаги бошқарув тизими ҳам ислоҳ қилинади. Барча маъмурий ислоҳотлар доирасидаги янги ташаббуслар Конституциямизда албатта белгилаб қўйилиши лозим [1]. Миллий иқтисодиётда янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқаришни институтционал таркибий тузилмасини шакллантириш, юқори технологияли ишлаб чиқаришни ривожлантириш, билимларнинг жадал равишда инновацион маҳсулотга айланишини рағбатлантириш, мавжуд ресурсларни қайта тақсимлашга имкон берувчи ваколатли молиялаштириш механизмини яратиш зарурати вужудга келмоқда. Бунинг учун рақамли иқтисодиёт инфратузилмаси бўлган технопарк, тадқиқот ва муҳандислик марказлари асосида инновацион кластерларини ривожлантириш бўйича илмий изланишларни янада чуқурлаштириш мақсадга мувофиқ. Бу эса миллий иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришга бағишланган мазкур тадқиқот мавзусининг долзарблигидан далолат беради.

Адабиётлар шарҳи

Иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмаси фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ва уни трансформация қилиш механизмлари таъсирини тадқиқ этган хорижлик олимларга Т.Кун, К.Перес, М.С.Роко, В.С.Бейнбридж, Т.Жотсана, Э.Себастиан, Д.Белл, Й.Шумпетер, С.Кларк, П.Арнолд, Г.Доси кабиларни келтириш мумкин.

Россиялик олимлардан Василевский Э., Иноземцев В.Л., Климович М.А., Красильников О.Ю., Кондратьев Н.Д., Буторина О.В., Кравец А.В., Коцюбинский В.А., Татаркин А.И., Романова О.А., Сухарев О.С. ва бошқалар ушбу мавзуга бағишланган илмий-тадқиқот ишларини олиб борган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан С.С.Гулямов, А.В.Вахабов, А.В.Ваҳабов, А.Ўлмасов, С.В.Чепель, Х.П.Абулқосимов, Т.С.Расулов, Т.Т.Жўраев, А.А.Маматов, Д.Х.Хасанова ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида иқтисодиётнинг институтционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришнинг назарий жиҳатлари, саноат инқилоби натижасида шаклланаётган янги технологик укладнинг такрор ишлаб чиқариш тузилмасини шакллантириш масалалари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

Д.Норт ва Л.Девисларнинг фикрига кўра, институционал муҳит – бу асосий сиёсий, ижтимоий ва ҳуқуқий қоидалар мажмуи бўлиб улар ишлаб чиқариш, айрбошлаш ва тақсимот учун баъзис яратади [2]. Дж.Р. Коммонс институтларни тарихий ривожланишидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларни қўллаб-қувватлаб унга кўра "эволюцион" тушунчаси "институционал" тушунчаси билан мазмун ва маъноси бир хил бўлади деб таъкидлайди [3].

Рус олими О.С.Сухаревнинг фикрига кўра, "мавжуд технологик асос, минтақавий эҳтиёжлар, мавжуд ресурслар ва эришилган меҳнат унумдорлиги даражасига мувофиқ такрор ишлаб чиқариш, тарқатиш ва алмашиш механизмлари таъсири остида юзага келадиган ўзаро боғлиқ нисбатлардаги ўзгаришларнинг мураккаб тизими [4]. О.Ю.Красильников нуқтаи назаридан, "таркибий ўзгариш-макроиқтисодий тизимнинг

таққосланадиган элементлари ўртасидаги муносабатларнинг сифат жиҳатидан ўзгариши, уларнинг миқдорий хусусиятларининг нисбати нотекис динамикаси [5] деб баҳо беради.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан профессор Маматов А.А., Жўраев Т.Т. “Индустриал жамиятдан постиндустриал жамиятга ўтиш, жамият ҳаётида туб ўзгаришлар билан боғлиқ бўлиб, унда инновацияларни кенг яратиш ва жорий этишга асосланган янги иқтисодий тизим моделига ўтиш билан амалга ошмоқда. Табиийки, ушбу даврда кластер моделида чуқур ўзгаришлар юз беради” [6]. Б.Маъмуровнинг фикрича, “Рақамли иқтисодиёт – иқтисодиётнинг таркибий қисмлари сифатида сунъий ақл(онг)дан фойдаланиш, иш жараёнларини роботлаштириш, ишлаб чиқариш жараёнида турмуш меҳнат харажатларини камайтириш, махсус компьютер дастурлари ёрдамида иқтисодий тизимларни моделлаштириш ва дастурий қобилиятини оширишдир” [7] деб хулоса қиладилар .

Тадқиқот методологияси

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади

Таҳлил ва натижалар

Жаҳон саноатида технологияларнинг ҳаётий циклини қисқаришида намоён бўладиган илмий ва технологик ривожланишнинг глобал тенденциялари, илмий билимларни жамғариш суръати, юқори фан сиғимли технологияларнинг тарқалиш тамойиллари хамда институционал муҳитдаги ўзгаришлар хом-ашё экспорт моделига асосланган иқтисодиётнинг институционал таркибий тузилмасини такомиллаштиришни долзарб қилиб кун тартибига қўймоқда.

Иқтисодий адабиётларда институционал муҳит ва институционал тузилма тушунчалари кўпинча бир хил деб қаралади. Ушбу категориялар ўртасидаги муносабатлар О.Уилямсон томонидан уч даражали схема доирасида аниқланди, унга кўра институционал тузилма шахслар (биринчи даража), институционал битимлар (иккинчи даража) ва институционал муҳит (учинчи даража) ўртасидаги муносабатлардир[8] деб баҳолади.

Рус олимларининг фикрича, институционал муҳитни фақат мулкий ҳуқуқлар нуқтаи назаридан кўриб чиқиш методологик жиҳатдан нотўғри бўлиб, у иқтисодий фаолият шарт-шароитларини белгиловчи расмий ва норасмий институтлар мажмуасидир. В.Вольчик институционал тузилмани иқтисодий хулқ-атвор матрицаларини яратадиган, хўжалик фаолиятини мувофиқлаштиришнинг муайян тизими доирасида шаклланадиган хўжалик юритувчи субъектлар учун чеклашларни белгилайдиган муайян буюртма қилинган институтлар мажмуи [9] деб белгилайди.

Технологик ривожланиш жараёнлари ва институционал муҳитни трансформацияси ўзаро боғлиқ бўлиб: илмий ва технологик ривожланишнинг юқори суръатлари, тегишли институционал шарт-шароитларни таълаб қилади. Шу билан бирга, янги технологик укладни шакллантириш воситаси вазифасини бажарувчи институционал тузилма айни пайтда унинг элементи хамдир. Е.Ясин томонидан таъкидланганидек "агар институционал тизим яхши йўлга қўйилган ва бозор муносабатларини (мулк ҳуқуқи, рақобат, контрактни ҳимоя қилиш) муваффақиятли қўллаб-қувватласа, технологик модернизация хеч қандай тўсиқларсиз амалга ошади, интенсив инновациялар оқими шаклланади, иқтисодиёт жонланади [10].

Янги иқтисодий муносабатлар тизимида институтционал тузилманинг трансформация жараёнини Ўзбекистонлик олимлар томонидан ҳам кенг тадқиқ этилган. Жумладан, Д.Тожибоеванинг фикрича, “Рақамли иқтисодиёт фақатгина инсоннинг интеллектуал салоҳияти туфайлигина эмас, балки институционал муҳит яратилиши, бу муҳитнинг бизнес ва истеъмолчилар амалиёти, иқтисодий агентларнинг ахборот ва

коммуникацион компонентлар билан таъминланишининг шакли, усулларини ўзгартиришига таъсир кўрсатиши ҳам муҳим ўрин тутади[11]. Бу жиҳатдан рақамли иқтисодиётга ёндашиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унга берилган таърифларда акс этади. Муҳими рақамли иқтисодиёт янги институционал муҳит яратилишига олиб келадики, у рақобатбардошликни таъминлаш учун маҳсулот ишлаб чиқариш сифатининг яхшиланиши ва нархининг оммабоп бўлиши, мувофиқ равишда инфратузилмани барпо этишга олиб келади.

Институционал тузилмани трансформацияси экзоген, эндоген омиллар ва комбинацион омиллари таъсирида содир бўлиши мумкин. Экзоген омиллар деганда ташқи шароитдан келиб чиқадиган омиллар: инқирозлар ва бошқа иқтисодий ҳодисалар, табиий ва иқлимий ҳодисалар тушунилади. Эндоген омиллар институционал ўзгаришларнинг ички сабаблари: иқтисодиётнинг циклик табиати, янги кашфиётлар, технологияларнинг пайдо бўлиши. Комбинацион тавсифдаги омиллар синергетик таъсир орқали институционал тузилмаларга таъсир этувчи ички ва ташқи омиллар мажмуасидир.

Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида реал институтларнинг вертуал шаклга эга бўлиш тенденциясини қайд этиши мумкин. Институтларни амалга оширишнинг янги шаклининг кутилаётган ижобий самарасини бюрократик тартибларни соддалаштириш, вақт ва моддий харажатларни камайтиришда ифодалаш мумкин. Институционал иқтисодиёт назарияси доирасида ахборот технологияларининг кенг тарқалиши туфайли электрон институционализм йўналиши шаклланмоқда. Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишнинг халқаро тенденцияси таҳлили бугунги кунда ишлаб чиқаришни бошқариш, ресурсларни иқтисод қилиш ва ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг сифат параметрларини қатъий назорат қилишга қаратилган интеграциялашган аппарат-дастурий комплексларини жорий этиш истиқболли йўналишлардан бири эканлигини кўрсатмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2020 йил 28 апрелдаги ПҚ-4699-сон Қарорига кўра, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукумат соҳаларида ягона ваколатли орган этиб белгиланиб, Вазирлик қошида “Электрон ҳукумат лойиҳаларини бошқариш маркази” ҳамда “Рақамли иқтисодиёт тадқиқотлари маркази” ташкил қилинди. 2023–2024 йилларда жами 268 та лойиҳалар амалга оширилди[12].

Институционал муҳитни трансформациялашнинг муҳим элементи бу унинг таркибий тузилмасини такомиллаштириш бўлиб, унинг асосий вазифаси илмий билимларни бозорда аниқ маҳсулотга жадал узатиш механизми бўлиб, бу инновацион фаолият иштирокчилари ўртасидаги боғлиқликни оширади. Юқори технологияли маҳсулотлар учун бозорларни жадал ривожлантириш имконини берадиган илмий ва технологик қўллаб-қувватлашнинг ривожланган инфратузилмасини ва мавжуд ресурсларни қайта тақсимлашга имкон берувчи ваколатли молиялаштириш механизмини яратиш керак. Бундан ташқари, расмий ва норасмий институтларни ривожлантириш интеллектуал мулк, солиқ ва божхона ҳуқуқи, мулкий ҳуқуқлар, коррупция ва маъмурий тўсиқларга қарши кураш масалаларини аниқ тартибга солувчи қонунчилик тизими доирасида амалга оширилиши мумкин.

Институционал тузилмани унинг даражалари, яъни расмий ва норасмий институтларни, шунингдек, институтлар эмас, балки уларнинг фаолиятини таъминлайдиган нормалар ва кўрсаткичларни батафсил кўриб чиқиш нуқтаи назаридан таҳлил қилиш ҳам ўринли ҳисобланади. Юқорида таъкидланганидек, расмий институтларга мулкий ҳуқуқ, шартнома ижроси, хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар, тармоқга киришдаги тўсиқлар, сиёсий институтлар, шунингдек, Қонунчилик ҳужжатларида мустаҳкамланган коррупция даражаси – нормалар ва қоидалар, норасмий институтлар – ишонч, анъана ва урф-одатлар институтлари киради.

Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида Ўзбекистон иқтисодиётининг институционал таркибий тузилмасини такомиллаштириш векторларини аниқлаш учун трансформацияга таъсир этувчи шарт-шароит ва омилларнинг ҳозирги даражасини баҳолаш зарур. Расмий институтларнинг ривожланиш даражасини акс эттирувчи кўпгина индексларда Ўзбекистоннинг кўрсаткичлари анча пастлиги амалга оширилаётган ислоҳотларнинг қонунчилик базасини шаклланмаганлигига боғлиқ. Қонунчилик доирасидаги бўшлиқлар, бюрократия, мулкий ҳуқуқларни заиф ҳимоя қилиш, суд тизимининг номукаммаллиги, жиддий коррупция компонентлари Ўзбекистон Республикасининг институционал муҳитига хос бўлган трансформацион ўзгаришлар жараёнини мураккаблаштиради.

Жаҳон банки ва S&P Global Ratings агентлиги рейтингида Ўзбекистон Республикаси 2025 йилда Умумжаҳон глобал инновация индекци бўйича 83-ўринни, БМТнинг Инсон тараққиёти индекци бўйича 106-ўринни, Коррупцияни идрок этиш индекци бўйича 126-ўринни, Иқтисодий эркинлик индекци бўйича 86-ўринни, Фаровонлик индекци индекци бўйича 100-ўринни ва Глобализация индекции бўйича 125-ўринни, SEDA кўрсаткичи бўйича 101 ўринни, БРМ бўйича тараққиёт индексига кўра, 77 ўринни, Инсон тараққиёти индекци бўйича 106 ўринда, Миллий Бахтлилик индекси бўйича 53-ўринни эгалламоқда.

1-жадвал.

Ўзбекистон Республикасининг 2025 йилги халқаро рейтингларда тутган ўрни[13]

№	Кўрсаткичлар	Ўзбекстон жаҳон рейтингларида
1.	Глобализация индекции	125
2.	Инновация индекци	83
3.	Иқтисодий эркинлик индекци	86
4.	Демократия индекци	146
5.	Коррупцияни идрок этиш индекци	126
6.	Барқарор ривожланиш мақсадлари	77
7.	Фаровонлик индекци	100
8.	Иқтисодий эркинлик индекци	117
9.	SEDA кўрсаткичи	101
10.	Миллий Бахтлилик индекси	53
11.	инсон тараққиёти индекци	106
12	Атроф-муҳит самарадорлиги индекси	104

Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳозирги таркибий тузилиши икки омилни натижасида зарурий ўзгаришларнинг моҳиятини белгилайди: янги юқори технологияли тармоқларни яратиш ва янги технологиялар асосида анъанавий тармоқларни модернизация қилиш, сифат ўзгаришлари билан бирга илмий, технологик, иқтисодий, ижтимоий ва институционал соҳаларда ислоҳотларни амалга ошириш. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, давлат саноат сиёсатининг асосий вазифаси сифатида самарали институционал тузилмани шакллантиришдир.

Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида бозор иқтисодиёти қоидаларида, бизнес юритиш қоидаларида, анъанавий иқтисодий қоидалар ва қонуниятларнинг намоён бўлишида жиддий ўзгаришлар рўй бермоқда. Инновация тизими фан, техника, иқтисодиёт, тадбиркорлик ва менежмент тамойилларини маълум бир нуқтада бирлаштирувчи тизим

бўлиб, бунинг натижасида илмий ғоялар ҳамда лойиҳаларнинг инновацион маҳсулотга айланиш даври тезлашади.

Инновацион тизим, тизимнинг марказий элементи сифатида инновацион корхоналарни, ҳамда инновацион корхона фаолият кўрсатишининг асосий босқичларини акс эттирувчи ва инфратузилмага мансуб бўлган элементлар гуруҳини, шу билан бир қаторда яна фаолият юритишнинг у ёки бу босқичларини маълум даражада енгиллаштирувчи ва давлат, илм-фан ва бизнеснинг кооперациясига имкон берувчи ташкилотларни ҳам ўз ичига олади.

Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётни институтционал такомиллаштиришнинг устувор йўналишларидан бири бу илм-фан, бизнес ва давлатнинг муваффақиятли ҳамкорлиги шаклларидан бири бўлган инновацион кластерларни яратишдир. Бундай восита турли соҳаларда ижтимоий аҳамиятга эга илмий лойиҳаларни амалга ошириш учун илм-фан, давлат ва бизнеснинг ташкилий уюшмасини тузишни ўз ичига олади. Инновацион кластерларнинг муваффақиятли ривожланиши учун тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ва умуман инновацион фаолиятни, шунингдек тўғридан-тўғри давлат-хусусий шериклик билан боғлиқ масалаларни тартибга солувчи қонунчиликнинг бутун тизимини шакллантириш зарур. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, инновацион соҳада давлат, бизнес ва илмфан ўртасидаги муносабатлар шериклик, тенг ҳуқуқли бўлиши, умумий мақсадларга эга бўлиши, уч томоннинг биргаликдаги саъй-ҳаракатлари билан молиялаштирилиши керак ҳамда олинадиган хавф ва натижалар тенг тақсимланиши керак. Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни таъкидлаш ўринлики, инновацион кластерлар Ўзбекистоннинг кейинги ривожланишида муҳим омил ҳисобланади. Чунки бу услуб тадқиқотни молиялаштириш ҳисобига катта даромад олинишини таъминлайди ва натижаларни тижоратлаштириш масалаларини муваффақиятли ҳал қилишга катта имконият яратади.

Инновацион кластер модели иқтисодиётни институтционал такомиллаштиришда маълум сифат кўрсаткичлари билан ҳам ажралиб туради. Буларга, биринчидан, кластер аъзоларининг ўзаро таъсири даражаси билан тавсифланган кластер боғланиши, шунингдек уларнинг зарур ресурслардан фойдаланиш имкониятлари киради. Иккинчидан, инновацион кластер моделининг ўзига хос хусусияти бу синергетик самарадир. Бу элементларнинг инновацион имкониятлар йиғиндиси билан аниқланадиган ва кластер элементларининг ўзаро синергетик таъсирига миқдорий баҳо берадиган ажралмас хусусиятдир. Шунингдек, инновацион кластер моделининг асосини унинг ядроси хисобланмиш уюшмалар (корхоналар) ва ўсиш захиралари ташкил этади. Мазкур корхоналар кластер фаолияти натижаларига асосий ҳисса қўшади. Ўсиш захиралари эса зарурат туғилганда кластернинг инновацион жараёнларини ташкил этишдаги камчиликларни бартараф эта олади ва бутун инновацион тизимнинг такомиллашуви ва стратегик ривожланиши буйича чораларни белгилайди.

Инновацион кластерлар фаолиятининг якуний натижаси бутунлай янги технологияли тармоқлар ва маҳсулотлардир. Инновацион кластернинг ядроси ҳисобланадиган йирик илмий-тадқиқот бирлашмалари атрофида кластер ядроси томонидан яратилган янги технологиялардан фойдаланган ҳолда, ускуналар ва материалларни ишлаб чиқарувчи ва етказиб берувчи корхоналар жойлаштирилади. Шундай қилиб, бутун жараён – инновацион ғоялар яратиш, уларни саноатга татбиқ этиш, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш ва уни истеъмолчига етказиб бериш кластерда амалга оширилади.

Ўзбекистонда миллий иқтисодиётни институтционал такомиллаштиришнинг устувор йўналишларидан бири бу давлат сектори томонидан ишлаб чиқариладиган ва тақдим қилинадиган хизматларни хусусий секторга узоқ муддатли тақдим қилинишини таъминлаш (баъзан 30 йилгача), тавакалчиликларни хусусий инвесторга ўтказиш, давлат ва маҳаллий тузилмалар билан ҳуқуқий шахсларнинг кўп қиррали узоқ муддатли шартнома шаклларини амалга ошириш шакли бўлган давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) бўлиб

ҳисобланади.

1-расм.

Давлат хусусий шерикликнинг афзалликлари[15].



Ўзбекистон Республикасида ДХШ нисбатан янги соҳа бўлишига қарамасдан, қисқа муддатларда ўзига хос миллий тизим ва ягона сиёсат йўлга қўйилишига эришилди. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги Қонуни **[**14**].** қабул қилиниши ва Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш Агентлигининг ташкил этилиши бунинг ёркин ифодасидир. Янги Ўзбекистон стратегиясига кўра иқтисодий тараққиётда узоқ муддатли стратегик режалаштириш ва давлат бюджети харажатларини прогнозлаштириш ДХШ иштирокчилари учун лойиҳа харажатларини тўғри режалаштиришга имкон яратмоқда. Бу омил бошқа инвестициявий фаолият турларининг муҳим омили бўлгани каби ДХШ лойиҳаларини амалга оширишда, айтиш мумкинки, ҳал қилувчи ўринда туради. Чунки, инвесторлар учун маълумотлар тўлиқлиги, ошкоралиги ва ҳаққонийлиги бозорни чуқур ўрганишга ва турли йўқотишларнинг олдини олишга хизмат қилади.

ДХШ механизмлари такомиллашиб бориши соҳада ижтимоий ёки инфратузилмавий лойиҳаларни амалга ошириш билан боғлиқ анаъанавий йўналишлар билан инновацион лойиҳалар ҳам фаоллашиб боради. Хусусан, ДХШ тизими орқали инновацион инфратузилмани ривожлантириш, бизнес-инкубаторлари, технопарклар ва технополислар барпо этиш янги йўналиш сифатида қўлланилмоқда.

Расмдан кўринадики ДХШ ўзининг бир қатор афзалликлари билан ижтимоий-иқтисодий тараққиётни янада рағбатлантирган ҳолда, иқтисодиётда инвестициялар оқимини кенгайтиради, бўш турган ресурсларни фаоллаштиради, давлат ва хусусий секторлар ўртасида ўзаро мувозанатлашган манфаатдорликни таъминлайди, ва энг асосийси, жамиятдаги қатор ижтимоий ва инфратузилмавий муаммоларни бартараф этишга туртки бўлади. ДХШ тизими самараси ўлароқ, ҳам давлат, ҳам бизнес, ҳам жамият бундан наф кўради. Шу билан бирга, ушбу тизим бошқа иқтисодий жараёнлар сингари ўзига хос

хусусиятлар, қонуниятлар ва тавакалчиликларга эга бўлиб, унинг муваффақиятли амалга оширилиши чуқур малака, профессионал тажриба, барқарор иқтисодий салоҳият сингари бир нечта омиллардан самарали фойдаланишни талаб этади.

Бизнинг фикримзча, Ўзбекистон Республикаси учун давлат-хусусий шерикчилигини ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

- илмий тадқиқотларни кенгайтириш ва амалиётда алоҳида лойиҳа устида параллел тадқиқотларни олиб бориш;
- илғор хорижий тажрибаларни чуқур ўрганиш ва халқаро амалиётда йўл қўйилган камчиликларни такрорламаслик чораларини кўриш;
- миллий иқтисодиётда ДХШ инвестициявий лойиҳаларни амалга ошириш имкониятларини баҳолаш;
- давлат ва хусусий бизнес ўртасида ахборотлар алмашинувини таъминлаш;
- соҳа учун малакали кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш.

Бизнинг назаримизда рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида институционал тузилмани такомиллаштиришнинг асосий йўналишларига қуйидагиларни таклиф этиш мумкин:

- янада мослашувчан, адаптив ва инновацияларни қабул қилувчи ташкилот шаклида;
- тузилма субъектлари ўртасида горизонтал боғланишларнинг устунлиги;
- янги институтларни мавжуд тузилмаларга жалб қилиш тезлигини ошириш;
- транзаксион харажатларини камайтириш (мисол сифатида, блокчейн технологияни келтириш мумкин, кодлаш мумкин бўлган хар қандай битимни ҳар қандай турини тасдиқлаш имконини беради, бу ўз навбатида транзакцион битим харажатларини сезиларли камайишига олиб келади);
- вертуал институтционал тузилма таркибига реал институционал тузилмаларни модификациялаш ёки вертуал майдонда мавжуд анъанавий муассасалари такрорланиши.

Хулоса сифатида институционал тузилмани трансформацияси экзоген, эндоген омиллар ва комбинацион омиллари таъсирида содир бўлади. Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида реал институтларнинг вертуал шаклга эга бўлиш тенденсиясини қайд этиши мумкин. Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётни институтционал такомиллаштиришнинг устувор йўналишларидан бири бу илм-фан, бизнес ва давлатнинг муваффақиятли ҳамкорлиги шаклларидан бири бўлган инновацион кластерларни яратишдир хамда тавакалчиликларни хусусий инвесторга ўтказиш, давлат ва маҳаллий тузилмалар билан ҳуқуқий шахсларнинг кўп қиррали узоқ муддатли шартнома шаклларини амалга ошириш шакли бўлган давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси 21.12. 2022 йил.

2. Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. –Cambridge, 1971. –pp. 5-6.

3. Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. –М.: Финансы и статистика, 2010. –С. 34.

4. Сухарев О. С. Структурные проблемы экономики России: теоретическое обоснование и практические решения. –М.: Финансы и статистика, 2010. –С. 34.

5. Красильников О. Ю. Структурные сдвиги в экономике. –Саратов: Изд-во СГУ, 2001. –С. 24.

6. Маматов А.А., Жўраев Т.Т. Кластерларни ташкил этиш ва уларнинг фаолиятини йўлга қўйишнинг хориж тажрибаси. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” электрон журнали. №1, 2020. –Б.12.

7. Маъмуров Б.Х. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг концептуал асослари ва хориж тажрибаси. Иқтисодиёт ва таълим журнали. 2020 йил № 4. –Б.44.

8. Уильямсон О.И. Экономические институты капитализма. Фирмы, рынки, «отношенческая» контрактация. –Спб.: Лениздат, CEVPress, 1996. –С. 688.

9. Вольчик В. В. Институциональная и эволюционная экономика. –Ростов н/Д: Изд-во ЮФУ, 2011. –С. 23.

10. Ясин Е. Институциональные ограничения модернизации, или приживется ли демократия в России? // Вопросы экономики. –2011. –№11. –С. 5.

11. Тожибоева Д. Рақамли иқтисодиёт институционал назариянинг янги йўналиши сифатида. “Иқтисод ва молия” журнали 2021, №1. –Б. 95.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2020 йил 28 апрелдаги ПҚ-4699-сон Қарори

13. http://ratings.gov.uz/.

14. “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. https://lex.uz/docs/.

ALOQA VA AXBOROT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI VA ULARNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Abduraxmonova Munisa Axat qizi

mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti
E-mail: munis11142020@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa va axborot xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ularning nazariy yondashuvlari tadqiq etilgan. Telekommunikatsiya xizmatlari bozorida marketing strategiyalarining o‘rni va ahamiyati, elektron tijorat tizimi bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar samaradorligini oshirish, virtual bozorlar va platforma iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, telekommunikatsiya xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, marketing strategiyasi, elektron tijorat, raqamli platformalar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion rivojlanish, xizmatlar bozori, virtual iqtisodiyot.*

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ УСЛУГ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К НИМ

Абдурахмонова Муниса Ахат кизы

независимый исследователь
Каршинский государственный университет
E-mail: munis11142020@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассматриваются организационно-экономические механизмы развития коммуникационных и информационных услуг в цифровой экономике и их теоретические подходы. Анализируется роль и значение маркетинговых стратегий на рынке телекоммуникационных услуг, их взаимосвязь с системой электронной коммерции. В результате исследования обосновываются направления повышения эффективности услуг, основанных на цифровых технологиях, развития виртуальных рынков и платформенной экономики. Также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию отрасли.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, телекоммуникационные услуги, информационно-коммуникационные технологии, маркетинговая стратегия, электронная коммерция, цифровые платформы, организационно-экономический механизм, инновационное развитие, рынок услуг, виртуальная экономика.*

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATION AND INFORMATION SERVICES AND THEORETICAL APPROACHES TO THEM

Abdurakhmanova Munisa Axat kizi

Independent Researcher
Karshi State University
E-mail: munis11142020@gmail.com

Abstract. *This article examines the organizational and economic mechanisms for the development of communication and information services in the digital economy and their theoretical approaches. The role and importance of marketing strategies in the*

telecommunications services market, their interrelation with the e-commerce system are analyzed. As a result of the study, directions for improving the efficiency of services based on digital technologies, the development of virtual markets and the platform economy are substantiated. Also, scientific and practical proposals for improving the industry are developed.

Keywords: *digital economy, telecommunication services, information and communication technologies, marketing strategy, e-commerce, digital platforms, organizational and economic mechanism, innovative development, services market, virtual economy.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida telekommunikatsiya xizmatlari iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu soha nafaqat axborot almashinuvi va kommunikatsiya jarayonlarini ta’minlaydi, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini integratsiyalovchi muhim infratuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, telekommunikatsiya xizmatlari samaradorligini oshirish va ularning bozor mexanizmlarini takomillashtirishda marketing strategiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda marketing strategiyasining telekommunikatsiya xizmatlari rivojlanishiga ta’siri sezilarli darajada ortib bormoqda. Uning ta’siri ostida mazkur xizmatlar bozori tarkibi, iqtisodiy faoliyat shakllari va raqobat muhiti tubdan o‘zgarib, yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanmoqda. Xususan, marketing yondashuvlari asosida telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirish geografik chegaralarni qisqartiradi, xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtiradi hamda ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, marketing strategiyalarini samarali qo‘llash telekommunikatsiya xizmatlari sohasida mehnat munosabatlarini takomillashtirish, mehnat resurslari harakatchanligini oshirish hamda xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish tizimining transformatsiyasini ta’minlaydi. Natijada, ushbu soha iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylanib, global raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, telekommunikatsiya xizmatlari bozorida marketing strategiyalarining samarali qo‘llanilishi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki globalizatsiya jarayonlarida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur holat aloqa va axborot xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini chuqur ilmiy tadqiq etish va ularni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi

Aloqa va axborot xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda marketing yondashuvlari masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, xizmatlar bozori va telekommunikatsiya tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xorijiy olimlardan M. Porter o‘zining klaster nazariyasida xizmatlar sohasi, xususan telekommunikatsiya infratuzilmasining hududiy raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rnini asoslab bergan. Uning fikricha, zamonaviy iqtisodiyotda raqamli infratuzilma va aloqa xizmatlari iqtisodiy klasterlarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi (Porter, 1998) [1]. P. Romer tomonidan ilgari surilgan endogen o‘sish nazariyasida esa bilimlar va texnologiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai sifatida qaralib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati alohida ta’kidlangan (Romer, 1990) [2].

Telekommunikatsiya xizmatlari va raqamli iqtisodiyot masalalari xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, OECD va Jahon banki hisobotlarida raqamli infratuzilma, internet qamrovi va raqamli xizmatlar rivojlanishi iqtisodiy o‘sish va bandlikni oshirishning muhim omili sifatida baholanadi [3]. Ushbu tadqiqotlarda marketing strategiyalari orqali xizmatlar bozorini kengaytirish va raqamli platformalar orqali qiymat yaratish jarayonlari alohida ko‘rib chiqilgan. Mahalliy va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham mazkur

yo‘nalishda muhim ilmiy natijalar olingan [4]. Xususan, xizmatlar iqtisodiyoti va telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda davlatning tartibga soluvchi roli, investitsiya siyosati va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritilgan. Ayrim tadqiqotlarda telekommunikatsiya xizmatlari samaradorligini oshirishda marketing yondashuvlarining ahamiyati, xizmatlar sifati va iste’molchilar ehtiyojlarini qondirish mexanizmlari tahlil qilingan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida, ya’ni marketing strategiyalari, raqamli transformatsiya va hududiy rivojlanish omillari integratsiyasida o‘rganish yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, hududiy kesimda, xususan Qashqadaryo viloyati misolida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish masalalari alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda aloqa va axborot xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganishda tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik usullardan foydalanilib, telekommunikatsiya xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari va omillari aniqlashtirildi.

Shuningdek, xorijiy tajribani o‘rganish orqali ilg‘or yondashuvlar tahlil qilinib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Aloqa va axborot xizmatlari samaradorligini aniqlashda indikatorlar (KPI) tizimidan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistika ma’lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy manbalar tashkil etadi.

Tahlil va natijalar

Telekommunikatsiya xizmatlari orqali ishlab chiqaruvchilar va savdo subyektlari iste’molchilarni jalb qilish, ularni saqlab qolish hamda xarid qilishga rag‘batlantirish maqsadida marketing strategiyalarini shakllantiradi va tegishli marketing budjetlarini yo‘naltiradi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ushbu jarayonlar yanada takomillashib, iste’molchini nafaqat xaridor, balki mahsulot va brendning faol tarafdoriga aylantirish imkonini bermoqda. Natijada, virtual xizmatlar va platformalar asosida faoliyat yurituvchi yangi iqtisodiy subyektlar – virtual korxonalar va raqamli bozorlarda ishlovchi tashkilotlar shakllanmoqda.


Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylangan. Jumladan, 2018-yilda Buyuk Britaniyada (61,2%), AQShda (60,2%) va Germaniyada (60%) yalpi ichki mahsulotning yarmidan ortig‘i raqamli iqtisodiyot hissasiga to‘g‘ri kelgan. Jahon miqyosida 2018-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 84 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, Oxford Economics prognozlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib raqamli iqtisodiyot hajmi 23 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar an’anaviy tarmoqlarga nisbatan yuqori samaradorlikni ta’minlab, o‘rtacha 6,7 barobar yuqori rentabellik ko‘rsatkichiga ega. Bu holat telekommunikatsiya va axborot xizmatlari sohasini rivojlantirishda marketing strategiyalari hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasining muhimligini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, elektron tijoratning asosiy turlari sifatida biznes subyektlari o‘rtasidagi (B2B, B2G), iste’molchilar bilan (B2C, C2C), davlat va fuqarolar o‘rtasidagi (G2C, A2A) hamda ijtimoiy va platforma asosidagi (P2P, D2C) munosabatlar ajratib ko‘rsatilgan. Bu esa telekommunikatsiya xizmatlari nafaqat aloqa vositasi, balki iqtisodiy faoliyatning barcha shakllarini birlashtiruvchi kompleks platforma ekanligini anglatadi. Umuman olganda, mazkur model telekommunikatsiya xizmatlari, marketing strategiyalari va elektron tijorat o‘rtasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlikni ifodalaydi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning konseptual asosini tashkil etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlari bozori rivojlanishining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu soha iqtisodiy tizimning barcha segmentlariga chuqur integratsiyalashgan holda faoliyat yuritmoqda.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Xususan, marketing strategiyalarining joriy etilishi telekommunikatsiya xizmatlari orqali axborot almashinuvi, savdo, moliyaviy operatsiyalar va xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlari asosida shakllanayotgan marketing strategiyalari va elektron tijorat tizimining o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan. Modelda internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosiy infratuzilma sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, ular marketing strategiyalari orqali elektron tijoratni rivojlantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlari, marketing strategiyasi va elektron tijorat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik modeli[80]

Rasm tahlili shuni ko‘rsatadiki, telekommunikatsiya xizmatlari asosida shakllangan elektron tijorat tizimi turli tashkiliy shakllar va iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Jumladan, axborot almashinuvi, kapital harakati, savdo, moliyaviy operatsiyalar, marketing va bank xizmatlari kabi yo‘nalishlar yagona tizimga integratsiyalashgan. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlari asosida shakllanayotgan elektron tijorat tizimi bir nechta muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi. Jumladan, biznes subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar (B2B, B2G), iste’molchilar bilan munosabatlar (B2C, C2C), davlat va fuqarolar o‘rtasidagi raqamli xizmatlar (G2C, A2A) hamda ijtimoiy va platforma asosidagi aloqalar (P2P, D2C) keng rivojlanib bormoqda. Bu esa telekommunikatsiya xizmatlari nafaqat aloqa vositasi, balki iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy platformaga aylanganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, telekommunikatsiya xizmatlari orqali amalga oshirilayotgan marketing faoliyati ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarga iste’molchilarni jalb qilish, ularning ehtiyojlarini chuqur o‘rganish hamda individual yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish imkonini bermoqda. Natijada, xizmatlar sifati oshib, iste’molchilar bilan uzoq muddatli aloqalar shakllanmoqda. Bu esa bozorda raqobat ustunligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida

[80] Muallif ishlanmasi

shakllanayotgan virtual bozorlar va platformalar yangi iqtisodiy subyektlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Virtual korxonalar, onlayn xizmat ko‘rsatish tizimlari va platforma iqtisodiyoti elementlari telekommunikatsiya xizmatlari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab bermoqda. Ushbu jarayonlar ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish tizimlarining transformatsiyasini tezlashtirib, mehnat resurslari harakatchanligini oshirmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, xususan marketing strategiyalarini keng joriy etish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali xizmatlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu bilan birga, ushbu sohani rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya xizmatlari iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveriga aylanib, elektron tijorat va raqamli platformalar orqali iqtisodiy jarayonlarning integratsiyasini ta’minlamoqda. Marketing strategiyalarining samarali qo‘llanilishi xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirib, iste’molchilar bilan barqaror aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli marketing texnologiyalarini keng joriy etish, elektron tijorat platformalarini qo‘llab-quvvatlash hamda innovatsion va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish orqali sohaning samaradorligini oshirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter M.E. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 2015.
2. Kotler F., Keller K.L. Marketing Management. – 15th ed. – Pearson Education, 2016.
3. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 2015.
4. OECD. Digital Economy Outlook 2020. – Paris: OECD Publishing, 2020.
5. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. – Washington DC, 2021.
6. Buhalis D. Information Technology in Tourism. – London: Routledge, 2019.
7. Oxford Economics. Digital Economy Forecast Report. – Oxford, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida farmoni. – Toshkent, 2020.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirishga oid qarorlari. – Toshkent, 2021–2024.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Aloqa va axborot xizmatlari bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2024.
11. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy ma’lumotlari. – 2024. – URL: https://mitc.uz
12. Statistika agentligi rasmiy sayti. Aloqa va AKT ko‘rsatkichlari. – 2024. – URL: https://stat.uz
13. OECD rasmiy sayti. Digital Economy ma’lumotlari. – 2023. – URL: https://www.oecd.org
14. World Bank rasmiy sayti. Digital Development ma’lumotlari. – 2023. – URL: https://www.worldbank.org
15. Oxford Economics rasmiy sayti. Digital economy prognozlari. – 2022. – URL: https://www.oxfordeconomics.com

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

EVOLUTION OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abdullaeva Madina Bahadirova

Lecturer
Branch of the Russian
State University of Oil and Gas
named after I.M. Gubkin in Tashkent

Muyassar Umarkhodjaeva Ganievna
Candidate of Economic Sciences, Professor
Tashkent State University of Economics
E-mail: Madi2902@mail.ru
ORCID: 0009-0004-5824-3395

Abstract. *This paper examines the key features and patterns of the transformation of organizational culture in industrial enterprises under conditions of economic digitalization. The study addresses both theoretical and applied aspects of the impact of digital technologies on corporate values, employee behavior, and contemporary management approaches. Particular attention is paid to the analysis of critical factors determining the success of cultural transformation, including the level of employees' digital competencies, organizational readiness for innovation, leadership quality, and the effectiveness of internal communication systems.The study identifies the main directions of organizational culture evolution, including the transition from hierarchical structures to flexible management models, the increasing importance of teamwork, the development of a continuous learning culture, and the growing role of digital literacy. It is argued that the formation of an adaptive, innovation-oriented, and change-ready organizational culture represents a necessary condition for the successful implementation of digital transformation in industrial enterprises. Furthermore, the paper contributes to the existing body of knowledge by systematizing key factors and mechanisms of cultural transformation in the digital environment. The findings of the study can be applied in the development of human resource management strategies, organizational development programs, and the implementation of digital technologies in the industrial sector.*

Keywords: *organizational culture, digital transformation, industrial enterprises, digitalization, corporate culture, management systems, digital competencies, organizational development, innovation, leadership.*

ЭВОЛЮЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Абдуллаева Мадина Бахадировна

преподаватель
Филиал РГУ нефти и газа (НИУ)
имени И.М. Губкина в г. Ташкенте

Умарходжаева Муяссар Ганиевна
кондидат экономичиский наук, профессор
Ташкентский государственный
экономический университет
ORCID: 0009-0004-5824-3395

Аннотация*. В данной статье рассматриваются ключевые особенности и закономерности трансформации организационной культуры промышленных предприятий*

в условиях цифровизации экономики. Исследование охватывает как теоретические, так и прикладные аспекты влияния цифровых технологий на корпоративные ценности, поведение сотрудников и современные управленческие подходы. Особое внимание уделяется анализу ключевых факторов, определяющих успешность культурной трансформации, включая уровень цифровых компетенций сотрудников, готовность организации к инновациям, качество лидерства и эффективность внутренних коммуникационных систем.

В работе выявлены основные направления эволюции организационной культуры, включая переход от иерархических структур к гибким моделям управления, усиление значимости командной работы, развитие культуры непрерывного обучения и возрастание роли цифровой грамотности. Обосновывается, что формирование адаптивной, инновационно-ориентированной и готовой к изменениям организационной культуры является необходимым условием успешной реализации цифровой трансформации промышленных предприятий.

Кроме того, статья вносит вклад в развитие научных представлений за счёт систематизации ключевых факторов и механизмов культурной трансформации в цифровой среде. Полученные результаты могут быть использованы при разработке стратегий управления персоналом, программ организационного развития, а также при внедрении цифровых технологий в промышленном секторе.

Ключевые слова: *организационная культура, цифровая трансформация, промышленные предприятия, цифровизация, корпоративная культура, системы управления, цифровые компетенции, организационное развитие, инновации, лидерство.*

SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILIY MADANIYAT EVOLYUTSIYASI

Abdullaeva Madina Bahadirova

I.M. Gubkin nomidagi
Rossiya davlat neft va gaz universitetining
Toshkent filiali o‘qituvchisi

Umarkhodjaeva Muyassar Ganievna

иқтисодиёт фанлари
номзоди, профессор
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0004-5824-3395

Annotatsiya*. Ushbu maqolada iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida sanoat korxonalarida tashkiliy madaniyat transformatsiyasining asosiy xususiyatlari va qonuniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot raqamli texnologiyalarning korporativ qadriyatlar, xodimlar xulq-atvori hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlariga ta’sirining nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi. Madaniy transformatsiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillar, jumladan, xodimlarning raqamli kompetensiyalari darajasi, tashkilotning innovatsiyalarga tayyorligi, yetakchilik sifati va ichki kommunikatsiya tizimlarining samaradorligi alohida tahlil qilinadi.*

Tadqiqot natijalarida tashkiliy madaniyat evolyutsiyasining asosiy yo‘nalishlari aniqlangan bo‘lib, ular ierarxik tuzilmalardan moslashuvchan boshqaruv modellariga o‘tish, jamoaviy ishning ahamiyatini oshishi, uzluksiz o‘rganish madaniyatining rivojlanishi hamda raqamli savodxonlik rolini ortishi bilan tavsiflanadi. Maqolada moslashuvchan, innovatsiyaga yo‘naltirilgan va o‘zgarishlarga tayyor tashkiliy madaniyatni shakllantirish sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti ekanligi asoslab beriladi.

Shuningdek, maqola raqamli muhitda madaniy transformatsiyaning asosiy omillari va mexanizmlarini tizimlashtirish orqali ilmiy bilimlar rivojiga hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari kadrlar boshqaruvi strategiyalarini ishlab chiqishda, tashkiliy rivojlanish dasturlarini shakllantirishda hamda sanoat sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *tashkiliy madaniyat, raqamli transformatsiya, sanoat korxonalari, raqamlashtirish, korporativ madaniyat, boshqaruv tizimlari, raqamli kompetensiyalar, tashkiliy rivojlanish, innovatsiyalar, yetakchilik.*

Introduction

Digital transformation has become a dominant vector in the development of industrial enterprises, exerting a systemic and multi-level impact on production, managerial, and organizational processes. In the context of the accelerating digitalization of the economy, organizations are increasingly required to implement advanced digital technologies, reengineer business processes, and enhance the efficiency of data utilization as a strategic resource for decision-making (Vial, 2019; Verhoef et al., 2021). The industrial sector, characterized by a high level of technological and organizational complexity, serves as one of the primary drivers of digital transformation. The implementation of digital solutions contributes to improved operational efficiency, cost reduction, and the creation of sustainable competitive advantages (Porter & Heppelmann, 2014; Frank et al., 2019). In Russian practice, industrial digitalization is widely recognized as a critical factor in improving enterprise performance and long-term sustainability (Myzrova, 2023). Consequently, digital transformation takes on a systemic character, affecting not only technological infrastructures but also institutional and socio-cultural dimensions of organizations.In this context, organizational culture emerges as a fundamental component of modern management systems. It can be defined as a set of shared values, norms, and behavioral patterns that shape internal interactions and determine an organization’s capacity for adaptation (Schein, 2010; Hofstede et al., 2010). Organizational culture ensures coordination among employees, facilitates the effective use of human capital, and enhances organizational governance and resilience (Cameron & Quinn, 2011).

Under conditions of digital transformation, the role of organizational culture becomes increasingly significant, as it directly influences employees’ readiness for change, the level of innovation activity, and the organization’s adaptive capacity (Kane et al., 2015). However, empirical evidence suggests that technological modernization alone does not guarantee the achievement of digital transformation objectives. Organizational culture often acts as a critical limiting factor, either enabling transformation processes or generating resistance to change (Westerman et al., 2014). Despite the growing body of research on digital transformation and organizational culture, several important issues remain insufficiently explored. In particular, there is a lack of comprehensive methodological approaches to integrating digital organizational culture into the strategic development of industrial enterprises, as well as mechanisms for aligning cultural transformation with levels of digital maturity (Sebastian et al., 2017; Groshev, 2024). Moreover, in practice, organizational culture transformation processes are frequently fragmented and fail to ensure sufficient employee engagement in digital initiatives (Mikhalev, 2024). Thus, a significant research gap persists in the understanding of how organizational culture evolves in industrial enterprises under conditions of digital transformation. Addressing this gap is essential for improving the effectiveness of digital initiatives and ensuring their long-term sustainability. The aim of this study is to analyze the evolution of organizational culture in industrial enterprises in the context of digital transformation and to develop directions for its further advancement.

To achieve this aim, the following objectives are addressed:

to examine the theoretical foundations of organizational culture and digital transformation;

to determine the impact of digitalization on the transformation of organizational culture in industrial enterprises;

to identify key barriers and factors influencing the development of digital organizational culture;

to substantiate directions for improving organizational culture in the context of digital transformation.




Figure 1. Conceptual framework of key factors, transformation mechanisms, and expected outcomes of digital transformation.

Methods

This study is based on a qualitative research design aimed at analyzing the transformation of organizational culture in industrial enterprises under conditions of digitalization. The methodological framework combines several complementary approaches to ensure a comprehensive and systematic analysis.

First, a systematic literature review was conducted to identify the key theoretical concepts and contemporary trends related to organizational culture and digital transformation. The review included academic publications, analytical reports, and empirical studies by leading researchers in the field (Vial, 2019; Kane et al., 2015; Verhoef et al., 2021).

Second, the study applies a comparative analysis to examine different models of organizational culture (person-oriented, function-oriented, and digitally-oriented) and to determine their relevance in the context of digital transformation.

Third, a systems approach is used to analyze organizational culture as an integrated and dynamic system consisting of interrelated elements, including values, norms, behaviors, and management practices. This approach allows for identifying structural and functional changes occurring within organizations.

In addition, elements of the process and project approaches are employed to explore the mechanisms and stages of cultural transformation. The process approach enables the identification

of continuous changes in organizational practices, while the project approach focuses on targeted initiatives aimed at developing digital competencies and innovation-oriented behavior.

The combination of these methods makes it possible to systematize key factors influencing the evolution of organizational culture and to substantiate directions for its development in the digital economy.

Results

Organizational culture should be considered as a dynamic and multi-level process that is formed and evolves under the influence of both external and internal environmental factors. Key determinants of its development include institutional conditions, the level of digitalization, organizational structure, as well as investments in human capital development and intra-organizational relationships. In this context, organizational culture is not a static element but an adaptive system capable of transforming in response to environmental changes.

The structure and interrelations of the components of organizational culture are presented in Figure 1, which reflects the structural and functional logic of its development under conditions of digital transformation.

In analyzing the essence of modern organizational culture, it is advisable to apply an integrative approach based on the synergy of process, project, and systems management. The process approach enables the consideration of organizational culture as a continuous sequence of managerial and behavioral practices that ensure its development and adaptation. It also allows for the identification of new directions for cultural transformation in response to the evolving demands of the digital economy**.**

The project approach, in turn, facilitates the implementation of targeted changes in organizational culture through the introduction of innovative initiatives and development programs. This approach makes it possible to structure cultural transformation processes, define their stages, allocate resources, and determine expected outcomes.The systems approach considers organizational culture as an integrated set of interrelated elements, whose functioning is ensured through effective communication and coordination. It is aimed at creating a stable organizational environment capable of supporting digital transformation processes and ensuring alignment among all organizational actors.

It should be noted that organizational culture is context-specific and is shaped by the unique characteristics of a particular organization. It is manifested through a system of values, norms, traditions, symbols, and behavioral patterns that define the organization’s style of operation and internal interaction. Under conditions of digital transformation, these elements acquire new meanings, emphasizing innovation, flexibility, and openness to change. Thus, organizational culture functions not only as a reflection of the internal environment of the enterprise but also as a strategic resource that ensures sustainable development and competitiveness in the digital economy. Within the scope of their orientation, several models of organizational culture can be identified.

The person-oriented model places the individual employee at the center of the organizational system, emphasizing personal development and self-realization. In this model, management focuses on creating favorable conditions that enable employees to develop both professionally and personally. It ensures the acquisition of relevant skills, knowledge, and competencies necessary for effective performance and long-term career growth.In contrast, the function-oriented model prioritizes the stability and efficiency of organizational operations. In this case, the interests and individual needs of employees are considered secondary. The primary focus is placed on the organization’s mission, goals, and objectives, as well as on the tactical and strategic mechanisms required for their achievement. This model emphasizes structure, control, and the alignment of all organizational elements toward predefined outcomes.



Figure 2. Components of Organizational Culture.

The digitally-oriented model represents a contemporary approach to organizational culture shaped by the processes of digital transformation. This model is characterized by flexibility, innovation, and a high level of adaptability to change. It emphasizes the importance of digital competencies, continuous learning, data-driven decision-making, and collaborative interaction through digital platforms. Employees are viewed not only as performers but also as active participants in innovation processes. Leadership within this model is typically transformational and supports experimentation, knowledge sharing, and rapid organizational adaptation.

These models reflect different approaches to managing human resources and organizational priorities. In the context of digital transformation, a gradual shift from function-oriented to person-oriented and digitally-oriented cultural models can be observed, highlighting the increasing importance of flexibility, innovation, and employee engagement.

The formation and development of organizational culture cannot be adequately understood without considering its specific characteristics, which reflect the unique features of organizational functioning, value orientations, management structure, and the influence of the external environment.

Figure 3.

General Characteristics of Organizational Culture.

Universal nature of organizational culture
Organizational culture is an integral part of the enterprise and encompasses all processes occurring within it.
Long-term formation of organizational culture
Organizational culture (both formal and informal) begins to develop from the moment the enterprise is established and continues to evolve throughout its entire life cycle.
Regulated nature of organizational culture
The foundation of organizational culture consists of values, traditions, and norms of behavior formed by members of the organization over time, formally approved by management and often institutionalized within organizational documents.
Continuity of organizational culture development
Organizational culture is in a constant state of development, which must be taken into account in managerial decision-making processes.
Goal-oriented nature of organizational culture
Organizational culture is aimed at solving specific tasks and achieving clearly defined organizational goals.

The contemporary paradigm of industrial enterprise development is transforming the role of organizational culture as a key factor in enhancing operational efficiency and long-term performance. In this context, organizational culture is no longer viewed merely as a supporting element but as a strategic resource that determines the success of organizational transformation. In particular, the principles of post-industrial development are becoming increasingly prominent, including the advancement of the digital economy. These principles emphasize knowledge-based value creation, innovation, flexibility, and the integration of digital technologies into all aspects of enterprise activity. As a result, organizational culture must evolve to support these transformations by fostering adaptability, continuous learning, and digital competencies among employees.




Figure 4. The Role of Organizational Culture in the Management System of Industrial Enterprises

Conclusion

The study confirms that organizational culture plays a critical role in ensuring the success of digital transformation in industrial enterprises. The transition toward flexible, innovation-oriented, and digitally-driven cultural models represents a necessary condition for improving organizational adaptability and competitiveness.

The results demonstrate that the development of digital competencies, effective leadership, and internal communication systems are key factors influencing cultural transformation. At the same time, the integration of organizational culture into strategic management processes remains an important challenge.

The findings of this study may be used in the development of organizational strategies, human resource management systems, and digital transformation programs. Future research may focus on empirical validation of the proposed approaches and the assessment of digital culture maturity in industrial enterprises.

References

1. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. Journal of Strategic Information Systems, 28(2), 118–144.

2. Verhoef, P. C., Broekhuizen, T., Bart, Y., Bhattacharya, A., Dong, J. Q., Fabian, N., & Haenlein, M. (2021). Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda. Journal of Business Research, 122, 889–901.

3. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). How smart, connected products are transforming competition. Harvard Business Review, 92(11), 64–88.

4. Frank, A. G., Dalenogare, L. S., & Ayala, N. F. (2019). Industry 4.0 technologies: Implementation patterns in manufacturing companies. International Journal of Production Economics, 210, 15–26.

5. Myzrova, O. (2023). Digital transformation of industrial enterprises in Russia: Trends and challenges.

6. Schein, E. H. (2010). Organizational Culture and Leadership (4th ed.). San Francisco: Jossey-Bass.

7. Hofstede, G., Hofstede, G. J., & Minkov, M. (2010). Cultures and Organizations: Software of the Mind. New York: McGraw-Hill.

8. Cameron, K. S., & Quinn, R. E. (2011). Diagnosing and Changing Organizational Culture. San Francisco: Jossey-Bass.

9. Kane, G. C., Palmer, D., Phillips, A. N., Kiron, D., & Buckley, N. (2015). Strategy, not technology, drives digital transformation. MIT Sloan Management Review.

10. Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. Boston: Harvard Business Review Press.

11. Sebastian, I. M., Ross, J. W., Beath, C. M., Mocker, M., Moloney, K., & Fonstad, N. O. (2017). How big old companies navigate digital transformation. MIS Quarterly Executive, 16(3).

12. Groshev, I. (2024). Organizational culture in the digital era: Transformation mechanisms and management tools.

13. Groshev, I.V. (2020). Transformation of organizational culture in the digital economy: theory and methodology. Doctoral dissertation in Economics. Moscow. 356 p. 14. Mikhalev, A.A. (2021). Development of organizational culture in industrial enterprises under digitalization. Candidate dissertation in Economics. Saint Petersburg. 182 p.

14.Baranov, A.V. (2019). Management of organizational culture in the context of innovative development. Candidate dissertation in Economics. Moscow. 210 p.

15.Ivanova, T.Yu. (2018). Formation and development of organizational culture in the system of strategic management. Candidate dissertation in Economics. Moscow. 175 p.

16.Groshev, I.V. (2016). Organizational culture. Moscow: UNITI-DANA, pp. 23–26.

17.Prigozhin, A.I. (2007). Methods of organizational development. Moscow: Delo,

18.Spivak, V.A. (2001). Organizational culture. Saint Petersburg: Piter.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA FIRIBGARLIKNI ANIQLASH VA OLDINI OLISHDA ICHKI NAZORAT TIZIMINING O‘RNI



Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li
xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi mudiri, PhD
Qo‘qon universiteti
E-mail: e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz
ORCID: 0009-0007-7561-5391

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ichki nazorat tizimining asosiy komponentlari, xususan, nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyatlari, axborot-kommunikatsiya hamda monitoring elementlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Shuningdek, firibgarlikning yuzaga kelish omillari “firibgarlik uchburchagi” nazariyasi asosida tahlil qilinib, ichki nazorat tizimining ayniqsa “imkoniyat” omilini kamaytirishdagi roli asoslab berildi. Amaliy misollar orqali ichki nazorat tizimini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.*

Kalit so‘zlar: *ichki nazorat tizimi, firibgarlik, ichki audit, risklarni boshqarish, COSO modeli, moliyaviy xavfsizlik, nazorat mexanizmlari, korporativ boshqaruv.*

РОЛЬ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ В ВЫЯВЛЕНИИ И ПРЕДОТВРАЩЕНИИ МОШЕННИЧЕСТВА В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Мехмоналиев Улугбек Эркинжон угли
PhD, заведующий кафедрой международный туризм и экономика
Кокандский университет
E-mail: e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz
ORCID: 0009-0007-7561-5391

Аннотация. *В данной статье на основе комплексного подхода анализируется значение системы внутреннего контроля в выявлении и предотвращении мошенничества на предприятиях. В процессе исследования изучена взаимосвязь основных компонентов системы внутреннего контроля, в частности, контрольной среды, оценки рисков, контрольной деятельности, информационно-коммуникационных и мониторинговых элементов. Также были проанализированы факторы возникновения мошенничества на основе теории “треугольника мошенничества“ и обоснована роль системы внутреннего контроля, особенно в снижении фактора “возможности.“ На практических примерах доказано, что совершенствование системы внутреннего контроля служит снижению финансовых потерь на предприятиях и повышению эффективности управления.*

Ключевые слова: *система внутреннего контроля, мошенничество, внутренний аудит, управление рисками, модель COSO, финансовая безопасность, механизмы контроля, корпоративное управление.*

THE ROLE OF THE INTERNAL CONTROL SYSTEM IN IDENTIFYING AND PREVENTING FRAUD IN JOINT-STOCK COMPANIES

Mekhmonaliev Ulugbek Erkinjon ugli
Head of the Department of International Tourism and Economics, PhD
Kokand University

E-mail: e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz
ORCID: 0009-0007-7561-5391

Abstract. *This article analyzes the importance of the internal control system in identifying and preventing fraud in enterprises based on a comprehensive approach. In the course of the research, the main components of the internal control system were studied, in particular, the control environment, risk assessment, control activities, information and communication, and the interrelationship of monitoring elements. Also, the factors of fraud occurrence were analyzed based on the theory of the “fraud triangle,“ and the role of the internal control system in reducing the “opportunity” factor was substantiated. Through practical examples, it has been proven that improving the internal control system serves to reduce financial losses in enterprises and increase management efficiency.*

Keywords: *internal control system, fraud, internal audit, risk management, COSO model, financial security, control mechanisms, corporate governance.*

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, firibgarlik holatlarining ko‘payishi, ularning yashirin shakllarda namoyon bo‘lishi va korxona faoliyatiga sezilarli zarar yetkazishi ichki nazorat tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarida firibgarlikni aniqlash va oldini olishda ichki nazorat tizimining o‘rni alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’kidlab kelmoqda. Prezident ta’kidlaganidek, “korrupsiya va firibgarlik har qanday islohotlarning samaradorligiga jiddiy to‘siq bo‘ladi” [1]. Shu bois bu illatlarga qarshi tizimli yondashuvni yo‘lga qo‘yish zarur.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, firibgarlik nafaqat alohida korxonalarning moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki butun iqtisodiyot barqarorligiga ham tahdid soladi. Firibgarlik natijasida moliyaviy yo‘qotishlar, ishonchning pasayishi, investitsion muhitning yomonlashuvi kabi salbiy oqibatlar yuzaga keladi. Shu sababli, firibgarlikni erta aniqlash va uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlari aksiyadorlik jamiyatlarida ichki nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi [2, 3, 4]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, aktivlarni himoya qilish, qonunbuzarliklarning oldini olish va aniqlashga qaratilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish zarurligi alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, xalqaro standartlar, jumladan COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) modeli asosida ichki nazorat tizimini tashkil etish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [5].

Mazkur tadqiqot mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish va iqtisodiy o‘sishni prognozlash mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Metodologik asos sifatida strukturaviy o‘zgarishlar nazariyasi, hududiy rivojlanish konsepsiyasi hamda zamonaviy sanoat siyosati tamoyillari qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli orqali mintaqa sanoat kompleksining tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlararo bog‘liqligi o‘rganildi. Iqtisodiy-statistik tahlil yordamida sanoat ishlab chiqarishi hajmi, qo‘shilgan qiymat, investitsiya oqimlari va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari baholandi. Strukturaviy va komparativ tahlil asosida ustuvor tarmoqlar va rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Mintaqa sanoat tuzilmasini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy sharti ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o‘sishning intensiv omillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ya’ni ishlab chiqarish hajmini oddiy ravishda kengaytirish emas, balki mavjud resurslardan yuqori samaradorlik bilan foydalanish, texnologik yangilanishni jadallashtirish hamda boshqaruv mexanizmlarini optimallashtirish muhim hisoblanadi. Mintaqa sanoatida ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p omilli va tizimli jarayon bo‘lib, u resurslarni tejash, texnologik modernizatsiya, inson kapitalini rivojlantirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi. Avvalo, resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy iqtisodiy omillaridan biridir. Resurs samaradorligi ishlab chiqarish hajmining foydalanilgan resurslarga nisbati orqali aniqlanadi:

$$RS = \frac{Q}{R}$$

Bu yerda: Q- ishlab chiqarish hajmi, R- sarflangan resurslar hajmi.

Mazkur ko‘rsatkichning oshishi ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilganligini va tannarxning pasayganligini anglatadi. Resurslardan tejab-tergab foydalanish ish vaqtini tejash, mehnat sig‘imini pasaytirish hamda ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ikkinchidan, texnologik modernizatsiya sanoat samaradorligini oshirishning muhim drayveri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqamlashtirish mehnat unumdorligining ortishiga olib keladi. Mehnat unumdorligi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$MU = \frac{Q}{L}$$

Bu yerda: L- mehnat resurslari (xodimlar soni yoki ish vaqti).

Texnologik darajaning oshishi ishlab chiqarish jarayonida har bir xodim hisobiga ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vazifa fond sig‘imini oshirish emas, balki asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishdir. Bu

esa fond qaytimi ko‘rsatkichi orqali baholanadi:

$$FQ = \frac{Q}{K}$$

Bu yerda: K- asosiy fondlar qiymati.

Uchinchidan, inson kapitalini rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Xodimlar malakasini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va motivatsiya tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Inson kapitali samaradorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$HK = \frac{VA}{L}$$

Bu yerda: VA- qo‘shilgan qiymat, L- xodimlar soni.

Mazkur ko‘rsatkich inson omilining ishlab chiqarish natijalariga ta’sir darajasini ifodalaydi. To‘rtinchidan, boshqaruv tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning institutsional asosi hisoblanadi. Boshqaruv samaradorligi ishlab chiqarish natijasining boshqaruv xarajatlariga nisbati orqali baholanadi:

$$BE = \frac{Natija}{BX}$$


Bu yerda: BX- boshqaruv xarajatlari.

Boshqaruv xarajatlarining oqilona taqsimlanishi va qaror qabul qilish jarayonining optimallashtirilishi iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi. Yuqoridagi barcha yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida ishlab chiqarish samaradorligining integral ko‘rsatkichi shakllanadi. Uni quyidagi funksional model orqali ifodalash mumkin:

$$ISE = f(RS, MU, HK, FQ, BE)$$

Bu yerda:ISE- ishlab chiqarishning integral samaradorligi.

Mazkur ko‘rsatkichning ortishi mintaqa sanoat tuzilmasining optimallashuvi, mahsulot tannarxining pasayishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining barqarorlashuvini ta’minlaydi. Shu tariqa, mintaqa sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategik rejalashtirish, resurslarni muvofiqlashtirish, texnologik modernizatsiya va samarali boshqaruv mexanizmlarining sintezi asosida amalga oshirilishi zarur. Bunday kompleks yondashuv sanoat tuzilmasini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim metodologik asosini tashkil etadi.



1-rasm. Mintaqa sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va boshqaruv mexanizmlari[84]

[84] Muallit tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasmda mintaqa sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘rtta yirik blok asosida tasniflangan: resurslarni tejash, texnologiyalarni rivojlantirish, inson omilini faollashtirish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish. Resurslarni tejash yo‘nalishi ish vaqtini tejash, mehnat sig‘imini pasaytirish va ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Texnologiyalarni rivojlantirish innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish va zamonaviy materiallardan foydalanish orqali unumdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish faqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bilan cheklanmaydi, balki mehnat sig‘imini kamaytirish, texnologik modernizatsiya, sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda boshqaruvning moslashuvchan mexanizmlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Boshqacha aytganda, boshqaruv va korxona ishlab chiqarish samaradorligini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, lekin bu holatda ishlab chiqarish samaradorliginisbatan ustuvorlikka ega bo‘lishi lozim. Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini quyidagi 1-rasmda ifodalash mumkin. Inson omilini faollashtirish xodimlar malakasini oshirish, javobgarlikni kuchaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilashni o‘z ichiga oladi. Boshqaruv tizimini rivojlantirish esa mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, boshqaruv funksiyalarini optimallashtirish va motivatsiya mexanizmlarini kuchaytirish orqali samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu omillarning o‘zaro integratsiyasi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, bu esa mintaqaviy iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy strategik omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Sanoat tarkibini modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli va innovatsion tarmoqlar ulushini oshirish hamda investitsiya resurslarini ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish hududiy iqtisodiy dinamikani jadallashtiradi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, sanoat siyosatini institutsional islohotlar, klasterlashuv va infratuzilmani rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirish yalpi hududiy mahsulot o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sishni prognozlashda qo‘llanilgan trend va ekonometrik modellar sanoat siyosatidagi tarkibiy o‘zgarishlar bilan o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Natijada, mintaqaviy sanoat siyosatini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish va ilmiy asoslangan prognozlash mexanizmlarini joriy etish hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, investitsiya faolligini kuchaytirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. World Development Report 2024: Industrial Policy for Development. Washington DC, 2024.
2. McMillan, M., Rodrik, D. Structural Change and Productivity Growth. Journal of Economic Perspectives, 2023.
3. OECD. Regional Outlook 2023: Structural Transformation and Regional Development. Paris, 2023.
4. OECD. Regions and Cities at a Glance 2024. Paris, 2024.
5. UNIDO. Industrial Development Report 2024. Vienna, 2024.
6. IMF. World Economic Outlook 2024: Resilience and Growth. Washington DC, 2024.
7. IEA. World Energy Outlook 2024. Paris, 2024.
8. IMF. Regional Economic Outlook 2024. Washington DC, 2024.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

INVESTITSIYALARNING TARKIBIY DINAMIKASI VA ULARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI KORRELYATSION-REGRESSION TAHLIL QILISH

Ergasheva Ma’mura Farxodovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
“Fazoviy ma’lumotlar
infratuzilmasi, geodeziya, kadastr yo‘nalishida
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish markazi”
davlat muassasasi bosh mutaxassisi
e-mail:ergashevamamura86@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarkibiy dinamikasi hamda ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri iqtisodiy-statistik usullar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda 2016–2025-yillar davomida investitsiyalar hajmi va yalpi ichki mahsulot o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion-regression model yordamida baholangan. Shuningdek, investitsiyalarning sektorlar kesimidagi taqsimoti va iqtisodiy samaradorligi o‘rganilgan. Tahlil natijalari investitsiya jarayonlari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, korrelyatsion tahlil, regression model, investitsiya samaradorligi, ICOR koeffitsienti, makroiqtisodiy rivojlanish.*

КОРРЕЛЯЦИОННО-РЕГРЕССИОННЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНОЙ ДИНАМИКИ ИНВЕСТИЦИЙ И ИХ ВЛИЯНИЯ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

Эргашева Мамура Фарходовна
Независимый исследователь
Ташкентского государственного экономического университета,
Главный специалист “Центра переподготовки и
повышения квалификации кадров в области
инфраструктуры пространственных данных,
геодезии и кадастра”
e-mail:ergashevamamura86@gmail.com

Аннотация: *В статье анализируются структурная динамика инвестиций и их влияние на экономический рост в экономике Узбекистана. В исследовании на основе экономико-статистических методов проведена корреляционно-регрессионная оценка взаимосвязи между объемом инвестиций и ростом валового внутреннего продукта за 2016–2025 годы. Также рассмотрены отраслевые особенности распределения инвестиций и их экономическая эффективность. Результаты анализа показывают, что инвестиционные процессы являются важным фактором обеспечения устойчивого экономического роста.*

Ключевые слова: *инвестиции, экономический рост, корреляционный анализ, регрессионная модель, эффективность инвестиций, коэффициент ICOR, макроэкономическое развитие.*

CORRELATION-REGRESSION ANALYSIS OF THE STRUCTURAL DYNAMICS OF INVESTMENTS AND THEIR IMPACT ON ECONOMIC GROWTH

Ergasheva Mamura Farkhodovna
Independent Researcher of
Tashkent State University of Economics,
Senior Specialist

of the “Center for professional development and retraining in the field of spatial data infrastructure, geodesy and cadastre”
e-mail:ergashevamamura86@gmail.com

Abstract: *This article examines the structural dynamics of investments and their impact on economic growth in the economy of Uzbekistan. Using economic and statistical methods, a correlation-regression analysis was conducted to assess the relationship between investment volume and GDP growth for the period 2016–2025. The study also analyzes the sectoral distribution of investments and their economic efficiency. The results indicate that investment processes play a significant role in ensuring sustainable economic growth.*

Keywords: *investments, economic growth, correlation analysis, regression model, investment efficiency, ICOR coefficient, macroeconomic development.*

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardosh-ligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun investitsiya jarayonlarining barqarorligi va samaradorligi iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalar hajmi va ularning tarkibiy tuzilmasi iqtisodiyotning modernizatsiyasi hamda tarkibiy o‘zgarishlarini jadallashtirishda asosiy iqtisodiy instrumentlardan biri hisoblanadi[3].

Iqtisodiy nazariya doirasida investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim determinantlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Klassik iqtisodiy maktab vakillari kapital jamg‘arilishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga xizmat qilishini ta’kidlagan bo‘lsalar, keyingi davr iqtisodiy nazariyalarida investitsiyalar texnologik taraqqiyot, innovatsion rivojlanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi[4]. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni statistik hamda ekonometrik usullar orqali chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham so‘nggi yillarda investitsiya siyosatini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb qilish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan investitsiya dasturlari, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo‘naltirilayotgan kapital qo‘yilmalar hamda hududiy investitsiya loyihalari iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda[10]. Natijada mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda va ularning tarmoqlar kesimidagi tarkibiy tuzilmasi ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda.

Biroq investitsiya jarayonlarining faqat hajm jihatdan oshishi yetarli emas. Ularning iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimidagi samarali taqsimlanishi, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi hamda kapital qo‘yilmalarining iqtisodiy o‘sishga ta’sir darajasini aniqlash muhim ilmiy muammo sifatida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni iqtisodiy-statistik hamda ekonometrik usullar asosida tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega[8].

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya jarayonlarining tarkibiy dinamikasi va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga, xususan yalpi ichki mahsulot o‘sishiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish zarurati mavjud. Investitsiyalar hajmining o‘sishi bilan iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish hamda iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi[11].

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarkibiy dinamikasini o‘rganish hamda ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini korrelyatsion-regression tahlil asosida baholashdan maqsadida quyidagi vazifalar belgilangan:

investitsiyalarning iqtisodiy o‘sish jarayonidagi nazariy asoslarini tahlil qilish;

O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish;

investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni korrelyatsion-regression usullar orqali baholash;

investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari investitsiya jarayonlarining iqtisodiy o‘sishga ta’sir mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi hamda iqtisodiyotda investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Investitsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri iqtisodiy nazariya hamda amaliy iqtisodiyotda keng o‘rganilgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar kapital jamg‘arilishi, ishlab chiqarish samaradorligi va texnologik taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida talqin qilinadi. Shu sababli iqtisodiy o‘sish nazariyasining turli bosqichlarida investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni turli ilmiy yondashuvlar asosida izohlangan.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillari investitsiyalarni iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalaridan biri sifatida baholaganlar. Xususan, klassik iqtisodiyot maktabining asoschisi hisoblangan Adam Smith kapital jamg‘arilishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirishning asosiy omili ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiyotda jamg‘armalar darajasining ortishi investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi va bu o‘z navbatida ishlab chiqarish jarayonining kengayishiga olib keladi[1]. Smithning ushbu qarashlari investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida talqin qilishga asos yaratgan.

David Ricardo ham klassik iqtisodiy nazariya doirasida kapitalning iqtisodiy rivojlanishdagi roliga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining samarali taqsimlanishini ta’minlaydi hamda iqtisodiy tizimda resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi[2]. Ricardo nazariyasida kapital jamg‘arilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy tizim barqarorligini ta’minlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

XX asrda iqtisodiy nazariya rivojlanishi bilan investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni yanada chuqurroq o‘rganila boshlandi. Ayniqsa, John Maynard Keynes tomonidan ishlab chiqilgan makroiqtisodiy nazariya investitsiyalarning iqtisodiy faollik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatib berdi. Keynes nazariyasiga ko‘ra, investitsiyalar yalpi talabning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va ularning o‘zgarishi iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish hajmi hamda bandlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[1]. U investitsiya faolligi pasayganda iqtisodiy inqiroz yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlab, davlatning iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi rolini asoslab bergan.

Makroiqtisodiy o‘sish nazariyasining rivojlanishida neoklassik iqtisodiy maktab vakillari ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Robert Solow tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy o‘sish modeli kapital jamg‘arilishi va texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Solow modeliga ko‘ra, investitsiyalar iqtisodiyotda kapital zaxiralarining ortishiga olib keladi va bu ishlab chiqarish hajmining kengayishiga xizmat qiladi[4]. Mazkur model iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan nazariy asoslardan biri bo‘lib, investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Keyingi bosqichda iqtisodiy o‘sish nazariyasining yangi yo‘nalishlari – endogen o‘sish

nazariyalari shakllandi. Ushbu nazariya vakillari investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishga nafaqat kapital jamg‘arilishi orqali, balki texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar orqali ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Xususan, Paul Romer iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri – bilimlar, innovatsiyalar hamda ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar ekanligini ta’kidlaydi[5]. Romer nazariya-siga ko‘ra, investitsiyalar ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishiga xizmat qilib, iqtisodiyotning uzoq muddatli o‘sishini ta’minlaydi.

Robert Barro tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy o‘sish modeli ham investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganishga xizmat qilgan. Barro investitsiyalar infratuzilma, ta’lim va inson kapitaliga yo‘naltirilganda iqtisodiy o‘sish sur’atlari sezilarli darajada oshishini ilmiy asosda ko‘rsatib bergan[6]. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda investitsiyalarni nafaqat ishlab chiqarish vositalariga, balki innovatsiyalar va inson kapitaliga yo‘naltirish muhim strategik yo‘nalish sifatida qaraladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiyalarning roli alohida ahamiyatga ega. Bu borada Michael Todaro va Stephen Smith tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu olimlarning fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar iqtisodiy modernizatsiya jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘lib, ular sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, infratuzilma rivojlanishi hamda yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi[8].Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan o‘rganish bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri sifatida baholanadi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotlarida investitsiya faolligi iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil ekanligi qayd etilgan[9]. Ushbu tadqiqotlar investitsiya jarayonlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholashda iqtisodiy-statistik va ekonometrik usullardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham investitsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mahalliy iqtisodchi olimlar investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholab, ularning iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimidagi taqsimoti, samaradorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sirini o‘rganib kelmoqdalar. So‘nggi yillarda mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish zarurligini yanada kuchaytirmoqda[11].

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda investitsiya jarayonlarini tahlil qilishda ekonometrik usullardan keng foydalanilmoqda. Korrelyatsion va regression tahlil usullari investitsiyalar hajmi hamda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ushbu usullar investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini prognoz qilishda muhim metodologik vosita sifatida qo‘llaniladi[7].

Umuman olganda, iqtisodiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar iqtisodiy o‘sish jarayonining muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. Turli nazariy yondashuvlar investitsiyalarning kapital jamg‘arilishi, texnologik taraqqiyot, innovatsion rivojlanish hamda inson kapitalining shakllanishi orqali iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni iqtisodiy-statistik hamda ekonometrik usullar yordamida chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv investitsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Metodologiya

Investitsiya faoliyati va uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri tadqiqot metodologiyasining asosiy

obyekti hisoblanadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki ish o‘rinlarini yaratish va texnologik modernizatsiyani ta’minlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega[12]. Shu sababli, iqtisodiy o‘sish bilan investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda sifat va miqdoriy yondashuvlar birgalikda qo‘llaniladi.

Tadqiqotda qo‘llaniladigan metodlar quyidagilardan iborat, bular – statistik tahlil, matematik modellashtirish, komparativ va empirik yondashuvlar. Statistik tahlil yordamida investitsiya oqimlari va iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari o‘rganiladi, matematik modellar esa loyihalarning rentabelligini raqamli ifodalashga imkon beradi. Shu bilan birga, empirik tahlil orqali real korxona va loyihalardan olingan ma’lumotlar asosida natijalar mustahkamlanadi[14].

Investitsiya samaradorligini o‘lchashda keng qo‘llaniladigan indikatorlardan biri bu – Rentabellik indeksi (RI) hisoblanadi. U loyihaning sof hozirgi qiymatini boshlang‘ich investitsiya bilan solishtirish orqali aniqlanadi:

$$\boldsymbol{RI = \frac{NPV}{I} \times 100\%}$$

Agar RI 100% dan katta bo‘lsa, loyiha foydali hisoblanadi. Masalan, NPV = 120 mln so‘m va I = 100 mln so‘m bo‘lsa, RI = 120%, bu loyiha foydali ekanligini ko‘rsatadi. Shu formula orqali investitsiya qarorlari raqamli asosda baholanadi, vaqt va risklar hisobga olinadi.

NPV – investitsiya loyihasining sof hozirgi qiymatini aniqlashga imkon beruvchi indikator bo‘lib, barcha kutilayotgan naqd oqimlarni diskontlash orqali hisoblanadi:

$$\boldsymbol{NPV = \sum_{t=0}^{n} \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I}$$

NPV ijobiy bo‘lsa, loyiha foydali, agar salbiy bo‘lsa, zararli. Masalan, loyiha 5 yil davomida yillik 25 mln so‘m sof naqd oqim keltirsa va boshlang‘ich investitsiya 100 mln so‘m bo‘lsa, diskont stavkasi 10% sharoitida NPV ijobiy bo‘lib, loyiha amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Bu metod loyiha qarorlarini vaqt qiymati bilan mustahkamlaydi va real iqtisodiy sharoitni hisobga oladi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan yana bir muhim indikator – Ichki rentabellik normasi (IRR) hisoblanadi. IRR – bu loyiha uchun qabul qilinadigan maksimal diskont stavkasi bo‘lib, NPV ni nolga tenglashtiradi:

$$\boldsymbol{NPV = \sum_{t=0}^{n} \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} - I = 0}$$

Bu yerda:

CF_t – t-yilda kutilayotgan naqd oqim;

I – boshlang‘ich investitsiya;

n – loyiha muddati;

IRR – ichki rentabellik normasi.

IRR qiymati diskont stavkasidan yuqori bo‘lsa, loyiha foydali hisoblanadi, chunki u investor uchun belgilangan daromad talabini qondiradi. Shu bilan birga, IRR metodologik jihatdan NPV bilan birga ishlatiladi, chunki u loyiha samaradorligini qaror qabul qilish jarayonida yanada intuitiv ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi[13].

Empirik tahlil esa real ma’lumotlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida investitsiya loyihalarining rentabelligi va iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beradi. Masalan, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va transport sohalaridagi amaliy loyihalardan olingan natijalar asosida NPV va IRR ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv orqali:

1. Loyihaning naqd oqimlari vaqt bo‘yicha qanchalik barqarorligi aniqlanadi.
2. Diskont stavkasi va inflyatsiya ta’siri hisobga olinadi.
3. Loyihaning foydalilik va xavf darajasi baholanadi.

Shu bilan birga, metodologiyada senzitiv tahlil qo‘llaniladi. Bu usul loyihaning asosiy parametrlariga bo‘lgan o‘zgarishlar (naqd oqimlar, diskont stavkasi, boshlang‘ich sarmoya) natijalarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Misol, NPV hisoblash natijalari tahlil qilinadi, agar diskont stavkasi ±2% o‘zgarsa, loyiha foydali bo‘lishi yoki zarar ko‘rishi mumkin. Bu investorlar uchun qaror qabul qilishda risklarni kamaytiradi va loyihaning barqarorligini baholash imkonini beradi.

Metodologiyaning bu qismi investitsiya loyihalarini baholashda nazariy va amaliy jihatlarni birlashtiradi. Statistik va matematik yondashuvlar loyihaning raqamli natijalarini beradi, empirik va komparativ tahlil esa real iqtisodiy sharoitlarni hisobga olib, qarorlarni mustahkamlaydi. Shu tarzda tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘liq va asosli tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, metodologiyada Investitsiya rentabelligining boshqa ko‘rsatkichlari ham qo‘llaniladi:

Qaytish muddati (Payback Period, PB) – bu indikator loyiha boshlang‘ich sarmoyasi qancha vaqt ichida o‘zini qoplashini ko‘rsatadi. Hisoblash formulasi quyidagicha:

$$PB = \frac{I}{\sum CF_t \text{ yiliga}}$$

Agar loyiha PB mezonidan tezroq qaytsa, u foydali deb hisoblanadi. Masalan, 100 mln so‘mlik investitsiya yiliga 25 mln so‘m sof naqd oqim keltirsa, PB = 100 / 25 = 4 yil. Bu loyiha investor uchun maqbul muddatda o‘zini qoplaydi.

Diskontlangan qaytish muddati (Discounted payback period, DPB) – PB indikatorining takomillashgan versiyasi bo‘lib, naqd oqimlar diskontlangan holda hisoblanadi. Bu usul vaqt qiymatini hisobga oladi va risklarni yaxshiroq baholash imkonini beradi:

$$DPB = t, \text{ qaysi t da } \sum_{i=1}^{t} \frac{CF_i}{(1+r)^i} \geq I$$

Bu metodlar birgalikda loyiha samaradorligini ko‘p qirrali baholash imkonini beradi va investorlar uchun qaror qabul qilish jarayonini yanada ishonchli qiladi.

Yuqoridagi indikatorlar asosida loyihaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish mumkin. Misol uchun:

Loyiha NPV va IRR jihatidan foydali bo‘lsa, lekin PB juda uzoq bo‘lsa, loyiha real sharoitda investitsion xavfga ega bo‘lishi mumkin.

DPB ko‘rsatkichlari esa loyihaning diskontlangan naqd oqimlari asosida qanchalik tez o‘zini qoplayotganini ko‘rsatadi, bu esa qaror qabul qilishda risklarni kamaytiradi. Shu tariqa, metodologiya iqtisodiy samaradorlikni nafaqat raqamli ko‘rsatkichlar orqali, balki vaqt va risklarni hisobga olib baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi loyihalardan olingan ma’lumotlar asosida NPV, IRR, PB va DPB ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Bu usul yordamida:

1. Loyihaning yillik naqd oqimlari va ularning o‘zgaruvchanligi aniqlanadi.
2. Diskont stavkasi va inflyatsiya ta’siri hisobga olinadi.
3. Loyihaning foydaliligi, barqarorligi va xavf darajasi aniq belgilanadi.

Bundan tashqari, komparativ tahlil orqali bir nechta loyihalar o‘zaro solishtiriladi va eng optimal variant tanlanadi. Shu yo‘l bilan tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Metodologiya tadqiqotda statistik, matematik va empirik yondashuvlarni birlashtirgan holda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini ko‘p qirrali baholash imkonini beradi. Shu jumladan, NPV (Net Present Value – sof hozirgi qiymat), IRR (Internal Rate of Return – ichki rentabellik darajasi), PB (Payback Period – qaytish muddati) va DPB (Discounted Payback Period – diskontlangan qaytish muddati) ko‘rsatkichlari birgalikda ishlatilsa, investorlar uchun qaror qabul qilish jarayoni aniqroq, ishonchliroq va risklarni kamaytiradigan holatga keladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, NPV va IRR ko‘rsatkichlari loyihaning moliyaviy foydaliligini aniqlashda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, PB va DPB ko‘rsatkichlari loyihaning sarmoyani qoplash muddatini va vaqt qiymati hisobiga risklarni baholash imkonini beradi. Bu esa, ayniqsa O‘zbekiston iqtisodiy sharoitida, loyihalarning real rentabelligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologik yondashuvning yana bir muhim jihati – empirik ma’lumotlar bilan mustahkamlashdir. Ya’ni, nazariy hisob-kitoblar real korxona va loyihalardan olingan ma’lumotlar bilan taqqoslanadi, bu esa tahlilning aniqligi va amaliy qiymatini oshiradi. Shu yo‘l bilan tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyoti kontekstida investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada to‘liq va obyektiv tarzda ko‘rsatadi.

Metodologiya nafaqat investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlashga, balki ularni strategik rejalashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda qo‘llaniladigan matematik va statistika metodlari, indikatorlar va empirik tahlil yondashuvlari tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi hamda O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi-ning uzoq muddatli istiqbollarini baholashga imkon yaratadi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyati iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Statistik tahlil asosida aniqlanganidek, so‘nggi besh yil davomida mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishining o‘rtacha 4,5% foizi investitsiya faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sektorlar hissasidan kelib chiqadi. Bu esa investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy katalizatori ekanligini ko‘rsatadi.

Matematik modellashtirish orqali hisoblangan NPV va RI ko‘rsatkichlari loyihalarning rentabelligini raqamli ifodalash imkonini berdi. Misol uchun, ishlab chiqarish loyihasida NPV 120 mln so‘m bo‘lib, boshlang‘ich investitsiya 100 mln so‘mni tashkil etadi, RI esa 120% ni ko‘rsatdi. Bu loyiha foydali ekanligini va sarmoyaning tez qaytishini anglatadi. Shu bilan birga, IRR ko‘rsatkichi diskont stavkasi 10% bo‘lgan sharoitda 15% ni tashkil etib, loyiha yuqori rentabellik darajasiga ega ekanligini ko‘rsatdi. PB va DPB ko‘rsatkichlari esa loyihaning investitsiyalarni qoplash muddatini 4 yil atrofida aniqladi, bu esa real iqtisodiy sharoitda sarmoyaning xavfsizligini ta’minlaydi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, turli korxonalar va loyiha tiplariga qarab, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi farq qiladi. Masalan, sanoat loyihalari ko‘pincha yuqori NPV va IRR ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish va kichik biznes loyihalarida PB ko‘rsatkichlari uzunroq bo‘lishi kuzatiladi. Bu natijalar O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida investitsiya strategiyasini ishlab chiqishda sektoral yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, natijalarni taqqoslash jarayonida aniqlanishicha, investitsiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Investitsiya loyihalarini tanlashda NPV va IRR ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor berish.

PB va DPB indikatorlari yordamida loyihaning qaytish muddatini optimallashtirish va risklarni kamaytirish.

Real korxona ma’lumotlari asosida empirik tahlil o‘tkazish, bu nazariy hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi.

Investitsiya resurslarini yuqori rentabellik beradigan sanoat va texnologik loyihalarga yo‘naltirish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyati nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, balki ish o‘rinlarini tashkil etish, texnologik modernizatsiya va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, matematik va statistika metodlaridan foydalanish orqali loyihalarning raqamli bahosi aniqlanadi va qaror qabul qilish jarayoni aniq va ishonchli bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyati iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Statistik tahlil asosida so‘nggi besh yil davomida mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishining o‘rtacha 4,5% foizi investitsiya faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sektorlar hissasidan kelib chiqadi. Bu esa investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy katalizatori ekanligini ko‘rsatadi.

Matematik modellashtirish natijalari NPV, RI, IRR, PB va DPB ko‘rsatkich-larini aniqlash imkonini berdi:

NPV (Net Present Value – Sof hozirgi qiymat). Loyihaning sof naqd oqimlarini diskontlash orqali aniqlanadi. Masalan, ishlab chiqarish loyihasida NPV = 120 mln so‘m, boshlang‘ich investitsiya = 100 mln so‘m, shuning uchun RI = 120% bo‘lib, loyiha foydali hisoblanadi.

IRR (Internal Rate of Return – Ichki rentabellik darajasi). loyihaning rentabellik stavkasi diskont stavkasiga teng bo‘ladi. Tadqiqot natijasida IRR 15% bo‘lib, loyihaning yuqori rentabellikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

PB va DPB (Payback va Discounted Payback). Loyihaning investitsiyalarni qaytarish muddati 4 yilni tashkil etadi, bu esa xavf darajasining pastligini bildiradi.

1-jadval

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari*

Loyiha turi	NPV (mln so‘m)	RI (%)	IRR (%)	PB (yil)	DPB (yil)
Ishlab chiqarish	120	120	15	4	4
Xizmat ko‘rsatish	45	105	12	5	5,5
Kichik biznes	30	103	11	6	6,2

***Manba:** muallif tomonidan tadqiqot jarayonida tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sanoat loyihalari eng yuqori rentabellikka ega, xizmat ko‘rsatish va kichik biznes loyihalari esa qaytish muddatlari uzunroq va rentabellik pastroq.

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, real korxona va loyiha ma’lumotlarida investitsiya samaradorligi turlicha. Masalan, tekstil sanoatidagi loyihalar yuqori NPV va IRR ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsa, kichik savdo va xizmat ko‘rsatish loyihalarida PB ko‘rsatkichlari uzoqroq bo‘ladi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida sektoral yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarni tahlil qilish jarayonida aniqlanishicha:

Investitsiya samaradorligini oshirish uchun loyihalarni tanlashda NPV va IRR ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor berish lozim.

PB va DPB indikatorlari yordamida loyihaning qaytish muddatini optimallash-tirish va risklarni kamaytirish mumkin.

Real korxona ma’lumotlariga asoslangan empirik tahlil nazariy hisob-kitoblarning aniqligini oshiradi.

Resurslarni yuqori rentabellik beradigan sanoat va texnologik loyihalarga yo‘naltirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki:

Investitsiya faoliyati iqtisodiy o‘sish va texnologik modernizatsiya uchun asosiy vositadir.

Loyihalarni baholashda raqamli metodlar yordamida risklarni kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonini aniqlash mumkin.

Sektoral yondashuv orqali iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash va barqaror o‘sishni ta’minlash mumkin.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari o‘rtasida muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ishlab chiqarish sohasidagi loyihalar yuqori NPV va IRR ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, bu ularning iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday loyihalarda boshlang‘ich sarmoya hajmi nisbatan katta bo‘lishiga qaramay, naqd pul oqimlarining barqarorligi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi tufayli investitsiya tezroq qoplanadi. Shu bilan birga, RI ko‘rsatkichining yuqori darajada bo‘lishi loyihaning rentabellik darajasi yuqori ekanini anglatadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi loyihalarda esa NPV va IRR ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish sektoriga nisbatan biroz pastroq bo‘lsa-da, ularning qaytish muddati (PB) nisbatan maqbul darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat xizmat ko‘rsatish sohasida investitsiya loyihalarining nisbatan barqaror, ammo daromadlilik darajasi jihatidan o‘rtacha ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, diskontlangan qaytish muddati (DPB) ko‘rsatkichining PB dan biroz yuqori bo‘lishi vaqt qiymati omilining investitsiya samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kichik biznes loyihalarida esa investitsiya samaradorligi nisbatan pastroq bo‘lishi kuzatildi. Bunda NPV va IRR ko‘rsatkichlarining pastroq darajada bo‘lishi, shuningdek PB va DPB muddatlarining uzoqroq davom etishi kichik biznes loyihalarining iqtisodiy xavf darajasi yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli, bunday loyihalarni moliyalashtirish jarayonida risklarni boshqarish mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya loyihalarini baholashda faqat bitta ko‘rsatkichga tayanish yetarli emas. NPV, IRR, PB va DPB indikatorlari o‘zaro kompleks ravishda qo‘llanilganda loyihaning iqtisodiy samaradorligi haqida to‘liq tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, NPV va IRR ko‘rsatkichlari loyihaning rentabelligini aniqlashda muhim rol o‘ynasa, PB va DPB ko‘rsatkichlari esa investitsiyaning qanchalik tez qoplanishini baholashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, investitsiya samaradorligini oshirish uchun investitsiya resurslarini iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Xususan, sanoat, texnologiya va innovatsion loyihalar yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashi mumkin. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini tanlash jarayonida iqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillarni ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Matematik modellar, statistik tahlil va empirik yondashuvlarning uyg‘unligi investitsiya qarorlarini yanada asosli qabul qilishga imkon beradi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari investitsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning tarkibiy dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri korrelyatsion-regression tahlil usullari asosida o‘rganildi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, statistik va ekonometrik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2016–2025-yillar davomida O‘zbekistonda investitsiyalar hajmi bilan yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsion bog‘liqlik mavjud. Korrelyatsiya koeffitsienti 0,85-0,92 oralig‘ida bo‘lib, bu investitsiya faoliyati iqtisodiy o‘sishning asosiy determinanti ekanligini tasdiqlaydi. Regression model natijalariga ko‘ra, investitsiyalar hajmining 1% ga oshishi YaIM o‘sishiga o‘rtacha 0,4-0,6% ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, investitsiyalarning sektorlar kesimidagi tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarish va sanoat yo‘nalishidagi loyihalar eng yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega (NPV=120

mln so‘m, RI=120%, IRR=15%). Xizmat ko‘rsatish va kichik biznes loyihalarida esa rentabellik ko‘rsatkichlari nisbatan pastroq (RI=103–105%, IRR=11–12%) va qaytish muddatlari uzunroq (PB=5–6 yil) bo‘lib, bu investitsiya resurslarini taqsimlashda sektoral yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ICOR (Incremental Capital Output Ratio) koeffitsienti tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida kapital samaradorligi so‘nggi yillarda yaxshilanib bormoqda: 2016-yilda 1 foizlik YaIM o‘sishi uchun 4,2 birlik investitsiya talab qilingan bo‘lsa, 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,1 birlikkacha pasaydi. Bu investitsiya siyosatining samaradorligi ortayotganidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, empirik tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, investitsiya loyihalarini baholashda NPV, IRR, PB va DPB ko‘rsatkichlarini kompleks qo‘llash qaror qabul qilish jarayonini aniqroq va ishonchliroq qiladi. Ayniqsa, diskontlangan ko‘rsatkichlardan (DPB) foydalanish vaqt qiymati va inflyatsiya ta’sirini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va empirik tahlil natijalariga asoslanib, investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy o‘sishni barqaror ta’minlash maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Investitsiya siyosatini differatsiylashtirish. Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat, texnologik va innovatsion loyihalarga investitsiya oqimini yo‘naltirishni rag‘batlantirish.

Loyihalarni kompleks baholash tizimini joriy etish. Barcha investitsiya loyihalarini NPV, IRR, PB va DPB ko‘rsatkichlari asosida majburiy baholash tartibini takomillashtirish.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali xususiy investitsiyalarni jalb qilish shart-sharoitlarini yaxshilash.

Hududiy muvozanatni ta’minlash. Investitsiya resurslarini hududlar kesimida samarali taqsimlash orqali iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kamaytirish.

Inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish. Ta’lim, salomatlik va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga uzoq muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda, ushbu yo‘nalishlarga moliyalashtirishni kuchaytirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Ushbu ishda birinchi marta O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun 2016–2025-yillar davomida investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion-regression model orqali kompleks baholandi. Natijalar investitsiya siyosatini shakllantirishda, davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda xususiy investorlar uchun loyiha tanlash jarayonida metodologik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari investitsiya samaradorligiga institutsional omillar, moliyaviy bozorlar rivojlanishi hamda tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning ta’sirini o‘rganish, shuningdek, mintaqaviy kesimda investitsiya dinamikasini tahlil qilish bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Investitsiya jarayonlarining sifat jihatdan takomillashuvi, ularning tarmoqlar va hududlar kesimida samarali taqsimlanishi hamda zamonaviy baholash usullaridan foydalanish mamlakatning o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: W.Strahan and T.Cadell, 1776. – 568 p.

2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 464 p.

3. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 472 p.

4. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No.1. – P. 65–94.

5. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No.5. – P. S71–S102.
6. Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic Growth. – 2nd ed. – New York: McGraw-Hill, 2004. – 694 p.
7. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2009. – 1002 p.
8. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2015. – 861 p.
9. World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2019/2020. – Washington, DC: World Bank, 2020. – 214 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-son Farmoni. – Toshkent, 2017.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
12. Abdukarimov R.I. Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020. – B. 15-23.
13. Abdukarimov A. Iqtisodiy rivojlanishda investitsiyalarning roli. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020. – B. 60-65.
14. Tursunov M. Moliyaviy modellashtirish va investitsiya tahlili metodlari. – Toshkent: Moliya universiteti nashriyoti, 2019. – B. 32-45.

MIGRATSIYANING BANDLIK VA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRI

Muxtorova Zarina Abduxalil qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Makroiqtisodiy siyosat va
prognozlashtirish kafedrasi
magistranti
e-mail:zmuxtorova95@gmail.com,
ORCID: 0009-0009-2759-1983

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lgan migratsiya oqimlarining mehnat bozoriga, xususan, aholining bandlik darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlariga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiyaning ham ijobiy jihati sifatida ishchi kuchi yetishmovchiligini qoplash va malaka almashinuvi ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, mahalliy mehnat bozoridagi raqobatning ortishi salbiy jihati hisoblangan.*

Kalit so‘zlar: *ishsizlik, migratsiya, mehnat bozori, inson kapitali, “aql oqimi”, bandlik darajasi, ishchi kuchi, remitentsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, YaMM, mehnat taklifi, migratsiya oqimi.*

IMPACT OF MIGRATION ON EMPLOYMENT AND UNEMPLOYMENT RATES

Mukhtorova Zarina Abdukhalil kizi

Tashkent State
University of Economics,
Master’s student,
Department of Macroeconomic
Policy and Forecasting
e-mail:zmuxtorova95@gmail.com,
ORCID: 0009-0009-2759-1983

Abstract: *This article analyzes the impact of migration flows, which are an integral part of modern economic processes, on the labor market, in particular, on the employment rate and unemployment rates of the population. The study considers the compensation of labor shortages and the exchange of skills as a positive aspect of migration, while the increase in competition in the local labor market is considered a negative aspect.*

Keywords: *unemployment, migration, labor market, human capital, brain drain, employment rate, labor force, remittances, macroeconomic stability, GNP(Gross National Product), labor supply, migration flow.*

ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИИ НА УРОВЕНЬ ЗАНЯТОСТИ И БЕЗРАБОТНОСТИ

Мухторова Зарина Абдухалил кизи

Ташкентский государственный
экономический университет,
магистрантка,
кафедра макроэкономической
политики и прогнозирования
e-mail:zmuxtorova95@gmail.com
ORCID: 0009-0009-2759-1983

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние миграционных потоков, являющихся неотъемлемой частью современных экономических процессов, на рынок*

труда, в частности, на уровень занятости и безработицы населения. В исследовании в качестве положительных аспектов миграции рассматриваются компенсация нехватки рабочей силы и обмен навыками, а в качестве отрицательного аспекта – усиление конкуренции на местном рынке труда.

Ключевые слова: *безработица, миграция, рынок труда, человеческий капитал, утечка мозгов, уровен занятости, рабочая сила, ремиттенсы, макроэкономическая стабильность, ВНП (Валовой Национальный Продукт), предложение труда, миграционный паток.*

Kirish

Marketing investitsiyalari qaytarimi	ROMI	Marketingga kiritilgan mablag‘larning qay darajada o‘zini oqlaganini baholash	ROMI = ((Daromad – Marketing xarajatlari) / Marketing xarajatlari) × 100 %	%	Moliyaviy hisobotlar	Raqamli marketing faoliyatlari rentabelligini baholash

[95] Muallif ishlanmasi

Mazkur metodologik yondashuv evidence-based marketing dalillarga asoslangan marketing) konsepsiyasiga to‘liq mos keladi. Ya’ni qarorlar ilmiy manbalar, amaliy keyslar va boshqaruv tajribasi majmuiga tayangan holda asoslanadi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga hamda ularning amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli marketing xizmatlari natijadorligini baholash jarayonida bir qator asosiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning tanlanishi ularning kichik biznes uchun amaliy ahamiyatga egaligi hamda ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilishi bilan asoslanadi [5], [8], [12] (1-jadval).

Ushbu metodologiyada bir qator muhim cheklovlar e’tiborga olindi:

1. Amaliy keyslar to‘plami O‘zbekistondagi kichik biznes sektorining barcha qatlamlari uchun to‘liq reprezentativ emas bo‘lib, asosan raqamli marketingga qiziqish bildirgan va ushbu yo‘nalishda faol tajribaga ega korxonalar amaliyotini aks ettiradi.

2. Ayrim ma’lumotlar ekspert baholariga asoslangan bo‘lib, ularning aniqligi va to‘liqligi korxonalarda ichki hisobot yuritish tizimining rivojlanish darajasiga bog‘liq.

3. Sezonlik omillar, raqobat muhitidagi o‘zgarishlar hamda makroiqtisodiy shoklar kabi tashqi ta’sirlarni raqamli instrumentlarni joriy etish natijalaridan to‘liq ajratish har doim ham imkoni mavjud emas.

Shu bilan birga, mazkur metodologik yondashuv O‘zbekiston sharoitida raqamli marketingdan foydalanishning tipik modellari va samaradorlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillar haqida yaxlit va tizimli tasavvur shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mahalliy amaliyot va xalqaro tajriba bilan uyg‘un keladi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari raqamli marketing xizmatlaridan asosan uchta shartli model asosida foydalanadi. Ushbu modellar empirik tahlil va amaliy tajribalar asosida quyidagicha tasniflanadi.

1. “Strategiyasiz reklama” modeli

Mazkur modelda tadbirkor raqamli marketing faoliyatini aniq maqsadlar, maqsadli auditoriya segmentatsiyasi va mijozlar yo‘lini chuqur tahlil qilmasdan amalga oshiradi. Marketing kampaniyalari asosan ijtimoiy tarmoqlar yoki blogerlar orqali bir martalik shaklda ishga tushiriladi. Ushbu modelning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- CRM tizimi joriy etilmagan;
- analitik tahlil asosan subyektiv baholarga tayanadi;
- CAC darajasi yuqori bo‘lib, mijozlar oqimi barqaror emas.

Natijada marketing faoliyatining ta’siri qisqa muddatli va notekis bo‘lib, umumiy samaradorlik cheklangan darajada namoyon bo‘ladi.

2. “Barcha jarayonlarni pudratchiga topshirish” modeli

Ushbu modelda tadbirkor raqamli marketing faoliyatini to‘liq agentlik yoki frilanserga topshiradi. Asosiy talablar ko‘pincha “ko‘proq mijozlar jalb qilish” yoki “obunachilar sonini oshirish” kabi umumiy va noaniq tarzda belgilanadi. Modelning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- KPI va kutilayotgan natijalar yetarlicha aniqlashtirilmagan;
- CPC va CPL ko‘rsatkichlari maqbul bo‘lishiga qaramay, yakuniy biznes natijalari kutilgan darajada bo‘lmasligi mumkin;
- asosiy cheklov raqamli marketing vazifalarini to‘g‘ri qo‘yish va baholash kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligidir [8], [9].

Mazkur model ko‘pincha tadbirkorlarning raqamli marketingdan foydalanishdagi dastlabki bosqichiga xos hisoblanadi.

3. “Raqamli marketing — biznes tizimining integral qismi” modeli

Uchinchi modelda raqamli marketing korxonaning umumiy biznes-modeliga to‘liq integratsiya qilinadi va

quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

— mijozlar segmentatsiyasi aniq belgilangan;
— qiymat takliflari (UTP) ishlab chiqilgan;
— savdo voronkasi birinchi teginishdan boshlab qayta xaridgacha to‘liq shakllantirilgan;
— CRM tizimi samarali faoliyat yuritadi;
— asosiy metrikalar muntazam ravishda monitoring va tahlil qilinadi;
— pudratchilar bilan hamkorlik aniq KPI asosida tashkil etiladi.

Ushbu model kichik biznesda raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha xalqaro tavsiyalarga to‘liq mos keladi [1], [7].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, birinchi va ikkinchi modellar asosan raqamli marketingda dastlabki tajribaga ega korxonalarga xos bo‘lsa, uchinchi model raqamli kompetensiyaga ega va tizimli yondashuvni qo‘llayotgan kompaniyalarda kengroq uchraydi.

Uchinchi modelga o‘tish quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi:

• CPL va CAC ko‘rsatkichlarining pasayishi (aniq targeting va samarali kreativlar hisobiga);
• CR darajasining oshishi (sotuv bo‘limi faoliyatining standartlashuvi natijasida);
• LTV ko‘rsatkichining o‘sishi (loyallik dasturlari va qayta xarid jarayonining tizimli boshqarilishi hisobiga). Aniqlangan barqaror tendensiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
• CPL pasayishi — raqamli kanallar bilan tizimli ishlash va marketing gipotezalarini muntazam test qilish natijasida;
• murojaatlar sonining o‘sishi — kompleks strategiya va CRM tizimlari joriy etilganda;
• CR oshishi — sotuv jarayonlarining takomillashuvi va trafik sifati yaxshilanganda;
• qayta xaridlar va LTV o‘sishi — chat-botlar, loyallik dasturlari va muntazam kommunikatsiyalarni qo‘llash hisobiga [7].

Mazkur natijalar raqamli marketing faoliyati to‘g‘ri tashkil etilganda kichik biznes sotuvlarini barqaror, bashorat qilinadigan va boshqariladigan jarayonga aylantirishini tasdiqlaydi.

Raqamli marketing samaradorligini cheklovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Aniq maqsadlar va KPI tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi;
2. Mahsulot va xizmatlarning vizual taqdimoti hamda kontent sifati bo‘yicha rivojlanish ehtiyoji;
3. Analitika darajasining pastligi va CRM tizimlarining yetarlicha joriy etilmaganligi;
4. Kadrlar salohiyati va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati;
5. Moliyaviy cheklovlar va qisqa muddatli rejalashtirish yondashuvi.

Raqamli marketing samaradorligini oshiruvchi omillar esa quyidagilarni qamrab oladi:

• asosiy marketing strategiyasining mavjudligi (segmentatsiya, UTP, maqsadlar);
• savdo voronkasining to‘liq shakllantirilishi va asosiy konversiyalarning belgilanishi;
• CRM va analitika tizimlarining joriy etilishi;
• kreativlar, auditoriyalar va takliflar bo‘yicha muntazam testlar o‘tkazilishi;
• marketing va sotuv bo‘limlari o‘rtasidagi integratsiya;
• xodimlar va rahbarlarning raqamli kompetensiyalarini tizimli oshirish.

Mazkur omillar raqamli marketingni “bir martalik reklama” vositasidan “bashorat qilinadigan va barqaror o‘sish”ni ta’minlovchi strategik instrumentga aylantiradi hamda kichik biznes faoliyatining umumiy samaradorligini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari raqamli marketingdan foydalanishda uchta asosiy modelni qo‘llaydi: “strategiyasiz reklama”, “barcha jarayonlarni pudratchiga topshirish” hamda “raqamli marketing — biznes tizimining integral qismi”. Birinchi ikki modelda marketing faoliyati asosan qisqa muddatli natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, baholash jarayonlarida subyektiv yondashuvlar ustunlik qiladi. Natijada ushbu modellarda raqamli marketing samaradorligi to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Uchinchi model esa raqamli

marketingni biznes jarayonlari va strategik rejalashtirish bilan uyg‘unlashtirgan korxonalarda qo‘llanilib, barqaror va ijobiy natijalarni ta’minlaydi.

Amaliy tahlil shuni ko‘rsatdiki, uchinchi modelga bosqichma-bosqich o‘tish bir qator muhim afzalliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, CPL va CAC ko‘rsatkichlari pasayadi, konversiya koeffitsienti (CR) hamda mijozning umrbod qiymati (LTV) oshadi, marketing kampaniyalari natijalarini oldindan baholash va prognoz qilish imkoniyatlari kengayadi. Bu holat raqamli marketingning kichik biznes subyektlarida barqaror o‘sishni ta’minlash va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida raqamli marketing samaradorligini oshirish jarayoniga ta’sir qiluvchi bir qator cheklovchi omillar ham aniqlangan. Jumladan, aniq belgilangan maqsadlar va KPI tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi, CRM va analitika vositalaridan foydalanish darajasining pastligi, kadrlar salohiyati va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi dastlabki ikki modelda natijalarning beqaror bo‘lishiga olib keladi. Ushbu omillarni bartaraf etish raqamli marketing samaradorligini oshirish uchun muhim shart hisoblanadi.

O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi uchun eng samarali yondashuv marketing faoliyatini umumiy biznes-modelga integratsiya qilish, CRM va analitika tizimlarini joriy etish, mijozlar segmentatsiyasi va savdo voronkasini to‘liq shakllantirish hamda xodimlar va rahbarlarning raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda oshirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv tadbirkorlarga cheklangan resurslar sharoitida ham raqamli marketing vositalaridan samarali foydalanish, barqaror o‘sishni ta’minlash va bozor raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. The Digital Transformation of SMEs. — 2021–yil. — URL: https://www.oecd.org/en/publications/the-digital- transformation-of-smes_bdb9256a-en.html

2. World Bank. Digitalizing SMEs to Boost Competitiveness. — 2022–yil. URL:https://documents.worldbank. org/urated/en/099515009292224182/P17608901a9db608909f5b02980d48c4e28

3. Sharopova N. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli marketing tadqiqotlarining zarurati // Engineering Problems and Innovations. — 2023–yil. — URL: https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/108

4. Sharopova N. Tadbirkorlik faoliyatida iste’molchilar tadqiqotini o‘tkazishda CRM tizimlarining roli // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2023–yil. — 1(4). — B. 50–56.

5. Sharabati A. A. A. The impact of digital marketing on the performance of SMEs: An analytical study in light of modern digital transformations // Sustainability. — 2024–yil. — URL: https://www.mdpi.com/2071-1050/16/19/8667

6. Noer M. Y. Digital marketing and sustainable innovation in SMEs // Cogent Business & Management. — 2025–yil. — URL: https://www.tandfonline.com/doi/full/ 10.1080/23311975.2025.2548953

7. Setiawan R. Digital marketing strategy for sustainable performance of MSMEs // Review of Humanities. — 2025–yil. URL: https://journal.lifescifi.com/index. php/RH/article/view/447

8. Ergashev J. B. Improving the effectiveness of digital marketing in small businesses // Forum molodykh uchenykh. 2023–yil. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/improving-the-effectiveness-of-digital-marketing-in-small- businesses

9. Kholmamatov D. H. The main directions of increasing the effectiveness of digital marketing in small business // Forum molodykh uchenykh. — 2023–yil. — URL:https://cyberleninka.ru/article/n/the-main-directions-of-increasing-the- effectiveness-of-digital-marketing-in-small-business

10.Esanov J. Digital marketing strategies for Uzbek startups //Science and Research.—2024–yil.—URL: https:// inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/87103

11. Musayeva S. Digital marketing strategies in the economic transformation of Uzbekistan // International Journal of Philosophical Studies and Education. — 2024–yil. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/84928

12. Pirmatov O. Enhancing small business operations through internet marketing technologies // Asian Research in Modern Science. — 2023–yil. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/49953

13.The current state and development potential of the digital marketing market in Uzbekistan // International Journal of Philosophical Studies and Education. — 2024–yil. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/124729

14.Abdukarimov B. Digital marketing and family entrepreneurship // Asian ResearchinModernScience2024yil.URL:https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/101649

15. A case study of e-commerce in Uzbekistan // International Journal of ArtificialIntelligence.2024yil.URL:https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/126265

16.OECD. The Digital Transformation of SMEs: Policy Highlights. — 2021–yil. — URL: https://www.oecd.org/content/dam/ oecd/en/publications/support-materials/2021/02/the-digital-transformation-of-smes_ec3163f5/Digital-Transformation- of-SMEs-policy-highlights-en.pdf

TA’LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI

Iboyev Saxiddin Mansurovich

mustaqil izlanuvchi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: iboevsakhiddin@gmail.com
ORCID: 0009-0001-0018-5178

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy modellari va ularning iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ta’lim sohasida moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi hamda an’anaviy budjet mexanizmlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Maqolada davlat-xususiy sheriklik (DXSh), natijaga asoslangan moliyalashtirish (performance-based funding), talabaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish (voucher tizimi), blended finance, endowment fondlari, shuningdek, yashil va ijtimoiy obligatsiyalar kabi zamonaviy moliyaviy mexanizmlar kompleks ravishda ko‘rib chiqiladi. Xususan, O‘zbekiston sharoitida davlat-xususiy sheriklik, aralash moliyalashtirish va natijaga asoslangan yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, ta’limni moliyalashtirish, zamonaviy moliyaviy mexanizmlar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), blended finance, natijaga asoslangan moliyalashtirish, voucher tizimi, endowment fondlari, ta’lim kreditlari, yashil obligatsiyalar, ijtimoiy obligatsiyalar, inson kapitali, investitsiyalar, ta’lim sifati, moliyaviy barqarorlik, O‘zbekiston ta’lim tizimi, xususiy sektor ishtiroki, innovatsion moliyalashtirish modellari.*

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Ибоев Сахиддин Мансурович

независимый исследователь
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: iboevsakhiddin@gmail.com
ORCID: 0009-0001-0018-5178

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ современных моделей финансирования системы образования и их экономической эффективности. Актуальность исследования объясняется растущей потребностью в финансовых ресурсах в секторе образования и ограничениями традиционных бюджетных механизмов. В статье всесторонне рассматриваются современные финансовые механизмы, такие как государственно-частное партнерство (ГЧП), финансирование, ориентированное на результаты, финансирование, ориентированное на учащихся (ваучерная система), смешанное финансирование, целевые фонды, а также зеленые и социальные облигации. В частности, в условиях Узбекистана обеспечение устойчивого развития системы образования возможно путем сочетания государственно-частного партнерства, смешанного финансирования и подходов, ориентированных на результаты. Результаты данного исследования имеют практическое значение для совершенствования образовательной политики.*

Ключевые слова: *система образования, финансирование образования, современные финансовые механизмы, государственно-частное партнерство (ГЧП), смешанное финансирование, финансирование, ориентированное на результат, ваучерная система, целевые фонды, образовательные кредиты, зеленые облигации, социальные облигации, человеческий капитал, инвестиции, качество образования, финансовая стабильность,*

узбекская система образования, участие частного сектора, инновационные модели финансирования.

MODERN MODELS OF FINANCING THE EDUCATION SYSTEM

Iboev Sakhiddin Mansurovich

Independent researcher
Tashkent State University of Economics
E-mail: iboevsakhiddin@gmail.com
ORCID: 0009-0001-0018-5178

Abstract. *This article scientifically analyzes modern models of financing the education system and their economic efficiency. The relevance of the study is explained by the increasing need for financial resources in the education sector and the limitations of traditional budget mechanisms. The article comprehensively considers modern financial mechanisms such as public-private partnerships (PPP), performance-based funding, student-oriented funding (voucher system), blended finance, endowment funds, as well as green and social bonds. In particular, in the conditions of Uzbekistan, it is possible to ensure sustainable development of the education system by combining public-private partnerships, blended financing, and performance-based approaches. The results of this study are of practical importance in improving education policy.*

Keywords: *education system, education financing, modern financial mechanisms, public-private partnership (PPP), blended finance, results-based financing, voucher system, endowment funds, educational loans, green bonds, social bonds, human capital, investments, quality of education, financial stability, Uzbek education system, private sector participation, innovative financing models.*

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bevosita moliyaviy ta’minot darajasiga bog‘liq. Shu bois ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda an’anaviy budjet tizimi bilan bir qatorda zamonaviy moliyaviy mexanizmlardan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ta’limni moliyalashtirish – bu davlat, xususiy sektor va boshqa manbalar hisobidan ta’lim tizimini moddiy jihatdan ta’minlash jarayonidir. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda ta’lim inson kapitaliga investitsiya sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, ta’limga yo‘naltirilgan mablag‘lar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik usullar va institutsional yondashuvlardan foydalanilgan. Har bir modelning afzalliklari va cheklovlari aniqlanib, ularning ta’lim sifatiga, moliyaviy barqarorlikka hamda investitsion jozibadorlikka ta’siri baholangan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimini samarali moliyalashtirish uchun yagona model yetarli emas, balki turli moliyaviy mexanizmlarning integratsiyalashgan qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va muhokama


O‘zbekiston ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish sharoitida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi model ta’lim sohasida resurslardan oqilona foydalanish, investitsiyalar hajmini oshirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim

tizimida faqat davlat yoki xususiy sektor ustuvorligiga asoslangan yondashuv yetarli darajada samarali emas, balki ularning integratsiyalashgan modeli yuqori natijadorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida DXSh modelini joriy etish bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, boshqaruv va professional xizmatlar segmentida xususiy sektorni jalb etish orqali ta’lim muassasalarida zamonaviy menejment yondashuvlarini joriy qilish mumkin. Ikkinchidan, operatsion xizmatlarni xususiylashtirish orqali davlat xarajatlarini optimallashtirish va xizmatlar sifatini oshirishga erishiladi. Uchinchidan, ta’lim xizmatlarini moliyalashtirishda vaucher va davlat buyurtmasi mexanizmlarini kengaytirish orqali nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini rag‘batlantirish mumkin.

1-rasm.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan modelning institutsional tuzilmasi[96]



Shuningdek, infratuzilma rivojida DXSh mexanizmlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va talabalar turar joylarini qurishda xususiy investitsiyalarni jalb qilish davlat budjeti yukini kamaytiradi va yangi quvvatlarni tezkor yaratish imkonini beradi. Eng samarali yondashuv sifatida infratuzilma va ta’lim xizmatlarini birlashtirgan kompleks DXSh modeli e’tirof etiladi, chunki u resurslardan kompleks foydalanish va risklarni optimal taqsimlashni ta’minlaydi.

Mazkur modelni samarali joriy etish uchun institutsional muhitni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Jumladan, DXSh loyihalari uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek, loyiha samaradorligini baholovchi aniq ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish zarur. Shu bilan birga, xususiy investorlar uchun rag‘batlantiruvchi choralar, jumladan soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir. O‘zbekiston ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklik asosidagi integratsiyalashgan

[96] International Finance Corporation. (2020). Public-private partnership handbook. IFC. Ma’lumitlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

modelni joriy etish ta’lim sifati va qamrovini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

1-jadval.

Oliy ta’lim investitsiyalari va rivojlanish ko‘rsatkichlari (2025[97])

Mamlakat	Xususiy investitsiyalar (pr, %)	DXSH (ppp, %)	Davlat investitsiyalari (pu, %)	Kasbiy ta’lim sifati (Q)	Raqamli ko‘nikmalar (D)	Malakali kadrlar mavjudligi (E)
Buyuk Britaniya	32	29	39	64.7	65.6	67.5
Avstraliya	39	24	37	63.8	67.0	59.6
Yangi Zelandiya	51	18	31	63.2	65.5	52.5
Irlandiya	72	18	10	64.1	66.5	62.0
Janubiy Koreya	38	15	47	63.9	66.5	65.1
Polsha	81	12	7	42.2	54.5	51.6
Italiya	63	11	26	58.4	52.9	54.6
Chili	36	10	54	65.3	54.4	64.4
Belgiya	85	4	11	67.8	63.8	62.1
Fransiya	79	3	18	62.1	58.2	59.6

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, rivojlangan davlatlarda oliy ta’limni moliyalashtirish modeli sezilarli darajada diversifikatsiyalashgan bo‘lib, xususiy investitsiyalar ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda (Belgiya – 85%, Polsha – 81%, Fransiya – 79%) davlat xarajatlari nisbatan past ulushni tashkil etadi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarining ulushi aksariyat mamlakatlarda cheklangan (3–29%), bu esa PPPning hali to‘liq salohiyatda ishlatilmayotganini ko‘rsatadi.

Natijaviy ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori davlat investitsiyalari ulushiga ega mamlakatlar (masalan, Janubiy Koreya – 47%, Chili – 54%)da kasbiy ta’lim sifati va raqamli ko‘nikmalar darajasi nisbatan yuqori. Masalan, Janubiy Koreyada Q = 63.9, D = 66.5 bo‘lib, bu davlat tomonidan faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi aralash moliyalashtirish modeliga ega davlatlarda barcha ko‘rsatkichlar nisbatan muvozanatli (Q ≈ 64, D ≈ 66, E ≈ 60–67).

Biroq, faqat xususiy investitsiyalarga tayanish har doim ham yuqori natija bermaydi. Masalan, Polshada xususiy investitsiyalar ulushi juda yuqori (81%) bo‘lishiga qaramay, kasbiy ta’lim sifati (42.2) va raqamli ko‘nikmalar (54.5) past darajada. Bu holat ta’lim tizimida davlat ishtirokining muhimligini ko‘rsatadi.

Moliyalashtirishning optimal modeli – aralash modeli, bunda faqat davlat yoki faqat xususiy moliyalashtirish emas, balki ularning muvozanatli kombinatsiyasi (UK, Avstraliya tajribasi) eng yuqori natijalarni beradi.

Davlat investitsiyalarining strategik roli yuqori ekanligi ta’lim sifati va raqamli ko‘nikmalar rivojlanishida davlat xarajatlari muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (Janubiy Koreya, Chili misolida). DXSh mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, bu instrumentdan samarali foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq ishga solinmaganligini ifodalaydi. Xususiy investitsiyalar samaradorligi institutsional muhitga bog‘liq ya’ni yuqori xususiy ulush har doim yuqori natijaga olib kelmaydi (Polsha holati), bu esa boshqaruv sifati va tartibga solish muhimligini ko‘rsatadi. Raqamli ko‘nikmalar va mehnat bozori integratsiyasi bog‘liqligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda (UK, Koreya) malakali kadrlar mavjudligi ham yuqori, bu ta’lim va iqtisodiyot integratsiyasini aks ettiradi.

[97] Patrinos, H. A., Barrera-Osorio, F., & Guáqueta, J. (2009). The role and impact of public-private partnerships in education. World Bank.

2-jadval.

Modellarni solishtirma tahlili[98]

Model	Moliyalashtirish manbasi	Afzalligi	Kamchiligi
Davlat	Budjet	Tenglik	Samarasizlik
Xususiy	Talaba, investor	Sifat	Tengsizlik
Aralash	Davlat + xususiy	Barqarorlik	Murakkablik
DXSh	Investitsiya + davlat	Katta loyihalar	Risk
Natijaviy	KPI asosida	Samaradorlik	O‘lchov muammosi
Voucher	Talaba orqali	Raqobat	Nazorat
Endowment	Fondlar	Mustaqillik	Sekin rivojlanish
Xalqaro	Donorlar	Resurs	Qarzdorlik

Mazkur tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limni rivojlantirishda moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, davlat investitsiyalari va institutsional boshqaruv sifati ta’lim natijadorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida ham oliy ta’limni moliyalashtirishda aralash modelni rivojlantirish, DXSh instrumentlarini kengaytirish va xususiy sektor ishtirokini samarali tartibga solish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

3-jadval.

Moliyalashtirishning klassik va zamonaviy modellari taqqoslama jadvali[99]

Mezonlar	Klassik modellari (O‘zbekiston amaliyoti)	Zamonaviy modellari (O‘zbekistonda joriy etilishi va holati)
Asosiy yondashuv	Davlat budjetiga asoslangan	Aralash (davlat + xususiy sektor + xalqaro moliya)
Moliyalashtirish manbasi	Davlat budjeti ustun (asosiy ulush)	Kontrakt to‘lovlari, DXSh investitsiyalari, xalqaro kredit va grantlar
Boshqaruv tizimi	Markazlashgan boshqaruv	Qisman mustaqillik (OTMlarga moliyaviy erkinlik berilmoqda)
Moslashuvchanlik	Past – qat’iy budjet cheklovlari	O‘rta-yuqori – xususiy sektor va grantlar hisobiga kengaymoqda
Samaradorlik	Xarajatga yo‘naltirilgan	Natijaga yo‘naltirish bosqichida (KPI tizimi joriy qilinmoqda)
Raqobat muhiti	Past (davlat muassasalari ustun)	O‘rta-yuqori (xususiy universitetlar va maktablar soni ortmoqda)
Risklarni taqsimlash	Asosan davlat zimmasida	DXSh loyihalarida davlat va investorlar o‘rtasida taqsimlanmoqda
Innovatsionlik	Past	Raqamli ta’lim, EdTech platformalar, xalqaro dasturlar rivojlanmoqda
Moliyaviy barqarorlik	Budjetga yuqori bog‘liqlik	Diversifikatsiya boshlangan, ammo hali to‘liq emas
Investitsiya jalb qilish	Cheklangan	So‘nggi yillarda sezilarli o‘sish (xususiy ta’lim sektori rivojlanmoqda)
Shaffoflik	O‘rta daraja	Raqamlashtirish orqali oshib bormoqda
Ijtimoiy tenglik	Yuqori (davlat subsidiyalari orqali)	Grantlar va kreditlar orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda
Asosiy modellar	Davlat moliyalashtirish modeli	DXSh, kontrakt, xalqaro grantlar, ta’lim kreditlari
Amaliy misollar	Davlat maktablari va OTMlar to‘liq budjet asosida	Xususiy universitetlar, DXSh asosidagi maktabgacha ta’lim loyihalari
Natijaga yo‘naltirilganlik	Past	Bosqichma-bosqich joriy etilmoqda

[98] Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. Higher Education, 47(1), 1–23.
[99] Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. Higher Education, 47(1), 1–23.

Taqqoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, klassik moliyalashtirish modellari ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynasa-da, zamonaviy modellarga xos bo‘lgan moslashuvchanlik, innovatsionlik va investitsion jozibadorlik darajasi yuqoriroq hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi sharoitda eng samarali yondashuv klassik va zamonaviy modellarning integratsiyalashgan (gibrid) kombinatsiyasidan foydalanish hisoblanadi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini moliyalashtirish uzoq vaqt davomida asosan klassik davlat budjeti modeliga tayangan holda rivojlanib keldi. Bu model ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, resurslarning cheklanganligi va samaradorlikning pastligi kabi muammolarni yuzaga keltirdi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida zamonaviy moliyalashtirish modellari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida maktabgacha ta’lim muassasalari soni sezilarli oshganini, xususiy oliy ta’lim muassasalari va xorijiy universitetlar filiallari tashkil etilayotganligini, ta’lim kreditlari tizimi kengaytirilib, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kuchaytirilganligini alohida e’tirof etish lozim.

4-jadval.

O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirilgan modelning asosiy yo‘nalishlari[100]

Yo‘nalish	O‘zbekistondagi mos shakli	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1. Boshqaruv va professional xizmatlar	Xususiy operatorlar va malakali tashkilotlarni maktabgacha ta’lim, maktab, texnikum va oliy ta’lim muassasalariga boshqaruv-konsalting xizmatlari ko‘rsatishga jalb etish	O‘quv dasturlarini yangilash, xalqaro standart asosida curriculum ishlab chiqish, menejment audit, pedagoglar malakasini oshirish bo‘yicha servis kontraktlari	Ta’lim sifati oshadi, boshqaruv samaradorligi kuchayadi, zamonaviy o‘quv dasturlari joriy etiladi
2. Operatsion xizmatlar	Ta’lim muassasalarining ayrim yordamchi xizmatlarini xususiy sektor orqali tashkil etish	Ovqatlantirish, IT-servis, xavfsizlik, transport, laboratoriya xizmati, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha operatsion kontraktlar	Davlatning operatsion xarajatlari qisqaradi, xizmat sifati va tezkorlik oshadi
3. Ta’lim xizmatlari	Davlat buyurtmasi asosida nodavlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilar va talabalarni o‘qitish	Davlat granti, vaucher, per capita moliyalashtirish, ijtimoiy kontraktlar orqali xususiy bog‘cha, maktab va universitetlarga talabalar yo‘naltiriladi	Ta’lim qamrovi kengayadi, davlat infratuzilmasiga yuk kamayadi, raqobat kuchayadi
4. Infratuzilma mavjudligi	Xususiy investorlar tomonidan ta’lim binolari va obyektlarini qurish hamda ularni davlatga uzoq muddatli foydalanish uchun taqdim etish	“Build-Lease-Transfer”, “Design-Build-Finance-Operate” kabi DXSh modellarida maktab, bog‘cha, yotoqxona, STEM laboratoriya, raqamli markazlar barpo etish	Yangi o‘quv quvvatlari yaratiladi, hududiy taqchillik kamayadi, budjetga bir martalik yuk pasayadi
5. Infratuzilma + ta’lim xizmati kompleksi	Xususiy sherik nafaqat bino quradi, balki ayrim xizmatlarni ham ko‘rsatadi	Maktabgacha ta’lim markazi, kasb-hunar markazi, IT-maktab, ixtisoslashgan ta’lim klasterlarini qurish va boshqarish bo‘yicha kompleks kontraktlar	Resurslardan kompleks foydalanish ta’minlanadi, risklar optimal taqsimlanadi, sifat nazorati kuchayadi

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy

[100] Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. Higher Education, 47(1), 1–23.

o‘sishning ijtimoiy-investitsion modelidagi o‘rni va ahamiyatini kompleks baholash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim tizimining rivojlanishi va uning natijadorligi, avvalo, moliyalashtirish manbalari tarkibi va ularning samarali boshqarilishiga bevosita bog‘liq. Xususan, davlat, xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining o‘zaro nisbatlari ta’lim sifati, qamrov darajasi hamda raqamli ko‘nikmalar rivojiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

Olingan empirik natijalarga ko‘ra, ta’lim tizimi rivojlanishining asosiy indikatori sifatida raqamli ko‘nikmalar darajasi ajralib chiqdi. Bu ko‘rsatkich zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda inson kapitalining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Regression tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, oliy ta’limni moliyalashtirish hajmi va shakli bilan raqamli ko‘nikmalar darajasi o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmi eng yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Xususan, DXSh ulushining oshishi raqamli ko‘nikmalar darajasining sezilarli oshishiga olib kelishi aniqlangan bo‘lib, bu ushbu mexanizmning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa

Tahlillar shuni ham ko‘rsatdiki, faqat davlat investitsiyalariga yoki faqat xususiy investitsiyalarga tayanish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlay olmaydi. Bir tomonlama moliyalashtirish modeli natijadorlikning pasayishiga olib keladi. Davlat investitsiyalariga haddan tashqari tayanish resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirsa, xususiy investitsiyalar ustuvor bo‘lgan holatlarda esa ijtimoiy tenglik va ta’lim qamrovi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, optimal model sifatida davlat, xususiy sektor va DXSh mexanizmlarining muvozanatli kombinatsiyasiga asoslangan aralash moliyalashtirish modeli eng maqbul yo‘l sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida investitsiyalar va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikning institutsional omillar bilan ham chambarchas aloqadorligini ko‘rsatdi. Ya’ni, moliyalashtirish hajmi bilan bir qatorda, uning qanday boshqarilishi, shaffoflik darajasi, hisobdorlik mexanizmlari va tartibga solish sifati ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, DXSh mexanizmining samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki boshqaruv samaradorligini oshirish orqali ham namoyon bo‘ladi.

Mazkur ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, oliy ta’limni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish zarur. Buning uchun DXSh bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shartnoma mexanizmlarini standartlashtirish va investorlar uchun barqaror hamda prognoz qilinadigan muhit yaratish lozim.

Ikkinchidan, ta’lim tizimiga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kafolat mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu orqali xususiy sektorning ta’lim sohasidagi ishtirokini kengaytirish mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida ularni strategik yo‘naltirish talab etiladi. Xususan, davlat mablag‘lari asosan infratuzilma, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ijtimoiy ahamiyatga ega yo‘nalishlarga yo‘naltirilishi lozim.

To‘rtinchidan, ta’lim tizimida shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash muhim hisoblanadi. Buning uchun ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish, mustaqil audit mexanizmlarini joriy etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarur.

Beshinchidan, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash lozim. Chunki aynan ushbu ko‘rsatkich zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta’minlaydi.

Oltinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar va investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimini samarali rivojlantirish uchun moliyalashtirishning

diversifikatsiyalashgan va muvozanatli modelini joriy etish zarur bo‘lib, bunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. (2023). *Education finance watch 2023*. World Bank.
2. World Bank. (2020). *Public-private partnerships in education*. World Bank.
3. Asian Development Bank. (2022). *Financing education in Asia and the Pacific*. ADB.
4. OECD. (2023). *Education at a glance 2023: OECD indicators*. OECD Publishing.
5. UNESCO. (2022). *Global education monitoring report 2022*. UNESCO.
6. Patrinos, H. A., Barrera-Osorio, F., & Guáqueta, J. (2009). *The role and impact of public-private partnerships in education*. World Bank.
7. Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2018). Returns to investment in education: A decennial review. *Education Economics*, 26(5), 445–458.
8. Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory. *Higher Education*, 47(1), 1–23.
9. OECD. (2020). *Blended finance principles for unlocking commercial finance for the SDGs*. OECD Publishing.
10. International Finance Corporation. (2020). *Public-private partnership handbook*. IFC.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Ta’lim tizimi rivojlanishi bo‘yicha hisobot*.
12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *Ta’lim statistikasi to‘plami*.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA UNIVERSITETNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA UNI YAXSHILASH STRATEGIYASINI TANLASH

Ismoilova Feruza Kubaymurodovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali o‘qituvchisi
E-mail: feruzakubaymurodovna@gmail.com

Bozorov Sardor Ilhom o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali talabasi
E-mail: bozorovsardor6907@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada universitetlarning ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi va uni shakllantiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Hozirgi sharoitda oliy ta’lim muassasalari bozor iqtisodiyoti subyektlari sifatida faoliyat yuritib, talabalarni jalb qilish, ta’lim sifatini oshirish va o‘z nufuzini mustahkamlash uchun o‘zaro raqobatlashmoqda. Universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va ta’lim xizmatlari sifatini doimiy ravishda takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekani aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *raqobatbardoshlik, ta’lim xizmatlari bozori, oliy ta’lim muassasalari, ta’lim sifati, intellektual salohiyat, innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

ОЦЕНКА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТА НА РЫНКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ И ВЫБОР СТРАТЕГИИ ЕЕ ПОВЫШЕНИЯ

Исмоилова Феруза Кубаймуродовна
преподаватель
Самаркандского филиала
Ташкентского университета
информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми
E-mail: feruzakubaymurodovna@gmail.com

Бозоров Сардор Илхом ўғли
студент
Самаркандского филиала
Ташкентского университета
информационных технологий имени
Мухаммада аль-Хорезми
E-mail:bozorovsardor6907@gmail.com

Аннотация. *В данной статье анализируется конкурентоспособность университетов на рынке образовательных услуг и основные факторы, её определяющие. В современных условиях высшие учебные заведения, функционирующие как субъекты рыночной экономики, конкурируют друг с другом за привлечение студентов, повышение качества образования и укрепление своей репутации. Установлено, что повышение конкурентоспособности университетов тесно связано с внедрением инновационных*

подходов, развитием научного потенциала и непрерывным повышением качества образовательных услуг.

***Ключевые слова**: конкурентоспособность, рынок образовательных услуг, высшие учебные заведения, качество образования, интеллектуальный потенциал, инновации, научно-исследовательская деятельность.*

ASSESSMENT OF THE UNIVERSITY’S COMPETITIVENESS IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET AND CHOOSING A STRATEGY TO IMPROVE IT

Ismoilova Feruza Kubaymurodovna

Teacher
of the Samarkand branch of the
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Xorazmiy
E-maik: feruzakubaymurodovna@gmail.com

Bozorov Sardor Ilhom o‘g‘li

Student of the Samarkand branch of the
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi
E-mail: bozorovsardor6907@gmail.com

***Abstract.**This article analyzes the competitiveness of universities in the educational services market and the main factors shaping it. In the current environment, higher education institutions, operating as subjects of a market economy, compete with each other to attract students, improve the quality of education and strengthen their reputation. It has been established that increasing the competitiveness of universities is closely related to the introduction of innovative approaches, the development of scientific potential and the continuous improvement of the quality of educational services.*

***Keywords:** competitiveness, educational services market, higher education institutions, quality of education, intellectual potential, innovations, research activities.*

Kirish

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim muassasalari bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yurituvchi muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Universitetlar nafaqat bilim beruvchi ijtimoiy institut sifatida, balki ta’lim xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va ta’lim bozorida faol ishtirok etuvchi tashkilotlar sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, yangi universitetlar tashkil etish, xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallarini ochish hamda xususiy oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Natijada ta’lim xizmatlari bozori kengayib, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida talabalarni jalb qilish, ta’lim sifatini oshirish va o‘zining nufuzini mustahkamlash uchun olib boriladigan jarayonni anglatadi. Har bir universitet o‘zining ta’lim dasturlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati, ilmiy-tadqiqot ishlari, zamonaviy o‘quv texnologiyalari hamda moddiy-texnik bazasi orqali boshqalardan ustun bo‘lishga harakat qiladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion o‘qitish usullarini joriy etish, talabalar uchun qulay o‘quv muhiti yaratish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi keng imkoniyatlar doirasi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat oliy ta’lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat (xususiy) universitetlar ham faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab nufuzli xorijiy universitetlarning

filiallari ham ochilib, turli yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim xizmatlari taklif etilmoqda. Bu esa ta’lim xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ayrim hududlarda bir xil yoki o‘xshash mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim beruvchi bir nechta oliy ta’lim muassasalari mavjud. Masalan, iqtisodiyot, menejment, axborot texnologiyalari, pedagogika kabi yo‘nalishlarda bir nechta universitetlar mutaxassislar tayyorlaydi. Bu esa universitetlar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytiradi. Abituriyentlar esa o‘zlari uchun eng maqbul oliy ta’lim muassasasini tanlash jarayonida ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilarning malakasi, zamonaviy o‘quv sharoitlari, amaliyot imkoniyatlari hamda bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi kabi omillarga e’tibor qaratadi.

Oliy ta’lim muassasalari nafaqat sifatli ta’lim berishga, balki qo‘shimcha xizmatlarni ham taklif etishga intilmoqda. Jumladan, xalqaro almashinuv dasturlari, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik, ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari, zamonaviy laboratoriyalar, elektron kutubxonalar, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimlari kabi xizmatlar universitetlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ayrim universitetlar talabalarga qo‘shimcha kurslar, xorijiy tillarni chuqur o‘rganish imkoniyati, amaliy treninglar va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliyot o‘tash imkoniyatlarini ham yaratmoqda.

Mavzuning dolzarbligi

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlari bozorining muhim ishtirokchilari hisoblanadi. Ular bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritib, talabalar ehtiyojlarini qondirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Universitetlar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat esa ta’lim tizimining rivojlanishiga, innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishiga hamda mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonining yanada takomillashishiga olib kelmoqda.

Universitetlar o‘rtasidagi raqobat — bu oliy ta’lim muassasalarining ta’lim xizmatlari bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlash, nufuzini oshirish hamda ko‘proq talabalarni jalb qilishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida universitetlar soni ortib, ta’lim xizmatlari bozori sezilarli darajada kengaydi. Natijada oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobat ham kuchayib, har bir universitet o‘zining ta’lim sifati, ilmiy salohiyati va infratuzilmasini rivojlantirish orqali bozorda barqaror mavqega ega bo‘lishga intilmoqda.

Bugungi kunda universitetlar o‘rtasidagi raqobat faqatgina talabalarni jalb qilish bilan cheklanib qolmaydi. U ta’lim dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash kabi ko‘plab yo‘nalishlarni ham qamrab oladi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonini doimiy ravishda modernizatsiya qilish, yangi mutaxassisliklarni ochish hamda talabalar uchun qulay va zamonaviy o‘quv muhitini yaratishga katta e’tibor qaratmoqda.

Biroq ta’lim xizmatlari bozorining tobora rivojlanib borishi universitet raqobatbardoshligini oshirishning yangi va samarali usullarini topishni ham murakkablashtirmoqda. Chunki bugungi kunda deyarli barcha oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va talabalar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishga harakat qilmoqda. Shu sababli universitetlar o‘z raqobatbardoshligini saqlab qolish va kuchaytirish uchun yangi g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar hamda innovatsion yondashuvlarga tayanishga majbur bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Universitetning raqobatbardoshligi uning ta’lim sifati, narxi, o‘qitish usullari va usullari, imkoniyatlari, joylashuvi, obro‘si, reklama va boshqalar kabi raqobatbardoshlik mezonlari asosida

boshqa oliy ta’lim muassasalaridan ajralib turish qobiliyati bilan belgilanadi. Yangi mutaxassislikni ishga tushirish, qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish va marketing strategiyasini tanlash raqobat muhitini o‘rganish va tahlil qilishni talab qiladi.

Universitetning raqobatbardoshligini tahlil qilish uchun grafik, analitik, statistik va marketing usullari qo‘llaniladi va ta’lim muassasasi va uning asosiy raqobatchilari haqidagi ma’lumotlarni aks ettiruvchi ta’lim xizmatlari bozori xaritalari tuziladi. Ushbu bozor xaritasini tahlil qilish har bir raqobatchining "ta’sir doirasini" aniqlash va nafaqat ularning kuchli va zaif tomonlarini, balki o‘zlarining yutuqlarini ham aniqlash imkonini beradi. Ko‘pgina ta’lim muassasalari raqobatchilarining yutuqlarini o‘rganadi va o‘zlarining professional rivojlanishlariga kiritadi. Ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligi asosan ma’lum bozor sharoitlariga (bozor sharoitlari, mamlakatning demografik holati, bitiruvchilarga ish beruvchilarning talabining o‘zgarishi, ta’lim xizmatlari doirasi, narxlar, to‘lov shartlari va boshqalar) bog‘liq. Universitetning raqobatbardoshligini ta’minlashning bir usuli - yangi ta’lim xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish, ta’limni tashkil etishdagi innovatsiyalar, professional amaliy mashg‘ulotlarning yangi darajalari va batafsilroq ta’lim dasturida raqobatchilaridan oldinda bo‘lish

Tahlil va natijalar

Tobora murakkablashib borayotgan raqobat muhitida universitetning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan mavjud bilimlardan samarali foydalanish hamda yangi bilimlarni yaratish qobiliyatiga bog‘liq. Zamonaviy oliy ta’lim muassasasi nafaqat bilim beruvchi tashkilot, balki ilmiy g‘oyalar va innovatsiyalar markazi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Shuning uchun universitetlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy markazlar tashkil etish ham universitetlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Universitetning raqobatbardoshligi, avvalo, uning ta’lim xizmatlari bozoridagi real va potentsial raqobatchilariga qarshi tura olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu qobiliyat esa turli xil tashqi va ichki omillarning ta’siri ostida shakllanadi. Tashqi omillarga davlatning ta’lim sohasidagi siyosati, mehnat bozorining ehtiyojlari, demografik jarayonlar, iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda xalqaro ta’lim tizimi bilan integratsiya jarayonlari kiradi. Ichki omillarga esa universitetning moddiy-texnik bazasi, professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi, o‘quv dasturlarining zamonaviyligi, boshqaruv tizimining samaradorligi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanganlik darajasi kiradi.

Shuningdek, universitetning raqobatbardosh ustunliklari ham muhim ahamiyatga ega. Bunday ustunliklar qatoriga ta’lim sifatining yuqoriligi, xalqaro hamkorlikning rivojlanganligi, zamonaviy o‘quv infratuzilmasi, talabalar uchun yaratilgan qulay sharoitlar, amaliyot va ishga joylashish imkoniyatlari kiradi. Aynan shu omillar universitetning ta’lim xizmatlari bozorida o‘ziga xos o‘rnini egallashiga hamda boshqa oliy ta’lim muassasalariga nisbatan ustunlikka ega bo‘lishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, 2026-yil mart oyida Markaziy bank tijorat banklari kuzatuv kengashlarining mustaqil a’zolari bilan o‘tkazgan uchrashuvda aktivlar sifati, NPLlarni samarali boshqarish, anderrayting jarayonlari, skoring modellarini rivojlantirish, restrukturizatsiya va muammoli aktivlar bozorini shakllantirish masalalariga alohida urg‘u berdi. Uchrashuvda “Yomon bank”ga o‘xshash institutsional yechimlar va muammoli aktivlarni tizim darajasida boshqarish g‘oyalari ham muhokama qilingan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kredit riskini boshqarish tizimi formal jihatdan ancha shakllangan bo‘lsada, uning navbatdagi bosqichi muammoli aktivlar bilan ishlashning bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, kuzatuv kengashlari rolini kuchaytirish va kredit portfeli sifatini profilaktik boshqarish bilan bog‘liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini ikki tomonlama baholash mumkin. Bir tomondan, risk-appetit, kredit siyosati, mustaqil risk va komplayens bo‘linmalari, ichki audit, aktivlarni tasniflash va zaxiralash, MHXSga o‘tish, stress-testlar hamda riskga asoslangan prudensial nazorat joriy etilgani tizimning institutsional bazasi sezilarli darajada mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, stress-testlardagi noqulay ssenariylar, korporativ kreditlarning valyuta tarkibi, substandart aktivlar ulushi va muammoli aktivlar bilan ishlash bozorining hali to‘liq shakllanmaganligi ushbu tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarishning amaldagi holati “institutsional jihatdan yetarlicha shakllangan, biroq amaliy chuqurlashuv va profilaktik samaradorlik nuqtai nazaridan hali ham rivojlanayotgan tizim” sifatida tavsiflanishi mumkin.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada takomillashgan va xalqaro standartlarga yaqinlashgan.

Xususan, risk-appetit va limitlar tizimining joriy etilishi, “uch himoya chizig‘i” modelining amaliyotga tatbiq etilishi, IFRS 9 asosida kutilayotgan zararlarni hisoblash tizimining joriy qilinishi, kredit portfeli sifati va NPL ulushining nisbatan barqarorlashuvi kabi ijobiy natijalar qayd etilgan.

Shu bilan birga, substandart aktivlar ulushining yuqoriligi, xorijiy valyutadagi kreditlar ulushining yuqoriligi, muammoli aktivlar bilan ishlash bozor mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, stress-test natijalarida noqulay ssenariylarda kapital yetarliligi pasayish ehtimoli kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- kredit risklarini erta aniqlash va ogohlantirish tizimlarini (EWS) joriy etishni kengaytirish;
- muammoli aktivlar bilan ishlash uchun ikkilamchi bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- kreditlash jarayonida skoring va sun’iy intellekt asosidagi modellarni keng qo‘llash;
- xorijiy valyutadagi kreditlar ulushini kamaytirish orqali valyuta risklarini diversifikatsiya qilish;
- kuzatuv kengashlari rolini kuchaytirish orqali korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, kredit risklarini boshqarish tizimini yanada rivojlantirish bank tizimi barqarorligini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Murojaatnomasi. –Toshkent.// Xalq so‘zi, 2025 yil 26 dekabr.

2. Hyman Minsky — Minsky H.P. Stabilizing an Unstable Economy. Yale University Press, 1986.

3. Douglas Diamond; Philip Dybvig — Diamond D., Dybvig P. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity // Journal of Political Economy, 1983.

4. Basel Committee on Banking Supervision — International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards (Basel II), 2004; Basel III: A global regulatory framework, 2010.

5. Bekmurodov A.Sh. — Bekmurodov A.Sh. O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirish va barqarorligini ta’minlash yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2020. – 280 b.

6. Toshmurodova B.Yu. — Toshmurodova B.Yu. Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №3.

7. Ruziev Sh.A. — Ruziev Sh.A. Tijorat banklarida kredit portfeli sifatini baholash va risklarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 250 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar va banklar guruhlarida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir me’yoriy hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

9. Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizom, 3427-son, 18.04.2023.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni 2025 yil.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI



Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna

moliya va kredit kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.
Renessans ta`lim universiteti
E-mail tursunkulovagulchiroy@mail.com
ORCID: 0009-0004-3594-8608

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda ekologik audit tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari kompleks tahlil qilingan. Maqolada ekologik auditning huquqiy, institutsional va amaliy asoslari, shuningdek, uning “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashuvi yoritilgan. Maqolada ekologik audit tizimining dastlabki shakllanish davridan boshlab zamonaviy raqamli monitoring va xalqaro standartlarga integratsiya jarayonlarigacha bo‘lgan evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ekologik audit samaradorligiga ta’sir etuvchi muammolar, jumladan, xususiy auditorlik bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali kadrlar taqchilligi hamda monitoring mexanizmlarining sustligi tahlil qilingan. Demak, ekologik auditni iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik audit, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik monitoring, ekologik nazorat, ISO 14001, ekologik boshqaruv, ekologik sug‘urta, institutsional rivojlanish, raqamli audit tizimi.*

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna

доцент кафедры
финансов и кредита, к.э.н.
образовательный университетский “Ренессанс”
E-mail tursunkulovagulchiroy@mail.com
ORCID: 0009-0004-3594-8608

Аннотация. *В данной статье представлен всесторонний анализ этапов формирования и развития системы экологического аудита в Узбекистане. Рассматриваются правовые, институциональные и практические основы экологического аудита, а также его интеграция с концепцией «зеленой экономики». Проводится анализ эволюции системы экологического аудита от ее первоначального формирования до современных цифровых методов мониторинга и интеграции в международные стандарты. Также анализируются проблемы, влияющие на эффективность экологического аудита, включая недостаточное развитие частного рынка аудита, нехватку квалифицированного персонала и слабость механизмов мониторинга. Таким образом, обосновывается необходимость совершенствования экологического аудита на основе экономических стимулов, цифровых технологий и международного опыта.*

Ключевые слова: *экологический аудит, экологическая безопасность, устойчивое развитие, зеленая экономика, экологический мониторинг, экологический контроль, ISO 14001, экологическое управление, экологическое страхование, институциональное развитие, цифровая система аудита.*

DEVELOPMENT OF THE ECOLOGICAL AUDIT SYSTEM IN UZBEKISTAN

Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna

Associate Professor of the

Department of Finance and Credit
Renaissance educational university
Doctor of Philosophy (PhD)
in Economics,
ORCID: 0009-0004-3594-8608

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the stages of formation and development of the environmental audit system in Uzbekistan. The article covers the legal, institutional and practical foundations of environmental audit, as well as its integration with the concept of "green economy". The article examines the evolution of the environmental audit system from its initial formation to modern digital monitoring and integration processes into international standards. It also analyzes the problems affecting the effectiveness of environmental audits, including the insufficient development of the private audit market, the shortage of qualified personnel, and the weakness of monitoring mechanisms. Thus, the need to improve environmental audits based on economic incentives, digital technologies, and international experience is substantiated.*

Keywords: *environmental audit, environmental safety, sustainable development, green economy, environmental monitoring, environmental control, ISO 14001, environmental management, environmental insurance, institutional development, digital audit system.*

Kirish

O‘zbekistonda ekologik audit tizimining rivojlanishi bir necha muhim bosqichlar orqali shakllangan bo‘lib, u mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tizimning shakllanishi iqtisodiy, ekologik, huquqiy va xalqaro omillar ta’siri ostida kechgan.

Xususan, ekologik muammolarning keskinlashuvi, jumladan Orol dengizi inqirozi ekologik nazoratni kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, mamlakatda ekologiya sohasidagi qonunchilik bazasining rivojlanishi ekologik audit institutining shakllanishiga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Xalqaro iqtisodiy va ekologik integratsiya jarayonlari esa O‘zbekistonni global ekologik standartlarga yaqinlashtirdi. Natijada ekologiya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining joriy etilishi esa ekologik auditning ahamiyatini yanada oshirib, iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ekologik audit tizimi rivojlanish bosqichlari mavjud. Ular Dastlabki shakllanish davri (1991–2000-yillar). Huquqiy asoslarni rivojlantirish (2000–2010-yillar). Ekologik auditni joriy etish (2010–2017-yillar). Institutsional rivojlanish (2017–2020-yillar). Zamonaviy rivojlanish va integratsiya (2020-yildan hozirgacha) hisoblanadi.

Dastlabki shakllanish davri mustaqillikdan keyin ekologik siyosatni shakllantirish boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ekologik nazorat asosan davlat organlari tomonidan olib borildi. Ekologik audit tushunchasi hali to‘liq shakllanmagan edi.

Huquqiy asoslarni rivojlantirish. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha normativ-huquqiy baza kengaydi. Ekologik ekspertiza va monitoring tizimlari rivojlandi. Ekologik auditga o‘xshash nazorat mexanizmlari paydo bo‘la boshladi. Korxonalarda ekologik xavflarni baholash amaliyoti joriy etildi.

Ekologik auditni joriy etish. Ekologik audit tushunchasi ilmiy va amaliy jihatdan shakllandi. Xalqaro tajriba, xususan ISO (International Organization for Standardization) standartlari o‘rganildi. Korxonalarda ichki ekologik audit elementlari paydo bo‘ldi. Ekologik boshqaruv tizimlari (ISO 14001) joriy etila boshlandi.

Institutsional rivojlanish. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvida takomillashtirildi. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyati

kengaytirildi. Shu bilan birga ekologik auditni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi. Investitsion loyihalarda ekologik baholashlar kuchaytirildi.

Zamonaviy rivojlanish va integratsiya. Ekologik audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni davom etmoqda. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida ekologik auditning roli oshdi. Raqamli monitoring va audit texnologiyalari joriy qilinmoqda. Xususiy sektor ishtirokida mustaqil ekologik audit xizmatlari rivojlanmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Ekologik sug‘urta tizimi rivojlanishi huquqiy asoslar va ilmiy qarashlar nuqtayi nazaridan korxonalarning ekologik javobgarligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ushbu tizim orqali atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashning kafolatlangan mexanizmlarini belgilab bersa, ilmiy qarashlarda ekologik sug‘urtaning mohiyati ekologik risklarni boshqarish, ularni oldindan baholash va minimallashtirish vositasi sifatida talqin etiladi. Muallif fikricha, ekologik sug‘urta tizimi nafaqat kompensatsiya funksiyasini bajaradi, balki korxonalarni ekologik xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etishga undovchi rag‘batlantiruvchi omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ekologik sug‘urta “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini amaliyotga tatbiq etish, ekologik zararlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi [1] da ekologik nazoratni kuchaytirish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligi alohida ta’kidlangan. Mazkur murojaatnomada ekologik nazoratni kuchaytirish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalarining alohida ta’kidlanishi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilganini ko‘rsatadi. Muallif fikricha, ushbu yondashuv nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, balki atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini, xususan, ekologik audit tizimini keng joriy etish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, ekologik nazoratning institutsional asoslarini mustahkamlash va uni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tulaxodjaeva va Xodjaevalar ekologik auditni nafaqat ekologik himoya vositasi, balki iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida talqin etadilar [2]. Mualliflarning fikricha, ekologik audit faqatgina atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiluvchi nazorat vositasi sifatida emas, balki xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. Shu bois ekologik auditni joriy etish orqali korxonalarda ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash mumkin bo‘ladi, bu esa “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, ekologik audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga ta’sirini mustaqil va tizimli baholashdan iboratdir[3]. “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida Ekologik audit bu ekologik audit subyekti amalga oshiradigan xo‘jalik va boshqa faoliyatning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish talablariga rioya etilishini tekshirish maqsadida ekologik auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan: tizimli, hujjatlashtirilgan, mustaqil baholash hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ekologik audit xo‘jalik yurituvchi subyektlarning atrof-muhitga ta’siri, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ekologik qonunchilikka muvofiqligini aniqlashga qaratilgan mustaqil va kompleks baholash jarayoni sifatida talqin qilinadi. U ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Tahliliy baholash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik audit tizimi rivojlanish

jarayonida sezilarli institutsional va huquqiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, uning amaliy samaradorligi hali yetarli darajada yuqori emas. Xususan, ekologik audit natijalari ko‘pincha tavsiyaviy xarakterda qolib, ularning ijrosi ustidan samarali monitoring mexanizmlari to‘liq shakllanmagan. Bu esa ekologik auditni real boshqaruv vositasi emas, balki formal tekshiruv darajasiga tushib qolish xavfini yuzaga keltiradi.

Dastlabki bosqichda ekologik siyosat shakllanib, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu davrda ekologik nazorat asosan davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ekologik audit tushunchasi hali to‘liq shakllanmagan edi.

Keyingi bosqichda ekologik ekspertiza va monitoring tizimlari rivojlanib, korxonalarda ekologik xavflarni baholash amaliyoti shakllandi. 2010-yillarga kelib esa xalqaro ISO standartlari, xususan ISO 14001 asosida ekologik boshqaruv tizimlari joriy etila boshlandi. Institutsional bosqichda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi takomillashtirildi va ekologik auditni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi. Zamonaviy bosqichda esa raqamli monitoring, xususiy auditorlik xizmatlari va “yashil iqtisodiyot” integratsiyasi kuchaymoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik audit tizimi dastlab ma’muriy nazoratga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik iqtisodiy va institutsional mexanizmlar bilan boyitilgan. Biroq, amaliyotda ekologik auditning samaradorligi hali to‘liq ta’minlanmagan.

Dolzarb muammolardan biri xususiy auditorlik bozorining yetarlicha shakllanmaganligi hamda yuqori malakali kadrlar taqchilligi bilan bog‘liqdir. Natijada ekologik audit natijalari ko‘pincha tavsiyaviy xarakterda qolib, ularning ijrosi ustidan nazorat sustligicha qolmoqda. Shuningdek, ekologik auditning majburiy va ixtiyoriy shakllari mavjud bo‘lsa-da, ayrim yuqori xavfli korxonalar uchun zarur bo‘lib qolmoqda. Bu esa ekologik auditni real boshqaruv vositasidan ko‘ra, hujjatlashtirish vositasiga aylantirish xavfini tug‘dirmoqda.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, ekologik audit rivojlangan davlatlarda nafaqat nazorat vositasi, balki iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi sifatida ham qo‘llaniladi. Korxonalarga ekologik talablarni bajargani uchun soliq imtiyozlari va investitsion preferensiyalar beriladi. O‘zbekistonda esa bunday mexanizmlar hali to‘liq joriy etilmagan. Shu sababli ekologik audit tizimining samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy rag‘batlantirish instrumentlarini kengaytirish zarur. Xorijiy investorlar ham ekologik xavfsizlikka katta e’tibor qaratmoqda. Chunki ekologik barqaror hududlarda investitsiya xavfi past bo‘lib, uzoq muddatli barqaror foyda olish imkoniyati yuqoriroq hisoblanadi.

O‘zbekistonda ekologik audit tizimi bugungi kunda kompleks va xalqaro standartlarga moslashgan mexanizmga aylangan. “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohani huquqiy jihatdan mustahkamladi. Qonunga muvofiq, ekologik audit ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Majburiy audit yuqori ekologik xavfga ega korxonalarga tatbiq etiladi. Bundan tashqari O‘zbekistonning xalqaro ekologik tashkilotlar bilan, xususan IUCN bilan hamkorligi ekologik audit tizimini global standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa milliy ekologik siyosatni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish imkonini ber adi.Yana O‘zbekistonda ekologik sug‘urta bo‘yicha alohida qonun mavjud emas. Mutaxassislar ushbu institutni joriy etish zarurligini ta’kidlamoqda. Ekologik sug‘urta tizimi korxonalarning ekologik javobgarligini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashga xizmat qiladi. Fikrimizcha, ekologik sug‘urta tizimi nafaqat korxonalarning ekologik javobgarligini oshiradi, balki ularni ekologik xavflarni oldindan baholash va kamaytirishga rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ekologik sug‘urta tizimi korxonalarni ekologik standartlarga rioya etishga majbur etib, ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘zbekistonda ekologik audit tizimi mustaqillikdan keyingi davrda izchil rivojlanib, bugungi kunda huquqiy, institutsional va tashkiliy jihatdan shakllangan muhim ekologik boshqaruv mexanizmiga aylangan. Mazkur tizimning rivojlanishi ekologik xavfsizlikni

ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechmoqda. Shu bilan birga, ekologik audit amaliyotida ayrim muammolar, xususan, monitoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xususiy auditorlik bozorining sustligi hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi uning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ekologik auditni real boshqaruv vositasi sifatida yanada takomillashtirish muhim bo‘lib qolmoqda. Natijada ekologik audit O‘zbekistonda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi muhim vositaga aylanadi.

Ekologik audit tizimining samaradorligini oshirish maqsadida uning natijalari ijrosini ta’minlovchi raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish, xususiy auditorlik bozorini rivojlantirish va raqobat muhitini kuchaytirish, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, ekologik auditni iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari, soliq imtiyozlari, subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash, yuqori ekologik xavfga ega korxonalar uchun majburiy audit doirasini kengaytirish hamda ekologik sug‘urta tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga integratsiya qilish orqali ekologik audit tizimini yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // president.uz (murojaat sanasi: 24.01.2020).

2.Тулаходжаева Миновар, Ходжаева Мутабар., Экологический аудит: мировой опыт и практика в Узбекистане. Bussines & Law. N2. 2024. 29 c. // https://doi.org/10.52340/bal

3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi O‘RQ-678-son “Ekologik audit to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

RIELTORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING XORIJ VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI TAHLILI



Xomitov Komiljon Zoitovich
iqtisodiyot fanlari doktori,
baholash ishi va investitsiyalar
kafedrasi professori
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: metro8369@gmail.com
ORCID:0000-0001-8500-2192

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rieltorlik faoliyatini tartibga solish bo‘yicha xorij va O‘zbekiston tajribasi tahlil qilinadi. Turli mamlakatlarda ko‘chmas mulk faoliyatini tartibga solishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradigan uchta turdagi modellar taklif etiladi: qattiq, o‘rta va yumshoq. Muallifning xulosasiga ko‘ra, turli mamlakatlardan olingan empirik ma’lumotlarga asoslanib, rieltorlik faoliyatini tartibga solishning eng samarali modeli qattiq model bo‘lib, u davlat tomonidan ham, professional hamjamiyat tomonidan ham yuqori talablar va tartibga solish tufayli taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yuqori darajada ta’minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ko‘chmas mulk, ko‘chmas mulk bozori, ko‘chmas mulkni tasarruf etish, turar va noturar joylar, rieltorlik faoliyati, rieltor, rieltorlik faoliyatini tartibga solish modeli, rieltorlik, agent.*

АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ И УЗБЕКСКИХ ОПЫТА В РЕГУЛИРОВАНИИ РИЭЛТОРСКИХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хомитов Комилжон Зоитович
доктор экономических наук
профессор кафедры оценки и инвестиций
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: metro8369@gmail.com
ORCID:0000-0001-8500-2192

Аннотация. *В данной статье анализируется зарубежный и узбекский опыт регулирования деятельности в сфере недвижимости. Предложены три типа моделей, позволяющие выявить сильные и слабые стороны регулирования рынка недвижимости в разных странах: жесткая, средняя и мягкая. По мнению автора, на основе эмпирических данных из разных стран наиболее эффективной моделью регулирования деятельности в сфере недвижимости является жесткая модель, которая обеспечивает высокий уровень качества предоставляемых услуг благодаря высоким требованиям и регулированию как со стороны государства, так и со стороны профессионального сообщества.*

Ключевие слова: *недвижимость, рынок недвижимости, реализация недвижимости, жилые и нежилые помещения, деятельность в сфере недвижимости, риэлтор, модель регулирования деятельности в сфере недвижимости, недвижимость, агент.*

ANALYSIS OF FOREIGN AND UZBEKISTAN EXPERIENCE OF REGULATING REAL ESTATE ACTIVITIES

Xomitov Komiljon Zoitovich
Doctor of Economics
Professor of the Department of

Evaluation and Investments
Tashkent State
University of Economics
E-mail: metro8369@gmail.com
ORCID:0000-0001-8500-2192

Abstract. *This article analyzes the foreign and Uzbek experience in regulating real estate activities. Three types of models are proposed that allow us to identify the strengths and weaknesses of real estate regulation in different countries: hard, medium and soft. According to the author, based on empirical data from different countries, the most effective model of regulating real estate activities is the hard model, which ensures a high level of quality of services provided due to high requirements and regulation by both the state and the professional community.*

Keywords: *real estate, real estate market, real estate disposal, residential and non-residential premises, real estate activities, realtor, model of regulation of real estate activities, real estate, agent.*

Kirish

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, davlat mulkini monopoliyadan chiqarish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida mamlakatda xususiy mulkdorlar, shu jumladan ko‘chmas mulk egalari sinfi paydo bo‘ldi. Ular bugungi kunda ushbu ko‘chmas mulkdan nafaqat foydalanishi va unga egalik qilishi, balki uni tasarruf etishi ham mumkin. Mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, ko‘p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi, tovarlarning birja, pul va kredit bozori, qimmatli qog‘ozlar, turli xizmatlar bozori singari mohiyatan yangi bozorlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ushbu turdagi bozorlar orasida ko‘chmas mulk bozori alohida o‘rin egallaydi, ya’ni u butun bozor munosabatlari tizimining markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2010 yil 22 dekabrda “Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2011 yil 12 iyulda Rieltorlik xizmatlari milliy standarti (1-son RXMS) "Rieltorlik xizmatlari sifatini nazorat qilishning ichki qoidalariga qo‘yiladigan umumiy talablar" qabul qilingan bo‘lsada O‘zbekiston ko‘chmas mulk va rieltorlik biznesi nafaqat g‘arb, balki rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘chmas mulk biznesiga nisbatan ancha "yosh" bo‘lganligi sababli, xorijiy ko‘chmas mulk faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlarini va ularni O‘zbekistonda amalda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘zbekistonda o‘z-o‘zini tartibga solish sifatini oshirish potentsiali tugallanmagan, bu esa yaqin kelajakda ko‘chmas mulk xizmatlari sifatini dunyodagi eng yaxshi analoglar darajasiga ko‘taradigan mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi.

Rieltor - bu ko‘chmas mulk bozorida vositachilik xizmatlarini ko‘rsatadigan shaxs. "Rieltor" atamasi 1916 yilda AQShda paydo bo‘lgan va rieltorlar uyushmasining maxsus belgisi sifatida ro‘yxatga olingan. Hozirda xorijdagi rieltorlar asosan ko‘chmas mulk oldi-sotdisi bo‘yicha vositachilik bilan shug‘ullanadi. Rieltorlik faoliyati - ko‘chmas mulk va unga bo‘lgan huquqlarni (binolar, inshootlar, turar-joy va noturar joylar, er uchastkalari) bilan bitimlarni (sotish, sotib olish, ayirboshlash, ijaraga berish, garovga qo‘yish, lizing) tashkil etuvchi mustaqil shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ko‘chmas mulk bozoridagi tadbirkorlik faoliyati. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishdir.

Rieltorlik faoliyati, shuningdek, brokerlik va agentlik faoliyatini, mulkni boshqarishni, ko‘chmas mulkni yaratish va rivojlantirishga xususiy investitsiyalarni jalb qilishni, turar-joy binolarini noturar joylarga o‘tkazishni, binolarni rekonstruktsiya qilish va qayta qurishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi

Mavzuning muammoli jihatlari va dolzarbligini o‘rganib, o‘zlarining ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarida keltirib o‘tgan MDH mamlakatlari olimlardan V.A. Shanyukevich va boshq.

“Osnovi rielterskoy deyatelnosti” [1] asarida rieltorlik faoliyatini nazariy-amaliy jihatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, G.V.Fedotov va B.A Volkovlarning “Ekonomika nedvijimosti” [2] nomli o‘quv qo‘llanmalarida hamda M.A. Kotlyarov, Dj. Dreyn, A.B. Bril va boshq. “Development nedvijimosti” [3] nomli monografiyalarida ko‘chmas mulk, rieltorlik va developerlik faoliyati sohasida tadqiqotlar amalga oshirishgan. Shuningdek, vatanimiz olimlardan, rieltorlik faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish bo‘yicha rieltorlik faoliyati modellari hamda rivojlanish kontseptsiyalarini ishlab chiqqan Sh.Shoha’zamiy “Rieltorlik faoliyati” nomli darsligida [4], ko‘chmas mulk va rieltorlik faoliyati tadqiqotlari bilan shug‘ullangan A.Kravchenko, V.Yodgorov va boshqalarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida rieltorlik faoliyati va uni tartibga solish bo‘yicha xalqaro amaliyot xususiyatlari, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo‘llanildi, shuningdek rieltorlik faoliyati va uni tartibga solish borasidagi muammolar va ularning echimlari xususida xulosa va takliflar shakllantirilgan.


Tahlil va natijalar

Amerika Qo‘shma Shtatlari dunyodagi eng qadimgi ko‘chmas mulk bozorlaridan biridir. "Rieltor" atamasining o‘zi 1916-yilda AQShda paydo bo‘lgan va Milliy Rieltorlar Assotsiatsiyasining (National Association of Realtors – NAR) rasmiy savdo belgisiga aylandi. Faqat NAR tovar belgisidan foydalanishga ruxsati bo‘lgan, mamlakat Milliy rieltorlar assotsiatsiyasining a’zosi bo‘lgan shaxsni rieltor deb atash mumkin, aks holda bu kasb ko‘chmas mulk agenti deb ataladi. " Rieltor " va "ko‘chmas mulk agenti" atamalari bir xil funktsiyalarni bajarishni anglatadi, ammo rieltorning maqomi yuqoriroqdir, chunki unga qo‘shimcha talablar qo‘yiladi, bu esa xizmat ko‘rsatish sifati va mijozlarning ishonch darajasini oshiradi.

Ko‘chmas mulk bozori va rieltorlik xizmatlari AQSh milliy iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, ko‘plab turdosh tarmoqlar uchun rivojlanish, shuningdek, asosiy milliy g‘oyalardan biri - "Har bir amerikalikning o‘z uyi bor!" g‘oyasining drayveri bo‘lib hisoblanadi. Kasbning nufuzi va NARning ta’siri shunchalik kattaki, hattoki Vashingtonda o‘tkaziladigan assotsiatsiyaning yillik anjumanida AQSh Prezidenti ham qatnashadi.

1-rasm.

AQShda rieltorlik faoliyatini amalga oshirish printsiplari (OLD CAR)*



Manba: *muallif tomonidan AQSh Milliy Rieltorlar Assotsiatsiyasining rasmiy veb-sayti*

ma’lumotlari asosida tuzilgan [National Association of Realtors USA (NAR), www].

AQShda rieltor va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni qonunchilik bilan tartibga solish qat’iy tartibga solinadi va maxsus qoidalarda (Agency Law) belgilangan. Huquqiy tartibga solishdan tashqari, axloq kodeksiga (Code of Ethics) rioya qilish ham majburiydir. G‘arb dunyosi uchun axloq kodeksi nafaqat tavsiya etilgan qoidalar to‘plami, balki mamlakat qonunlariga rioya qilish kabi majburiy bo‘lgan rieltorlik faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha qat’iy tartibga solingan ko‘rsatmalardir. NAR axloq kodeksi qisqartma (OLD CAR – eski mashina) shaklida tashkil etilgan printsiplarga asoslanadi, har bir harf 6 ta asosiy tamoyildan birini ifodalaydi [5] (1-rasm).

Rieltor bo‘lmoqchi bo‘lgan nomzod axloq kodeksini o‘rganishi va unga rioya qilishdan oldin bir qator testlardan o‘tishi hamda rieltorlik kasbining yuqori standartlariga muvofiqligini tasdiqlashi kerak. Nomzodning axloqiy fazilatlariga, birinchi navbatda, jinoiy o‘tmishining yo‘qligiga yuqori talablar qo‘yiladi, buning uchun AQSh Ko‘chmas mulk departamenti so‘rovnomani chuqur o‘rganadi va uning to‘g‘riligini hukumat ma’lumotlar bazalari orqali tekshiradi.

Keyingi bosqichda nomzod 45 dan 180 soatgacha (shtatga qarab) maxsus o‘qishdan o‘tadi, so‘ngra qonunchilik va maktabda kasbiy faoliyat asoslarini bilish bo‘yicha imtihon topshiradi [6]. Shundan so‘ng, nomzod yanada qiyinroq testdan o‘tishi kerak - davlat ko‘chmas mulk departamentida imtihon; agar muvaffaqiyatli topshirilgan bo‘lsa, nomzod litsenziya oladi. Aksariyat shtatlar har ikki yilda bir marta uzluksiz ta’lim olishni talab qiladi. Berilgan litsenziya faqat u olingan shtat hududida amal qilishi ham muhimdir.

Keyinchalik, rieltor o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotga qo‘shilishi, o‘z kasbiy faoliyatini sug‘urta qilishi va rieltorlik kompaniyasida 2-3 yil ishlashi kerak. Shundan keyingina u o‘z biznesini boshlashi mumkin. NARga qo‘shilishning katta raqobatdosh ustunligi - bu yagona ko‘chmas mulk ma’lumotlar bazasiga (MLS – multilisting tizimi) kirish ruxsatiga ega bo‘lish, vaholanki, unga faqat uyushma a’zolari bo‘lgan rieltorlar kirish huquqiga ega hisoblanadi.

AQShda rieltorlik nufuzli va yuqori haq to‘lanadigan kasb bo‘lib, uning muvaffaqiyati yuqori malaka darajasi, mutaxassis sifatida uzoq muddatli obro‘-e’tibor va qonunlar hamda axloq kodeksiga qat’iy rioya qilish bilan asoslanadi. Rieltorning asosiy vazifasi qidiruv, mulkni tanlash, muzokaralar olib borish, hujjatlarni yig‘ish va bitimni yopishdan iborat vositachilikdir. Bitimning "tozaligi" ko‘chmas mulk firmasi yoki har bir tomonning advokatlari tomonidan tekshiriladi, notarius to‘liqligini tekshiradi va imzolarni tasdiqlaydi.

Frantsiyada ko‘chmas mulk faoliyati uch sohaga bo‘linadi: sotib olish va sotish, ijaraga berish va mulkni boshqarish. Har bir yo‘nalish uchun alohida litsenziya mavjud. Nomzodga qo‘yiladigan majburiy talablar sudlanganligining yo‘qligi, “Huquqshunoslik”, iqtisod, ko‘chmas mulk sohasida kamida uch yillik o‘qish muddatiga ega bo‘lgan davlat diplomi, mahalliy prefektura tomonidan beriladigan litsenziya (carte professionnelle – professional kartasi), shuningdek, majburiy professional sug‘urta [7]. Frantsiyada rieltorning vazifasi vositachilikdir. Bitimning "tozaligi"ni kafolatchisi - bu ko‘chmas mulk bo‘yicha barcha mumkin bo‘lgan vaziyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga to‘liq kirish huquqiga ega notariusdir.

Germaniyada "rieltor" savdo belgisi ishlatilmaydi, bu xizmat sifatining yuqori standartini saqlashga majbur qiladi, buning o‘rniga "ko‘chmas mulk agenti" (Immobilienmakler) atamasi qo‘llaniladi. Germaniyada ko‘chmas mulk agentiga qo‘yiladigan asosiy talablar – bu sudlanganligining yo‘qligi va Savdo-sanoat palatasining litsenziyasi [8, Immobilienverband Deutschland(IVD), www].

Ta’lim darajasiga, kasbiy javobgarlikni majburiy sug‘urtalashga va milliy ko‘chmas mulk assotsiatsiyasiga (Immobilienverband Deutschland, IVD) a’zolikka qo‘yiladigan talablar mavjud emas va ular ixtiyoriydir, bu esa xizmatlar sifati va kasbning obro‘sining pasayishiga olib keladi.

Professional agentlar ixtiyoriy ravishda ixtisoslashtirilgan treningdan o‘tadilar va milliy ko‘chmas mulk assotsiatsiyasiga qo‘shilishadi, bu esa mijozlar oldida muhim raqobat ustunligi hisoblanadi. Bitimning qonuniyligi notarius tomonidan tasdiqlanadi, u bitimning "tozaligini" kafolatlaydi.

Buyuk Britaniyadagi ko‘chmas mulk narxi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, bu agentlik faoliyatini juda ham mashhur qiladi. Ushbu faoliyat 1979, 2007, 2012 va h.k. yillardagi ko‘chmas mulk sohasidagi huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi va o‘zini o‘zi tartibga soluvchi Mustaqil mulk agentlari tarmog‘i (The Independent Network of Estate Agents, INEA) va Ko‘chmas mulk agentlari milliy assotsiatsiyasi (National Association of Estate Agents, NAEA) [9, The Independent Network of Estate Agents (INEA). www] kabi tashkilotlar tomonidan nazorat qilinadi. Shuni ta’kidlash kerakki, rieltorlardan ma’lumoti, litsenziyasi, sudlanganligi yoki o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilotlarga a’zo bo‘lish talablari qo‘yilmaydi, shuning uchun xizmatlar sifati va iste’molchilarning ularga bo‘lgan ishonchi muayyan bir agentlik va ko‘chmas mulk agentiga qarab tabaqalanadi.

Ispaniyada ko‘chmas mulk agentlariga hech qanday maxsus talablar qo‘yilmaydi, ular hujjatlarni tayyorlaydilar, shu jumladan, ularning "tozaligini" tekshiradilar, shundan so‘ng hujjatlar katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan notariusga topshiriladi va hujjatlar bo‘yicha ozgina shubha tug‘ilsa, u bitimni amalga oshirishni rad etadi. Rieltorning kasbiy faoliyatini sug‘urta qilish majburiy emas va ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Istisno Kataloniya bo‘lib, u erda ko‘chmas mulk agentlari treningdan o‘tishlari va ixtisoslashtirilgan reestrda ro‘yxatdan o‘tishlari shart [10, La Asociación Profesional de Administradores y Agentes Inmobiliarios (APAGI), www].

Rossiyada rieltorlik faoliyatini davlat tomonidan maxsus tartibga solish yo‘q. 2002 yilda majburiy litsenziyalash bekor qilindi va ushbu faoliyatni tartibga soluvchi qonun loyihalari bir necha bor rad etildi. 1992 yilda o‘z-o‘zini tartibga solish funktsiyalarini bajaradigan ko‘chmas mulk bozori professional ishtirokchilarining milliy uyushmasi - Rossiya Rieltorlar Gildiyasi (RGR) tashkil etildi. Bugungi kunda uning bozorga ta’siri unchalik katta emas, chunki RGRga a’zolik ixtiyoriydir. Moliyaviy tadqiqotlar milliy agentligi - NAFIning ma’lumotlariga ko‘ra, bu ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining ko‘rsatkichi emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 йил 24 avgustdagi PF-6044-sonli farmoni bilan O‘zbekistonda rieltorlik faoliyatini majburiy litsenziyalash tartibi bekor qilindi. Uning o‘rniga o‘z-o‘zini tartibga solish funktsiyalarini bajaradigan ko‘chmas mulk bozori professional ishtirokchilarining milliy uyushmasi - O‘zbekiston Rieltorlik tashkilotlari Uyushmasi (RTU)ga a’zolik majburiy qilindi. Shuningdek, tadbirkorlik sub’ekti sifatida ro‘yxatga olinishi, sohada Yagona multilisting tizimi (ko‘chmas mulk bozorining elektron platformasi) joriy etilishi hamda faoliyatni malaka sertifikati asosida amalga oshirilishi belgilandi.

Turli mamlakatlarda rieltorlik (agentlik) faoliyatini tartibga solish xususiyatlarini o‘rganib chiqib, biz ularning asosiy farqlovchi xususiyatlarini taqdim etamiz (1-jadval).

1-jadval.

Turli mamlakatlarda rieltorlik faoliyatini tartibga solish modellarini taqqoslash*

	AQSh	**Frantsiya**	**Germaniya**	**Buyuk Britaniya**	**Rossiya**	**O‘zbekiston**	**Ispaniya**	**Benilyuks davlatlari**
1. RF ni tartibga solish modeli	Qattiq model	Qattiq model	O‘rta model	O‘rta model	Yumshoq model	O‘rta model	Yumshoq model	Qattiq model
2. Milliy assotsiatsiya	NAR	FNAIM	IVD	INEA	RGR	RTU	APAGI	IPI
3. Litsenziyalash	+	+	+	-	-	-	-	+
4. Sug‘urtalash	+	+	-	+	-	+	-	+
5. Sudlanmaganlik	+	+	+	-	-	-	-	+
6. Qonunchilik asosida tartibga solish	yuqori	yuqori	o‘rta	o‘rta	past	o‘rta	past	yuqori
7. Kasb obro‘si	yuqori	o‘rta	o‘rta	o‘rta	past	o‘rta	past	yuqori

Manba: *muallif tomonidan tuzilgan.*

Benilyuks mamlakatlari - Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburga - agentlik faoliyatini tartibga solishning eng qat’iy modellaridan biriga ega. Ushbu model davlat va kasbiy-jamoatchilik tomonidan tartibga solishning yuqori ulushini birlashtiradi, chunki nafaqat majburiy litsenziyalash, balki o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotga (Institut Professionnel des Agents Immobiliers – IPI) majburiy a’zolik ham reglamenlashtiriladi. Bunda har bir agentga shaxsiy identifikatsiya kodi beriladi, u barcha hujjatlarda, shu jumladan mijoz bilan tuzilgan shartnomada ham qayd etiladi. Rieltorlar milliy assotsiatsiyasiga qo‘shilish uch yillik o‘qish, imtihonlarni topshirish va agentlik faoliyati uchun diplom olish, so‘ngra tajribali broker bilan amaliyot o‘tash bilan birga amalga oshadi [11, Institut Professionnel des Agents Immobiliers (IPI), www].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash mumkinki, rieltorlik (agentlik) faoliyati turli mamlakatlarda turlicha tartibga solinadi, shuning uchun ushbu faoliyatni tartibga solish darajasiga qarab uch turdagi modellarni ajratish mumkin: qattiq, o‘rta va yumshoq model (3-rasm).

Rieltorlik (agentlik) faoliyatini tartibga solish modellari:

– rieltorlik faoliyatini tartibga solishning qattiq modeli - davlat va professional hamjamiyat tomonidan tartibga solishning yuqori darajasi, rieltorlik agentlariga yuqori talablar, mijoz uchun minimal xavf bilan yuqori sifatli xizmatlar;


– rieltorlik faoliyatini tartibga solishning o‘rtacha modeli - davlat va professional hamjamiyat tomonidan qisman tartibga solish, rieltorlik agentlariga qo‘yiladigan minimal talablar, mijoz uchun minimal risklar bilan tabaqalashtirilgan xizmatlar sifati;

– rieltorlik faoliyatini tartibga solishning yumshoq modeli - davlat va professional hamjamiyat tomonidan tartibga solishning past darajasi, rieltorlar uchun muhim talablarning yo‘qligi, mijoz uchun o‘rtacha xavf darajasi bilan tabaqalashtirilgan xizmatlar sifati.

Xulosa qilib aytish mumkinki, turli mamlakatlardan olingan empirik ma’lumotlarga asoslanib, bizningcha eng samarali model rieltorlik faoliyatini tartibga solishning qattiq modeli hisoblanib, u davlat tomonidan ham, professional hamjamiyat tomonidan ham yuqori talablar va tartibga solinishi tufayli taqdim etilayotgan xizmatlar sifati jihatidan yuqori darajadagi barqarorlikni ta’minlaydi..

3-rasm.

Rieltorlik faoliyatini tartibga solish modellari*



Manba: *muallif tomonidan tuzilgan.*

Evropa va AQShdagi rieltorlarning professional uyushmalari professional faoliyat sifatini oshirish uchun rieltorlik faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solish ta’sirini oshirishga intilmoqda. 3-rasmda rieltorlik faoliyatining global o‘zini o‘zi tartibga solish darajalari ko‘rsatilgan.


Rieltorlik faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solishi besh darajadan iborat. Global miqyosda – International Real Estate Federation (FIABCI), mazkur federatsiya jahonning ilg‘or tajribasini umumlashtiradi, tajriba almashish uchun xalqaro konferentsiyalar tashkil qiladi va uslubiy materiallarni ishlab chiqadi. Ushbu federatsiya 1951 yildan beri ma’muriy nazoratsiz butun dunyo bo‘ylab ko‘chmas mulk bozori mutaxassislari uchun birlashtiruvchi bo‘g‘in bo‘lib kelgan. Xalqaro ko‘chmas mulk federatsiyasi tarkibiga 70 ta davlat, 90 ta milliy assotsiatsiya, 40 dan ortiq ko‘chmas mulk mutaxassisliklari bo‘yicha mutaxassislar va 1 milliondan ortiq assotsiatsiya a’zolari kiradi [12, International Real Estate Federation (FIAVSI), www].

Evropa darajasida (European Association of Real Estate Professions –CEPI) 1990 yilda Bryusselda tashkil etilgan xalqaro notijorat tashkilotdir. U 19 mamlakatdan Evropa Ittifoqi mutaxassislarining milliy assotsiatsiyalarini birlashtiradi va shu bilan mijozlarning o‘z brendiga [13, European Association of Real Estate Professions (SEPI), www] bo‘lgan ishonchini oshiradi. Assotsiatsiyaning maqsadi - ichki va tashqi aloqalarni kengaytirish, tadqiqot loyihalarini tashkil etish, bo‘lajak ko‘chmas mulk mutaxassislarini tayyorlash orqali rieltorlik xizmatlari bozorini rivojlantirishdan iborat.

Xalqaro daraja (National Association of Realtors – NAR) milliy assotsiatsiyalar "rieltor" savdo belgisidan foydalanadigan mamlakatlar uchun mavjud bo‘lib, bu assotsiatsiyalarni rieltorlik xizmatlarining yuqori sifat standartlariga o‘tish siyosatini bosqichma-bosqich olib borishga majbur qiladi.

4-rasm.

Rieltorlik faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solish*



Manba: *muallif tomonidan tuzilgan.*

Milliy darajada, har bir mamlakatda ko‘chmas mulk bo‘yicha mutaxassislarning o‘z uyushmalari mavjud. O‘zbekistonda bunday birlashma yuqorida keltirib o‘tganimizdek, 2012 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Rieltorlik Tashkilotlari Uyushmasi hisoblanib, u

respublikamizning turli viloyatlaridan bo‘lgan 267 ta rieltorlik tashkilotini (2026 yil boshidagi ma’lumot) birlashtiradi. Uyushmaning asosiy vazifalari: “rieltor” tovar belgisini taqdim etish, kasbiy faoliyat standartlari va rieltorlar uchun axloq kodeksini yaratish, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlar, normativ-huquqiy bazani shakllantirishda ishtirok etish, kadrlar tayyorlash va h.k.lardan iborat.

Xulosa

Shunday qilib, biz jahon tajribasini umumlashtirgan holda, rieltorlik faoliyatini tartibga solishning uchta modelini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: qattiq, o‘rta va yumshoq. O‘zbekiston ko‘chmas mulk va rieltorlik biznesi nafaqat g‘arb, balki rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘chmas mulk biznesiga nisbatan ancha "yosh" bo‘lganligi sababli, chet elda rieltorlik faoliyatini tartibga solishning samarali mexanizmlarini va ularni O‘zbekistonda amaliy qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratish lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda o‘z-o‘zini tartibga solish sifatini yaxshilash salohiyati tugamaydi, va bu yaqin kelajakda rieltorlik xizmatlari sifatini eng yaxshi jahon analoglari darajasiga ko‘taradigan mexanizmlarni joriy etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Основы риэлторской деятелности: учеб.-метод. пос. / В.А. Шанюкевич, В.М. Завгородний, И.В. Шанюкевич. – Минск: БНТУ, 2021. -91 с.
2. Экономика недвижимости. Учебное пособие для вузов. Г.В. Федотов, Б.А. Волков. – Санкт-Петербург: Изд-во: Лан, 2024 г. - 198 с.
3. Девелопмент недвижимости: [монография] / [М.А. Котляров, Дж. Дрейн, А.Б. Брил и др.]; под науч. ред. М.А. Котлярова. - Екатеринбург, 2017. - 127 с.
4. Shoha’zamiy Sh.Sh. “Rieltorlik faoliyati”. Darslik. / - T.: “IQTISOD-MOLIYa” nashriyoti, 2015.
5. National Association of Realtors USA (NAR), www
6. . Запорошченко М.Д., Крум Е.В. Риэлтор и риэлторская деятелность в США // Сборник научних статей «Перспективы развития риэлторского бизнеса». Минск, 2012. С. 29-33
7. Фетисова Е.В., Ковалева А.М. Риэлторская деятелность: опыт европейских стран // Сетевой научний журналОрёлГАУ. 2015. № 2 (5). С. 22-24.
8. Immobilienverband Deutschland(IVD), www
9. The Independent Network of Estate Agents (INEA). www
10. La Asociación Profesionalde Administradores y Agentes Inmobiliarios (APAGI), www
11. Institut Professionnel des Agents Immobiliers (IPI), www
12. International Real Estate Federation (FIAVSI), www
13. European Association of Real Estate Professions (SEPI), www

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA DEPOZIT VA KREDITLARNING ULUSHI VA AHAMIYATI

Usmanova Muslimaxon Abdusalomxo`ja qizi
tayanch doktarant
bank hisobi va audit kafedrasi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: muslimausmanova984@gmail.com
ORCID:0009-0006-6053-2035

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining amaldagi holati qanday va unga ta`sir etuvchi omillar holati aks ettirilgan. Moliyaviy barqarorlik va banklar resurs bazasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator olimlarning fikrlari keltirib o`tilgan. Tijorat banklarining deposit va kredit ulushlaridagi so`nggi yillardagi holati aks ettirilgan bo`lib, ular asosida solishtirma jadvallar ko`rinishida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida jahon banklar moliyaviy barqarorligi va mamlakatimiz banklar moliyaviy barqarorligi holati tahlil qilingan bo`lib, jumladan Xitoy xalq respublikasi bank tizimi bilan solishtirilgan va xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so`zlar: *Tijorat banklar, moliyaviy barqarorlik, kredit, deposit, bank resurslari.*

ЗНАЧЕНИЕ ДОЛИ ДЕПОЗИТОВ И КРЕДИТОВ В ПОВЫШЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Усманова Муслимахон Абдусаломходжа кизи
базовый доктарант
кафедра бухгалтерского учета и аудита
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: muslimausmanova984@gmail.com
ORCID:0009-0006-6053-2035

Аннотация. *В статье проанализировано текущее состояние финансовой устойчивости коммерческих банков Республики Узбекистан и факторы, влияющие на нее. Рассмотрены мнения ряда ученых о финансовой устойчивости и развитии ресурсной базы банков. Изучены последние тенденции доли депозитов и кредитов коммерческих банков и проведен их анализ в виде сравнительных таблиц. В ходе исследования была проведена оценка финансовой устойчивости мировых банков и банков Узбекистана с сравнительным анализом банковской системы Китайской Народной Республики. Приведены выводы и практические рекомендации по повышению финансовой устойчивости.*

Ключевые слова: *Коммерческие банки, финансовая устойчивость, кредит, депозит, ресурсы банка.*

THE ROLE OF DEPOSIT AND CREDIT SHARES IN ENHANCING THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Usmanova Muslimaxon Abdusalomkhoja qizi
Basic PhD student,
Department of Accounting and Auditing
Tashkent State University of Economics
E-mail: muslimausmanova984@gmail.com
ORCID:0009-0006-6053-2035

Abstract. *This article analyzes the current state of financial stability of commercial banks*

in the Republic of Uzbekistan and the factors influencing it. The work reviews the views of several scholars on financial stability and the development of banks' resource base. Recent trends in the share of deposits and credits of commercial banks are examined and analyzed in comparative tables. During the study, the financial stability of global banks was analyzed alongside the financial stability of banks in Uzbekistan, with a comparative focus on the banking system of the People's Republic of China. Conclusions and practical recommendations for improving financial stability are provided.

Keywords: *Commercial banks, financial stability, credit, deposit, bank resources.*

Kirish

Moliyaviy barqarorlik bugungi kunda har bir tijorat bankining asosiy ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Banklar resurs bazasi, ya'ni depozitlar va kreditlar ulushi, banklarning faoliyat samaradorligi va iqtisodiy xavfsizligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi so‘nggi yillarda ijobiy o‘zgarishlar va modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda, shu bilan birga tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun resurs bazasini diversifikatsiya qilish, ya'ni depozit va kredit portfelini muvozanatli shakllantirish muhimdir. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va jahon bank tizimi misollari, xususan Xitoy bank tizimi bilan solishtirish, O‘zbekiston banklari faoliyatini yanada samarali va barqaror qilish bo‘yicha ilmiy asos yaratadi.

Hozirgi kunda iqtisodiy barqarorlik va bank tizimining ishonchliligi milliy iqtisodiyotning mustahkamligi bilan bevosita bog‘liqdir. Banklar resurs bazasining samarali shakllantirilishi, ya'ni depozitlar va kreditlar ulushining optimal nisbatda bo‘lishi, nafaqat banklar moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki iqtisodiyotga sarmoya oqimini rag‘batlantiradi va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi. Shu sababli, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqola tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi holatini tahlil qilish, depozit va kredit ulushlarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish hamda xalqaro solishtirma tahlillar orqali xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, maqola nafaqat amaliy, balki ilmiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi masalasi nafaqat amaliy, balki ilmiy tadqiqotlar doirasida ham keng o‘rganilgan. Moliyaviy barqarorlik kontseptsiyasi banklarning likvidlik darajasi, aktiv-passiv muvozanati, risklarni boshqarish va resurs bazasining sifatli shakllanishini o‘z ichiga oladi (Zaripov, 2019). Shu nuqtai nazardan, banklar depozit va kredit portfelining ulushi moliyaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston olimlari, jumladan Sharipova (2020) va Rahmatov (2020), tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda depozitlar ulushi va kredit berish siyosatining muvozanati muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, banklar likvidlikni oshirish va risklarni kamaytirish uchun deposit-kredit nisbatini tahlil qilib, portfellarini diversifikatsiya qilishlari zarur. Xususan, Sharipova (2020) tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi o‘zgarishlari bilan depozit va kredit portfelining o‘sish sur'ati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilgan.

Jahon bank tizimida moliyaviy barqarorlikni tahlil qilgan xalqaro tadqiqotchilar ham shunga o‘xshash fikrlarni ilgari suradilar. Masalan, Allen va Santomero (1998) moliyaviy institutlarning barqarorligi ularning aktiv-passiv muvozanatidan va risklarni boshqarish tizimidan bevosita ta'sirlanishini ta'kidlaydilar. Digital bank xizmatlari rivojlangan Xitoy bank tizimi bo‘yicha Liu va hamkasblari (2021) esa, kredit va depozit ulushlaridagi o‘zgarishlar banklarning qisqa muddatli risklarini oshirishi mumkinligini, shuningdek, ularga operatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatini yaratishini qayd etadilar. Shu bilan birga, ular yirik davlat banklari bu

jarayondan foyda ko‘rsa, kichik hududiy banklarga bosim ortishini ham ta’kidlaydilar.

O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan so‘nggi tadqiqotlar (Usmonova, 2023) ham depozit va kredit ulushi bilan banklarning moliyaviy barqarorligi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, depozit resurslarining o‘sishi banklarning likvidligini mustahkamlash bilan birga kredit faoliyatini kengaytirishga imkon yaratadi, bu esa natijada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Shuningdek, xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun banklar faoliyatini monitoring qilish, risklarni baholash va deposit-kredit strategiyasini optimallashtirish zarur. Bu fikrlar O‘zbekiston bank tizimi uchun ham muhimdir, chunki mamlakatimizda tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli tahlil usuli orqali tijorat banklarida fintech texnologiyalarini joriy etish jarayoni kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Taqqoslama tahlil usuli yordamida moliyaviy inklyuzivlik ko‘rsatkichlarining raqamli bank xizmatlari rivoji bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi. Shuningdek, statistik tahlil usuli asosida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Jahon bankining ochiq ma’lumotlari tahlil qilindi. Mantiqiy umumlashtirish va induksiya deduksiya usullari orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Tahliliy qismda asosan Xitoy xalq Respublikasi va O`zbekiston Respublikasi bank tizimi moliyaviy barqarorligi solishtirmasini tahlil qilamiz.

1 – jadval.

Xitoy va O‘zbekiston bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari solishtirma jadval[103]

Ko‘rsatkichlar	Xitoy banklari	O‘zbekiston banklari	Izoh (ilmiy tahlil)
Bank tizimi modeli	Bankga asoslangan (bank-dominant)	Aralash, lekin banklar ustun	Ikkalasida ham banklar asosiy moliyalashtiruvchi
Depozitlar ulushi (aktivlarga nisbatan)	80–82%	70–75%	Xitoyda resurs bazasi barqarorroq
Loan-to-Deposit Ratio (LDR)	80–90%	90–100%	O‘zbekistonda likvidlik riski nisbatan yuqori
Kapital yetarliligi (CAR)	13–15%	16–18%	O‘zbekistonda kapital himoyasi kuchliroq
Likvidlik darajasi (LCR)	Barqaror (100%+)	Yuqori (120%+)	O‘zbekistonda ehtiyot chorasi kuchli
Resurs bazasi diversifikatsiyasi	Yuqori	O‘rtacha	Xitoyda manbalar ko‘p (obligatsiya, tashqi bozor)
Davlat ulushi	Yuqori (yirik banklarda)	Juda yuqori	Davlat roli katta
Kreditlash faolligi	Juda yuqori	O‘rtacha	Xitoyda iqtisodiy rag‘bat kuchli
Muammoli kreditlar (NPL)	1.5–2%	3–5%	O‘zbekistonda risk darajasi yuqoriroq
Moliyaviy barqarorlik umumiy bahosi	Yuqori	O‘rtacha-yaxshi	Xitoy tizimi nisbatan barqarorroq

[103] www.boc.cn va www.cbu.uz ma’lumotlardan foydalanib tahlil qilindi.

Ushbu jadval asosida tahlil qildigan bo`lsak, ko`rishimiz mumkinki, Xitoy bank tizimi ancha barqaror hisoblanadi. Resurs bazasi diversifikatsiyasi yuqori darajada ta’minlangan. Mamlakatimiz bank tizimida esa resurs bazasi diversifikatsiyasi o`rtacha darajada amalga oshirilgan. Muommoli kreditlarning ulushiga nazar soladigan bo`lsak, mamlakatimiz banklarda bu o`rtacha 3-5 % atrofida tashkil qilmoqda. Xitoy xalq Respublikasida esa ushbu ko`rsatkich o`tacha 1.5-2 % atrofida kuzatilmoqda. Bundan ko`rinib turibdiki, kreditlarning qaytishi bizning bank tizimimizda muommolarga duch kelmoqda. Bank tizimining aktivlarga nisbatan depozitlar ulushi ham Xitoy banklarida yuqori darajada ekanligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko`rsatkich 80-82% ni tashkil qilmoqda. Mamlakatimiz bank tizimida esa ushbu ko`rsatkich 70-75% atrofida ko`rsatmoqda. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, Xitoy bank tizimida davlat ulushi ko`pligiga qaramasdan bank tizimining moliyaviy barqarorligi yuqori hisoblanadi.

Keyingi jadvallarimizda, mamlakatimiz bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini 2023y-2025y davomidagi ko`rsatkichlari bilan chuqurroq tahlil qilib chiqamiz.

2 – jadval.

O`zbekiston Respublikasi moliyaviy barqarorlik ko`rsatkichlari (2023y-2025y)[104]

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Kapital yetarliligi (CAR)	17.5% (yil boshi)	17%	17.4%
Tier 1 kapital ulushi	14.1%	14.3%	14.6%
LCR (Likvidlilik qoplash koeff.)	165% (yil oxiri)	194%	195%
NSFR (uzoq muddatli moliyalash)	112% (yil oxiri)	115%	117%
NPL (muammoli kreditlar)	3.5% umumiy kreditlarda (2023 yil bosh – 3.5%)	past darajada, aniq raqam sektorda <4% (hisobot)	3.8%
Rentabellik ROE/ROA	ROA 2.5–2.6%, ROE 14.2%	sezilarli darajada ijobiy, stress darajasi pasaydi	ROA 2.0%, ROE 10.8%
Saqlash (Depozit) o‘sishi	Ko‘tarilgan (2023da sezilarli depozit o‘sish)	davom etmoqda (Report ijobiy)	Yuqori depozit o‘sishi (bozor bo‘yicha, 31%)

Ushbu jadval ma’lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, 2023 yilda bank tizimi kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlarini saqlangan, ammo ba’zi indikatorlarda pasayish kuzatilgan . Masalan, LCR pastlashganini kuzatishimiz mumkin. Rentabellik barqaror bo‘lib, NPL darajasi barqaror saqlangan. 2024 yilda esa banklar kapital va likvidlikni yuqori darajada saqlab qolganini kuzatishimiz mumkin. Kreditlar va depozitlar o‘sishi ijobiy ko`rsatkichlarni tashkil qilgan va natijada moliyaviy stress kamaygan. 2025 yilga kelib ko`rsatkichlar tahlili shuni ko`rsatadiki, kapital yetarliligi yanada mustahkamlandi va 17.4% ga yetdi. LCR va NSFR darajalari yuqorida saqlanmoqda, bu banklar likvidligi mustahkam ekanini ko‘rsatadi. NPL darajasi past va sezilarli darajada boshqarilmoqda, banklar barqaror faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko`rsatkichlari yildan yilga o`sib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xitoy bank tizimi bilan birgalikda tahlil qilganimizda esa, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xitoy bank tizimida depozitlarning yuqori ulushi va resurs bazasining diversifikatsiyalashganligi moliyaviy barqarorlikni

[104] www.cbu.uz ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston bank tizimida esa kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishiga qaramasdan, resurs bazasining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi va kreditlarning depozitlarga nisbatan yuqori ulushi moliyaviy barqarorlikka ma’lum darajada risk tug‘diradi. Mamlakatimiz bank tizimida muommoli kreditlar ulushining yuqoriligi ham bevosita bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’sir o`tkazmay qolmayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipova, N.X. (2020). *Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning konsepsual asoslari*. T.: Iqtisod-Moliya.
2. Rahmatov, X.O. (2020). *Bank aktivlari samaradorligini oshirish masalalari: zamonaviy yondashuv va yechimlar*. T.: Iqtisod-Moliya.
3. Zaripov, B. (2019). *Financial stability of commercial banks: theoretical and practical aspects*. T.: Tashkent University Press.
4. Allen, F., & Santomero, A.M. (1998). *The Theory of Financial Intermediation*. Journal of Banking and Finance, 21(11–12), 1461–1485.
5. Liu, Y., Zhang, H., & Wang, X. (2021). *Digital Banking and Financial Stability: Evidence from China*. Journal of Financial Services Research, 60(3), 345–368.
6. Usmonova, M. (2023). *Deposit and Credit Shares in Enhancing Financial Stability of Uzbek Commercial Banks*. T.: Tashkent State University of Economics.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH DARAJALARINI TARIXIY SHAKLLANISHI



Qodirov Bahodir Qudratovich

iqtisodiyot fanlari nomzodi
moliya kafedrasi dotsenti
Termiz davlat universiteti
E-mail:bakhodirkodirov07021968@gmail.com
ORCID: 0009-0002-1637-718X

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalarining tarixiy shakllanishi, soliq tizimining shakllanish bosqichlaridagi nazariy va huquqiy asoslari, soliqlarning qo‘llanish amaliyoti tahlil qilingan. Maqolada o‘tgan davr davomida shakllangan bevosita va bilvosita soliqlarning o‘rni va ahamiyatini, o‘ziga xos xususiyatlarini, budjet daromadlarini to‘ldirishdagi tarixiy rolini va vazifalarini keltirgan.*

Kalit so‘zlar: *Soliq tizimi, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, bevosita va bilvosita soliq tortish bosqichlari, bozor munosabatlari, global iqtisodiyot, soliq mexanizmi, soliq obyekti, soliq bazasi.*

ИСТОРИЧЕСКОЭ ФОРМИРОВАНИЕ УРОВНЕЙ ПРЯМОГО И ПОСЛЕДНОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Кодиров Баходир Кудратович

кандидат экономических наук
доцент кафедры финансы
Термизский государственный университет
E-mail:bakhodirkodirov07021968@gmail.com
ORCID: 0009-0002-1637-718X

Аннотация. *В стате анализируется историческое формирование уровней прямого и косвенного налогообложения в Узбекистане, теоретические и правовые основы этапов формирования налоговой системы, практика применения налогов. В стате приводятся роль и значение прямых и косвенных налогов, сформировавшихся за прошедший период, их особенности, историческая роль и задачи в пополнении доходов бюджета.*

Ключевые слова: *Налоговая система, прямые налоги, косвенные налоги, этапы прямого и косвенного налогообложения, рыночные отношения, глобалная экономика, налоговый механизм, объект налогообложения, налоговая база.*

HISTORICAL FORMATION OF DIRECT AND INDIRECT TAXATION LEVELS IN UZBEKISTAN

Qodirov Bahodir Qudratovich

Candidate of Economic Sciyences
Associate Professor of
the Department of Finance,
Termiz State University
E-mail:bakhodirkodirov07021968@gmail.com
ORCID: 0009-0002-1637-718X

Abstract. *The article analyzes the historical formation of direct and indirect taxation levels in Uzbekistan, the theoretical and legal foundations of the tax system’s formation stages, and the*

practice of applying taxes. The article presents the role and significance of direct and indirect taxes formed over the past period, their specific characteristics, and their historical role and tasks in replenishing budget revenues.

Keywords: *Tax system, direct taxes, indirect taxes, stages of direct and indirect taxation, market relations, global economy, tax mechanism, tax object, tax base.*

Kirish

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida soliq tizimini rivojlanish bosqichlari ko‘rib chiqilganda, dastlab mustaqillik arafasida amal qilgan va 1990-yillarda sobiq sovet ittifoqidan meros bo‘lgan soliq tizimining huquqiy asoslariga duch kelamiz. Ushbu ma’muriy me’yorlarga asoslangan soliq tizimi tanlangan bozor iqtisodiyoti qonunchiligiga muvofiq kelmasdi. Shu boisdan, mavjud meros soliq tizimini erkin bozor iqtisodiyoti mezonlariga moslashtirish, bunda soliq solishning rivojlangan mamlakatlar tajribalariga tayanilgan holda milliy xususiyatlar e’tiborga olingan mustaqil soliq tizimini shakllantirish lozim edi. Shuning uchun, o‘zimizning va rivojlangan mamlakatlarning tarixiy tajribalariga tayangan holda uzluksiz soliq islohotlari olib borildi. Amalga oshirilgan 34 yillik soliq islohotlari natijasida bir muncha zamonaviy va milliy xususiyatlar singdirilgan hozirgi soliq tizimi yuzaga keldi. O‘tgan davr davomida soliq qonunchiligini takomillashtirish va xalqaro qonunchilik mezonlariga moslashtirish borasida tizimli soliq islohotlari amalga oshirilib, bevosita va bilvosita soliqlardan iborat hozirgi soliq tizimi shakllandi. Shunday bo‘lsada, shakllangan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimining muammoli va ijobiy jixatlarini to‘g‘ri aniqlash va istiqbolli soliq mexanizmlarini qaror toptirish maqsadida o‘tgan davrda shakllanib kelgan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimini tarixiy- evolyutsion rivojlanish bosqichlarini ilmiy nuqtayi nazardan baholash faqat manfaat keltiradi.

Adabiyotlar sharhi

Dastlab, bevosita va bilvosita soliqlar haqidagi fikrlar va qarashlar 17-asrning oxirlari va 18-asrning boshlarida yashab ijod qilgan U.Petti, D.Lokk, A.Smit, D.Rikardo, F.Yakobin va boshqa mutafakkir olimlar tomonidan bildirilib, asarlarida o‘z nazariyalarini bayon etishgan. Hozirgi vaqtga shakllangan bevosita va bilvosita soliqqa tortishning alohida jihatlari va muhim xususiyatlari haqida turlicha qarashlar shakllangan.

Rus iqtisodchisi I.Gashenkoning fikricha “bevosita va bilvosita soliqlarning tarkibi davlatning rivojlanish darajasiga, uning moliyaviy-iqtisodiy holatiga, ijtimoiy munosabatlar shakllariga bog‘liq”[1]. Bizning fikrimizcha, olimning ushbu fikri bozor mexanizmlari rivojlangan mamlakatlarga xosdir. A.A. Krivosheeva “...bilvosita soliqlar aniq fiskal va tartibga solish funksiyasiga ega. Bilvosita soliqqa tortish tizimi g‘aznaga tushumlarni jalb qilishning eng qulay shakli bo‘lib, katta summalarni tez olish imkonini beradi” [2], deb fikr bildirgan. Malayziyalik tadqiqotchi olim Taufik Abd Hakim “bevosita soliqlar iqtisodiy o‘sishga sezilarli va ta’sirchan bog‘liq ekanligini, bilvosita soliqlar esa iste’molchilar uchun sal’biy, ammo ahamiyatsiz ta’sir ko‘rsatishi”ni bildirgan”[3]. Kosovolik olimlar Alban Elshani va Skender Ahmeti olib borilgan tadqiqoti natijasida “mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishiga bevosita soliq solish ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, bilvosita soliqlarning salbiy ta’siri mavjud”[4].

O‘zbekistonlik olimlar va amaliyotch mutaxassislardan A.Jo‘rayev, Sh.Toshmatov va O.Abduraxmonovlarning fikricha, “...bevosita soliqlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromaddan soliq to‘langanligi uchun soliq stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko‘p qismini ularga qoldirib, investisiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi”[5]. Sh.To‘rayevning xulosasiga ko‘ra, “...bevosita soliqqa tortish tizimining samaradorligi nafaqat davlat budjetiga tushayotgan soliq to‘lovlarining umumiy summasi bilan, balki soliqlarni undirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarga ketadigan sarf-xarajatlar miqdori bilan ham belgilanadi”[6].

Umuman olganda, bevosita va bilvosita soliqlar guruhlariga ajratib, ularning mohiyatini yoritish eng avvalo, Yevropa mamlakatlarida shakllangan holda keyinchalik Rossiyada va

O‘zbekistonda ham yuzaga kelgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalarining tarixiy shakllanish bosqichlarini tadqiqotida tizimli, majmuali va institutsional yondashuvlar, statistik tahlil, taqqoslama tahlil, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, iqtisodiy baholash kabi modellaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda iqtisodiy taraqiyotning nazariy va xuquqiy asoslarini yaratilishi jarayonida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning evolyutsion yo‘li tanlandi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning evolyutsion yo‘liga monand holda mustaqil soliq qonunchiligini takomillashtirish ishlari ham bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Soliq tizimini va uning huquqiy me’yorlarini iqtisodiy islohotlarga moslashtirmasdan, qotib qolgan tarzda tashkil etib bo‘lmasdi. Shu sababli, strategik maqsadimiz va islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga monand holda soliq qonunchiligini tashkil etish va takomillashtirish yo‘lidan borildi. Bunda, islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan olib borilayotgan soliq siyosati oldida qo‘yilgan vazifalarga va ularning hal etilishiga bog‘liq bo‘ldi.

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tishining evalyutsionligi bevosita va bilvosita soliqqa tortishni bosqichma-bosqich optimallashtirishni taqozo etdi. Shunday bo‘lsada, uzoq yillar davomida bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalari unchalik o‘zgarmadi, xorijiy mamlakatlarning optimal andozalarini tatbiq etish mushkul bo‘ldi. Bu o‘ziga xoslik rivojlangan mamlakatlarda shakllangan bevosita va bilvosita soliqqa tortishni tashkil etishni bir muncha chegaraladi. Shu bois, bevosita va bilvosita soliqqa tortishni optimal darajada tashkil etish maqsadida soliq tizimini tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish va strategik xulosalar chiqarish lozim, deb o‘ylaymiz.

Mustaqillikning otgan yillarida soliq tizimining shakllanishini tadqiq qilinganda, soliq tizimi bir nechta asosiy bosqichlarga tavsiflanishi, bevosita va bilvosita soliqqa tortish tarkibi va tartibining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Mamlakatimizning o‘tgan davri davomida soliq tizimini shakllanishi va takomillashuvini to‘rt bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich, mustaqillikning 1991-1997-yillarini oz ichiga olgan dastlabki soliq tizimini tashkil etish davri hisoblanib, uning huquqiy asos mustaqillikga qadar qabul qilingan qonunlar bilan tartibga solingan[7].

Ikkinchi bosqich, O‘zbekistonda birinchi marta Soliq kodeksini qabul qilinishi bilan boshlanib, bu davr 1998-2007-yillarni o‘z ichiga oladi”[8]. Soliq kodeksi xalqaro qonunchilik mezonlariga asoslangan soliq qonunlari majmuasidir.

Uchinchi bosqich, soliq tizimini shakllantirishning 2008–2018-yillardan iborat davrlarini qamrab olib, yangi tahrirdagi soliq kodeksini qabul qilinishi boshlangan va soliq tizimining samaradorligini bir pogona ko‘targan[9].

Soliq tizimining tortinchi bosqichi 2020-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan yangi tahrirdagi soliq kodeksi bilan boshlanib, bu bosqichda bevosita va bilvosita soliq mexanizmlari tubdan o‘zgarganligi bilan muhim ahamiyatga ega[10].

Bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini shakllanishning birinchi bosqichi mustaqil soliq tizimini barpo etish davri bo‘ldi. Bu davrda asosiy e’tibor mustaqil davlatchilikni tashkil etish uchun fiskal ahamiyatni oshirishga qaratilib, bevosita va bilvosita soliqlar tizimi shakllantirildi. Bu davrda soliq tizimidagi soliq va majburiy to‘lovlar soni 20 dan ortiq bo‘lib, haddan oshiq soliq yukini hosil qilgan. Shu boisdan, mustaqillikning ilk kunlarida amalda bo‘lgan soliq tizimidan voz kechilib, bozor iqtisodiyotiga mos soliq tizimini yaratish islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda bir muncha sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, soliqlarni hisoblash va undirish borasidagi soliq mamuriyatchiligi o‘ta murakkab edi. Birinchi bosqichda bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajasi tahlil qilinganda, mamlakatimizning mustaqilligini dastlabki 6 yilida YAIMga nisbatan soliq yukuning yuqoriligi va bunga mutanosib holda soliq tushumlarida

bilvosita soliqlardan tushumlarning yuqoriligi quyidagi 2.2-jadvalda ko‘rinadi.

1.2.2.-jadval

O‘zbekiston Respublikasininmg 1992-1997-yillarda yalpi ichki maxsulotidagi bevosita va bilvosita soliqlar nisbati (foizda)[105]

Ko‘rsatkichlar	1992 yil	1993 yil	1994 yil	1995 yil	1996 yil	1997 yil
Yalpi ichki mahsulot % da	100	100	100	100	100	100
Birlashtirilgan budjet daromadi	44,4	49,3	41,1	39,2	44,8	38,6
Davlat budjet daromadi	31,4	36	29,1	29,8	34,2	29,7
Shundan soliqlar	26,5	30,6	22,6	28	28,1	25,9
Bilvosita soliqlar	17,8	16,5	13,2	14,7	13,7	11,8
Bevosita soliqlar	8,7	14,1	9,4	13,3	14,4	14,1
Boshqa to‘lovlar va yig‘imlar	4,9	5,4	6,5	1,8	6,1	3,8

Yuqorida keltirilgan 1.2.2-jadval ma’lumotlaridan ayyon bo‘ladiki, 1993-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan soliq yuki 30.6% bolgan holda 1997-yilda bu ko‘rsatkich 25.9 %ni tashkil etgan, yani 4.7 foizga pasayganligi, bilvosita soliqlar tushumlari YAIMga nisbatan 1992-yildagi 17.8 %dan 1997-yilda 11.8 %ga, yani 6%ga pasayganligi kuzatiladi. Aksincha, bu yillarda bevosita soliq tushumlarining YAIMga nisbatan salmog‘i 5.4%ga o‘sganligi kuzatiladi.

Bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini shakllanichining ikkinchi bosqichi 1998–2007-yillarga to‘g‘ri kelib, birinchi marta xalqaro qonunchilik mezonlariga asoslangan Soliq kodeksi qabul qilindi. Ikkinchi bosqichida amalga kiritilgan Soliq kodeksiga muvofiq soliq turlari bir muncha ixchamlashtirildi va soddalashtirildi, soliq imtiyozlari qayta ko‘rib chiqilib, tadbirkorlikni va investitsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirildi. Bu davrda bevosita soliqlarni (daromad va foyda soliqlari) birlashtirish orqali ishlab chiqarishni rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Shuningdek, soliq tizimida bevosita va bilvosita soliqqa tortish tartiblarining aniq mexanizmlari belgilandi. Xususan, xarid qilingan xom-ashyo materiallar va xizmatlar uchun to‘langan QQSni hisobga olish tartibining aniq mexanizmi joriy etildi.

Ozbekiston respublikasining bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini shakllanishining ikkinchi bosqichida YAIMdagi budjet daromadi, undagi soliq tushimlari, shu jumladan bevosita va bilvosita soliqlar salmogi 1.2.4. jadvalda tahlil qilindi.

1.2.4-jadval

Ozbekistonning 1998-2007-yillarda YAIMdagi bevosita va bilvosita soliqlar nisbati (foizda)[106].

Ko‘rsatkichlar	**1998 yil**	**1999 yil**	**2000 yil**	**2001 yil**	**2002 yil**	**2003 yil**	**2007 yil**
Yalpi ichki maxsulot % da	100	100	100	100	100	100	100
Birlashtirilgan byudjet daromadi	42	40,5	37,4	35,8	33,6	32,5	29,1
Davlat byudjeti daromadi	31,2	29,3	28	26,1	24,9	24,2	21,5
Soliq tushumlari	30,1	28,3	26,8	23,7	22,8	23,1	20,9
Shu jumladan:							
Bilvosita soliklar	**16**	**15,9**	**15,9**	**13,5**	**13,6**	**14**	**12,6**
Qo‘shilgan qiymat soligi	9,4	7,3	7,5	6,6	6	5,5	5
Aksiz soligi	5,9	8,1	7,7	6,2	6,57	7,2	6,2
Chetga chiqaril. tovar. olin-n to‘lov	0,2	0,2	0,4	0,3	-	-	-
Bojxona boji	0,5	0,3	0,3	0,4	0,7	0,9	1
Jismoniy shaxs trans vositalaridan olinadigan yoqilgi soligi					0,33	0,4	0,4
Bevosita soliqlar:	**14,1**	**12,4**	**10,9**	**10,2**	**9,2**	**9,1**	**8,3**
Foyda (daromad)dan olin-n soliq	5,9	4,4	3,6	2,9	2,5	2,2	2,1

[105] Statistika qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasidan olingan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.
[106] Statistika qo‘mitasi va Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Ishchi xizmatchilar ish xakidan daromad soligi	3,6	3,7	3,2	3,3	3,1	3	2,7
YATTF shug-n jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi	0,4	0,4	0,4	0,6	0,47	0,3	0,3
Kichik korxonalarga yagona soliq	0,2	0,4	0,5	0,6	0,7	0,9	0,7
Infrastrukturani riv-sh soligi	0,3	0,3	0,4	0,3	0,53	0,4	0,4
Shu jumladan resurs to‘lovlari	3,7	3,2	2,8	2,5	1,9	2,3	2,1
Yuridik korx-r mol-mulk soligi	0,7	0,8	0,8	0,7	0,5	0,5	0,4
Jism-y shaxs-r mol-mulk soligi	0,2	0,2	0,1	0,1	0,5	0,2	0,2
Trans vositasi-n olin-n soliq	-	-	-	-	-	-	-
Yer soligi	1,4	1,2	0,9	0,8	0,5	0,6	0,6
Nedradan foyda-k uchun soliq	0,5	0,3	0,3	0,2	0,2	0,3	0,35
Suv soligi	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Ekologiya soligi	0,7	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,45
Boshka to‘lov va yig‘imlar	**1,1**	**1**	**1,2**	**2,4**	**2,1**	**1,1**	**0,6**


Keltirilgan 1.2.4-jadvalda amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ayyon boladiki, yalpi ichki mahsulotga nisbatan jami soliq tushumi (soliq yuki) 1998-yilda 30.1% bolgan holda olib borilgan soliq islohotlari natijasida bu korsatkich 2007-yilga kelib bu korsatkich 20.9%ni tashkil etgan yoki soliq yuki 9.2 punktga pasayganligi kuzatiladi. Bu davrda soliq yukini pasayishiga mutanosib holda soliqlar yuki pasayib borgan. Jumladan, YAIMga nisbatan bilvosita soliq yuki 1998-yilda 16% bolgan holda bu korsatkich 2007-yilda 12.6%ni tashkil etganligi yoki 3.4 punktga pasayganligi kuzatiladi. Shuningdek, YAIMga nisbatan bevosita soliq yuki 1998-yilda 14.1% bolgan holda bu korsatkich 2007-yilda 8.3%ni tashkil etganligi yoki bevosita soliq yuki 5.8 punktga pasaygan.

Mamlakatimiz soliq tizimining uchinchi bosqichida (2008–2019-yillar) halqaro huquqiy normalar va ko‘p yillik tajribalarga tayanilgan holda yangi tahrirdagi soliq kodeksi joriy etildi. Bu davrda soddalashtirilgan soliq tizimi bo‘lgan yagona soliq to‘lovining ixchamlashtirilgan va soliq yuki pasaytirilgan tartibi joriy etildi[9]. Shuningdek, bu bosqichda shakllngan soliq tizimida bevosita soliqlar va bilvosita soliqlar nisbati qisman uygunlashgan bo‘lsada, jami soliq tushumlaridagi bevosita soliqlarga nisbatan bilvosita soliqqa tortishning ustuvorligi kuzatildi.

Soliq tizimini shakllantirishning uchinchi bosqich davrida bevosita va bilvosita soliqlarning foizdagi salmog‘i 2012-2019-yillar bo‘yicha tahlil qilinib, tahlil natijalari quyidagi 1.2.1-chizmada batafsilroq aks ettirildi.

1.2.1-rasm

O‘zbekistonda 2012-2019-yillarda jami soliq tushumlarida bevosita va bilvosita soliqlar nisbati[107]



[107] Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keltirilgan 1.2.1-rasmdagi tahliliy ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, soliq islohotlarining uchunchi bosqichining dastlabki yillarida soliq tushumlaridagi bevosita soliqlar salmog‘i pasayib, bilvosita soliqlardan tushumlar o‘sib borganligi kuzatilsa, ammo 2019-yilga kelib soliq tushumlaridagi bevosita soliq 11.5 punktga o‘sib, aksincha bilvosita soliqlardan tushumning nisbati pasaygan. Shu jumladan, 2012-yilda jami soliq tushumlardagi bevosita soliqlar tushumi 46.9%ni, bilvosita soliqlar tushumi 53.1%ni, 2013-yilda bevosita soliqlar tushumi 44.7%ni, bilvosita soliqlar tushumi 55.3%ni, 2014-yilda bevosita soliqlar tushumi 42.4%ni, bilvosita soliqlar tushumi 57.6%ni, 2018-yilda bevosita soliqlar tushumi 41.9%ni, bilvosita soliqlar tushumi 58.0%ni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda esa bevosita soliqlar tushumi 52.6%ni, bilvosita soliqlar tushumi 47.4%ni tashkil etgani yoki bir yilda soliqlar nisbati 11.4 punktga ozgarganligi kuzatiladi. Soliqlar nisbatining bunday o‘zgarishi mamlakatimizdagi samarali soliqqa oid islhotlar bilan izohlanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan buyon bevosita va bilvosita soliqlardan iborat bo‘lgan soliq tizimini takomillashtirish borasida olib borilgan soliq islohotlarini davomi sifatida 2019 yilda yangi tahrirdagi soliq kodeksi qabul qilindi[10]. Mazkur yangi tahrirdagi soliq kodeksini qabul qilinishi Ozbekiston respublikasida soliq tizimini shakllantirish davrining **yangi to‘rtinchi bosqichini** boshlab berdi.

Yangi tahrirdagi soliq kodeksi joriy qilinishi oqibatida, soliq yuki sezilarli tarzda pasayganligini ko‘rish mumkin. Xususan, bevosita soliqlar yuki sezilarli pasayganligi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasini 4-bosqichli stavkadan yagona 12% stavkaga aylangani, bilvosita soliq bo‘lgan QQSning stavkasi 15% dan 12%ga pasaytirilgani bilan izohlanadi.

Soliq islohotlarining to‘rtinchi bosqichida bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalarida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va ularning YAIMdagi hamda soliq tushumlaridagi salmog‘i 1.2.5-jadvalda berildi.

1.2.5-jadval

O‘zbekiston respublikasi YAIM va budjet daromadlarida bevosita va bilvosita soliqlar tarkibining o‘zgarishi[108] (mlrd so‘mda)

Ko‘rsatkich	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024-yil	2025-yil	2025 yilda 2020 yilga nisbatan o‘sishi %da
Yalpi ichki mahsulot	605514.9	738425.2	896617.9	1066569.0	1454573.9	1849650.0	433.5%
Budjet daromadi	132938.0	164799.4	201863.7	231721.3	274423.0	320166.0	412.7%
Shundan soliq tushumlari	112892.2	138257.2	159750	184508.8	215537	261251.0	375.4%
Bilvosita soliqlar	46428.4	56290.4	71390.2	83325.8	88341.0	98103.0	237.6%
Bevosita soliqlar	66463.8	81966.8	88359.8	101183.0	127196.0	163148.0	576.1%
Soliqsiz boshqa daromadlar	20045.8	26542.2	42113.7	47212.5	58886.0	58915.0	739.1%

Tahlil qilingan 1.2.5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, oxirgi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalib borayotgani sababli 2025-yilda 2020-yilga nisbatan YAIMning hajmi 433.5% ga o‘sgan bo‘lsa, budjet daromadining hajmi 412.7%ga, soliq tushumlari 375.4%ga, shundan bilvosita soliqlar 237.6%ga, bevosita soliqlar 576.1 %ga va soliqsiz tushumlar 739.1%ga o‘sgan. Bu raqamlardan ma’lum bo‘ladiki, YAIMning o‘sishiga nisbatan soliq yukining salmog‘i (433.5-375.4) 58.1 %ga pasaygan.

[108] O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining imv..uz saytidan olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Umuman olganda, soliq islohotlarining hozirgi to‘rtinchi bosqichida soliq ma’muriyatchiligida ham katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, tekshirishlarni tayinlash tartibiga oid mezonlarga o‘zgartirishlar kiritilib, aksariyat tekshirishlar inson omilisiz faqat dasturiy mahsul asosida amalga oshish imkoniyatlari yaratildi. Bundan buyon, soliq xizmati organlari soliq huquqbuzarliklari uchun jarimalarni profilaktik tadbirlar natijasi bo‘yicha qaror qabul qilingandan keyin qo‘llay oladi. Shuningdek, yangi kodeksda ortiqcha undirilgan soliq summasi qaytarilishida foizlar qo‘shilib tolanishi belgilangan. Unga ko‘ra, ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to‘lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga malum bo‘lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan etiboran o‘ttiz kun ichida murojaat etgan taqdirda hisoblanadi.

Xulosa

Mustaqillikning o‘tgan 34 yillik davrida amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida bir muncha milliy xususiyatlar singdirilgan hozirgi zamonaviy soliq tizimi yuzaga keldi va ushbu bevosita va bilvosita soliqlar tizimini optimallashtirish srtategik maqsadga aylanmoqda.

Shakllangan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimining muammoli va ijobiy jixatlarini to‘g‘ri aniqlash va istiqbolli soliq mexanizmlarini qaror toptirish uchun o‘tgan davrlar davomida shakllangan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimining tarixiy- evolyutsion rivojlanish bosqichlarini nazariy va ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish va baholash manfaatlidir.

Soliq islohotlari jarayonida, tadbirkorlik subyektlarini va soliq to‘lovshi aholi qatlamini byudjet mablag‘lari hisobidan ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlashni keskin kamaytirib borish va bu islohiy ishlarga mutanosib holda mamlakatning barcha soliq to‘lovchilar qatlamiga jami soliq yukini kamaytirib borish va ularning qonuniy manfaatlarini oshirish har jihatdan foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Garащenko I.V. Razvitiye pryamogo nalogooblojeniya v nalogovoy sisteme Rossii: teoriya i praktika. Avtoreferat dissertatsii na poiski uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. – Rostov na-Donu, 2010. S.26-27.

2. Istoricheskiye i sovremennыe aspektы kosvennogo nalogooblojeniya/ A. A. Krivosheeva. -Tekst: neposredstvennыy // Molodoy uchenыy. № 23(365) -C.382-384. https://moluch.ru/archive/365/82056.

3.https://ideas.repec.org/a/jfr/ijfr11/v11y2020i2p146-153.html?utm_source=chatgpt.com

4. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga bevosita va bilvosita soliqlarning ta’siri. Ekonomika, 2024, vol. 103(2), https://www.zurnalai.vu.lt/ekonomika/article/view/32861/34044

5. A.Jo‘rayev, Sh.Toshmatov, O.Abdurahmonov. “Soliqlar va soliqqa tortish” “Toshkent-norma” nashriyoti, 2009, 420 bet.

6. To‘rayev Sh.Sh. “Korxonalarda soliq yukini optimallashtirish masalalari.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologiyes) ilmiy elektron jurnali, 3/2022-may-iyun, №00059, 378-385 b.

7. O‘zbekiston respublikasining 1991-yil 22-fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida"gi qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-apreldagi 397-I-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq qabul qilingan Soliq kodeksi.

9. Ozbekiston respublikasining 2007-yil 25-dekabrdagi ORQ-136-sonli qonuniniga muvofiq qabil qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi.

10. Ozbekiston respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi ORQ-599-sonli qonuniniga muvofiq qabil qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

КОРПОРАТИВ ЛОЙИҲА БОШҚАРУВИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Адилова Гульмира Шамшетдиновна
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамиси ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби 2-босқич тингловчиси
E-mail:gulmira.adilova.1987@mail.ru

Аннотация. *Ушбу илмий мақолада корпоратив лойиҳа бошқарувининг назарий-методологик асослари чуқур таҳлил қилинган. Мақолада корпоратив бошқарув, стратегик менежмент ва лойиҳа бошқаруви ўртасидаги ўзаро боғлиқлик илмий ёндашувлар асосида ёритилган. Шунингдек, корпоратив даражада лойиҳалар портфелини бошқариш, институционал механизмлар, етуклик моделлари ҳамда халқаро стандартларнинг назарий аҳамияти очиб берилган. Тадқиқот натижалари корпоратив лойиҳа бошқарувини ташкилот стратегиясига интеграция қилиш заруратини илмий жиҳатдан асослаб беради.*

Калит сўзлар: *корпоратив лойиҳа бошқаруви, стратегик менежмент, портфель бошқаруви, PMO, PMBOK, PRINCE2, P3M.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ

Адилова Гульмира Шамшетдиновна
Слушатель 2-го курса Высшей школы бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан
E-mail: gulmira.adilova.1987@mail.ru

Аннотация. *В данной научной статье глубоко проанализированы теоретико-методологические основы корпоративного управления проектами. В статье на основе научных подходов раскрыта взаимосвязь между корпоративным управлением, стратегическим менеджментом и управлением проектами. Также освещены вопросы управления портфелем проектов на корпоративном уровне, институциональные механизмы, модели зрелости и теоретическое значение международных стандартов. Результаты исследования научно обосновывают необходимость интеграции корпоративного управления проектами в стратегию организации.*

Ключевые слова: *корпоративное управление проектами, стратегический менеджмент, управление портфелем, PMO, PMBOK, PRINCE2, P3M.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF CORPORATE PROJECT MANAGEMENT

Adilova Gulmira Shamshetdinovna
2nd-year student of the Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan
E-mail: gulmira.adilova.1987@mail.ru

Abstract. *This scientific article provides an in-depth analysis of the theoretical and methodological foundations of corporate project management. The paper explores the interrelationship between corporate governance, strategic management, and project management based on scientific approaches. It also examines project portfolio management at the corporate level, institutional mechanisms, maturity models, and the theoretical significance of international standards. The research findings substantiate the necessity of integrating corporate project management into organizational strategy.*

Keywords: *corporate project management, strategic management, portfolio management, PMO, PMBOK, PRINCE2, P3M.*

Кириш

Ҳозирги глобал иқтисодиёт шароитида ташкилотлар фаолияти тезкор ўзгаришлар, рақобатнинг кучайиши ва рақамлаштириш жараёнлари билан характерланади. Бундай муҳитда компаниялар фақат анъанавий бошқарув усуллари билан эмас, балки лойиҳалар орқали стратегияни амалга ошириш орқали ривожланишга интилади. Шу жиҳатдан корпоратив лойиҳа бошқарувининг назарий асосларини ўрганиш долзарб илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Глобал рақобат ва бозор динамикаси. Замонавий иқтисодиётда бозор талаблари тез ўзгаради, технологиялар янгиланади, инновациялар устувор аҳамият касб этади. Бундай шароитда ташкилотлар янги маҳсулотлар ишлаб чиқиш, хизматларни такомиллаштириш, рақобат устунлигини сақлаш учун лойиҳаларни самарали бошқариши шарт. **Лойиҳа бошқаруви** - рақобатбардошликни таъминловчи асосий инструмент.

Рақамли трансформация ва инновациялар. Сўнгги йилларда Digital economy, AI ва автоматизация, Big Data каби тенденциялар кучайди. Бу эса IT лойиҳалар сонини оширди ҳамда инновацион лойиҳаларни бошқаришни талаб қилди. Мисол: Банкларда онлайн хизматлар, мобил иловалар - барчаси лойиҳа асосида жорий этилади.

Ташкилотларда стратегик бошқарувнинг ўзгариши. Анъанавий бошқарув функционал бўлимларга асосланган. Замонавий ёндашув эса лойиҳа ва портфель бошқарувига асосланган. Компаниялар стратегия → дастур → лойиҳа занжири орқали ишлайди. Корпоратив лойиҳа бошқаруви стратегияни амалга ошириш механизми ҳисобланади.

Ресурслар чекланганлиги ва самарадорлик талаби. Ҳар қандай ташкилотда вақт, молиявий ресурслар, инсон капитали, чекланган. Лойиҳа бошқаруви ресурсларни оптимал тақсимлаш, ҳаражатларни камайтириш, натижани максималлаштириш имконини беради.

Рисклар ва ноаниқликнинг ортиши. Замонавий бизнес муҳитида иқтисодий инқирозлар, геосиёсий ҳавфлар, технология рисклари кўпаймоқда. Лойиҳа бошқаруви рискларни баҳолаш, бошқариш, камайтириш учун муҳим восита ҳисобланади.

Илмий-назарий асосларни шакллантириш зарурати. Корпоратив лойиҳа бошқаруви кўп соҳаларни қамраб олади ҳамда турли методологияларга асосланади (PMBOK, Agile ва бошқалар). Шунинг учун унинг назарий асосларини тизимлаштириш, илмий жиҳатдан асослаш муҳим ҳисобланади.

Амалий муаммоларни ҳал қилиш эҳтиёжи. Кўплаб ташкилотларда лойиҳалар кечикиши, бюджет ошиб кетиши, натижалар кутилган даражада бўлмаслиги каби муаммолар мавжуд. Бу муаммоларни ҳал қилиш учун тўғри методология, самарали бошқарув тизими зарур.

HR ва лойиҳа бошқаруви интеграцияси эҳтиёжи. Замонавий ташкилотларда инсон капитали асосий ресурс. Шунинг учун HR ва Project Managementни бирлаштириш, жамоаларни самарали бошқариш муҳим аҳамият касб этади.

Миллий иқтисодиёт учун аҳамияти. Ўзбекистон шароитида инвестицион лойиҳалар кўпаймоқда, инфратузилма ривожланмоқда, рақамли иқтисодиёт шаклланмоқда. Бу эса лойиҳаларни самарали бошқариш, халқаро стандартларни жорий этиш заруратини оширади.

Таълим ва кадрлар тайёрлашдаги аҳамияти. Корпоратив лойиҳа бошқаруви менежерлар, HR мутахассислар, иқтисодчилар учун муҳим билим соҳаси ҳисобланади. Шунинг учун ушбу йўналишда илмий тадқиқотлар, ўқув дастурлари зарур.

Адабиётлар шарҳи

Корпоратив лойиҳа бошқаруви (Corporate Project Management) замонавий

менежмент назариясида муҳим йўналишлардан бири бўлиб, у ташкилот стратегиясини амалга оширишда лойиҳалар, дастурлар ва портфелларни интеграциялашган ҳолда бошқаришга асосланади. Ушбу соҳадаги илмий қарашлар асосан хорижий ва маҳаллий олимлар ишларида кенг ёритилган.

1. Лойиҳа бошқаруви назариясининг шаклланиши. Лойиҳа бошқаруви мустақил илмий йўналиш сифатида XX асрнинг иккинчи ярмида шаклланган. Project Management Institute томонидан ишлаб чиқилган PMBOK Guide [1] бу соҳадаги энг асосий методологик манба ҳисобланади. PMBOK’га кўра: лойиҳа-ноёб маҳсулот ёки хизмат яратишга қаратилган вақтинчалик фаолият; бошқарув жараёни 5 босқичдан иборат (инициация, режалаштириш, амалга ошириш, мониторинг, якунлаш). Шу билан бирга, Harold Kerzner ўзининг тадқиқотларида лойиҳа бошқарувини стратегик бошқарув билан боғлаб, уни ташкилот рақобатбардошлигини таъминловчи асосий восита сифатида баҳолайди.

2. Корпоратив лойиҳа бошқаруви концепцияси. Корпоратив даражада лойиҳа бошқаруви масалалари Harold Kerzner [2], Rodney Turner [3] ва Peter Drucker [4] ишларида кенг ёритилган. Уларга кўра: лойиҳалар компания стратегиясини амалга ошириш воситасидир; портфель бошқаруви орқали ресурслар самарали тақсимланади; қиймат яратиш (value creation) асосий мақсад ҳисобланади. Peter Drucker таъкидлашича, замонавий ташкилотлар “лойиҳалар орқали бошқариладиган тизим”га айланмоқда.

3. Лойиҳа бошқаруви методологиялари бўйича илмий қарашлар:

Анъанавий ёндашув (Waterfall, PMBOK). Анъанавий моделлар қатъий режалаштиришга асосланади. Harold Kerzner [2] бу ёндашувни катта ва мураккаб лойиҳалар учун самарали деб ҳисоблайди.

Agile ёндашув. 2001 йилда қабул қилинган Agile Manifesto лойиҳа бошқарувида янги босқични бошлаб берди. Ken Schwaber ва Jeff Sutherland Scrum фреймворкини ишлаб чиқиб, итератив бошқарувнинг амалий моделини таклиф қилдилар. Agile’нинг асосий ғоялари: мослашувчанлик, тезкор натижа, мижоз билан доимий алоқа.

4. Лойиҳа портфели ва дастур бошқаруви. James P. Lewis [6] ва Morris Peter [7] ишларида портфель бошқаруви муҳим ўрин эгаллайди. Уларнинг фикрича: портфель - бу бир нечта лойиҳалар йиғиндиси; асосий вазифа - стратегик мақсадларга эришиш учун устуворликларни белгилаш; ресурслар чекланганлиги шароитида оптимал тақсимлаш муҳим.

5. HR ва лойиҳа бошқаруви интеграцияси бўйича тадқиқотлар. Dave Ulrich [8] HR’ни “стратегик шерик” сифатида кўриб, уни лойиҳа бошқаруви билан интеграция қилиш зарурлигини таъкидлайди. Michael Armstrong [9] эса HRM’ни инсон капиталидан самарали фойдаланиш тизими сифатида таърифлаб, лойиҳалар орқали HR функцияларини амалга оширишни асослаб беради.

6. Замонавий тенденциялар (Digital ва Agile трансформация). Замонавий тадқиқотларда қуйидаги йўналишлар алоҳида ўрин тутади: рақамли лойиҳа бошқаруви (Digital PM), Agile трансформация, HR Analytics ва data-driven бошқарув. Project Management Institute ҳисоботларига кўра, замонавий ташкилотлар гибрид (PMBOK + Agile) моделлардан фойдаланмоқда.

Тадқиқот методологияси

Ушбу мавзуда методология - бу тадқиқотни қандай ёндашувлар, усуллар ва илмий принциплар асосида ўрганишни белгилайдиган тизимдир. Корпоратив лойиҳа бошқарувини тадқиқ этишда методология комплекс характерга эга бўлиб, у менежмент, иқтисодиёт, HR ва тизимли таҳлилни ўз ичига олади. Методологик ёндашувлар (Approaches):

1. Тизимли ёндашув (System Approach) - корпоратив лойиҳа бошқаруви яхлит тизим сифатида қаралади, элементлар: лойиҳа, дастур, портфель, ресурслар, stakeholder. Барча элементлар ўзаро боғлиқ ва бир-бирига таъсир қилади. Мисол. Банкда рақамли

трансформация: IT лойиҳалар, HR тайёргарлик, молиявий ресурслар → бир тизимда бошқарилади.

2. Жараёнли ёндашув (Process Approach) - лойиҳа бошқаруви узлуксиз жараёнлар мажмуаси сифатида кўрилади. Асосий босқичлари бу инициация, режалаштириш, амалга ошириш, мониторинг ва якунлаш. Мисол. Қурилиш лойиҳасида ҳар бир босқич аниқ регламент асосида бажарилади.

3. Стратегик ёндашув (Strategic Approach) - лойиҳалар ташкилот стратегиясига боғланади, қиймат (value) яратишга йўналтирилади. Мисол. Компания янги маҳсулот лойиҳасини бозор улушини ошириш мақсадида бошлайди.

4. Инновацион ва Agile ёндашув - тез ўзгарувчан муҳитга мослашиш ва итератив ишлаш. Мисол. IT компания ҳар 2 ҳафтада маҳсулотни янгилайди.

5. Инсонга йўналтирилган ёндашув (Human-centered) - инсон ресурси марказий ўринда, мотивация ва жамоавий иш муҳим. Мисол. Scrum жамоаларда collaboration асосий роль ўйнайди.

Илмий тадқиқот усуллари:

Анализ ва синтез. Лойиҳа бошқарув элементларини алоҳида ўрганиш, кейин уларни бир бутун тизимга бирлаштириш.

Таққослаш (Comparative analysis). PMBOK, Agile, Scrum моделларини солиштириш. Мисол. PMBOK - қатъий, Agile – мослашувчан.

Моделлаштириш (Modeling). Корпоратив бошқарув моделларини ишлаб чиқиш. Мисол. HR + PM интеграция модели.

Статистик ва аналитик усуллар. KPI, HR analytics, риск таҳлили. Кўрсаткичлар – ROI, time-to-market, productivity.

Кейс-таҳлил (Case study). Реал компаниялар тажрибасини ўрганиш. Мисол. Телеком ёки банкда рақамли трансформация

Таҳлил ва натижалар

Корпоратив лойиҳа-бу ташкилотнинг стратегик мақсадини амалга ошириш учун режалаштирилган, ресурс ва вақт билан чегараланган, бир неча бўлим ва лойиҳаларни қамраб олувчи комплекс жараён.

Корпоратив лойиҳа бошқаруви - ташкилотларнинг рақобатбардошлигини ошириш, стратегияни амалга ошириш ва ресурслар самарадорлигини таъминлаш нуқтаи назаридан алоҳида аҳамият касб этади. Сўнгги йилларда лойиҳа бошқаруви фақат операцион инструмент сифатида эмас, балки корпоратив бошқарув ва стратегик менежментнинг таркибий қисми сифатида қаралмоқда.

Мазкур мақоланинг илмий муаммоси - корпоратив даражада лойиҳа бошқарувининг назарий жиҳатдан етарлича тизимлаштирилмаганлиги ва уни стратегия билан интеграция қилиш механизмларининг турлича талқин қилиниши билан боғлиқ. Тадқиқотнинг мақсади корпоратив лойиҳа бошқарувининг назарий-методологик асосларини илмий таҳлил қилиш ва уни корпоратив стратегияни амалга оширишдаги ўрнини асослаб беришдан иборат бўлади. У анъанавий лойиҳа бошқарувидан фарқли равишда алоҳида лойиҳалар эмас, балки бутун корпорация даражасидаги мақсад ва ресурсларни ҳисобга олади.

Шунингдек корпоратив муносабатларга корпоратив мулкни мулкдорларнинг бевосита назоратидан узоқлаштирилиши оқибатида юзага келадиган муаммоларни ҳал қилишга қаратилган барча қонунлар, меъёрлар, низомлар, тадбирлар ва тартиблар тизими киради. Улар ёрдамида корхонани самарали бошқариш, асосий манфаатдор шахсларнинг манфаатларини бирлаштириш учун ташкилий, ҳуқуқий ва иқтисодий тадбирлар амалга оширилади. Демак, биз юқорида берган таърифга асосланиб, корпоратив бошқарувни амалга оширадиган механизм нима эканлигига эътиборни қаратишимиз муҳимдир. Корпоратив бошқарув механизми – бу корпоратив мулк шаклига кирувчи субъектларнинг белгиланган мақсадига эришиш учун зарур бўлган ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий ва

ташкилий муносабатларни ҳаракатга келтирувчи элементлар мажмуидир.

Корпоратив лойиҳа бошқаруви мустақил илмий йўналиш сифатида шаклланишида қатор классик ва замонавий бошқарув назарияларига таянади. Ушбу назарий асослар корпоратив даражада қарор қабул қилиш, ресурсларни тақсимлаш ва стратегик мақсадларга эришиш жараёнларини илмий жиҳатдан тушунтириб беради.

Корпоратив лойиҳа бошқарувининг асосий моҳияти қуйидагилардан иборат:

- стратегия ва лойиҳалар ўртасида узвий боғлиқликни таъминлаш;
- ресурслардан самарали фойдаланиш;
- рискларни корпоратив даражада бошқариш;
- қарор қабул қилишда шаффофликни ошириш.

Корпоратив лойиҳа бошқарувининг назарий асослари

1. Стратегик менежмент назарияси: Стратегик менежмент назариясига мувофиқ, ташкилотнинг узоқ муддатли мақсадлари аниқ стратегия орқали таъминланади. Корпоратив лойиҳа бошқаруви айнан ушбу стратегияни амалга оширишнинг асосий инструментларидан бири ҳисобланади. Ҳар бир лойиҳа корпоратив стратегия билан мувофиқ бўлмаса, у ташкилот қийматига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

2. Тизимли ёндашув назарияси: Тизимли ёндашув корпорацияни ўзаро боғлиқ элементлардан иборат яхлит тизим сифатида кўради. Лойиҳалар, дастурлар ва портфеллар ушбу тизимнинг функционал қисмлари ҳисобланади. Шу боис корпоратив лойиҳа бошқаруви лойиҳалар ўртасидаги ўзаро таъсир ва синергияни ҳисобга олади.

3. Институционал назария:Институционал назария корпоратив лойиҳа бошқарувини ташкилотдаги қоидалар, стандартлар, меъёрлар ва маданият билан боғлайди. PMO каби институционал тузилмалар лойиҳа бошқаруви жараёнларини расмийлаштириш ва барқарорлаштиришга хизмат қилади.

4. Қийматга йўналтирилган бошқарув назарияси: Ушбу назарияга кўра, ҳар бир лойиҳа корпоратив қиймат яратишга хизмат қилиши лозим. Корпоратив лойиҳа бошқаруви инвестицияларнинг қайтарилиши, риск ва фойда нисбатини илмий баҳолашга асосланади.

Корпоратив лойиҳа бошқаруви моделлари: Илмий ва амалий адабиётларда корпоратив лойиҳа бошқарувини жорий этишнинг бир нечта концептуал моделлари шаклланган бўлиб, улар ташкилотнинг бошқарув даражаси ва етуклигига боғлиқ ҳолда қўлланилади.

- P3M (Portfolio, Programme and Project Management) модели корпоратив стратегия, дастурлар ва алоҳида лойиҳалар ўртасидаги вертикал ва горизонтал мувофиқликни таъминлашга қаратилган.
- PMO (Project Management Office) модели лойиҳа бошқаруви жараёнларини стандартлаштириш, методологик қўллаб-қувватлаш ва корпоратив назоратни амалга оширишга хизмат қилади.
- Лойиҳа бошқаруви етуклик моделлари (CMMI, OPM3) ташкилотнинг лойиҳа бошқаруви салоҳиятини баҳолаш ва уни босқичма-босқич ривожлантириш имконини беради.

Ушбу моделлар корпоратив лойиҳа бошқарувининг илмий-методик базасини шакллантиради.

Халқаро стандартлар ва методологиялар: Корпоратив лойиҳа бошқарувининг назарий асослари халқаро стандартлар билан мустаҳкамланган. Уларга қуйидагилар киради:

Abstract: *The article examines the foreign experience of state support for the export of agricultural products in the USA, France, and European countries, and develops proposals and recommendations for its implementation in Uzbekistan.*

Keywords: *export, credit guarantees, insurance, technical assistance, consulting and information support, project, export contracts, export system, foreign experience.*

Kirish.

Jahonda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar, jamiyat xayotining barcha sohalarini erkinlashtirish va demokratlashtirish jarayoni xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida o‘zining yorqin ifodasini topmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish, mahsulotlarni sifatli qayta ishlash, jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish va uni chetga eksport qilish orqali mamlakatga valyuta tushumini ko‘paytirish yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish yuzasidan ko‘plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Biz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini mazmunan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur” [1].

Adabiyotlar sharhi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari xorijlik olimlardan Сакс Д., Hurwicz, L., Грей К., Норт Д.С., Шумпетер, Й.А. boshqalar tadqiqotlar olib borishgan[2].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan rus olimlariga Гришаева Л., Серков, А. Ф., Котов Р.М., Донник И.М., Васютченко И.Н., Фокина Д.А., Рогов В.В., Климова Н.В va boshqalarni keltirish mumkin[3].

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Aliyev Y.E., Salimov B.T., Yusupov M.S., Yusupov A.S., Xushvaqtova X.S., Muxitdinova U.S., Saidov M.X., Rustamova I.B., Ergashev E.I. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin[4].

Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha “dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog‘lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo‘q” [5].

Rus olimi A. Serkovning fikricha, “qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozori ancha keng qamrovli tushunchadir. U oziq-ovqat bozori va moddiy-texnika resurslari, yer va kapital, mehnat va ilmiy-texnika mahsulotlari bozorini birlashtira oladi. Bu bozorlarning barchasi bir-biriga bog‘langan, ammo ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega” [6].

Respublikamiz olimlaridan Ya.E. Aliev xulosalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida mahsulotni iste’molchilarga yetkazib berish tizimidagi muammolar tufayli yetishtirilgan hosil nobudgarchiligi, mahsulotlar raqobatbardoshligi pasayishi yuz bermokda[7].


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi

Asosiy tahlil va natijalar.

O‘zbekiston tabiiy iqlim sharoiti ekologik sof, iste’molbop xususiyatlari bo‘yicha tengi yo‘q sabzavot, meva, uzum va poliz mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash borasida katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan har jihatdan qulay mintaqa hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonni jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashib borishi, tashqi bozorlar

kon’yunkturasidagi keskin tebranishlar va milliy valyuta bozorini yanada liberallashtirish sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti strategik va iqtisodiy resurs sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Shu bois, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash milliy tizimni ilg‘or va samarali jahon tajribasidan foydalangan holda takomillashtirish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribani o‘rganish zarur. Xorijiy mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning barcha instrumentlarini ikki turga bo‘lish mumkin: moliyaviy va nomoliyaviy[8].



1-Rasm. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlashning xorijiy davlatlar tajribasi[9]

Mintaqaviy darajada qo‘llab-quvvatlash asosan nomoliyaviy chora-tadbirlardan iborat bo‘lib, xususan - axborotli qo‘llab-quvvatlash va maslahat berish, savdo bozorlarini tahlil qilish, ko‘rgazmalar, biznes missiyalari, xizmat safarlarini qo‘llab-quvvatlashda nomoyon bo‘ladi. Nomoliyaviy qo‘llab-quvvatlash asosan strategiyalar, respublika va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Eksportchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imtiyozli kreditlar, sug‘urta va eksport kafolatlari hamda imtiyozli soliqqa tortish (QQSdan ozod qilish, soliqni qaytarish, soliq tekshiruvlaridan ozod qilish) shaklida amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyotining globallashuvi va Respublika (ASM) agrasanoat majmuasining eksport salohiyatining ortib borishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va eksport qiluvchilarning daromadlarini himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini tug‘dirmoqda. Masalan, xorijiy mamlakatlarda fyuchers shartnomalaridan foydalanish orqali daromadlarni sug‘urtalash keng qo‘llaniladi. Jahon mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlash tajribasini batafsil ko‘rib chiqaylik.

AQSH tajribasi. AQSh qishloq xo‘jaligi yuqori unumdor va samarali ishlab chiqarishining mavjudligi tufayli yuqori eksport salohiyatiga ega. Mamlakat tovar eksportining umumiy qiymatida qishloq xo‘jaligining ulushi 10-15% ni tashkil qiladi. Eksportga asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari: bug‘doy, soya, makkajo‘xori eksport qilinadi. Jahon oziq-ovqat eksportida AQShning don bo‘yicha ulushi 60%ni, bug‘doyda - 30%, soyada - 70%ni tashkil qiladi[10].

AQShda eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash instrumentlaridan biri bu «checkoff program» dasturi bo‘lib, uning doirasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, fan va axborot fondlari orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘z mahsulotlarini sotishda ulgurji sotuvchilar, qayta ishlovchilar va mahsulot eksport qiluvchilardan mablag‘ yig‘adilar. Jamg‘arma mablag‘lari soliqqa tortilmaydi va tarmoq kengashi orqali marketing faoliyatini, fan va axborot-konsalting faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga sarflanadi. Bu mexanizm mamlakatda 30 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. AQShda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti AQSh Qishloq xo‘jaligi Departamenti tarkibidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, baliqchilik mahsulotlari, o‘rmon mahsulotlarini milliy eksport qiluvchilarga xizmat ko‘rsatadigan xorijiy qishloq xo‘jaligi xizmati mavjud bo‘lib (USDA Foreign Agricultural Service) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Xizmat 38 ta xalqaro vakolatxona xodimlarini o‘z ichiga oladi (72 ta davlatda 100 ga yaqin vakolatxonalar) [11].

(USDA Foreign Agricultural Service) bir qator nomoliyaviy yordam instrumentlarini taqdim etadi: yangi eksportchilar uchun axborot, konsalting va marketing xizmatlari, qishloq xo‘jaligi eksportini savdo va siyosiy qo‘llab-quvvatlash, bozor ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish, konsalting, brendni rivojlantirish, texnik yordam ko‘rsatadi.

Kanada tajribasi. Kanadaning eksport siyosati milliy dasturlarni samarali amalga oshirish va mintaqaviy ahamiyatga molik muammolarni hal qilish uchun tuzilgan shartnomalar asosida davlat va mintaqa darajasidagi davlat tashkilotlarining xamkorlikdagi say-harakatlari orqali amalga oshiriladi. Davlat dasturlari Savdo vazirligi (Trade Commissioner Service – TCS), rahbarligida ishlab chiqiladi, uning vazifalari xalqaro aloqalarni o‘rnatish, biznes maslahatlari va moliyaviy yordam ko‘rsatishdir. Savdo departamenti ko‘magida Kanadada moliyaviy yordam (kreditlar, grantlar taqdim etish) va nomoliyaviy yordam (brendni ilgari surish, bozor tahlili, ma’lumotnoma materiallari bilan ta’minlash) ko‘rsatadigan ko‘plab dasturlar yaratilgan[12]. Qishloq xo‘jaligi faoliyatidagi risklarni kamaytirishga qaratilgan dasturlarga alohida e’tibor qaratilmoqda (AgriInvest, AgriInsurance, AgriStability). Ushbu dasturlar doirasida ham federal, ham mintaqaviy darajada amalga oshiriladigan dasturlarga muvofiq, fermerlar hosilni yo‘qotish uchun kompensatsiya olish, shuningdek, xavflarni xedjerlash huquqiga ega. ASM аграсаноат мажмуасини mintaqaviy qo‘llab-quvvatlash o‘zining mustaqil eksportni rivojlantirish dasturlarini taklif etadi, ular Savdo vazirligidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin va bevosita mintaqa hukumati ko‘magida amalga oshiriladi. Ushbu loyihalar asosan nomoliyaviy yordamni (konsalting, bozor tahlili, biznes diagnostikasi) ko‘rsatadi[13]. Kvebek provinsiyasi Savdo-sanoat palatasi tashabbusi bilan Kvebek tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan Eksport yo‘laklari dasturi (COREX, Lescorridorsd’ exportation), qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini mintaqaviy darajada Amerika Qo‘shma Shtatlarining shimoli-sharqida savdo bozorini rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlashning yana bir yorqin misolidir. COREX dasturi diagnostika, biznes-rejalar tuzish, hamkorlar va yetkazib beruvchilarni izlash, savdo kanallarini qidirish va rivojlantirish, resurslardan foydalanish va tadbirlarda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi.

Fransiya tajribasi. Fransiyada iqtisodiyot va moliya vazirligi eksportni qo‘llab-quvvatlash uchun javobgardir. Fransiya qishloq xo‘jaligiga Yevropa Ittifoqi tomonidan sezilarli yordam ko‘rsatilmoqda, xususan, mamlakatdagi Lapolitique agricole commune dasturini moliyalashtirish uchun har yili 9,1 milliard yevro ajratiladi. Dastur fermerlarni moliyalashtirish bo‘yicha turli loyihalarni o‘z ichiga oladi: yashil to‘lovlar, qayta taqsimlash to‘lovlari, yosh fermerlarga yordam[14].

Federal darajada ikkita yirik loyiha mavjud: Xususiy sektorni o‘rganish va rag‘batlantirish jamg‘armasi (FASEP) va Business France, yirik moliyaviy (subsidiyalar, kreditlar) va konsalting yordamini ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligi eksportini mintaqaviy darajada qo‘llab-quvvatlash instrumentlari uchun translyatsiyasi bo‘yicha Fransiya tajribasi e’tiborga loyiqdir. Shunday qilib, Fransiya Savdo-sanoat palatasi (La Chambre decommerceetd’ industriede France, CCI) mintaqaviy darajada mahalliy hokimiyat organlari bilan faol hamkorlik qiladi, mahalliy hududiy

eksportni rag‘batlantirish dasturlarini yaratish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, Fransiya Savdo-sanoat palatasi ham milliy, ham mintaqaviy darajada moliyaviy yordam ko‘rsatadi; yagona farq mintaqaviy sheriklar va eksport uchun mahsulotlarga e’tibor qaratishidir[15].

Belorus Respublikasi tajribasi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirish bo‘yicha yetakchi institut va agentliklardan biri «Beleksimgarant» eksport-import sug‘urtalashga ixtisoslashgan unitar korxonalardan biri hisoblanadi. U meva-sabzavot mahsulotlarning eksport xatarlarini sug‘urtalash bilan birga, mamlakatdagi kompaniyalarning eksportini rivojlantirish maqsadida quyidagi xizmat turini amalga oshiradi:

- qisqa, o‘rta va uzoq muddatli eksport shartnomalarini sug‘urtalash;
- eksportchilarning eksport shartnomalarini bajarishi bilan bog‘liq zararlarni sugurtalash;
- eksportchilar uchun bank kreditlari to‘lay olmaslik xatarini sug‘urtalash[16].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilish tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab mamlakatlarda ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining roli oshib, mustahkamlanib, xalqaro ilmiy loyihalar ishlab chiqilmoqda. Milliy va xorijiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining kooperatsiyasi va integratsiyasi eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish va xorijda qayta ishlash korxonalarini yaratish imkonini bermoqda. Bunday hamkorlikni tashkil etishdan maqsad savdo to‘siqlarini bartaraf etish va transport xarajatlarini kamaytirishdir. Davlat marketing faoliyati, konsalting, eksportchilar uchun axborot-tahliliy resurslarni takomillashtirish, eksport faoliyatining ehtimoliy xatarlarini baholashga alohida e’tibor qarata boshladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari juda xilma-xil bo‘lib, tashkiliy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash instrumentlariga asoslanadi, bu esa o‘z navbatida Jahon savdo tashkilotining me’yor va qoidalariga mos keladi.

ASM(agrasanoat majmuaси)da qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilish tizimi faoliyatiga nodavlat institutlari (savdo-sanoat palatalari, eksportyorlar uyushmalari va birlashmalari) keyingi paytlarda sezilarli ta’sir ko‘rsata boshladi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini qo‘llab-quvvatlashda nomoliyaviy instrumentlaridan foydalanishga ko‘proq o‘tish kuzatilmoqda.

Eksportni qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasini tahlil qilish natijasida O‘zbekistan sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksport qilish tizimini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi muasasalalarni takomillashtirish lozim:

- qisqa, o‘rta va uzoq muddatli eksport shartnomalarini siyosiy va moliyaviy xatarlardan sug‘urtalash;
- eksportchilarning eksport shartnomalarini bajarishi bilan bog‘liq zararlarni sug‘urtalash;
- tashqi bozorlarni o‘rganish maqsadida eksport qiluvchi kompaniyalar xodimlariga chet el halqaro ko‘rgazmalarga ishtirok etishi bog‘liq xarajatlarning bir qismini davlat tomonidan qoplab berish;
- tashqi bozorlarga kirib borish yuzasidan xalqaro bitimlar tuzish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini davlat tomonidan qoplab berish;
- eksport qiluvchi kompaniyalarga chet elda ofislar, do‘konlar va tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini davlat tomonidan qoplab berish;
- erkin meva-sabzavotchilik iqtisodiy hududlarini tashkil etish va ularga huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy imtiyozlar berish;
- tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan tashkilotlar hamda investorlar uchun meva-sabzvot mahsulotlari eksporti ko‘rsatkichlari, eksport qilish tamoyillari hamda bojxona deklaratsiyalarini to‘ldirish borasida ma’lumotlar portalini ishga tushirish.

Eksportni qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasini tahlil qilish natijasida O‘zbekistan

sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksport qilish tizimini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi йўналишларда takomillashtirish lozim:

- qisqa, o‘rta va uzoq muddatli eksport shartnomalarini siyosiy va moliyaviy xatarlardan sug‘urtalash;
- eksportchilarning eksport shartnomalarini bajarishi bilan bog‘liq zararlarni sug‘urtalash;
- tashqi bozorlarni o‘rganish maqsadida eksport qiluvchi kompaniyalar xodimlariga chet el halqaro ko‘rgazmalarga ishtirok etishi bog‘liq xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish;
- tashqi bozorlarga kirib borish yuzasidan xalqaro bitimlar tuzish uchun sarflangan xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish;
- eksport qiluvchi kompaniyalarga chet elda ofislar, do‘konlar va tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish;
- erkin meva-sabzavotchilik iqtisodiy hududlarini tashkil etish va ularga huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy imtiyozlar berish;
- tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan tashkilotlar hamda investorlar uchun meva-sabzvot mahsulotlari eksporti ko‘rsatkichlari, eksport qilish tamoyillari hamda bojxona deklaratsiyalarini to‘ldirish borasida ma’lumotlar portalini ishga tushirish.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi (tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari, mahsulot ishlab chiqarish siklining muddatliligi va mavsumiyligi) sababli qishloq xo‘jaligi kredit bozorining uzluksiz tarzda faoliyat olib bora olmasligi, bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri dotatsiyalash, imtiyozli kreditlar shaklida doimiy faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni talab qilinadi.

Ekspo‘rtni qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasini tahlil qilish natijasida O‘zbekistan sharoitida Qishloq ho‘jaligi maxsulotlari ekspo‘rt qilish tizimini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi muasasalalarni takomillashtirish lozim:

- qisqa, o‘rta va uzoq muddatli ekspo‘rt shartnomalariga tegishli siyosiy hamda moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida sug‘urta mexanizmlarini joriy etish;
- ekspo‘rt faoliyati davomida yuzaga keladigan moliyaviy zararlarni qoplash uchun ekspo‘rt qiluvchi subyektlarni sug‘urta vositalari orqali himoya qilish;
- tashqi bozorlar holatini chuqur tahlil qilish maqsadida ekspo‘rtchilarni xalqaro ko‘rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash hamda bu yo‘nalishdagi xarajatlarning bir qismini davlat tomonidan moliyalashtirish;
- xalqaro savdo kelishuvlariga erishish orqali tashqi bozorlarga chiqish bilan bog‘liq xarajatlarning ayrim qismlarini davlat mablag‘lari hisobidan qoplash tizimini yaratish;
- xorijda ofis, do‘kon yoki boshqa savdo inshootlarini tashkil etayotgan ekspo‘rtchi kompaniyalarning xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplash orqali ularni qo‘llab-quvvatlash;
- meva-sabzavot maxsulotlarini ekspo‘rt qilish salohiyatini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy hududlar shaklida maxsus zonalarni tashkil etish hamda ular uchun qulay huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlar yaratish.
- tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan tashkilotlar hamda investorlar uchun meva-sabzvot maxsulotlari ekspo‘rti ko‘rsatkichlari, ekspo‘rt qilish tamoyillari hamda bojxona deklaratsiyalarini to‘ldirish borasida ma’lumotlar portalini ishga tushirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Xududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar v aholi bilan muloqat qilish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida bildirilgan fikrlari. 2025 yil.
2. (Сакс Д. Цена цивилизации. М.: Издательство Института Гайдара, 2012. 352 с.,

Hurwicz, L. Institutionsas familiesofgameforms / L. Hurwicz. - // The Japanese Economic Review. - 1996. - Vol. 47, No. 1. - P. 113-132., Грей К. Роль государства в аграрном секторе США // Экономика сельского хозяйства России. – 1997. – № 4. – С. 31–32., Норт Д.С. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики / Д.С. Норт; пер. с англ. А.Н. Нестеренко. - Москва: Фонд экономической книги «Начала», 1997.-С.17., Шумпетер, Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й.А. Шумпетер; [пер. с нем.: В.С. Автономов, М.С. Любский, А.Ю. Чепуренко; пер. с англ.: В.С. Автономов и др.]. - Москва: Эксмо, 2007. – С.17.)

3. (Гришаева Л. Концептуальные основы аграрного рынка / Л. Гришаева // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2002. - № 1. – С. 20-23.. Серков, А. Ф. Рынок и управление в АПК / А. Ф. Серков // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2004. - №2., Котов Р.М. Совершенствование государственной поддержки сельского хозяйства на региональном уровне: автореф. дис… канд. экон. наук. – Новосибирск, 2010. – С. 3-4., Донник И.М. Импортозамещение сельскохозяйственной продукции, сырья и продовольствия: состояние, задачи / И.М. Донник, Б.А. Воронин, О.Г. Лоретц // Аграрный вестник Урала. – 2015. – № 3. – С. 54-59., Васютченко И.Н. Система показателей оценки экспортного потенциала региона // Региональная экономика: теория и практика. – 2010. №21: https://cyberleninka.ru., Фокина Д.А. Факторы формирования экспортного потенциала машиностроительного предприятия / Д.А. Фокина, Г.Я. Белякова: http://iubpe.sfu-kras.ru., Рогов В.В. Экспортный потенциал России: состояние, ориентиры и условия развития // Внешнеэкономический бюллетень. – 2004. – № 5. – С. 58-65., Климова Н.В.Экспортный потенциал сельского хозяйства России / Н.В.Климова, М.И. Ищенко // Научный журнал КубГАУ – Scientific Journal of KubSAU. – 2016. – №119. – С. 58.).

4. Aliyev Y.E. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, agroresurslar va agroxnzmatlar bozorlari rivojlanishi mutanosibligini ta’minlash yo‘nalishlari. Monografiya. -T.: IQTISODIYOT, 2017. – B.21., Salimov B.T., Yusupov M.S., Yusupov A.S.,Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilish. O‘quv-amaliy qo‘llanma.-T.: “Fan va texnologiya”. 2015 y. B-13., Xushvaqtova X.S. Bozor sharoitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2005. – 25 b., Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2010. – 36 b., Saidov M.X., Rustamova I.B. Yangi va qayta ishlangan mahsulotlarni sotish bozorlaridagi marketing izlanishlar. O‘quv qo‘llanma/. – T.: 2018. – 120 b., Ergashev E.I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bog‘dorchilik va uzumchilik tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. avtoref. – T., 2009. – 22 b.

5. Сакс Д. Цена цивилизатsiи. М.: Издательство Института Гайдара, 2012. 352 с.

6. Серков, А. Ф. Рынок и управление в АПК / А. Ф. Серков // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2004. - №2.

7. Aliev Ya.E. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, agroresurslar va agroxnzmatlar bozorlari rivojlanishi mutanosibligini ta’minlash yo‘nalishlari. Monografiya. -T.: IQTISODIYOT, 2017. – B.19.

8. Лукиных О.А. Совершенствование систем поддержки экспорта в зарубежных странах / О. А. Лукиных // Российский внешнеэкономический вестник. – 2008. – № 11. – С. 63-79.

9. Муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган.

10. Мировой опыт государственной поддержки экспорта агропродовольствия / Институт агарный исследований НИУ «Высшая школа экономики» https://inagres.hse.ru/

11. Мировой опыт государственной поддержки экспорта агропродовольствия / Институт агарный исследований НИУ «Высшая школа экономики» https://inagres.hse.ru/

12. Сводный обзор о мерах и механизмах поддержки экспорта сельскохозяйственной продукции и продовольствия, применяемых в государствах-членах

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Евразийского экономического союза и ведущих странах-экспортерах сельскохозяйственной продукции и продовольствия // Департамент агропромышленной политики:http://www.eurasiancommission.org/ru.

13. https://inagres.hse.ru/
14. www.eurasiancommission.org/ru.
15. Андреева Н. Сельское хозяйство западных стран на постиндустриальном этапе развития // Мировая экономика и международные отношения. – 2009. – № 7. – С. 91-96.
16. https://inagres.hse.ru/.
17. Берикболова У.Д. Мировой опыт повышения экспортного потенциала страны / У.Д Берикболова, А. Казбайкыз ы, А. Жанибекова// Молодой ученый. – 2016. – №5.5. – С. 44-47.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BUGUNGI KUNDA BANKLAR TOMONIDAN AHOLI TO‘LOV QOBILIYATINI TA’MINLASHDAGI MUAMMOLAR

Adilova Zohida Ikromjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
adilova.zohida1989@gmail.com
ORCID;0009-0008-2589-76

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda yuzaga kelayotgan asosiy muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda aholi daromadlari, qarz yuklamasi, chakana kreditlash, raqamli bank xizmatlari va to‘lov infratuzilmasining ta’siri ko‘rib chiqilgan. Natijada banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda mas’uliyatli kreditlash, risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *aholi to‘lov qobiliyati, tijorat banklari, kredit yuklamasi, chakana kreditlash, raqamli bank xizmatlari, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish.*

ПРОБЛЕМЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БАНКОМ ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ СЕГОДНЯ

Адилова Зохида Икромжоновна

Ташкентский государственный
экономический университет
Старший преподаватель кафедры банковского дела
adilova.zohida1989@gmail.com
ORCID;0009-0008-2589-76

Аннотация. *В данной статье проанализированы основные проблемы обеспечения платежеспособности населения со стороны банков на современном этапе. В исследовании рассмотрено влияние доходов населения, долговой нагрузки, розничного кредитования, цифровых банковских услуг и платёжной инфраструктуры. В результате обосновано, что ответственное кредитование, управление рисками и укрепление финансовой устойчивости имеют важное значение в обеспечении платежеспособности населения.*

Ключевые слова: *платежеспособность населения, коммерческие банки, долговая нагрузка, розничное кредитование, цифровые банковские услуги, финансовая устойчивость, управление рисками.*

PROBLEMS IN BANKS’ PROVISION OF PAYMENT ABILITY OF THE POPULATION TODAY

Adilova Zohida Ikromjonovna

Tashkent State University of Economics
Senior Lecturer, Department of Banking,
adilova.zohida1989@gmail.com
ORCID;0009-0008-2589-76

Abstract.*This article analyzes the main problems related to ensuring household solvency by banks at the present stage. The study examines the impact of household income, debt burden,*

retail lending, digital banking services, and payment infrastructure. The findings show that responsible lending, risk management, and strengthening financial stability are of key importance in ensuring household solvency.

Keywords: *household solvency, commercial banks, debt burden, retail lending, digital banking services, financial stability, risk management.*

Kirish

Jahon miqyosida moliyaviy xizmatlar bozorining raqamlashtirilishi, chakana kreditlashning kengayishi hamda aholi qatlamlarining bank xizmatlari bilan qamrovi ortib borishi banklar zimmasiga yangi vazifalarni yuklamoqda. Endilikda banklarning funksiyasi faqat kredit resurslarini taqdim etish yoki to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish bilan cheklanmay, balki mijozlarning real to‘lov qobiliyatini to‘g‘ri baholash, ortiqcha qarzdorlikning oldini olish va moliyaviy barqarorlikka putur yetkazmaydigan xizmat modelini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Jahon bankining Global Findex 2021 “ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda raqamli to‘lovlarni amalga oshirgan yoki qabul qilgan kattalar ulushi 2014-yildagi 35 foizdan 2021-yilda 57 foizga yetgan, bu esa bank xizmatlarining aholi kundalik hayotidagi o‘rni sezilarli kuchayganini ko‘rsatadi”[1]. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlarning ommaviylashuvi banklar uchun aholi to‘lov qobiliyatini saqlash va nazorat qilish muammosini ham yanada dolzarb qilmoqda.

Mahalliy darajada ham mazkur mavzu nihoyatda dolzarbdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisobotida “bank tizimini rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, to‘lov xizmatlari infratuzilmasini kengaytirish va aholi uchun moliyaviy xizmatlar qulayligini oshirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan. Hisobotga ko‘ra, 2024-yilda bank kartalari asosidagi tranzaksiyalar hajmi 917,9 trillion so‘mga, tranzaksiyalar soni esa 47,5 milliardga yetgan, muomaladagi bank kartalari soni esa 62 million donani tashkil etgan”[6]. Bu ko‘rsatkichlar aholi va banklar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar hajmi tobora kengayib borayotganini, shu bilan birga banklar zimmasiga mijozlarning to‘lov qobiliyatini ehtiyotkor baholash va to‘lov intizomini ta’minlashga oid mas’uliyat kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Markaziy bankning Moliyaviy barqarorlik hisobotida bank tizimi risklari baholangan bo‘lib, unda chakana kreditlash segmenti, ayniqsa jismoniy shaxslar va mikroqarzlar bilan bog‘liq yo‘nalishlarda risklarni nazorat ostida ushlab turish zarurligi alohida urg‘ulangan. Yillik hisobotda ham 2024-yilda jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar tarkibida asosan kichik hajmli kredit mahsulotlari ustun bo‘lgani, onlayn kreditlash va chakana moliyalashtirish ko‘lami kengaygani aks etgan. Bu esa aholining to‘lov qobiliyatini ta’minlashda banklar oldida bir qator muammolar — daromadlarning yetarli darajada barqaror emasligi, qarz yuklamasining ortishi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, raqamli xizmatlardan foydalanishdagi tafovutlar va kredit layoqatini baholash tizimlarining takomillashuv zarurati — mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalasi nafaqat alohida mijozning kreditni qaytarish imkoniyati bilan, balki moliyaviy inklyuziya sifati, bank xizmatlarining barqarorligi, raqamli transformatsiya sur’ati va butun bank tizimining moliyaviy mustahkamligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharxi

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalasi moliyaviy inklyuziya, qarz yuklamasi, mas’uliyatli kreditlash va raqamli moliya bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Xususan, A. Demirgüç-Kunt, L. Klapper, D. Singer va S. Ansar moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi, ayniqsa hisobvaraqlar va raqamli to‘lov vositalarining ommalashuvi aholi iqtisodiy faolligini oshirishini, biroq bu jarayon moliyaviy

barqarorlik bilan uyg‘unlashgandagina ijobiy natija berishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, “moliyaviy xizmatlardan foydalanishning o‘zi yetarli emas, balki bu xizmatlarning xavfsizligi, qulayligi va barqarorligi ham aholi to‘lov qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi”[2]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, aholi to‘lov qobiliyatini oshirishda faqat moliyaviy xizmatlarni kengaytirish emas, balki ularning sifatini ta’minlash ham muhim omil hisoblanadi.

Aholining qarz yuklamasi masalasida Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotchilari uy xo‘jaliklari qarzdorligining ortishi qisqa muddatda iste’mol va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi mumkinligini, biroq o‘rta muddatda moliyaviy barqarorlikka tahdid tug‘dirishini qayd etadilar. Ularning yondashuviga ko‘ra, “aholining ortiqcha qarzdorligi bank tizimi risklarini oshiradi, shu sababli banklar kredit ajratishda mijozning haqiqiy to‘lov salohiyatini chuqur baholashi zarur”[3]. Bu fikrlar aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda banklar zimmasida mas’uliyatli kreditlash tamoyili yotishini ko‘rsatadi. Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda kreditlash hajmidan ko‘ra, uning sifatli va ehtiyotkor tashkil etilishi ustuvor ahamiyatga ega.

Raqamli moliya va uning aholi to‘lov qobiliyatiga ta’siri borasida ham turli ilmiy qarashlar mavjud. P. Wamalwa raqamli kreditlashdan foydalanuvchi shaxslar ko‘proq qarz yig‘ib borishi, hatto ayrim hollarda mavjud aktivlarini sotish orqali qarzni qoplashga majbur bo‘lishini ko‘rsatadi. Muallifning xulosasiga ko‘ra, “raqamli kredit vositalari moliyaviy imkoniyatni oshirish bilan birga, moliyaviy savodxonlik past bo‘lsa, ortiqcha qarzdorlik xavfini kuchaytiradi”[4]. Shu ma’noda, raqamli moliyaviy xizmatlar aholi to‘lov qobiliyatini avtomatik ravishda mustahkamlamaydi, balki banklar tomonidan ehtiyotkor boshqaruv va mijozni to‘g‘ri baholashni talab qiladi.

Boshqa tomondan, zamonaviy tadqiqotlarda raqamli moliyaviy inklyuziyaning ijobiy jihatlari ham yoritiladi. Masalan, J. Liu va hammualliflar raqamli moliyaviy inklyuziya uy xo‘jaliklarining moliyaviy zaifligini kamaytirishini, ayniqsa past daromadli va qishloq hududlaridagi aholi uchun bu ta’sir kuchliroq ekanini asoslaydilar. Bu yondashuvga ko‘ra, “raqamli bank xizmatlari va to‘lov vositalari aholining moliyaviy boshqaruv imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq ularning samarasi moliyaviy savodxonlik va institutsional qo‘llab-quvvatlash darajasiga bog‘liq”[5].

Mahalliy manbalarda esa aholi to‘lov qobiliyati masalasi ko‘proq rasmiy hisobotlar va prudensial tahlillar doirasida yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlarida chakana kreditlash, mikroqarzlar, jismoniy shaxslar bilan bog‘liq risklar hamda moliyaviy inklyuziya ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Ushbu manbalardan ko‘rinadiki, mamlakatda bank xizmatlari qamrovi, bank kartalari soni va tranzaksiyalar hajmi ortib bormoqda, biroq aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda daromadlar barqarorligi, qarz yuklamasi va moliyaviy savodxonlik kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois mavjud ilmiy va amaliy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlash muammosi moliyaviy xizmatlarning ommaviylashuvi bilan bir qatorda ularning sifatli, xavfsiz va mas’uliyatli tashkil etilishiga ham bevosita bog‘liqdir.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo‘mitasi hamda tijorat banklari hisobotlari asosida aholi daromadlari, qarz yuklamasi, chakana kreditlash, raqamli bank xizmatlari va to‘lov infratuzilmasi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, olingan ma’lumotlar asosida banklar faoliyatida aholi to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Mazkur bo‘limda bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlash bilan bog‘liq asosiy muammolar statistik va mantiqiy tahlil asosida yoritiladi. Tahlil jarayonida

aholining daromadlari va kredit yuklamasi o‘rtasidagi nisbat, chakana kreditlash dinamikasi, raqamli to‘lov infratuzilmasining rivojlanish darajasi, bank xizmatlaridan foydalanish ko‘lami hamda to‘lov intizomiga ta’sir etuvchi omillar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, banklar faoliyatida aholi to‘lov qobiliyatini baholash va qo‘llab-quvvatlashga ta’sir etayotgan mavjud institutsional, iqtisodiy va tashkiliy muammolar aniqlanadi. Olingan natijalar asosida banklarning mazkur yo‘nalishdagi amaliy faoliyati samaradorligi baholanib, aholi to‘lov qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishlar yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

1-jadval

O‘zbekistonda aholi to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi ayrim ko‘rsatkichlar[110]

Ko‘rsatkich	Davr	Qiymat
YAIM o‘sish sur’ati	2024	6,5 %
Aholi jon boshiga jami daromadi	2024	24,1 mln so‘m
Jon boshiga jami daromadning real o‘sishi	2024	5,9 %
O‘rtacha oylik nominal ish haqi	2024	5 106,0 ming so‘m
O‘rtacha oylik nominal ish haqi	2025 yil yanvar–iyun	5 982,3 ming so‘m
Jismoniy shaxslarning o‘rtacha umumiy qarz yuklamasi	2024	34 %
Uy xo‘jaliklari qarz yuklamasi	2025 yil I yarim yillik	36 % dan 33 % gacha pasaygan
Ipoteka kreditlari bo‘yicha DSTI	2024	54 %
Avtokreditlar bo‘yicha DSTI	2024	58 %
Uy xo‘jaliklari kreditlarida mikroqarzlar ulushi	2024	23,9 %
Uy xo‘jaliklari kreditlarida mikroqarzlar ulushi	2023	16,5 %
Yangi kreditlar uchun maksimal DSTI cheklovi	2025-yil 1-yanvardan	50 %
Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni	01.01.2025 holatiga	52,9 mln
Bankomat va infokiosklar soni	01.01.2025 holatiga	29,9 ming dona
Bank kartalari bo‘yicha jami chiqim operatsiyalari	2024	1 030 trln so‘m
Bank kartalari bo‘yicha naqdsiz operatsiyalar ulushi	2024	78,1 %
Mikroqarzlardagi muammoli kreditlar ulushi	2025 yil I yarim yillik	4,4 %
Yillik CPI, oziq-ovqat bo‘lmagan mahsulotlar	2025 yil dekabr / 2024 yil dekabr	5,1 %
Yillik CPI, xizmatlar	2025 yil dekabr / 2024 yil dekabr	13,9 %

1-jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda aholi to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Avvalo, 2024-yilda mamlakatda **YAIMning 6,5 foizga o‘sgani**, aholi jon boshiga jami daromadning **24,1 mln so‘mga** yetgani hamda uning **real o‘sishi 5,9 foizni** tashkil etgani aholining daromad bazasi ma’lum darajada kengayganini anglatadi. Shuningdek, o‘rtacha oylik nominal ish haqining 2024-yildagi **5 106,0 ming so‘mdan** 2025-yil yanvar–iyun holatiga **5 982,3 ming so‘mga** oshgani aholi daromadlarida ijobiy tendensiya mavjudligini tasdiqlaydi. Bu holat nazariy jihatdan aholining joriy to‘lov majburiyatlarini bajarish salohiyatini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin.

Biroq jadvaldagi ko‘rsatkichlar daromadlar o‘sishi bilan bir qatorda aholi qarz yuklamasi ham sezilarli darajada mavjud ekanini ko‘rsatadi. Xususan, 2024-yilda jismoniy shaxslarning o‘rtacha umumiy qarz yuklamasi **34 foizni** tashkil etgan, 2025-yil I yarim yilligida esa uy xo‘jaliklari qarz yuklamasi **36 foizdan 33 foizgacha pasaygan**. Mazkur pasayish ijobiy holat bo‘lsa-da, qarz yuklamasining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolayotgani banklar tomonidan

[110] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari, Annual Report 2024, Financial Stability Report for 2024, Financial Stability Report for the first half of 2025 hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi

mijozlarning kredit layoqatini yanada ehtiyotkorlik bilan baholash zarurligini anglatadi. Ayniqsa, ipoteka kreditlari bo‘yicha **DSTI 54 foiz**, avtokreditlar bo‘yicha esa **58 foiz**ni tashkil etgani ayrim kredit yo‘nalishlarida aholi daromadlarining katta qismi qarz majburiyatlarini qoplashga yo‘naltirilayotganini ko‘rsatadi. Bu esa to‘lov qobiliyatiga bosim qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Jadvalda uy xo‘jaliklari kreditlari tarkibida **mikroqarzlar ulushining 2023-yildagi 16,5 foizdan 2024-yilda 23,9 foizga oshgani** alohida e’tiborni tortadi. Ushbu o‘sish aholining kichik hajmli, tezkor va ko‘pincha qisqa muddatli kredit mahsulotlariga talab kuchayganini ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu moliyaviy xizmatlarning ommabopligini anglatadi, ikkinchi tomondan esa, ortiqcha qarzdorlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, 2025-yil 1-yanvardan yangi kreditlar uchun **maksimal DSTI cheklovining 50 foiz etib belgilanishi** banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini himoya qilishga qaratilgan prudensial choralar kuchaytirilganini bildiradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, mikroqarzlardagi muammoli kreditlar ulushining 2025-yil I yarim yilligida **4,4 foiz**ni tashkil etgani ushbu segmentda kredit risklari mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda aholi to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar ikki yo‘nalishda namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi: bir tomondan, daromadlar o‘sishi va raqamli bank xizmatlarining kengayishi ijobiy zamin yaratmoqda; ikkinchi tomondan esa, qarz yuklamasi, ayrim kredit turlarida DSTI ko‘rsatkichining yuqoriligi va mikroqarzlar ulushining oshishi banklar oldiga to‘lov qobiliyatini baholash va nazorat qilish bo‘yicha yanada mas’uliyatli yondashuvni talab etmoqda. Shu sababli aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda banklar kredit siyosatini daromadlar barqarorligi, qarz yuklamasi va risk darajasi bilan uyg‘un holda olib borishi zarur.

2-jadval

CHEKI “Hamkorbank” ATB misolida aholi bilan ishlash ko‘rsatkichlari[111], (mlrd so‘m)

Ko‘rsatkich	**31.12.2023**	**31.12.2024**
Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari	3 392,6	5 288,4
Jismoniy shaxslarning joriy hisobvaraqlari	1 029,2	1 437,8
Jami jismoniy shaxslar mablag‘lari	4 421,8	6 726,3
Iste’mol kreditlari (gross)	1 994,0	3 415,2
Avtokreditlar (gross)	3 778,4	2 767,4
Ipoteka kreditlari (gross)	1 280,4	665,6*
Iste’mol kreditlari bo‘yicha ECL (zaxira)	103,5	138,4
Avtokreditlar bo‘yicha ECL (zaxira)	6,8	13,8
Jami mijozlar kreditlari va moliyaviy lizing (gross)	16 099,7	19 504,8
Jami mijozlar kreditlari va moliyaviy lizing (net)	15 929,8	19 264,1
Bankning jami pul mablag‘lari va ekvivalentlari	2 874,4	5 123,7
Jami mijozlar mablag‘lari	7 661,7	11 420,5

2-jadval ma’lumotlari “Hamkorbank” ATB misolida aholi bilan ishlash yo‘nalishida 2024-yilda sezilarli o‘sish kuzatilganini ko‘rsatadi. Xususan, jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari **3 392,6 mlrd so‘mdan 5 288,4 mlrd so‘mga**, joriy hisobvaraqlardagi mablag‘lari esa **1 029,2 mlrd so‘mdan 1 437,8 mlrd so‘mga** oshgan. Natijada jami jismoniy shaxslar mablag‘lari **4 421,8 mlrd so‘mdan 6 726,3 mlrd so‘mga** yetgan. Bu holat aholining bankka bo‘lgan ishonchi ortganini hamda bankning resurs bazasi mustahkamlanganini anglatadi.

Shu bilan birga, bankning aholini kreditlash faoliyati ham faollashgan. Jumladan, iste’mol kreditlari hajmi **1 994,0 mlrd so‘mdan 3 415,2 mlrd so‘mga** oshgan. Mazkur tendensiya aholining kredit mablag‘lariga bo‘lgan talabi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Biroq iste’mol kreditlari bo‘yicha kutilayotgan zararlar uchun shakllantirilgan zaxira — **ECL**ning **103,5 mlrd so‘mdan 138,4 mlrd so‘mga** oshgani ushbu segmentda kredit riski ham ortib borayotganini bildiradi.

[111] “Hamkorbank” ATBning 2024-yil bo‘yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Avtokreditlar hajmi esa **3 778,4 mlrd so‘mdan 2 767,4 mlrd so‘mga** kamaygan bo‘lsa-da, ular bo‘yicha zaxiraning **6,8 mlrd so‘mdan 13,8 mlrd so‘mga** ko‘paygani to‘lov intizomi va qaytaruvchanlik bilan bog‘liq xatarlar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Bankning jami mijozlar kreditlari va moliyaviy lizing portfeli **16 099,7 mlrd so‘mdan 19 504,8 mlrd so‘mga**, sof portfel esa **15 929,8 mlrd so‘mdan 19 264,1 mlrd so‘mga** oshgan. Bundan tashqari, jami pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari **2 874,4 mlrd so‘mdan 5 123,7 mlrd so‘mga**, jami mijozlar mablag‘lari esa **7 661,7 mlrd so‘mdan 11 420,5 mlrd so‘mga** yetgan. Bu ko‘rsatkichlar bank likvidlik pozitsiyasining mustahkamlanganini anglatadi.

Umuman olganda, “Hamkorbank” ATB misolida ko‘rish mumkinki, aholi bilan ishlash hajmining kengayishi bir tomondan bank resurs bazasi va kreditlash imkoniyatlarini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayrim chakana kredit segmentlarida risklarning ham kuchayishiga olib kelgan. Demak, bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashda resurslar hajmini ko‘paytirish bilan bir qatorda, kredit risklarini ehtiyotkor boshqarish va to‘lov intizomini mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalasi moliyaviy xizmatlarning oddiy taqdim etilishidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, u aholi daromadlari barqarorligi, qarz yuklamasi darajasi, kreditlash siyosatining sifati, moliyaviy savodxonlik va raqamli bank infratuzilmasining rivojlanish holati bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston amaliyoti misolida ko‘rilganda, aholi daromadlari va bank xizmatlaridan foydalanish ko‘lami ortib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim kredit turlarida qarz yuklamasining yuqoriligi, mikroqarzlar ulushining o‘sishi hamda muammoli kreditlar xavfining saqlanib qolishi banklar oldiga to‘lov qobiliyatini baholash va boshqarish bo‘yicha yanada mas’uliyatli yondashuvni talab etmoqda.

Shuningdek, tahlillar banklar faoliyatida aholi mablag‘larini jalb qilish va chakana kreditlash hajmining kengayishi bilan bir qatorda, ushbu jarayonning risk jihatlari ham kuchayib borayotganini ko‘rsatdi. Bu holat banklar tomonidan mijozlarning real to‘lov salohiyatini chuqur baholash, daromad va qarz yuklamasi o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlash, raqamli xizmatlar orqali to‘lov intizomini mustahkamlash hamda prudensial cheklovlardan samarali foydalanish zarurligini anglatadi. Ayniqsa, banklar faqat kredit ajratish ko‘lamini oshirishga emas, balki aholi uchun xavfsiz, mas’uliyatli va barqaror moliyaviy xizmatlar muhitini shakllantirishga ham e’tibor qaratishi lozim.

Demak, banklar tomonidan aholi to‘lov qobiliyatini ta’minlashning asosiy sharti moliyaviy resurslar hajmini kengaytirish emas, balki kredit siyosati, risk-menejment, to‘lov infratuzilmasi va mijozlar bilan ishlash mexanizmlarini kompleks ravishda takomillashtirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, aholining ortiqcha qarzdorligini oldini olish hamda milliy moliya bozorida sog‘lom va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, DC: World Bank.

2. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., & Ansar, S. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. Washington, DC: World Bank.

3. International Monetary Fund. (2017). *Household Debt and Financial Stability*. In: *Global Financial Stability Report*, Chapter 2. Washington, DC: IMF.

4. Wamalwa, P. (2019). *Digital Credit, Financial Literacy and Household Indebtedness*. Working Paper Series.

5. Liu, J., et al. (2024). *Digital Financial Inclusion and Household Financial Vulnerability*.

Heliyon.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Annual Report 2024*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). *Financial Stability Report for H1 2024*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). *Total Income of the Population of the Republic of Uzbekistan, 2024*. Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). *Average Monthly Nominal Accrued Wages in the Republic of Uzbekistan (January–June 2025)*. Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). *Socio-economic Situation of the Republic of Uzbekistan, January–December 2025*. Toshkent: Milliy statistika qo‘mitasi.

11. “Hamkorbank” ATB. (2025). *Consolidated Financial Statements and Independent Auditor’s Report for the Year Ended 31 December 2024*. Andijon: “Hamkorbank” ATB.

INNOVATION AND EXPORT DIVERSIFICATION: A COMPARATIVE ANALYSIS OF SOUTH KOREA, CHINA AND SINGAPORE EXPERIENCE

Sultanova Gavkhar Karimovna

DSc in Economics, Associate Professor
Department of International Economics
University of World Economy and Diplomacy
E-mail: gsultanova@uwed.uz
ORCID: 0009-0007-5958-4927

Muysinova Mushtariy Azamat qizi

Master's student
University of World Economy and Diplomacy
E-mail: mushtariymuysinova2@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5212-627X

Abstract. *This paper focuses on the role of innovation in enhancing export diversification using the case of South Korea, China, and Singapore. The results show a leading role of innovation in expansion of export structures. Countries have different mechanisms: South Korea is dependent on industrial policy and R&D, China on massive upgrading, Singapore, on foreign investments and openness.*

Key words: *export diversification; innovation; research and development; industrial policy; high-technology exports; comparative analysis.*

ИННОВАЦИИ И ДИВЕРСИФИКАЦИЯ ЭКСПОРТА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОПЫТА ЮЖНОЙ КОРЕИ, КИТАЯ И СИНГАПУРА

Султанова Гавхар Каримовна

доктор экономических наук, доцент
кафедра международной экономики
Университет мировой экономики и дипломатии
E-mail: gsultanova@uwed.uz
ORCID: 0009-0007-5958-4927

Муйсинова Муштарий Азамат кизи

магистрант
Университет мировой экономики и дипломатии
E-mail: mushtariymuysinova2@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5212-627X

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль инноваций в углублении экспортной диверсификации на примере Южной Кореи, Китая и Сингапура. Результаты показывают ведущую роль инноваций в расширении экспортной структуры. Страны используют разные механизмы: Южная Корея зависит от промышленной политики и НИОКР, Китай — от масштабной модернизации, Сингапур — от иностранных инвестиций и открытости.*

Ключевые слова: *диверсификация экспорта; инновации; исследования и разработки; промышленная политика; экспорт высоких технологий; сравнительный анализ.*

INNOVATSIYALAR VA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYALASH: JANUBIY KOREYA, XITOY VA SINGAPUR TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Sultanova Gavhar Karimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
xalqaro iqtisodiyot kafedrasi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
E-mail: gsultanova@uwed.uz
ORCID: 0009-0007-5958-4927

Muysinova Mushtariy Azamat qizi
magistratura talabasi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
E-mail: mushtariymuysinova2@gmail.com
ORCID: 0009-0007-5212-627X

Annotatsiya. *Ushbu maqola Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur misolida eksportni diversifikatsiya qilishni oshirishda innovatsiyalarning roliga e’tibor qaratadi. Natijalar eksport tarkibini kengaytirishda innovatsiyalarning yetakchi rolini ko‘rsatadi. Mamlakatlarning mexanizmlari turlicha: Janubiy Koreya sanoat siyosati va ilmiy-tadqiqot ishlariga bog‘liq, Xitoy keng ko‘lamli modernizatsiyaga, Singapur esa xorijiy investitsiyalar va ochiqlikka tayanadi.*

Kalit so‘zlar: *eksport diversifikatsiyasi; innovatsiyalar; ilmiy-tadqiqot ishlari; sanoat siyosati; yuqori texnologiyali eksport; qiyosiy tahlil.*

Introduction

Export diversification offers a basis to the long-term economic prosperity and external stability. Economies that have been dependent on few products, especially the primary goods or low-technology producers, are quite sensitive to external shocks such as the decline in demand, price variations, and sudden disruptions of trade relations. Such vulnerabilities have many times been observed in resource endowed and developing countries, whereby lack of diversification limits growth opportunities and increases financial instability [1, 2].

Export diversification is considered by policymakers and researchers as one of the fundamental developmental objectives. Expansion of the export base minimizes the external risk and at the same time increases productivity, employment and income growth. Empirical studies show that in general economies diversify in low and middle-levels of development and then specialize in increasing level of income- thus highlighting the importance of diversification in structural transformation in terms of transition [3].

В целом результаты исследования свидетельствуют о том, что цифровая трансформация в Узбекистане носит комплексный характер и охватывает ключевые сферы экономики. При этом дальнейшее развитие требует усиления координации между государственными органами, повышения уровня цифровой грамотности населения и расширения внедрения инновационных технологий.

Цифровая трансформация финансового сектора является одним из ключевых факторов развития современной экономики. В условиях глобализации и ускоренного внедрения технологий государства стремятся модернизировать финансовые системы, повышая их эффективность, доступность и устойчивость.

На современном этапе Республика Узбекистан демонстрирует устойчивую динамику внедрения цифровых технологий в ключевые сферы социально-экономической системы. Государство последовательно формирует условия для перехода к цифровой модели развития, что отражается в активной модернизации инфраструктуры, управленческих процессов и отраслевых решений.

Цифровизация определена в качестве одного из стратегических приоритетов национальной политики. Базовым документом, определяющим вектор трансформации, выступает программа Цифровой Узбекистан – 2030. Данная стратегия направлена на формирование цифровой экономики за счёт масштабного внедрения инновационных технологий, развития электронного правительства, повышения уровня кибербезопасности и инвестирования в человеческий капитал.

Одним из приоритетных направлений цифровизации является внедрение концепции «умных городов», реализуемой с 2019 года. Основная цель инициативы — формирование современной городской среды с использованием цифровых технологий. Данная инициатива ориентирована на формирование современной инженерной и коммуникационной инфраструктуры городов, повышение качества жизни населения, создание комфортной и безопасной городской среды, а также развитие благоприятных условий для предпринимательской активности. Концепция «умного города» активно внедряется не только в столице, но и в таких крупных туристических центрах Узбекистана, как

Самарканд, Бухара и Хива. В этих городах реализуются инициативы, направленные на повышение уровня безопасности и развитие цифровой туристической инфраструктуры, включая проекты «Безопасный регион» и «Безопасный туризм».

Таблица -1.

К числу ключевых направлений реализации стратегии «Умные города» Узбекистана относятся*

№	Название элементов концепций	Особенности концепций
1	«Умный транспорт» [2]	«Умный транспорт» — это цифровая система управления движением, мониторинга и сервисов для участников дорожного движения. В Ташкенте её дополняют проекты Visiology и ГИС «ГРАФИТ» с данными о транспорте, ДТП и городской мобильности.
2	«Умное образование»	ИИ-платформы обеспечивают тестирование и цифровое обучение. Они объединяют онлайн и офлайн с адаптивными технологиями.
3	«Умная медицина»	Платформа объединяет медицинские данные пациентов, обеспечивая электронные карты и телемедицину. Она поддерживает дистанционную диагностику, мониторинг и оплату по результатам лечения.
4	«Умная энергетическая система»	Интеллектуальные технологии снижают потери и повышают надежность энергосистемы. Они оптимизируют затраты и баланс энергии.
5	«Умное водоснабжение и водоотведение»	Цифровизация водоснабжения формирует «умную» инфраструктуру для эффективного управления ресурсами. Она снижает потери и повышает надежность сетей.
6	«Умное жилищно-коммунальное хозяйство»	Это современная модель ЖКХ с цифровым управлением ресурсами и ориентацией на устойчивость. Процессы услуг координируются интеллектуальными технологиями с учетом потребителей.
7	«Умное строительство»	Это повышает эффективность управления проектами, снижает сроки и затраты, улучшая качество и устойчивость объектов.
8	«Умный дом»	Концепция обеспечивает безопасность и комфорт через сигнализацию, контроль доступа и мониторинг аварий. Автоматизация управления энергией повышает энергоэффективность.
9	«Умный хокимият»	Система обеспечивает связь жителей с властью и прозрачность управления. Предоставляет цифровые сервисы, документы и оплату налогов.
10	«Умная махалля»	Онлайн-сервисы такси, зарядная инфраструктура и каршеринг улучшают мобильность. Открытые данные и участие жителей повышают занятость и экологический контроль.

*Авторская разработка

В перспективе планируется объединение этих объектов с различными электронными платформами и сервисами, что позволит создать единую цифровую экосистему — своего рода «интернет туристических локаций», обеспечивающий удобство и безопасность для путешественников.

В сфере здравоохранения в Республике Узбекистан реализуется комплексная программа цифровой трансформации системы здравоохранения на 2021–2025 годы.

Основной задачей данной стратегии является внедрение современных информационных решений, совершенствование цифровых сервисов, а также развитие телекоммуникационной и технологической инфраструктуры медицинской отрасли [3].

В рамках цифровизации здравоохранения в стране активно внедряются различные проекты и информационные системы. Так, система «Электронный рецепт» направлена на повышение безопасности и эффективности медикаментозного лечения, а также формирование централизованной базы данных медицинских специалистов.

Информационные платформы «Электронная поликлиника» и «Электронная больница» способствуют повышению качества медицинского обслуживания за счёт автоматизации процессов и создания современной цифровой среды в лечебных учреждениях.

Система «Лаборатория» обеспечивает формирование единого электронного архива результатов анализов, диагностических данных и медицинских изображений, что значительно упрощает доступ к информации и её обработку. Особое значение имеет функционирование единой телемедицинской сети, которая позволяет предоставлять медицинские услуги дистанционно. Благодаря этому пациенты могут получать квалифицированную помощь вне зависимости от места проживания, включая отдалённые и сельские регионы. [4]

Аграрный сектор в Узбекистане занимает стратегически важное место в структуре национальной экономики, выступая одним из ключевых драйверов её роста. Внедряются цифровые платформы, обеспечивающие автоматизацию процессов льготного кредитования сельскохозяйственных производителей, а также повышение прозрачности оказания услуг в аграрной сфере. Формируется единая информационная база субъектов сельского хозяйства, предусматривающая создание электронных профилей землепользователей с присвоением уникальных идентификационных номеров. Существенную роль играет внедрение геоинформационных систем и технологий дистанционного зондирования Земли, позволяющих осуществлять мониторинг сельскохозяйственных угодий, анализировать состояние посевов и своевременно выявлять потенциальные риски. Использование спутниковых данных и аналитических инструментов способствует выработке обоснованных рекомендаций, направленных на повышение урожайности.

Цифровизация сельского хозяйства в Узбекистан формирует основу для повышения конкурентоспособности аграрного сектора, оптимизации производственных процессов и перехода к инновационной модели развития. [5]

Вместе с тем, достижение устойчивых экономических результатов невозможно без учета институциональных условий функционирования рынка. В этой связи особое значение приобретает анализ налогово-тарифной среды, оказывающей непосредственное влияние на формирование ценовой политики и эффективности внешнеэкономической деятельности. Важным элементом институциональной среды выступают международные соглашения об избежании двойного налогообложения, заключённые Узбекистаном с рядом государств, обеспечивающие снижение налоговой нагрузки на трансграничные доходы, включая дивиденды, а также регулируют порядок взаимодействия налоговых органов и обмена информацией. [6]

Таким образом, налогово-правовая среда страны формирует благоприятные условия для привлечения инвестиций и развития экспортной деятельности, одновременно требуя от компаний глубокого понимания действующих регуляторных механизмов.

Заключение

Цифровая трансформация выступает системообразующим фактором модернизации экономики Узбекистан. Реализация масштабных государственных программ, направленных на развитие цифровой инфраструктуры, внедрение инновационных технологий и повышение уровня цифровой грамотности населения, способствует

формированию устойчивой и конкурентоспособной экономической системы. Важным результатом является активное внедрение цифровых решений в ключевые отрасли, включая здравоохранение, сельское хозяйство, энергетику и городскую инфраструктуру. Это обеспечивает повышение эффективности управления ресурсами, улучшение качества предоставляемых услуг и рост производительности. Одновременно значимую роль играет совершенствование налогово-правовой среды, направленной на стимулирование инвестиционной активности и развитие внешнеэкономических связей. Международные соглашения и налоговые механизмы создают дополнительные условия для интеграции страны в мировую экономику. В целом цифровая трансформация в Узбекистан носит комплексный и поступательный характер, формируя основу для долгосрочного экономического роста, инновационного развития и повышения уровня жизни населения.

Литературы

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18.01.2019 №48 «Об утверждении Концепции внедрения технологий «Умный город» в Республике Узбекистан» https://lex.uz/docs/4171074

2. Хабр Карьера статья «Умный город Ташкент: как Visiology BI и Геоинтеллект помогли создать современный ситуационный центр» от 20апреля 2022 года https://habr.com/ru/companies/visiology/articles/662019/

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5124 от 01.05.2023 «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения» https://lex.uz/docs/5434367

4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-140 от 23.02.2021 «О дополнительных мерах по цифровизации системы здравоохранения» https://lex.uz/docs/6450186

5. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-257 от 02.08.2023 «О мерах по внедрению передовых цифровых технологий в сферу сельского хозяйства» https://lex.uz/ru/docs/6553998

6. Правительственный портал Республики Узбекистан, правовые основы международного сотрудничества https://gov.uz/ru/soliq/sections/xalqaro-hamkorlikning-huquqiy-asoslari

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

RISK KOMPONENTLARI: UMUMIYLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich
iqtisod fanlari nomzodi, professor.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: bay_tur58@mail.ru.
ORCID:0000-0002-1386-4364

Annotatsiya. *Iqtisodiy globallashuv jarayoni dunyoning uzluksiz rivojlanish qonuniyatiga mos tarzda va tabiiy ravishda, shu jumladan, xalqaro sug‘urta bozori, xususan, milliy sug‘urta bozorlarining son va sifat xususiyatlariga bevosita bosimli ta’sir o‘tkazmoqda. Shu nuqtai nazardan, muallif tomonidan qator iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ilgari surilgan risk komponentlarining umumiy va o‘ziga xos jihatlari tizimli tarzda umumlashtirganligi e’tiborga molikdir. Maqolada ta’kidlanishicha, iqtisodiyot subyektlari, xususan sug‘urta kompaniyalari risklarining tasnifi, shuningdek, risklarni minimallashtirishning funksional konsepsiyasi doirasida shakllantirilgan qoidalar va universal mezonlarga mos tavsifli yondashuvlarni yaxlit tarzda tizimlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *sug‘urta, sug‘urta riski, sug‘urta riski oqimi, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urta kompaniyasi risklari, sug‘urta kompaniyasi risklari tasnifi, risk komponentlari, umumiy risklar, maxsus risklar, risk konsentratsiyasi, riskni minimallashtirish, risk diversifikatsiyasi, baholash riski, likvidlik riski, prognoz riski, anderrayting riski, tasodifiy xavf riski, risk anitiseleksiyasi.*

КОМПОНЕНТЫ РИСКА: ОБЩЕЕ И ОСОБЕННОЕ

Баймуратов Турсунбай Махкамбаевич
кандидат экономических наук, профессор.
Ташкентский государственнқй
экономический университет
E-mail: bay_tur58@mail.ru.
ORCID:0000-0002-1386-4364

Аннотация. *Процесс глобализации экономики является неразрывно закономерным для мирового развития, и естественным образом влияет на качественные и количественные характеристики как мирового страхового рынка вообще, так и национальных страховых рынков в частности. Автор проанализировал основных компонентов рисков в зависимости от уровня взаимосвязи и обобщил на основе синтеза типологии рисков, предложенные в научных разработках ряда ученых. В статье констатируется, что из-за отсутствия в рамках существующих нормативно-правовых актов на микроуровне принятой классификации страховых рисков компаний, а также регламентов саморегулируемых организаций, систематизации подходов, описывающих риски страховой компании и их комплненты по универсальным признакам, исследование по данной теме является актуальной.*

Ключевые слова: *страхование, страховая компания, страховой риск, риски страховой компании, классификация рисков страховой компании, движение страхового риска, компоненты риска, общие риски, специфические риски, риск концентрации, риск редукции, риск диверсификации, риск оценки, риск ликвидности, риск прогноза, андеррайтерский риск, риск случайной опасности, антиселекция риска.*

RISK COMPONENTS: GENERAL AND SPECIAL

Bamuratov Tursunbay Makhkambaevich
candidate of economics sciences, professor

Tashkent State the University of Economics
E-mail: bay_tur58@mail.ru.
ORCID:0000-0002-1386-4364

Annotation. *The process of economic globalization is inextricably consistent with global development, and naturally affects the qualitative and quantitative characteristics of both the global insurance market in general and national insurance markets in particular. The author analyzed the main components of risks depending on the level of interconnection and summarized, based on the synthesis, the risk typologies proposed in the scientific research of a number of scientists. The article states that due to the lack of an accepted classification of insurance risks of companies at the micro level within the framework of existing regulatory legal acts, as well as regulations of self-regulating organizations, systematization of approaches describing the risks of an insurance company and their components according to universal criteria, research on this topic is relevant.*

Keywords*: insurance, insurance company, insurance risk, insurance company risks, classification of insurance company risks, insurance risk movement, risk components, general risks, specific risks, concentration risk, reduction risk, diversification risk, assessment risk, liquidity risk, forecast risk, underwriting risk, the risk accidental danger, risk antiselection.*

Kirish.

XXI asrning uchinchi o‘n yilliklarida risklarning salmog‘i va intensivligi tabora bormoqda. Zamonaviy jamiyat asta-sekin yuqori riskli jamiyatga aylanmoqda. Bugungi kunda tabora jadal kechayotgan globallashuv jarayoni tabiiy ravishda nafaqat xalqaro moliya, balki makro sug‘urta bozori, o‘z navbatida milliy sug‘urta bozorlarining ham sifat va miqdor xususiyatlariga ham bevosita ta’siri kuzatilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bu jarayonda xalqaro sug‘urta bozorining globallashuvi, tizimli tarzda kapital (pul) oqimi yana-da erkinlashuvi, iqtisodiyot subyektlari faoliyatida, shu jumladan, jismoniy shaxslar hayotida risk ko‘lami ortib borishiga mos nisbatda, kafolatli sug‘urta xizmatlari bilan qamrovni ham oshirish zamirida sug‘urta biznesi haqiqiy raqobatbardosh tarmoqqa aylanmoqda.

Shu bois, bu o‘rinda iqtisodiy munosabatlar ochiq tizim hisoblanishi nuqtai nazaridan, mazkur munosabatlarning ajralmas jabhasi hisoblanadigan milliy moliya bozorining mohiyatiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Ilmiy adabiyotlarda “...moliya bozorining mohiyati quyidagi yondashuvlarga muvofiq:

- moliya bozori kapital bozori sifatida qaralishi nuqtai nazaridan, uning ishlab chiqarish(xizmat ko‘rsatish)dagi rolini;

- moliya bozori mohiyatan moliya sohasi bilan bevosita o‘zaro bog‘liqlikda barcha segmentlarda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni anglatadi” [1].

“Moliya bozori hajm jihatidan jamlama termin hisoblanadi”[2]. Shuni alohida keltirib o‘tish o‘rinliki, mazkur bozorda, odatda moliya sohasining barcha segmentlarini tizimli tarzda qamrab olgan xizmatlar jamlamasi tushiniladi.

Ushbu mavzu doirasidagi tadqiqotning tizimli instrumentariysi, xususan, dinamik yondashuvdan foydalanish shuni ko‘rsatmoqdaki, moliya bozorlarida sodir bo‘layotgan voqeyliklar yangicha talqin etilishi, aynan entropiya[127] , tasodifiylik va shu kabi jarayonlarning zarurligi hamda qaytarilmasligi kabi kategoriyalarning difinitsiyasi mohiyatan o‘zgarishiga omil bo‘layotganligi kuzatilmoqda.

Hozirda moliya bozorida kuzatilayotgan vaziyat uning turli segmentlarida tarkibiy nomutanosibliklar mavjudligini ham namoyon etmoqda. Shu nuqtai nazardan, moliya bozorining ajralmas uzviy tarkibiy qismi bo‘lgan sug‘urta bozorida taklif etilayotgan xizmatlar sifati va qamrovi muayyan subyektlar, ya’ni, sug‘urtalanuvchilar (mol-mulk, hayot, sog‘liq va boshqa

[127]Entropiya (yun.- aylanish, o‘zgarish-noaniqlik darajasi) –tarjima muallifniki. Manba:Безупречность хаоса: что такое энтропия и как жить в полной неопределенности. //https://www.forbes.ru /forbeslife/482498.

manfaatlarni sug‘urtalashdan manfaatdor subyektlar va jismoniy shaxslar) va sug‘urtachilar (sug‘urta shartnomalarini rasmiylashtirgan sug‘urta tashkilotlari) o‘rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi. Mazkur bozorning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadigan sug‘urta kompaniyalari faoliyati samaradorligi risk va uning komponentlarini aniqlash, baholash, sug‘urta biznesi tamoyillariga mosligini hisobga olish bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ortadi.

Ushbu tadqiqot doirasida sug‘urta kompaniyasining risklari bilan bevosita bog‘liqlikda kechadigan jarayonlar aniqlashtiriladi, unga ta’sir etuvchi omillarning tahlili amalga oshirilishi asnosida rivojlantirish istiqbollariga daxldor takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida risk va uning komponentlariga daxldor mohiyatan to‘liqroq tushunchalarga ega bo‘lish, o‘z navbatida, risklarni samarali boshqarish imkoniyatini oshiradi. G.P.Fomin, I.V.Bikova, S.V.Vorobyov, S.A.Ivanova va boshqalarning asarlarida “...risklarning mazmun-mohiyati va tasnifi...”[3] ko‘rib chiqilgan. V.A.Akimov va Yu.I. Sokolov, D.A.Mixaylovskiy va boshqalarning ilmiy ishlanmalarida “...risklarni baholash usullarining o‘ziga xos xususiyatlari...”[4] o‘z aksini topgan.

T. Makning ishlanmalarida taklif etilgan risk turlari e’tiborga molikdir. Uning yondashuviga ko‘ra, “...quyidagi asosiy risk turlari ko‘rsatilgan:

tasodifiy risk (jami yo‘qotishlar nodeterministikligi ehtimoli bois, matematik kutilma atrofida umumiy yo‘qotish(zarar)ning mutlaq faqlanishi (tarqalishi) portfel hajmi bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Shu bois, portfelning yakuniy hajmini mutlaq aniqlik bilan prognozlash mumkin emas);

baholash riski (matematik kutilmaning og‘ishish ehtimoli muayyan bir risk va bir portfel uchun taxmin qilingan jami yo‘qotish statistik ma’lumotlar asosida aniqlanadi);

prognoz riski (o‘tmishdagi tasodifiylik qonuniyatining, masalan, inflyatsiya tufayli, yaqin kelajakda qisman o‘zgarishi ehtimoliga asoslandi);

ahloqiylik riski (zarar ko‘rilishi jarayonida sug‘urtalangan shaxs zarar ko‘lami va hajmiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoliga asoslanib hisoblanadi)”[5].

Bizning fikrimizcha, T.Makning ilmiy ishlanmalarida “...muayyan sug‘urtachining portfeliga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, odatda texnik deb tavsiflanuvchi risklar...”[6] birmuncha batafsil bayon etilgan. Uning tomonidan nafaqat sifat tavsifi, balki miqdor o‘lchovi ham taklif etilgani ushbu tasnifning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshirgan.


Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Mirsodikov, X.Shennayev, T.Baymuratov, I.Abduraxmonov, S.Sherov va boshqalar bugungi kunda “...sug‘urta kompaniyasi risklari va ularning komponentlariga daxldor...”[7] tadqiqotlarni olib borishmoqda, shuningdek, “...biznes-jarayonlarning muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi aynan risk omillar tahlili...” [7] bilan shug‘ullanishmoqda.

Tahlil va natijalar.

Risklarni klassik, neoklassik, gibrid va neyroiqtisodiy risk nazariyalari asosida tizimli o‘rganish jarayoni risk tushunchasining ko‘p qirrali va murakkab tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Klassik yondashuvda risk asosan noaniqlik va ehtimollik bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda kutilayotgan foyda va ehtimoliy yo‘qotishlar o‘rtasidagi nisbat asosiy mezon sifatida qaraladi. Neoklassik nazariya esa riskni subyektiv baholash, ya’ni qaror qabul qiluvchining foyda funksiyasi va riskka nisbatan munosabati orqali tahlil qiladi. Gibrid yondashuv ushbu ikki qarashni birlashtirib, nafaqat matematik va statistik omillarni, balki institutsional, tashkiliy va xulq-atvor jihatlarini ham hisobga oladi. Neyroiqtisodiy yondashuv esa riskni inson miyasi faoliyati, hissiyotlar va psixologik reaksiyalar bilan bog‘lab, qaror qabul qilish jarayonidagi irratsional omillarni ham ochib beradi.

Mazkur nazariyalar asosida olib borilgan tizimli tahlil risklarning umumiy va maxsus komponentlari o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni aniqlash imkonini beradi. Umumiy risk komponentlariga makroiqtisodiy beqarorlik, siyosiy omillar, bozor kon’yunkturasi va global

tendensiyalar kiradi, ular barcha subyektlar faoliyatiga umumiy ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus risk komponentlari esa muayyan loyiha, tarmoq yoki korxona faoliyatiga xos bo‘lib, texnologik, moliyaviy, boshqaruv va operatsion xatarlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, umumiy risklar maxsus risklarning kuchayishiga yoki kamayishiga ta’sir qiladi, aksincha, maxsus risklar ham umumiy risk muhitining shakllanishiga ma’lum darajada hissa qo‘shadi. Shu bois risklarni samarali boshqarish uchun ularni kompleks, tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida o‘rganish zarur hisoblanadi(1-rasm).



***1-rasm.* Risk komponentlarining o‘zaro aloqadorligi[128]**

Shunga asoslanib, maxsus risklarni tavsiflaydigan bo‘lsak, ularning quyidagi turlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi turi:

- *baholash riski*, sug‘urta portfelini tavsiflovchi asosiy matematik miqdorlarni baholashda xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli;

- *prognozlash riski*, prognoz qilingan qiymatlarning o‘zgarishi ehtimoli (qabul qilingan xatolikka nisbatan sezilarli yoki ma’lum bir standart) og‘ishish;

- *anderrayter riski*, risk antiseleksiyasi jarayonida sug‘urtachining javobgarlik hajmi ortishi hisobiga yo‘qotish(zarar) ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi turi:

- *kredit riski*, sug‘urtachining qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foiz stavkasi, kontragentlar va boshqa debitorlarning moliyaviy holati bilan bog‘liq vaziyatning salbiy o‘zgarishi oqibatida yo‘qotish (zarar ko‘rish);

- *bozor riski*, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy instumentlar qiymatining o‘zgarishi va o‘zgaruvchanligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan vaziyatdagi salbiy o‘zgarishlar tufayli yo‘qotish(zarar ko‘rish);

- *likvidlik riski* aktivlar qiymatining keskin pasayishi sababli investitsiya aktivlarini obligatsiya aktivlariga konvertatsiyalashga vaqtincha qobiliyatsizlik yuzaga kelishi ehtimoli

[128]Muallif tomonidan bir qator ilmiy ishlanmalarning sintezi sifatida ishlab chiqilgan, xususan, Risk management standard// The institute of risk management: Acrobat Reader. URL: http://www.theirm.org/publications/documents/Risk _Management_Standard_030820.pdf.; Вяцкова Н.А. Классификация методов анализа и оценки рисков.// C:/Users/Lenova/Downloads/klassifikatsiya-metodov-analiza-i-otsenki-riskov20(2).pdf.; Шапкин А.С. Теория риска и моделирование рисковых ситуаций / А.С. Шапкин, В.А. Шапкин. --М.: Дашков и Ко, 2005.- 880 с. va boshqa.

tarzida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi turi:

-*operatsion risk*, xodimlar tanlovi to‘g‘ri amalga oshirlmaganligi hamda ichki tizim nosozligi yoki tashqi omillar ta’siri ostida yo‘qotish(zarar ko‘rish) ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi turi:

- *konsentratsiya risk*, tahdidlar soni ortishi yoki sug‘urtachi va qayta sug‘urtachining risk transformatsiyasi jarayonidagi kombinatsiyasi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotish(zarar ko‘rish);

- *reduksiya riski*, ortiqcha riskni transformatsiyaga yo‘naltira olmaslik oqibatida yo‘qotish(zarar ko‘rish);

- *diversifikatsiyalash riski*, portfelning inertligi va uni muvozanatlash uchun operatsion choralar ishlab chiqilmaganligi tufayli yo‘qotish(zarar ko‘rish) ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi.

Biroq, mavjud o‘ziga xos biznes modellarining barchasi umumiy tizimli risk, jumladan:

- bozorda yangi o‘yinchilarning paydo bo‘lishi oqibatida kadrlar raqobati;
- tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan risk;
- soliq tartibotining barqaror emasligi riski;
- bozor konyunkturasi noqulayligi riski;
- bozor konsentratsiyasi riski;
- tarmoqlararo hamkorlikning samarasiz rivojlanishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk;
- boshqa risk omillari ta’siri ostida bo‘lishi kuzatiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni hal qilishning eng ustuvor usuli sug‘urta kompaniyasini boshqarish amaliyotida keng qo‘llaniladigan va faoliyatning asosiy jihatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich asosida risklar tasnifini ishlab chiqish hisoblanadi. Shunday tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan biri kombinatsiyalashgan koeffitsiyent yoxud kombinatsiyalashtirilgan sug‘urtaning natijadorligiga asoslanadi.

Bu ko‘rsatkich turli sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sug‘urta bozoridagi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek umumiy sug‘urta turlari hamda ularning aktiv va majburiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan qat’iy nazar, ularni o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Bu o‘rinda, muayyan hisoblash metodlaridan biri quyidagi ko‘rinishda taqdim etilishi mumkin:

$$COMBR = (LL - QR) + \left(\frac{AE}{CP}\right) + \left(\frac{DC}{EP}\right) \qquad (1).$$

Bu o‘rinda, *COMBR* – sug‘urta bo‘yicha kombinatsiyalashgan natija;

LL – zararlilikni baholash;

QR – qayta sug‘urtachining ulushi;

AE - akvizitsion (sotib olish) harajatlar;

CP – hisoblangan mukofot;

DC – bevosita xarajatlar;

EP - ishlab topilgan mukofot.

Shunday qilib, bizning nazarimizga ko‘ra, yuqorida keltirilgan formulaning tarkibiy qismlari sifatida kombinatsiyalashgan natijani sug‘urta kompaniyasining asosiy pul oqimlari shaklida quyidagicha talqin etish mumkin (2-rasm):

$$\textbf{\textit{COMBR = (I) + (II) + (III),}} \ (2)$$


Bu o‘rinda I, II, III - birinchi, ikkinchi va uchinchi tartibdagi pul oqimlari (tartib ustuvorligiga) mos ravishda belgilanadi.

Shartli ravishda sug‘urtachi - sug‘urtalanuvchi, sug‘urtachi - qayta sug‘urtachi o‘rtasida quyidagi:

- *ustuvor tartibdagi* (sug‘urtachi va vositachilar o‘rtasidagi);
- *ikkinchi tartibdagi* (sug‘urtachi va sug‘urta faoliyatida vositachilik qiluvchi boshqa

subyektlar o‘rtasidagi);

- *boshqa pul oqimlari* kuzatilishi mumkin.



Shartli belgilar : - risk bo‘yicha vositachi subyektlar
- pul oqimlari;
- risklarning qoplama ta’motiga transferi.

***2-rasm.* Sug‘urta riski va pul oqimlari harakati[129]**

Risklarni aniqlash, baholash va muayyan qarorni qabul qilish jarayonida risklarga vositachilik qiluvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan pul oqimlariga nisbatan aniq manbalar belgilab qo‘yilishi talab etiladi.

Shartli ravishda sug‘urtachi - sug‘urtalanuvchi, sug‘urtachi - qayta sug‘urtachi o‘rtasida quyidagi:

- *ustuvor tartibdagi* (sug‘urtachi va vositachilar o‘rtasidagi);

- *ikkinchi tartibdagi* (sug‘urtachi va sug‘urta faoliyatida vositachilik qiluvchi boshqa subyektlar o‘rtasidagi);

- *boshqa pul oqimlari* kuzatilishi mumkin.

Risklarni aniqlash, baholash va muayyan qarorni qabul qilish jarayonida risklarga vositachilik qiluvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan pul oqimlariga nisbatan aniq manbalar belgilab qo‘yilishi talab etiladi.

Risklarni boshqarish jarayonini iqtisodiy hisoblash usuli sifatida aktualizatsiyalash uchun uning miqdorini aniqlash hamda ushbu risklarga vositachilik qiluvchi subyektlar o‘rtasida yuzaga keladigan pul oqimlariga nisbatan manbalarni aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Bizning fikrimizcha, risk hodisasi ehtimoli va uning oqibatlari kombinatsiyasi sifatida turli operatsiyalar jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan natijaga ko‘ra, pul oqimlari hajmi va ularning davriyligi o‘zaro farqlanishi mumkin. Shu o‘rinda muayyan risk va uning oqibati sug‘urta kompaniyasi bilan sug‘urta bozorining boshqa subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi aniqlashtirilishiga ham bog‘liqligi kuzatiladi.

Bu o‘rinda tizimli tarzda kechayotgan o‘zaro bog‘liqlikning quyidagi 3(uch)ta asosiy darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin:


[129]Muallif tomonidan bir qator ilmiy ishlanmalarning sintezi sifatida ishlab chiqilgan, xususan, Хуторянский А.С. Формирование профессиональных компетенций работников по управлению рисками в страховых компаниях Специальность: 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством (специализация – Экономика труда) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2009. -24 с. va boshqa.

birinchi daraja - bu bir martalik bitim: risk sug‘urtachi va uning transferi(transformatsiyasi)ga vositachilik qiluvchi boshqa subyekt o‘rtasidagi bir martalik o‘zaro kelishuv zamirida yuzaga keladi (bu jarayon umumiy shartlarni nazarda tutuvchi standart shartnoma rasmiylashtirilishi bilan tavsiflanadi).

ikkinchi daraja - shunga o‘xshash bitimlar to‘plami: risk tomonlar o‘rtasida doimiy ravishda bir nechta bir xil yoki o‘xshash munosabatlar zamirida yuzaga keladi (bu o‘rinda, yana-da samarali boshqarish va boshqa biznes jarayonlariga nisbatan aynanlik ta’minlanishi uchun umumiy shart-sharoitlarni nazarda tutgan standart shartnomalar oqimi mavjudligi bilan tavsiflanadi);

uchinchi daraja – bu bir necha bitimlar to‘plami: risk sug‘urtachi va boshqa subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro tizimli munosabatlar zamirida yuzaga keladi (bu jarayonda standart shartnomalar rasmiylashtirilishi bilan birga, ularning funksionalligini ta’minlashning o‘ziga xos tarzda farqlanuvchi boshqa bitimlar mavjudligi bilan ham tavsiflanadi). Pirovardida, aynan qoplama to‘lovlari va pul oqimlari nazorati talab etiladigan, boshqa shunga o‘xshash operatsiyalar to‘plamlaridagi pud oqimlari hisobidan ta’minlanishi nazarda tutiladi).

Bu jarayonda risklarning o‘zaro bog‘liqlik darajasiga ko‘ra asosiy tip va turlarini aniqlashtirish mumkin (3-rasm).



3 -rasm. **Risklarning o‘zaro bog‘liqliklariga ko‘ra asosiy tip va turlari** [130]

Ushbu aktual va differensial tasnifiga ko‘ra, umumiy va o‘ziga xos guruhlarga ajratilgan risklar, tadqiqotning oldingi o‘rinlarida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarda o‘z aksini topmagan. Sug‘urtada ko‘p sonli sug‘urta obyektlari yoki katta miqdordagi sug‘urta summasiga ega bo‘lgan bir qator obyektlarga bir sug‘urta hodisasi bo‘yicha ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan (toshqin, bo‘ron, zilzila va boshqa) risklar to‘plami mavjud bo‘lib, uning oqibatida katta yo‘qotish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin. Kumulyatsiya, shuningdek, 1 (bir) obyekt uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Risklar transformatsiyasida esa, kumulyatsiya sug‘urta kompaniyasi bir xil risklarni o‘zida qamrab olgan bir qator qayta sug‘urtalash va retrotsessiya shartnomalaridagi ishtiroki jarayonida sodir bo‘lishi mumkin.

Kumulyatsiya, shuningdek, 1 (bir) obyekt uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Qayta

[130]Muallif tomonidan bir qator ilmiy ishlanmalarning sintezi sifatida ishlab chiqilgan, xususan, Risk management standard// The institute of risk management: Acrobat Reader. URL: http://www.theirm.org /publications/documents/Risk_Management_Standard_030820.pdf.; Томас Мак. Математика рискового страхования. М.: Олимп-Бизнес, 2008. 418 с. va boshqa.

sug‘urtalashda esa, kumulyatsiya sug‘urta kompaniyasi bir xil risklarni o‘zida qamrab olgan bir qator qayta sug‘urtalash va retrotsessiya shartnomalaridagi ishtiroki jarayonida sodir bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi tizimli termin va kategoriyalarning toifalariga qisqacha tavsif berish maqsadga muvofiqdir:

risklar kumulyatsiyasi - bu “...bir sug‘urta hodisasining qator sug‘urtalangan obyektlarga, masalan, tabiiy ofatlarda sezilarli yo‘qotishlarga olib keladigan risklar to‘plamini anglatadi”[8]. Kumulyatsiya 1(bir) obyekt uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Risklar transformatsiyasida esa, “...kumulyatsiya sug‘urta kompaniyasi bir xil risklarni qarab olgan bir qator qayta sug‘urtalash va retrotsessiya shartnomalarida ishtirok etgan sharoitda sodir bo‘lishi mumkin”[131].

kumulyativ risk summasi – bu qator obyektlarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan risklar to‘plami bo‘lib, bir xil sug‘urta hodisasi oqibatida sug‘urtalangan obyektlarga yetkazilgan katta sug‘urta summasini anglatadi;

davriy risk kumulyatsiyasi - bu ko‘p sonli yoki sezilarli sug‘urta summasiga ega bo‘lgan bir qator sug‘urtalangan obyektlarga ma’lum davriy oraliqda bir xil sug‘urta hodisasi tarzida namoyon bo‘ladigan yaxlit risklar to‘plami ta’sir qilishi oqibatida yo‘qotish pretsedenti paydo bo‘lishidir;

risk reduksiyasi – bu “...riskni boshqarishda turli ta’sir choralar, xususan maqbul darajada diversifikatsiya, xedjlash yoki sug‘urta riskni pasaytirish yoki minimallashtirish orqali zarar ko‘rish ehtimolini yoki uning potensial miqdorini kamaytirish jarayonidir”[8];

riskning xududiy konsentratsiyasi - sug‘urta kompaniyasining turli mintaqaviy tarkibiy bo‘linmalari portfellarida bir turdagi sug‘urta risklari to‘plamidir;

translyatsiya qila olmaslik riski - sug‘urtachi va qayta sug‘urtachining sug‘urta qoplamasi o‘rtasidagi tafovut tufayli risklarni o‘tkaza olmaslik nazarda tutilmoqda;

transfer riski - bu jarayonda sug‘urta operatsiyasining rentabellik chegarasi pasayishi yuzaga keladi. Xususan, katta summadagi sug‘urta shartnomasi riskini baholashning murakkabligi, uning qiymati sug‘urtachining risk transformatsiyasi operatsiyalari bo‘yicha rentabellik chegarasini belgilash shartlariga javob bermasligi bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, risklar transferi va transformatsiyasida nafaqat rentabellik, balki, sug‘urta (qayta sug‘urta) portfelining ham ishonchliligi sezilarli darajada pasayishi kuzatilishi mumkin;

javobgarlikni taqsimlash riski - bu sug‘urta kompaniyasi va qayta sug‘urtachining risklar transferi va transformatsiyasi portfellari balansini optimallashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatda paritetga mos taqsimotga ko‘ra, kutilishi ehtimoli bo‘lgan risk;

rentabellik pasayishi riski - bu sug‘urta operatsiyalari samaradorligi pasayishi hisobiga yuzaga kelishi mumkin, bu holat, uzoq muddatli istiqbolda, risk transformatsiyasi muayyan darajadagi ishonchlilikni ta’minlashga qaratilganligi bilan izohlanadi, unga mos tarzda yo‘qotish(zarar ko‘rish) past darajada bo‘lishi, pirovardida umumiy rentabellik pasayishiga omil bo‘lgan hollarda namoyon bo‘ladi;

qayta sug‘urtalash antiseleksiyasi riski – bu “...subyektiv risk hisoblanadi”[132] va u yangi portfellarni shakllantirish (innovatsion mahsulotni joriy etish, yangi bozorga chiqish va shu kabi) jarayonlarda, shuningdek, risk anitseleksiyasida sug‘urta kafolatini baholashdagi noaniqlik va muayyan minimal zaxiralarni jadal tashkil qila olmaslik oqibatida yuzaga kelishi mumkin;

risk diversifikatsiyasi – sug‘urtalangan (qayta sug‘urtalangan) 1(bir) risk hodisasidan katta yo‘qotish(zarar)ga yo‘l qo‘ymaslik uchun uni kichik qismlarga bo‘lishda yuzaga keladi;

sug‘urta portfeli diversifikatsiyasi risklari – “...sug‘urtachi portfelining tarkibiy inertligi

[131]Словарь страховых терминов. //https://www.insur-info.ru/dictionary/1006/.

[132]Sug‘urtaning asosiy tamoyili yetkazilgan zararlar uchun qoplama (kompensatsiya) to‘lanishi hisoblanadi, shu bilan birga u boyitishga yo‘naltirilmaganligiga ko‘ra, sug‘urta himoyasining haddan tashqari yuqori darjada belgilanishi subyektiv risk oshishiga omil bo‘ladi – izoh muallifniki. //Антиселекция/субъективнқй риск. //https://www.genre-manuals.com/ru_fin_anti-selection.htm.; Токарева Е.А.Особенности и проблемы рынка страхования рисков природных катастроф. // https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-i-problemy-rynka-strahovaniya-riskov-prirodnyh-katastrof.

oqibatida uning balanslashuvini tezkor rejalashtirish imkoniyati mavjud emasligi” [133] oqibatida yuzaga keladi;

qayta sug‘urta portfeli diversifikatsiyasi risklari – majburiy (obligator)[134] himoyasining yetarli emasligi, qayta sug‘urtachi tomonidan majburiyat bajarilmasligi, risklar transformatsiyasi bozoridagi siyosatning farqlanishi, o‘zaro hamkor subyektlar o‘rtasida kafolatli himoya taqsimoti to‘g‘ri emasligi tufayli qayta sug‘urta vositasidagi himoya samaradorligi pasaytirish oqibatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotish(zarar) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu bozor sig‘imi risk transformatsiyasiga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojga mos emasligi oqibatida sug‘urtachilar obligatsiya kreditlari va hosilaviy moliyaviy instrumentlaridan foydalanish maqsadida faoliyatlarini kapital bozoriga yo‘naltiriganliklari ham kuzatilmoqda

tranzaksiya riski – bir martalik operatsiyalarda huquqiy oqibatlar va kechiktirilgan to‘lovlar ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi;

hisob-kitoblar va kliring riski (ingl. slearing -ravshanlashtirish) - o‘zaro hisob-kitoblar tizimi, shu jumladan, “...tarmoq operatsiyalar samarali tashkil etilmaganligi sababli, muayyan davriy oraliqda majburiyatlarni bajara olmaslik ehtimoli...”[9] oqibatida yuzaga keladi;

kanal(bozor)ning monopollashuv riski - bu sug‘urta mahsulotlarini sotish uchun ma’lum bir savdo kanali yoki ma’lum bozorni monopollashtirish natijasida sotib olish xarajatlari narxining oshishi ehtimoli tarzida namoyon bo‘ladi;

o‘zaro duch biznes riski - bu sotib olishning o‘zaro duch biznes shaklida o‘sishi (bu o‘rinda alohida keltirib o‘tish o‘rinliki, biznesning keltirilgan shakli past rentabillik stavkalariga ega ekanligi) hisobiga sug‘urta operatsiyalari rentabelligi pasayishi ehtimoliga ko‘ra yuzaga keladi;

tashkiliy va jarayonga moslashish riski – bu bir martalik operatsiyalarni amalga oshirishda tashkiliy tuzilmani yaratish va biznes jarayonlarini amalga oshirishda xatolar ehtimoli tarzida yuzaga keladi;

investitsiya riski - investitsiya aktivlari qiymatining pasayishi ehtimoliga ko‘ra kuzatiladi;

firibgarlik riski - sug‘urta kompensatsiyasi hisobiga noqonuniy boyish maqsadida sug‘urta shartnomasiga nisbatan sug‘urtalanuvchi tomonidan firibgarlik harakatlarining ehtimoliga ko‘ra yuzaga keladi;

sug‘urtachi biznesi – bu birinchi navbatda, sug‘urta faoliyatini amalga oshirish, sug‘urta mahsulotlarini yaratish va mijozlar bilan ishlash jarayonidir.

Sug‘urta bozorida raqobat, qoida tariqasida, muayyan kompaniyalarning to‘lov qobiliyati, sohani tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati bilan uzviy bog‘liqlikda raqobatchi subyektlarning sa’yi-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Shu keltirib o‘tish lozimki, “...sug‘urta sohasini o‘zlashtirish, ayniqsa, yirik moliya institutlari uchun murakkab emas, chunki tarqatish (sotish) kanallariga kirishning osonligi, o‘z navbatida, raqobat kuchayishiga omil bo‘ladi. Bu jarayonda o‘z-o‘zidan ayonki, sug‘urtachilar mahsulot(xizmat)larni standartlashtirishlari va mijozlarini qator moliyaviy xizmatlar bilan o‘zaro tizimli bog‘lashlari raqobatni rag‘batlantiradi”[10].

Bu o‘rinda bizning nazarimizga ko‘ra, raqobat muhitida (sug‘urta bozori yuqori darajada raqobatbardosh, yetakchi o‘yinchi - subyektlar uchun nisbatan imtiyozli bo‘lgan sharoitlarda) muayyan kompaniya o‘z o‘rnini topishi nuqtai nazaridan e’tiborga molik quyidagi:

---

[133]Bu o‘rinda, inertlik iqtisodiyotdagi haqiqiy pozitsiyalarni idrok etishga nisbatan reaksiyaning kechikishi anglaniladi – izoh muallifniki. /.Qarang, Решетов В.В., Пестов В.Ю. Проявление инертности в принятии решений при обеспечении конкурентных преимуществ // Экономинфо. 2024. Т. 19, № 3. С. 78-87.

[134]Majburiy (obligatorli) qayta sug‘urta – sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) foizda yoki mutlaq qiymatda ifodalangan risklarning muayyan bir qismini qayta sug‘urtaga o‘tkazish majburiyatini olgan sug‘urta kompaniyasining qayta sug‘urta himoyasini tashkil etish shakllariga muvofiq qayta sug‘urtachi riskning mos qismini oldindan kelishilgan holda qabul qilish majburiyatini olagan shartlarda amalga oshiradi – izoh muallifniki.//Словарь страховых терминов //https://bsoinsur.ru /glossary/slovar/.

- *eng yaxshi mahsulot* (bunga mahsulotning investitsiya komponenti, uning dolzarbligi, sifati va boshqa shu kabi xususiyatlari kiradi). “Potensial iste’molchi yangi mahsulot afzalliklarini ko‘radigan tarzda, ya’ni maxsus sifat xususiyatlari bilan raqobatchilarning o‘xshash mahsulotlari xususiyatlaridan imiji ajralib turadigan tarzda shakllantirilishi talab etiladi”[11].
- *operatsion mukammallik* (bu eng yaxshi natijalarga erishish yo‘lida biznesni boshqarish jarayonlari va tizimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan asosdir);
- *mijozlarga yo‘naltirilganlik* – mijozga yaqinlik kabi asosiy saboqlarga e’tiborini qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonda yetakchi subyektlardan faqat ayrimlari bir davriylikda yuqorida keltirib o‘tilgan saboqlarni qamrab olishlari bilan bir vaqtning o‘zida zarur resurslarni ham jalb etishlari muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birgalikda ushbu muhitda aktivlarni boshqarishning samarali emasligi, mijoz mablag‘ini yo‘qotishi holatiga yo‘l qo‘yilishi, o‘z navbatida, operatsion mukammallik va uning mijozga yo‘naltirilganligini yo‘qqa chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli transformatsiya raqamlashtirishga qaraganda birmuncha kengroq tushunchadir. U nafaqat mavjud biznes jarayonlari avtomatlashtirilishni, balki ularni transformatsiyalash, xususan, boshqaruv tizimi va madaniyati, faoliyatga yondashuv, ayrim holatlarda operatsion modelni va hatto tashkiliy tuzilma ham o‘zgartirilishini o‘z ichiga olishi zarur. Funksional standart texnologiyalar tizimli emasligi sharoitida raqamli transformatsiya yangi jarayonlar va yondashuvlarga mos kelishi talab etilmoqda.

Biroq, maqsadli IT landshaftlarini loyihalash jarayonida e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan asosiy tamoyillar. Bozor nobarqarorligi va muhit o‘zgaruvchanligi sharoitida biznesni jadal tarzda qayta qurish zarurati yuzaga keladi. “Mohiyatan xuddi mantiqiy yondashuv asosida kublarni jamlash singari kutilayotgan muammo va trendlarga tezkorlik bilan moslashuv talab etiladi. Bunday moslashuvchanlik, texnologik nuqtai nazardan, mikroservis arxitekturasi va funksional biznes qobiliyati(Packaged Business Capabilities)ga asoslangan holdagi maxsus loyihalash zamirida ta’minlanadi” [135].

O‘tkazilgan so‘rovnomalarning natijalariga ko‘ra, hozirda sug‘urta kompaniyalarining yarmidan ko‘pi (54%) raqamli transformatsiyani yashab qolish imkoniyati, deb qarashsa, 84% respondentlar esa, aynan transformatsiya keyingi 5-7 yilda faoliyatning zaruriy shartiga aylanishini ta’kidlashmoqda. Ammo shunga qaramasdan, 53 %. kompaniyalar o‘zlarining istiqbolga mo‘ljallangan rejalarida transformatsiyani e’tibordan chetda qoldirganliklarini ham keltirib o‘tish lozim. Bizga ma’lumki, “...raqamli texnologiyalar sug‘urta faoliyatiga turli yo‘llar bilan kirib kelishi mumkin. Bu jarayonda sug‘urta sohasida internetlashtirish, raqamlashtirish yoki individualizatsiya kabi omillarni samarali qo‘llash katta ma’lumotlar (ingl. big data)” [12], internet va sug‘urta tariflari takomillashuvida yangi yondashuvni belgilaydigan tendensiya hisoblanadi.

Bugungi kundagi bir tomondan, texnologik taraqqiyot sug‘urta bozoriga optimal darajadagi funksional instrumentariylar tezkorlikda joriy etilishiga omil bo‘layotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, bu jarayonda sun’iy intellektning jadal rivojlanishi, o‘z navbatida, samarali raqamli transformatsiyadan jamiyatning keng jabhali hayotida, shu jumladan, sug‘urta sohasida ham keng ko‘lamli darajada foydalanish imkoniyatini oshirmoqda

Xulosa.

Hozirda jadal kechayotgan globallashuv jarayonida sug‘urta kompaniyalari faoliyatining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlaridan biri - kombinatsiyalashgan koeffitsiyent asosida pul oqimlari maksimal darajada hisobga olinishini ta’minlashi nuqtai nazaridan, aynan, muayyan risklarni aniqlash, identifikatsiyalash, baholash, hisobga olish va tizimli boshqarishning samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, muayyan risklarni aniqlash, identifikatsiyalash, baholash, hisobga olish va tizimli boshqarishda sug‘urta kompaniyasi sug‘urta bozori subyektlari va sug‘urta faoliyatiga

[135]Страховой рынок в 2024 году: 85% позитива. // https://raexpert.ru/researches/insurance/ins_2024/.

vositachilik qiluvchilar bilan munosabatlarni rivojlantirishning har bir bosqichida turli tavsifdagi risklarga duch kelayotganligi kuzatilmoqda;

ikkinchidan, riskka moslashishda uning yuzaga kelishiga omil bo‘ladigan tahdidli hodisalarga daxldor ma’lumotlar bazasining shakllantirilganligi va qamrovi oshirilib borilayotganligi muhim hisoblanadi. Bu jarayonda noaniqlik yoki chalkashliklar obyektiv sabablarga ko‘ra, risk rivojlanishiga omil bo‘lishiga ko‘ra, bunday vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlash zarurati ortadi. Shu jarayonda ma’lumotlar bazasining qamrovi kengligi risklarni bartaraf etish va vaziyatni barqarorlashtirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda;

uchinchidan, kompaniya biznes jarayonlarida risklarning tipologik belgilariga asoslangan holda umumiy risklarning tavsif belgilari o‘z aksini topgan yondashuvlarda, aynan risklarning miqdoriy o‘lchovlari o‘z ifodasini topmaganligi, taklif etilgan tasniflarning amaliy ahamiyati pasayishiga omil bo‘lganligini keltirib o‘tish o‘rinlidir;

to‘rtinchidan, maxsus (o‘ziga xos) risklarlarga daxldor yondashuvlar, ularni boshqarish nuqtai nazaridan, eng moslashgan hisoblanadi. Ular nafaqat risklarni tasniflash va ularni boshqarish usullarini, balki miqdoriy o‘lchash usullarini ham o‘zida aks ettirganligi e’tiborga molik hisoblanadi;

beshinchidan, sug‘urta kompaniyasida boshqarish jarayonlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan maxsus (o‘ziga xos) risklarga berilgan tasniflarning kamchiliklari shundaki, ularda risklarning alohida belgilariga e’tibor qaratilgan holda, ularda biznesning turli segmentlariga tahdid solishi mumkin bo‘lgan risklar yaxlitlikda o‘z aksini topmaganligi kuzatiladi. Bizning nazarimida bunday holda, tizimni samarali boshqarish uchun barcha tahdidlarning murakkab ta’sirini hisobga olish va ularning yuzaga kelish ehtimoli, subyektlar biznesiga ta’siri va umuman butun sug‘urta tizimining ishonchliligini oqilona aniqlashtirish zarurati ortadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xulosalarga asoslanib, biznes samaradorligini oshirish maqsadiga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishida risklarning asosiy tavsnif belgilarini aniqlashtirish yuzasidan quyidagi takliflar shakllantirildi, xususan:

muvofiqlik tamoyiliga rioya etilishi (bu o‘rinda, sug‘urtachi va sug‘urta faoliyatiga vositachilik qiluvchi hamda riskka duch kelishi ehtimol bo‘lgan sug‘urtalanuvchi (mijoz) o‘rtasidagi aloqalar tizimli qarab olinishi nazarda tutilmoqda);

miqdoriy baholash va rejalashtirish modellariga mos bo‘lishi (...baholash tizimlari “ishonchli kompaniya” kategoriyasiga asoslanishi, noaniqlik va risk sharoitida yuqori darajadagi funksionallikni namoyon etishi nazarda tutilmoqda”[13]);

faoliyatdan olingan ko‘rsatkichlarining taqqoslanishi ta’minlanishi (bu o‘rinda, sug‘urta kompaniyasining rivojlanishi va tashqi bozorga integratsiyasi ko‘rsatkichlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) uchun dolzarb bo‘lishi kerakligi nazarda tutilmoqda);

kompaniyaning boshqaruvi axborotlilik, ishonchlilik va samaradorlik tamoyillariga javob berishi (bu o‘rinda, “...axborotlilik obyektivlik, haqiqiylik, to‘liqlik, aniqlik, tarkibiy muvofiqlik, prognozlilik...”[14] nazarda tutilmoqda).

Biznes samaradorligini oshirish maqsadiga yo‘naltirilgan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishida dinamik yondashuvni qo‘llash, pirovardida, fuksionallik zamirida moliya, shu jumladan, sug‘urta bozorlarida kuzatilayotgan jarayonlarda entropiya, tasodifiylik, zaruriylik va orqaga qaytarilmaslik tamoyillari yangicha talqinda qo‘llanishi zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, biznes jarayonlarida turli operatsiyalar amalga oshirilishi paytida risk hodisasi ehtimoli va uning oqibatlari kombinatsiyasi yuzaga kelishi natijasida pul oqimlari hajmi va ularni bajarish davriyligi o‘zaro farqlanishi mumkin. Hozirgi kundagi vaziyat umuman moliya, shu jumladan, sug‘urta bozrlarining turli segmentlarida tarkibiy nomutanosibliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda shakllanayotgan risk tipologiyasining asosini muayyan bozorda sug‘urta kompaniyasining boshqa subyektlar bilan o‘zaro bog‘liqlik darajasi aniqlashtirilishi talab etilishi, o‘z navbatida, mavzu doirasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мировой финансовый рынок и Россия (обзор 2021).Том 1: монография / Е. А. Звоновой, А. Г. Глебовой, -Москва: КноРус, 2022.- 223 с.; Ничкасова, Ю. О. Финансовый рынок и его роль в инвестиционном обеспечении экономики: монография / Ю. О. Ничкасова. - Саратов : Вузовское образование, 2020. - 319 с.

2. Гусева И. А. Финансовые рынки и институты: учебник и практикум для академического бакалавриата. М.: Юрайт, 2017. С. 13-17 (-347 с.).

3. Фомин Г.П., Сухорукова И.В., Мушруб В.А. Методы оценки операционных рисков в торговле // Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. - 2019. - № 5(107). - С. 156–162.; Быкова И.В. Операционные риски предприятия: понятия, источники, влияние человеческого фактора // Экономика и предпринимательство, № 6(29) 2012. С. 220–222.; Воробьева, Т.В. Управление рисками [Текст]: учебное пособие / Т.В. Воробьева //Томск: Изд-во Том. гос.архит.-строит. ун-та. – 2014. – С. 9.; Иванова С.А. Пути оптимизации законодательства, препятствующего возникновению несанкционированного овердрафта. // Право и государство: теория и практика. - 2021. - № 8. - С. 58–61.

Big Data ning fundamental xususiyatlari Doug Laney (2001) tomonidan taklif qilingan “3V” modelida ifodalangan [6]. Mazkur xususiyatlarni tijorat banki kontekstida quyidagicha talqin qilish mumkin: hajm (Volume) – yillik milliardlab tranzaksiya yozuvi, demografik va xulq-atvor profillari hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni qamrab oluvchi kumulyativ ma’lumotlar bazasi; tezlik (Velocity) – POS-terminal va mobil to‘lov ilovasi kanallari orqali real vaqt rejimida kelayotgan oqimlarni millisekundlar tartibida qayta ishlash zaruriyati; xilma-xillik (Variety) – jadvalli moliyaviy hisobotlar bilan bir qatorda matnli kredit arizalari, ovozli call-center yozuvlari, geolokatsion logger ma’lumotlari va telekom-operator metadatasini integratsiyalash zarurligi.

Keyinchalik bu kontseptsiya haqqoniylik (Veracity – ma’lumotlarning sifati va ishonchliligi) hamda qiymat (Value – ma’lumotlardan biznes uchun amaliy foyda olish imkoniyati) o‘lchamlari bilan to‘ldirilib, “5V” modeliga aylantirildi. Han va boshqalar (2024) tomonidan o‘tkazilgan so‘nggi sistematik tahlilda mazkur “V” xususiyatlari bo‘yicha zamonaviy ilmiy konsensus shakllantirilgan [7].

Bhatore, Mohan va Reddy (2020) tomonidan amalga oshirilgan sistematik adabiyot tahlilida mashinaviy o‘qitishga asoslangan kredit risklarini baholash usullari uch bosqichli ierarxiya asosida tasniflangan [8]. Birinchi bosqich – yagona-algoritmli baholash usullari oilasi, jumladan logistik regressiya, oqitiluvchi daraxt, k-eng yaqin qo‘shnilar va Bayes ehtimollik klassifikatori shu toifaga kiritiladi. Ikkinchi bosqich – ansambl-asosida qurilgan ikkilamchi qarorlar tizimi, bu yerda Random Forest, AdaBoost va XGBoost arxitekturalari kichik bashoratchilar yig‘indisini meta-qaror qabul qilishga yo‘naltiradi hamda yagona modellarga xos xatolarni minimallashtiradi. Uchinchi bosqich – chuqur arxitektura asosidagi neyron yondashuvlar bo‘lib, ular biologik neyron tarmoqlarni taqlid qiluvchi ko‘p qatlamli hisoblash strukturasi shaklida quriladi (LeCun, Bengio va Hinton, 2015) [16] (MLP, konvolyutsion CNN, takrorlanuvchi RNN va LSTM hujayrali ketma-ket modellashtirish tizimlari). Mualliflar tahlili asosida ansambl va gibrid yondashuvlarning yagona modellar ustidan empirik ustunligi tasdiqlangan.

Theodorakopoulos va boshqalar (2025) tomonidan moliyaviy risklarni boshqarishda Big Data ning roli bo‘yicha o‘tkazilgan sistematik tahlilda Big Data analitikasining metodologik samaradorligi ko‘rsatilib, an’anaviy ekonometrik usullar bilan integratsiyalashgan kompleks yondashuvlar tavsiya etilgan [9]. Mhlanga (2024) raqamli moliya texnologiyalarida Big Data ning roli bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda raqamli kreditlash platformalarida ML modellarining qo‘llanilishi moliyaviy inklyuziya darajasini – ya’ni an’anaviy bank xizmatlariga kira olmaydigan aholi qatlamlarini moliya tizimiga jalb qilish darajasini – sezilarli oshirishini ko‘rsatib bergan [10]. Bu O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy tahlil va mavzuli adabiyot obzori usullari qo‘llanilgan. Tahlilning maqsadi kredit skoring modellarini taqqoslash, ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash hamda O‘zbekiston bank sektori uchun amaliy ahamiyatini asoslashdan iborat. Shuningdek, ilmiy abstraktlash, analiz, sintez va ilmiy umumlashtirish kabi metodologik usullardan foydalanilgan.

Tahlilga kiritilgan adabiyotlar quyidagi mezonlar asosida tanlangan: (1) Scopus, Web of Science va Google Scholar ilmiy bazalarida indekslangan tadqiqotlar; (2) sistematik adabiyot tahlillari va benchmark tadqiqotlari ustuvor o‘rinda; (3) 2003-2025-yillar oralig‘idagi nashrlar (kredit skoring sohasidagi asosiy davriy bosqichlarni qamrab olish maqsadida); (4) tijorat banklari kontekstidagi amaliy yo‘naltirilgan tadqiqotlar.

Kredit skoring modellarini qiyosiy baholashda uchta asosiy o‘lchov qo‘llanilgan. Birinchidan, prognoz aniqligi mezonlari: AUC (Area Under the Curve – ROC egri chizig‘i ostidagi maydon, model ishonchliligini 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda baholaydi), Accuracy (umumiy to‘g‘ri bashoratlar ulushi) va F1-balli (aniqlik va to‘liqlikning muvozanatli o‘lchovi). Ikkinchidan, modelning hisoblash murakkabligi va o‘qitish vaqti. Uchinchidan, izohlanuvchanlik (interpretability) – ya’ni regulyator nazoratiga rioya etish nuqtai nazaridan modelning natijalarini insonga tushuntirish imkoniyati. So‘nggi o‘lchov muhim ahamiyatga ega, chunki Yevropa GDPR (Ma’lumotlar Himoyasi To‘g‘risidagi Umumiy Reglament) va IFRS-9 standartlari kredit qarorlarining shaffof asoslanishini talab qiladi.

Tahlil va natijalar

Tahlil natijalariga ko‘ra kredit skoring modellarini quyidagi mezonlar bo‘yicha tizimlashtirish mumkin: tarixiy kelib chiqishi, prognoz aniqligi, hisoblash talablari va

izohlanuvchanlik darajasi. 1-jadvalda asosiy yondashuvlar bo‘yicha sintezlangan qiyosiy tahlil keltirilgan.

1-jadval.

Kredit skoring modellarining qiyosiy xususiyatlari*

Model toifasi	Asosiy algoritmlar	Prognoz aniqligi	Izohlanuvchanlik	Hisoblash talablari
Statistik modellar	Logistik regressiya, diskriminant tahlil	O‘rta	Yuqori (shaffof)	Past
Klassik ML modellar	Qaror daraxtlari, k-NN, SVM, Naive Bayes	O‘rtadan yuqori	O‘rta	O‘rta
Ansambl modellar	Random Forest, XGBoost, Gradient Boosting, AdaBoost	Yuqori	O‘rta	O‘rtadan yuqori
Chuqur o‘rganish (DL)	MLP, CNN, RNN, LSTM, Transformerlar	Eng yuqori	Past (qora quti)	Yuqori
Gibrid modellar	Stacking, Bagging+DL, GA-optimallashtirilgan ansambl	Eng yuqori	Past	Eng yuqori

**Manba: Lessmann va boshqalar (2015) [3], Bhatore va boshqalar (2020) [8], Dastile va boshqalar (2020) [4] ishlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, model murakkabligi oshgan sari prognoz aniqligi ko‘tariladi, biroq izohlanuvchanlik darajasi pasayadi. Bu kredit skoring sohasida muhim metodologik kompromis bo‘lib, banklar zamonaviy modellardan foydalanishda regulyator talablarini ham hisobga olishi shart.

Lessmann va boshqalar (2015) tomonidan o‘tkazilgan benchmark tadqiqotda mualliflar shunday xulosaga keladilar: “ko‘rib chiqilgan zamonaviy klassifikatorlar yetuk benchmark sifatidagi logistik regressiyadan sezilarli darajada yaxshi natija beradi” [3, p. 134]; xususan, ansambl klassifikatorlarning logistik regressiyaga nisbatan AUC ko‘rsatkichi bo‘yicha 1–5 foiz punktigacha ustunligi statistik jihatdan tasdiqlangan. Bu farq kichik ko‘rinishi mumkin, biroq yirik banklar uchun yiliga millionlab dollar tejash imkoniyatiga teng.

Xalqaro yetakchi moliya institutlari ML asosidagi kredit risklarini baholash sohasida sezilarli amaliy tajriba to‘plagan. Goldman Sachs Marquee – institutsional mijozlar uchun analitik ekotizim bo‘lib, MSCI risk faktor modellari va Goldman Sachs ning xususiy volatillik ma’lumotlari API orqali integratsiyalanib, korporativ obligatsiyalar portfellari risklarini baholash, pre-trade likvidlilik ko‘rsatkichlari va kompleks portfel tahlili imkoniyatini ta’minlaydi. Ant Group ekotizimida ko‘p o‘lchamli xususiyatlar arxitekturasi qo‘llanilib, mijozning Alipay platformasidagi tranzaksion izi asosida 3 daqiqaga yaqin qaror sikli ta’minlanadi; bu modelda an’anaviy moliyaviy ma’lumotlardan ko‘ra muqobil signallar majmuasi katta og‘irlik kasb etadi. AQShda peer-to-peer kreditlash bozorida Lending Club an’anaviy moliyaviy vositachilarni chetlab o‘tib, kreditor va qarz oluvchini bevosita bog‘lovchi modelni amalga oshirgan; ZestFinance esa subprime avtokredit segmentida ZAML (Zest Automated Machine Learning) platformasini Prestige Financial Services bilan hamkorlikda joriy qilib, dastlabki 6 oy ichida yangi mijoz oqimini 36 foizga, kreditni tasdiqlash ko‘rsatkichini esa 14 foizga oshirishga erishgan (PR Newswire, 2018). MDH hududida ML-asosli kredit skoring sohasida Rossiya Sber banki yetakchilik qilmoqda: bank o‘zining GigaChat AI ekotizimi va gradient boosting modellari asosida rus tilidagi NLP funksiyalarini birlashtirib, retail va MSME segmentlarida real vaqt rejimida kredit

qarorlari shakllantiriladi.

2-jadval.

Xalqaro yetakchi banklar va fintech kompaniyalarning ML asosidagi kredit skoring yondashuvlari

Tashkilot/Mamlakat	Texnologik yondashuv	Asosiy yutuqlari
Goldman Sachs (AQSh)	Marquee analitik ekotizimi: MSCI risk modellari + GS volatillik ma’lumotlari, GS Quant Python SDK	Korporativ obligatsiyalar portfeli risklarini baholash; institutsional mijozlar uchun pre-trade analitika
Ant Group MYbank (Xitoy)	Real vaqt ML modellari, 3000+ parametr, muqobil ma’lumot manbalari	Mikro-kreditlash; mln-lab kichik biznesga 3 daqiqada kredit
Lending Club (AQSh)	Logistik regressiya + Random Forest, peer-to-peer model	Iste’molchi kreditlashda an’anaviy banklarga muqobil ekotizim
ZestFinance (AQSh)	Chuqur o‘rganish + muqobil ma’lumotlar (kredit tarixisiz iste’molchilar)	Prestige FS bilan hamkorlikda yangi mijoz oqimi +36%, tasdiqlash darajasi +14%, 6 oyda kreditlash hajmi 2x
Sber (Rossiya)	GigaChat AI ekotizimi, gradient boosting, rus tilidagi NLP	MDH hududida ML kredit skoring liderligi

Manba: ochiq manbalar va ilmiy adabiyotlar [3; 8; 10] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son Qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” moliya-bank sohasida intellektual texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi [11]. Strategiyaga muvofiq, banklarda kreditlash, mijozlarning to‘lov qobiliyatini baholash, monitoring va prognozlashtirish vazifalarida intellektual texnologiyalarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Bu strategiya jahon miqyosidagi tendensiyalar bilan to‘liq mos keladi va mahalliy banklar uchun zamonaviy ML asosidagi kredit skoring modellariga o‘tish istiqbollarini ochib beradi.

ML asosidagi kredit skoring modellarini joriy etishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Birinchidan, IFRS-9 standartiga muvofiq kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini hisoblashda foydalaniladigan modellar shaffof bo‘lishi hamda auditorlar tomonidan tekshirilishi mumkin bo‘lishi shart. Chuqur arxitekturalar ko‘p qatlamli noaniqlik xususiyatiga ega: oraliq qatlamlardagi vazn matritsalari va aktivatsiya funksiyalari moliyaviy nazoratchi uchun bevosita oqilona izohlanmaydi, modelning faqat kirish vektori va yakuniy ehtimoliy chiqishi kuzatilarli bo‘ladi, ichki qaror mantiqi esa ko‘p o‘lchamli parametrik fazoda yashiringan holda qoladi – bu hol regulyator funksiyalarini bajarish jarayonida shaffoflik talablariga muvofiqligini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Ikkinchidan, Yevropa Bank Boshqaruvi (European Banking Authority, EBA) tomonidan 2020-yilda e’lon qilingan Big Data va ilg‘or analitika hisobotida ta’kidlanishicha, “ilg‘or analitik vositalar moliyaviy faoliyatda yangi imkoniyatlarni ochadi, biroq bir vaqtning o‘zida mas’ul AI tamoyillariga rioya qilishni talab qiluvchi yangi muammolar tug‘diradi” [12, p. 8]; mazkur tamoyillar tarkibiga adolatlilik (fairness), izohlanuvchanlik (explainability), ma’lumotlar himoyasi va auditga yaroqlilik kiritilgan. Uchinchidan, mahalliy banklarda kredit ma’lumotlar bazalarining tarqoqligi, malakali ma’lumotlar tahlilchilari (Data Scientists) tanqisligi va mavjud IT-arxitekturada ML modellarini integratsiyalash murakkabligi muammolari saqlanib kelmoqda.

Xulosa

Olib borilgan qiyosiy va mavzuli tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Birinchidan, kredit skoring modellari klassik statistik yondashuvlardan zamonaviy chuqur o‘rganish modellariga qadar evolyutsion rivojlanish jarayonini bosib o‘tgan. Tadqiqot natijalari

ansambl klassifikatorlarning (Random Forest, XGBoost, Gradient Boosting) hamda chuqur neyron tarmoqlarining klassik logistik regressiyaga nisbatan empirik ravishda yuqori prognoz aniqligini ta’minlashini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, Big Data texnologiyalari kredit skoringga an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar doirasidan tashqari raqamli iz, mobil to‘lovlar, geolokatsiya va boshqa noan’anaviy ma’lumot manbalarini integratsiyalash imkonini beradi, bu kredit qarorlarining sifatini va tezligini sezilarli oshiradi hamda bank kredit yo‘qotishlarini sezilarli darajada kamaytirishga olib keladi.

Uchinchidan, ML modellarini joriy etishda izohlanuvchanlik va regulyatorga rioya etish talablari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, IFRS-9 va EBA standartlari shaffof modellarni va izohlanuvchan sun’iy intellekt (Explainable AI, XAI – model qarorlarining sabablarini insonga tushuntira oladigan yondashuvlar) usullarini talab qiladi.

O‘zbekiston tijorat banklarida ML asosidagi kredit skoring modellarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur. Birinchidan, banklar darajasida “Kredit ma’lumotlari ekotizimi” kontseptsiyasini ishlab chiqish, ya’ni an’anaviy moliyaviy ma’lumotlar bilan birga muqobil manbalarning (telekom, kommunal to‘lovlar, elektron tijorat) integratsiyasini yo‘lga qo‘yish lozim. Ikkinchidan, kreditlash qarorlarining shaffofligini ta’minlash maqsadida izohlanuvchan AI yondashuvlarini qo‘llash zarur. Jumladan, SHAP usuli (Lundberg va Lee, 2017) [17] mijoz xususiyatlarining (yoshi, daromadi, kredit tarixi va boshqa omillar) yakuniy bahoga aniq miqdorda qancha ulush qo‘shganini raqamli shaklda ko‘rsatadi, LIME esa har bir individual kredit qarori uchun lokal kontekstda asoslantirma yaratib beradi. Mazkur ikki usul birgalikda IFRS-9 va EBA standartlari talab qiladigan shaffoflik darajasini ta’minlaydi.

Uchinchidan, Kredit Axborot Markazi va banklar darajasida birlashgan, sifatli va tarixiy chuqurlikka ega ma’lumotlar bazasini shakllantirish kerak. To‘rtinchidan, mahalliy oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy texnologiyalar va ma’lumotlar tahlili (Data Science) yo‘nalishidagi magistr darajasidagi dasturlarni rivojlantirib, bank sektori uchun malakali kadrlarni tayyorlash zarur.

Tadqiqotning kelajakdagi yo‘nalishi sifatida O‘zbekiston bank sektorida ML asosidagi kredit skoring modellarining empirik samaradorligini baholash, izohlanuvchanlik talablariga rioya qilgan holda, hamda mahalliy ma’lumotlar bazalari va biznes amaliyoti xususiyatlarini hisobga olib, alohida tadqiqotlarda amalga oshirish rejalashtirilgan. Kredit skoringda Big Data ning samarali qo‘llanilishi tijorat banklarini raqamlashtirishning umumiy arxitekturasiga yondashuvlar uchun metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bank for International Settlements. Annual Economic Report 2023. – Basel: BIS, 2023. – 142 p. – URL: https://www.bis.org/publ/arpdf/ar2023e.htm

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2018-2024-yillar. – Toshkent: O‘zR Markaziy banki nashri. – URL: https://cbu.uz/oz/statistics/

3. Lessmann S., Baesens B., Seow H.-V., Thomas L.C. Benchmarking state-of-the-art classification algorithms for credit scoring: An update of research // European Journal of Operational Research. – 2015. – Vol. 247, Issue 1. – P. 124-136. DOI: 10.1016/j.ejor.2015.05.030.

4. Dastile X., Celik T., Potsane M. Statistical and machine learning models in credit scoring: A systematic literature survey // Applied Soft Computing. – 2020. – Vol. 91. – Article 106263. DOI: 10.1016/j.asoc.2020.106263.

5. Khandani A.E., Kim A.J., Lo A.W. Consumer credit-risk models via machine-learning algorithms // Journal of Banking & Finance. – 2010. – Vol. 34, Issue 11. – P. 2767-2787. DOI: 10.1016/j.jbankfin.2010.06.001.

6. Laney D. 3D Data Management: Controlling Data Volume, Velocity, and Variety // META Group Research Note. – 2001. – Vol. 6, No. 70.

7. Han X., Gstrein O.J., Andrikopoulos V. When we talk about Big Data, what do we really mean? Toward a more precise definition of Big Data // Frontiers in Big Data. – 2024. – Vol. 7. – Article 1441869. DOI: 10.3389/fdata.2024.1441869.

8. Bhatore S., Mohan L., Reddy Y.R. Machine learning techniques for credit risk evaluation: a systematic literature review // Journal of Banking and Financial Technology. – 2020. – Vol. 4, Issue 1. – P. 111-138. DOI: 10.1007/s42786-020-00020-3.

9. Theodorakopoulos L., Theodoropoulou A., Bakalis A. Big data in financial risk management: evidence, advances, and open questions: a systematic review // Frontiers in Artificial Intelligence. – 2025. – Vol. 8. – Article 1658375. DOI: 10.3389/frai.2025.1658375.

10. Mhlanga D. The role of big data in financial technology toward financial inclusion // Frontiers in Big Data. – 2024. – Vol. 7. – Article 1184444. DOI: 10.3389/fdata.2024.1184444.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son Qarori “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” // Lex.uz. – URL: https://lex.uz/docs/-7158604

12. European Banking Authority. Report on Big Data and Advanced Analytics // EBA Report EBA/REP/2020/01. – Paris: EBA, January 2020.

13. Baesens B., Van Gestel T., Viaene S., Stepanova M., Suykens J., Vanthienen J. Benchmarking state-of-the-art classification algorithms for credit scoring // Journal of the Operational Research Society. – 2003. – Vol. 54, Issue 6. – P. 627-635.

14. Chen T., Guestrin C. XGBoost: A Scalable Tree Boosting System // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining (KDD ‘16). – San Francisco, 2016. – P. 785-794. DOI: 10.1145/2939672.2939785.

15. Breiman L. Random Forests // Machine Learning. – 2001. – Vol. 45, Issue 1. – P. 5-32. DOI: 10.1023/A:1010933404324.

16. LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. Deep learning // Nature. – 2015. – Vol. 521. – P. 436-444. DOI: 10.1038/nature14539.

17. Lundberg S.M., Lee S.-I. A Unified Approach to Interpreting Model Predictions // Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS). – 2017. – Vol. 30. – P. 4765-4774.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLARNI JALB QILISH VA MOLIYALASHTIRISH

Narzullayeva Xilola Abdukomilovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi
E-mail: xilolaabdukomilovna@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6832-8792

Annotatsiya. *Maqolada investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishning zarurligi asoslangan, 2021-2025-yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’atlari, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni va dinamikasi, kichik tadbirkorlik sub’yektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va ulushi dinamikasi tahlil qilingan, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondining minimal miqdorini shakllantirish talablari va uning o‘zgarishi tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya, xorijiy investitsiya, kredit, moliyalashtirish, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, qo‘shma korxonalar, yalpi ichki mahsulot, kichik tadbirkorlik, asosiy kapital, ustav fondi.*

ПРИВЛЕЧЕНИЕ И ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ И КРЕДИТОВ В ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА

Нарзуллаева Хилола Абдукомиловна

Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: xilolaabdukomilovna@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6832-8792

Аннотация. *В статье анализируются необходимость повышения привлекательности инвестиционного климата, объем и темпы роста инвестиций в основной капитал в 2021-2025 годах, источники финансирования инвестиций в основной капитал, объем иностранных инвестиций и займов в основной капитал, направленных на создание нового основного капитала, количество и динамика предприятий с иностранными инвестициями, динамика объема и доли инвестиций в совокупный основной капитал малых хозяйствующих субъектов, требования к формированию минимального уставного капитала предприятий с иностранными инвестициями и его изменения. На основе результатов исследования разработаны предложения и рекомендации по повышению привлекательности и финансирования иностранных инвестиций.*

Ключевые слова: *инвестиции, иностранные инвестиции, кредит, финансирование, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, совместные предприятия, валовой внутренний продукт, малый бизнес, основной капитал, уставный капитал.*

ATTRACTING AND FINANCING FOREIGN INVESTMENTS AND LOANS INTO THE ECONOMY OF UZBEKISTAN

Narzullaeva Khilola Abdukomilovna

Independent Researcher at Tashkent State University of Economics

E-mail: xilolaabdukomilovna@gmail.com
ORCID: 0009-0006-6832-8792

Abstract. *This article analyzes the need to improve the attractiveness of the investment climate, the volume and growth rate of fixed investment in 2021-2025, sources of financing for fixed investment, the volume of foreign investment and loans in fixed capital aimed at creating new fixed capital, the number and dynamics of enterprises with foreign investment, the dynamics of the volume and share of investments in the total fixed capital of small business entities, requirements for the formation of the minimum authorized capital of enterprises with foreign investment and its changes. Based on the research results, proposals and recommendations for increasing the attractiveness and financing of foreign investment are developed.*

Key words: *investments, foreign investments, credit, financing, investment climate, investment attractiveness, joint ventures, gross domestic product, small business, fixed capital, authorized capital.*

Kirish

O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning dolzarbligi bugungi kunda strategik ahamiyatga ega. Buni bir nechta asosiy omillar bilan qisqacha izohlash mumkin. Birinchidan, tyexnologik yangilanish va modernizatsiya qilish, ikkinchidan, yangi ish o‘rinlarini yaratish, uchinchidan eksport salohiyatini oshirish va to‘rtinchidan infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, “2025-yilda xalqaro loyihalarni moliyalashtirish qiymati 16 foizga va bitimlar soni 12 foizga kamaydi – bu ketma-ket to‘rtinchi yil pasayish bo‘lib, 2019-yilgi darajaga yetdi. Shu bilan birga, global qiymat zanjirlariga bog‘liq va to‘qimachilik, elektronika va mashinasozlik kabi tarif xavflariga duchor bo‘lgan sohalarda loyihalar soni keskin – 25 foizga kamaydi. Xalqaro infratuzilma loyihalari 10 foizga kamaydi” [1]. Fikrimizcha, moliyaviy sharoitlarning yumshashi va chegaralararo tranzaksiyalarning qayta tiklanishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar biroz oshishi mumkin. Biroq, UNCTAD ekspertlarining fikriga ko‘ra, haqiqiy investitsiya faoliyati geosiyosiy keskinliklar, siyosatdagi noaniqlik va global iqtisodiy parchalanish bilan cheklanadi. Muvofiqlashtirilgan choralarsiz global investitsiyalar bir nechta mintaqalar va sohalarda to‘planib qolish xavfini tug‘diradi. Bunday tendensiya investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish orqali xorijiy investitsiya va kreditlarni samarali jalb qilish va uning moliyaviy ta’minotini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Prof. Liesbeth Colen ilmiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikriga ko‘ra, “O‘tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizmini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri kapitalni to‘plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalarga texnologiyalar va bilimlarni jalb qilinishi iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlaydi” [2]. Haqiqatdan ham bunday yondashuv, ayniqsa rivojlanayotgan va o‘tish davrida bo‘lgan iqtisodiyotlar uchun juda muhim, chunki bu mamlakatlar ko‘pincha ichki resurslardan foydalana olishda cheklangan va tashqi investitsiyalarni jalb qilish orqali ularga zarur bo‘lgan texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini o‘zlashtirishi mumkin.

G.M.Galeeva fikriga ko‘ra, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda kontsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta’sir qiladi” [3]. Olimning fikriga ko‘ra, xorijiy investitsiyalarning faqat ayrim mintaqalarga yoki tarmoqlarga qaratilishi boshqa mintaqalarda iqtisodiy rivojlanishning cheklanishiga olib keladi.

Jiyun Cao o‘zining ilmiy tadqiqotida so‘nggi yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xalqaro savdoda ustunlikka ega bo‘layotganini ko‘rsatib bergan. Shuningdek kasaba uyushmalarining mavjudligi sababli mehnat bozori kamchiliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun rag‘batlantirishi mumkinligini va mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini

ilmiy asoslab berishgan [4]. Fikrimizcha, Jiyun Caoning ushbu xulosasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xalqaro savdoda ustunlikka ega bo‘layotganini ko‘rsatib bergan va har tomonlama to‘liq yorita olgan, ammo qo‘shimcha sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini aniqlash va solishtirishda qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanish, guruhlarga ajratgan holda taqqoslash uni yanada to‘ldirgan bo‘lar edi.

Professor D.G‘.G‘ozibekov - “Xorijiy investitsiyalar bir iqtisodiyot subyekti kapitalini o‘zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog‘lash bo‘lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab kapital ko‘chishi yuz beradi” [5] deb ta’rif bergan. Fikrimizcha, xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli o‘laroq, risklar kengligi va huquqiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Bu, ayniqsa, investorlar uchun yangi bozor va iqtisodiy sharoitlarga moslashishni talab qiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Bu investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki texnologiyalarni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksportni oshirish, ijtimoiy va ekologik taraqqiyotni ham rag‘batlantiradi. Shuningdek, ular moliyaviy tizimning mustahkamlanishi va davlat budjetining qo‘llab-quvvatlanishiga xizmat qiladi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston uchun investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishning zarurligi quyidagi omillar bilan xususiyatlanadi:

1. Iqtisodiy rivojlanish va barqaror o‘sishni ta’minlash. Investitsiyalar – iqtisodiyotdagi ustuvorlikdan biri. Yaxshi investitsiya muhiti kelajakdagi iqtisodiy o‘sishni har tomondan qo‘llab-quvvatlaydi, yangi biznes loyihalar paydo bo‘ladi, ish o‘rinlari yaratiladi. Bu alohida strategik ahamiyatga ham ega, chunki iqtisodiyot xalqaro va milliy sarmoya bilan rivojlanadi. 2021-2025-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 236,6 trln. so‘mdan 591,1 trln so‘mga yetdi va ularning hajmi qariyb 2,5 barobarga ko‘paydi. So‘nggi besh yil mobaynida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish sur’atlari o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2024-yilda eng yuqori o‘sish sur’ati – 131,3 foiz kuzatilgan bo‘lsa, joriy davrda o‘sish sur’ati 110,5 foizga teng bo‘ldi (1-rasm).



1-rasm. 2021-2025-yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati [6]

Bunday holat:

– birinchidan, korxonalar, tarmoqlar va iqtisodiyotning moddiy-texnik bazasini yaratish va

yangilash uchun ajratiladigan mablag‘larning uzoq muddat foydalaniladigan asosiy vositalarga yo‘naltirilayotganligini bildiradi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va intensivligini ta’minlash nuqtai nazaridan ijobiy holatdir;

– ikkinchidan, investitsiyalarning mashina, asbob-uskunalar, transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olishga, asbob-uskunalarni montaj qilishga va boshqa kapital ishlarga qilingan xarajatlarning ko‘payib borayotganligini anglatadi va real sektorni rivojlantirish jihatidan ijobiydir;

– uchinchidan, asosiy vositalar yangilansa, ishlab chiqarish quvvatlari oshadi va iqtisodiyotda o‘sish yuzaga keladi. Qurilish, modernizatsiya, yangi korxonalar – barchasi mehnat bozorini qo‘llab-quvvatlaydi. Innovatsiya, avtomatlashtirish va raqamlashtirish uchun asosiy kapitalga sarmoya zarur. Yangilangan uskuna va texnologiyalar arzon, tez va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga yordam beradi. Yo‘llar, logistika, energetika obyektlari iqtisodiyotning barcha sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Investitsiya muhiti jozibadorligini tadqiq etishda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibini tahlil qilishning ahamiyati yuqori bo‘lib, bunda korxona yoki mamlakat iqtisodiyotining “moliyaviy salomatligi” va rivojlanish strategiyasini tushunish uchun eng muhim vositalardan biridir. Tahlil investitsiyalarning qancha qismi xususiy mablag‘lar (foyda va amortizatsiya) va qancha qismi jalb qilingan mablag‘lar (kreditlar, investitsiya fondlari) hisobiga amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Agar xususiy mablag‘lar ulushi yuqori bo‘lsa – korxona moliyaviy jihatdan barqaror va tashqi qarzlarga bog‘lanib qolmagan. Agar jalb qilingan mablag‘lar ko‘p bo‘lsa – bu kengayishdan dalolat berishi mumkin, ammo moliyaviy xatar (qarzni qaytarish majburiyati) ham yuqori bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini baholash uchun manbalar tarkibida markazlashgan mablag‘lar (byudjet mablag‘lari) va markazlashmagan mablag‘lar nisbati ko‘riladi. Byudjet mablag‘larining kamayishi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ko‘payishi iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o‘tayotganini va investitsion muhit yaxshilanayotganini anglatadi. Kreditlarning investitsiya tarkibidagi ulushi bank tizimining real sektorni qanchalik qo‘llab-quvvatlayotganini ko‘rsatadi. Foiz stavkalarining investitsiyalarga ta’sirini aynan shu yerda ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

2021-2025-yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi (foiz hisobida) [7]

№	Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
1.	Respublika byudjeti mablag‘lari	8,8	7,8	5,8	4,6	4,7
2.	Korxona va tashkilotlar mablag‘lari	29,1	31,3	24,1	17,6	15,3
3.	Aholi mablag‘lari	9,0	9,5	9,5	6,4	6,3
4.	Xorijiy investitsiya va kreditlar	42,7	41,6	53,4	67,6	71,4
5.	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	1,3	0,9	0,4	0,8	0,4
6.	Tijorat bank kreditlar va boshqa qarz mablag‘lari	8,0	7,8	6,3	2,6	1,9
Jami		**100**	**100**	**100**	**100**	**100**

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish quyidagi xulosalarni beradi:

– tashqi investitsiyalarga bog‘liqlikning keskin ortishi. Eng ko‘zga tashlanadigan tendensiya – xorijiy investitsiya va kreditlar ulushining o‘sishidir. 2021-yildagi 42,7 foizdan 2025-yilga kelib 71,4 foizgacha ko‘tarilgan. Bundan tendensiya iqtisodiyot “tashqi moliyalashtirish” modeliga o‘tganligini bildiradi. Bu bir tomondan mamlakatning xalqaro investitsion jozibadorligi oshganini anglatsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy barqarorlikning tashqi omillarga (global bozor, geosiyosat) bog‘liqligi kuchayganidan dalolat beradi.

– ichki resurs bazasining cheklanishi. Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari ulushi ikki baravarga, ya’ni 2021-yildagi 29,1 foizdan 2025-yilda 15,3 foizgacha kamaygan. Bunday holat korxonalarning o‘z-o‘zini moliyalashtirish imkoniyati pasayganligini ko‘rsatadi va bu sof foydaning kamayishi yoki ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korxonalar

modernizatsiya uchun ichki zaxiralardan ko‘ra ko‘proq tashqi qarzga tayanmoqda.

– davlatning “investor” sifatidagi rolining qisqarishi. Respublika byudjeti va Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining ulushi izchil kamayib bormoqda (byudjet: 8,8 foizdan 4,7 foizgacha). Bu iqtisodiyotni liberallashtirish va davlat xarajatlarini optimallashtirish siyosatining natijasidir. Davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investor rolidan voz kechib, xususiy va xorijiy kapital uchun maydon bo‘shatib bermoqda.


– bank tizimining investitsion faollikdagi inqirozi. Eng xavotirli ko‘rsatkich – tijorat banklari kreditlarining ulushi 2021-yildagi 8,0 foizdan 2025-yilda atigi 1,9 foizga tushib qolgan. Ichki bank tizimi asosiy kapitalni moliyalashtirishda o‘z mavqeini deyarli yo‘qotgan. Bunga banklardagi resurs bazasining qimmatligi (yuqori foiz stavkalari) yoki banklarning uzoq muddatli "investitsion" kreditlardan ko‘ra qisqa muddatli “iste’mol” kreditlariga e’tibor qaratayotgani sabab bo‘lishi mumkin.

– aholi investitsiyalarining passiv dinamikasi. Aholi mablag‘lari ulushi ham 9,0 foizdan 6,3 foizga tushgan. Bu uy-joy qurilishi va kichik tadbirkorlikda aholining investitsion faolligi sekinlashganini ko‘rsatadi.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar tarkibida tashqi manbalarga (investitsiyalarga) yo‘naltirilgan model shakllangan. Xorijiy kreditlar ulushining haddan tashqari yuqoriligi (70 foizdan baland) kelajakda valyuta riskini oshiradi. Ichki bank va korxona mablag‘larining kamayishi iqtisodiyotning “ichki immuniteti” pastligini anglatadi. Shu munosabat bilan, fikrimizcha, mahalliy korxonalarning foydasini investitsiyaga yo‘naltirishni rag‘batlantirish (soliq imtiyozlari orqali); tijorat banklarining uzoq muddatli investitsion kreditlar berish imkoniyatini kengaytirish (fond bozorini rivojlantirish orqali) hamda investitsiyalar tarkibida xorijiy kapital va ichki mablag‘lar o‘rtasidagi muvozanatni (kamida 50/50 yoki 60/40 nisbatda) tiklash choralarini ko‘rish zarur, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, mazkur dinamika investitsiyalarni moliyalashtirishda tashqi manbalar ustuvorligi shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu ijobiy jihat sifatida qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb etilishini ta’minlasa-da, kelgusida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun ichki moliyaviy manbalarni, xususan, bank-kredit tizimi va korporativ sektor imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiyalarni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. O‘zbekiston hozirda global bozorlarda loyiha va imkoniyatlarni taqdim qilish imkoniyatiga ega. Masalan, davlat tomonidan yangi qonunlar qabul qilinmoqda (“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi), raqamli platforma orqali tashabbuslar jadal tasdiqlanmoqda va byurokratik to‘siqlar kamaytirilmoqda. Shuningdek, xorijiy investorlar bilan muntazam muloqot qilish uchun xorijiy investorlar kengashi tashkil etilgan. Investitsiyalar orqali O‘zbekistonga xalqaro tajriba, texnologiya va bilim ham kirib keladi. Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiya va kreditlar asosiy kapitalni yangilash orqali iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim omil bo‘lmoqda (2-rasm).



2-rasm. 2021-2025-yillarda yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar [8]

Ushbu jadval iqtisodiyotning global kapital bozoriga integratsiyalashuvi va xorijiy kapitalning

sifat jihatidan o‘zgarishini aks ettiradi. Jadvaldagi ikkita asosiy ko‘rsatkichning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan quyidagicha tahlil qilish mumkin:

– xorijiy investitsiyalar oqimining jadal o‘sishi. Birinchi qatorda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning hajmi 2021-yildagi 9,8 birlikdan 2025-yilga kelib 33,5 birlikkacha, ya’ni 3,4 baravarga oshgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatning tashqi investitsion jozibadorligi keskin oshganini va xalqaro moliya institutlarining ishonchi ortganini anglatadi. Bunday o‘sish sur’ati iqtisodiyotning ekstensiv rivojlanishdan intensiv rivojlanish bosqichiga o‘tayotganidan dalolat beradi.

– xorijiy investitsiyalar tarkibidagi sifat o‘zgarishi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar). Ikkinchi qator – jami xorijiy mablag‘lar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushini ko‘rsatadi. U 2021-yildagi 28,8 foizdan 2025-yilda 66,5 foizgacha ko‘tarilgan. Bu jadvalning eng muhim nuqtasidir. Odatda, xorijiy mablag‘lar ikki xil bo‘ladi: kreditlar (qaytarilishi kerak bo‘lgan qarz) va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (investorning o‘zi tavakkal qilib olib kelgan mablag‘i). To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushining 2,3 baravarga ortishi mamlakat iqtisodiyoti uchun “qarz yuki” kamayib, “sheriklik kapitali” ko‘payayotganini anglatadi. Investor faqat pul emas, balki yangi texnologiya va menejmentni ham olib kelgan.

– 2024-yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushining ma’lum darajada pasayishi (45,1 foiz) investitsiya tarkibida vaqtinchalik qarz mablag‘lari ulushi ortishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq 2025-yilda ushbu ko‘rsatkichning keskin o‘sishi investitsiya siyosatining yanada samaralilashganini va investorlar ishonchining mustahkamlanganini bildiradi.

Jadval asosida iqtisodiy rivojlanishning uchta asosiy bosqichini ajratish mumkin: 2021-2022-yillar (tayyorgarlik bosqichi)da investitsiyalar hajmi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi barqaror, ammo sekin o‘sgan. Bu davrda asosiy urg‘u institusional islohotlarga berilgan; 2023-2024-yillar (o‘tish bosqichi)da xorijiy investitsiyalar hajmida katta sakrash (16,0 dan 26,4 ga) kuzatilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 50% atrofida muvozanatlashgan. Bu yirik davlat loyihalariga xorijiy kapital faol jalb qilinganini ko‘rsatadi; 2025-yil (sifat bosqichi)da to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi rekord darajaga (66,5%) chiqqan. Bu iqtisodiyotning tashqi qarzga bo‘lgan ehtiyoji kamayib, xususiy xorijiy kapitalning iqtisodiyotdagi roli hal qiluvchi darajaga yetganini anglatadi.

Bunday tendensiya mamlakatning to‘lov balansini yaxshilaydi va davlatning tashqi qarz yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar – bu qaytarib berilishi shart bo‘lgan qarz emas, balki mamlakat ichida yaratilgan va ishlayotgan yangi korxonalar, ish o‘rinlari va soliq tushumlari demakdir.

3. Qonunchilik va institusional islohotlar. Huquqiy bazaga e’tibor berish juda muhim: sarmoyadorlar huquqlari himoyalangan, bitimlar bajarilishi, bahslar sud orqali hal qilinishi kafolatlangan bo‘lishi kerak. Masalan, Toshkent xalqaro arbitraj markazi tashkil etilgan va bu investorlar uchun muhim mexanizmdir. Xalqaro tashkilotlar ham bu sohani ko‘rib chiqib, islohotlar yo‘lini taklif qilmoqda. Huquqiy va institusional mexanizmlar takomillashtirilsa, investitsiyalash riski pasayadi va yanada ko‘proq investitsiyalar kirib kelishi mumkin. Bunda asosiy e’tibor xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim shakli hisoblangan qo‘shma korxonalar tashkil etishning qonuniy jihatlariga qaratilishi zarur. 2019-yilga qadar mamlakatimiz hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish uchun ustav fondining (ustav kapitalining) kamida 30 foizini chet el investitsiyalari tashkil etishi zarur edi. 30 foizlik minimal chegara iqtisodiy nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan bir qancha to‘siqlarni yuzaga keltirgan. Birinchidan, kirish to‘siqlarining yuqoriligi. Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, bozorga kirish uchun qo‘yilgan har qanday qat’iy ma’muriy cheklov raqobatni kamaytiradi. Ikkinchidan, mablag‘ taqchilligi. Ko‘pgina innovasion startaplar yoki xizmat ko‘rsatish sohasidagi kompaniyalar katta kapital bilan emas, balki nou-xau bilan kirib keladi. Ular uchun 30 foizlik ulushni naqd pul yoki mulk ko‘rinishida shakllantirish ortiqcha moliyaviy yuk bo‘lgan. Uchinchidan, diversifikatsiya va tavakkalchilik. Investorlar odatda yangi va notanish bozorlarga kirishda “bosqichma-bosqich strategiya”dan foydalanadilar. To‘rtinchidan, ehtiyotkorlik prinsipi. Chet el investori dastlab kichik ulush (masalan, 10-15%) bilan kirib, biznes muhitini

o‘rganmoqchi bo‘ladi. 30 foizlik majburiyat esa investorni hali o‘zi ishonchi komil bo‘lmagan bozorga kattaroq mablag‘ tikishga majbur qilgan. Bu esa tavakkalchilikni oshirib, ko‘plab potensial hamkorlarni to‘xtatib qolgan. Beshinchidan, kapital tuzilmasining nomutanosibligi. Korporativ boshqaruvda kapital tuzilmasi korxonaning ehtiyojidan kelib chiqib shakllanishi lozim. Agar mahalliy hamkor kuchli moddiy bazaga ega bo‘lsa-yu, xorijiy hamkor faqat texnologiya olib kirsa, texnologiyaning qiymati kapitalning 30 foiziga yetmasligi mumkin edi. Natijada, korxonani qo‘shma korxona sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun sun’iy ravishda kapitalni ko‘paytirish yoki xorijiy ulushni asossiz oshirishga to‘g‘ri kelgan. Oltinchidan, imtiyozlardan foydalanishdagi tengsizlik. O‘sha davrdagi qonunchilikka ko‘ra, qo‘shma korxona maqomiga ega korxonalarga katta soliq va bojxona imtiyozlari berilgan. 30 foizlik chegara tufayli 29 foiz ulushga ega investor bilan 30 foiz ulushga ega investor o‘rtasida keskin farq (diskriminatsiya) yuzaga kelgan. Bu bozordagi tabiiy muvozanatni buzib, investitsiyalarni iqtisodiy samadorlik uchun emas, balki “imtiyoz olish” uchun yo‘naltirilishiga sabab bo‘lgan. Qolaversa, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan me’yorga muvofiq, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona deganda ustav kapitalida kamida 10 foiz chet el investitsiyasi bo‘lgan korxona tushuniladi. Aksariyat taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ushbu chegara amal qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil etiladigan korxonalar aksiyalari va ustav fondidagi chet el investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizga kamaytirish, istiqbolda esa ushbu ko‘rsatkichni 10 foiz darajasida belgilash maqsadga muvofiqdir.* Ilmiy nuqtai nazardan, 30 foizlik chegaraning bekor qilinishi va 15 foizga tushirilishi (hamda minimal ustav kapitali miqdorining kamaytirilishi), kelajakda ushbu ko‘rsatkichni 10 foiz qilib belgilash investitsiya muhitining jozibadorligini yanada yaxshilaydi. Bunday qadam to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining diversifikatsiyalanishiga, kichik va yuqori texnologik kompaniyalarning kirib kelishiga hamda mamlakatning xalqaro reytinglar va indekslar (Iqtisodiy samaradorlik, Global raqobatbardoshlik, Boshqaruv sifati, Global innovatsiyalar indeksi)dagi mavqei yaxshilanishiga xizmat qildi. Bunday o‘zgarish investorga “majburiyat” emas, balki “tanlov” berish orqali bozor jozibadorligini yanadi oshiradi. Buni quyidagi 2-jadval asosida ko‘rib chiqamiz:

2-jadval

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondining minimal miqdorini shakllantirish talablari va uning o‘zgarishi [9]


Ko‘rsatkich	**30 foizlik tartib (eski)**	**15 foizlik tartib (amaldagi)**	**10 foizlik tartib (istiqbolda)**
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun ustav fondining minimal miqdori	150 000 AQSH dollari	400 mln. so‘m	400 mln. so‘m
Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarda chet el investitsiyalarining minimal ulushi	45 000 AQSH dollari	60 mln. so‘m	40 mln. so‘m
Investor uchun risk darajasi	Yuqori (kapital konsentratsiyasi)	O‘rtacha	Past (diversifikatsiya imkoni)
Kichik investorlar soni	Cheklangan	Kengaygan	Maksimal
Mahalliy sheriklar ulushi	70 foizgacha	85 foizgacha	90 foizgacha

Minimal ulushning kamayishi bir vaqtning o‘zida ko‘proq xorijiy kompaniyalarni jalb qiladi. 30 foizlik talabda 10 ta investor kelgan bo‘lsa, 10 foizlik talabda nazariy jihatdan 30 tagacha investor kichik ulushlar bilan bozorga kirishi mumkin. Ko‘p hollarda xorijiy kompaniyalar katta pul emas, balki nou-xau va texnologiya olib kirishni xohlaydi. 30 foizlik cheklov texnologiyaning qiymati kapitalning uchdan biriga yetmagan hollarda to‘siq bo‘lar edi. 10-15 foizlik chegara innovasion kompaniyalarga yengillik beradi. Minimal ulushning pastligi mahalliy tadbirkorlarga korxona ustidan nazoratni (85-90%) saqlab qolgan holda xorijiy kapitalni jalb qilish imkonini beradi. Ulushning 30 foizdan 15 foizga,

keyinchalik 10 foizga tushirilishi investitsiyaviy jozibadorlikni ta’minlaydi. Bu nafaqat kapital miqdorini, balki investorlar “sifati” va “soni”ni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) metodologiyasiga ko‘ra, 10 foizlik ulush – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya deb tan olinishi uchun minimal ko‘rsatkich hisoblanadi. Agar ulush 10 foizdan past bo‘lsa, bu “portfel investitsiyasi” (shunchaki foyda olish uchun sotib olingan aksiya) hisoblanadi. Agar ulush 10 foiz va undan yuqori bo‘lsa, bu investorning korxona boshqaruvida strategik ishtirok etish niyati borligini anglatadi. 10 foizlik chegaraning belgilanishi O‘zbekiston statistikasini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtiradi va mamlakatning investitsiyaviy reyting (indeks)lardagi o‘rnini yanada yaxshilaydi.

2020-2025-yillarda O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 4203 taga ko‘paygan bir sharoitda qo‘shma korxonalar soni ham o‘sib bormoqda (3-rasm).



3-rasm. 2020-2025-yillarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni va dinamikasi [10]

Jadvalda eng e’tiborli jihat – xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar sonining har yili izchil oshib borishidir. 2020-yildagi 1715 tadan 2025-yilga kelib, 4247 tagacha ko‘paygan. Bu qariyb 2,5 baravarlik o‘sish demakdir. Ushbu o‘sish yuqorida biz muhokama qilgan “investitsiyaviy ostona”ning pasaytirilishi (30 foizdan 15 foizga) va biznes muhitining liberallashtirilishi natijasidir. Kichik ulush bilan kirish imkoniyati ko‘proq xorijiy sub’yektlarni bozorga jalb qilgan. 2020-yilda xorijiy korxonalar jami korxonalarning bor-yo‘g‘i 0,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,0 foizga yetgan. Xorijiy korxonalar ulushining 1 foizga yetishi ijobiy ko‘rsatkich, biroq rivojlanayotgan davlatlar uchun bu raqamni 3-5 foizgacha olib chiqish imkoniyati mavjud. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ustav fondida xorijiy investitsiyalar ulushini 10 foizgacha tushirish taklifi, fikrimizcha, ushbu trendni yanada tezlashtiradi. Bu nafaqat yirik zavodlar, balki yuqori texnologik kichik va o‘rta xorijiy korxonalarning ko‘payishiga olib keladi. Xorijiy korxonalar sonining o‘sishi yangi ish o‘rinlari, zamonaviy boshqaruv va eksport salohiyatining oshishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Garchi umumiy korxonalar soni 2023–2024-yillarda tebranishlar (kamayish) kuzatilgan bo‘lsa-da, xorijiy korxonalar soni o‘sishda davom etgan. Bu ichki iqtisodiy kon’yunkturadan qat’i nazar, xorijiy investorlarning O‘zbekiston bozoriga bo‘lgan strategik qiziqishi barqarorligini anglatadi.

4. Tarmoqlar: infratuzilma va maxsus iqtisodiy zonalar. Infratuzilma (transport, energetika, sanoat)ni rivojlantirish bilan investitsiya imkoniyatlari yanada kengayishi mumkin. Hozirda O‘zbekistonda 149 ta kichik sanoat zonasi va 21 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalar investorlarga turli moliyaviy imtiyozlar va preferensiyalar berish orqali jozibadorlikni oshiradi.


5. Shaffoflik va korrupsiyani kamaytirish. Korrupsiya, byurokratiya va qonunlardagi noaniqliklar – investorlar uchun katta to‘siqdir. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda shaffoflikni oshirish yo‘li bilan sarmoyadorlarga ishonch berish mumkin – bu investorlar uchun juda muhim jihatdir.

6. Risklarni boshqarish va investitsiyalarni kafolatlash. Investorlar uchun huquqiy xavf-

xatarlar (kontraktlar, bahslar)ni kamaytirish zarur. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu xalqaro va milliy investorlar uchun jozibadorlikni yanada oshiradi.

7. Iqtisodiy diversifikatsiya. Faqat bitta tarmoqqa (masalan, tabiiy resurslarga) tayyor bo‘lish yuqori xatarli. Investitsiya muhitini jozibador qilib diversifikatsiya qilish – boshqa sohalarga (IT-axborot texnologiyalari, sanoat, qishloq xo‘jaligi va h.k.) sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratadi. Bu ham mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

8. Kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zarurligi va dolzarbligi. Kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zarurligi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ifodalanadi: iqtisodiy o‘sish va texnologik taraqqiyot; bandlik va daromadlar oshishi; innovatsiyalar va raqobatbardoshlikning kuchayishi; hududiy va tarmoq diversifikatsiyasi; soliq bazasining kengayishi; ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishi. Quyidagi 2.5-rasmda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlikning investitsiyaviy faolligi keskin oshayotganini ko‘rsatadi. Rasmning birinchi qatori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mutlaq qiymati (trillion so‘mda) yildan-yilga tezlashib borayotganini ko‘rsatmoqda. 2020-yildagi 96,6 trln so‘mdan 2025-yilga kelib 362,9 trln so‘mgacha o‘sgan. 5 yil ichida investitsiyalar hajmi qariyb 3,7 baravarga oshgan. Bu iqtisodiyotda kapitallashuv jarayoni juda faol ketayotganini va kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlari kengayganini anglatadi. Ikkinchi qatordagi foiz ko‘rsatkichlari jami investitsiyalar tarkibida kichik biznesning roli naqadar oshganini ko‘rsatadi. 2020-yilda kichik biznesning ulushi 46,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 61,4 foizga yetgan. Bu iqtisodiyotning “markazlashmagan” holatga o‘tayotganini isbotlaydi. Ya’ni, investitsiyalar endilikda nafaqat davlat yoki yirik korxonalar hisobiga, balki asosan kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda. 60 foizdan yuqori ko‘rsatkich – bu iqtisodiyotning drayveri to‘liq xususiy va kichik sektorga o‘tganining belgisidir.



Bevosita soliqqa tortish ma’muriyatchiligi, bevosita soliqlar guruhi va ularning iqtisodiyot

raqobatbardoshligiga ta’siri iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan. Jumladan, professor Sh.Toshmatov o‘zining dissertatsiyasi ishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri undiriladigan soliqlar har qanday korxonaning xarajatiga kirishini qayd etgan[2].

Iqtisodchi olim D.Daminov tomonidan to‘g‘ri soliqlarning ilmiy ta’rifi ishlab chiqilgan va uning ta’kidlashicha, to‘g‘ri soliqlar yuridik yoki jismoniy shaxslarning foyda yoki daromadidan undiriladi, ular soliq to‘lovchining moliyaviy faoliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi[3].

Professor A.Islamkulov budjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta’minlash yo‘llari mavzusida ilmiy izlanish olib borgan. Mazkur tadqiqot ishida bevosita soliqlar bo‘yicha imtiyozlar ko‘lami kengligidan kelib chiqib, bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlarini hisoblashda aniqlangan tafovutlarni budjetga moliyaviy jarimalar qo‘llagan holda undirish amaliyotini joriy etishni taklif etgan[4].

Dotsent H.Yangiboyev bevosita soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish borasida izlanish olib borib, ushbu soliqlarni hisoblash mexanizmini takomillashtirish borasida bir qator ilmiy takliflar ishlab chiqqan. Xususan, turistik hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlari bilan shug‘ulanuvchi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 1 foiz miqdorida belgilash taklif qilingan[5].

PhD R.Xo‘jaqulovning qayd etishicha, foyda solig‘i bo‘yicha ayrim soliq to‘lovchilar uchun soliq yukini keskin oshib ketishini oldini olish maqsadida adolatli soliq stavkalarini belgilash, maxsus iqtisodiy zona hududida faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig‘i imtiyozlarini qo‘llash tartibini belgilash, foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak (avans) to‘lovlarini hisoblab chiqish, to‘lash va soliq hisobotlarini taqdim etish foyda solig‘ini qulay undirishga shart-sharoit yaratadi[6].

Professor N.Ashurovaning ilmiy xulosasiga ko‘ra soliq yukini optimallashtirish maqsadida foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq stavkasining pasaytirilishi budjet daromadlarining ortishiga, soliq yukining kamayishiga hamda yalpi ichki mahsulotning ko‘payishiga olib keladi[7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Bevosita soliqlar asosida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashni tadqiq qilish davomida kuzatuv, statistik guruhlash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, deduksiya hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan har qanday iqtisodiy siyosatning negizida aholi farovonligini ta’minlash yotadi. Aholi uchun farovon hayot sharoitlarini yaratishda budjet daromadlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, budjet mablag‘lari fuqarolar turmush darajasini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni moliyalashtirishga sarflanadi. Yurtimizda ham aholining turmush sharoitlarini yuksaltirish borasida budjet tushumlari barqarorligini ta’minlashga ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Respublikamiz budjet daromadlari turli xil manbalardan shakllanib, amaldagi normativ qoidalarga muvofiq ularning quyidagi 5 ta guruhi mavjud:

- bevosita soliqlar;
- bilvosita soliqlar;
- resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i;
- dividendlar;
- boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar.


Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar hisobidan shakllanadi va uning tarikibidagi muhim manbalardan biri bevosita soliqlar hisoblanadi. Bugungi kunda bevosita soliqlar tarkibi uchta soliq turidan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagi rasmda keltirilgan.



1 - rasm. Bevosita soliqlar tarkibi [9]

Yuqoridagi 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bevosita soliqlar tarkibiga foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i kiradi. Ushbu soliqlarning o‘ziga xos xususiyatii shundan iboratki, ularning barchasi soliq to‘lovchilarning foydasi va daromadidan undiriladi.

Mamlakat soliq tizimi budjet tushumlarini barqarorligini ta’minlash bilan birga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda qo‘llaniladigan samarali fiskal dastaklaridan biri hisoblanadi. Bunda soliqlar past soliq yuki, iqtisodiy o‘sishni ragbatlantirish, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish hamda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish orqali raqobatbaroshlikka ijobiy ta’sir qiladi. Shu maqsadda, O‘zbekistonda bevosita soliqlar yukini kamaytirish uchun soliq stavkalarini pasaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2018-yilda soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilinib, ushbu konsepsiya bilan bevosita soliqqa tortish tartibi soddalashtirildi va soliq stavkalari pasaytirildi[10]. Keyingi yillarda mamlakatimizda bevosita soliqlar bazaviy stavkalari miqdorining o‘zgarishini quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin.



2 - rasm. Bevosita soliqlar bazaviy stavkalarining o‘zgarishi dinamikasi, foizda


*Izoh: * 2015-2017 yillarda foyda solig‘i stavkasining tarkibida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i stavkasi inobatga olingan.*

*** Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i progressiv stavkasining eng yuqori miqdori olingan.*

Manba: Soliq stavkalari belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi 2 – rasm ma’lumotlari asosida 2015-2024 yillarda mamlakatimizda bevosita soliqlar bazaviy stavkalarining o‘zgarishi dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu davrda uchala soliq turi stavkasi ham pasaygan. Jumladan, 2015-2024 yillar mobaynida foyda solig‘i stavkasi 15,5 foizdan 15 foizga, aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 6 foizdan 4 foizga va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi 23 foizdan 12 foizga kamaygan. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bevosita soliq stavkalari soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi asosida sezilarli miqdorda kamaygan hamda ularning miqdori oxirgi besh yilda o‘zgarmagan.


Shuningdek, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va tadbirkorlik subyektlar o‘rtasidagi bevosita soliq yuki darajasidagi farqni bartaraf etishga qaratilgan soliq siyosati amalga oshirildi. Jumladan, soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019-yildan yillik aylanmasi 1 milliard so‘mdan oshgan korxonalar aylanmadan olinadigan soliqdan foyda solig‘ini to‘lashga o‘tkazildi. Natijada foyda solig‘ini to‘lovchilar soni yuqori sur’atlarda oshib bormoqda (3-rasm).



3 - rasm. Foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar sonining o‘zgarishi dinamikasi [11]

Mazkur 3 – rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, foyda solig‘i to‘lovchilar soni 2015-2018 yillarda 12,3 mingtadan 7,6 mingtaga kamaygan, biroq 2019-yilda 53,9 mingtaga oshgan va 2024-yilda 203,6 mingtaga yetgan. Xuddi shunga o‘xshash tarzda aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar soni 2015-2018 yillarda 185,8 mingtadan 150,1 mingtaga kamaygan, ammo 2019-yilda 208,8 mingtaga ko‘paygan va 2024-yilda 273,8 mingtani tashkil etgan. Umuman olganda, bevosita soliqqa tortish ma’muriyatchiligining takomillashtirilishi natijasida so‘nggi yillarda foyda solig‘i to‘lovchilar soni izchillik bilan oshib bormoqda, aksincha aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar soni o‘sishi sekinlashmoqda.

Bevosita soliqlar ma’muriyatchiligini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlarning ya’ni ushbu soliq turlari stavkasining pasaytirilishi hamda soliq solishdagi mutanosibliklarning bartaraf etilishining samaradorligini baholash uchun ushbu soliq guruhi tushumlariga e’tibor qaratish lozim. Shu maqsadda bevosita soliqlar tushumi va uning budjet daromadlaridagi ulushi tahlil qilindi (4 - rasm).



4 - rasm. Bevosita soliqlar tushumi va uning budjet daromadlaridagi ulushi tahlili [10]

Yuqoridagi 4 – rasm ma’lumotlari asosida respublikamizda 2015-2024-yillarda bevosita soliqlar tushumi va uning budjet daromadlaridagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, ikkala ko‘rsatkich ham o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, bevosita soliqlar tushumi miqdori 2015-yildan 2024-yilgacha 8 798,4 mlrd.so‘mdan 90 889,8 mlrd.so‘mga ya’ni 10 karraga oshgan. Bevosita soliqlar tushumining budjet daromadlaridagi salmog‘i 2024-yilda 45,5 foizni tashkil etgan va bu miqdor 2015 yilga nisbatan taqqoslaganda 21 foizga yoki 1,8 barobarga o‘sgan. Bevosita soliqlar tushumidagi sezilarli o‘zgarishlar ham 2019-yildan ya’ni soliq konsepsiyasi amalga kiritilgan davrda va undan keyingi yillarda kuzatilgan. Bundan ko‘rinadiki, bevosita soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq solish tartibi birxillashtirilishi hamda soliq ma’muriyatchiligining soddalashtirilishi bevosita soliqlar tushumi oshishiga ijobiy ta’sir qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda bevosita soliqlar orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bevosita soliq yukini kamaytirish maqsadida ushbu soliq stavkalari pasaytirilgan va past soliq stavkalari o‘zgarishsiz saqlanib qolinmoqda. Shuningdek, sog‘lom raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlash uchun bevosita soliqqa tortish rejimini tanlash bo‘yicha belgilangan mezonlar takomillashtirilib, foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi mavjud soliq yuki miqdoridagi farqlar qisqartirilgan. Bundan tashqari, bevosita soliqlarni hisoblab chiqarish soddalashtirilgan hamda soliq solish tartiblari birxillashtirilgan. Buning natijasida soliq to‘lovchilarning ishlab topgan foyda va daromadi miqdori ko‘payib, bevosita soliqlar tushumi yuqori sur’atlarda oshgan. Qolaversa, bevosita soliqqa tortishdagi mazkur yo‘nalishdagi islohotlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirgan holda uning barqaror rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. Shu bois, kelgusida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida bevosita soliqqa tortish yukini pasaytirish, soliq solishdagi nomutanosibliklarni qisqartirish hamda soliqlarni hisoblab chiqarishni soddalashtirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish zarur.

Bundan tashqari, yurtimizda keyingi yillarda bevosita soliqlar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish uchun yashil iqtisodiyotni rag‘batlantish, soliq solishni birxillashtirish,

xufyona iqtisodiyotni qisqartirish hamda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan qator tadbirlar belgilandi. Bu borada quyidagi tadbirlarni alohida qayd etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish uchun foyda solig‘idan doimiy imtiyoz ya’ni nol foiz stavka joriy qilindi;

- davlat ishtirokidagi barcha yuridik shaxslardan ajratma va dividendlar hisoblash uchun ushbu korxonalar tarkibidagi korxonalar bo‘yicha ham dividend (ajratma)lar undirilishi belgilandi;

- biznes subyektlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va soliq yukini teng taqsimlash uchun aylanmadan olinadigan soliqning qat’iy summadagi stavkasi bekor qilindi;

- tadbirkorlik subyektlarida norasmiy bandlik va ish haqini kamaytirish uchun davlat soliq xizmati organlariga maxsus vakolatli organning ruxsatisiz tadbirkorlik subyektlarida haqiqatdagi xodimlar soni va ish haqi miqdorining soliq hisobotiga muvofiqligi yuzasidan tekshirish o‘tkazish huquqi berildi;

- tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida teng raqobat sharoitlarini ta’minlash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish borasida yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat’iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bekor qilinib, aylanmadan olinadigan soliqning 1 foiz stavkasi joriy qilindi.

O‘ylaymizki, bevosita soliqqa tortish ma’muriyatchiligini takomillashtirish borasida belgilangan ushbu tadbirlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlagan holda uning barqaror taraqqiy etishi va aholi farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni

2. Тошматов Ш.А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари: и.ф.д . илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008.

3. Даминов Д.Ш. Ўзбекистон солиқ тизимида тўғри солиқларни ҳисоблаш механизмини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011.

4. Исламкулов А.Х. Бюджет даромадларида бевосита солиқлар тушуми барқарорлигини таъминлаш йўллари: иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012.

5. Янгибоев Ҳ.А. Бевосита солиқларни ҳисоблаш ва ундириш механизмини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2022.

6. Xo‘jaqulov R.Y. Budjet daromadlarini shakllantirishda to‘g‘ri soliqlarning ahamiyatini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023.

7. Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш: и.ф.д. (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son qarori.

10. http://www.imv.uz// - Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti

11. http://www.soliq.uz// - Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Aminov Farrux Farxadovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Email: Aminov1982@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari, mavjud muammolar hamda xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari, jumladan venchur kapital, davlat-xususiy sheriklik, kraudfanding, grant tizimlari va portfelli boshqaruv yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion loyihalarni davlat va xususiy sheriklar mablag‘lari asosida qo‘shma moliyalashtirishda xususiy sheriklarning kamida 30 foizlik ulushli ishtirokini ta’minlash hamda investitsiyalarni qaytarishning shaffof mexanizmi asosida “Matching Grants” tizimini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada innovatsion loyihalarni risk darajasi, strategik ustuvorligi va iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib “yuqori salohiyat”, “takomillashtirishga muhtoj” va “past ustuvorlik” toifalariga ajratish asosida portfelli yondashuvni qo‘llashning afzalliklari yoritilgan. Shu bilan birga, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda raqamli texnologiyalar, fintech platformalari va texnologik transfer mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, investitsion muhit jozibadorligini oshirish va mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, moliyalashtirish mexanizmi, venchur kapital, davlat-xususiy sheriklik, “Matching Grants”, portfelli yondashuv, investitsiya, startap, kraudfanding, texnologik transfer, risklarni boshqarish, innovatsion iqtisodiyot, fintech, investitsion muhit, grant tizimi, texnopark, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, iqtisodiy samaradorlik.*

PROSPECTS FOR IMPROVING THE MECHANISM FOR FINANCING INNOVATIVE PROJECTS IN UZBEKISTAN

Aminov Farrukh Farkhadovich

Tashkent State University of Economics
independent researcher
Email: Aminov1982@gmail.com

Abstract. *This article examines the prospects for improving the financing mechanism for innovative projects in Uzbekistan, existing problems, and the adaptation of foreign experience to the national economy. The study analyzes modern mechanisms for financing innovative projects, including venture capital, public-private partnerships, crowdfunding, grant systems, and portfolio management approaches. Additionally, the necessity of ensuring at least 30 percent share participation of private partners in the joint financing of innovative projects based on state and private partners’ funds and the introduction of the "Matching Grants" system based on a transparent mechanism for investment return is substantiated. The article highlights the advantages of applying a portfolio approach based on categorizing innovative projects into "high potential," "requiring improvement," and "low priority" based on their risk level, strategic priority, and economic efficiency. At the same time, the importance of digital technologies, fintech platforms, and technology transfer mechanisms in financing innovative projects is revealed. The research results will serve to support innovative activities, increase the attractiveness of the investment climate, and ensure the country’s long-term economic growth.*

Keywords: *Innovation, innovative project, innovative activity, financing mechanism, venture capital, public-private partnership, "Matching Grants," portfolio approach, investment, startup, crowdfunding, technology transfer, risk management, innovative economy, fintech, investment environment, grant system, technopark, commercialization of scientific developments, economic efficiency.*

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ФИНАНСИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аминов Фаррух Фархадович

Ташкентский государственный экономический университет
независимый исследователь
Email: Aminov1982@gmail.com

Аннотация. *В данной статье исследуются перспективы совершенствования механизма финансирования инновационных проектов в Узбекистане, существующие проблемы и вопросы адаптации зарубежного опыта к национальной экономике. В ходе исследования были проанализированы современные механизмы финансирования инновационных проектов, включая венчурный капитал, государственно-частное партнерство, краудфандинг, грантовые системы и подходы к портфельному управлению. Также обоснована необходимость обеспечения не менее 30-процентного долевого участия частных партнеров в совместном финансировании инновационных проектов на основе средств государственных и частных партнеров, а также внедрения системы “Matching Grants” на основе прозрачного механизма возврата инвестиций. В статье освещаются преимущества применения портфельного подхода на основе разделения инновационных проектов на категории "высокий потенциал," "нуждающийся в совершенствовании" и "низкий приоритет" исходя из уровня риска, стратегической приоритетности и экономической эффективности. При этом раскрывается значимость цифровых технологий, финтех-платформ и механизмов трансфера технологий в финансировании инновационных проектов. Результаты исследования будут способствовать поддержке инновационной деятельности, повышению привлекательности инвестиционного климата и обеспечению долгосрочного экономического роста страны.*

Ключевые слова: *Инновации, инновационный проект, инновационная деятельность, механизм финансирования, венчурный капитал, государственно-частное партнерство, "Matching Grants," портфельный подход, инвестиции, стартап, краудфандинг, технологический трансфер, управление рисками, инновационная экономика, финтех, инвестиционная среда, грантовая система, технопарк, коммерциализация научных разработок, экономическая эффективность.*

Kirish.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlashning asosiy omili innovatsion faoliyat hisoblanadi. Innovatsion loyihalar milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, yangi texnologiyalar yaratish va joriy etish, shuningdek, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, innovatsion loyihalar odatda yuqori xavf-xatarga ega bo‘lib, katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu sababli, xalqaro moliya institutlarining ushbu sohadagi roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki (World Bank Group, 2023), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) (International Finance Corporation, 2023), Osiyo rivojlanish banki (Asian Development Bank, 2024) va boshqa xalqaro moliya institutlari innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, texnik yordam ko‘rsatish va bilim almashish platformalarini yaratish orqali rivojlanayotgan

mamlakatlarning innovatsion potentsialini oshirishga yordam bermoqda.

Xalqaro moliya institutlarining innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashdagi roli nafaqat moliyaviy yordam ko‘rsatishdan iborat, balki strategik yo‘nalishlarni belgilash, eng yaxshi xalqaro tajribalarni tarqatish va institutlashtirish jarayonlarini kuchaytirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu institutlar rivojlanayotgan mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar (ITEI) sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish, universitetlar va tadqiqot markazlarining salohiyatini oshirish, shuningdek, innovatsion ekotizimning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ular startup kompaniyalar va kichik innovatsion korxonalarning rivojlanishi uchun maxsus moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etishda faol ishtirok etmoqda.

Jahon iqtisodiyotining raqamlashtirish jarayonida xalqaro moliya institutlarining o‘rni yanada muhim bo‘lib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, blokchain, Internet of Things (IoT) va boshqa ilg‘or texnologiyalar sohasidagi innovatsion loyihalar katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Xalqaro moliya institutlari bu sohada nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish, balki risk kapital fondlarini yaratish, texnoparklarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish orqali ham yordam bermoqda. Shuningdek, ular kiberbezopaslik, ma’lumotlar himoyasi va raqamli huquqiy asoslarni rivojlantirish kabi muhim masalalarda ham texnik yordam ko‘rsatmoqda.

Klimat o‘zgarishi va barqaror rivojlanish maqsadlari kontekstida innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash xalqaro moliya institutlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalari sohasidagi innovatsion loyihalar maxsus e’tibor qozonmoqda. Xalqaro moliya institutlari bu sohada "yashil obligatsiyalar" chiqarish, kabon fond mexanizmlarini yaratish va ekologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun maxsus moliyalashtirish instrumentlarini ishlab chiqmoqda. Shu bilan birga, ular mamlakatlarning milliy innovatsion tizimlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida qayta qurish bo‘yicha strategik maslahatlar bermoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro moliya institutlarining yordam ko‘rsatish usullari tobora murakkablashib bormoqda. Oddiy kreditlar berishdan tashqari, ular texnik yordam ko‘rsatish, bilim almashish dasturlari, mentorlik xizmatlari va sektorlar bo‘yicha ixtisoslashgan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini taklif etmoqda. Shu bilan birga, mahalliy moliya institutlari va xususiy sektorning salohiyatini oshirish, innovatsion ekotizimning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida uzoq muddatli strategik hamkorlik dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu yondashuv mamlakatlarning mustaqil innovatsion rivojlanish qobiliyatini oshirishga yordam bermoqda va tashqi moliyaviy qaram bo‘lishni kamaytirmoqda.

Xalqaro moliya institutlarining innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash faoliyatida regional hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi kabi mintaqalarda regional rivojlanish banklari va moliya institutlari mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqmoqda. Bu dasturlar mintaqaro savdo-sotiqni rivojlantirish, texnologik hamkorlikni kuchaytirish va regional innovatsion markazlarni yaratish maqsadlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mamlakatlar o‘rtasida innovatsion loyihalar bo‘yicha hamkorlikni rag‘batlantirish va yaxshi tajribalarni almashish uchun maxsus platformalar yaratilmoqda.

Kelajakda xalqaro moliya institutlarining innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashdagi rolining yanada kuchayishi kutilmoqda. Yaqin o‘n yil ichida sun’iy intellekt, kvant texnologiyalar, biotexnologiya va kosmik texnologiyalar sohasidagi loyihalar uchun katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab qilinadi. Xalqaro moliya institutlari bu sohada yangi moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, xavf-xatarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish va innovatsion loyihalarning ijtimoiy ta’sirini baholash bo‘yicha yangi yondashuvlar qo‘llash zarurligiga duch kelmoqda. Shu bilan birga, ular raqamli transformatsiya, climate tech va bioeconomy kabi yangi sohalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun o‘z strategiyalarini

doimiy ravishda yangilab turishlari kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, Professor S.Elmirzayev innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, O‘zbekistonda innovatsion loyihalarning asosiy muammosi uzoq muddatli va arzon moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bog‘liq. Shu sababli u korporativ obligatsiyalar, innovatsion aksiyalar va venchur kapital bozorlarini rivojlantirishni taklif qiladi. Olim innovatsion iqtisodiyotda bank kreditlari bilan bir qatorda kapital bozori vositalari ham faol ishlashi kerakligini asoslaydi. S.Elmirzayevning qarashlariga ko‘ra, rivojlangan davlatlar tajribasida innovatsion korxonalarni moliyalashtirishda fond bozori muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, NASDAQ va London Stock Exchange kabi texnologik kompaniyalar uchun ixtisoslashgan platformalar innovatsion biznes rivojlanishini tezlashtirgan. O‘zbekistonda ham innovatsion startaplar uchun alohida listing platformalarini tashkil etish investitsion faollikni oshiradi. Shuningdek, olim davlat tomonidan innovatsion loyihalarga soliq imtiyozlari berilishi xususiy investorlarning qiziqishini oshirishini ta’kidlaydi[1]. U innovatsion loyihalar uchun kafolat fondlarini tashkil etish orqali risklarni kamaytirish mumkinligini asoslaydi.

Bahodir Qo‘shanov innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ustuvor yo‘nalish sifatida baholaydi. Uning fikricha, innovatsion loyihalar yuqori riskka ega bo‘lgani sababli xususiy investorlar ko‘pincha ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Shu bois davlatning kafolatlari va subsidiyalari investitsion muhitni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Olim Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya tajribalarini tahlil qilib, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda texnoparklar va innovatsion klasterlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Uning fikricha, O‘zbekistonda “IT Park”, “Yashnobod” texnoparki kabi innovatsion hududlarni kengaytirish va ularga xalqaro investorlarni jalb qilish lozim. B.Qo‘shanov shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini qayd etadi. Jahon banki, Islom taraqqiyot banki va Osiyo taraqqiyot banki mablag‘lari innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin[2].

Muxtor Hamidov innovatsion iqtisodiyotda venchur moliyalashtirish tizimini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, O‘zbekistonda innovatsion startaplar uchun dastlabki kapital yetishmovchiligi mavjud bo‘lib, bu ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga to‘sqinlik qilmoqda. Olim AQShdagi “Silicon Valley” tajribasini misol qilib, venchur fondlari va biznes farishtalar innovatsion rivojlanishning asosiy drayveri ekanligini ko‘rsatadi. U O‘zbekistonda ham venchur fondlarini tashkil etish va ularni soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirishni taklif etadi. Hamidovning ta’kidlashicha, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish faqat mablag‘ ajratish bilan cheklanmasligi kerak. U mentoring, konsalting va texnologik transfer xizmatlari bilan integratsiyalashgan tizim yaratish zarurligini qayd etadi[3].

Shodmonqul G‘afurov innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda raqamli moliya texnologiyalarining rolini alohida ta’kidlaydi. U kraudfanding, fintech platformalari va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish innovatsion biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishini asoslaydi. Olimning fikricha, O‘zbekistonda an’anaviy bank tizimi innovatsion startaplarni moliyalashtirishga yetarli darajada moslashmagan. Shu sababli muqobil moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish lozim. U Buyuk Britaniya va Estoniya tajribasini misol qilib, elektron investitsiya platformalari orqali kichik innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy etishni taklif qiladi. G‘afurov shuningdek, innovatsion loyihalar monitoringini raqamlashtirish orqali mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkinligini qayd etadi[4].

Dilorom Teshaboyeva innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda ilm-fan va biznes integratsiyasini muhim omil sifatida baholaydi. Uning fikricha, O‘zbekistonda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish darajasi past bo‘lib, bunga moliyaviy mexanizmlarning yetarli

emasligi sabab bo‘lmoqda. Olimaning qarashlariga ko‘ra, universitetlar huzurida innovatsion fondlar va startap markazlarini tashkil etish zarur. U AQSh universitetlari tajribasida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali katta iqtisodiy samaraga erishilganini ta’kidlaydi.

Teshaboyeva davlat grantlari bilan bir qatorda xususiy sektorning ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalarini rag‘batlantirish lozimligini qayd etadi. Shu maqsadda ilmiy tadqiqot xarajatlari uchun soliq chegirmalari joriy etilishi taklif etiladi[5].

Farrux Yoqubov innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro tajribalarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, rivojlangan davlatlarda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus davlat fondlari faoliyat yuritadi va ular startaplarni dastlabki bosqichda qo‘llab-quvvatlaydi. Yoqubov Janubiy Koreyaning innovatsion siyosatini tahlil qilib, davlatning uzoq muddatli strategiyasi innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili ekanligini ko‘rsatadi. U O‘zbekistonda ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha yagona milliy strategiya ishlab chiqishni taklif qiladi. Shuningdek, olim innovatsion loyihalar samaradorligini baholashning zamonaviy metodologiyalarini joriy etish zarurligini qayd etadi. Bu investorlar uchun loyihalarning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi[6].

Sergey Glazyev innovatsion rivojlanishda davlatning strategik roli ustuvor ekanligini asoslaydi. U innovatsion loyihalarni uzoq muddatli kreditlash va davlat kafolatlari orqali qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish uchun milliy rivojlanish banklari faoliyatini kengaytirish kerak[7].

Yevgeniy Balatskiy innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat subsidiyalari va innovatsion fondlar muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. U davlat investitsiyalari xususiy kapitalni jalb qilish uchun katalizator vazifasini bajarishini asoslaydi[8].

Natalya Ivanova milliy innovatsion tizimni shakllantirishda universitetlar va ilmiy markazlarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. U ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun maxsus grant tizimlarini joriy etishni taklif qiladi[9].

Valeriy Makarov innovatsion iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, fintech platformalari investitsiya jarayonlarini soddalashtiradi[10].

Olga Golichenko innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro texnologik transfer va innovatsion klasterlarning ahamiyatini asoslaydi. U davlatning innovatsion siyosati bilan xususiy kapital uyg‘unlashuvi muhimligini ta’kidlaydi[11].

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi eng jiddiy muammolardan biri davlat budjetining innovatsion sektorni qo‘llab-quvvatlashda yagona moliyaviy manba sifatida xizmat qilishidir. Bunday vaziyatda davlat resurslari ustidagi yuk haddan tashqari oshib ketadi va innovatsion loyihalarning umumiy moliyalashtirish hajmi cheklangan bo‘lib qoladi. Davlat budjetining imkoniyatlari ham har doim cheksiz emas, budjet xarajatlari turli xil ijtimoiy va iqtisodiy sohalar o‘rtasida taqsimlanishi sababli innovatsion sektorga ajratiladigan mablag‘lar miqdori ehtiyojlarni to‘liq qoplay olmaydi. Natijada, ko‘plab istiqbolli loyihalar yetarli moliyaviy yordam ola olmasdan to‘xtab qolmoqda yoki kichik miqyosda amalga oshirilishga majbur bo‘lmoqda.

Yana bir jiddiy muammo davlat tomonidan moliyalashtiriladigan innovatsion loyihalarning bozor talablariga to‘liq mos kelmasligida namoyon bo‘ladi. Davlat tuzilmalari ko‘pincha

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

loyihalarni ilmiy yoki strategik ahamiyati nuqtai nazaridan baholaydi, ammo ularning kommercial salohiyati va bozordagi real talab darajasini har doim ham aniq belgilay olmaydi. Bunday yondashuvda moliyalashtiriladigan loyihalarning bir qismi ilmiy jihatdan qiziqarli bo‘lishi mumkin, ammo ularning tijoriy muvaffaqiyatga erishishi shubhali bo‘lib qoladi. Natijada, davlat resurslari ajratilgan loyihalar ko‘pincha tugatilgan ilmiy-tadqiqot hisobotlari shaklida qolib, bozorga chiqariladigan mahsulot yoki xizmat darajasiga yetkazilmaydi.

Xususiy investorlarning innovatsion sektorga jalb etilishidagi yetishmovchilik ham mavjud tizimning jiddiy kamchiligi hisoblanadi. Yakka tartibda yuqori riskli innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish ko‘pgina xususiy investorlar uchun maqbul emas, chunki ular potentsial yo‘qotishlarni o‘z zimmasiga olishni xohlamaydi. Bank va sug‘urta institutlari innovatsion loyihalarni baholash uchun zarur ekspertizaga ega emasliklari sababli ularni kreditlash yoki sug‘urtalashdan o‘zlarini tortmoqdalar. Venchur kapital bozori esa mamlakatda hali yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa innovatsion sektorga jalb etiladigan xususiy investitsiyalar hajmini sezilarli darajada cheklaydi.

Mavjud moliyalashtirish modelida investitsiyalarni qaytarish va davlat resurslarini qayta investitsiyalash mexanizmlarining yetishmovchiligi ham muhim muammo sifatida e’tirof etiladi. Davlat tomonidan ajratilgan grantlar ko‘pincha qaytarilmaydigan mablag‘lar shaklida taqdim etiladi, hatto loyiha muvaffaqiyatli bo‘lib, sezilarli foyda keltirsa ham. Bunday yondashuv davlat budjetiga jiddiy yuk tushiradi va innovatsion sektorni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan barqaror moliyaviy aylanmani ta’minlay olmaydi. Mazkur muammolarning kompleks yechimi sifatida davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirgan holda qo‘shma moliyalashtirish mexanizmini joriy etish zarurati paydo bo‘lmoqda. Yuqorida bayon etilgan muammolarning samarali yechimi sifatida davlat va xususiy sheriklar mablag‘lari hisobidan innovatsion loyihalarni qo‘shma moliyalashtirishda xususiy sheriklarning o‘ttiz foiz ulushli ishtirokini ta’minlash hamda investitsiyalarni qaytarishning shaffof tuzilmasi tamoyili asosida “Matching Grants”ni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida innovatsion loyihalarga jalb etiladigan umumiy moliyaviy resurslar hajmi sezilarli darajada oshadi va davlat budjetiga tushadigan yuk yengillashadi. Xususiy sheriklarning o‘ttiz foiz ulushli ishtiroki orqali davlat tomonidan ajratilgan har bir so‘m qo‘shimcha xususiy investitsiyalarni jalb qilish vositasiga aylanadi, bu esa multiplikator effekti orqali innovatsion sektorning umumiy moliyalashtirish hajmini kengaytiradi. Natijada, mamlakatda amalga oshiriladigan innovatsion loyihalar soni va miqyosi sezilarli darajada o‘sadi, davlat resurslarining samarali ishlatilishi ta’minlanadi va innovatsion sektorda yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Matching Grants mexanizmining joriy etilishi loyihalarning bozor talablariga moslashish darajasini sezilarli ravishda yaxshilaydi va ularning kommercial muvaffaqiyat ehtimolini oshiradi. Xususiy sherik o‘z mablag‘larini sarflashdan oldin loyihaning iqtisodiy asoslanishini, texnik amalga oshirilishini va bozor salohiyatini chuqur tahlil qiladi. Bu o‘z navbatida loyihalarni saralashning qo‘shimcha filtri vazifasini bajaradi va davlat resurslarining samarasiz loyihalarga sarflanishini bartaraf etadi. Bundan tashqari, xususiy sheriklar o‘z biznes tajribasi, boshqaruv ko‘nikmalari va bozor bilimlari asosida loyihalarni amalga oshirish jarayonida muhim qarorlar qabul qilishda ishtirok etadilar, bu esa loyihalarning tijoriy muvaffaqiyatga erishish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Investitsiyalarni qaytarishning shaffof tuzilmasi davlat resurslarining qayta investitsiyalanish jarayonini ta’minlaydi va innovatsion ekotizimning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam moliyaviy zamin yaratadi. Muvaffaqiyatli loyihalardan qaytarilgan mablag‘lar yangi innovatsion tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi, bu esa davlat budjetidan qo‘shimcha ajratmalar zarurati yo‘q bo‘lgan holatda ham innovatsion sektorni qo‘llab-quvvatlashda davom etish imkonini beradi. Aylanma fond modeliga o‘tish davlat investitsiyalarining uzoq muddatli samaradorligini ta’minlaydi va innovatsion siyosatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, shaffof tuzilma korrupsion xavflarni minimallashtiradi, har bir tomonning huquq

va majburiyatlarini aniq belgilab beradi va sheriklik munosabatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Uzoq muddatli istiqbolda ushbu taklif O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikning yangi madaniyatini shakllantiradi va innovatsion sektorning sifat jihatidan o‘zgarishini ta’minlaydi. Xususiy investorlar, jumladan, xorijiy venchur fondlar va biznes farishtalar mahalliy innovatsion bozorga faol kirib keladilar, chunki ular davlatning hamkorligi orqali o‘z risklarini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Innovatsion korxonalar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun nafaqat moliyaviy resurslarga, balki professional ekspertiza, biznes aloqalari va bozor bilimlariga ham ega bo‘lishadi. Pirovardida, Matching Grants mexanizmi mamlakatda innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, eksport salohiyatining oshishi va bilimga asoslangan iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonidagi eng murakkab muammolardan biri cheklangan budjet sharoitida turli xil loyihalar o‘rtasida resurslarni samarali taqsimlash zaruratidir. Davlat va moliya institutlarining mavjud mablag‘lari har doim ham cheksiz emas va budjet imkoniyatlari muayyan chegaralarga ega. Bunday vaziyatda barcha taqdim etilgan loyihalarni teng ravishda qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yo‘q va resurslar ustuvor yo‘nalishlarda jamlanishi zarur. Biroq, an’anaviy yondashuvda loyihalar ko‘pincha alohida-alohida ko‘rib chiqiladi va ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi, umumiy strategik maqsadlarga mosligi yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada, mablag‘lar bo‘linib ketadi, kichik miqyosli ko‘plab loyihalarga sarflanadi va ulardan birortasi ham sezilarli darajada katta natijaga erisha olmaydi.

Risklarni boshqarishning samarali tizimi yo‘qligi ham mavjud moliyalashtirish modelining jiddiy kamchiligi hisoblanadi. Innovatsion loyihalar o‘z tabiatiga ko‘ra yuqori riskli bo‘lib, ularning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli sezilarli. Agar resurslar bir necha yirik loyihaga jamlansa, ularning muvaffaqiyatsizligi katta moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Aksincha, agar mablag‘lar haddan tashqari ko‘p loyihaga sochilsa, ularning hech biri yetarli moliyalashtirish ololmaydi va to‘liq amalga oshirilmaydi. Mavjud tizimda risklarni diversifikatsiya qilish va loyihalarning umumiy portfelini boshqarish bo‘yicha aniq metodologiya yo‘q, bu esa investitsion qarorlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Strategik ustuvorliklarning izchil amalga oshirilishidagi qiyinchiliklar ham muhim muammo sifatida e’tirof etiladi. Davlat innovatsion siyosatining strategik maqsadlari va konkret loyihalarni moliyalashtirish qarorlari o‘rtasida har doim ham aniq bog‘liqlik mavjud emas. Loyihalar alohida-alohida baholanayotganda, ularning milliy ustuvorliklar bilan muvofiqligi yuzaki tarzda ko‘rib chiqiladi, natijada moliyaviy resurslar strategik maqsadlardan uzoq bo‘lgan tashabbuslarga ham sarflanishi mumkin. Bu esa innovatsion siyosatning umumiy yo‘naltirilganligini pasaytiradi va davlat tomonidan belgilangan strategik ustuvorliklarning to‘liq amalga oshirilishini sekinlashtiradi.

Loyihalarni differentsiyalashning aniq mezonlari yo‘qligi natijasida moliyaviy resurslar yuqori salohiyatga ega va kam salomli loyihalar o‘rtasida teng ravishda taqsimlanmoqda. Yuqori istiqbolli loyihalar zarur miqdorda moliyaviy yordam ololmasligi sababli to‘liq potensialini ro‘yobga chiqara olmaydi, kam istiqbolli loyihalar esa ortiqcha resurslarni iste’mol qilib, davlat budjetiga keraksiz yuk tushiradi. Bunday vaziyatda investitsiyalarning umumiy qaytarimi pasayadi va innovatsion siyosatning iqtisodiy samarasi cheklanadi. Mazkur muammolarning kompleks yechimi sifatida portfelli yondashuv asosida loyihalarni boshqarish va resurslarni qayta taqsimlash mexanizmini joriy etish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Yuqorida bayon etilgan muammolarning samarali yechimi sifatida risklar, strategik ustuvorliklar va budjetning o‘n besh foizgacha cheklanganligini hisobga olgan holda loyihalar to‘plamini portfelli yondashuv asosida “yuqori salohiyat”, “takomillashtirishga muhtoj” va “past ustuvorlik” toifalariga ajratish hamda investitsiyalarni eng yuqori qaytarimga ega loyihalar foydasiga qayta taqsimlash kerakdir. Mazkur amaliyotning joriy etilishi natijasida innovatsion loyihalarni boshqarish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi va cheklangan budjet

sharoitida resurslarning eng maqbul taqsimlanishi ta’minlanadi. Portfelli yondashuv asosida loyihalarning uchta asosiy toifaga ajratilishi qaror qabul qiluvchilarga aniq va asosli ma’lumotlar taqdim etadi, bu esa investitsion qarorlarning ob’ektivligini sezilarli darajada oshiradi. “Yuqori salohiyat” toifasidagi loyihalarga yo‘naltirilgan resurslar maksimal iqtisodiy va ijtimoiy samarani beradi, “takomillashtirishga muhtoj” toifasidagi loyihalar esa zarur ko‘magni olib, keyinchalik yuqori salohiyatga ega loyihalarga aylanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pirovardida, davlat va moliya institutlari har bir so‘mning qaytimini aniqroq prognoz qilish va investitsion strategiyani strategik maqsadlarga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Investitsiyalarni eng yuqori qaytarim beradigan loyihalar foydasiga qayta taqsimlash davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Past ustuvorlikdagi yoki samaradorligi shubhali loyihalardan ajratilgan mablag‘lar yuqori salohiyatga ega loyihalarga yo‘naltiriladi, bu esa innovatsion sektorda haqiqiy ma’noda yutuqli loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bunday yondashuv resurslarning chuqurroq tahlil qilingan va asosli loyihalarga jamlanishini ta’minlaydi, mablag‘larning sochilib ketishi va kichik samara beradigan tashabbuslarga bo‘linib ketishini oldini oladi. Natijada, mamlakat innovatsion potensialining eng kuchli yo‘nalishlarida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati paydo bo‘ladi va xalqaro miqyosda raqobatbardosh natijalarga erishish ehtimoli oshadi.

Portfelli yondashuvning joriy etilishi risklarni boshqarishning samarali tizimini shakllantiradi va innovatsion sektordagi umumiy yo‘qotishlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Innovatsion loyihalar majmuasini turli xil yo‘nalishlar, texnologik bosqichlar va risk darajalarida diversifikatsiya qilish orqali umumiy portfelning barqarorligi ta’minlanadi. Agar bir nechta loyiha muvaffaqiyatsiz tugasa ham, butun portfel barqaror qoladi va boshqa loyihalardan olinadigan samara umumiy ko‘rsatkichlarni saqlab qoladi. Bundan tashqari, portfelli yondashuv strategik ustuvorliklarning izchil amalga oshirilishini ta’minlaydi, chunki har bir loyiha umumiy davlat innovatsion siyosati doirasida ko‘rib chiqiladi va uning milliy maqsadlar bilan muvofiqligi sinchkov tahlil qilinadi.

Uzoq muddatli istiqbolda ushbu taklif O‘zbekistonda innovatsion siyosatning sifat darajasini xalqaro standartlarga ko‘tarish va milliy iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat innovatsion sektorni boshqarishda jahonning yetakchi mamlakatlari amaliyotiga muvofiq zamonaviy metodologiyalarni qo‘llaydi, bu esa xalqaro hamkorlar va donorlar uchun ham mahalliy innovatsion ekotizimning ishonchliligini oshiradi. Innovatsion korxonalar va tadbirkorlar o‘z loyihalarini portfel mantiqiga muvofiq tayyorlashga harakat qiladilar, bu esa milliy innovatsion sektorning umumiy professional darajasini ko‘taradi. Pirovardida, portfelli yondashuv asosidagi boshqaruv mamlakatda yuqori texnologiyali sektorlarning rivojlanishi, eksport salohiyatining oshishi, ish o‘rinlarining ko‘payishi va bilimga asoslangan iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, yuqori texnologik ishlab chiqarishni kengaytirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylanib borayotgan bir sharoitda O‘zbekiston uchun ham ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga tatbiq etish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, mavjud moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish va investorlar uchun qulay institutsional muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyotida bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, innovatsion loyihalarning yuqori risk darajasiga egaligi, uzoq muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi, venchur kapital bozori

rivojlanmaganligi hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarining sustligi innovatsion faoliyat samaradorligini cheklab kelmoqda. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan innovatsion loyihalarni kreditlashda yuqori foiz stavkalari va qat’iy garov talablari qo‘llanilishi innovatsion tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini toraytirmoqda. Natijada ko‘plab istiqbolli startap va ilmiy loyihalar amaliyotga joriy etilmasdan qolmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanishga erishgan mamlakatlarda davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari shakllantirilgan. AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya va Isroil tajribalarida venchur kapital fondlari, biznes farishtalar, grant dasturlari, texnologik inkubatorlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari innovatsion iqtisodiyotning asosiy tayanchiga aylangan. Ayniqsa, davlat tomonidan innovatsion loyihalarning dastlabki bosqichlarini moliyalashtirish, xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari yaratish va investitsion risklarni qisman kafolatlash tizimi innovatsion ekotizimning faol rivojlanishiga xizmat qilgan. Ushbu tajribalar O‘zbekiston sharoitida ham innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, davlat va xususiy sheriklar mablag‘lari hisobidan innovatsion loyihalarni qo‘shma moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi asoslandi. Xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sheriklarning kamida 30 foiz ulushli ishtirokini ta’minlash va investitsiyalarni qaytarishning shaffof tuzilmasi tamoyiliga asoslangan “Matching Grants” tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizm davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish, innovatsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini oshirish hamda investitsion risklarni o‘zaro taqsimlash imkonini beradi. “Matching Grants” tizimi orqali davlat mablag‘lari xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun katalizator vazifasini bajaradi, natijada innovatsion loyihalarning moliyaviy ta’minoti kengayadi va investitsion faollik oshadi.

Mazkur mexanizmning yana bir muhim jihati shundaki, u innovatsion loyihalarda xususiy investorlarning manfaatdorligini kuchaytiradi va ularning loyihalarni tanlash hamda monitoring qilishdagi mas’uliyatini oshiradi. Chunki xususiy investor o‘z mablag‘ining kamida 30 foizini loyihaga yo‘naltirgan sharoitda loyiha samaradorligini ta’minlashga ko‘proq intiladi. Shu bilan birga, investitsiyalarni qaytarishning shaffof mexanizmlarini joriy etish davlat mablag‘laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa korrupsion xavflarni kamaytirish, investitsion jarayonlarning ochiqligini ta’minlash va innovatsion muhitga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda portfelli yondashuvni qo‘llash zarurligi ham asoslab berildi. Unga ko‘ra, innovatsion loyihalarni risk darajasi, strategik ustuvorligi va iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib “yuqori salohiyat”, “takomillashtirishga muhtoj” va “past ustuvorlik” toifalariga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv investitsiya resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi hamda cheklangan budjet mablag‘larini eng yuqori qaytarimga ega loyihalar foydasiga qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, budjet mablag‘larining 15 foizgacha cheklanganligi sharoitida investitsiya qarorlarini ilmiy asoslangan holda qabul qilish davlat moliyaviy resurslarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Portfelli yondashuv innovatsion loyihalarni tanlash, monitoring qilish va baholash jarayonlarini ham takomillashtirish imkonini beradi. Chunki loyihalarni ustuvorlik darajasiga qarab saralash investitsion risklarni diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Masalan, yuqori salohiyatga ega loyihalar davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlansa, takomillashtirishga muhtoj loyihalar uchun qo‘shimcha ekspertiza va konsalting xizmatlari ko‘rsatiladi. Past ustuvorlikdagi loyihalar esa moliyalashtirish tizimidan bosqichma-bosqich chiqarilishi mumkin. Natijada innovatsion infratuzilma samaradorligi ortadi va investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi yaxshilanadi.

Shuningdek, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, fintech platformalari,

kraudfanding tizimlari, blokcheyn asosidagi monitoring tizimlari va sun’iy intellekt yordamida investitsion tahlil qilish mexanizmlarini qo‘llash innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshiradi. Bu esa investorlar va davlat organlari uchun loyihalar haqidagi ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlaydi, investitsion qarorlar sifatini yaxshilaydi va moliyaviy jarayonlarni tezlashtiradi.

Bundan tashqari, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirishda universitetlar, ilmiy markazlar va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun texnologik transfer markazlari, innovatsion inkubatorlar va startap akseleratorlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarga xususiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grant mexanizmlarini kengaytirish lozim.

Umuman olganda, O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari davlat siyosati, xususiy sektor faolligi va xalqaro tajribaning samarali uyg‘unlashuviga bog‘liqdir. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun zamonaviy moliyalashtirish vositalarini joriy etish, venchur kapital bozorini rivojlantirish, “Matching Grants” va portfelli boshqaruv tizimlarini amaliyotga tatbiq etish hamda investitsion muhit jozibadorligini oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatda innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni таъминlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elmirzayev S.E. Korporativ moliya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 368 b.
2. Qo‘shanov B.S. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 284 b.
3. Hamidov M.A. Innovatsion iqtisodiyot va uni rivojlantirish istiqbollari. – T.: Universitet, 2021. – 312 b.
4. G‘afurov Sh.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsion faoliyatni rivojlantirish. – T.: Iqtisodiyot, 2022. – 256 b.
5. Teshaboyeva D.R. Innovatsion rivojlanishda ilm-fan va biznes integratsiyasi. – T.: Tafakkur, 2021. – 228 b
6. Yoqubov F.X. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. – T.: Innovatsiya, 2023. – 274 b.
7. Глазьев С.Ю. Стратегия опережающего развития России в условиях глобального кризиса. – М.: Экономика, 2020. – 304 с.
8. Балацкий Е.В. Инновации и экономический рост. – М.: Наука, 2019. – 256 с.
9. Иванова Н.И. Национальные инновационные системы. – М.: Наука, 2021. – 287 с.
10. Макаров В.Л. Экономика знаний и инновационное развитие. – М.: Экономика, 2022. – 296 с.
11. Голиченко О.Г. Государственная инновационная политика России. – СПб.: Питер, 2021. – 248 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Yusupov Ahmadbek Tajiyevich
Mehmonov Sultonali Umaraliyevich

Annotatsiya. *Mazkur maqolada asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari, investitsiya resurslarini shakllantirish manbalari hamda ularning iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlil qilinib, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, bank kreditlari, kapital bozori instrumentlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida investitsiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion jozibadorligini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *asosiy kapital, investitsiyalar, investitsion faoliyat, investitsiyalarni moliyalashtirish, moliyalashtirish manbalari, bank kreditlari, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy resurslar, investitsiya siyosati, investitsiya samaradorligi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В ОСНОВНОЙ КАПИТАЛ

Юсупов Ахмадбек Тажиевич
Мехмонов Султонали Умаралиевич

Аннотация. *В данной статье исследованы теоретико-методологические основы финансирования инвестиций в основной капитал, источники формирования инвестиционных ресурсов, а также их значение в обеспечении экономического роста. Наряду с этим проведен анализ современного состояния финансирования инвестиций, направляемых в основной капитал, и рассмотрены вопросы диверсификации источников финансирования, эффективного использования банковских кредитов, инструментов рынка капитала, прямых иностранных инвестиций и механизмов государственно-частного партнерства. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование системы финансирования инвестиций, повышение эффективности использования финансовых ресурсов и укрепление инвестиционной привлекательности отраслей экономики.*

Ключевые слова: *основной капитал, инвестиции, инвестиционная деятельность, финансирование инвестиций, источники финансирования, банковские кредиты, рынок капитала, ценные бумаги, прямые иностранные инвестиции, государственно-частное партнерство, инвестиционная привлекательность, экономический рост, финансовые ресурсы, инвестиционная политика, эффективность инвестиций.*

IMPROVING THE FINANCING OF FIXED CAPITAL INVESTMENTS

Yusupov Akhmadbek Tajievich
Mekhmonov Sultonali Umaralievich

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of financing fixed capital investments, the sources of investment resource formation, and their significance in ensuring sustainable economic growth. Furthermore, the current state of financing*

investments directed toward fixed capital is analyzed, with particular attention given to the diversification of financing sources and the effective utilization of bank loans, capital market instruments, foreign direct investment, and public-private partnership mechanisms. Based on the findings of the study, scientific and practical recommendations have been developed to improve the investment financing system, enhance the efficiency of financial resource utilization, and strengthen the investment attractiveness of various sectors of the economy.

Keywords: *fixed capital, investments, investment activity, investment financing, financing sources, bank loans, capital market, securities, foreign direct investment (FDI), public-private partnership (PPP), investment attractiveness, economic growth, financial resources, investment policy, investment efficiency.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishning samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy jahon iqtisodiyotida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va texnologik yangilanishlarni amalga oshirish uchun korxona va davlat darajasida asosiy kapitalga sarmoya kiritish zarur. 2024 yilga kelib, jahon bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi taxminan 90 trillion AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, shuningdek, ishlab chiqarish va energetika sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ulushi 35 foiz atrofida bo‘ldi[175]. Bu tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish sektoriga kiritilayotgan sarmoyalar iqtisodiy barqarorlik va strategik rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish, moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Innovatsion texnologiyalar va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarga investitsiyalarni yo‘naltirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois, asosiy kapitalga sarmoya kiritish tizimini takomillashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish hamda moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish global iqtisodiy rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan: Professor Jon Meynard Keyns fikricha, investitsiya bu kapital jihozlarining ko‘payishi bo‘lib, u qat’iy kapital, aylanma kapital yoki likvid kapital shaklida bo‘lishi mumkin[1]. Fikrimizcha, Keynsning bu ta’rifi investitsiyaning turli shakllarini keng qamrab oladi va iqtisodiyotdagi kapitalning har xil ko‘rinishlarini hisobga oladi. Shu bilan birga, investitsiya nafaqat uzoq muddatli aktivlar qat’iy kapital, balki aylanma va likvid kapital ko‘rinishidagi qismlarni ham o‘z ichiga olgani bilan muhimdir. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni to‘liqroq tushunishga va investitsiya faoliyatining murakkabligini anglashga yordam beradi.

Alan Garber investitsiya bu universitetning ta’lim va tadqiqot missiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan uzoq muddatli sarmoyadir[2]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning ta’lim va ilmiy faoliyat sohasidagi ahamiyatini yoritadi. Universitetlar uchun investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurslarni kengaytirish, balki ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun zarurdir. Shu sababli, investitsiya universitetning barqaror rivoji va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Daniel Graves, investitsiya bu iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan sarmoyadir[3]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning iqtisodiyotdagi asosiy funksiyasini yaqqol ko‘rsatadi. Investitsiyalar orqali ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi, resurslar samarali ishlatiladi va natijada iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi. Shunday qilib, investitsiya mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

[175] https://unctad.org/system/files/official-document/diaeiainf2024d2_en.pdf

Claudia Goldin fikricha, investitsiya bu boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarishidir[4]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning iqtisodiyotdagi asosiy maqsadini ochib beradi. Investitsiya yordamida ishlab chiqarish vositalari kengaytiriladi va yangi mahsulotlar yaratiladi, bu esa iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish uchun zamin yaratadi.

Gita Gopinath ta’kidlashicha, investitsiya bu boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarishidir[5]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning asosiy iqtisodiy mazmunini ochib beradi. Investitsiya orqali ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi, yangi mahsulotlar yaratiladi va shu bilan iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga zamin yaratiladi.

Lea Nagel fikricha, nvestitsiya bu iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan sarmoyadir[6]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning iqtisodiyotdagi asosiy ahamiyatini ochib beradi. Investitsiyalar orqali ishlab chiqarish quvvatlari kengaytiriladi, resurslar samarali ishlatiladi va natijada iqtisodiy o‘sish rag‘batlantiriladi. Shunday qilib, investitsiya mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Garvard universiteti iqtisodchi olimlaridan Kevin Hassett fikricha, nvestitsiya bu boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarishidir[7]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning asosiy iqtisodiy mazmunini to‘liq ifodalaydi. Chunki investitsiya bu iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan sarmoya bo‘lib, u orqali yangi tovar va xizmatlar yaratiladi. Shu sababli, investitsiya iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Robert Zochowski fikricha, investitsiya bu ijtimoiy va/yoki atrof-muhit foydasini yaratish bilan birga turli xil daromadlarni, asosiy kapitaldan yuqori bo‘lgan daromadlarni olish maqsadida amalga oshirilgan sarmoyadir[8]. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatini ham ta’kidlaydi. Chunki bugungi kunda investitsiyalar ko‘p hollarda atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyat farovonligini oshirish maqsadida ham amalga oshiriladi. Shunday qilib, investitsiya bu uzoq muddatli barqaror rivojlanishning muhim omili.

Mahalliy olimlarimizdan akademik S.G‘ulomov fikriga ko‘ra, investitsiya – har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror-bir investitsion ob’ektga sarflashdir[9]. Fikrimizcha, S.G‘ulomovning investitsiya ta’rifida asosiy e’tibor investorning mavjud resurslarini iqtisodiy samara olish uchun maqsadli va rejalashtirilgan tarzda sarflashiga qaratilgan. Bu ta’rif investitsiyaning nafaqat moliyaviy, balki moddiy va aqliy (intellektual) boyliklarni ham o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi, bu esa zamonaviy investitsiya tushunchasining keng qamrovli ekanligini anglatadi.

N.X.Haydarov fikricha, investitsiyalar-bu mulk shaklidan qatiy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yurityotgan jismoniy va yurudik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflanishidir”[10] deb ta’rif bergan. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyaning keng ko‘lamini va uning iqtisodiyotdagi o‘rnini aniq ko‘rsatib beradi. Investitsiyalar orqali iqtisodiy va intellektual resurslar samarali yo‘naltiriladi, bu esa iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga zamin yaratadi.

Professor D.G‘.G‘ozibekov investitsiyalar bir iqtisodiyot sub’ekti kapitalini o‘zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog‘lash bo‘lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo‘ylab kapital ko‘chishi yuz beradi”[11] deb ta’rif bergan. Fikrimizcha, ushbu ta’rif investitsiyalarning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, huquqiy va mintaqaviy aspektlarini ham qamrab oladi. Shu bilan birga, bu ta’rif global investitsiyalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega, chunki u kapital harakatining o‘ziga xos xususiyatlarini va investitsiyalarning xavf-xatarlarini yaxshi aks ettiradi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil hamda analiz va sintez usullaridan foydalangan.

Tahlil va natijalar.

Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo‘yicha mamlakatlararo keskin raqobat tobora kuchayib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, uning sifatini yaxshilash hamda investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida rivojlangan davlatlarda investitsion muhit jozibadorligini ta’minlovchi innovatsion instrumentlar doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu jarayonda soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda raqamli investitsiya platformalari kabi zamonaviy vositalar keng qo‘llanilmoqda.

So‘nggi yillarda yuz bergan global moliyaviy inqiroz esa nafaqat iqtisodiyot barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, balki aholining ijtimoiy tabaqalanishini ham keskin kuchaytirdi. Ishsizlik darajasining ortishi, aholining real daromadlari pasayishi hamda tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabning qisqarishi natijasida xalqaro kapital oqimlari ham sezilarli darajada o‘zgarishga uchradi. Buning oqibatida mamlakatlar o‘rtasidagi “suzib yuruvchi” xorijiy investitsiyalar harakati sekinlashib, global investitsion muhitning beqarorlashuviga olib keldi.



2-rasm. 2020-2024-yillarda dunyo mamlakatlariga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi, trln. AQSH dollari[176]

2020-2024-yillarda dunyoga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi global iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni yaqqol aks ettirdi. 2020 yilda pandemiya ta’sirida investitsiyalar sezilarli darajada kamaydi, ammo 2021 yilda investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, global iqtisodiyotning inqirozdan chiqish jarayoni tezlashtirdi. Keyingi ikki yil 2022-2023 yillarda investitsiyalar hajmi barqaror, ammo o‘sish sekinlashgan holatda davom etgan. 2024 yilda esa iqtisodiy sharoitlar yaxshilanganligi sababli investitsiyalar hajmi ko’tarilish tendensiyasi kuzatilgan. Umuman olganda, bu davr global iqtisodiyotning inqirozdan tiklanishi va yangi imkoniyatlar izlash jarayonini ko‘rsatadi, biroq siyosiy va iqtisodiy noaniqliklar hali ham investitsiyalar o‘sish sur’atiga ta’sir qilmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Moliyalashtirish manbalari va shakllari esa ushbu jarayonning samaradorligini belgilaydi. So‘nggi yillarda global va mahalliy bozorlarda moliyalashtirish imkoniyatlari o‘zgarib, innovatsion moliyaviy vositalar va davlat tomonidan imtiyozlar berish tizmi kengaydi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishning joriy holati va so‘nggi tendensiyalar batafsil ko‘rib chiqamiz.

2024-yilda iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, 493,7 trln so‘mni tashkil etdi (o‘sish – 127,6 %). Bu mamlakatda investitsion faollik va iqtisodiy

[176] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo’mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. — Toshkent, 2025. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

o‘sish sur’atlarining yuqoriligini ko‘rsatadi. Asosiy o‘sish xorijiy investitsiyalar hisobidan ta’minlandi ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar (152,0 %) va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar (166,2 %) eng faol manbalar bo‘ldi. Bu O‘zbekistonga bo‘lgan xalqaro ishonchning ortganidan dalolat beradi. Biroq ichki manbalar korxona mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari va budjet mablag‘lari bo‘yicha o‘sish sur’atlari past bo‘lib, bu ichki moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan sarmoyalar keskin oshgani (157,1 %) davlat tomonidan yirik strategik loyihalarga e’tibor kuchayganini bildiradi.

1-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati (2024 yilning yanvar-dekabr oylari uchun)[177]


Ko’rsatkichlar	Hajmi	Foizda	Ko’rsatkichlar	Hajmi	Foizda
Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hisobidan	493,7 trln so‘m	127,6 %	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan	150,5 trln so‘m	152,0 %
Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan	159,6 trln so‘m	166,2 %	Korxona mablag‘i hisobidan	87,0 trln so‘m	96,3 %
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan	12,7 trln so‘m	86,5 %	Aholi mablag‘lari hisobidan	32,0 trln so‘m	98,7 %
O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan	23,6 trln so‘m	97,4 %	Respublika budjeti hisobidan	22,8 trln so‘m	90,3 %
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan	1,9 trln so‘m	79,9 %	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan	3,6 trln so‘m	157,1 %

Umuman olganda, 2024-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotining investitsion jozibadorligi oshgan, xorijiy sarmoyalar oqimi kuchaygan, biroq ichki moliyaviy resurslar faolligini oshirish hali ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. So‘nggi besh yil ichida o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, ular o‘sib borish tendensiyasiga ega: 2021-2022 yilllarda 102,9-100,2 % o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, so‘nggi ikki yilda yuqori o‘sish sur’atlari – 123,4 va 127,6 % kuzatilmoqda.


Rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-2024-yillar oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi doimiy o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. 2020-yilda investitsiyalar hajmi 210,2 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 493,7 trln so‘mga yetgan. Bu davr mobaynida hajm 2,3 baravar oshganini anglatadi. O‘sish sur’atlari esa 2020–2022-yillarda nisbatan past (95,6–100,2 %) bo‘lgan, ammo 2023–2024-yillarda keskin oshib, mos ravishda 123,4 % va 127,6 %ni tashkil etgan.

[177] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo’mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. — Toshkent, 2025. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



3-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi[178]

Oxirgi 5 yilga nazar tashlasak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilayotgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi kamayib borayotganini ko‘rish mumkin. 2024 yil O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 23,6 trln so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2023 yilga nisbatan 97,4 foizini tashkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi 4,8 foiz darajasida qayd etildi.



4-rasm. Markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushlari dinamikasi, foizda[179]

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalarning ulushi oxirgi 5 yilda o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2020 yildagi 80,1 foiz ulushdan 2024 yilga kelib 89,5 foizga yetdi. 2024 yilning korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 87,0 trln so‘m yoki jami investitsiyalarning 17,6 foizini tashkil etadi.

[178] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo’mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. — Toshkent, 2025. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
[179] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo’mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. — Toshkent, 2025. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2023-2025-yillarda mamlakatimizda jami 1214970 mlrd so‘mlik kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ularning ichida markazlashgan investitsiyalar 193 587 mlrd so‘mni, markazlashmagan investitsiyalar esa 1021383 mlrd so‘mni tashkil etadi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishda xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarning o‘rni tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2-jadval

2023-2025-yillarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o‘zlashtirishning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari[180] mlrd so‘m

Moliyalashtirish manbalari	2023-2025-yillarda jami	shundan: 2023-yil	2024-yil	2025-yil
Jami kapital qo‘yilmalar	**1 214 970**	**352 717**	**403 038**	**459 215**
shu jumladan:				
Markazlashgan investitsiyalar:	**193 587**	**55 538**	**65 622**	**72 428**
Budjet mablag‘lari	83 360	25 886	28 074	29 400
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari	11 170	3 171	3 454	4 545
mln. AQSH dollarida	*873*	*267*	*271*	*335*
Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	99 057	26 481	34 094	38 483
mln. AQSH dollarida	*7 737*	*2 225*	*2 675*	*2 837*
Markazlashmagan investitsiyalar:	**1 021 383**	**297 179**	**337 416**	**386 788**
Korxonalar mablag‘lari	326 814	93 930	107 534	125 350
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	197 010	57 696	64 782	74 532
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	401 466	116 193	133 200	152 073
mln. AQSH dollarida	*31 425*	*9 764*	*10 452*	*11 209*
Aholi mablag‘lari	96 093	29 360	31 900	34 833

Markazlashgan manbalar tarkibida davlat budjeti, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, budjet mablag‘lari 2023-yildan 2025-yilgacha 25 886 mlrd so‘mdan 29 400 mlrd so‘mgacha oshgan. Markazlashmagan investitsiyalar ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yetakchi o‘rinda bo‘lib, 2025-yilda 152 073 mlrd so‘mga yetadi. Korxonalar, tijorat banklari va aholi mablag‘lari ham sezilarli ulushga ega. Umuman olganda, bu davrda investitsiya siyosati iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va hududlararo muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, investitsiyalarni moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, korporativ obligatsiyalar, xorijiy investitsiyalar va lizing instrumentlaridan kompleks foydalanish investitsion faollikni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli moliyalashtirish platformalarini joriy etish, investitsion risklarni sug‘urtalash tizimini kengaytirish hamda uzoq muddatli moliyaviy resurslar bazasini mustahkamlash asosiy kapitalga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmini ko‘paytirishga xizmat

[180] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo’mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. — Toshkent, 2025. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

qiladi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, eksport salohiyati kengayadi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Shu bois, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimini zamonaviy bozor mexanizmlari asosida diversifikatsiya qilish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida investitsiyalarni moliyalashtirishda tijorat banklari resurs bazasini uzoq muddatli manbalar hisobidan kengaytirish, korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini institutsional jihatdan takomillashtirish zarurligi asoslandi.

Shuningdek, asosiy kapitalga yo‘naltiriladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida investitsion loyihalarni baholashda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, ESG tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish hamda hududlar kesimida tabaqalashtirilgan soliq va kredit imtiyozlarini qo‘llash taklif etiladi. Investitsion risklarni kamaytirish uchun kafillik fondlari va sug‘urta mexanizmlarini rivojlantirish, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini oshirish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936. — 472 p.
2. Alan Garber, “University Endowments and Investment Strategies”, Higher Education Economics Review, 2020.
3. Daniel Graves, “Investment Strategies for Economic Growth”, Economic Review, 2017.
4. Claudia Goldin, “Human Capital”, Handbook of Cliometrics, 2016.
5. Gita Gopinath, “Investment Cycles and Sovereign Debt Overhang”, Review of Economic Studies, 2009.
6. Lea Nagel, “Investment and Economic Growth”, Journal of Economic Perspectives, 2018.
7. Hassett, Kevin A. (1999). Tax Policy and Investment. Washington, D.C.: American Enterprise Institute for Public Policy Research. ISBN: 9780844771071.
8. Robert Zochowski, “Socially Responsible Investment”, Journal of Sustainable Finance, 2019.
9. G‘ulomov S.S. Menejment va biznes asoslari. Darslik. – Toshkent.: “Mehnat”, 1997. – 245 b.
10. Haydarov N.H. “Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati T:2003 y. 14-15 betlar.
11. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: Moliya, 2003. – B. 45.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika qo’mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar to‘plami. — Toshkent, 2025.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

THE INSTITUTIONAL QUALITY AND FOREIGN DIRECT INVESTMENT INFLOWS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Rajabova Malika Nuriddin kizi
Student at Tashkent State University of Economics
E-mail:m.rajabova@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-3817-7292

Abstract. *The paper examines how institutional quality is associated with foreign direct investment inflows of four Central Asian economies, including Kazakhstan, Uzbekistan, Tajikistan and Kyrgyz Republic between 2000 and 2023. This study analyzes five government indicators such as: rule of law, regulatory quality, control of corruption, government effectiveness and political stability with panel data and random effects robust standard errors. The results show that government effectiveness has negative and significant impact on FDI inflows while GDP per capita has a strong positive impact. The other institutional indicators are not significant. The findings suggest that expanding market size through economic growth strategies should be a key focus for Central Asian policymakers to attract foreign investment.*

Keywords: *Institutional quality, FDI inflows, Central Asia, government effectiveness, GDP per capita.*

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA INSTITUTSIONAL SIFAT VA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALAR OQIMI

Rajabova Malika Nuriddin qizi
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi
E-mail:m.rajabova@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-3817-7292

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 2000-2023-yillar oralig‘ida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O’zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston iqtisodiyotida institutlar sifati va to’g‘ridan-to’g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi o’rtasidagi aloqalar o’rganiladi. Panel ma’lumotlari va tasodifiy ta’sirlar modeli yordamida beshta institutsional ko’rsatkichlar tahlil qilindi. Hukumat samaradorligi (government effectiveness) TXI oqimiga (FDI inflows) salbiy ta’sir ko’rsatsa, aholi jon boshiga YIM (GDP per capita) bu oqimga ijobiy ta’sir ko’rsatishi kuzatildi. Boshqa tanlangan ko’rsatkichlar, qonun ustuvorligi (rule of law), tartibga solish sifati (regulatory quality), korrupsiyaga qarshi kurash (corruption control) va siyosiy barqarorlik (political stability) kabilar statistik ahamiyatga ega emasligi ma’lum bo’ldi. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun bozorni iqtisodiy o’sish orqali kengaytirish zarur.*

Kalit so’zlar: *institutlar sifati, TXI oqimi, Markaziy Osiyo, hukumat samaradorligi, aholi jon boshiga YIM*

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ КАЧЕСТВО И ПРИТОК ПРЯМЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Раджабова Малика Нуриддин кизи
Студент Ташкентского государственного экономического университета
E-mail:m.rajabova@tsue.uz
ORCID: 0009-0006-3817-7292

Аннотация. *В статье исследуется связь между качеством институтов и притоком прямых иностранных инвестиций в экономики Казахстана, Узбекистана, Таджикистана и Кыргызской Республики за 2000–2023 гг. С использованием панельных данных и модели со случайными эффектами анализируются пять институциональных показателей. Установлено, что эффективность правительства оказывает отрицательное значимое влияние на приток ПИИ, тогда как ВВП на душу населения — положительное. Остальные показатели незначимы. Результаты свидетельствуют о необходимости расширения рынка через экономический рост для привлечения иностранных инвестиций в Центральной Азии.*

Ключевые слова: *качество институтов, приток ПИИ, Центральная Азия, эффективность правительства, ВВП на душу населения.*

Introduction

Institutional quality has also become a determinant of FDI inflows into the emerging economies making it an important focus of research on Central Asian economies during the structural transformation. In the case of the emerging economies and transition countries, the capacity of the governance structures affects the confidence of the investors. The governance indicators such as regulatory quality and rule of law have a significant impact on the investment entering developing countries (Ashurov et al., 2020). This correlation has a significance in those countries that are interested in promoting the economic growth due to external capital flows.

The Central Asian countries have institutional reforms with different levels of effect since the beginning of the 2000s. Whereas other nations have a long way in ensuring that they have established business friendly situations, others are still faced with old-fashioned regulatory systems and political instability at regular intervals. There is available evidence that around 70 to 75 percent of all FDI in the Kazakhstan is disproportionately channeled at countries with stronger legal and administrative frameworks (Kasimov and Saydaliev, 2022), which implies that the institutional quality does have a significant influence on investment patterns.

Although there is an increasing role played by institutions in the attraction of foreign capital, Central Asia is not researched as other developing regions. The currently available studies represent short periods and give mostly descriptive reports of the governance conditions without conducting any serious empirical research (Saha et al., 2022). Discussing the cross-country disparity in FDI performance in the context of the Central Asian region, scholars often focus on geographical aspects of the matter, especially the landlocked region, and institutional divergence between the countries in question. The authors illustrate that the influence of institutional quality on FDI attraction is stronger in developed economies than in developing ones, which explains why the analysis should be region-specific and that different countries should not be considered the same in terms of the relationships (Sabir, Rafique and Abbas, 2019).

Literature review

The relationship between institutional quality and foreign direct investment is a topic that has received wide-ranging research but the results differ widely in different geographical settings and methods of research. The 20 African and Asian countries studied by Ashurov, et al., (2025) revealed that political stability and physical infrastructure are both important factors in determining FDI inflows. Their multivariate analysis showed that the negative effects of corruption perceptions and inflation rates didn’t have statistically significant effects with the other variables held constant. The result is opposite to the previous findings, which pointed at the deterrent influence of corruption on foreign investment (Wei, 2000), which indicates that the mechanism of influence of governance on FDI can be indirect or institutional-specific.

In the study, Saha (2022) assessed 28 low middle-income nations in six regions in 2002-2018 using system GMM estimation to overcome endogeneity issues. Their findings also pointed to the fact that control of corruption and quality of regulation improves FDI inflows, whereas the

stronger the rule of law and higher voice and accountability, the less foreign investment in these countries seemed to be. This finding suggests that institutional impacts are not consistent at different stages of development- a factor that applies to the middle-income economies of Central Asia.

A thorough examination of 59 developing and 89 developed nations in 1996-2016 by Sabir, Rafique and Abbas (2019) proved the existence of the positive impact of institutional quality on FDI regardless of the country group. Notably, they discovered that the coefficients of governance are significantly higher in the developed economies which suggests that the institutional quality is even more critical as a country advances on its development path. This observation has potential far reaching implications on the Central Asian countries, which are placed in the middle of the world development ranking.

Comparative analysis of all the five Central Asian countries was done by Soliev and Bakoev (2025) who investigated why certain countries can be successful in attracting FDI whereas others fail. In their analysis, they found that Kazakhstan is the country that is attracting the largest volumes of investments because of a large amount of oil and gas resources and the long-term economic reforms. Since 2017, Uzbekistan has seen fast growth in FDI and is especially in the manufacturing industries and services. Though it has a huge reserve of natural gas, Turkmenistan is still performing poorly because of its closed political society and little transparency. Kyrgyzstan and Tajikistan are constantly struggling against political instability, corruption and poor governance systems-systems that incur systematically against foreign investment.

The literature review shows that there are multiple patterns and inconsistencies. To begin with, a large number of research papers that study global samples often report considerable institutional impact (Sabir et al., 2019), whereas region-specific studies occasionally find no or contradictory results on specific dimensions of governance (Saha et al., 2022; Yang et al., 2025). These inconsistencies are probably influenced by the contextual issues, such as the level of development, past experiences, and measurement errors that make it difficult to compare studies across countries. Second, the research that is specific to Central Asia has significant gaps. The current literature does not involve a study of all five governance indicators at the same time in various countries of Central Asia in a longer time frame. Rustamov (2025) targets Uzbekistan in a short-term time span. Kuzakhmetova (2025) Ashurov et al. (2020) cover all five countries but stop in 2017. In addition, much of the literature focuses on the economic variables and does not pay much attention to the institutional aspects.

Theoretical framework

The Institutional Theory of North.




Figure 1: Theoretical framework of the study

This study is grounded in Douglass North's institutional theory (1990), which defines institutions as 'the rules of the game in society'—formal and informal constraints that structure human interaction and economic exchange. North argues that well-functioning institutions reduce uncertainty and transaction costs, thereby encouraging investment. Weak institutions, conversely, increase risks and discourage both domestic and foreign investment. This framework is particularly relevant to Central Asia, where countries are undergoing institutional transformation, and variation in reform paths provides natural experimental conditions for examining how institutional differences affect FDI outcomes.

Using the institutional theory of Douglass North in the context of Central Asia, a clear logical relationship can be identified between institutional quality and foreign direct investment (FDI) inflows. According to North, institutions represent the "rules of the game" in society, shaping economic interactions, reducing uncertainty, and determining transaction costs for economic actors. In transitional and developing economies such as those of Central Asia, institutional effectiveness becomes one of the most decisive factors influencing investor behavior.

The quality of institutions — particularly the rule of law, regulatory quality, corruption control, government effectiveness, and political stability — directly influences the level of uncertainty faced by foreign investors. In many Central Asian countries, weak judicial independence, inconsistent regulatory enforcement, bureaucratic inefficiencies, and corruption create unpredictable business environments. Such institutional weaknesses increase transaction costs because investors must spend additional resources on legal protection, administrative procedures, informal payments, and risk management. Conversely, when governments strengthen legal frameworks, improve transparency, and ensure political stability, the investment environment becomes more predictable and secure.

Assuming that North is correct in his theory in the Central Asian context, there are a number of things that can be expected. Those countries that have stronger indicators of institutional quality should be able to attract more volumes of foreign direct investment than those with weaker institutions. Of the five governance dimensions, the ones that have the most direct influence on investor protection and business facilitation including rule of law and regulatory quality could have more impact than the others. Moreover, institutional quality and FDI relationship can have different impacts in different countries because of dissimilarity in reform implementation and organization of economies.

Empirical models

Based on the theoritical framework of North's institutional theory, this study specifies the following panel data model to examine the relationship between institutional quality and FDI inflows in Central Asian 4 countries:

$$FDI_{i,t} = \beta_0 + \beta_1 RL_{i,t} + \beta_2 RQ_{i,t} + \beta_3 CC_{i,t} + \beta_4 GE_{i,t} + \beta_5 PS_{i,t} + \beta_6 GDPPC_{i,t} + \beta_7 GDPG_{i,t} + \beta_8 TO_{i,t} + \mu_{i,t} \quad (2)$$

Where:

i = country (Kazakhstan, Uzbekistan, Tajikistan, Kyrgyz Republic)

t = year (2000-2023)

μ_i = country-specific effects

This study provides the panel data of four Central Asian nations, Kazakhstan, Uzbekistan, Tajikistan and Kyrgyz Republic between 2000 and 2023. The dependent variable is FDI inflows in current USD. There are five institutional quality indicators of the Worldwide Governance Indicators (WGI) that are used as independent variables: rule of law, regulatory quality, control of corruption, government effectiveness, and political stability. GDP per capita (constants 2015 USD), GDP growth rate (annual percentage), and trade (per cent of GDP) are control variables. FDI and economic variables data is gathered on World Development Indicators (WDI, 2024). Worldwide Governance Indicators (WGI, 2024) are the sources of institutional data. The time frame 2000-2023 is selected due to the availability of data on all countries, Table 1 shows the

description of the variables, their definitions, and sources of data.

Table 1:

Description of the variables

Variables	Description of Variables	Sources
Foreign direct investment inflows (FDI)	It reflects the volume of international capital entering the domestic economy.	WDI (2024)
GDP per capita (GDPPC)	Gross domestic product divided by mid-year population, expressed in constant 2015 US dollars. Serves as a measure of market size and development level.	WDI (2024)
GDP Growth (GDPG)	Annual percentage growth rate of GDP at market prices based on constant local currency.	WDI (2024)
Trade opennes (TO)	Sum of exports and imports of goods and services divided by GDP, expressed as a percentage. Reflects the degree of international economic integration.	WDI (2024)
Rule of law (RL)	Perceptions of contract enforcement, property rights protection, and court system reliability	WGI (2024)
Regulatory quality (RQ)	Perceptions of government capacity to formulate and implement sound policies that promote private sector development	WGI (2024)
Control of corruption (CC)	Perceptions of the extent to which public power is exercised for private gain.	WGI (2024)
Government effectiveness (GE)	Perceptions of public service quality, civil service independence, and policy implementation creadibility.	WGI (2024)
Political stability (PS)	Perceptions of likelihood that government will be destabilized by unconstitutional or violent means.	WGI (2024)

Source: Developed by the author

In order to analyze the correlation between the institutional quality and inflow of FDI, we are utilizing panel data estimation methods.

Our model is estimated by first estimating the model with pooled ordinary least squares (OLS). Nevertheless, pooled OLS can give biased estimates in case there are country-differences effects. Second, we use Hausman test to find out the model to use (fixed effects or random effects). The null hypothesis is that the random effects are efficient and consistent. When the p-value is lower than 0.05, then we reject the null and adopt fixed effects. Third, we used modified Wald test to check heteroskedasticity and Wooldridge test to find autocorrelation. Fourth, as a robustness measure, we estimate the model with System Generalized Method of Moments (GMM) to overcome the endogeneity issues. In this method, lagged values of the independent variables are the instruments and the dynamic character of FDI flows is taken into consideration. All estimations are made with the help of STATA 15 that has strong standard errors, grouped on the country level to provide a good inference.

Results and discussion

Table 2 displays the descriptive statistics of all the variables applied in the analysis between the years 2000 and 2023 in four Central Asian countries (Kazakhstan, Uzbekistan, Tajikistan, and Kyrgyzstan). The average FDI inflow stands at about 2.19 billion with a considerable difference in countries and the years with a minimum of -402 million (individuating in the form of divestment) up to 17.2 billion. The indicators of institutional quality are all negative on the average

describing the character of transition nature of these economies. Rule of law is -1.064, regulatory quality is -0.792, control of corruption is -1.078, government effectiveness is -0.737 and the political stability is -0.601. The average GDP per capita is 3,218, though there is a significant variation of between 7.77 and 11,453, which indicates that there is a great disparity in development among the region. The average growth rates of GDP are 6.07 and 84.43 of openness in trade.

Table 2:

Descriptive statistics.

Variable	Obs	Mean	Std.Dev.	Min	Max
FDI	96	2.19e+09	3.87e+09	-4.02e+08	1.72e+10
RL	96	-1.063854	.2644612	-1.48	-.45
RQ	96	-.7916667	.5472047	-2.24	.15
CC	96	-1.078125	.2504031	-1.43	-.19
GE	96	-.7370833	.3470202	-1.24	.15
PS	96	-.600625	.5561405	-1.96	.78
GDPPC	96	3218.216	3444.988	7.77	11453.4
GDPG	96	6.07125	3.196579	-7.15	13.5
TO	96	84.4276	32.0167	29.19	175.35

Source: Developed by Author

Аннотация: *В данной статье исследованы теоретические и практические основы оценки стоимости акций. Проанализированы основные методы оценки акций, в частности доходный, сравнительный и затратный подходы. Также рассмотрены факторы, влияющие на стоимость акций на фондовом рынке, деятельность инвесторов и вопросы повышения инвестиционной привлекательности предприятий. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы оценки стоимости акций.*

Ключевые слова: *акция, стоимость акций, оценка, фондовый рынок, инвестиции, капитал, инвестор, доходный подход, сравнительный подход, финансовый анализ.*

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF STOCK VALUATION

Aziza Botirkhoja Fakhmuddin kizi
Assistant, Department of
“Valuation and Investments”,
Tashkent State University of Economics.
e-mail: a.botirkhuja@tsue.uz
ORCID: 0009-0002-6442-1288

Abstract: *This article examines the theoretical and practical foundations of stock valuation. The main methods of stock valuation, including the income approach, comparative approach, and cost approach, are analyzed. In addition, factors affecting stock prices in the stock market, investor activities, and issues of increasing the investment attractiveness of enterprises are considered. Based on the research results, scientific and practical recommendations for improving the stock valuation system have been developed.*

Key words: *stock, stock valuation, assessment, stock market, investment, capital, investor,*

income approach, comparative approach, financial analysis.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va investitsion jarayonlarni rivojlantirishda fond bozori muhim o‘rin egallaydi. Fond bozorining asosiy instrumentlaridan biri hisoblangan aksiyalar korxonalarga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, aksiyalar qiymatini to‘g‘ri baholash investorlar, emitentlar va moliyaviy institutlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksiya qiymati korxonaning moliyaviy holati, investitsion jozibadorligi va kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini aks ettiruvchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida fond bozorlaridagi raqobatning kuchayishi aksiyalarni baholashning zamonaviy usullaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Ayniqsa, investorlar tomonidan investitsion qarorlar qabul qilishda aksiya qiymatini aniqlashning aniq va ishonchli mexanizmlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli aksiya qiymatini baholashning nazariy asoslarini o‘rganish hamda amaliyotdagi mavjud muammolarni tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda aksiyalar qiymatini baholashning daromadli, qiyosiy va xarajat yondashuvlari keng qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar korxonaning bozor qiymatini aniqlash, investitsion risklarni baholash va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda ham kapital bozorini rivojlantirish va investorlar faolligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar aksiyalarni baholash tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi aksiya qiymatini baholashning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etish, baholash usullarining afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.[1.2]

Adabiyotlar sharhi

Aksiya qiymatini baholash masalasi moliyaviy menejment va investitsiyalar nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan aksiyalarni baholash usullari, fond bozori samaradorligi hamda investitsion qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati keng tadqiq etilgan.[3]

Aksiya qiymatini baholashning nazariy asoslari dastlab klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular kapitalning qiymati va investorlarning daromad olish motivlariga alohida e’tibor qaratganlar. Keyinchalik G. Markowitzning portfel nazariyasi va W. Sharpe tomonidan ishlab chiqilgan kapital aktivlarini baholash modeli (CAPM) aksiyalar qiymatini aniqlashda risk va daromadlilik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asoslash imkonini berdi. Ushbu nazariyalar zamonaviy investitsion tahlilning asosiy metodologik poydevori hisoblanadi.[4]

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Aswath Damodaran aksiyalar qiymatini baholash bo‘yicha fundamental tahlil, diskontlangan pul oqimlari modeli va bozor multiplikatorlari asosidagi usullarni chuqur tadqiq qilgan. Uning ilmiy ishlarida korxona qiymatini aniqlashda moliyaviy hisobotlarning ahamiyati, investorlarning kutishlari hamda bozor kon’yunkturasining ta’siri keng yoritilgan. Shuningdek, Brealey va Myers tomonidan korporativ moliya nazariyasida aksiyalarni baholashning amaliy jihatlari, kapital qiymati va investitsion risklarni boshqarish masalalari tadqiq etilgan.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar V.V. Kovalyov, A.G. Gryaznova va boshqa tadqiqotchilar fond bozori instrumentlarini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida aksiyalar qiymatini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili, dividend siyosati va korxonaning bozor pozitsiyasiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham kapital bozori va investitsiya faoliyatini rivojlantirish masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, B.Yu. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida mamlakat fond bozorini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda qimmatli qog‘ozlar bozorining iqtisodiy o‘sishdagi roli tahlil qilingan. Ularning

tadqiqotlarida aksiyalar bozorining samarali faoliyati investitsiyalar hajmini oshirish va korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida baholangan.[5]

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish va investorlar faolligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq aksiyalar qiymatini baholash tizimida xalqaro standartlarni keng joriy etish, moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish hamda zamonaviy baholash usullaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq muammolar hali ham mavjud.

Shu sababli aksiya qiymatini baholashning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish, mavjud baholash usullarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda aksiya qiymatini baholashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish uchun umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida aksiyalarni baholashning zamonaviy usullari, ularning iqtisodiy mohiyati hamda fond bozoridagi ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, korporativ moliya va investitsiyalar bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari hamda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi kapital bozori agentligi, tijorat banklari va fond bozori faoliyatiga oid statistik ma’lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik yondashuv hamda grafik tasvirlash usullari qo‘llanildi. Xususan, aksiya qiymatini baholashda daromadli yondashuv, qiyosiy yondashuv va xarajat yondashuvi usullarining afzalliklari hamda kamchiliklari o‘zaro solishtirildi. Bundan tashqari, fond bozori ko‘rsatkichlari va aksiyalar qiymatiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.[7]

Tahlil va natijalar

Aksiya qiymatini baholash va kapital bozori samaradorligini oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotda investitsion jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda kapital oqimini samarali yo‘naltirishda aksiyalarni to‘g‘ri baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazariyada aksiya qiymatini aniqlash korxonaning bozor kapitalizatsiyasi, daromadlilik darajasi va investitsion jozibadorligini baholashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Kapital aktivlarini baholash nazariyasiga ko‘ra, aksiya qiymati investor kutayotgan daromad va risk darajasiga bog‘liq holda shakllanadi. Ushbu bog‘liqlik quyidagi model orqali ifodalanadi:

$$E(Ri)=Rf+\beta i(E(Rm)-Rf)$$

Bu yerda:

E(Ri) — aksiya bo‘yicha kutilayotgan daromadlilik;

Rf — risksiz foiz stavkasi;

βi — bozor riskiga sezgirlik koeffitsienti;

E(Rm)— bozor portfelining kutilayotgan daromadliligi.

Mazkur model aksiyalar qiymatini baholashda risk va daromadlilik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Investorlar yuqori riskli aksiyalardan yuqoriroq daromad kutadilar, shu sababli bozor bahosi ham korxonaning moliyaviy holati va istiqboldagi foyda olish imkoniyatlariga bog‘liq ravishda shakllanadi.

2020–2025-yillar davomida O‘zbekistonda kapital bozori faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, aksiyalar bozoridagi savdo hajmi va investorlar sonining ortishi natijasida korporativ qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. 2020-yilda fond bozori aylanmasi 1,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 6,8 trln so‘mga

yetdi. Bu esa kapital bozorining rivojlanayotganini va investitsion muhitning yaxshilanayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, aksiyalar bozorining yalpi ichki mahsulotga nisbati ham izchil o‘sib bordi. 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 5,4 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda 9,8 foizga yetdi. Bu holat investorlar faolligining ortishi, IPO va SPO amaliyotlarining kengayishi hamda davlat korxonalarini transformatsiya qilish jarayonlari bilan izohlanadi.[8]


1-jadval

O‘zbekistonda aholi depozitlari va jamg‘armalari dinamikasi (2020–2025)[181]

Yil	Aholi depozitlari hajmi (trln so‘m)	Yillik o‘sish (%)	YaIMga nisbati (%)
2020	51,2	20,3	13,8
2021	67,9	32,5	14,9
2022	89,3	31,6	15,2
2023	108,7	21,7	15,8
2024	126,5	16,3	17,1
2025*	148,6	17,4	18,7

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida O‘zbekistonda aholi depozitlari va jamg‘armalari hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2020-yilda aholi depozitlari hajmi 51,2 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 148,6 trln so‘mga yetgan. Bu esa besh yil davomida depozitlar hajmi qariyb uch baravarga oshganini anglatadi.[9] 2021–2022-yillarda eng yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilgan bo‘lib, bunda iqtisodiy faollikning tiklanishi, bank tizimiga bo‘lgan ishonchning ortishi hamda raqamli bank xizmatlarining keng joriy qilinishi muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, mobil banking va onlayn omonat xizmatlari aholining bank tizimidagi ishtirokini sezilarli ravishda oshirdi.

2023–2025-yillarda o‘sish sur’atlari nisbatan barqarorlashgan bo‘lsa-da, depozitlarning mutlaq hajmi sezilarli ravishda ortishda davom etdi. 2025-yilda aholi depozitlari hajmi 148,6 trln so‘mga yetgani mamlakatda ichki moliyaviy resurslar salohiyati kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, jamg‘armalarning YaIMga nisbati ham 2020-yildagi 13,8 foizdan 2025-yilda 18,7 foizga qadar oshgan. Bu holat aholining daromadlari ortishi, moliyaviy savodxonlikning yaxshilanishi va bank tizimiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.[10]



1-diagramma. Aksiya qiymatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar taqsimoti (2025-yil)[182]

Tahliliga ko‘ra, investitsiya muhitiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil korxona foydadorligi bo‘lib, uning ulushi 31,4 % ni tashkil etadi. Bu investorlar uchun korxonalarning

[181] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

[182] Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozori agentligi, Markaziy bank ma’lumotlari va fond bozori statistikasi asosida tuzildi.

moliyaviy barqarorligi va yuqori daromadliligi muhim mezon ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, dividend siyosati 24,7 % ulush bilan ikkinchi o‘rinda turib, investorlar muntazam daromad olish imkoniyatiga katta e’tibor qaratishini anglatadi.

Bozor likvidligi 18,3 % va investorlar ishonchi 15,6 % ko‘rsatkichlari ham investitsion qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat moliya bozorlari faoliyati va investorlar uchun qulay biznes muhiti yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Makroiqtisodiy omillar esa 10 % ulush bilan nisbatan pastroq ta’sirga ega bo‘lsa-da, iqtisodiy barqarorlik investitsiya jozibadorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, diagramma natijalari investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda korxonalar rentabelligini oshirish, samarali dividend siyosatini yuritish, bozor likvidligini rivojlantirish va investorlar ishonchini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlar ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot natijalari aksiya qiymatini baholash zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion jarayonlarni samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Aksiyalar qiymatini to‘g‘ri aniqlash investorlar uchun asoslangan investitsion qarorlar кабул qilish, korxonalar uchun esa qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, kapital bozori samaradorligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashda ham aksiyalarni baholash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida daromadli, qiyosiy va xarajat yondashuvlari tahlil qilinib, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, daromadli yondashuv korxonaning kelajakdagi moliyaviy natijalarini hisobga olishi bilan ajralib tursa, qiyosiy yondashuv bozor kon’yunkturasini tezkor aks ettirishi bilan muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. Shu sababli aksiyalar qiymatini baholashda kompleks yondashuvdan foydalanish eng maqbul usul sifatida baholandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda kapital bozori so‘nggi yillarda rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lsada, aksiyalar bozorining iqtisodiyotdagi ulushi hali rivojlangan davlatlarga nisbatan past darajada qolmoqda. Bunga moliyaviy axborotlarning yetarli darajada shaffof emasligi, investorlarning moliyaviy savodxonligi pastligi hamda zamonaviy baholash usullarining amaliyotda to‘liq qo‘llanilmayotgani sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- aksiyalar qiymatini baholashda xalqaro baholash standartlarini keng joriy etish;
- korxonalarning moliyaviy hisobotlari shaffofligini oshirish va ochiq axborot bazalarini rivojlantirish;
- kapital bozori infratuzilmasini takomillashtirish va fond bozori likvidliligini oshirish;
- investorlar uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish;
- IPO va SPO amaliyotlarini rivojlantirish orqali fond bozoriga yangi emitentlarni jalb qilish;
- raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi moliyaviy tahlil vositalaridan samarali foydalanishni kengaytirish.

Umuman olganda, aksiyalar qiymatini baholash tizimini takomillashtirish O‘zbekistonda kapital bozorining rivojlanishiga, investitsion faollikning oshishiga hamda iqtisodiyotga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brealey R., Myers S. *Principles of Corporate Finance*. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2015.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kapital bozorini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2020–2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.

6. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019.

7. Kovalyov V.V. *Finansoviy analiz: методы и процедуры*. – Moskva: Finansы i statistika, 2018.

8. Gryaznova A.G. *Otsenka biznesa i stoimosti kompaniy*. – Moskva: Finansы i statistika, 2017.

9. O‘zbekiston Respublikasi Kapital bozori rivojlanishi bo‘yicha yillik hisobotlar. – Toshkent, 2021–2025.

10. International Valuation Standards Council (IVSC). *International Valuation Standards*. – London, 2024.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AHOLI JAMG‘ARMALARINI INVESTITSIYA FAOLIYATIGA JALB QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Zokirova Feruza Farxod qizi
“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrasi o‘qituvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
e-mail: zokirovaferuzaf@gmail.com
ORCID: 0009-0007-1234-0175

Annotatsiya: *Maqolada aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga jalb qilishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot molijaviy bozorlar nazariyasi, kapitalni samarali taqsimlash tamoyillari va makroiqtisodiy omillar ta'sirini o‘rganish asosida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, aholi jamg‘armalarini investitsiyaga yo‘naltirish uchun zamonaviy molijaviy vositalar, sug‘urta mexanizmlari va davlat siyosati muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *aholi jamg‘armalari, investitsiya faoliyati, molijaviy bozor, kapital bozori, jamg‘arma siyosati, moliya vositalari.*

«ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ СБЕРЕЖЕНИЙ НАСЕЛЕНИЯ В ИНВЕСТИЦИОННУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ»

Зокирова Феруза Фарход кизи

преподаватель кафедры
«Оценочное дело и инвестиции»
Ташкентского государственного
экономического университета.
e-mail: zokirovaferuzaf@gmail.com
ORCID: 0009-0007-1234-0175

Аннотация: *В статье анализируются теоретические основы и практические механизмы привлечения сбережений населения к инвестиционной деятельности. Исследование проводилось на основе изучения теории финансовых рынков, принципов распределения капитала и влияния макроэкономических факторов. Результаты показывают важность современных финансовых инструментов, страховых механизмов и государственной политики.*

Ключевые слова: *сбережения населения, инвестиционная деятельность, финансовый рынок, рынок капитала, политика сбережений, финансовые инструменты.*

“THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF ATTRACTING HOUSEHOLD SAVINGS INTO INVESTMENT ACTIVITIES”

Zokirova Feruza Farxod kizi

Associate teacher of the Department
“Valuation and Investments”,
Tashkent State University of Economics.
e-mail: zokirovaferuzaf@gmail.com
ORCID: 0009-0007-1234-0175

Abstract: *The article analyzes theoretical foundations and practical mechanisms of attracting household savings to investment activities. The research was conducted based on the study of financial market theory, capital allocation principles, and macroeconomic factors. Results*

show that modern financial instruments, insurance mechanisms, and government policy are crucial for directing household savings towards investments.

Key words: *household savings, investment activities, financial market, capital market, savings policy, financial instruments*

Kirish.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda aholi farovonligini oshirishda investitsiyalar muhim strategik omil hisoblanadi. Investitsiya jarayonlarining barqaror rivojlanishi esa, avvalo, ichki moliyaviy resurslar, xususan, aholi jamg‘armalarining iqtisodiyotga samarali jalb etilishiga bog‘liqdir. Shu jihatdan aholi jamg‘armalari iqtisodiy tizimning muhim moliyaviy manbasi sifatida namoyon bo‘lib, ularning investitsiya faoliyatiga yo‘naltirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nazariyada jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi. Jamg‘armalar iqtisodiyotda investitsion resurslarning shakllanish manbai bo‘lsa, investitsiyalar esa ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli aholi qo‘lida mavjud bo‘lgan bo‘sh pul mablag‘larini moliya bozorlari, bank tizimi hamda investitsiya institutlari orqali iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari ko‘p jihatdan investitsiyalar hajmi bilan belgilanadi. Xususan, dunyo mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 20–25 foizi investitsiyalar hisobiga shakllanadi. Bu esa investitsion faollikni oshirishda ichki jamg‘armalarning, ayniqsa aholi jamg‘armalarining o‘rni naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Aholi jamg‘armalarining investitsiyalarga transformatsiyasi moliyaviy vositachilik tizimining rivojlanganlik darajasi, aholi daromadlari, moliyaviy savodxonlik hamda investitsion muhit bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq iqtisodiyotda ichki investitsion resurslardan samarali foydalanish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda aholi jamg‘armalarining yalpi ichki mahsulotga nisbati 15,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda ushbu ko‘rsatkichning o‘sish tendensiyasi davom etmoqda. 2025-yilga kelib iqtisodiyotda olib borilgan tarkibiy islohotlar, bank-moliya tizimining liberallashuvi hamda aholi daromadlarining oshishi natijasida jamg‘armalarning iqtisodiyotdagi ulushi yanada ortishi kuzatildi. Xalqaro iqtisodiy ma’lumotlar va prognozlarga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda jamg‘armalarning YaIMga nisbati taxminan 18–20 foiz atrofida shakllanganligi qayd etilmoqda. Bu esa ichki investitsion resurslar salohiyati tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.Mazkur ko‘rsatkich rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda nisbatan past bo‘lib, mavjud jamg‘arma salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotganini anglatadi. Shu bois aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga faol jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar jozibadorligini oshirish va aholining investitsion faolligini rag‘batlantirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda aholi jamg‘armalarining iqtisodiy mohiyati, ularning investitsiya jarayonlaridagi o‘rni hamda O‘zbekistonda jamg‘armalarni investitsiyaga jalb etishning amaldagi holati tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda mavjud muammollar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

Aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga jalb qilish masalasi iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda xorijiy va

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan jamg‘armalarning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, moliya bozorlarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda investitsion faollikka ta’siri keng o‘rganilgan.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillaridan J.M. Keynes jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslab, aholi daromadlari oshishi bilan jamg‘arma hajmi ham ortishini ta’kidlagan. Uning fikricha, jamg‘armalarning samarali investitsiyalarga yo‘naltirilishi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. R. Solou va boshqa neoklassik olimlar iqtisodiy o‘sish modelida kapital jamg‘arilishi asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatib berganlar.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida McKinnon va Shaw tomonidan ishlab chiqilgan “moliyaviy liberallashuv” konsepsiyasida aholining bo‘sh pul mablag‘larini bank-moliya tizimiga jalb qilish investitsion jarayonlarni faollashtirishning muhim omili sifatida baholangan. Ularning tadqiqotlarida foiz stavkalarining erkinlashuvi va moliyaviy vositalarning ko‘payishi jamg‘armalar hajmini oshirishi asoslab berilgan.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar L.I. Abalkin, A.G. Gryaznova va boshqalar aholi jamg‘armalarining investitsiya resursi sifatidagi ahamiyatini tadqiq etib, bank tizimi barqarorligi va aholi ishonchi investitsion faollikning asosiy omillaridan biri ekanligini qayd etganlar. Ular moliyaviy institutlar rivojlanishi jamg‘armalarni iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirish imkonini kengaytirishini ta’kidlaydilar.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Q.X. Abdurahmonov, Sh.Sh. Shodmonov, B.Yu. Xodiyev va boshqa tadqiqotchilar mamlakatda aholi daromadlari, jamg‘armalar va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, iqtisodiy islohotlar sharoitida moliya bozorlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qilganlar. Ularning ilmiy ishlarida tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bank-moliya islohotlari, raqamli bank xizmatlarining kengayishi va kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga faolroq jalb qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda aholi jamg‘armalarini uzoq muddatli investitsiyalarga yo‘naltirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish hamda aholi ishonchini oshirish masalalari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan.

Shu sababli aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga jalb qilishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning bir qator zamonaviy usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy o‘sish va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlovchi klassik hamda zamonaviy iqtisodiy nazariyalar tashkil etdi. Jumladan, J. Keynsning jamg‘arma va investitsiyalar o‘rtasidagi muvozanat nazariyasi, Harrod–Domar modelining iqtisodiy o‘sishda investitsiyalarning roliga oid yondashuvlari hamda R. Solowning neoklassik iqtisodiy o‘sish modeli asosida aholi jamg‘armalarining investitsiya jarayonlariga ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Jamg‘armalar va investitsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik iqtisodiy nazariyada muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Keyns nazariyasida jamg‘armalarning investitsiyalarga aylanishi iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, iqtisodiyotdagi umumiy investitsiyalar hajmi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\boldsymbol{I = S + (T - G) + (M - X)}$$

Bu yerda:

I — investitsiyalar hajmi;

S — xususiy jamg‘armalar;

(T−G) — davlat byudjeti balansi;
(M−X) — tashqi savdo balansi.

Mazkur model iqtisodiyotda investitsiyalar faqat davlat yoki tashqi manbalar hisobidan emas, balki aholi va xususiy sektor jamg‘armalari orqali ham shakllanishini ko‘rsatadi. Shu sababli aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga faol jalb qilish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

2020–2025-yillar davomida O‘zbekistonda aholi jamg‘armalari hajmida izchil o‘sish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, 2020-yilda jamg‘armalar hajmi 51,24 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshib, taxminan 145–150 trln so‘m atrofida shakllandi. Shu davr mobaynida jamg‘armalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati ham 13,8 foizdan 18–20 foizgacha ko‘tarildi. Bu holat aholi daromadlarining ortishi, bank tizimiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishi hamda moliyaviy xizmatlar qamrovining kengayishi bilan izohlanadi.

Ayniqsa, 2021–2023-yillarda jamg‘armalar hajmining yuqori sur’atlarda o‘sishi raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar va onlayn omonat tizimlarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. 2024–2025-yillarga kelib esa investitsion muhitning yaxshilanishi, kapital bozori instrumentlarining ko‘payishi va davlat tomonidan moliyaviy sektorni qo‘llab-quvvatlash choralarining kuchaytirilishi aholining investitsion faolligini yanada oshirdi.

2025-yilda aholi jamg‘armalarining asosiy qismi hanuz bank omonatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning ulushi jami jamg‘armalarning qariyb 42–44 foizini tashkil etdi. Bu aholining xavfsiz va barqaror moliyaviy vositalarga bo‘lgan ishonchi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, aksiyalar, investitsiya fondlari va ko‘chmas mulkka yo‘naltirilgan mablag‘lar ulushi ham oshib bordi. Ayniqsa, aksiyalar bozoridagi faollikning ortishi natijasida ushbu yo‘nalish bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichi 25 foizdan yuqori darajaga yetdi. Ko‘chmas mulk sektorida esa daromadlilik 22–23 foiz atrofida shakllandi.

Mazkur holat O‘zbekistonda aholi jamg‘armalarini investitsiya faoliyatiga jalb qilish mexanizmlari asta-sekin takomillashib borayotganini, moliya bozori infratuzilmasining rivojlanishi esa ichki investitsion resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

O‘zbekistonda aholi jamg‘armalari dinamikasi (2020-2025)[183]

Yil	Jamg‘armalar hajmi (mlrd. so‘m)	YaIMga nisbati (%)	O‘sish sur’ati (%)
2020	51 240	13,8	20,3
2021	67 890	14,9	32,5
2022	89 340	15,2	31,6
2023	108 750	15,8	21,7
2024	126 480	17,1	16,3
2025	148 920	18,7	17,7


“O‘zbekistonda aholi jamg‘armalari dinamikasi (2020–2025)” jadvali ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakatda aholi jamg‘armalari hajmi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2020-yilda jamg‘armalar hajmi 51,24 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 148,92 trln so‘mga yetgan. Bu esa besh yil davomida jamg‘armalar hajmi qariyb uch baravarga oshganini anglatadi.

Jamg‘armalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati ham izchil o‘sib borgan. 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 13,8 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilda 18,7 foizga yetgan. Bu holat aholining daromadlari ortib borayotgani, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi kengayayotgani hamda bank tizimiga ishonch mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2021–2022-

[183] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzildi

yillarda jamg‘armalar o‘sish sur’atining yuqori bo‘lishi iqtisodiyotda tiklanish jarayonlari va raqamli bank xizmatlarining keng joriy etilishi bilan izohlanadi.

2024–2025-yillarda o‘sish sur’atlari nisbatan barqarorlashgan bo‘lsa-da, jamg‘armalar hajmining mutlaq ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortishda davom etgan. Bu esa iqtisodiyotda ichki moliyaviy resurslar salohiyati kengayib borayotganini va aholi mablag‘larini investitsiyaga yo‘naltirish imkoniyatlari ortayotganini ko‘rsatadi.



1-diagramma. Investitsiya yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimot (2025-yil)[184]

“Investitsiya yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimot (2025-yil)” jadvali tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholi jamg‘armalarining asosiy qismi bank omonatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning ulushi jami investitsiyalarning 42,7 foizini tashkil etgan. Bu aholining xavfsiz va kafolatlangan moliyaviy vositalarga bo‘lgan ishonchi yuqori ekanligini bildiradi. Bank omonatlarining samaradorlik ko‘rsatkichi 19,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, boshqa ayrim investitsion yo‘nalishlarga nisbatan daromadlilik pastroq bo‘lib qolmoqda.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, aksiyalar sektori eng yuqori samaradorlikka ega yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sektorning samaradorlik ko‘rsatkichi 26,3 foizni tashkil etgan. Bu kapital bozori instrumentlariga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganini hamda investitsion madaniyat asta-sekin rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, aksiyalar ulushining 16,8 foizga yetishi moliya bozorida diversifikatsiya jarayonlari kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Ko‘chmas mulk sektori ham aholining muhim investitsiya yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu yo‘nalishning ulushi 15,9 foizni tashkil etgan va samaradorlik ko‘rsatkichi 23,4 foizga teng bo‘lgan. Bu ko‘chmas mulkning uzoq muddatli va nisbatan barqaror investitsiya vositasi sifatida saqlanib qolayotganini anglatadi.

Davlat qimmatli qog‘ozlarining ulushi 21,5 foizni tashkil etgani aholining davlat kafolati mavjud bo‘lgan moliyaviy instrumentlarga qiziqishi yuqoriligini ko‘rsatadi. Boshqa investitsiya yo‘nalishlarining ulushi esa nisbatan kichik bo‘lib, bu moliya bozoridagi ayrim instrumentlar hali yetarli darajada rivojlanmaganligini bildiradi.

Umuman olganda, jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda aholi jamg‘armalarini investitsiyaga jalb qilish mexanizmlari bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini, ayniqsa kapital bozori va raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi investitsion faollikni oshirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

[184] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari

2-jadval.

Jahon mamlakatlari bilan qiyosiy tahlil[185]

Mamlakat	Jamg‘armalar/YaIM (%)	Investitsiyalar/YaIM (%)	Samaradorlik koeffitsienti
O‘zbekiston	15,8	22,1	0,71
Singapur	47,3	24,8	1,91
Janubiy Koreya	34,1	31,2	1,09
Malayziya	28,7	26,3	1,09
OECD o‘rtacha	25,4	21,7	1,17

O‘zbekistonning samaradorlik koeffitsienti (0,71) boshqa mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lib, investitsiyalar va iqtisodiy natijadorlik o‘rtasidagi nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni, investitsiyalar ulushi (22,1%) mavjud bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy samaraga aylanish darajasi pastroq. Singapur (1,91) eng yuqori samaradorlik koeffitsientiga ega bo‘lib, jahon miqyosida investitsiyalarni yuqori darajada samarali boshqarish va resurslardan intensiv foydalanish tizimi shakllanganligini anglatadi. Janubiy Koreya (1,09), Malayziya (1,09) va OECD o‘rtacha ko‘rsatkichi (1,17) ham nisbatan barqaror va samarali investitsiya-jang‘arma muvozanatini namoyon etadi. Umuman olganda, jadval O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar samaradorligini oshirish zarurligini, xususan, kapitaldan foydalanish samaradorligini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va institutsional muhitni takomillashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axoli jamg‘armalari va investitsiyalar o‘rtasida kuchli hamda ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, korrelyatsiya koeffitsienti r=0.87 ni tashkil etdi. Bu esa aholi tomonidan shakllantirilayotgan jamg‘armalar iqtisodiyotga investitsiya sifatida yo‘naltirilganda iqtisodiy o‘sish va moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Shu bilan birga, amaliy tahlillar O‘zbekistonda aholi jamg‘armalarini investitsiya jarayonlariga keng jalb etish mexanizmlari hali yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, moliya bozorining chuqurlashmaganligi, investitsion vositalarning cheklanganligi hamda aholining moliyaviy savodxonligi darajasi bu jarayonning samaradorligiga ta’sir qilmoqda.

Tadqiqot davomida kelgusida quyidagi strategik yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarurligi aniqlandi:

- moliya bozorini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish;
- sug‘urta va kafolat mexanizmlarini rivojlantirish orqali aholining investitsiyalarga bo‘lgan ishonchini oshirish;
- aholining moliyaviy savodxonligini kuchaytirish va investitsion madaniyatni shakllantirish.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda raqamli moliya vositalarining jamg‘arma va investitsiya jarayonlariga ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda regional tahlillar olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, xalqaro kapital harakatining milliy investitsion jarayonlarga ta’siri va uning iqtisodiy barqarorlikka ko‘rsatadigan natijalari bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936. 403 p.
2. Harrod R.F. An Essay in Dynamic Theory // The Economic Journal. 1939. Vol. 49. №

[185]World Bank. Savings and Investment Dynamics in Developing Countries. Washington DC, 2025.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

193. P. 14-33.

3. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. 1956. Vol. 70. № 1. P. 65-94.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2025-yil hisoboti. Toshkent, 2026.

5. World Bank. Savings and Investment Dynamics in Developing Countries. Washington DC, 2025.

6. IMF Working Paper. "Household Savings and Economic Growth in Emerging Markets." 2023. № 23/147.

7. OECD Economic Outlook Database. 2025.

8. Schmidt-Hebbel K., Serven L. The Economics of Saving and Growth. Cambridge University Press, 2000.

9. Feldstein M. Domestic Saving and International Capital Movements in the Long Run and the Short Run // European Economic Review. 1983. Vol. 21. P. 129-151.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА ЭКОНОМИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА, ИНДИИ И КИТАЯ

Байдарова Сабина Бахтияровна

Ташкентский государственный экономический университет
Студент 2 курса факультета СМОП УрГЭУ - ТГЭУ
sbaydarova@gmail.com

Аннотация: *В данной статье проведён сравнительный анализ влияния процессов глобализации на развивающиеся страны. Исследование основано на данных Всемирного банка за 2000–2023 годы и охватывает экономики Китая, Индии и Узбекистана. Результаты показали, что интеграция в мировую экономику способствовала ускорению экономического роста во всех трёх странах. Экспортно-ориентированная модель Китая обеспечила высокие темпы роста, однако сопровождалась значительной изменчивостью. Модель Индии, основанная на секторе услуг, продемонстрировала высокую степень адаптивности. Ресурсно-промышленная модель Узбекистана обеспечила относительную устойчивость в кризисные периоды. Научная новизна статьи заключается в сравнительном исследовании трёх различных моделей интеграции в рамках единой аналитической системы.*

Ключевые слова: *глобализация, развивающиеся страны, экономиеский рост, инвестиции, экспортная квота, модель интеграции, Китай, Индия, Узбекистан.*

GLOBALLASHUVNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA’SIRI: O‘ZBEKISTON, HINDISTON VA XITOY MISOLIDA

Baydarova Sabina Baxtiyorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
SMOP fakulteti, UrGƏU–TDIU qo‘shma yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: sbaydarova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ta’siri qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot Jahon bankining 2000–2023-yillardagi ma’lumotlari asosida Xitoy, Hindiston va O‘zbekiston iqtisodiyotlarini qamrab oldi. Natijalar integratsiyalashuv har uchala mamlakatda ham iqtisodiy o‘sishni jadallashtirganini ko‘rsatdi. Xitoyning eksportga yo‘naltirilgan modeli yuqori o‘sish bilan birga kuchli o‘zgaruvchanlikni yuzaga keltirdi. Hindistonning xizmatlar sektoriga asoslangan modeli yuqori moslashuvchanlikni namoyon etdi. O‘zbekistonning resurs-sanoat modeli esa inqiroz davrlarida nisbatan barqaror natijalarni ta’minladi. Maqolaning ilmiy yangiligi uch xil integratsiya modelining yagona tahliliy tizimda qiyosiy o‘rganilganidadir.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, rivojlanayotgan davlatlar, investitsiyalar, eksport kvotasi, integratsiya modeli, Xitoy, Hindiston, O‘zbekiston.*

THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON THE ECONOMIES OF DEVELOPING COUNTRIES: THE CASES OF UZBEKISTAN, INDIA, AND CHINA

Baydarova Sabina Bakhtiyarovna

Tashkent State University of Economics
2nd Year Student, Faculty of SMOP, USUE–TSUE
E-mail: sbaydarova@gmail.com

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Abstract: This article presents a comparative analysis of the impact of globalization processes on developing countries. The study is based on World Bank data for 2000–2023 and examines the economies of China, India, and Uzbekistan. The findings indicate that integration into the global economy accelerated economic growth in all three countries. China’s export-oriented model ensured high growth rates but was accompanied by significant volatility. India’s service-based model demonstrated a high level of adaptability. Uzbekistan’s resource-industrial model provided relative stability during periods of crisis. The scientific novelty of the article lies in the comparative study of three different integration models within a unified analytical framework.

Keywords: globalization, developing countries, economic growth, investments, export quota, model of integration, China, India and Uzbekistan.

Введение.

Комплексный процесс усиления взаимозависимости между национальными экономиками через расширение международных потоков товаров, услуг, капитала и технологий,называемый глобализацией, становится одним из наиболее важных трендов в современной мировой экономике. Выступая как неотъемлимая составляющая международных экономических отношений, охватывает внешнеэкономическую деятельность, движение капитала, инвестиционные процессы, технологический обмен наряду с культурными и социальными аспектами взаимодействия государств мира.

Как в классической экономической теории, так и в современной экономической практике сложились полярные мнения касаемо влияние самого процесса и ее последствий, определяющиеся уровнем развития национальной эконономики и моделью интеграции в мировое хозяйство.

Томас Фридман, известный миру благодаря глубокому анализу глобализации, международных отношений и технологий, в свой книге The World is Flat объясняет как интернет и технологии уравнивают экономические возможности стран и стирают границы [8]. Иными словами глобализация характеризуется как выравнивание мирового поля, открывающее перед странами новые возможности для роста и развития. В противоположность этому представитель новокейнсианского направления Джозеф Стиглиц в своей работе Globalization and Its Discontents раскрывает как неспрведливое распределение выгод подрывает доверие к процессу глобализации и ставит развивающиеся страны в уязвимое долговое положение, которое происходят из-за того, что глобальные институты на службе глобальных интересов. Большая часть мировых финансовых рисков перекладываются на страны, которые меньше всего способны с ними справиться, в качестве доказательства приводится «Вашингтонский консенсус» и другие события, принуждающие к жесткой экономии, что делало население развивающихся стран и глобальной периферии еще более уязвимыми [11].

Двойственный характер также потвержается результатами эмперического исследования. С одной строны прямые инвестиции, распространение передовых технологий и геограйическая диверсификация экспорта, выступают в качестве катализаторов экономического роста и развития. С другой стороны становятся факторами, усиливающие зависимость от внешнеэкономической конъктуры и внутренее неравенство.

Статистические показатели развития рассматриваемых стран показывают, что маштаб этих эффектов и характер определяется выбранной моделью интеграции. В частности, Китай реализовал экспортно- промышленную модель, ставя в приоритет масштабное производство и привлечение прямых инвестиционных привлечений [3]. Индия сфокусировалась на рвзвитие высокотехнологических услуг и ИТ-аутсорсинга [1]. Узбекистан начал активную интеграцию сравнительно недавно через осуществлени реформ открытости [2].

Несмотря на обширный массив проведенных исследований в этой области,

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

существует дефицит работ направленный на непосредственный сравнительный анализ качественно разных моделей интеграции. Экспертно-промышленной, сервисно – ориентированной и ресурсно- индустриальный в рамках этой работы. Представленный анализ направлен на частичную компенсацию указанного пробела. Объектом исследования выступают экономические системы Китая, Индии и Узбекистана, а предметом исследования является влияние глобализации на экономический рост развивающихся стран в зависимости от избранной модели интеграции через сравнительный анализ динамики ВВП, прямых иностранных инвестиций и экспортной квоты [6].

Цель данного исследования заключается в проведении сравнительного анализа влияния глобализации через призму указанных показателей. Для достижения цели поставлены следующие задачи:

a) систематизировать теоретические подходы к оценке воздействия глобализации на развивающиеся экономики;

b) собрать и обобщить статистические данные за 2000–2023 гг.;

c) провести межстрановой сравнительный анализ динамики показателей и выявить страновую специфику;

d) определить положительные и отрицательные эффекты глобализации для рассматриваемой группы стран.

Методология исследования.

Работа построена на сравнительном анализе влияния глобализации на экономическое развитие Китая, Индии и Узбекистана, сделанная по принципу сопоставимости. Выбор данных стран обусловлен их принадлежностью к странам с развивающиеся экономикой, но разной моделью интеграции. Сведение трех моделей в общую систему координат позволяет определить особенности влияния глобализации и ее последствий на страны с различной структурой экономики. Эмпирической базой служат данные Всемирного банка за 2000 – 2023 годы, охватывающие этап активного развития, мировой финансовый кризис 2008 года, посткризисное восстановление и последствия пандемии коронавируса. Темп роста ВВП, приток прямых иностранных инвестиций (ПИИ) и экспорт товаров и услуг, выступают аналитическими показателями из–за широкого применения в научных работах международной экономической интеграции. Корректное сопоставление стран с различным масштабом экономики обеспечивается использованием относительных показателей. В ходе работы применялись методы сравнительного и статистического анализа. Исследование проводилось как на межстрановом уровне, так и в разрезе динамика экономических показателей каждой стране за рассматриваемый временной промежуток. Кроме того, в работе присутствуют ограничения, связанные с тем, что используемые показатели не охватывают социальные, экологические последствия глобализации и воздействия внутренних и внешних факторов га экономический рост.

Обзор литературы по теме.

По мнению Дани Родрика, глобализация предоставляет развивающимся странам возможности для экономического роста, однако успех во многом зависит от качества национальных институтов и государственной политики. Он подчеркивает, что каждая страна должна выбирать собственную модель интеграции, исходя из внутренних экономических условий. Особенно показателен опыт Китая, где активная промышленная политика государства обеспечила эффективные результаты [7]. Родрик считает, что чрезмерно свободная глобализация может усиливать экономическое неравенство. Именно поэтому он выдвигает концепцию «гибкой глобализации».

Джагдиш Бхагвати рассматривает глобализацию как один из ключевых факторов экономического развития развивающихся стран. По его мнению, международная торговля и иностранные инвестиции способствуют сокращению бедности и созданию новых рабочих

мест. В качестве примера Бхагвати приводит опыт Индии, где экономическая открытость стала причиной быстрого развития сектора услуг. Он также подчеркивает необходимость сочетания глобализации с эффективным государственным регулированием [9]. В взглядах ученого экономическая интеграция оценивается как позитивный процесс.

Джозеф Стиглиц подчеркивает противоречивое влияние глобализации на развивающиеся страны. По его мнению, глобализация может ускорять экономический рост, однако несправедливая международная финансовая система приводит к ослаблению некоторых государств. Анализируя опыт азиатских стран, в частности Китая, Стиглиц показывает важность роли государства в управлении экономикой. Он также отмечает, что в периоды пандемий и финансовых кризисов развивающиеся страны оказываются под большей угрозой [10]. Ученый считает, что глобализация должна служить интересам человека и общества.

Анализ и обсуждение результатов.

Динамика темпов роста ВВП трех стран за 2000 – 2023 годы представлены в таблице

Таблица 1

Темпы роста ВВП Китая, Индии и Узбекистана, 2000–2023 гг. (%)[186]

Год	Китай	Индия	Узбекистан
2000	8,59	3,84	4,20
2005	11,46	9,28	7,04
2010	10,60	8,50	7,33
2015	6,98	8,00	7,57
2020	2,34	–5,78	1,92
2023	5,41	7,58	5,95

Таблицы 1 позволяют выявить три разнонаправленные траектории экономического роста. Китай демонстрирует наиболее выраженную динамику с пиковыми значениями 11,46% в 2005 году и 10,60% в 2010 году за которыми последовало постепенное замедление до 6,98% в 2015 г. Пандемийный 2020 г. ознаменовался снижением до 2,34% , это минимального значения за весь период. В 2023 году рост восстановился до 5,41%, что коррелирует с переориентацией китайской экономики с экспортной модели на внутреннее потребление и сферу услуг [4].

Индийская экономика прошла через более резкие колебания. После умеренного показателя в 3,84% в 2000 г. последовал ускоренный рост до 9,28% в 2005 году, обусловленный либерализацией и развитием сектора ИТ-аутсорсинга. В 2010 – 2015 годы темпы стабилизировались на уровне 8,00 - 8,50%. Пандемийный шок 2020 г. вызвал наиболее глубокий спад среди трёх стран, где падение составило 5,78%. Вместе с тем восстановление оказалось и самым быстрым и в 2023 году ВВП Индии вырос на 7,58%, превысив докризисные темпы. Такая динамика указывает на высокую адаптивность сервисной модели интеграции [1].

Узбекистан выделяется наименьшей амплитудой колебаний. Темпы роста последовательно увеличивались с 4,20% в 2000 г. до 7,04% в 2005 году и оставались в диапазоне 7,33–7,57% в 2010–2015 гг. В 2020 году падение составило 1,92%, показав минимальное значение среди трёх стран, а к 2023 г. показатель восстановился до 5,95%. Стабильность узбекской экономики объясняется относительно низкой зависимостью от глобальных финансовых рынков и сохранением значительной доли государственного сектора [5].

Прямые иностранные инвестиции выступают одним из главных каналов воздействия глобализации на развивающиеся экономики.

[186] на базе данных Всемирного банка

Таблица 2

Приток ПИИ в Китай, Индию и Узбекистан, 2000–2023 гг. (% ВВП)[187]

Год	Китай	Индия	Узбекистан
2000	3,48	0,77	0,43
2005	4,55	0,89	1,17
2010	4,00	1,63	2,84
2015	2,19	2,07	1,12
2020	1,70	2,41	1,47
2023	0,28	0,79	0,81

Китай характеризуется наиболее высокими объёмами привлечённых ПИИ среди трёх стран. Пик 4,55% ВВП был достигнут в 2005 году, после чего показатель последовательно снижался: 4,00% в 2010 году, 2,19% в 2015 году, 1,70% в 2020 году и 0,28% в 2023 году. Данная динамика объясняется эффектом знаменателя, иначе рост ВВП опережал приток инвестиций, переориентацией на внутренние источники капитала и введением технологических ограничений со стороны западных стран [3].

Индия демонстрирует противоположный тренд. Приток ПИИ увеличился с 0,77% ВВП в 2000 г. до 2,07% в 2015 г. В пандемийный 2020 г. показатель достиг максимума 2,41%, что связано с привлекательностью сектора информационных технологий и цифровых услуг. Снижение до 0,79% в 2023 г. коррелирует с общемировым спадом инвестиционной активности и ужесточением монетарной политики [1].

Узбекистан демонстрирует неравномерную динамику. Приток ПИИ вырос с 0,43% ВВП в 2000 г. до пика 2,84% в 2010 г., затем снизился до 1,12% в 2015 г. В 2020 г. показатель составил 1,47%, 0,81% в 2023 г. Волатильность характерна для транзитивной экономики в фазе реформ. Основными секторами привлечения инвестиций остаются энергетика, инфраструктура и текстильная промышленность [6].

Экспорт является прямым индикатором участия страны в международной торговле и одним из главных каналов воздействия глобализации. Динамика темпов роста экспорта за 2000 – 2023 годы представлены в таблице 3.

Таблица 3

Экспорт товаров и услуг Китая, Индии и Узбекистана, 2000–2023 гг. (% ВВП)[188]

Год	Китай	Индия	Узбекистан
2000	20,7	12,6	27,1
2005	33,4	18,5	34,7
2010	26,7	21,5	28,6
2015	20,9	19,5	24,2
2020	18,2	18,4	23,6
2023	19,1	22,4	27,7

Китай демонстрирует классическую траекторию экспортно-ориентированной модели. Экспортная квота выросла с 20,7% ВВП в 2000 году до пика 33,4% в 2005 году, что отражает период активного встраивания в глобальные производственные цепочки после вступления в ВТО. С 2010 года началось устойчивое снижение: 26,7% в 2010 году, 20,9% в 2015 году, 18,2% в 2020 году. Небольшое восстановление до 19,1% в 2023 г. подтверждает постепенную переориентацию экономики на внутренний спрос [3].

Индия характеризуется последовательным наращиванием экспортной квоты. Показатель увеличился с 12,6% ВВП в 2000 году до 21,5% в 2010 году, что связано с интеграцией в глобальный рынок ИТ-услуг и аутсорсинга. После незначительного снижения до 18,4% в 2020 году, экспортная квота достигла рекордных 22,4% в 2023 году, отражая растущую роль Индии как экспортёра высокотехнологичных услуг [1].

[187] на базе данных Всемирного банка
[188] на базе данных Всемирного банка

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Узбекистан сохраняет самую высокую экспортную квоту среди трёх стран. Показатель вырос с 27,1% ВВП в 2000 году до максимума 34,7% в 2005 году на волне сырьевого экспорта, то есть хлопка, газа и золота. Снижение до 23,6% в 2020 году сменилось восстановлением до 27,7% в 2023 году. Высокая экспортная ориентация, с одной стороны, свидетельствует о глубокой вовлечённости в международную торговлю, с другой же указывает на уязвимость перед колебаниями мировых цен на сырьё [2].

Различия в динамике роста выбранных показателей, отраженных в таблицах 1,2 и 3 связано не столько с масштабом экономик, а выступает следствием институциональных моделей интеграции. Китайская модель фокусировалась на масштабное привлечение ПИИ в производственный сектор и встраивание в глобальные цепочки стоимости. Это обеспечило пиковые темпы роста, но сформировало структурную зависимость от внешнего спроса и доступа к зарубежным технологиям. Смена фазы экономики от экстенсивного роста за счет иностранного капитала к опоре на внутренние источники отразилось в снижении ПИИ с 4,55% до 0,28%. Замедление экспортной квоты с 33,4% до 19,1% подтверждает этот сдвиг.

Индийская сервисная модель изначально не требовала масштабного промышленного капитала. Ставка на ИТ-аутсорсинг и цифровые услуги позволила наращивать экспортную квоту без сопоставимых объёмов ПИИ. Это же объясняет относительную устойчивость к пандемийному шоку: сектор услуг, особенно удалённых, пострадал меньше, чем промышленность. Рекордный приток ПИИ в 2020 году именно в разгар кризиса, дополнительное свидетельство привлекательности данной модели для глобальных инвесторов.

Узбекская реформируемая модель характеризуется меньшей зависимостью от глобальных финансовых рынков при высокой экспортной ориентации. Структура экспорта обуславливает как стабильность, сырьевой спрос менее волатилен в краткосрочной перспективе, страна остаётся уязвимой перед ценовыми шоками в долгосрочном риске. Наименьшее падение ВВП в 2020 году объясняется сохранением значительной доли государственного сектора и относительно низкой интеграцией в глобальные финансовые цепочки. Этот фактор в нормальных условиях сдерживает рост, но в кризис работает как стабилизатор.

Заключение и предложения.

Результаты сравнительного анализа показывают, что глобализация стала мощным двигателем экономического роста для всех трех стран. За выбранный промежуток с 2000 по 2023 годы среднегодовой прирост ВПП Китая достиг 7,8 %, Индия – 6,5%, а Узбекистан – 6,0%. Эти цифры заметно превышают среднемировые показатели того времени. Однако сделала экономики стран более зависимыми от мировых кризисов, что наглядно доказали показатели 2008 и 2020 года. Выбранная модель определила итоговое соотношение выгод и рисков для каждой экономики.

Среднегодовой приток прямых иностранных инвестиций составил 2,70% от ВВП Китая, 1,46% для Индии и 1,14% для Узбекистана, отражая общие темпы их макроэкономического роста. Сервисная модель Индии долго привлекала стабильный капитал, когда Китайская промышленная модель, напротив, испытывала спад из – за геополитического давления и сместила фокус на высокие технологии. Специфическими чертами обладает ресурсно – индустриальная модель Узбекистана. Здесь государство целенаправленно направляло инвестиции в реальный сектор и глубокую переработку сырья, защищая внутренний рынок от спекулятивных шоков. Параметры среднегодовой экспортной квоты составили 23,2% от ВПП для Китая, 18,8% для Индии и 27,7% для Узбекистана. Подобная распределение показывает прямую связь между размером системы и ее уязвимостью. Малые экономики зависят от внешней торговли гораздо сильнее, чем крупные диверсифицированные рынки. В случае Узбекистана высокая доля экспорта

создает двойственный эффект. С одной стороны, внешние поставки стимулируют национальное производство, а с другой, сырьевая структура этого экспорта формирует серьезные риски при любых колебаниях мировых цен.

Обобщение вышеизложенного позволяет делать вывод о том, что глобализация не является универсальным благом или однозначной угрозой. Ее эффекты всегда зависят от выбранной модели и качества национальных институтов. Опыт трех стран показывает, что экспортно – промышленная стратегия дает максимальные пики роста при высокой уязвимости. Сервисно – ориентированный подход обеспечивает наибольшую адаптивность. В то же время ресурсно – индустриальная модель Узбекистана гарантирует наименьшую волатильность, несмотря на экспортную зависимость. Итоговый успех развития опрделяет способность государства вовремя корректировать выбранный курс по мере накопления внешних рисков.

Список использованной литературы:

1. Галищева Н. В. Глобализация индийской экономики: тенденции и перспективы // Вестник МГИМО-Университета. — 2017. — № 1 (52).

2. Изентаева Г. Влияние глобальных экономических тенденций на банковскую систему Республики Узбекистан // Models and Methods in Modern Science. – 2024 — URL: https://zenodo.org/records/14557129 (дата обращения: 15.05.2026).

3. Китай в мировой экономике в контексте глобализации // МИРЭК МГИМО. — 2017. — № 1. — URL: https://mirec.mgimo.ru/2017/2017-01/china-in-the-world-economy-in-the-context-of-globalization (дата обращения: 15.05.2026).

4. Проблемы глобализации для развитых и развивающихся стран // Экспертно-аналитический центр РАН. — URL: https://eac-ras.ru/Lib/Research/Problemy-globalizacii.php (дата обращения: 15.05.2026).

5. Глобализация: влияние на экономику Индии // Росдиплом. — URL: https://lib.rosdiplom.ru/library/prosmotr.aspx?id=911520 (дата обращения: 15.05.2026).

6. The Impact of Global Economic Crisis // Management Study Guide. — URL: https://www.managementstudyguide.com/ru/global-economic-crisis-impact.htm (дата обращения: 15.05.2026).

7. Rodrik D. One economics, many recipes: globalization, institutions, and economic growth. – 2008.

8. Friedman T. L. The World Is Flat: A Brief History of the Twenty-First Century. — New York: Farrar, Straus and Giroux, 2005.

9. Bhagwati J. In defense of globalization: With a new afterword. – Oxford University Press, 2004.

10. Stiglitz J. E. The road to freedom: Economics and the good society. – WW Norton & Company, 2024.

11. Stiglitz J. E. Globalization and Its Discontents. — New York: W.W. Norton & Company, 2002.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING FISKAL-INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Gafurova Umida Fatixovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: UGafurova_1717@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada korxonalar investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishda soliq imtiyozlari, tezlashtirilgan soliq qaytarish, hududiy differensiatsiyalangan stavkalar, yer resurslarini investitsiya majburiyatlari bilan bog‘lab taqsimlash hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasiga yo‘naltirilgan to‘lov yengilliklari kompleks mexanizm sifatida tadqiq etilgan. Tadqiqotda fiskal instrumentlar faqat budjet daromadlarini shakllantiruvchi vosita emas, balki korxona ixtiyoridagi likvid resurslarni investitsiya va innovatsiyalarga qayta taqsimlovchi tartibga solish mexanizmi sifatida talqin qilinadi. 2020-2024-yillar bo‘yicha tahliliy ko‘rsatkichlar asosida ish o‘rinlari yaratishga bog‘langan soliq imtiyozlari, QQS va ortiqcha to‘lovlarni bir kunlik muddatda qaytarish, og‘ir sharoitli hududlarda soliq stavkalarini 50 foizga pasaytirish, investitsiya hajmiga bog‘liq yer ijarasi hamda soliq-bojxona to‘lovlarini foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartiblarining iqtisodiy samarasi ochib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *investitsion faoliyat, innovatsion faoliyat, soliq imtiyozi, QQS qaytarish, yer ijarasi, hududiy rag‘bat, fiskal mexanizm, moliyaviy oqim, infratuzilma, bojxona to‘lovlari, korxona samaradorligi.*

ФИСКАЛЬНО-ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Гафурова Умида Фатиховна
Независимый исследователь Научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете,
E-mail: UGafurova_1717@mail.ru

Аннотация. *В статье исследуются фискально-институциональные механизмы повышения эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятий. Особое внимание уделено налоговым льготам, ускоренному возмещению НДС и излишне уплаченных налогов, снижению налоговых ставок для предприятий, действующих в сложных территориальных условиях, предоставлению земельных участков в прямую аренду на основе инвестиционных обязательств, а также рассрочке налоговых и таможенных платежей по инфраструктурным проектам. Фискальные инструменты рассматриваются не только как средство формирования доходов бюджета, но и как механизм перераспределения ликвидных ресурсов предприятий в инвестиции, технологическое обновление и инновационные проекты. В статье обосновано, что комплексное применение указанных механизмов способствует укреплению финансовой устойчивости предприятий, ускорению инвестиционного развития и повышению инновационной активности предприятий.*

Ключевые слова: *инвестиционная деятельность, инновационная деятельность, налоговые льготы, возврат НДС, аренда земли, региональные стимулы, фискальный механизм, финансовый поток, инфраструктура, таможенные платежи, эффективность предприятия.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

FISCAL AND INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT AND INNOVATION ACTIVITIES OF ENTERPRISES

Gafurova Umida Fatixovna
Independent Researcher at the Scientific Research Center “Scientific Foundations and Problems of Development of the Economy of Uzbekistan” under Tashkent State University of Economics,
E-mail: UGafurova_1717@mail.ru

Abstract. *The article examines fiscal and institutional mechanisms for improving the efficiency of enterprises’ investment and innovation activities. The study focuses on employment-linked property and land tax incentives, accelerated VAT and tax overpayment refunds, a differentiated tax reduction regime for enterprises operating in difficult territorial conditions, direct land lease mechanisms based on investment thresholds, and interest-free instalment payments for tax and customs obligations within engineering and communication infrastructure projects. Fiscal policy is interpreted not merely as a revenue-generating system, but as an active regulatory framework that releases liquidity, reduces transaction costs, supports capital renewal and strengthens innovation capacity.*

Keywords: *investment activity, innovation activity, tax incentives, VAT refund, land lease, regional incentives, fiscal mechanism, financial flow, infrastructure, customs duties, enterprise efficiency.*

Kirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning investitsion va innovatsion faolligi real sektorda barqaror o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Korxona darajasida investitsiya asosiy kapitalni yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va bozor talabiga mos mahsulotlar yaratish imkonini bersa, innovatsiya ushbu investitsiyalarni yuqori qo‘shimcha qiymat, texnologik ustunlik va raqobatbardoshlikka aylantiradi. Shu sababli investitsiya va innovatsiya jarayonlarini alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yagona moliyaviy-iqtisodiy zanjir sifatida baholash zarur.

Korxona investitsion qarorlariga ta’sir etuvchi omillar ichida soliq yuki, soliq ma’muriyatchiligi tezkorligi, yer resurslariga kirish tartibi, infratuzilma xarajatlari hamda hududiy shart-sharoitlar alohida o‘rin tutadi. Ushbu omillar korxonaning likvidligi, ichki moliyalashtirish manbalari, investitsiya loyihalarining qaytim muddati va tavakkalchilik darajasini belgilaydi. Demak, soliq va ma’muriy mexanizmlar passiv tartibga solish vositasi emas, balki investitsion-innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi faol institut sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi korxonalar ixtiyorida qoladigan moliyaviy resurslarni ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologik yangilanish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirishni ta’minlaydigan kompleks mexanizmlarni ilmiy asoslash zarurati bilan belgilanadi. Bunda soliq imtiyozlari va soliq ma’muriyatchiligidagi yengilliklar bandlik, hududiy rivojlanish, infratuzilma qurilishi va investitsiya muhiti sifati bilan bog‘langan holda ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Professor Philippe Aghion o‘zining ilmiy izlanishlarida innovatsiyalar va investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlari ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, korxonalarga beriladigan soliq imtiyozlari va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari innovatsion faollikni oshiradi. Shuningdek, barqaror fiskal siyosat investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi [1]. Natijada korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etishga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko‘proq mablag‘ yo‘naltiradi.

Professor Douglass C. North o‘z tadqiqotlarida investitsion faoliyat samaradorligi ko‘p

jihatdan institutsional muhit sifatiga bog‘liq ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, mulk huquqining himoyalanganligi, qonunchilikning barqarorligi va davlat boshqaruvining samaradorligi investorlar ishonchini mustahkamlaydi [2]. Korxonalar uzoq muddatli investitsiya qarorlarini qabul qilishda aynan shu omillarga tayanadi. Shu sababli fiskal rag‘batlar institutsional islohotlar bilan birgalikda qo‘llanilganda yuqori natija beradi.

Professor Michael E. Porter ilmiy izlanishlarida korxonalar samaradorligini oshirishda innovatsion infratuzilma va hududiy klasterlarning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy transport, logistika, ilmiy markazlar va biznes tarmoqlarining rivojlanganligi investitsiya loyihalarining natijadorligini oshiradi [3]. Korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik va raqobat innovatsiyalar almashinuvini tezlashtiradi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi.

Professor Joseph E. Stiglitz aytishicha, investitsion resurslarni samarali taqsimlash iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Uning tadqiqotlarida qayd etilishicha, innovatsion va ishlab chiqarish sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatda yuqori iqtisodiy samara beradi [4]. Fiskal siyosat korxonalarni texnologik yangilanish va modernizatsiyaga rag‘batlantirishi lozim. Bunday yondashuv korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Professor Mariana Mazzucato o‘z tadqiqotlarida davlat va xususiy sektor hamkorligi innovatsion rivojlanishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda fiskal rag‘batlar berish korxonalarning innovatsion salohiyatini oshiradi [5]. Davlat tomonidan yaratilgan institutsional sharoitlar yangi texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Natijada korxonalarning investitsion faoliyati samaradorligi va iqtisodiy barqarorligi kuchayadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy baholash, iqtisodiy guruhlash, dinamik tahlil va institutsional yondashuv usullaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy obyekti sifatida investitsiya loyihalarida ishtirok etuvchi korxonalar, og‘ir sharoitli hududlarda faoliyat yuritayotgan subyektlar, infratuzilma qurilishi bilan bog‘liq loyihalar hamda soliq ma’muriyatchiligi yengilliklaridan foydalangan korxonalar tanlandi.

Maqolada 2020-2024-yillar bo‘yicha berilgan tahliliy ko‘rsatkichlar asosida soliq imtiyozlari va ma’muriy yengilliklarning iqtisodiy natijalari baholandi. Bunda tejab qolingan mablag‘larning investitsiyaga qayta yo‘naltirilishi, innovatsion faol korxonalar ulushi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, yangi ish o‘rinlari, loyihalarning amalga oshirish sur’ati va infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiyalar kabi mezonlar asosiy indikator sifatida qabul qilindi.

Konseptual yondashuv va baholash mezonlari. Korxona investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini baholashda faqat kapital qo‘yilmalar hajmini hisobga olish yetarli emas. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni uning ishlab chiqarish quvvati, mehnat unumdorligi, texnologik yangilanish va bozordagi raqobat ustunligiga ta’siri bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur maqolada samaradorlik moliyaviy, institutsional va ijtimoiy ko‘rsatkichlar uyg‘unligida qaraladi.

Fiskal rag‘batlarning birinchi mezoni - korxona ixtiyorida qoladigan resurslar hajmining ortishi. Soliq yuki kamayganda yoki soliq qaytarish tezlashganda korxonada investitsiya uchun zarur bo‘lgan erkin pul oqimlari shakllanadi. Biroq bunday resurslar o‘z-o‘zidan innovatsion natija bermaydi; ularni asosiy kapital, texnologiya, kadrlar va infratuzilmaga maqsadli yo‘naltirish talab etiladi.

Ikkinchi mezon - imtiyozlarning natijaga bog‘langanligi. Ish o‘rinlari, ish haqi, investitsiya hajmi, yerdan maqsadli foydalanish yoki infratuzilma qurilishi bo‘yicha aniq shartlar mavjud bo‘lsa, soliq rag‘batlari iqtisodiy samara bilan bog‘lanadi. Bu davlatning fiskal xarajatlarini asoslash va imtiyozlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Uchinchi mezon - mexanizmlarning hududiy va tarmoq xususiyatlariga moslashuvchanligi.

Og‘ir sharoitli hududlarda soliq stavkalarini pasaytirish, investitsiya miqdoriga qarab yer ajratish va infratuzilma xarajatlarini bo‘lib-bo‘lib moliyalashtirish korxonalar faoliyatida real to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan. Bunday yondashuv soliq siyosatini umumiy imtiyozlar tizimidan maqsadli rivojlanish instrumentiga aylantiradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Korxonalar investitsion va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishda fiskal mexanizmlarning ta’siri bir necha bosqichda namoyon bo‘ladi. Birinchi bosqichda soliq imtiyozlari yoki to‘lov yengilliklari korxona ixtiyorida qoladigan likvid resurslarni oshiradi. Ikkinchi bosqichda ushbu resurslar asosiy kapital, aylanma mablag‘lar, texnologiya, infratuzilma yoki tadqiqot ishlariga yo‘naltiriladi. Uchinchi bosqichda investitsiya va innovatsiya natijalari ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi, hududiy faollik va budjet bazasining kengayishi orqali iqtisodiy samaraga aylanadi. Quyidagi ilmiy yangiliklar va tahliliy ma’lumotlar mazkur konseptual yondashuvning iqtisodiy mazmunini empirik dalillar orqali asoslab beradi.

1. Xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar asosida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida kamida 51 ta yangi ish o‘rni yaratgan, ushbu xodimlarni kamida bir yil davomida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan ish haqi bilan ta’minlagan hamda ular ulushi jami xodimlar sonining kamida 20 foizini tashkil etgan korxonalarga mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish tartibi ishlab chiqildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar asosida amalga oshiriladigan loyihalarda kamida 51 ta yangi ish o‘rni tashkil etgan, ularga kamida bir yil davomida belgilangan eng kam ish haqidan past bo‘lmagan to‘lovni ta’minlagan va yangi xodimlar ulushini jami xodimlar sonining kamida 20 foizi darajasida shakllantirgan korxonalar uchun mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha maqsadli imtiyozlar qo‘llash mexanizmi asoslandi.

Ushbu yangilikning mazmuni investitsiya rag‘batini bandlik natijalari bilan bevosita bog‘lashdan iborat. Soliq imtiyozi korxonaga avtomatik ravishda emas, balki aniq ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar bajarilganida beriladi. Bu yondashuv bir vaqtning o‘zida uchta vazifani hal qiladi: investitsiya loyihasining ijtimoiy natijasini kuchaytiradi, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishni rag‘batlantiradi va soliq imtiyozlaridan maqsadsiz foydalanish xavfini kamaytiradi.

1-jadval

Bandlik mezonlariga bog‘langan soliq imtiyozlarining investitsiya faolligiga ta’siri[189]

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				
			2020	2021	2022	2023	2024
1.	Respublika bo‘yicha xorijiy va mahalliy investitsiya loyihalari soni	ta	2 314	2 458	2 621	2 984	3 247
2.	51 ta va undan ortiq ish o‘rni yaratgan korxonalar soni	ta	186	201	219	274	318
3.	Shu jumladan, soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar	ta	–	–	–	168	214
4.	Imtiyoz olgan korxonalarda yaratilgan yangi ish o‘rinlari	ming ta	11,2	12,1	13,4	17,6	21,3
5.	MHEMdan kam bo‘lmagan ish haqi bilan ta’minlangan xodimlar ulushi	%	18,6	19,4	20,1	23,8	26,7
6.	Soliq imtiyozlari natijasida tejab qolingan mablag‘lar	mlrd so‘m	–	–	–	286,4	352,8
7.	Tejab qolingan mablag‘lar hisobidan investitsiyaga yo‘naltirilgan resurslar	mlrd so‘m	–	–	–	181,9	226,5
8.	Imtiyoz olgan korxonalarda asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sishi	%	7,8	8,3	9,1	12,6	14,9

[189] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2023-2024-yillarda imtiyozdan foydalangan korxonalar soni 168 tadan 214 taga yetgan. Bu davrda ushbu korxonalarda yaratilgan ish o‘rinlari 17,6 mingtadan 21,3 mingtaga oshgan. Eng muhim jihat - tejab qolingan mablag‘larning katta qismi investitsiyaga qaytarilgan: 2024-yilda 352,8 mlrd so‘mlik iqtisod qilingan resursning 226,5 mlrd so‘mi asosiy kapital va loyiha xarajatlariga yo‘naltirilgan.

Demak, ish o‘rinlari, ish haqi va xodimlar ulushi bo‘yicha aniq talablar soliq imtiyozlarini ijtimoiy mas’uliyatli investitsiya modeliga aylantiradi. Bu mexanizm qisqa muddatda korxona xarajatlarini optimallashtirsa, o‘rta muddatda mehnat bozorida barqarorlik, aholi daromadlari o‘sishi va soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi.

2. Investitsiya loyihalari ishtirokchisi bo‘lgan korxonalar uchun moliyaviy oqimlarni uzluksiz ta’minlash mexanizmi doirasida qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini o‘rnini qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo‘yicha mavjud ortiqcha to‘lov summalarini bir kunlik muddatda tezlashtirilgan tartibda qaytarish tartibi belgilandi.

Mazkur ilmiy taklif tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini barpo etishni o‘z ichiga olgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida korxonalarning moliyaviy yuklamasini me’yoriy tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, soliq va bojxona to‘lovlarini foizsiz hamda belgilangan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu tartibning qo‘llanilishi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda likvidlikni saqlash, infratuzilmaviy xarajatlarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda investitsiya jarayonlarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

2-jadval

Investitsiya loyihalarida tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmining iqtisodiy samaradorligi[190]

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar				
			2020	2021	2022	2023	2024
1.	Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qamrab olgan investitsiya loyihalari soni	ta	1 146	1 213	1 298	1 524	1 768
2.	Soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqidan foydalangan korxonalar	ta	–	–	–	462	598
3.	Bo‘lib-bo‘lib to‘langan soliq va bojxona to‘lovlari hajmi	mlrd. so‘m	–	–	–	1 284,6	1 612,9
4.	To‘lovlar kechiktirilishi natijasida korxonalarda qolgan likvid mablag‘lar	mlrd. so‘m	–	–	–	812,3	1 026,7
5.	Likvid mablag‘lar hisobiga infratuzilmaga qo‘shimcha yo‘naltirilgan investitsiyalar	mlrd. so‘m	–	–	–	536,8	684,2
6.	Infratuzilma qurilishi muddatining qisqarishi	oy	–	–	–	3,4	3,7
7.	Investitsiya loyihalarini amalga oshirish sur’atining oshishi	%	6,8	7,4	8,1	11,9	13,6
8.	Mazkur mexanizm orqali yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari	ming ta	24,6	26,1	28,4	35,9	43,2

Jadval ma’lumotlari tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qamrab olgan investitsiya loyihalarida soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi korxonalarning moliyaviy barqarorligi, infratuzilma investitsiyalarini jadallashtirish hamda

[190] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqilgan.

loyihalarni amalga oshirish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ifodalaydi. Xususan, 2020–2024-yillarda tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qamrab olgan investitsiya loyihalari soni 1 146 tadan 1 768 tagacha oshgan. Bu ko‘rsatkich tahlil davrida 622 taga yoki 54,3 foizga o‘sgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda infratuzilmaviy investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj va amaliy faollik ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2023–2024-yillarda soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqidan foydalangan korxonalar soni 462 tadan 598 taga yetgan. Bu 29,4 foizlik o‘sishni tashkil etib, mexanizmning tadbirkorlik subyektlari uchun amaliy ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu davrda bo‘lib-bo‘lib to‘langan soliq va bojxona to‘lovlari hajmi 1 284,6 mlrd. so‘mdan 1 612,9 mlrd. so‘mgacha ko‘paygan. Demak, korxonalar to‘lov majburiyatlarini bir vaqtning o‘zida to‘liq bajarish o‘rniga ularni belgilangan muddatlarga taqsimlash orqali aylanma mablag‘lariga tushadigan bosimni yumshatish imkoniga ega bo‘lgan.

To‘lovlarni kechiktirish natijasida korxonalar ixtiyorida qolgan likvid mablag‘lar hajmi 2023-yilda 812,3 mlrd. so‘mni, 2024-yilda esa 1 026,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu likvid mablag‘larning muhim qismi infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiya sifatida yo‘naltirilgan: 2023-yilda 536,8 mlrd. so‘m, 2024-yilda esa 684,2 mlrd. so‘m. Bu shundan dalolat beradiki, bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi faqat soliq yukini vaqtincha yengillashtiruvchi vosita emas, balki korxonalarning ichki moliyaviy resurslarini infratuzilma qurilishi va modernizatsiyasiga qayta yo‘naltirishga xizmat qiluvchi fiskal-moliyaviy instrument sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jadvalda infratuzilma qurilishi muddatining qisqarishi ham alohida ahamiyatga ega. 2023-yilda mazkur mexanizm natijasida qurilish muddati o‘rtacha 3,4 oyga, 2024-yilda esa 3,7 oyga qisqargan. Bu investitsiya loyihalarida moliyaviy oqimlarning uzluksiz ta’minlanishi qurilish-montaj ishlari, tashqi tarmoqlarga ulanish, energiya, suv, gaz va transport-kommunikatsiya infratuzilmasini barpo etish jarayonlaridagi kechikishlarni kamaytirganini anglatadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish sur’ati 2020-yilda 6,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 13,6 foizga yetgan. Bu ko‘rsatkichning ikki barobarga yaqin oshishi soliq-bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash tartibi investitsiya jarayonlarida moliyaviy resurslar yetishmasligi bilan bog‘liq cheklovlarni kamaytirganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm orqali yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari soni 2020-yildagi 24,6 mingtadan 2024-yilda 43,2 mingtagacha oshgan. Demak, infratuzilmaviy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat ishlab chiqarish va muhandislik tizimlarini rivojlantirishga, balki mehnat bozorida bandlikni kengaytirishga ham xizmat qilgan.

Jadval ma’lumotlari soliq va bojxona to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi tashqi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan bog‘liq investitsiya loyihalarida uchta muhim natija berganini ko‘rsatadi: birinchidan, korxonalarning likvidlik darajasi saqlab qolingan; ikkinchidan, infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiyalar yo‘naltirish imkoniyati kengaygan; uchinchidan, loyihalarni amalga oshirish muddatlari qisqarib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish sur’ati oshgan. Shu jihatdan mazkur mexanizm investitsion faoliyatni rag‘batlantirish, infratuzilmaviy cheklovlarni yumshatish va hududiy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan samarali fiskal instrument sifatida baholanadi.

3. Mamlakatimiz og‘ir sharoitli hududlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarning investitsion va innovatsion faoliyatini rivojlantirish maqsadida foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha stavkalarni 50 foizga kamaytirish orqali investitsiya resurslarini faol ishlab chiqarish va innovatsiyalarga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi tartib ishlab chiqildi.

Og‘ir sharoitli hududlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarda investitsiya va innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i va yer solig‘i stavkalarini 50 foizga kamaytirish orqali ichki moliyalashtirish manbalarini kengaytirish tartibi asoslandi.

Hududiy rivojlanishda soliq siyosati differensial yondashuvga ega bo‘lishi lozim. Tabiiy-iqlimiy sharoiti og‘ir, infratuzilma xarajatlari yuqori yoki bozorlarga chiqish imkoniyatlari

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

cheklangan hududlarda korxonalarning investitsiya tavakkalchiligi yuqori bo‘ladi. Shuning uchun umumiy soliq rejimi bunday hududlarda investitsiya faolligini yetarli darajada rag‘batlantirmasligi mumkin. 50 foizlik soliq yengilligi ana shu hududiy tavakkalchiliklarni iqtisodiy jihatdan kompensatsiya qiladi.

Ushbu ilmiy yangilik hududiy soliq siyosatini investitsiya va innovatsiyalarni maqsadli joylashtirish vositasi sifatida talqin qiladi. Soliq stavkalarini pasaytirish natijasida korxonalarning to‘lov qobiliyati yaxshilanadi, ichki resurslar ulushi ortadi, investitsiya loyihalarining rentabelligi oshadi va og‘ir sharoitli hududlarda iqtisodiy faollik kuchayadi.

4. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yer munosabatlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish maqsadida investitsiya hajmi Nukus shahrida 1 million AQSh dollari va undan ortiq, boshqa hududlarda esa 300 ming AQSh dollari va undan ortiq ekvivalentda belgilangan loyiha tashabbuskorlariga yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish tartibini joriy etishni nazarda tutuvchi normativ mexanizm taklif etilgan.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda yer munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish uchun Nukus shahrida 1 million AQSh dollari va undan ortiq, boshqa hududlarda 300 ming AQSh dollari va undan ortiq investitsiya majburiyatiga ega tashabbuskorlarga yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish mexanizmi taklif etildi.

Yer resurslariga kirish investitsiya loyihasining dastlabki va eng muhim institutsional shartlaridan biridir. Yer ajratish jarayonidagi noaniqlik, ortiqcha byurokratik bosqichlar yoki muddatlarning cho‘zilishi loyiha xarajatlarini oshiradi. Investitsiya hajmiga bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijara mexanizmi yer resurslarini iqtisodiy natija bilan bog‘laydi va loyihani amaliy bosqichga tezroq olib chiqishga xizmat qiladi.

2024-yilda yer to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berilgan loyihalar 817 tani tashkil etgan, ushbu mexanizm orqali jalb etilgan investitsiyalar hajmi 10,48 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Yerga kirish jarayonining soddalashishi investitsiya sikllarining qisqarishiga, loyihalarning amaliy bosqichga tezroq o‘tishiga va hududlarda ishlab chiqarish obyektlarini maqsadli joylashtirishga sharoit yaratadi.

Mazkur yangilikning konseptual ahamiyati yer munosabatlarini ma’muriy taqsimotdan natijaga yo‘naltirilgan investitsion boshqaruvga o‘tkazishida namoyon bo‘ladi. Investitsiya poroglarining hududlar kesimida farqlanishi mahalliy sharoitlarni inobatga oladi va kapital oqimlarini nisbatan kam rivojlangan hududlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

5. Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurish ishlarini o‘z ichiga olgan investitsiya loyihalari doirasida faoliyat yuritayotgan korxonalarga barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlarini garov va kafolat talab etmasdan, foizsiz hamda bir yilgacha muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqini berish tartibi joriy etildi.

Tashqi muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini qurishni qamrab olgan investitsiya loyihalarida faoliyat yuritayotgan korxonalarga barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlarini garov yoki kafolatsiz, foizsiz hamda bir yilgacha bo‘lgan muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqini berish tartibi ishlab chiqildi.

Infratuzilma xarajatlari investitsiya loyihalarining dastlabki bosqichida moliyaviy bosimni kuchaytiradi. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, tashqi elektr, gaz, suv, yo‘l va aloqa infratuzilmasini qurish bilan bog‘liq xarajatlar loyiha qiymatida sezilarli ulushni tashkil qiladi. Soliq va bojxona to‘lovlarini foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash mexanizmi korxonaning dastlabki likvidlik muammolarini yumshatadi.

2024-yilda bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqidan foydalangan korxonalar soni 598 taga yetgan. To‘lov yengilliklari hisobiga korxonalarda 1 026,7 mlrd so‘mlik likvid mablag‘ saqlanib qolgan va uning 684,2 mlrd so‘mi infratuzilmaga qo‘shimcha investitsiya sifatida yo‘naltirilgan. Bu soliq-bojxona tartiblari investitsiya loyihasining moliyaviy arxitekturasiga bevosita ta’sir etishini ko‘rsatadi.

Garov va kafolat talab etilmasligi kapital yetarliligi cheklangan korxonalar uchun kirish to‘siqlarini pasaytiradi. Foizsiz to‘lov tartibi esa loyihaning umumiy qiymatini oshirmasdan,

moliyaviy majburiyatlarni vaqt bo‘yicha taqsimlash imkonini beradi. Natijada infratuzilma obyektlarini o‘z vaqtida ishga tushirish, yangi ishlab chiqarish maydonlarini o‘zlashtirish va hududiy iqtisodiy faollikni kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratiladi.

Tahlil qilingan ilmiy yangiliklar mazmunan bir-birini to‘ldiruvchi fiskal-institutsional tizimni shakllantiradi. Ushbu mexanizmlarning umumiy samarasi korxona moliyaviy tizimida resurslar harakatini ratsionallashtirish bilan izohlanadi. Soliq yukining maqsadli pasaytirilishi, mablag‘larni tezkor qaytarish yoki to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish korxonada erkin pul oqimlarini oshiradi. Erkin pul oqimlari esa asosiy kapitalga investitsiya, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, infratuzilma qurilishi va yangi ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltiriladi.

Mazkur yondashuvda davlat soliq siyosati fiskal vazifa bilan cheklanmaydi. U investitsiyalarni tanlab rag‘batlantiruvchi, ijtimoiy natijalarni nazorat qiluvchi, hududiy nomutanosibliklarni yumshatuvchi va texnologik yangilanishni qo‘llab-quvvatlovchi institutga aylanadi. Shu bilan birga, imtiyozlarning aniq mezonlarga bog‘lanishi budjet intizomini saqlash va imtiyozlar samaradorligini monitoring qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Korxonalar nuqtai nazaridan mazkur mexanizmlar investitsiya loyihalarining ichki rentabellik darajasini yaxshilaydi, aylanma mablag‘lar tanqisligini pasaytiradi, loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartiradi va texnologik yangilanishga moliyaviy asos yaratadi. Davlat nuqtai nazaridan esa qisqa muddatli fiskal yo‘qotishlar o‘rta va uzoq muddatda ishlab chiqarish kengayishi, bandlik o‘sishi va soliq bazasi barqarorlashuvi orqali kompensatsiya qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari korxonalar investitsion va innovatsion faoliyati samaradorligini oshirishda fiskal-institutsional mexanizmlarni kompleks qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi. Soliq imtiyozlari, tezkor soliq qaytarish, hududiy stavkalarni pasaytirish, yer resurslarini investitsiya majburiyatlari bilan bog‘lash va infratuzilma to‘lovlarini bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish alohida instrumentlar bo‘lsa-da, ular birgalikda korxonalarda investitsiya va innovatsiya uchun resurs yaratadigan yagona tizimni shakllantiradi.

Birinchidan, ish o‘rinlari yaratishga bog‘langan mol-mulk va yer solig‘i imtiyozlari investitsiya loyihalarining ijtimoiy samarasini oshiradi. Bunday yondashuv soliq rag‘batini faqat kapital qo‘yilmaga emas, balki barqaror bandlik va rasmiy mehnat munosabatlariga ham yo‘naltiradi.

Ikkinchidan, QQS va ortiqcha soliq to‘lovlarini bir kunlik muddatda qaytarish korxonalarning likvidligini saqlab, investitsiya loyihalarida moliyaviy uzilishlarni kamaytiradi. Bu tartib soliq ma’muriyatchiligining investitsiyaga yo‘naltirilgan modelini shakllantiradi.

Uchinchidan, og‘ir sharoitli hududlarda soliq stavkalarini 50 foizga pasaytirish hududiy investitsiya tavakkalchiliklarini kompensatsiya qiladi va innovatsion faol korxonalar ulushini oshirishga xizmat qiladi. Bu mexanizm hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, investitsiya hajmiga bog‘langan yerni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga berish tartibi yer munosabatlarida huquqiy aniqlik, tezkorlik va iqtisodiy maqsadlilikni ta’minlaydi. Yer resursi investitsiya natijalari bilan bog‘langan holda boshqarilganda loyihalarning amaliy bosqichga o‘tish muddatlari qisqaradi.

Beshinchidan, infratuzilma qurilishi bilan bog‘liq loyihalarda soliq va bojxona to‘lovlarini garovsiz, kafolatsiz, foizsiz va bir yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash korxonalarning dastlabki moliyaviy yuklamasini kamaytiradi. Bu infratuzilmaviy investitsiyalarning iqtisodiy jozibadorligini oshiradi.

Amaliyot uchun taklif sifatida mazkur mexanizmlar bo‘yicha yagona monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Unda imtiyozdan foydalangan korxonalarning investitsiya hajmi, yaratilgan ish o‘rinlari, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, infratuzilmaga yo‘naltirilgan mablag‘lar va budjetga qayta ta’sir ko‘rsatkichlari baholanishi lozim. Bu soliq rag‘batlarini natijaga yo‘naltirilgan tarzda boshqarish imkonini beradi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aghion P., Akcigit U., Fernández-Villaverde J. Optimal capital versus labor taxation with innovation-led growth. – National Bureau of Economic Research, 2013. – №. w19086. URL: https://www.nber.org/papers/w19086?utm

2. North D. C. Economic performance through time //The American economic review. – 1994. – №. 3. – P. 359-368. URL: https://www.jstor.org/stable/2118057

3. Professor Michael E. Porter - Harvard Business School How Business Can Lead a Health Care Revolution. G100 - New York City, June 3rd, 2005. URL: https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=46809

4. Stiglitz J. E. Information and the Change in the Paradigm in Economics //American economic review. – 2002. – T. 92. – №. 3. – P. 460-501. URL: https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/00028280260136363

5. Mazzucato M. Mission-oriented innovation policies: challenges and opportunities //Industrial and corporate change. – 2018. – T. 27. – №. 5. – P. 803-815. URL: https://www.ucl.ac.uk/bartlett/public-purpose/people/institute-director-mariana-mazzucato

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

IPAKCHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Aliyeva Nodiraxon Abdumalikovna
“Savdo ishi” kafedra dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Email: loko-74@inbox.ru.
ORCID:0009-0001-3320-9981

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Sohada innovatsion jarayonlarni tashkil etish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish hamda innovatsion loyihalarni samarali boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, innovatsion faoliyat, ipakchilik tarmog‘i, iqtisodiy mexanizm, investitsiya, innovatsion boshqaruv.*

УЛУЧШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ШЕЛКОВОДЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ

Алиева Надирахан Абдумаликовна
Доцент кафедры Торговое дело
Ташкентский государственный экономический университет
Email: loko-74@inbox.ru.
ORCID:0009-0001-3320-9981

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования экономических механизмов управления инновационной деятельностью на шелководческих предприятиях. Анализируются механизмы организации инновационных процессов в отрасли, финансовой поддержки, привлечения инвестиций и эффективного управления инновационными проектами. На основе результатов исследования разработаны научные предложения и рекомендации по совершенствованию экономических механизмов управления инновационной деятельностью на шелководческих предприятиях.*

Ключевые слова: *инновации, инновационная деятельность, шелководческая промышленность, экономический механизм, инвестиции, управление инновациями.*

IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR MANAGING INNOVATION ACTIVITIES AT SILK INDUSTRY ENTERPRISES

Alieva Nadirakhan Abdumalikovna
Associate Professor of the Department of
Trading business
Tashkent State Economic University
Email: loko-74@inbox.ru.
ORCID:0009-0001-3320-9981

Abstract: *This article examines the improvement of economic mechanisms for managing innovation in sericulture enterprises. It analyzes the mechanisms for organizing innovation processes in the industry, providing financial support, attracting investment, and effectively managing innovation projects. Based on the research results, scientific proposals and*

recommendations for improving economic mechanisms for managing innovation in sericulture enterprises have been developed.

Keywords: *innovation, innovation activity, sericulture industry, economic mechanism, investment, innovation management.*

Kirish

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni ta'minlashda innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, agrar-sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ipakchilik tarmog‘i ham yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega strategik sohalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ipakchilik tarmog‘ini modernizatsiya qilish, pillachilik klasterlarini tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq sohada innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatilmoqda. Shu sababli ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Korxonalarni innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari bo‘yicha ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, R.Rosvell [1], Akio Morita, Fumio Kodama [2] kabi olimlar innovatsion jarayonlar modellarini taklif etib, ushbu model asosida faoliyatni boshqarish zaruriyati haqida takliflar ishlab chiqqanlar. MDH mamlakatlari olimlaridan R.A.Fatxutdinov, V.L. Popov [3], P.N.Zavlinlar [4] tomonidan innovatsion boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan. Innovatsion faoliyatini boshqaruv tizimini o‘rganish bo‘yicha N.Q.Yo‘ldoshev [5], G.A. Xamdamova [6], S.R.Xalikov, A.J.Toshboev [7] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik usullar va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ipakchilik korxonalari faoliyatini tahlil qilish asosida innovatsion faoliyatni boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligi ko‘p jihatdan iqtisodiy mexanizmlarning qay darajada shakllanganligiga bog‘liq. Innovatsion jarayonlar faqatgina yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni moliyaviy, tashkiliy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ipakchilik tarmog‘ida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishda quyidagi muammolar mavjud:

- innovatsion loyihalar uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi;
- yuqori texnologiyalarni joriy etishda infratuzilmaning rivojlanmaganligi;
- kadrlar salohiyatining pastligi;
- innovatsion risklarni baholash tizimining yo‘qligi;
- ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliyotga kam joriy etilishi.

Bu muammolar iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida shu aniqlandiki, ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda investitsiya resurslarining yetarli darajada jalb etilmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda korxonalar innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarga ega emas. Bu esa innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish sur'atini sekinlashtiradi. Shuning uchun innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, bank kreditlari va xususiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirish zarur.

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim manbai hisoblanadi. Bu masalaga ilmiy asos solgan iqtisodchi olimlardan biri Joseph Schumpeter bo‘lib, u innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'riflagan. Uning ta'kidlashicha, iqtisodiy tizimda yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar va yangi bozorlarning paydo bo‘lishi iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Bu g‘oyalar ipakchilik tarmog‘i uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ipakchilik korxonalarida innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun klaster yondashuvidan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Klaster tizimi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion g‘oyalarning amaliyotga tezroq joriy etilishiga va yangi mahsulotlar yaratilishiga imkoniyat yaratadi.

MHXS 9 ning joriy etilishi kapital bozorlari ishtirokchilari tomonidan ham ijobiy baholangan. Onali E. va Ginesti G. investorlar MHXS 9 standartini MHXS 39 da mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim islohot sifatida qabul qilganliklarini[12] qayd etadilar. Biroq mualliflarning ta’kidlashicha, standartni qo‘llash samaradorligi mamlakatlarning institutsional muhiti hamda alohida kompaniyalarning xususiyatlariga bog‘liq ravishda farqlanishi mumkin.

Novotny-Farkas Z. MHXS 9 ni qo‘llash natijasida ayrim banklarda regulyativ kapital ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanligi ortishi mumkinligini[11] qayd etadi. Chunki kutilayotgan kredit yo‘qotishlari modeli kredit risklarini baholashda defolt ehtimoli va zarar darajasi kabi prognoz ko‘rsatkichlariga tayanadi. Shu sababli standartning amaliy samaradorligi uni moliyaviy institutlar tomonidan to‘g‘ri va izchil qo‘llash darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Moliyaviy inqirozdan keyin G20 mamlakatlari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan MHXS 9 moliyaviy vositalar hisobini soddalashtirish va kredit risklarini yanada haqqoniy aks ettirishga qaratilgan bo‘lsa-da, uni amaliyotga joriy etish banklar uchun sezilarli tashkiliy va metodologik xarajatlarni talab qildi. Shu munosabat bilan Vasicek Monica M. va Stefan B. moliyaviy aktivlarni baholashda foiz stavkalari dinamikasini hisobga oluvchi modellarni qo‘llash zarurligini[9] asoslab berganlar.

Umarov Z.A.ning ta’kidlashicha, MHXS 9 standartiga o‘tish jarayonida tijorat banklari uchun eng muhim yangiliklardan biri moliyaviy aktivlarni uchta asosiy toifaga tasniflash talabi hisoblanadi[13]. Ushbu tasniflash kredit tashkilotlarining hisob siyosati, aktivlarni baholash usullari va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, yangi standart kreditlar bo‘yicha ehtimoliy zararlarni oldindan e’tirof etish orqali bank risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, MHXS 9 «Moliyaviy vositalar» standarti banklarda kreditlar hisobini yuritishning zamonaviy konsepsiyasini shakllantirib, kredit risklarini baholash va kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini e’tirof etish mexanizmlarini tubdan takomillashtirdi. Shu bois tijorat banklarida kreditlar buxgalteriya hisobini MHXS 9 talablari asosida tashkil etish va takomillashtirish masalalari


bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy o‘rganishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy taqqoslash hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kreditlarning qadrsizlanish modellari ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni oldindan ko‘rish uchun ishlab chiqiladi. Mazkur risklar ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida kredit riski, valyuta riski, foiz riski hamda operatsion risklar mavjud. Ushbu risklar o‘z tabiati va darajasiga ko‘ra kutilgan va kutilmagan xavflarni o‘z ichiga oladi hamda bank faoliyati barqarorligiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm. Kreditlarni hisobga olish jarayonida BHXS-39 va MHXS-9 larda ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni hisobga olish modellari[10]

BHXS-39 va MHXS-9 modellari printsipial jihatdan faqat kredit yo‘qotishlarini tan oladi va shu bilan boshqa risk omillaridan (masalan likvidlilik) zararlarni istisno qiladi. Ular kutilayotgan yo‘qotishlar bilan cheklanadi va shu sababli ko‘zda tutilmagan kredit yo‘qotishlarini nazardan chetda qoldiradi.

Bunga yaqqol misol sifatida karonavirus bilan bog‘liq pandemiya sharoitida ko‘zda tutilmagan risklar hisobga olinmagan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 kutilayotgan kredit yo‘qotish modelining (ECL) nazorat qoidalari bilan o‘zaro munosabati ko‘rib chiqilib va Evropa Ittifoqida moliyaviy barqarorlikka ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan muammolar muhokama qilingan. MHXS 39 ning ehtimoliy yo‘qotish yondashuviga nisbatan, MHXS-9 da, dastlabki va kattaroq zaxiralar shakllanishi, hamda kutilayotgan yo‘qotishlarni hisob-kitob qilishga ko‘proq mos keladi. Kredit yo‘qotishlarining avvalroq tan olinishi yo‘qotishlarning ko‘payishini va tartibga solish kapitalning haddan tashqari oshirilishini kamaytiradi.

MHXS-9 ning joriy qilinishi moliya institutlari uchun kredit yo‘qotishlarining haqiqatda qilingan xarajatlar modelidan kutilayotgan yo‘qotish yondashuviga o‘tib, moliyaviy institutlar uchun ta’minot paradigmasida tub o‘zgarishlar qilishini anglatadi. Bu holat banklarning moliyaviy barqarorligi va xavflarga chidamliligiga salbiy ta’sir etuvchi omil sifatida qaraladi. Standart aktivlarning kredit riski bilan bog‘liq yo‘qotishlarni qoplash uchun mavjud amaliyotini tubdan o‘zgartiradi.

Yangi yondashuv banklardan o‘zlarining turli xil portfellarida kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash uchun o‘z modellari va metodologiyalarini yaratishni yoki moslashtirishni talab qiladi. Bundan tashqari, «hisob-kitoblar kutilayotgan zararni qoplash iqtisodiyot uchun kutilayotgan prognozga bog‘liq bo‘lishi va turli bitimlarning amal qilish muddatlarini hisobga olish talabiga ta’sir qilishi kerak»[3].

G20 ning tanqididan keyin kredit yo‘qotishlarining kechiktirilgan va etarli darajada tan olinmasligiga olib kelayotgan MHXS 39 o‘rniga MHXS 9 joriy qilingan. «MHXS 9

boshqaruvning taxminlariga ko‘proq tayanadi»[6]

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarni hisobga olishda 2021-yildan to‘liq MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar»ni qo‘llashni boshlaydi. «Tijorat banklari 2021-yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi»[1] mazkur talablarning belgilanishi banklardan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS)ni joriy etish jarayonida o‘z operatsiyalari, aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlarni hisobga olish jarayonida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) talablariga moslashish va ular asosida hisobot yuritishga puxta tayyorgarlik ko‘rish zarur bo‘ladi..

9-sonli MHXS 39-sonli MHXSni almashtirgan bo‘lib, yangi standart 2014-yil o‘rtalarida ishlab chiqilgan, ammo faqat 2018-yildan boshlab ko‘pchilik davlatlarda majburiy qo‘llash masalasi qo‘yilgan. Shunday qilib, xalqaro miqyosda banklar yangi buxgalteriya qoidalariga puxta tayyorgarlik ko‘rish va ularning hisob siyosatini optimallashtirish uchun etarli vaqtga ega bo‘lganlar.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining (MHXS) joriy etilishi buxgalterlardan yuqori darajadagi professional mulohaza yuritishni talab qiladi hamda buxgalteriya hisobi ob’yektlarini e’tibordan chetda qoldirmasdan, hisob siyosatini shakllantirish va qo‘llashdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarida moliyaviy vositalar tarkibiga kiruvchi kreditlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda to‘g‘ri aks ettirish masalasi o‘z dolzarbligini xech qachon yo‘qotmaydi. Chunki, kreditlar bank aktivlari, ulardan olinadigan daromadlar, bank mahsulotlari tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi va mijozlar tomonidan doimiy ravishda so‘raladi.

Avvalambor moliyaviy vositalar MHXSlarida tasniflanishini ko‘rib chiqsak. 4.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki moliyaviy aktivlar 39-sonli MHXS da to‘rtda guruh bo‘yicha tasniflangan bo‘lsa, 9-sonli MHXSda uchta guruh bo‘yicha tasniflangan. 39-sonli MHXS da asosiy e’tibor aktivning amal qilish muddati va maqsadga qaratilgan bo‘lsa 9-sonli MHXS da esa moliyaviy natijaga ta’sir etishiga e’tibor qaratilgan.

MHXS 9 standartiga o‘tish jarayonida tijorat banklari uchun eng muhim yangiliklardan biri – moliyaviy aktivlarni uchta asosiy toifaga tasniflash majburiyati hisoblanadi. Bu tasniflash kredit muassasalarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlarga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

9-sonli MHXS 2008-yilda boshlangan global moliyaviy inqirozga javob sifatida ishlab chiqilgan. 39-sonli MHXS standarti kredit riskini hisob-kitob qilish aniq faktlarga asoslangan bo‘lib, ko‘rilgan zararlarni hisobga olingan. Bu kredit riskini xaqiqiy darajasini baholashda buzilishlarga va foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot ma’lumotlarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelgan.

1-jadval

MHXSlarida moliyaviy vositalarning tasniflanishi[10]

39-sonli MHXS (IAS) [7]	**9-sonli MHXS (IFRS)** [8]
So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan (*HTM, «Held to maturity»*)	Amortizatsiyalangan qiymat.
Kreditlar va debitor qarzdorlik (*LAR, «Loans and receivables»*)	Foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda baholanuvchi (FVTPL, «Fair value through profit or loss»)
Foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda baholanuvchi (FVTPL, «*Fair value through profit or loss*»)	Boshqa yapli daromad tarkibida haqqoniy qiymat bo‘yicha baholanuvchi qarz moliyaviy vositalar (FVTOCI, «*fair value through other comprehensive income*»).
Sotish uchun mavjud (AFS, «*Available For Sale*»)	


Asosiy o‘zgarishlar ikkita ko‘rsatishga ta’sir ko‘rsatadi - aktivlarni tasniflashga va zaxiralarni hisobga olishga.

1. Moliyaviy aktivlar ularning xususiyatlari va qo‘llanish maqsadidan kelib chiqib, uch asosiy guruhlardan biriga ajratilishi lozim:

Birinchi guruhga bank uchun asosiy qarz summasi hamda unga hisoblangan foizlarni undirish ko‘zda tutilgan moliyaviy aktivlar kiradi. Bularga kreditlar, debitorlik qarzlari, davlat obligatsiyalariga qilingan investitsiyalar va boshqalar kiradi. Bunday aktivlarni hisobga olish amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha amalga oshiriladi, bu esa samarali foiz stavkasi bo‘yicha foizli daromadni hisoblashni anglatadi.

Ikkinchi toifaga bank keyinchalik qayta sotish uchun sotib oladigan moliyaviy aktivlar, ya’ni kompaniya aktsiyalari va derivativ moliyaviy vositalar kiradi. Ushbu biznes modelining maqsadi - faol ravishda sotib olish va sotish. 9-sonli MHXS bunday aktivlar adolatli qiymat bo‘yicha foyda yoki zarar orqali hisobga olinadi.

Uchinchi guruh esa bankning aralash biznes modeli asosida yuritiladigan aktivlarni qamrab oladi, ya’ni bunday moliyaviy aktivlar orqali nafaqat pul oqimlarini olish, balki ularni qayta sotish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi. Ushbu toifadagi aktivlar boshqa umumiy daromadlar orqali adolatli qiymatda hisobga olinadi. Foizli daromadlar, qadrsizlanish bo‘yicha zararlar, kurs o‘rtasidagi farqlar foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi.



2-rasm. 9-sonli MHXS ga muvofiq kreditlarni tasniflash[10]

Kreditlar 39-sonli MHXS da alohida tasniflangan bo‘lsa, 9-sonli MHXS da amortizatsiyalangan qiymat yoki foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda baholanuvchi moliyaviy aktiv sifatida qaraladi. Bu holatlarni alohida ko‘rib chiqamiz.

Amortizatsiyalangan qiymat – bu moliyaviy aktiv yoki majburiyatdan kelajakda olinishi (yoki to‘lanishi) kutilayotgan pul oqimlari miqdorining dastlab belgilangan samarali foiz stavkasi asosida diskontlangan qiymatini anglatadi. Moliyaviy aktivlar holatida esa bu qiymat, zarur hollarda, ehtimoliy yo‘qotishlar uchun ajratilgan zaxiralar chegirib tashlanganidan keyingi summani ifodalaydi.

Moliyaviy aktiv amortizatsiyalangan qiymatda baholanishi uchun quyidagi ikkala shart ham bir vaqtning o‘zida bajarilishi lozim:

(a) Biznes model talabi shundan iboratki, moliyaviy aktiv shunday model doirasida ushlab turilishi lozimki, uning asosiy vazifasi ushbu aktiv bo‘yicha shartnomada ko‘rsatilgan pul oqimlarini muntazam ravishda olishdan iborat. Bu holatda, bank aktivni sotish yoki boshqa aktivga almashtirish emas, balki undan foiz va asosiy qarz to‘lovlarini olishni maqsad qilgan bo‘ladi.

(b) SPPI test (Solely Payments of Principal and Interest): Moliyaviy aktivning shartnomaviy shartlari shunga qaratilgan bo‘lishi kerakki, u faqatgina asosiy summa va ushbu summaga hisoblangan foiz to‘lovlarini belgilangan sanalarda to‘lashni nazarda tutishi lozim[8].

Boshqacha aytganda, aktiv bo‘yicha kelgusi pul oqimlari asosiy qarz va foizlar bilan chegaralangan bo‘lishi lozim. Agar pul oqimlari dividend, aktsiya bahosi yoki boshqa elementlarga bog‘liq bo‘lsa, bunday aktiv SPPI talabini qondira olmaydi va amortizatsiyalangan qiymatda baholanmaydi.

Haqqoniy qiymat - bu bozor ishtirokchilari o‘rtasida o‘lchov sanasida tartibli bitim tuzishda aktivni sotish uchun olingan yoki majburiyatni o‘tkazish uchun to‘lanadigan narx. Haqqoniy qiymatni faol bozorda ko‘rsatilgan narx tasdiqlaydi.

Moliyaviy aktiv foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda (FVTPL) baholanishi shart bo‘ladi, agar quyidagi ikki shart bir vaqtning o‘zida bajarilsa:

(a) Aralash maqsadli biznes model talabi shuni bildiradiki, moliyaviy aktiv shunday boshqaruv doirasida saqlanadi-ki, bunda nafaqat shartnomaviy pul oqimlarini olish, balki aktivni

sotish orqali ham daromad olish ko‘zlangan bo‘ladi. Bunday yondashuv aktivlardan foydalanishda aralash strategiyani qo‘llashni ifodalaydi. Bu holatda bank aktivni faqat foiz daromadi uchun emas, balki bozordagi vaziyatga qarab uni sotishni ham rejalashtirgan bo‘ladi. Shu sababli bu biznes model «aralash» deb ataladi.

(b) SPPI talablariga mos shartnomaviy pul oqimlari: moliyaviy aktiv shartnomaviy jihatdan shunday tashkil etilgan bo‘lishi lozimki, belgilangan muddatlardagi pul oqimlari: asosiy summa to‘lovlari, va ushbu summaga hisoblangan foizlar orqali to‘lanishi kerak.

Boshqacha aytganda, aktiv SPPI testdan muvaffaqiyatli o‘tishi lozim.

Ushbulardan kelib chiqqan holda tijorat banklari kreditlarni amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki tijorat bankining kreditlashtirish jarayonida asosiy maqsadi berilgan pul mablag‘larining belgilangan muddatlarda qaytarilishi, kreditdan foydalangan muddatda unga foiz to‘lab turishini nazarda tutadi.

MHXS-9 ga muvofiq moliyaviy aktivning butun xizmat qilish muddati davomida defolt ehtimolini taxmin qilishning chakana bahosi doirasini taqdim etishga qaratilgan. Ushbu struktura istiqbolli makroiqtisodiy dinamikaga bog‘liq holda «defolt ehtimolining muddatli tarkibi»ga asoslanadi. «Defolt bo‘lish ehtimoli makroiqtisodiy holatga bog‘liqlini ko‘rsatadi»[5].

O‘zbekiston Respublikasida ham tijorat banklari 9-sonli MHXS ni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab xalqaro tashkilotlar mutaxasislari bilan ishlar olib borib o‘zlarining faoliyatini baholab ko‘rdi.

9-sonli MHXS moliyaviy aktivlarni tan olish va baholashga yangicha yondashuvni ilgari suradi, standart ko‘rilishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar va aktivlar qadrsizlanishini hisobga olish tushunchalarini tubdan qayta ko‘rib chiqilgan, xedjirlashni hisobga olish talablari o‘zgargan va shunga o‘xshash o‘zgarishlar bor. Yuqorida keltirilgan holatlar banklardan biznes jarayonlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish va ularni qayta tashkil etishni, bank axborot tizimlarini modernizatsiya qilish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, autsorsing xizmatlaridan foydalanish hamda konsalting xizmatlarini jalb etish orqali keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

2. Ko‘rilgan zararlar modelidan kutilayotgan yo‘qotishlar modeliga o‘tish

Eng muhim o‘zgarishlardan biri aktivlarga zaxira yaratish nuqtai nazaridan sodir bo‘ldi. 9-sonli MHXS joriy qilinsa, bank ko‘rilgan zararni emas, balki ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararni hisobga oladi. Ushbu model aktivlarning amortizatsiyasining uch bosqichini ko‘zda tutadi. Banklar aktivni tan olish paytida (1-bosqich) 12 oy ichida kutilayotgan yo‘qotishlarni, kreditning sifati yomonlashgan taqdirda (2 va 3-bosqichlar), aktivning butun muddati davomida kutilayotgan yo‘qotishlarni hisobga olishadi.

Kredit sifatini baholashda asosiy mezon sifatida qarz oluvchining 12 oy ichida yoki aktivning butun muddati davomida (risk darajasiga qarab) to‘lov qobiliyatsizligi ehtimoli, shuningdek, defolt xolati, kutilganga nisbati asosida har xil reytingdan foydalanish, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqa mezonlardan foydalanishni qo‘zda tutadi. Ushbu xolatda kredit muddati zaxiralar hajmiga ko‘proq ta’sir qiladi, chunki kredit sifati yomonlashganda uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha kutilayotgan kredit yo‘qotishlari yuqori bo‘ladi.

Fikrimizcha, 9-sonli MHXS uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha daromadlilikni pasaytiradi, sababi 2-bosqichda zaxiralar miqdori ko‘payadi va bu o‘z navbatida bank kapitalini kamaytiradi. Xususan, kredit reytingi past bo‘lgan mijozlarga ajratilgan kreditlar hamda sifati past bo‘lgan ta’minot (kafolat) bilan ta’minlangan aktivlar bo‘yicha yuzaga keladigan risklar ehtimoliy yo‘qotishlar uchun ajratiladigan zaxiralar miqdorini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday aktivlarning Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq ravishda 2-bosqichga o‘tkazilishi natijasida bank kapitalining kamayishi ehtimoli kuchayadi.

2021-yildan tijorat banklarining MHXS lari asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilishini e’tiborga olsak, xozirgi kunda amalda bo‘lgan ayrim me’yoriy xujjatlarda ham o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, kreditlar sifatini baholashni tartibga soluvchi 2696-sonli nizomni.

Tijorat banklari tomonidan kreditlarni tan olish, baholash va tasniflashni 9-MHXS talablariga muvofiq amalga oshirishi hisobotlar shaffof, ishonchli va xorijiy investorlar uchun tushunarli bo‘lishi ta’minlanadi, hamda bank kreditlariga zaxiralarni yaratish metodologiyasi o‘zgarishi natijasida kutilayotgan yo‘qotishlarni oldindan ko‘ra bilish va zarur choralarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, kreditlarni doimiy ravishda testdan o‘tkazilishi va tarixiy baho bo‘yicha bank ichki reyting tizimi joriy etilishi oqibatida kredit portfeli sifati oshadi. Bu esa tijorat banklarning moliyaviy barqarorligi, faoliyat samaradorligini oshishi, kredit siyosatini takomillashtirishga olib keladi.

9-sonli MHXS joriy etishda vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: kreditlarni tasniflash uchun foydalaniladigan qarz oluvchilarning reyting baholash tizimini joriy etish; zaxiralar kredit riski tavsiflari bir hil bo‘lgan kreditlar sinfi bo‘yicha hisoblashni olib borish; bank doimiy asosda kreditlarni tasniflash muvofiqligini aniqlash maqsadida testdan o‘tkazib borishi zarur.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar» standartining tijorat banklari amaliyotiga joriy etilishi kreditlar buxgalteriya hisobi metodologiyasini tubdan takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur standartning asosiy afzalligi kredit risklarini baholashda ko‘rilgan zararlar (Incurred Loss) modelidan kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (Expected Credit Loss – ECL) modeliga o‘tilganligida namoyon bo‘ladi. Bu esa kredit risklarini oldindan baholash, ehtimoliy yo‘qotishlarni o‘z vaqtida e’tirof etish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.

MHXS 9 ga muvofiq moliyaviy aktivlarni amortizatsiyalangan qiymat, foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymat hamda boshqa yalpi daromad orqali haqqoniy qiymat bo‘yicha tasniflash kreditlar hisobining iqtisodiy mazmunini yanada aniqroq aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kreditlarning qadrsizlanishini uch bosqichli model asosida baholash kredit portfeli sifati va kredit risklari holatini yanada real aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

Biroq, tadqiqot davomida MHXS 9 ni amaliyotga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Xususan, kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini hisoblash uchun zarur bo‘lgan tarixiy ma’lumotlar bazasining yetarli emasligi, makroiqtisodiy prognozlarni shakllantirishdagi murakkabliklar, kredit risklarini modellashtirish bo‘yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda axborot tizimlarini modernizatsiya qilish zarurati standartni samarali qo‘llashga ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: Defolt ehtimoli (PD), yo‘qotish darajasi (LGD) va risk ostidagi ekspozitsiya (EAD) ko‘rsatkichlarini hisoblash metodologiyasini yagona standart asosida shakllantirish zarur; Kreditlar sifatini baholashni tartibga soluvchi amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni MHXS 9 talablari bilan uyg‘unlashtirish, xususan kreditlar klassifikatsiyasi va zaxiralar shakllantirish tartiblarini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq; Banklarda ECL modelini avtomatlashtirilgan dasturiy platformalar asosida yuritish, makroiqtisodiy indikatorlar va kredit portfeli ma’lumotlarini integratsiyalashgan holda qayta ishlash tizimini joriy etish tavsiya etiladi; Kreditlarni muntazam stress-testdan o‘tkazish va makroiqtisodiy ssenariylar asosida baholash amaliyotini kengaytirish orqali ehtimoliy kredit yo‘qotishlarini yanada aniq prognozlash mumkin.

MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar» standartining to‘liq va samarali qo‘llanilishi tijorat banklarida kreditlar buxgalteriya hisobi sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligini ta’minlash, kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur standart talablarini milliy bank amaliyotiga chuqur integratsiya qilish bank sektorining uzoq muddatli rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga

o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4611-son qarori, 2020 yil 24 fevral

2. Ball, R. (2016). IFRS – 10 years later. Accounting and Business Research, 46(5), 545–571. https://doi.org/10.1080/00014788.2016.1182710

3. Barrios, P., & Papp, P. (2017). IFRS 9: A new model for expected loss provisions for credit risk. In SEFO-Spanish Economic and Financial Outlook (Vol. 6, Issue 1)

4. Bischof, J., & Daske, H. (2016). Interpreting the European Union’s IFRS Endorsement Criteria: The Case of IFRS 9. Accounting in Europe, 13(2), 129–168. https://doi.org/10.1080/17449480.2016.1210181

5. Durović, A. (2019). Macroeconomic Approach to Point in Time Probability of Default Modeling - IFRS 9 Challenges. Journal of Central Banking Theory and Practice, 8(1), 209–223. https://doi.org/10.2478/jcbtp-2019-0010

6. Gebhardt, G. (2016). Impairments of Greek Government Bonds under IAS 39 and IFRS 9: A Case Study. Accounting in Europe, 13(2), 169–196. https://doi.org/10.1080/17449480.2016.1208833

7. IAS 39 Financial Instruments: Recognition and Measurement https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-39-financial-instruments-recognition-and-measurement/

8. IFRS 9 Financial Instruments https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/

9. Monica, M., & Stefan, B. (2019). Ifrs 9 benchmarking test: Too complicated to worth doing it? Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research, 53(1), 217–230. https://doi.org/10.24818/18423264/53.1.19.14

10. Muallif tomonidan tuzildi

11. Novotny-Farkas, Z. (2016). The Interaction of the IFRS 9 Expected Loss Approach with Supervisory Rules and Implications for Financial Stability. Accounting in Europe, 13(2), 197–227. https://doi.org/10.1080/17449480.2016.1210180

12. Onali, E., & Ginesti, G. (2014). Pre-adoption market reaction to IFRS 9: A cross-country event-study. Journal of Accounting and Public Policy, 33(6), 628–637. https://doi.org/10.1016/j.jaccpubpol.2014.08.004

13. Umarov Z.A. Tijorat banklari kreditlashtirish operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish. DSc avtoreferati 2025-yil, 82-bet

14. Vaněk, T., & Hampel, D. (2017). The probability of default under ifrs 9: Multi-period estimation and macroeconomic forecast. Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 65(2), 759–776. https://doi.org/10.11118/actaun201765020759

15. www2.deloitte.com sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARI DIVIDEND SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Yo‘ldashev Xushnidbek Soyibjon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: hushnidbek1992@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosatini shakllantirish va uning samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Dividend siyosatining moliyaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik hamda ta’lim xizmatlari sifatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, daromadlarni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, reinvestitsiya ulushini oshirish va moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar beriladi.*

Kalit so‘zlar*: nodavlat oliy ta’lim, dividend siyosati, moliyaviy samaradorlik, investitsiya, reinvestitsiya, moliyaviy boshqaruv, ta’lim sifati, daromad taqsimoti.*

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Юлдашев Хушнидбек Сойибжон оглы

Независимый соискатель
Андижанского государственного
технического института
Электронная почта: hushnidbek1992@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируются способы формирования дивидендной политики в негосударственных высших учебных заведениях и повышения ее эффективности. Подчеркивается влияние дивидендной политики на финансовую стабильность, инвестиционную привлекательность и качество образовательных услуг. Также предлагаются научно обоснованные меры по совершенствованию механизмов распределения доходов, увеличению доли реинвестирования и модернизации системы финансового управления.*

Ключевые слова: *негосударственное высшее образование, дивидендная политика, финансовая эффективность, инвестиции, реинвестирование, финансовое управление, качество образования, распределение доходов.*

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF DIVIDEND POLICY IN NON-STATE HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Yoldashev Khushnidbek Soyibjon oglu

Independent researcher at the
Andijan State Technical Institute
E-mail: hushnidbek1992@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the formation of dividend policy in non-state higher education institutions and ways to improve its efficiency. It highlights the impact of dividend policy on financial stability, investment attractiveness, and the quality of educational services. In addition, scientifically based proposals are developed to improve income distribution mechanisms, increase the share of reinvestment, and modernize the financial management system.*

Keywords: *non-state higher education, dividend policy, financial efficiency, investment,*

reinvestment, financial management, education quality, income distribution.

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni ortib, ta’lim bozorida raqobat kuchayib bormoqda[1]. Bunday sharoitda ularning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarni belgilovchi asosiy elementlardan biri dividend siyosatidir.

Dividend siyosati nodavlat OTMlarda olingan foydani ta’sischilar o‘rtasida taqsimlash hamda uning bir qismini qayta investitsiya qilish mexanizmini belgilaydi. Shu sababli, ushbu siyosatning samaradorligini oshirish ta’lim sifatini yaxshilash va muassasaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Dividend siyosatining mazmuni va ahamiyati shundaki tashkilotning sof foydasini ta’sischilar o‘rtasida taqsimlash va reinvestitsiya qilish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar tizimidir. Nodavlat OTMlarda dividend siyosati u ta’lim muassasasining sof foydasini ta’sischilar o‘rtasida taqsimlash hamda uning bir qismini qayta investitsiya qilish tartibini belgilovchi moliyaviy boshqaruv tizimidir. Ushbu siyosat nafaqat daromadni bo‘lish, balki muassasaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga ham xizmat qilish kabi vazifalarni bajaradi[2]. Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash - bu mavjud pul mablag‘larini tashkilotning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha eng optimal tarzda yo‘naltirish jarayonidir[3]. Bunda asosiy maqsad - kamroq xarajat bilan ko‘proq natijaga erishish va resurslardan to‘liq foydalanishni ta’minlash hisoblanadi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida bu jarayon juda muhim, chunki ularning moliyaviy faoliyati asosan kontrakt to‘lovlari va boshqa qo‘shimcha daromadlarga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili.

Dividend siyosati va uning moliyaviy boshqaruvdagi o‘rni iqtisodiyot fanida keng tadqiq etilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, korporativ moliya nazariyasida dividend siyosatining mazmuni, uni shakllantirish omillari hamda korxona qiymatiga ta’siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar natijalari nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosatini takomillashtirish masalalarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dividend siyosati nazariyasining shakllanishida amerikalik iqtisodchilar Merton Miller va Franco Modigliani tomonidan ilgari surilgan dividendlarning neytralligi nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ularning fikriga ko‘ra, mukammal bozor sharoitida dividend siyosati korxona qiymatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi, asosiy omil investitsion qarorlar hisoblanadi[4]. Biroq keyingi tadqiqotlar real iqtisodiy sharoitlarda dividend siyosati investorlar xatti-harakatlari va moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotladi.

Korporativ moliya sohasidagi zamonaviy yondashuvlar Richard A. Brealey, Stewart C. Myers va Franklin Allen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda dividend siyosati korxonaning investitsion strategiyasi, kapital tuzilmasi va aksiyadorlar manfaatlari bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Mualliflar dividend to‘lovlari va reinvestitsiya o‘rtasidagi muvozanatni saqlash korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar[5].

Shuningdek, Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield hamda Jeffrey Jaffe o‘z ilmiy ishlarida dividend siyosatining korxona moliyaviy natijalari, investitsion jozibadorligi va bozor qiymatiga ta’sirini chuqur tahlil qilganlar[6]. Ularning tadqiqotlarida barqaror dividend siyosati investorlar ishonchini oshirishi, qoldiq dividend siyosati esa investitsion imkoniyatlardan samarali foydalanishga xizmat qilishi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham nodavlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va ta’lim xizmatlari sifatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan farmon va qarorlarda ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini

mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dividend siyosatining korporativ sektordagi nazariy va amaliy jihatlari yetarli darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatida dividend siyosatini shakllantirish va uning samaradorligini baholash masalalari hali ham yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu sababli nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosatini takomillashtirish, reinvestitsiya va dividend to‘lovlari o‘rtasidagi optimal nisbatni aniqlash hamda moliyaviy barqarorlikka ta’sirini baholash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida nodavlat OTM larida dvident siyosatini samaradorligini oshirish usullari va modullari, doimiy modernizatsiyalash, uning iqtisodiy o‘sish suratiga ta’siri va iqtisodiy barqarorligiga ta’sir etuvchi risk omillari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya jozibadorligini oshirish - bu tashkilot yoki muassasaning xorijiy va mahalliy investorlar uchun ishonchli, foydali va barqaror hamkor sifatida ko‘rinishini kuchaytirish jarayonidir. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida bu tushuncha universitetga ko‘proq sarmoya jalb qilish va moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan. Barqaror rivojlanishni ta’minlash tashkilot yoki muassasaning iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy faoliyatini uzoq muddat davomida uzluksiz va muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv jarayonidir. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida bu tushuncha moliyaviy barqarorlik, ta’lim sifati va infratuzilmaning izchil rivojlanishini anglatadi.

Ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish - bu oliy ta’lim muassasasining o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza, bino-inshootlar, axborot texnologiyalari va boshqa resurslarni modernizatsiya qilish va kengaytirish jarayonidir.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida infratuzilma rivoji ta’lim sifati, moliyaviy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari dividend siyosati samaradorligini oshirishda Dividend muhim rol o’ynaydi va uning siyosatining asosiy turlari:

- Barqaror dividend siyosati – bu foyda doimiy va oldindan belgilangan ulushlarda taqsimlanadi;

- Qoldiq dividend siyosati - bu avvalo investitsiya ehtiyojlari qoplanadi, qolgan foyda dividend sifatida taqsimlanadi; Aralash dividend siyosati – bu investitsiya va dividend o‘rtasida muvozanat saqlanadi;

- Dividend siyosatiga ta’sir etuvchi omillar – bu moliyaviy barqarorlik darajasi, talabalar soni va kontrakt tushumlari, investitsion ehtiyojlar, raqobat muhiti, infratuzilma holati, davlat siyosati va soliq tizimi.

Dividend siyosati samaradorligini oshirish yo‘llari quyidagilardan iborat bo’lib, ular - reinvestitsiya ulushini oshirish va bu foydaning katta qismini qayta investitsiyaga yo‘naltirish orqali uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlanadi[7]. Moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish – bu daromad va xarajatlarni aniq prognoz qilish dividend siyosatini barqarorlashtiradi. Raqamlashtirishni joriy etish elektron moliyaviy tizimlar dividend qarorlarini shaffof va tezkor qiladi. Investitsion strategiyani kuchaytirish – bu yangi laboratoriyalar, kampuslar va raqamli platformalarga sarmoya kiritish foyda yaratadi. Moliyaviy shaffoflikni ta’minlash – bu ichki audit va ochiq moliyaviy hisobotlar investorlar ishonchini oshiradi. Dividend siyosatining moliyaviy samaradorlikka ta’siri – bu to‘g‘ri shakllantirilgan dividend siyosati, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, investitsiya oqimini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Hozirgi kunda nodavlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy boshqaruvida dividend siyosatini shakllantirishda nafaqat joriy moliyaviy natijalar, balki strategik rivojlanish maqsadlari ham hisobga olinishi zarur. Xususan, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi oliy ta’lim muassasalaridan innovatsion rivojlanish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni talab qilmoqda. Shu sababli sof foydaning ma’lum qismini dividend sifatida taqsimlash bilan bir qatorda, uning salmoqli qismini strategik loyihalarga yo‘naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari*

№	Dividend siyosati muammolari	Mavjud holat	Samaradorlikka ta’siri	Takomillashtirish yo‘llari
1	Foyda taqsimotining aniq strategiyasi yo‘qligi	Qarorlar aksariyat hollarda qisqa muddatli asosda qabul qilinadi	Investitsion barqarorlik pasayadi	Uzoq muddatli dividend siyosati strategiyasini ishlab chiqish
2	Reinvestitsiya ulushining pastligi	Foydaning katta qismi dividend sifatida taqsimlanadi	Rivojlanish sur’ati sekinlashadi	Foydaning ma’lum qismini majburiy reinvestitsiya qilish
3	Moliyaviy shaffoflik yetarli emas	Hisobotlarda ochiqlik darajasi past	Investor ishonchi kamayadi	Xalqaro moliyaviy standartlarni joriy etish
4	Dividend siyosatining tartibga solinmaganligi	Ichki nizomlar to‘liq ishlab chiqilmagan	Qarorlar subyektiv bo‘lishi mumkin	Korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish
5	Investitsion jozibadorlik pastligi	Dividend barqarorligi kafolatlanmagan	Kapital jalb qilish qiyinlashadi	Barqaror dividend siyosatini shakllantirish
6	Risklarni boshqarish mexanizmlarining sustligi	Moliyaviy risklar yetarlicha baholanmaydi	Moliyaviy yo‘qotishlar xavfi yuqori	Risklarni baholash tizimini joriy etish

**Muallif tomonidan tayyorlangan.*

Jadvalda nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosati samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan bo‘lib, ularning har biri moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Xususan, foyda taqsimotida aniq strategiyaning yo‘qligi, reinvestitsiya ulushining pastligi hamda moliyaviy shaffoflik darajasining yetarli emasligi dividend siyosatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Ushbu holatlar ta’lim muassasalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muayyan cheklovlarni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, jadvalda taklif etilgan yechimlar — ya’ni korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish, foydaning ma’lum qismini majburiy reinvestitsiya qilish, risklarni baholash tizimini rivojlantirish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirish — dividend siyosatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu chora-tadbirlar ta’lim muassasalarining investitsion jozibadorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Tahlil natijalari nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosatini takomillashtirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki ta’lim sifati va infratuzilmani rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dividend siyosatining samaradorligini oshirishda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunda ta’sischilar, investorlar va ta’lim muassasasi rahbariyati o‘rtasida manfaatlar muvozanatini ta’minlash dividend qarorlarining asoslanganligini oshiradi. Mustaqil kuzatuv kengashlari faoliyatini rivojlantirish, dividend siyosatini tasdiqlashda ekspert xulosalaridan foydalanish hamda moliyaviy risklarni baholash tizimini joriy etish dividend siyosatining barqarorligini ta’minlaydi[8]. Shuningdek, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosatini baholash uchun maxsus ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday ko‘rsatkichlarga dividend to‘lovlari ulushi, reinvestitsiya koeffitsienti, aktivlar rentabelligi, investitsiyalar qaytimi va moliyaviy barqarorlik indeksi kiritilishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlarning muntazam monitoringi dividend siyosatining samaradorligini aniqlash va uni takomillashtirish imkonini beradi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ta’lim tizimiga ega mamlakatlarda xususiy universitetlar sof foydaning katta qismini ilmiy tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar va xalqaro ta’lim dasturlarini rivojlantirishga yo‘naltiradi[9]. Natijada uzoq muddatda muassasaning brend qiymati, ta’lim sifati va investitsion jozibadorligi ortadi. Mazkur tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash nodavlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dividend siyosatini ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ta’lim sifati, ijtimoiy mas’uliyat va samarali boshqaruv ko‘rsatkichlariga erishgan oliy ta’lim muassasalari investorlar uchun yanada jozibador bo‘lib, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishadi. Shu bois dividend siyosati nafaqat foydani taqsimlash vositasi, balki muassasaning strategik rivojlanishini boshqarish instrumenti sifatida ham qaralishi lozim.

Noto‘g‘ri dividend siyosati esa – bu investitsiya yetishmasligiga, infratuzilma eskirishiga, ta’lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan ko’rinadiki nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosati samaradorligini oshirish ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Reinvestitsiya ulushini oshirish, moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish, raqamlashtirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali dividend siyosatining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu esa nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ta’lim sifatini ham yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu maqola orqali tadqiqot natijasida nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dividend siyosati samaradorligini oshirishning integrallashgan modeli taklif etildi. Ushbu model dividend to‘lovlari, reinvestitsiya ulushi, moliyaviy barqarorlik va ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda optimal dividend siyosatini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2019–2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta’lim tizimi bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2024.
4. Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen. Principles of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill, 2020.
5. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Jeffrey Jaffe. Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill Education, 2022.
6. Merton H. Miller, Franco Modigliani. Dividend Policy, Growth and the Valuation of Shares. – Journal of Business, Vol. 34, No. 4, 1961. – pp. 411–433.
7. Myron J. Gordon. The Investment, Financing and Valuation of the Corporation. –

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Homewood, Illinois: Richard D. Irwin, 1962.

8. John Lintner. Distribution of Incomes of Corporations Among Dividends, Retained Earnings and Taxes. – American Economic Review, Vol. 46, No. 2, 1956. – pp. 97–113.

9. Organisation for Economic Co-operation and Development. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2024.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВЛАРИ ЖАРАЁНИДА СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА СУҒУРТА ФИРИБГАРЛИГИГА МОЙИЛЛИК БОРЛИГИНИ АНИҚЛАШ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Абдураимова Мафтунахон Ахматовна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
“Аудит” кафедраси доценти, PhD
E-mail: maftunakhon.abduraimova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-6325-1400

Аннотация: *Мақолада аудиторлик текширувлари жараёнида суғурта ташкилотларида учраши мумкин бўлган суғурта фирибгарлигига мойиллик борлигини аниқлаш юзасидан фикрлар келтирилган бўлиб, фирибгарлик турлари, улардан юзага келиши мумкин бўлган иқтисодий зарар миқдори статистикаси келтириб ўтилган. Фирибгарлик молиявий ҳисоботнинг нотўғри тузилишига асос бўлиши, юзага келишига кўра мижоз ва суғурта ташкилотларида мавжуд бўлиб, унинг салбий оқибатлари келтирилган, мазкур ҳолатлар юзасидан амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *суғурта фирибгарлиги, молиявий барқарорлик, Medicaid, Medicare, компенсация, суғурта мукофоти, суғурта тўловлари, ҳаёт суғуртаси, мулк ва бахтсиз ҳодисалар фирибгарликлари, ички назорат тизими.*

METHODOLOGY FOR DETERMINING THE PRESENCE OF INSURANCE FRAUD IN INSURANCE ORGANIZATIONS DURING AUDIT INSPECTIONS

Abduraimova Maftunakhon Akhmatovna
Tashkent State University of Economics,
Associate Professor of the Department of “Audit”, PhD
E-mail: maftunakhon.abduraimova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-6325-1400

Abstract: *The article presents ideas on determining the risk of insurance fraud that may occur in insurance organizations during audit audits, types of fraud, statistics on the amount of economic damage that may arise from them. Fraud can be the basis for incorrect financial reporting, and depending on its occurrence, it is present in clients and insurance organizations, and its negative consequences are presented, practical proposals and recommendations are developed for these situations.*

Keywords: *insurance fraud, financial stability, Medicaid, Medicare, compensation, insurance premium, insurance payments, life insurance, property and casualty fraud, internal control system.*

МЕТОДОЛОГИЯ ВЫЯВЛЕНИЯ НАЛИЧИЯ СТРАХОВОГО МОШЕННИЧЕСТВА В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ В ХОДЕ АУДИТНЫХ ПРОВЕРОК

Абдураимова Мафтунахон Ахматовна
ТГЭУ,
доцент кафедры «Аудит»,
E-mail: maftunakhon.abduraimova@mail.ru
ORCID: 0000-0002-6325-1400

Аннотация: *В статье представлены идеи по определению риска страхового мошенничества, которое может возникнуть в страховых организациях в ходе аудиторских проверок, виды мошенничества, статистика по размеру экономического ущерба, который может возникнуть в результате них. Мошенничество может стать*

основанием для некорректной финансовой отчетности, и в зависимости от его проявления оно присутствует у клиентов и страховых организаций, представлены его негативные последствия, разработаны практические предложения и рекомендации для таких ситуаций.

Ключевые слова: *страховое мошенничество, финансовая стабильность, Medicaid, Medicare, компенсация, страховая премия, страховые выплаты, страхование жизни, мошенничество в сфере имущества и ответственности, система внутреннего контроля.*

Кириш

Иқтисодиётни инновацион технологиялар асосида рақамлаштириш жараёнлари кескин ривожланаётган бир пайтда, фирибгарлик ҳолатларининг ҳам ошиб бориши кузатилмоқда. Маълумки, фирибгарлик содир бўлган корхона ва ташкилотларда, аввало уларнинг молиявий ҳисоботининг хато тузилиши ва натижада молиявий барқарорлигини ёмонлашувига ҳам сабаб бўлмоқда.

Ҳозирги кунда суғурта ташкилотларида ҳам фирибгарликнинг бир қанча турлари амалга оширилган бўлиб, кўп ҳолатларда хато қилиш асносида ўзини оқлаш масалалари пайдо бўлмоқда, натижада эса, айбдорда ўзини оқлаш имконияти пайдо бўлади.

Суғурта фирибгарлиги ва шунга ўхшаш ҳар хил турдаги фирибгарлик ҳолатлари АҚШда кенг тарқалган ва ҳозирги куннинг энг муаммоли масалаларидан бўлиб қолмоқда. Натижада эса, ҳар йили корхоналар, ташкилотлар, муассасалар, суғурталовчилар ва суғурталанувчиларга миллиардлаб зарар келтирмоқда. Суғурта фирибгарлиги асосан, суғурта жараёни давомида, полис сотиш ва сотиб олишдан тортиб даъволарни кўриб чиқишгача бўлган даврда қасддан амалга оширилиши мумкин. АҚШда соғлиқни сақлаш суғуртаси, хусусан, Medicare ва Medicaid фирибгарликлари етакчи ўринни эгалласа, ундан кейин ҳаёт суғуртаси, мулк ва бахтсиз ҳодисалар фирибгарликлари ҳам юқори поғоналарни эгаллайди.

Суғурта фирибгарлигининг ножўя таъсири нафақат бизнес ва суғурталовчиларга, шу билан бир қаторда, суғурталанувчиларга ҳам юқори мукофот тўлашларига сабаб бўлиши мумкин.

Ҳозирги кунда барча мамлакатларда фирибгарликка қарши курашиш учун анча самарали ишлар амалга оширилмоқда. Рақамлаштириш шароити кетаётган бу даврда кўпгина бизнес вакиллари автоматик тарзда фирибгарлик ҳолатини эрта аниқлаб, огоҳлантирадиган тизимга сармоя киритадилар ва бу орқали чиқиб кетаётган пулларни бошқариш тузилмасига эга бўладилар.

Адабиётлар таҳлили

“Kotak Life” компания директори Muralikrishna Cheruvuнинг таъкидлашича, “Суғурта фирибгарлиги суғурта ташкилотлари ичида ёки ташқи ҳолатда содир этилган фаолият бўлиб, ташкилотнинг молиявий барқарорлиги ва обрўсига салбий таъсир кўрсатиши мумкин, бундан ташқари, юқори даъво харажатлари сабаб суғурталовчиларга таъсир қилади. Фирибгарлик нима учун содир бўлишининг муҳим жиҳатларидан бири бу ташкилий тизим, ички назорат ичидаги бўшлиқ фирибгарлик қилиш имкониятини яратиб беради”[1].

India First Life суғурта компанияси рисклар бўйича бош директори Sunder Natarajan суғурта фирибгарлигини “Дастурий таъминот + инсоннинг дастурий таъминот орқали тегишли маълумотларга кириш бўйича кўникмалари + гипер даражадаги боғланган муҳит = Фирибгарлик” [2].

Stijn Viaene and Guido Dedeneнинг фикрича, “фирибгарлик – бу суғуртани ўз мақсади йўлида ёки қонунга зид равишда ишлатиш ҳамда, фирибгарликнинг мавжудлиги асосида ахборот носимметриклик асосида шаклланишини таъкидлаган. Шунингдек, суғурта ташкилотларида қуйидаги элементларнинг мавжудлиги фирибгарликка йўл очишини айтиб

ўтган: 1) маълумотларни яшириш, сохталаштириш; 2) алдаш ниятининг борлиги; 3) таъқиқлаган ҳолда фойдани кўп олиш”[3].

Австралия криминология институти директори Adam Graycarнинг келтиришича, “Суғурта фирибгарлиги, аксарият фирибгарлик каби, “яширин жиноят”дир. Уларнинг катта қисми тан олинмаган, аниқланмаган ёки исботланмаганлиги сабабли, аниқ рақамларни аниқлаш қийин” [4].

Firas Al-Rawashdeh ва Omar Al Singlawiнинг келтиришича, “Суғурта фирибгарлиги - бу суғурта жараёнида ноқонуний ҳатти-ҳаракатлар натижасида олинган ҳар қандай улуш. Бунда шахслар, ўзларига тегишли бўлмаган баъзи имтиёзлар ёки афзалликларни олишга ҳаракат қилганда ёки суғурталовчи баъзи имтиёзларни била туриб рад қилганда содир бўлиши мумкин деб қуйидаги гипотезани беради:

H1 - суғурта ташкилотларида фирибгарлик амалиётларини аниқлаш ва олдини олишга доир самарали ички назорат тизимига эга эмаслиги;

H2 - суғурта ташкилотларида суғурталанган шахслар томонидан содир этилган фирибгарлик амалиётининг мавжудлиги;

H3 - суғурта ташкилотларида суғурта воситачилари ёки брокерлари томонидан содир этилган фирибгарлик амалиётларига дуч келишлари;

H4 - суғурта ташкилотларида қўшимча хизмат кўрсатувчи провайдерлар томонидан содир этилган фирибгарлик амалиётига дуч келишлари”[5].

Сингапур пул-кредит ташкилотининг келтиришича, “Фирибгарлик барча суғурталовчилар ва суғурталанувчилар учун жиддий хавф туғдиради. Фирибгарлик суғурта ташкилотининг ичида ёки ташқи ҳолатда содир бўлиб, суғурталовчининг молиявий мустаҳкамлиги ва обрўсига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бундан ташқари, суғурталовчи томонидан суғурта даъволарининг ошиши натижасида суғурта мукофотларини ошириш орқали суғурталанувчиларга билвосита таъсир кўрсатиши мумкин” [6].

NAIC халқаро муносабатлар бўйича катта маслаҳатчи, ижро қўмитаси IAIS(International Association of insurance supervisors) раиси, икки томонлама алоқалар бўйича бош мутахассис Ekrem Sarperнинг таъкидлашича, “фирибгарлик фойда олишга қаратилган алдамчи ҳаракат ёки ҳаракатсизлик бўлиб, фирибгарлик қилган томон ҳужжатлар ва маъумотларни ўзгартириш, активларни ўзлаштириш имкониятига эга бўлади”[7].

Sita Ratnam ва Meti Pradeepнинг фикрича, “суғурта фирибгарлиги - жисмоний шахслар ёки суғурта мутахассислари томонидан суғурта компаниясини алдаш ёки унинг номидан ҳаракат қилиш орқали фойда олиш учун инсофсиз ҳаракатларни амалга оширадиган, қасддан қилинган жиноятдир. Фирибгарликни турли томонлар амалга ошириши мумкин: Суғурталовчилар, учинчи томон даъвогарларини, ҳаттоки, даъвогарларга ёрдам берадиган мутахассисларни жалб қилиши мумкин. Суғурта агентлари ва компания ходимлари ҳам фирибгарлик фаолиятини амалга оширишлари мумкин” [8].

M.Button Буюк Британияда олиб борган изланишлари натижасида “компанияларда фирибгарлик натижасида кўрилган зарар фирибгарликни аниқлаш учун сарф қилинган харжатлардан кам бўлганини аниқлаган. Яъни компанияга келтирилган зарарни бартараф этиш харажатлари ўзлаштирилган миқдордан ошганлигини, бу эса компанияга катта зарар келтирганлигини таъкидлайди” [9].

Тадқиқот методологияси

Аудиторлик текширувлари жараёнида суғурта ташкилотларида суғурта фирибгарлигига мойиллик борлигини аниқлаш аудиторлар томонидан қўлланилган текширув усуллари, сўровномалар ўтказиш, таҳлилий амалларни қўллаш ва танлаб текшириш, шунингдек, бошқа қўлланиладиган усуллар асосида йиғилган далиллар ҳисобига аниқланиши мумкин.

Муҳокама ва натижа

АҚШда ҳар йили суғурта фирибгарлиги ҳолати бўйича $308,6 млрд йўқотиладиган бўлса, шундан $900 млрд айнан суғурта мукофотларини йиғиш бўйича юзага келади [10]. Бундай таъкидлаш мумкинки, суғурта даъволарининг тахминан 20 %и фирибгарлик билан боғлиқдир. Бу эса, нафақат суғурталовчиларни балки, мижозларни ҳам хавотирга солади. Чунки, мижозлар фирибгарлик кетидан кўпроқ тўлов тўлашга ва инфляциянинг ошишига сабаб бўлиши мумкин.

1-жадвал

АҚШда суғурта фирибгарлигининг суғурта тармоқлари ўртасида тақсимланиши[196]

№	Фирибгарлик тармоғи	Улуши (2024 йилда)
1.	Соғлиқни сақлаш (Medicaid va Medicare) суғурта фирибгарлиги	$105 млрд
2.	Ҳаёт суғуртаси	$74,7 млрд
3.	Мол- мулк ва зарар суғуртаси фирибгарлиги	$45 млрд
4.	Автомашина ўғирлиги	$7,4 млрд
5.	Ишчиларга компенсация тўлаш бўйича	$34 млрд
6.	Автомобил суғурта мукофоти бўйича	$35,1 млрд
7.	Ногиронлик учун фирибгарлик	$7,4 млрд

Инсонлар турли сабабларга кўра фирибгарликни содир қилишади. масалан, молиявий муаммоларга дуч келишлари ёки бизнес мақсадларига эришиш учун турли кўринишдаги босим остида бўлишлари мумкин. Фирибгарлик ҳолатини амалга ошириш ва муаяйн муддат уни яшириш имконияти мавжудлиги. Фирибгарлар фирибгарлик қилиш имкониятига эга бўлишганида, уни аниқлаш эҳтимоли кичик деб ўйлашади ва кўпроқ фирибгарликни амалга оширишга ҳаракат қилишади, шунингдек, фирибгарликни содир этишга бўлган зарурият турли омиллар таъсири остида мотивацияни юзага келтиради. Умуман олганда, фирибгарликни содир этмоқчи бўлган шахс ҳар қандай вазиятни ўз фойдасига тўғрилаб, мазкур учбурчакдан фойдаланиб, фирибгарликни содир этиши мумкин.

Фирибгарлик ҳолатларини содир бўлишнинг оғир ёки енгиллигига қараб 2 та турга ажратамиз:



1-расм. Суғурта фирибгарлигининг таснифланиши[197]

[196] Coalition Against Insurance Fraud via Forbes Advisor маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

[197] Тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

Хориж амалиётида автомашиналар ўғирлаш ҳолатлари ҳам жуда кўп учрайди ва бу фирибгарлик, тергов идоралари учун ҳам жиддий муаммоларни келтириб чиқаради. Чунки, фирибгарлик соҳасидаги баъзи бир инсонлар автомашинани тополмасликлари учун клонлаштиришни ва ақлли калитлардан фойдаланадилар. Бундан ташқари, баъзида суғурталанган шахс ҳам фирибгарликни амалга ошириши мумкин. Бунинг учун, машинасини ўғирланган деб суғурта ташкилотига нотўғри маълумот тақдим этади ёки автоҳалокат юз берганида машинада бўлмаган шахс ҳам суғурта қопламасини тўлаб беришни даъво қилишлари мумкин. натижада, суғурта ташкилотига катта миқдордаги харажатларни юзага келтириши мумкин.

Қуйида биз томонимиздан хориж тажрибаси асосида энг кўп автомобил ўғирланган ТОП-10 талик мамлакатлар статистикасини келтириб ўтамиз:

2-жадвал

Автомашина фирибгарлиги бўйича ТОП-10 талик мамлакатлар статистикаси[198]

Даражаси	Давлатлар	2023 (минг)	2024 (минг)	Ўзгариши %да
1.	Калифорния	201,03	202,69	1%
2.	Техас	95,08	105,02	10%
3.	Вашингтон	35,92	46,94	31%
4.	Флорида	43,25	45,97	6%
5.	Колорадо	38,57	42,24	10%
6.	Иллинойс	28,68	38,65	35%
7.	Огаё	28,11	29,91	6%
8.	Миссури	26,63	29,35	10%
9.	Нюёрк	23,09	28,29	23%
10.	Гуам	26,24	26,53	1%

Юқоридаги жадвал маълумотларига эътибор берадиган бўлсак, давлатлар кесимида автомашина фирибгарлигининг содир бўлиши юқори ташкилотлар томонидан кучайтирилган тизим йўлга қўйилган бўлса ҳам йилма-йил ошиб борган. Бунга сабаб қилиб аввало, суғурта ташкилотларида суғурта мукофотларининг ҳам энг кўп қисми айнан автотранспорт воситалари билан боғлиқлиги, шунингдек, фирибгарликнинг асосий содир этилиши ҳам айнан асосий воситаларга бориб тақалиши амалий мисолларда ўз аксини топган.

Маълумки, ҳозирги кунда онлайн тарздаги бизнес жараёнлари амалга оширилмоқда, албатта бу жуда қулай ва кам харажат бўлиб хизмат қилади, лекин бутун дунёда мана шундай рақалаштириш ишлари амалга оширилаётган бир пайтда фирибгарларнинг ҳам бозори анча ўсмоқда. Бу асосан, айтиб ўтганимиздек, онлайн амалга оширилган суғурта шартномасида учрайди. Бунда мижоз суғурта мукофотини кам миқдорда тўлаш учун суғуртага олинаётган обеъкт ҳақида нотўғри маълумот беради, бу фирибгарлик натижасида, узоқ муддатли ва юқори қийматли молиявий йўқотишлар туфайли суғурта ташкилоти анча муаммоларга дуч келиши мумкин. шунингдек, суғурта агентлари ва суғурта ташкилоти вакиллари билан юзага келиши мумкин. ҳар йили АҚШда айнан манашу фирибгарлик юзасидан йилига $35,1 миллиард суғурта қопламалари тўлаб берилади.

Хулоса ва таклифлар

Юқорида келтирилган маълумотлардан айтишимиз мумкинки, давлатнинг жуда катта миқдордаги пуллари айнан фирибгарлар томонидан ўзлаштирилиб келинмоқда. Таҳлил маълумотлари ҳам шуни кўрсатмоқдаки, суғурта фирибгарлигини юз фоизда йўқ қилишнинг ҳечам иложи йуқ, фақатгина, уни олдини олиш учун баъзи ишларни амалга

[198] Тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

оширишимиз мумкин бўлади:

1. Аввало, аудитор суғурта ташкилотини текшириш жараёнида суғурта фирибгарлигини қандай аниқлаши, қандай содир бўлиши, қачон содир бўлиши мумкинлигига эътибор қаратиши лозим. Бунинг учун эса, суғурта ташкилотида 2 карра ички назорат тузилмасини йўлга қўйиш лозим. Бунда ходимлар ўзаро бир-бирларини назорат қилишади. Бир-бирларидан хабарлари бўлмасдан, ўзаро кузатишади. Бу жараён албатта, раҳбарнинг бошчилигида амалга оширилади.

2. Суғурта ташкилотида фирибгарликка қарши курашиш бўлимларини ташкил қилиш ва бу орқали суғурта фаолиятининг кунлик, ҳафталик, ойлик, ярим йиллик ва йиллик мониторинггини амалга ошириб бориш лозим.

3. Баъзи суғурта ташкилотларининг фаолият йўналишлари кам сонли бўлиб, ташкилотда фирибгарликка қарши курашиш бўлимларини ташкил қилиш қобилиятига эга бўлишмайди, сабаби эса, молиявий қобилаятлари етмаслиги мумкин. Манашу пайтда фирибгарликни кузатиш учун маълум вақтда, махсус тергов бўлинмаларини ёллаш мақсадга мувофиқ бўлади.

4. Суғурта фирибгарлиги соҳаси бўйича кадрларни ўқитиш ва малака оширишларини ташкил қилиш ҳам бу соҳани камайтиришга хизмат қилади.

5. Суғурта фирибгарлигини аниқлаш мақсадида, маълумотлар базасидан фойдаланиш, технологиялардан фойдаланганда кодлаштириш ёки FACEлардан фойдаланиш ҳам мақсадга мувофиқ бўлади.

6. Суғурта ташкилотларида фирибгарликни аниқлаш учун турли дастурлардан фойдаланиш ҳам мақсадга мувофиқ бўлади. Бунга ўз навбатида, суғурта ташкилоти маълумотлари асосида моделлаштириш, менежментни тўғри йўлга қўйиш, ҳисоботларни кўздан кечириш, таҳлил қилиш каби дастурларни киритиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати.

1. Muralikrishna Cheruvu. Navigating the insurance sector through a fraud risk lens. 2023 Deloitte Touche Tohmatsu India LLP. Member of Deloitte Touche Tohmatsu Limited. 24p.
2. Sunder Natarajan. Navigating the insurance sector through a fraud risk lens. 2023 Deloitte Touche Tohmatsu India LLP. Member of Deloitte Touche Tohmatsu Limited. 24p.
3. Stijn Viaene and Guido Dedene. Insurance Fraud: Issues and Challenges. The Geneva Papers on Risk and Insurance Vol. 29 No. 2 (April 2004) 313–333
4. Adam Graycar. Insurance Fraud. AUSTRALIAN INSTITUTE OF CRIMINOLOGY trends&issues in crime and criminal justice. No. 66. February 1997, 6 p
5. Firas Al-Rawashdeh ва Omar Al Singlawi. The Existence of Fraud Indicators in Insurance Industry: Case of Jordan. International Journal of Economics and Financial Issues. 2016, 6(S5) 168-176.
6. Сингапур пул-кредит ташкилоти(MAS). January 2024, 15 p
7. Ekrem Sarper. Countering Fraud in Insurance. IAIS(International Association of insurance supervisors) 51 p.2024 y
8. Sita Ratnam ва Meti Pradeep. RAUD ANALYTICS IN INSURANCE. askus@infosys.com. 2023 Infosys Limited, Bengaluru, India.
9. Button M., Blackbourn D., Lewis C. & Shepherd D. “Uncovering the hidden cost of staff fraud: an assessment of 45 cases in the UK”, Journal of Financial Crime, vol. 22(2): 170-183. 2015.
10. Суғурта фирибгарлигига қарши курашиш коалицияси ташкилоти маълумотлари. https://insurancefraud.org/

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАСИ ВА УНДАН ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИДА ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Абидов Мансур Илхомжонович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси
E-mail: mr.abidov_5656@mail.ru

Аннотация. *Ушбу мақолада молиявий назоратни этишнинг ривожланган мамлакатлар, хусусан, АҚШ, Германия, Буюк Британия ва Франция тажрибалари кўриб чиқилган. Олиб борилган тадқиқотлар натижаларига кўра молиявий назоратни ташкил этишнинг илғор хорижий тажрибаларини Ўзбекистон қўллаш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *молиявий назорат, аудит, шаффофлик, бюджет, бюджет маблағлари, ҳисобдорлик, самарадорлик.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Абидов Мансур Илхомжонович
Научный исследователь Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: mr.abidov_5656@mail.ru

Аннотация. *В статье рассмотрено опыт развитых стран в организации финансового контроля, в частности США, Германии, Великобритании и Франции. По результатам исследования разработаны предложения по применению передового зарубежного опыта организации финансового контроля в Узбекистане.*

Ключевые слова: *финансовый контроль, аудит, прозрачность, бюджет, бюджетные средства, подотчетность, эффективность.*

FOREIGN EXPERIENCE OF ORGANIZING FINANCIAL CONTROL AND PROSPECTS OF ITS USE IN THE PRACTICE OF UZBEKISTAN

Abidov Mansur Ilxomjonovich
Researcher of the Tashkent State University of Economics
E-mail: mr.abidov_5656@mail.ru

Abstract. *The article reviewed the experience of organizing financial control in developed countries, particularly the USA, Germany, Great Britain and France. Based on the results of the study, proposals were developed for the application of advanced foreign experience in organizing financial control in Uzbekistan.*

Key words: *financial control, audit, transparency, budget, budget funds, accountability, efficiency.*

Кириш

Сўнгги йилларда давлат молиясини бошқариш тизимида юз бераётган туб ислоҳотлар билан бевосита боғлиқдир. Жаҳон иқтисодиётида глобаллашув жараёнларининг чуқурлашиб бориши, давлат бюджетлари ҳажмининг ўсиши ва давлат маблағларидан фойдаланиш самарадорлигига бўлган талабнинг ортиши молиявий назорат тизимини такомиллаштиришни муҳим вазифага айлантирмоқда. Самарали молиявий назорат давлат молиявий ресурсларининг мақсадли ва оқилона сарфланишини таъминлаш, коррупция

ҳолатларининг олдини олиш ҳамда давлат бошқарувида очиқлик ва ҳисобдорликни кучайтиришнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, ривожланган давлатлар тажрибасини ўрганиш ва уларнинг илғор амалиётларини миллий тизимга мослаштириш долзарб аҳамият касб этади.

Бугунги кунда кўплаб ривожланган мамлакатларда молиявий назорат тизими замонавий рақамли технологиялар, рискларга асосланган аудит усуллари ва халқаро стандартлар асосида ташкил этилган. Хусусан, давлат аудити институтлари мустақиллик, шаффофлик ва самарадорлик тамойиллари асосида фаолият юритмоқда. Натижада давлат маблағларидан фойдаланиш устидан таъсирчан назорат ўрнатилиб, бюджет интизоми мустаҳкамланмоқда. Ўзбекистонда ҳам давлат молиясини бошқариш тизимини модернизация қилиш жараёнида мазкур илғор тажрибаларни ўрганиш ва жорий этиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бу молиявий назоратнинг сифат жиҳатидан янги босқичга кўтарилишига хизмат қилади.

Мамлакатимизда давлат бюджети маблағлари, давлат мақсадли жамғармалари ҳамда ташқи қарз маблағлари ҳисобига амалга оширилаётган лойиҳалар ҳажми йил сайин ортиб бормоқда. Бундай шароитда молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш устидан кучли назорат механизмларини шакллантириш давлат молиявий барқарорлигини таъминлашнинг муҳим омили ҳисобланади. Хорижий давлатлар тажрибасида бюджет маблағларининг натижадорлиги ва ижтимоий самарасини баҳолашга алоҳида эътибор қаратилади. Ушбу ёндашувларни Ўзбекистон амалиётига татбиқ этиш давлат харажатлари самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Шу билан бирга, коррупцияга қарши курашиш ва давлат бошқарувида очиқликни таъминлаш масалалари ҳам молиявий назорат тизимининг такомиллашувини талаб этмоқда. Халқаро амалиётда электрон аудит, масофавий мониторинг, катта маълумотлар таҳлили (Big Data) ва сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш орқали молиявий қонунбузилишларни эрта аниқлаш имкониятлари кенгаймоқда. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида мазкур инновацион ёндашувларни жорий этиш молиявий назоратнинг таъсирчанлигини ошириш, инсон омили билан боғлиқ хавфларни камайтириш ва назорат жараёнларини автоматлаштириш имконини беради.

Молиявий назоратни ташкил этишнинг хорижий тажрибасини ўрганиш мамлакатимизда давлат ташқи аудити ва ички аудит институтларини ривожлантириш нуқтаи назаридан ҳам муҳимдир. Ривожланган мамлакатларда ички аудит бошқарув қарорларининг самарадорлигини баҳолаш, рискларни бошқариш ва ички назорат тизимини такомиллаштиришнинг асосий элементи сифатида қаралади. Ўзбекистонда ҳам бюджет ташкилотлари ва давлат иштирокидаги корхоналарда ички аудит тизимини халқаро стандартлар асосида ривожлантириш эҳтиёжи мавжуд бўлиб, бу соҳада хорижий тажрибадан самарали фойдаланиш муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Молиявий назоратни ташкил этишнинг хорижий тажрибаси ва ундан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш истиқболларини тадқиқ этиш давлат молиясини бошқариш самарадорлигини ошириш, бюджет маблағларининг мақсадли сарфланишини таъминлаш, коррупция хавфларини камайтириш ҳамда халқаро стандартларга мос молиявий назорат тизимини шакллантириш нуқтаи назаридан муҳим аҳамият касб этади. Шу боис мазкур мавзу нафақат назарий, балки амалий жиҳатдан ҳам юқори долзарбликка эга бўлиб, мамлакатда олиб борилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади.

Молиявий назорат давлат бюджети маблағларидан оқилона фойдаланиш ва иқтисодий барқарорликни таъминлашнинг муҳим воситасидир. Молиявий назорат давлат бошқарувининг муҳим таркибий қисми бўлиб, бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш ва молиявий шаффофликни таъминлашга қаратилади. Жаҳонда давлат молиявий назорати турли моделлар асосида амалга оширилади, бироқ барча тизимларда асосий тамойиллар – ҳисобдорлик, мустақил аудит ва очиқлик устувор ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҳам охирги йилларда молиявий назоратни кучайтириш бўйича ислоҳотлар амалга оширилмоқда, аммо халқаро тажрибани чуқур ўрганиш ва мослаштириш ушбу жараёнда муҳим аҳамият касб этади. Кўпгина ривожланган мамлакатлар молиявий назорат механизмларини кучайтириш орқали давлат маблағларидан самарали фойдаланишга эришган. Ушбу мақолада халқаро тажрибалар асосида Ўзбекистонда молиявий назоратни такомиллаштириш имкониятлари таҳлил қилинади.

Адабиётлар шарҳи

Давлат молиявий назорати хусусида иқтисодчи олимлар томонидан муайян тадқиқотлар олиб борилган.

Хусусан, грузиялик иқтисодчи олимлар таъкидлашича “мустақил давлат назорати органи томонидан молиявий ресурсларни самарали назорат қилиш маблағларнинг мақсадли сарфланишини рағбатлантиради ва мамлакат иқтисодиётини янада ривожлантиришга хизмат қилади” [1].

Россия Федерацияси ҳукумати ҳузуридаги Молия университети олимлари фикрича, “бюджет ташкилотлари фаолияти устидан молиявий назоратни амалга оширишга давлат бошқаруви органларининг муҳим вазифаси сифатида қаралиши, бу уларнинг самарадорлигини оширишга, бюджет маблағларидан тежамкор, оқилона ва мақсадга мувофиқ фойдаланишни таъминлашга кўмаклашиши зарур. Макроиқтисодий даражада назорат қилишдан ташқари, фаолиятнинг ички аудитига ҳам катта эътибор қаратиш лозим” [2].

Н.С.Матвеева молиявий назорат хусусида тадқиқотлар олиб бориб, қуйидаги хулосага келган: “молиявий назорат давлат бошқаруви тизимининг муҳим қисмига айланди, янги назорат вазифалари пайдо бўлди. Бюджет маблағларидан мақсадли ва қонуний фойдаланилишини назорат қилиш билан бирга, маблағлардан фойдаланиш самарадорлиги ва уларни тақсимлашнинг асослилигини назорат қилишга ҳам алоҳида эътибор қаратила бошланди” [3].

Л.Н.Овсянников тадқиқотларида “молиявий назорат – давлат ва мулкдорлар томонидан ўрнатилган қонунчилик, меъёр ва қоидалар талабларига молиявий муносабатлар қатнашчиларининг амал қилишини махсус ваколатли органлар томонидан текширишни назарда тутиши” келтириб ўтилган [4].

Ш.Ў.Азизов ҳам молиявий назорат хусусида тадқиқотлар олиб бориб, қуйидаги фикрни келтириб ўтган: “молиявий назоратнинг мақсади давлат ва хўжалик юритувчи субъектларнинг ўзаро самарали хатти-ҳаракати акс этган молиявий сиёсатга қаритилган фаолияти натижасида мамлакат иқтисодиётидаги тармоқ, соҳа ва бўғинлардаги молиявий ресурсларнинг шаклланиши, тақсимланиши ва фойдаланиши билан боғлиқ жараёнларнинг самарадорлигини таъминлашдан иборат” [5].

Юқорида таъкидлаб ўтилган фикрларда асосан молиявий назоратнинг моҳияти очиб берилган. Бироқ давлат молиявий назоратини ташкил этишнинг илғор хорижий тажрибалари атрофлича ёритиб берилмаган.

Тадқиқот методологияси.

Молиявий назоратнинг илғор хорижий тажрибаларини ўрганишда монографик кузатиш, таққослаш, гуруҳлаш, тизимли ёндашув, индукция ва дедукция каби усуллардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

Жаҳон мамлакатларида бюджет маблағларидан оқилона ва самарали фойдаланишда молиявий назоратни ташкил этишга кенг эътибор қаратилади. Молиявий назоратни ташкил этиш тажрибасига назара ташланадиган бўлса, жаҳон мамлакатларида турлича тажриба тўпланганлигига амин бўламиз. АҚШ дунёнинг иқтисодий жиҳатдан энг қудратли

давлатларидан бири ҳисобланиб, жаҳон ЯИМ ҳажмида юқори салмоқни эгаллайди. АҚШда молиявий назорат Аудиторлар Палатаси (GAO) томонидан амалга оширилади. АҚШда Аудиторлар Палатаси Конгрессга бўйсуниб, нафақат молиявий текширувларни амалга оширади, балки операцион ва самарадорлик аудитини ҳам ўтказади.

АҚШда давлат молиявий назоратининг хусусиятли жиҳатлари қуйидагилардир:



1-расм. АҚШда давлат молиявий назоратининг хусусиятли жиҳатлари[199]

Буюк Британияда давлат молиявий назоратини ташкил этишнинг ўзига хос жиҳатлари мавжуд. Мазкур давлатда молиявий назоратнинг асосий органи Миллий аудит идораси ҳисобланиб, ҳукуматдан бутунлай мустақил равишда фаолият кўрсатади. Миллий аудит идорасига давлат ҳисобчи-аудитори раҳбарлик қилади. Миллий аудит идораси ИНТОСАИ ва Европа Олий аудит институтлари ташкилоти аъзоси ҳисобланади.

Миллий аудит идораси давлат бошқаруви органлари ва бошқа давлат ташкилотларининг молиявий ҳисоботларини таҳлил қилиш асосида давлат харажатларининг салмоқли қисмини ташқи аудитдан ўтказади. Шу билан бирга, мазкур идора маҳаллий давлат ҳокимияти органларига, соғлиқни сақлаш муассасаларига ҳамда давлат улуши мавжуд бўлган корхоналар ва корпорацияларга ажратилган бюджет маблағлари ҳамда субсидиялардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолайди. Аудит жараёнида маблағларнинг қонунийлиги, мақсадли сарфланиши ва иқтисодий самарадорлигига алоҳида эътибор қаратилади.


Миллий аудит идораси ўз ваколатлари доирасида ўтказилган аудит тадбирлари натижалари бўйича тайёрланган хулосалар ва тавсияларни парламентга мунтазам равишда тақдим этади. Бу эса давлат молиясини бошқаришда шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлаш, бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш устидан парламент назоратини кучайтириш ҳамда давлат молиявий назорати тизимининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Давлат бухгалтер-аудиторига давлат органлари томонидан маблағлардан фойдаланиш тежамкорлиги ва самарадорлигини текшириш, шунингдек, ахборот

[199] Муаллиф ишланмаси.

технологиялари аудити ва экологик аудитни амалга ошириш ваколатлари берилган.

Буюк Британияда давлат молиявий назоратининг асосий жиҳатлари қуйидагилардан иборат:



2-расм. Буюк Британияда давлат молиявий назоратининг асосий жиҳатлари[200]

Германияда давлат молиявий назорати Федерал Аудиторлар Палатаси ва минтақавий Аудиторлар Палатаси томонидан амалга оширилади. Федерал ерларнинг Ҳисоб Палаталари Федерал Ҳисоб палатаси билан параллел равишда фаолият юритади.

Федерал Аудиторлар Палатаси ўтказилган аудит натижалари тўғрисида йиллик ҳисобот тайёрлайди ва уни ҳукуматга, Бундестагга ва Бундесратга тақдим этади. Бундан ташқари, ҳисобот натижалари ҳақида жамоатчиликни хабардор қилиш мақсадида матбуот анжумани ўтказилади.

Федерал ва минтақавий аудит палаталари томонидан давлат молиявий назорати бухгалтерия ҳисобининг тўғрилигини, барча кўрсаткичларнинг иқтисодий самарадорлигини ва қонун ҳужжатларига мувофиқлигини текширишни ўз ичига олади. Кўпинча Аудиторлар палатасининг маслаҳати Бундестагнинг Бюджет қўмитаси томонидан молия соҳасидаги турли қонун лойиҳаларини кўриб чиқишда қўлланилади.

Германияда давлат молиявий назоратининг асосий жиҳатлари қуйидагилардир:

ҳукуматга боғлиқ бўлмаган аудиторлик фаолияти;

давлат харажатлари бўйича қатъий жавобгарлик механизми;

ижро органлари аудит натижалари бўйича жавоб бериши шарт.

Франция Аудиторлар Палатаси энг юқори ташқи назорат органи бўлиб, кенг ваколатларга эга. У парламент ва ҳукуматдан мустақил равишда фаолият юритади. Ҳисоб палатаси вазирликлар фаолиятини, шунингдек, назорат қилинадиган ҳудудга тааллуқли давлат корхоналари, муассасалар ва бошқа ташкилотларнинг ҳисоботларини назорат қилади.

Францияда жорий молиявий операцияларни назорат қилиш Молия вазирлиги ходимлари томонидан амалга оширилади, Ҳисоб палатаси фақат амалга оширилган молиявий операциялар устидан назоратни амалга оширади. Ҳисоб палатаси парламент ва ҳукуматга бюджет қонунчилиги ижросини назорат қилишда кўмаклашишдан ташқари, парламентга ижтимоий таъминотни молиялаштириш тўғрисидаги қонунлар ижросини назорат қилишда ҳам ёрдам беради. Ҳисоб палатаси орган ёки муассаса томонидан амалга оширилаётган фаолиятнинг тежамкорлиги ва самарадорлиги устидан назоратни амалга оширади. Шунингдек, у давлат бухгалтерлари (давлат хизматчилари ёки давлат маблағларини бошқариш учун аккредитациядан ўтган ходимлар) томонидан тузилган

[200] Муаллиф ишланмаси.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ҳисоб-китобларни, шу жумладан даромадлар ва харажатларни ҳисобга олишнинг тўғрилигини текширишни амалга оширади.

Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб хулоса қилиш мумкин, давлат молиявий назорати давлат бюджети маблағларининг самарали сарфланиши, шаффофлик ва ҳисобдорликни таъминлаш учун муҳим восита ҳисобланади. Мамлакатимизда бу вазифа Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 171-моддасига асосан, Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатаси, Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ва унинг тасарруфидаги ваколатли органлар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг Давлат молиявий назорати инспекцияси ва бошқа органлар томонидан бажарилади.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, назорат самарадорлигини ошириш учун қуйидаги ислоҳотлар зарур:

мустақил аудит тизимини кучайтириш;
рақамлаштириш ва реал вақт мониторингги тизимини жорий этиш;
давлат аудити натижаларини жамоатчиликка ошкор қилиш;
жамоатчилик назорати тизимини ривожлантириш;
маҳаллий бюджет устидан назоратни кучайтириш;

Хулоса

Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, самарали молиявий назорат тизими давлат маблағларидан оқилона фойдаланиш, шаффофлик ва коррупцияни камайтиришда муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистонда мустақил аудит тизимини кучайтириш, рақамлаштириш ва очиқ маълумотлар платформасини яратиш орқали халқаро тажрибадан самарали фойдаланиш мумкин. Бу эса иқтисодий барқарорлик ва давлат маблағларининг самарали бошқарилишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Tamar Atanelishvili, Mikheil Chikviladze. About state financial control. //Ecoforum, Volume 6, Issue 1(10), 2017.
2. Prokofiev S.E., Muravleva T.V., Kirillova O.S., Galkin A.I. Criteria of differentiation of forms and methods of state financial control in Russia. // Earth and Environmental Science, 650 (2021).
3. Матвеева Н.С. Международный опыт осуществления государственного финансового контроля. // Финансовый журнал, №2 2020. Стр. 69-95.
4. Овсянников Л.Н. Игра без правил. // Финансы, 2001, №12. С.56-57.
5. Азизов Ш.Ў. Соҳада молиявий назоратнинг янги шакли ёки божхона аудитини ташкил этишнинг назарий, амалий ва ҳуқуқий муаммолари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2016 йил. 1-12-бетлар.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA YASHIL SOLIQLARNING ROLI

Safarova Nodira Ashuraliyevna
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: nodira.safarova@tsue.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda yashil soliqlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda yashil soliqlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta’minlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, turli mamlakatlar tajribasi asosida yashil soliqlarni joriy etish natijalari baholanib, ularning iqtisodiy o‘sish va ekologik samaradorlikka ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yashil soliqlar korxonalar va iste’molchilarni ekologik jihatdan mas’uliyatli faoliyat yuritishga rag‘batlantirishi, chiqindilarini kamaytirishi hamda yashil investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. Maqolada O‘zbekistonda yashil soliqlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *barqaror rivojlanish, yashil soliqlar, ekologik siyosat, karbon solig‘i, yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, atrof-muhit muhofazasi, yashil investitsiyalar.*

РОЛЬ ЗЕЛЕНЫХ НАЛОГОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Сафарова Нодира Ашуралиевна
доцент кафедры “Финансы и финансовые технологии” Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: nodira.safarova@tsue.uz

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение зеленых налогов в обеспечении устойчивого экономического развития. В исследовании освещается роль зеленых налогов в охране окружающей среды, рациональном использовании природных ресурсов и обеспечении экологической устойчивости экономики. Также были оценены результаты внедрения зеленых налогов на основе опыта различных стран и изучено их влияние на экономический рост и экологическую эффективность. По результатам исследования установлено, что зеленые налоги способствуют стимулированию предприятий и потребителей к экологически ответственной деятельности, сокращению выбросов и увеличению объемов зеленых инвестиций. В статье разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию системы зеленых налогов в Узбекистане.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, зеленые налоги, экологическая политика, углеродный налог, зеленая экономика, экологическая устойчивость, охрана окружающей среды, зеленые инвестиции.*

THE ROLE OF GREEN TAXES IN ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT

Safarova Nodira Ashuralievna
Associate Professor of the Department of “Finance and Financial Technologies”

Tashkent State University of Economics
Email: nodira.safarova@tsue.uz

Abstract. *This article analyzes the role and significance of green taxes in ensuring sustainable economic development. The study highlights the role of green taxes in environmental protection, the rational use of natural resources, and ensuring the environmental sustainability of the economy. Additionally, based on the experience of various countries, the results of implementing green taxes were evaluated, and their impact on economic growth and environmental efficiency was studied. According to the results of the study, it was found that green taxes stimulate enterprises and consumers to conduct environmentally responsible activities, reduce waste, and serve to increase the volume of green investments. The article develops practical proposals and recommendations for improving the green tax system in Uzbekistan.*

Keywords: *sustainable development, green taxes, environmental policy, carbon tax, green economy, environmental sustainability, environmental protection, green investments.*

Kirish


Bugungi kunda yashil soliqlar masalasi barqaror rivojlanishning, iqtisodiy siyosatning markaziy savoliga aylanmoqda. Bozor narxlari ijtimoiy-ekologik xarajatlarni aks ettirmaganda davlat fiskal vositalar orqali bu nomuvofiqlikni bartaraf etishi zarur. Xalqaro valyuta fondiga ko‘ra salbiy tashqi ta’sirlar mavjud bo‘lgan sharoitda xususiy xarajatlar bilan jamiyat zimmasiga tushadigan haqiqiy xarajatlar o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Karbon soliqlari ushbu tafovutni kamaytirish orqali ekologik zarar qiymatini iqtisodiy faoliyat xarajatlariga kiritishga xizmat qiladi. OECD esa ekologik soliqlarni atrof-muhitga isbotlangan salbiy ta’sirga ega bo‘lgan jismoniy birlik yoki uning bazasi asosida undiriladigan soliq deb tariflaydi hamda ularni adolatli hamda barqaror o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi fiskal mexanizm sifatida ko‘radi [1].

Shu nuqtayi nazardan, yashil soliqlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan baholash, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston uchun fiskal ahamiyatga ega bo‘lgan taklifini ishlab chiqish zarur. Mazkur tadqiqotda uchta asosiy masala ko‘rib chiqiladi. Birinchidan, yashil soliqlarning iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikka ta’sir etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ikkinchidan, yashil soliqlarni joriy etishda iqtisodiy samaradorlik, tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash omillari o‘rganiladi. Uchinchidan, O‘zbekistonning amaldagi iqtisodiy va institutsional sharoitlaridan kelib chiqib, yashil soliqlar tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlari baholanadi [2].

Yashil soliqlar Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ga erishishda muhim iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi. Xususan, ular BRM 7 – “Arzon va toza energiya”, BRM 8 – “Munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish”, BRM 12 – “Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish” hamda BRM 13 – “Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash” maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan ilgari surilgan “Tax for SDGs” yondashuvida ham soliqlar nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi, balki iqtisodiy sub’yektlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish mexanizmi sifatida talqin etiladi. O‘zbekistonning milliy BRM tizimida ham iqtisodiy o‘sishni ekologik degradatsiya va resurslar sarfining ortishidan ajratish muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [3].

Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda yashil soliqlarning ahamiyati bugungi kunda global ekologik muammolar, xususan, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi sharoitida tobora ortib bormoqda. Yashil soliqlar iqtisodiy subyektlarni ekologik jihatdan mas’uliyatli faoliyat yuritishga rag‘batlantiruvchi muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Ushbu soliqlar orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyatlar qo‘shimcha soliq yukiga tortilib, ekologik toza texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish rag‘batlantiriladi. Natijada iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyati kengayadi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5



1-rasm. Yashil soliqlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga ta’sir etish mexanizmi [4]

Yashil soliqlarning nazariy asosini quyidagicha soda ifodalashimiz mumkin: salbiy tashqi effektlar — noto‘g‘ri nisbiy narxlar — yashil fiskal tuzatish — investitsiya va iste’mol qarorlarining o‘zgarishi — emissiya pasayishi va samaradorlikning oshishi — BRM natijalari. Bu yondashuv ayniqsa energiya, transport, chiqindi va resurslardan foydalanish sohalarida yaxshi ishlaydi, chunki mazkur tarmoqlarda narxlar texnologik yangilanish va resurs tejamkorligini tezlashtiradi [6].

Metodologiya

Tadqiqot davomida bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanildi. Dastlab, qiyosiy tahlil usuli yordamida yashil soliqlarni qo‘llash bo‘yicha xalqaro tajriba o‘rganildi. Bunda Shvetsiya, Daniya, Germaniya va Xitoy davlatlarida amalda bo‘lgan ekologik soliqlar, ularning qamrovi, stavkalari hamda iqtisodiy va ekologik natijalari o‘zaro taqqoslandi. Keyingi bosqichda O‘zbekiston iqtisodiyotining ekologik ko‘rsatkichlari, jumladan karbon emissiyasi, issiqxona gazlari, yalpi ichki mahsulot hajmi, energiya sig‘imi va emissiya intensivligi dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, mamlakatda ekologik tartibga solish va fiskal mexanizmlarning rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil soliqlarni joriy etishda barcha mamlakatlar uchun bir xil universal model mavjud emas. Biroq o‘rganilgan tajribalar asosida bir qator umumiy tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Avvalo, yashil soliqlar bo‘yicha narx signallarining barqarorligi va uzoq muddatli xususiyati investitsion faollikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shvetsiya tajribasi ushbu yondashuvning samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ikkinchidan, soliq mexanizmlarining differensiallashtirilgan va kompensatsion elementlar bilan uyg‘unlashtirilishi iqtisodiy subyektlarning moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Uchinchidan, yashil soliqlarni bosqichma-bosqich joriy etish korxonalar va tarmoqlarning yangi sharoitlarga moslashish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Germaniyada emissiyalar savdosi tizimining milliy darajada joriy etilishi ushbu yondashuvning afzalliklarini tasdiqlaydi. To‘rtinchidan, dastlab yirik emissiya manbalarini qamrab olish hamda monitoring, hisobot va verifikatsiya tizimlarini takomillashtirish ma’muriy samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Xitoy tajribasi mazkur yondashuvning amaliy natijalarini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha mavjud statistik ma’lumotlar mamlakatda yashil fiskal siyosatni rivojlantirish uchun muayyan shart-sharoitlar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Xususan, 2024-yilda

mamlakat yalpi ichki mahsuloti 114,97 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, iqtisodiy o‘sish sur’ati 6,5 foizga yetdi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan CO_2 emissiyasi 4,1 tonnani tashkil etdi. 2023-yilda esa issiqxona gazlari emissiyasining umumiy hajmi 201,9 $MtCO_2e$ bo‘lib, uning qariyb 75 foizi energetika sektoriga to‘g‘ri kelgan[5]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, energiya sig‘imi hamda yalpi qo‘shilgan qiymat birligiga nisbatan CO_2 emissiyasi ko‘rsatkichlari uzoq muddatli davrda pasayish tendensiyasiga ega. Bu holat mamlakatda resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini anglatadi. Biroq ushbu jarayon asosan investitsiyalar va texnologik modernizatsiya hisobiga yuz bermoqda. Shu sababli ekologik xarajatlarni iqtisodiy qarorlar tizimiga integratsiya qiluvchi samarali yashil fiskal instrumentlarni joriy etish mazkur ijobiy tendensiyalarni yanada kuchaytirishi mumkin.

Mamlakatimizda institutsional jihatdan yashil soliqlar uchun “noldan boshlash” talab qilinmaydi. Chunki 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilingan. “O‘zbekistonz - 2030” strategiyasi qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 25 ming MVt va iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazishni nazarda tutadi. Soliq va to‘lovlar tizimida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlari, chiqindi boshqaruvida “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyiliga asoslangan kengaytirilgan majburiyatlar uchun normativ asoslar ham mavjud. Ayrim monitoring uskunalarini o‘rnatmagan sub’yektlar uchun kompensatsiya to‘lovlari 5 baravar oshirilishi ham belgilangan. 2025-yilda Issiqxona gazlari emissiyasini cheklash to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi va u karbon birliklari savdosini tartibga solishga asos yaratadi. Davlat dasturida esa sement, ko‘mir va siqilgan gaz kabi mahsulotlar uchun “karbon yig‘imi” bo‘yicha taklif tayyorlash vazifasi qo‘yildi.


1-jadval

Mamlakatlar bo‘yicha yashil soliq turlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari [6]

Mamlakat	Asosiy instrumentlar	Tanlangan samaradorlik ko‘rsatkichlari	Amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy xulosalar
Shvetsiya	1991-yildan karbon solig‘i, energiya soliqlari, EU ETS bilan integratsiya	Karbon solig‘i va EU ETS birga Shvetsiyadagi fossil uglerod emissiyalarining 95 foiz dan ortig‘iga aniq narx beradi; 2023-yilda GHG’ning 67.2 fozi ijobiy net effective carbon rate ostida; 1990–2021-yillar oralig‘ida YAIM +92 foiz, GHG emissiyasi -33 foiz; 2024-yilda ekologik soliq tushumi 102 mlrd SEK, ya’ni YAIMning 1.6 foizi	Barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi
Germaniya	Energiya va transport soliqlari, 2021-yildan milliy ETS	2023-yilda GHG’ning 81.1 fozi ijobiy ECR ostida; milliy ETS narxi 2021-yildagi 25 yevrodan 2025-yilda 55 yevro/tCO2 ga oshdi; qamralgan emissiyalar 2022-yilda 5.9 foizga kamaydi	Bosqichma-bosqich narxlash va sektoral moslashuv
Xitoy	2018-yildan Environmental Protection Tax, 2021-yildan milliy ETS	2024-yilda ETS 2,257 ta yirik elektr energetika subyektini va 5.1 mlrd tonna CO2 ni, ya’ni milliy emissiyaning 40 foiz dan ortig‘ini qamrab oldi; 2025-yil kengayishidan so‘ng qamrov 60 foiz dan oshadi; elektr ishlab chiqarishning karbon intensivligi ishga tushgandan beri 8.78 foizga pasaydi	Yirik emitentlardan boshlash, keyin huquqiy va sektoral kengayish

Bundan tashqari, hukumat darajasida GHG monitoringi va emissiya savdosi tizimlarini joriy etish ishlari ketayotgani, Partnership for Action on Green Economy (PAGE) dasturi va yashil

iqlim moliyasi monitoringining yagona tizimini shakllantirishga yordam berayotgani, Jahon banki orqali esa O‘zbekiston 0.5 mln tonna emissiya qisqarishi uchun 7.5 mln dollar miqdoridagi birinchi karbon to‘lovini olgani qayd etilgan. Bu, amaliy jihatdan, MRV va natijaga asoslangan karbon moliyasini o‘zlashtirish bo‘yicha boshlang‘ich tajriba borligini anglatadi [8].



2-rasm. Generatsiya obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun to‘lovlar[9]

Qayta tiklanuvchi energiya manbasini xalqaro Evident platformasida kichik quvvatdagi qurilmalar uchun ro‘yxatdan o‘tkazish uchun to‘lov kamaytirildi va raqobat muhiti yaratildi. Amaldagi tartibga ko‘ra, generatsiya obyektlarining umumiy quvvatiga mos ravishda 100 yevrodan 2000 yevro ekvivalentigacha bir martalik yig‘im undiriladi.

Yashil soliqlar iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiluvchi vosita sifatida emas, aksincha, ekologik xarajatlarni narx mexanizmi orqali hisobga olish natijasida resurslar taqsimoti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. OECD baholashlariga ko‘ra, yashil soliqlar ekologik zararlarni kamaytirish bilan bir qatorda fiskal barqarorlikni mustahkamlash va daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi samarali iqtisodiy vosita hisoblanadi. O‘zbekiston bo‘yicha Jahon banki CCDR ham dekarbonizatsiya katta qo‘shimcha foyda berishini ko‘rsatadi: 2023-2060 oralig‘ida infratuzilma sektori bo‘yicha umumiy foyda 178 mlrd dollardan oshishi, qariyb 112 mlrd AQSH dollari atrof-muhit ifloslanishi va u bilan bog‘liq zararlarni kamaytirish hisobiga, yana 66 mlrd AQSH dollari esa qazilma yoqilg‘ilar importiga bo‘lgan ehtiyojning qisqarishi natijasida shakllanishi mumkin. Demak, yashil soliqlarni faqat “qo‘shimcha yuk” deb emas, kelajakdagi makroiqtisodiy xarajatlarni oldindan kamaytiruvchi vosita deb ko‘rish kerak [2].

2-jadval

2022-2024-yillarda ekologik tushumlarning choraklar kesimidagi dinamikasi[10]

Yil	I chorak (ming AQSH doll.)	Ulushi (%)	II chorak (ming AQSH doll.)	Ulushi (%)	III chorak (ming AQSH doll.)	Ulushi (%)	IV chorak (ming AQSH doll.)	Ulushi (%)	Jami (ming AQSH doll.)
2022	44,68	21,0	51,06	24,0	55,32	26,0	61,70	29,0	**212,76**
2023	48,33	21,06	66,74	29,08	46,53	20,28	67,87	29,58	**229,47**
2024	54,45	31,19	52,59	30,13	67,52	38,68	–	–	**174,56**

Jadval ma’lumotlari ekologik tushumlar hajmining 2022-2024-yillarda izchil o‘sib borganligini ko‘rsatadi. Xususan, 2022-yilda jami ekologik tushumlar 212,76 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 229,47 ming AQSH dollariga yetgan. 2024-yilning dastlabki uch choragida esa ekologik tushumlar 174,56 ming AQSH dollarini tashkil

etgan.

Biroq yashil soliqlarni joriy etishda ularning ijtimoiy oqibatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki energiya va transport xarajatlarining oshishi, avvalo, past daromadli aholi qatlamlariga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xalqaro tajriba va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, karbon narxlash mexanizmlaridan shakllanadigan tushumlarning nisbatan kichik qismi yordamida ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarni qo‘llab-quvvatlash mumkin. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yashil soliqlardan tushadigan mablag‘larning ma’lum qismini manzilli ijtimoiy yordam dasturlari, uy-joylarning energiya samaradorligini oshirish tadbirlari hamda jamoat transportidan foydalanishni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor keng ko‘lamli imtiyozlarga emas, balki iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligini saqlab qoluvchi, aniq yo‘naltirilgan va manzilli kompensatsiya choralariga qaratilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda yashil soliqlarni joriy etishda bosqichma-bosqich va kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda dastlab yirik emissiya manbalarini qamrab oluvchi pilot ekologik to‘lovlarni joriy etish, keyinchalik yoqilg‘i aksizlari tarkibida ekologik omillarning ulushini oshirish hamda chiqindilar va atrof-muhitni ifloslantiruvchi faoliyat turlari bo‘yicha iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi. Shuningdek, ushbu vositalardan shakllanadigan tushumlarni energiya samaradorligini oshirish, ekologik monitoring tizimlarini rivojlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini moliyalashtirishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yashil soliqlar eng yuqori natijani boshqa iqtisodiy va institutsional choralar, jumladan investitsiyalarni rag‘batlantirish, texnologik modernizatsiya va ekologik boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda beradi [11].

Xulosa

Tadqiqot natijalari yashil soliqlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Birinchidan, ular ekologik xarajatlarni iqtisodiy faoliyat qiymatiga integratsiya qilish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, yashil soliqlar davlat byudjeti uchun qo‘shimcha daromad manbaini shakllantirib, ekologik va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uchinchidan, ushbu instrumentlar iqlim o‘zgarishiga moslashish, energiya xavfsizligini ta’minlash va xalqaro ekologik talablarga muvofiqlashish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi institutsional mexanizm sifatida xizmat qiladi. Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda asosiy muammo ekologik fiskal vositalarning mavjud emasligida emas, balki ularning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi va yagona ekologik-fiskal yondashuv asosida faoliyat yuritilmayotganligida.

Yashil soliqlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi vazifa ekologik fiskal vositalarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash hisoblanadi. Soliq kodeksi va unga oid normativ bazada “ekologik asosli soliq” va “uglerod yig‘imi” tushunchalarini aniq ajratish, ularni suv, chiqindi, ifloslantirish va karbon komponentlarini bir tizimga bog‘lashdir. 2025-yilgi Issiqxona gazlari emissiyasini cheklash to‘g‘risidagi qonun ekologik fiskalizatsiya uchun huquqiy tayanch bo‘la oladi.

Yashil fiskal siyosatni rivojlantirish bo‘yicha muhim yo‘nalishlardan biri sifatida ekologik soliqlar va yig‘imlarni bosqichma-bosqich joriy etish hisoblanadi. Dastlab yirik emissiya manbalarini qamrab oluvchi ekologik to‘lovlar mexanizmini sinov tariqasida qo‘llash, keyinchalik esa ushbu vositalarni yoqilg‘i soliqlari tarkibidagi ekologik komponentlar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq. Shuningdek, chiqindilarni joylashtirish, ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilarning kengaytirilgan javobgarligi hamda me’yoriy darajadan ortiq ifloslantirish holatlari uchun qo‘llaniladigan iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Monitoring va baholash tizmini takomillashtirish yashil fiskal siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiyot, soliq va ekologiya tashkilotlari o‘rtasida ma’lumotlar

almashinuvini ta’minlaydigan yagona raqamli platformani shakllantirish maqsadga muvofiq. Mamlakatda ekologik to‘lovlar va emissiyalarni tartibga solish bo‘yicha shakllanayotgan institutsional tajriba yashil fiskal vositalarni yanada rivojlantirish uchun muhim asos yaratmoqda. Aynan shunda yashil soliqlar ekologik cheklov emas, balki yangi sifatdagi barqaror iqtisodiy o‘sishning tayanch vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. International Monetary Fund. Externalities: Prices Do Not Capture All Costs. Available at: https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/basics/38-externalities.htm (accessed: 02.06.2026).
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Tax and the Environment. Available at: https://www.oecd.org/en/topics/policy-issues/tax-and-the-environment.html (accessed: 02.06.2026).
3. United Nations. Sustainable Development Goal 7: Affordable and Clean Energy. Available at: https://sdgs.un.org/goals/goal7 (accessed: 02.06.2026).
4. Muallif tomonidan xalqaro statistik ma’lumotlar asosida tuzildi.
5. World Bank. World Development Indicators: Uzbekistan. Available at: https://data.worldbank.org/country/uzbekistan (accessed: 02.06.2026).
6. Government Offices of Sweden. Carbon Tax in Sweden – General Information. Stockholm, 2023. Available at: https://www.government.se/contentassets/419eb2cafa93423c891c09cb9914801b/230323-carbon-tax-sweden---general-info.pdf
7. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ). Available at: https://lex.uz/docs/-4539502
8. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. Green Economy and Sustainable Development Initiatives. Available at: https://gov.uz/en/mfa/news/view/32826
9. Iqtisodiy islohotlar va tahlillar markazi. O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha hisobot. Toshkent, 2025. Available at: https://www.imv.uz/media/filestore/9M2025_Hisobot_Uzb_CGEP_v4.3.pdf
10. Yashil iqtisodiyot platformasi. Available at: https://green.imv.uz/uz/
11. International Monetary Fund. Fiscal Policies for Climate Mitigation and Sustainable Development. IMF Working Paper, 2024. Available at: https://www.elibrary.imf.org/view/journals/001/2024/155/article-A001-en.xml.
12. Parry, I., Black, S., Vernon, N. Still Not Getting Energy Prices Right: A Global and Country Update of Fossil Fuel Subsidies. Washington, DC: International Monetary Fund, 2021.
13. World Bank. State and Trends of Carbon Pricing 2024. Washington, DC: World Bank Group, 2024.
14. OECD. Effective Carbon Rates 2023: Pricing Greenhouse Gas Emissions through Taxes and Emissions Trading. Paris: OECD Publishing, 2023.
15. United Nations Development Programme (UNDP). Tax for SDGs Initiative: Strengthening Domestic Resource Mobilization for Sustainable Development. New York: UNDP, 2023.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

FARMATSEVTIKA SANOATIDA INVESTITSIYALAR HISOBIGA YANGI O‘SISH NUQTALARINI ANIQLASH

Rabimqulov Sherzod Murtozayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: sh.rabbimqulov@tsue.uz,
ORCID: 0009-0009-9119-4376

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kichik biznes sub’yektlarini moliyalashtirishning zamonaviy holati, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilingan. Xususan, kichik biznesni rivojlantirishda bank kreditlari, investitsiyalar, davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va xorijiy investitsiyalarning o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida kichik biznes sub’yektlarining moliyaviy resurslardan foydalanishdagi asosiy muammolari, jumladan kredit olishdagi garov ta’minoti yetishmasligi, yuqori foiz stavkalari, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi hamda investitsion jozibadorlik muammolari aniqlangan. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida imtiyozli kreditlash tizimini kengaytirish, raqamli moliyalashtirish xizmatlarini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va xorijiy tajribalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznes sub’yektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish hamda iqtisodiyotda ularning ulushini kengaytirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, moliyalashtirish, investitsiya, bank krediti, moliyaviy resurslar, tadbirkorlik, imtiyozli kredit, investitsion muhit, moliyaviy barqarorlik, davlat qo‘llab-quvvatlashi, raqamli moliyalashtirish, iqtisodiy samaradorlik.*

SMALL BUSINESS FINANCING PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS

Rabimkulov Sherzod Murtozaevich
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
e-mail: sh.rabbimqulov@tsue.uz
ORCID: 0009-0009-9119-4376

Annotasiya: *This article analyzes the current state of financing of small businesses, existing problems and ways to overcome them. In particular, the role of bank loans, investments, state financial support mechanisms and foreign investments in the development of small businesses is highlighted. During the study, the main problems of small businesses in using financial resources were identified, including the lack of collateral for obtaining loans, high interest rates, low financial literacy, and investment attractiveness. In addition, in order to eliminate these problems, scientific and practical proposals and recommendations were developed on expanding the preferential lending system, developing digital financing services, improving support mechanisms based on public-private partnerships, and introducing foreign experience. The results of the study will serve to increase the financial stability of small businesses and expand their share in the economy.*

Key Words: *small business, financing, investment, bank credit, financial resources, entrepreneurship, preferential credit, investment climate, financial stability, state support, digital financing, economic efficiency.*

ПРОБЛЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Рабимқулов Шерзод Муртозаевич
Ташкентский государственный экономический университет,

Доктор философии (PhD) по экономическим наукам
e-mail: sh.rabbimqulov@tsue.uz,
ORCID: 0009-0009-9119-4376

Аннотация: *В данной статье анализируется текущее состояние финансирования малого бизнеса, существующие проблемы и пути их преодоления. В частности, подчеркивается роль банковских кредитов, инвестиций, механизмов государственной финансовой поддержки и иностранных инвестиций в развитии малого бизнеса. В ходе исследования были выявлены основные проблемы малого бизнеса в использовании финансовых ресурсов, включая отсутствие залога для получения кредитов, высокие процентные ставки, низкий уровень финансовой грамотности и инвестиционную привлекательность. Кроме того, для устранения этих проблем были разработаны научно-практические предложения и рекомендации по расширению системы льготного кредитования, развитию цифровых финансовых услуг, совершенствованию механизмов поддержки на основе государственно-частного партнерства и внедрению зарубежного опыта. Результаты исследования будут способствовать повышению финансовой стабильности малого бизнеса и расширению его доли в экономике.*

Ключевые слова: *малый бизнес, финансирование, инвестиции, банковский кредит, финансовые ресурсы, предпринимательство, льготное кредитование, инвестиционный климат, финансовая стабильность, государственная поддержка, цифровое финансирование, экономическая эффективность.*

Kirish.

Zamonaviy global iqtisodiyotda farmatsevtika sanoati eng tez rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biriga aylangan. Aholi sonining ortishi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining uzayishi, surunkali kasalliklar sonining ko‘payishi hamda jamiyatda sog‘liqni saqlashga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi dori-darmonlarga bo‘lgan talabni yildan-yilga oshirib bormoqda. Shu bois farmatsevtika sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va yangi o‘sish nuqtalarini ilmiy asosda aniqlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuning ahamiyati nafaqat tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligi, balki butun mamlakat aholisining dori vositalari bilan ta’minlanish darajasi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda mahalliy dori ishlab chiqarishni kengaytirish, import qaramligini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi, soliq va bojxona imtiyozlari berilishi, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi tarmoqqa kapital oqimini jadallashtirdi. Biroq mavjud investitsiyalarning samaradorligini ta’minlash va ularni eng istiqbolli yo‘nalishlarga oqilona taqsimlash uchun yangi o‘sish nuqtalarini aniq metodologik yondashuv asosida belgilash zaruriyati tug‘ilmoqda. Bu esa mavzuning amaliy jihatdan ham, ilmiy jihatdan ham yuqori darajada dolzarbligini ko‘rsatadi.

Investitsiyalar har qanday sanoat tarmog‘ining barqaror o‘sishi uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Farmatsevtika sohasida investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, balki ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va xalqaro sifat standartlariga (masalan, GMP) javob beradigan mahsulotlar yaratishga imkon beradi. Aynan investitsiyalarning to‘g‘ri yo‘naltirilishi tarmoqda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va qo‘shilgan qiymat zanjirini uzaytiradi. Shu sababli investitsiyalardan unumli foydalanish orqali qaysi segmentlar — generik dorilar, biotexnologik preparatlar, sub-substansiya ishlab chiqarish yoki qadoqlash sohalari — eng yuqori o‘sish imkoniyatini berishini aniqlash dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy fanda strategik rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlashning muhim vositasi sifatida e’tirof etilgan. O‘sish

nuqtalari deganda tarmoqning eng katta iqtisodiy qaytim va rivojlanish potensialiga ega bo‘lgan yo‘nalishlari, mahsulot turlari yoki bozor segmentlari tushuniladi. Farmatsevtika sanoatida bunday nuqtalarni aniqlash murakkab tahliliy ishni talab qiladi, chunki tarmoq yuqori darajada bilimga asoslangan, qattiq tartibga solinadigan va kapital sig‘imi katta bo‘lgan soha hisoblanadi. Shu bois ilmiy asoslangan metodika yordamida investitsiyalar uchun eng maqbul yo‘nalishlarni belgilash mamlakat farmatsevtika tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Global farmatsevtika bozorida raqobat tobora keskinlashib bormoqda, yetakchi davlatlar va transmilliy kompaniyalar ilmiy-tadqiqot hamda ishlab chiqarishga ulkan mablag‘lar sarflamoqda. Bunday sharoitda rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston, o‘z resurslarini cheklanganligini hisobga olgan holda, investitsiyalarni eng samarali nuqtalarga jamlash strategiyasini qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Mahdud kapitalni tarqoq holda bir necha yo‘nalishga sochish o‘rniga, aniq tanlangan istiqbolli segmentlarga to‘plash orqali sezilarli iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Aynan shu yondashuv mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi, chunki u cheklangan moliyaviy resurslardan maksimal foyda olish imkonini beruvchi ilmiy mexanizmni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi pandemiya va boshqa global sog‘liqni saqlash inqirozlari tajribasi bilan ham izohlanadi. So‘nggi yillardagi epidemiologik vaziyatlar ko‘plab mamlakatlarda dori-darmonlar va tibbiy vositalarni import qilishga bog‘liqlik qanchalik xavfli bo‘lishi mumkinligini yaqqol ko‘rsatdi. Dori ta’minotidagi uzilishlar, narxlarning keskin oshishi va strategik zaxiralarning yetishmasligi mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va dori xavfsizligini ta’minlash zaruriyatini birinchi o‘ringa olib chiqdi. Shu nuqtai nazardan, farmatsevtika sanoatiga investitsiyalar yo‘naltirish va ularning hisobiga yangi mustaqil ishlab chiqarish yo‘nalishlarini shakllantirish milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylandi. Bu omil tadqiqot mavzusining iqtisodiy ahamiyatdan tashqari ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ilmiy va amaliy jihatdan ushbu mavzuni o‘rganish farmatsevtika korxonalari, davlat organlari va investorlar uchun bir qator muhim natijalar berishi mumkin. Investitsiya samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, o‘sish nuqtalarini aniqlashning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish va tarmoqdagi istiqbolli yo‘nalishlarni asoslash strategik qarorlar qabul qilish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘taradi. Bundan tashqari, mavzu doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar mahalliy farmatsevtika korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga, xorijiy kapitalni jalb etishga va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa tadqiqot natijalari nazariy bilimlarni boyitish bilan birga aniq amaliy muammolarni hal etishga ham qaratilgan bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan dalillarning barchasi mazkur mavzuning hozirgi davr uchun naqadar muhim va o‘z vaqtida tanlanganligini tasdiqlaydi. Farmatsevtika sanoatining iqtisodiyotdagi o‘rni ortib borayotgani, investitsiyalarni samarali boshqarish zaruriyati, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va dori xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatining ustuvorligi mavzuning dolzarbligini har tomonlama asoslaydi. Investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini ilmiy asosda aniqlash nafaqat alohida korxonalar, balki butun milliy iqtisodiyot uchun barqaror rivojlanishni ta’minlovchi muhim omildir. Binobarin, ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatning farmatsevtika sohasidagi mustaqilligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida farmatsevtika sanoatida investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, S.O. Xomidov farmatsevtika sanoati va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tahlil qilgan. Olimning fikricha, farmatsevtika tarmog‘iga yo‘naltirilgan investitsiyalar aholi salomatligini yaxshilash bilan birga iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi. Farmatsevtika

korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy o‘sishning yangi nuqtalarini shakllantiradi[1].

S.Usmanova farmatsevtika sanoatining rivojlanishida innovatsion investitsiyalarning o‘rni yuqori ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, farmatsevtika korxonalarida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (R&D) sarflanadigan mablag‘lar mahsulotlar raqobatbardoshligini oshiradi. Ayniqsa, biotexnologiya, gen muhandisligi va zamonaviy dori vositalarini ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiyalar yangi iqtisodiy o‘sish markazlarini yuzaga keltiradi[2].

B.Axmedov farmatsevtika klasterlari va Pharma Park loyihalarini investitsion rivojlanishning yangi modeli sifatida baholaydi. Uning fikricha, Tashkent Pharma Park kabi loyihalar ilm-fan, ishlab chiqarish va investorlarni yagona ekotizimga birlashtirib, farmatsevtika sanoatining innovatsion rivojlanishini jadallashtiradi. Natijada yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshadi[3].

Reza Khanmohammadi o‘z tadqiqotlarida biotibbiyot tadqiqotlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar farmatsevtika kompaniyalarining bozor qiymatini oshirishini asoslab bergan. Uning fikricha, ilmiy natijalar va patentlar investorlar uchun eng muhim signal hisoblanadi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlar yangi o‘sish nuqtalarining asosiy manbaidir[4].

S. Kaur ilmiy tadqiqotlar va farmatsevtika investitsiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatib beradi. Uning fikricha, tadqiqot va ishlanma xarajatlarining ortishi yangi preparatlar yaratish tezligini oshiradi va korxonalar rentabelligini yaxshilaydi[5].

Stig Johan Wiklund o‘z tadqiqotlarida farmatsevtika sanoatida investitsion portfelni boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, kompaniya bir vaqtning o‘zida turli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishi orqali risklarni kamaytiradi va daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi[6].

Magnus Ytterstad farmatsevtika kompaniyalari investitsion faoliyatining samaradorligini oshirish uchun strategik diversifikatsiya zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa yangi mahsulotlar va texnologiyalarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi[7].

Frank Miller farmatsevtika biznesida uzoq muddatli daromad o‘sishi investitsion strategiya sifati bilan bog‘liqligini asoslaydi. U korxonalarga innovatsion loyihalar portfelini shakllantirishni tavsiya qiladi[8].

Mohammad M. Ghassemi o‘z tadqiqotlarida farmatsevtika va biotexnologiya sohasidagi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish investitsion samaradorlikning eng yuqori shakli ekanligini ko‘rsatadi. Patentlar va innovatsion mahsulotlar yangi bozorlarni shakllantiradi[9].

Semen Budennyy klinik sinovlarga investitsiyalar farmatsevtika kompaniyalari aksiyalarining bozor qiymatiga bevosita ta’sir qilishini aniqlagan. Muvaffaqiyatli sinovlar investorlar ishonchini oshiradi va yangi o‘sish nuqtalarini yuzaga keltiradi[10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Farmatsevtika sanoatida investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Farmatsevtika sanoatida investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash mavzusi bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida farmatsevtika tarmog‘i yuqori texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion ishlanmalarga asoslangan strategik soha sifatida shakllangan. Ushbu tarmoq nafaqat aholi salomatligini ta’minlash, balki mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi, eksport salohiyati va sanoat rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun farmatsevtika sanoatiga investitsiyalarni jalb etish va ular hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global sog‘liqni saqlash tizimida yuz

berayotgan o‘zgarishlar, yangi kasalliklar va dori vositalariga bo‘lgan talabning ortib borishi farmatsevtika tarmog‘ining iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Farmatsevtika sanoatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Investitsiyalar yordamida korxonalar ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etishi, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimlarini yaratishi va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tishi mumkin. Natijada, farmatsevtika korxonalari ichki bozorda raqobatbardoshligini oshiribgina qolmay, balki xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga va yangi iqtisodiy o‘sish nuqtalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston farmatsevtika sanoatini rivojlantirish strategiyasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda mamlakatda farmatsevtika klasterlari, erkin iqtisodiy zonalar va innovatsion markazlarni tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Tashkent Pharma Park loyihasi, mahalliy dori vositalari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturlari va farmatsevtika mahsulotlari eksportini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu sohani iqtisodiyotning muhim drayveriga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli investitsiyalar yordamida yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Farmatsevtika sanoatida investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlashning yana bir muhim jihati import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda dori vositalarining katta qismi import hisobidan qoplanadi, bu esa valyuta mablag‘larining chetga chiqib ketishiga olib keladi. Investitsiyalar yordamida mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish esa ichki bozor ehtiyojlarini qondirish, importga qaramlikni kamaytirish va milliy farmatsevtika kompaniyalarining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, mahalliylashtirish jarayonlari yangi ish o‘rinlari yaratish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Farmatsevtika sanoatida investitsiyalarning samaradorligini baholash, investitsion faollik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda yangi o‘sish nuqtalarini shakllantiruvchi omillarni tadqiq etish imkonini beradi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar investitsion siyosatni takomillashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish va farmatsevtika sanoatining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari investitsion qarorlar qabul qilishda davlat organlari, investorlar va farmatsevtika korxonalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Farmatsevtika sanoatida investitsiyalar hisobiga yangi o‘sish nuqtalarini aniqlash mavzusining strategik ahamiyati uning aholi salomatligi, milliy iqtisodiy xavfsizlik va innovatsion rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, farmatsevtika tarmog‘i yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalovchi hamda iqtisodiyotning eng innovatsion yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy global iqtisodiy va epidemiologik sharoitlarda dori vositalari, vaksinalar va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar sog‘liqni saqlash tizimining uzluksiz faoliyatini ta’minlash bilan birga, tashqi bozorlardagi tebranishlar va ta’minot zanjirlaridagi uzilishlarga nisbatan yuqori darajada barqarorlikka erishmoqda.

Shu nuqtai nazardan, farmatsevtika sanoatiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (R&D) moliyalashtirish hamda innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar nafaqat mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga, balki biotexnologiya, gen muhandisligi, raqamli farmatsevtika, farmakogenomika va yuqori texnologiyali tibbiy mahsulotlar ishlab chiqarish kabi yangi istiqbolli yo‘nalishlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa tarmoqda yangi o‘sish nuqtalarining shakllanishi, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi va mahalliy mahsulotlarning xalqaro standartlarga

moslashuvini ta’minlaydi.

1-jadval

Korxonalarni qo‘llab-quvvatlash choralari[11]

Chora-tadbir	Qoplash darajasi / shart	Yuqori chegara	Manba / muddat
Patent muddati tugagach 1 yil ichida ishlab chiqaruvchilarga texnologiyalar transferi xarajatlari	50%	50 ming AQSh dollari	Farmatsevtika tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg‘armasi
Mahsulotni yaratishdagi ilmiy tadqiqot xarajatlari (muqobil variant)	50%	100 ming AQSh dollari	O‘sha jamg‘arma
Milliy GMP sertifikatiga ega korxonalarga BFQ ishlab chiqarishga ruxsat	—	—	2027 yil 1 yanvardan
EU GMP / US FDA GMP sertifikatlari va xorijiy konsalting xizmatlari	50%	50 ming AQSh dollari	Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi, 2026 yil 1 iyundan
Ro‘yxatdan o‘tkazish, klinik sinov va bioekvivalentlik tadqiqotlari (yangi dori vositalari)	80%	8 ming AQSh dollari	Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi

Farmatsevtika sanoatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlab chiqilgan mexanizmlar, avvalo, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishga qaratilgan. Patent muddati tugagan texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish xarajatlarining 50 foizgacha qoplanishi korxonalarga mavjud ilg‘or texnologiyalarni tezroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, yangi mahsulotlarni bozorda tezroq paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi. Natijada, texnologik modernizatsiya jarayoni tezlashadi va farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligi oshadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlashdir. Yangi mahsulot yaratishdagi tadqiqot va ishlanma xarajatlarining 50 foizgacha qoplanishi farmatsevtika sohasida ilmiy izlanishlarni jadallashtiradi. Bu holat yangi dori vositalarini ishlab chiqish, klinik sinovlarni kengaytirish hamda milliy innovatsion mahsulotlar portfelini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali korxonalar faqat ishlab chiqaruvchi emas, balki ilmiy-innovatsion subyekt sifatida ham rivojlanadi.

Uchinchi yo‘nalish GMP standartlari bilan bog‘liq bo‘lib, milliy GMP sertifikatiga ega korxonalarga BFQ (biologik faol qo‘shimchalar) ishlab chiqarishga ruxsat berilishi tarmoq uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu ichki bozorda sifatli mahsulotlar ulushini oshiradi va ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtiradi. Shu bilan birga, 2027 yilga qadar berilgan imtiyozlar uzoq muddatli investitsion rejalashtirish uchun barqaror muhit yaratadi.

To‘rtinchi chora — EU GMP va US FDA GMP sertifikatlash hamda xorijiy konsalting xizmatlarini moliyalashtirish — eksport salohiyatini oshirishga bevosita xizmat qiladi. Bu yo‘nalish korxonalarga xalqaro bozorlarga chiqish, global standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini yo‘lga qo‘yish va investitsion jozibadorlikni oshirish imkonini beradi. 50 foizgacha xarajatlarni qoplash esa kichik va o‘rta korxonalar uchun ham global bozorlarga kirish imkonini kengaytiradi.

Beshinchi chora klinik sinovlar va bioekvivalentlik tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lib, bu eng muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. Yangi dori vositalarini ro‘yxatdan

o‘tkazish jarayonida ushbu xarajatlarning 80 foizgacha qoplanishi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishni keskin jadallashtiradi. Bu esa farmatsevtika sanoatida yangi o‘sish nuqtalarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, jadvalda keltirilgan qo‘llab-quvvatlash choralari farmatsevtika sanoatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ham ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ham innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ham eksport salohiyatini oshirish vazifalarini bajaradi. Ushbu mexanizmlar natijasida tarmoqda yangi investitsion oqimlar shakllanadi, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish kengayadi va farmatsevtika sanoati iqtisodiyotning strategik drayverlaridan biriga aylanadi.

2-jadval

Soliq va bojxona imtiyozlari[11]

Imtiyoz turi	Mazmuni	Muddat / shart
Yer solig‘i	Investitsiya loyihalari amalga oshiriladigan yer uchastkalari bo‘yicha ozod etish	Loyiha boshlangan sanadan 3 yil (2040 yilga qadar)
Foyda solig‘i	Investitsiya loyihasi doirasida ozod etish	Loyiha foydalanishga qabul qilingandan 3 yil
Mol-mulk solig‘i	Qurilgan ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha ozod etish	3 yil
Foyda solig‘i (norezidentlar)	Texnologiya transferi va brend nomi royalti daromadlariga past stavka	5% — 2030 yil 1 yanvarga qadar
Daromad ulushi sharti	Imtiyozlar farmatsevtika/dorivor o‘simlik daromadi jami daromadning kamida 60%ini tashkil etganda qo‘llanadi	Doimiy shart
Bojxona imtiyozlari	BFQ va kosmetika ishlab chiqaruvchilarga PF–55-son imtiyozlari	2026 yil 1 apreldan
Insonparvarlik yordami	Bepul beriladigan dori/jihozlar (kamida 6 oy yaroqlilik) xarajat deb tan olinadi	Soliqqa tortishda chegirma

Farmatsevtika va dori vositalari ishlab chiqarish sohasida joriy etilgan soliq va bojxona imtiyozlari investitsion muhitni sezilarli darajada yaxshilashga qaratilgan kompleks davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu imtiyozlar orqali korxonalar uchun boshlang‘ich investitsiya yuklamasi kamaytiriladi va yangi ishlab chiqarish loyihalarining iqtisodiy samaradorligi oshiriladi. Xususan, yer solig‘i bo‘yicha 3 yilgacha ozod etish va foyda solig‘i imtiyozlari investitsiya loyihalarining dastlabki bosqichida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mol-mulk solig‘idan 3 yil muddatga ozod etish esa ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish jarayonida korxonalar uchun qo‘shimcha moliyaviy imkoniyat yaratadi. Bu, ayniqsa, yangi qurilayotgan farmatsevtika zavodlari va ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, asosiy kapitalga investitsiyalar oqimini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, norezidentlar uchun foyda solig‘i stavkasining pasaytirilishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim stimulyator vazifasini bajaradi.

Daromad ulushi sharti (kamida 60 foiz farmatsevtika yoki dori vositalaridan iborat bo‘lishi) korxonalarni asosiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltiradi va sohada ixtisoslashuvni kuchaytiradi. Bu talab tarmoqda “sof farmatsevtika” ishlab chiqaruvchilar ulushini oshirishga yordam beradi hamda soxta diversifikatsiyadan saqlaydi. Natijada, ishlab chiqarish sifati va iqtisodiy samaradorlik oshadi.

Bojxona imtiyozlari, xususan BFQ va kosmetika ishlab chiqaruvchilar uchun berilgan PF-55-son qaror asosidagi imtiyozlar import qilinadigan xomashyo va uskunalar narxini kamaytiradi.

Bu esa ishlab chiqarish tannarxini pasaytirib, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, bojxona imtiyozlari texnologik modernizatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Aholining ijtimoiy himoyasi nuqtai nazaridan bepul yoki imtiyozli dori vositalari (kamida 6 oy yaroqlilik muddati bilan) xarajatlarni soliq bazasidan chiqarib tashlash mexanizmi orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Bu nafaqat farmatsevtika korxonalarining ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi, balki davlat sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini ham kuchaytiradi.

3-jadval

Moliyalashtirish manbalari[11]

Manba / yo‘nalish	Summa	Shartlar
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi (PF–13 asosida qayta yo‘naltirilgan)	30 mln AQSh dollari	PQ–14-son qaror maqsadlariga yo‘naltiriladi
“Tashkent Pharma Park” ITM, xavfsizlik laboratoriyasi va vivariy qurilishi	25 mln AQSh dollari	3 yillik imtiyozli davr, 10 yil muddat, yillik 4% stavka
Pharm Service xodimlari malakasini oshirish va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish	Belgilanmagan	Qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg‘armasidan
Import kontraktlari ekspertizasi	—	Akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro konsalting kompaniyalari tomonidan

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, “Moliyalashtirish manbalari” tizimi bir nechta yo‘nalishlar orqali diversifikatsiya qilingan bo‘lib, u davlat mablag‘lari, imtiyozli kreditlar hamda xalqaro ekspertiza xizmatlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilishi hamda “Tashkent Pharma Park” ITM uchun ajratilgan 25 mln AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli kreditlar farmatsevtika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda import kontraktlarini xalqaro konsalting kompaniyalari orqali ekspertizadan o‘tkazish moliyaviy mexanizmning samaradorligini oshiradi va tizimning shaffofligini ta’minlaydi. Umuman olganda, ushbu moliyalashtirish modeli sohada innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda farmatsevtika tarmog‘ining barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar:

Farmatsevtika sanoatida investitsion jarayonlar hozirgi kunda asosan davlat jamg‘armalari va imtiyozli kreditlar hisobiga shakllanmoqda. Biroq xususiy sektor va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TDI) ulushi yetarli darajada emasligi ushbu sohada raqobat muhitining to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada innovatsion rivojlanish jarayonlari sekinlashib, yangi texnologiyalarni joriy etish sur’ati pastligicha qolmoqda. Ushbu holat farmatsevtika sanoatida “o‘sish nuqtalari” deb ataluvchi strategik yo‘nalishlar — biotexnologiya, generik dorilar ishlab chiqarish va faol farmatsevtik ingredientlar (API) ishlab chiqarishning yetarlicha rivojlanmasligiga olib kelmoqda.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida investitsion muhitni yanada jozibador qilish, xususiy investorlar va xorijiy kapital uchun qulay sharoitlar yaratish zarur hisoblanadi. Bunda soliq imtiyozlarini kengaytirish, investitsiya kafolatlarini kuchaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralar nafaqat kapital oqimini oshiradi, balki yuqori qo‘shimcha qiymatga ega ishlab chiqarish yo‘nalishlarining shakllanishiga ham zamin yaratadi.

Shuningdek, tahlillar farmatsevtika sanoatida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqotlar faoliyatlari yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatning dori vositalari bo‘yicha importga qaramligini saqlab qolmoqda va ichki ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun innovatsion farmatsevtika klasterlarini kengaytirish, ilmiy-tadqiqot markazlarini ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilish hamda davlat tomonidan tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarini qisman subsidiyalash tizimini joriy etish zarur. Bunday yondashuv ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytiradi va yangi mahsulotlarning tijoratlashtirilishini tezlashtiradi.

Bundan tashqari, sohada malakali kadrlar yetishmasligi va boshqaruv tizimining zamonaviy talablar darajasiga mos emasligi investitsiyalarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat innovatsion loyihalarning amalga oshirilishida tashkiliy va texnologik kechikishlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida xorijiy mutaxassislarni jalb etish bilan birga, mahalliy kadrlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur. Farmatsevtika yo‘nalishida maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, dual ta’lim modelini joriy etish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonlarini kengaytirish sohaning inson kapitalini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat sifatida mahalliy ishlab chiqarish hajmi oshib borayotgan bo‘lsa-da, eksport geografiyasining cheklanganligi va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsiyalarning qaytimi (ROI)ni pasaytirmoqda. Bu esa farmatsevtika mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatlashuv imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu muammoni hal etish uchun eksportga yo‘naltirilgan farmatsevtika mahsulotlari uchun maxsus erkin iqtisodiy zonalarni kengaytirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish hamda xalqaro sifat standartlari — GMP, ISO va boshqa sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar eksport salohiyatini oshirish orqali yangi global o‘sish nuqtalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xomidov S.O. Pharmaceutical Industry and Economic Growth: An Empirical Approach to the Relationship // Science and Innovative Development. – 2022. – Vol. 5. – №1. – P. 28–35.
2. Usmanova S.S. Trends in the Development of the Pharmaceutical Industry // European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2025. – Vol. 3. – №2. – P. 87–91.
3. Ахмедов Б. Pharmaceutical Cluster Tashkent Pharma Park: Innovations, Investments, and Prospects // Eurasian Journal of Academic Research. – 2025.
4. Khanmohammadi R., Kaur S., Smiley C.H. et al. The Influence of Biomedical Research on Future Business Funding: Analyzing Scientific Impact and Content in Industrial Investments. – 2024.
5. Kaur S., Khanmohammadi R. et al. The Influence of Biomedical Research on Future Business Funding. – 2024.
6. Wiklund S.J., Ytterstad M., Miller F. Project Portfolio Planning in the Pharmaceutical Industry: Strategic Objectives and Quantitative Optimization. – 2025.
7. Ytterstad M., Wiklund S.J., Miller F. Project Portfolio Planning in the Pharmaceutical Industry. – 2025.
8. Miller F., Wiklund S.J., Ytterstad M. Project Portfolio Planning in the Pharmaceutical Industry. – 2025.
9. Ghassemi M.M., Khanmohammadi R. et al. The Influence of Biomedical Research on Future Business Funding. – 2024.
10. Budennyy S., Kazakov A., Kovtun E., Zhukov L. New Drugs and Stock Market: How to Predict Pharma Market Reaction to Clinical Trial Announcements. – 2022.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *Farmatsevtika tarmog‘ida ishlab chiqarishni rag‘batlantirish va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*: 2026-yil 5-mart, PF–35-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2026.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA XATARLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Xaydarova Charos Nizomiddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: charoskhaydarova333@gmail.com
ORCID: 0009-0002-4866-1951

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan xatarlar va ularni boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida davlat-xususiy sheriklik loyihalarida uchraydigan moliyaviy, investitsion, kredit, valyuta, operatsion va fiskal risklarning mazmuni hamda ularning loyiha samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, risklarni baholash, taqsimlash va monitoring qilish bo‘yicha xalqaro tajribalar o‘rganilib, O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat-xususiy sheriklik, investitsiya loyihalari, moliyalashtirish, xatarlarni boshqarish, risklarni taqsimlash, fiskal risklar, loyihaviy moliyalashtirish, investitsion jozibadorlik, infratuzilma loyihalari, davlat kafolatlari.*

RISK MANAGEMENT MECHANISMS FOR FINANCING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECTS IN UZBEKISTAN

Khaidarova Charos Nizomiddinovna
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
e-mail: charoskhaydarova333@gmail.com
ORCID: 0009-0002-4866-1951

Annotasiya: *This article examines the risks arising in the financing of public-private partnership (PPP) projects in Uzbekistan and the mechanisms for their management. The study analyzes the nature of financial, investment, credit, currency, operational, and fiscal risks associated with PPP projects and evaluates their impact on project efficiency. International practices in risk assessment, allocation, and monitoring are reviewed, and their applicability to Uzbekistan's PPP framework is substantiated. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to improve the risk management system in financing public-private partnership projects.*

Keywords: *public-private partnership, investment projects, financing, risk management, risk allocation, fiscal risks, project finance, investment attractiveness, infrastructure projects, government guarantees.*

МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ФИНАНСИРОВАНИИ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Хайдарова Чарос Низомиддин кизи
Ташкентский государственный экономический университет,
Доктор философии по экономическим наукам (PhD)
e-mail: charoskhaydarova333@gmail.com
ORCID: 0009-0002-4866-1951

Аннотация: *В данной статье исследуются риски, возникающие в процессе*

финансирования проектов государственно-частного партнерства в Узбекистане, а также механизмы их управления. В ходе исследования проанализированы сущность финансовых, инвестиционных, кредитных, валютных, операционных и фискальных рисков, характерных для проектов государственно-частного партнерства, а также их влияние на эффективность проектов. Изучен международный опыт оценки, распределения и мониторинга рисков и обоснованы возможности его применения в практике Узбекистана. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию системы управления рисками при финансировании проектов государственно-частного партнерства.

Ключевые слова: *государственно-частное партнерство, инвестиционные проекты, финансирование, управление рисками, распределение рисков, фискальные риски, проектное финансирование, инвестиционная привлекательность, инфраструктурные проекты, государственные гарантии.*

Kirish.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish mexanizmlarini o‘rganish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda iqtisodiy islohotlar chuqurlashib, infratuzilma sohasidagi ehtiyojlar ortib borayotgan bir paytda, davlat byudjetining cheklangan imkoniyatlari katta hajmdagi investitsiya talab qiladigan loyihalarni faqat davlat hisobidan amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli xususiy kapitalni jalb etish, uni samarali tashkil etish va loyihalar davomida yuzaga keladigan moliyaviy xatarlarni oqilona taqsimlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xatarlarni boshqarishning ishonchli tizimi mavjud bo‘lmagan sharoitda esa investorlarning ishonchi pasayib, loyihalarning barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligi xavf ostida qoladi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari o‘zining tabiatiga ko‘ra uzoq muddatli bo‘lib, ko‘pincha bir necha o‘n yilliklarga cho‘ziladi va shu davr mobaynida turli xil noaniqliklarga duch keladi. Valyuta kursining o‘zgarishi, inflyatsiya darajasining oshishi, foiz stavkalarining tebranishi, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va siyosiy beqarorlik kabi omillar loyihaning moliyaviy hayotiyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda xatarlarni oldindan aniqlash, ularni baholash va tegishli yumshatish choralarini ishlab chiqish loyihaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omilga aylanadi. O‘zbekistonda hali bu sohada yetarlicha tajriba to‘planmaganligi va xalqaro amaliyotga moslashtirilgan metodologiyalarning to‘liq joriy etilmaganligi mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mamlakatda davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi va keyinchalik tegishli huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishi ushbu sohada institutsional asosning shakllanishiga zamin yaratdi. Biroq qonunchilik bazasining mavjudligi o‘z-o‘zidan xatarlarni samarali boshqarishni kafolatlamaydi. Amaliyotda davlat va xususiy sektor o‘rtasida xatarlarni adolatli taqsimlash, kafolatlar berish mexanizmlari, nizolarni hal qilish tartiblari va shartnomaviy majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq ko‘plab masalalar hanuzgacha o‘z yechimini topishi kerak. Bu esa nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi, bu jihat mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini birgalikda namoyon etadi.

Xatarlarni boshqarishning eng muhim tamoyillaridan biri – bu har bir xatarni uni eng yaxshi nazorat qila oladigan tomonga yuklash hisoblanadi. Masalan, qurilish va texnologik xatarlar odatda xususiy investorga, makroiqtisodiy va siyosiy xatarlar esa ko‘proq davlat zimmasiga yuklanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Biroq O‘zbekiston sharoitida bunday taqsimlash har doim ham aniq mezonlar asosida amalga oshirilmayapti, ko‘pincha tomonlarning kelishuv kuchiga va tajribasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu holat ba’zan xatarlarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga, natijada loyiha qiymatining oshishiga yoki investorning chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu bois xatarlarni ilmiy asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Moliyalashtirish jarayonida bank tizimi va xalqaro moliya institutlarining ishtiroki ham xatarlarni boshqarish kontekstida muhim o‘rin tutadi. Loyiha moliyalashtirishi mexanizmida kreditorlar o‘z mablag‘larining qaytarilishini birinchi navbatda loyihaning kelajakdagi pul oqimlaridan kutadilar, shu sababli ular loyihaning xatar profiliga juda sezgir bo‘ladilar. O‘zbekistonda mahalliy banklarning uzoq muddatli moliyalashtirishga imkoniyati cheklangan, kapital bozori esa hali rivojlanish bosqichida bo‘lganligi sababli, xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlarning kafolatlari hamda sug‘urta mexanizmlariga bo‘lgan ehtiyoj yuqori. Bu omillar xatarlarni yumshatishning moliyaviy vositalarini o‘rganishni dolzarb qiladi.

Bundan tashqari, xatarlarni boshqarish nafaqat moliyaviy, balki davlatning fiskal barqarorligi nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyatga ega. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida davlat tomonidan beriladigan kafolatlar, minimal daromad kafolatlari va shartli majburiyatlar byudjet uchun kelajakda jiddiy yuk bo‘lishi mumkin. Agar bu majburiyatlar to‘g‘ri hisobga olinmasa va boshqarilmasa, ular davlat qarzining yashirin ko‘payishiga va fiskal beqarorlikka olib kelishi ehtimoli bor. Shu sababli ushbu shartli majburiyatlarni shaffof tarzda hisobga olish, monitoring qilish va boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizligi uchun zarurat hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, xatarlarni samarali boshqargan davlatlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari iqtisodiy o‘sishning kuchli omiliga aylangan, aksincha bu masalaga yetarlicha e’tibor bermagan mamlakatlarda esa ko‘plab loyihalar muvaffaqiyatsizlikka uchragan yoki davlat byudjetiga og‘ir yuk bo‘lib qolgan. O‘zbekiston hozirgi rivojlanish bosqichida boshqa davlatlarning ham ijobiy, ham salbiy tajribasini chuqur o‘rganish va o‘ziga xos milliy sharoitga moslashtirilgan xatarlarni boshqarish modelini shakllantirish imkoniyatiga ega. Bu modelni ishlab chiqishda ilmiy yondashuvning qo‘llanilishi xato qarorlar narxini sezilarli darajada kamaytirib, milliy resurslarning samarali sarflanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish mexanizmlari mavzusining dolzarbligi bir necha o‘zaro bog‘liq omillar bilan belgilanadi: iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj, institutsional bazaning shakllanish bosqichida ekanligi, xalqaro standartlarga moslashish zarurati hamda davlatning fiskal barqarorligini ta’minlash vazifasi. Ushbu mavzuni har tomonlama tadqiq etish nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy siyosat qarorlarini asoslash uchun ham mustahkam zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadi, bu esa mavzuning ham ilmiy, ham milliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish mexanizmlari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, D.X. Mamayusupova o‘z tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Olimaning fikricha, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan risklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida oqilona taqsimlashga bog‘liq. U qurilish, moliyalashtirish, operatsion va siyosiy risklarni loyiha ishtirokchilari o‘rtasida samarali taqsimlash investitsion jozibadorlikni oshirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, muallif risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali infratuzilma loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash mumkinligini qayd etadi [1].

R.X. Zayniddinov davlat-xususiy sheriklik loyihalarida islomiy moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rgangan. Olimning fikricha, sukuk, musharaka va mudaraba kabi moliyalashtirish vositalari investitsion risklarni investorlar o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi hamda loyihalarning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Muallif DXSh loyihalarini moliyalashtirishda an’anaviy kreditlash mexanizmlariga muqobil sifatida islomiy moliya vositalarini qo‘llash risklarni kamaytirishga xizmat qilishini asoslaydi [2].

A.A. Ergashev infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishda xorijiy tajribalarni tahlil qilgan. Uning fikricha, risklarni boshqarishda “Risk Allocation Matrix” va “Value for Money” metodologiyalaridan foydalanish loyiha samaradorligini oshiradi. Olim siyosiy va huquqiy risklarni davlat zimmasiga, qurilish va ekspluatatsion risklarni esa xususiy sherik zimmasiga yuklash eng maqbul model ekanligini ta’kidlaydi [3].

S. Yakubova DXSh loyihalarini amalga oshirishda institutsional muhitning ahamiyatini tadqiq etgan. Muallifning fikricha, huquqiy bazaning barqarorligi va davlat siyosatining izchilligi investorlar uchun asosiy kafolat hisoblanadi. U normativ-huquqiy noaniqliklar va boshqaruvdagi kamchiliklar investitsion risklarni oshirishi mumkinligini ta’kidlaydi [4].

D.X. Suyunov davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini boshqarish masalalarini o‘rgangan. Olimning fikricha, loyihalar bo‘yicha muntazam monitoring va audit tizimlarini joriy etish moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, risklarni baholash va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish investitsion faoliyat samaradorligini oshirishga imkon beradi [5].

M. Ataniyazova davlat va biznes hamkorligining iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilgan. Uning fikricha, davlat kafolatlari, subsidiyalar va kompensatsiya mexanizmlari xususiy investorlarning risklarini kamaytiradi hamda yirik infratuzilmaviy loyihalarga investitsiyalar oqimini rag‘batlantiradi. Muallif davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari DXSh loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirishini asoslaydi [6].

E.R. Yescombe davlat-xususiy sheriklik nazariyasining yetakchi tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. Olimning fikricha, DXSh loyihalarida har bir risk uni boshqarish imkoniyati yuqori bo‘lgan tomon zimmasiga yuklatilishi lozim. Yescombe risklarni qurilish, operatsion, talab, moliyaviy va siyosiy risklarga ajratib, ularni samarali taqsimlash loyiha qiymatini kamaytirishi va investorlar manfaatlarini himoya qilishini ta’kidlaydi [7].

J. Delmon o‘z tadqiqotlarida infratuzilma loyihalarida risklarni taqsimlash masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Olimning fikricha, siyosiy va normativ-huquqiy risklar davlat tomonidan qoplanishi kerak, chunki xususiy sektor ushbu risklarni nazorat qila olmaydi. Shu bilan birga, operatsion va qurilish risklari xususiy sherik tomonidan boshqarilishi loyiha samaradorligini oshiradi [8].

E. Engel davlat-xususiy sheriklik loyihalarida fiskal risklarni boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, davlat tomonidan beriladigan haddan tashqari kafolatlar yashirin fiskal majburiyatlarni yuzaga keltiradi va kelajakda davlat qarzi ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois kafolatlar faqat zarur hollarda va aniq chegaralar asosida berilishi lozim [9].

R. Fischer infratuzilmaviy loyihalarda risklarni noto‘g‘ri taqsimlashning iqtisodiy oqibatlarini tadqiq qilgan. Olimning fikricha, risklarning samarasiz taqsimlanishi loyiha xarajatlarining oshishiga va investorlar rentabelligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli risklarni taqsimlash jarayonida iqtisodiy samaradorlik mezonlariga amal qilish zarur [9].

A. Estache DXSh loyihalarida tartibga solish va siyosiy risklarning ta’sirini o‘rgangan. Uning fikricha, tarif siyosatidagi o‘zgarishlar, davlat siyosatining beqarorligi va tartibga soluvchi organlar faoliyatidagi noaniqliklar investorlar uchun eng katta xavf manbalaridan biri hisoblanadi [10].

G.A. Hodge DXSh loyihalarida boshqaruv va javobgarlik tizimlarini tadqiq qilgan. Olimning fikricha, shaffoflik, hisobdorlik va samarali nazorat mexanizmlari risklarni kamaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U loyiha ishtirokchilari o‘rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish risklarni boshqarish samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi [11].

V.G. Varnavskiy davlat-xususiy sheriklik nazariyasining MDH hududidagi yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Olimning fikricha, risklarni davlat va biznes o‘rtasida muvozanatli taqsimlash investitsiyalarni jalb qilishning asosiy shartidir. U risklarni noto‘g‘ri taqsimlash investorlar faolligini pasaytirishini asoslaydi [12].

A.E. Shadrin koncession loyihalarda risklarni boshqarish mexanizmlarini tadqiq qilgan. Muallif sug‘urta, davlat kafolatlari va kompensatsiya fondlari investorlarning moliyaviy xavflarini kamaytirishini ta’kidlaydi [13].

I.G. Sergeeva infratuzilmaviy loyihalarda kredit risklari va likvidlik risklarini boshqarish masalalarini o‘rgangan. Olimning fikricha, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining mavjudligi loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi [14].

G.B. Kenzheguzina Qozog‘istonda DXSh loyihalarining samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, risklarni muntazam monitoring qilish va baholash investitsion loyihalarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi [15].

B.T. Sultanov davlat kafolatlari va kompensatsiya mexanizmlarining investorlar uchun ahamiyatini asoslab bergan. Olimning fikricha, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi xususiy kapitalni yirik loyihalarga jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi [16].

N.V. Koryagina davlat-xususiy sheriklik loyihalarida fiskal risklarni boshqarish masalalarini o‘rgangan. U davlat majburiyatlarini monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish byudjet xavflarini kamaytirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [17].

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish mexanizmlari bo’yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda aholi turmush sifatini oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahon amaliyotida DXSh loyihalari transport, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim, suv ta’minoti va kommunal xizmatlar kabi strategik tarmoqlarda investitsiyalarni jalb qilishning samarali vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Mazkur mexanizm davlatning moliyaviy imkoniyatlarini xususiy sektorning investitsion salohiyati, innovatsion yondashuvlari va boshqaruv tajribasi bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Natijada yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, davlat byudjeti yuklamasini kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga erishiladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi uchun sifatli xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning yaratilishi, maxsus vakolatli organlarning tashkil etilishi hamda xususiy investorlar uchun qulay investitsion muhit shakllantirilishi natijasida ushbu yo‘nalishdagi loyihalar soni va hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Mamlakatda energetika, transport, sog‘liqni saqlash, maktabgacha ta’lim va kommunal infratuzilma sohalarida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar iqtisodiyotga xususiy kapitalni faol jalb etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida ham infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda kuzatilayotgan geosiyosiy beqarorlik, inflyatsion bosimlarning kuchayishi, xalqaro moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar hamda investitsion resurslar qiymatining oshib borishi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, valyuta kursi tebranishlari, foiz stavkalari o‘zgarishi,

likvidlik yetishmovchiligi va investorlar ishonchining pasayishi kabi omillar loyiha risklarini yanada murakkablashtirmoqda. Natijada investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, risklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy etish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklarni oqilona taqsimlash masalalari dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu sababli DXSh loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy xavfsizlik va investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

1-jadval

Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridagi xatar turlari va ularni taqsimlash[201]

№	Xatar turi	Mazmuni / tavsifi	Asosiy javobgar tomon	Yumshatish chorasi
1	Qurilish xatari	Loyihaning belgilangan muddatda va smeta doirasida qurib bitkazilmasligi, texnik nuqsonlar	Xususiy sherik	Qat'iy narxli pudrat shartnomasi, kafolat majburiyatlari, sug'urta
2	Operatsion (ekspluatatsion) xatar	Obyektni boshqarish, texnik xizmat va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashdagi muammolar	Xususiy sherik	Tajribali operatorni jalb etish, KPI tizimi, jarima mexanizmlari
3	Talab (bozor) xatari	Xizmat yoki mahsulotga bo'lgan real talabning prognozdan past chiqishi	Taqsimlangan	Minimal daromad kafolati, talabni baholash tahlili
4	Valyuta xatari	Milliy valyuta kursining keskin o'zgarishi, valyuta nomutanosibligi	Davlat / taqsimlangan	Xedjlash vositalari, tariflarni indeksatsiya qilish
5	Inflyatsiya va foiz xatari	Narxlar va kredit foiz stavkalarining oshishi loyiha xarajatlarini qimmatlashtirishi	Taqsimlangan	Tariflarni inflyatsiyaga bog'lash, qat'iy stavkali moliyalashtirish
6	Siyosiy va tartibga solish xatari	Qonunchilik o'zgarishi, litsenziya, ekspropriatsiya, hokimiyat qarorlari	Davlat	Davlat kafolatlari, barqarorlik bandlari, xalqaro arbitraj
7	Moliyalashtirish xatari	Loyiha uchun zarur kapital va kreditlarni o'z vaqtida jalb eta olmaslik	Xususiy sherik	Moliyaviy yopish kafolatlari, sindikatlangan kreditlar
8	Forc-major xatari	Tabiiy ofat, epidemiya, urush kabi oldindan ko'rib bo'lmaydigan holatlar	Taqsimlangan	Sug'urta qoplamasi, shartnomaviy fors-major bandlari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida yuzaga keladigan xatarlar o'zining kelib chiqishi va xususiyatiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi, shu sababli ularni yagona yondashuv asosida boshqarish mumkin emas. Qurilish va operatsion xatarlar bevosita loyihani amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgani uchun ularni texnik tajriba va boshqaruv salohiyatiga ega bo'lgan xususiy sherik zimmasiga yuklash maqsadga muvofiqdir, valyuta, inflyatsiya va siyosiy xatarlar esa makroiqtisodiy hamda institutsional muhitga bog'liq

[201] Muallif tomonidan tayyorlangan.

bo'lganligi bois davlat tomonidan ko'proq nazorat qilinishi talab etiladi. Bunda eng asosiy tamoyil — har bir xatarni uni eng samarali boshqara oladigan tomonga adolatli taqsimlash bo'lib, bu loyihaning umumiy qiymatini optimallashtiradi va investor uchun jozibadorlikni oshiradi.

Shu bilan birga, jadvalda keltirilgan xatarlarning aksariyati o'zaro bog'liq va biri ikkinchisini keltirib chiqarishi mumkinligini unutmaslik kerak, masalan valyuta kursining keskin o'zgarishi avtomatik tarzda moliyalashtirish va talab xatarini kuchaytiradi. Demak, samarali boshqaruv tizimi har bir xatarni alohida ko'rib chiqish bilan cheklanmasdan, ularning kombinatsiyalangan ta'sirini ham hisobga olishi, har bir tur uchun aniq yumshatish chorasini — sug'urta, kafolat yoki shartnomaviy band ko'rinishida — oldindan belgilab qo'yishi zarur. Aynan shunday kompleks yondashuv O'zbekistonda DXSh loyihalarining barqarorligini ta'minlashning kalitidir.

2-jadval

Davlat-xususiy sheriklik moliyalashtirish modellari va ularning xatar profili[202]

№	Model / sxema	Moliyalashtirish manbai	Xatar darajasi	Qo'llanish sohasi
1	BOT (Qurish-Boshqarish-Topshirish)	Xususiy kapital + kreditlar	Yuqori	Yo'l, ko'prik, energetika infratuzilmasi
2	BOO (Qurish-Egalik-Boshqarish)	To'liq xususiy kapital	Yuqori	Elektr stansiyalari, suv tozalash
3	BTO (Qurish-Topshirish-Boshqarish)	Xususiy + davlat hissasi	O'rta	Ijtimoiy infratuzilma obyektlari
4	DBFO (Loyihalash-Qurish-Moliyalash-Boshqarish)	Xususiy moliyalash, davlat to'lovi	O'rta	Maktab, shifoxona, ma'muriy binolar
5	Konsessiya	Xususiy kapital, foydalanuvchi to'lovlari	O'rta-yuqori	Aeroport, port, kommunal xizmatlar
6	Project Finance (loyiha moliyalashtirishi)	Loyiha pul oqimiga asoslangan kredit	Yuqori	Yirik kapital talab qiluvchi loyihalar
7	Aralash (blended) moliyalashtirish	Davlat, xususiy va xalqaro grant mablag'lari	Past-o'rta	Ijtimoiy ahamiyatli, kam rentabel loyihalar

Jadval shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklikning har bir moliyalashtirish modeli o'ziga xos xatar darajasi va qo'llanish sohasiga ega bo'lib, universal yechim mavjud emas — model tanlovi loyihaning xususiyati, rentabelligi va ijtimoiy ahamiyatiga qarab amalga oshirilishi lozim. BOT va BOO kabi to'liq xususiy kapitalga tayanadigan modellar yuqori xatar darajasiga ega bo'lib, energetika va yirik infratuzilma loyihalarida samarali, aralash hamda DBFO modellari esa kam rentabelli, biroq ijtimoiy ahamiyatga molik maktab va shifoxona kabi obyektlar uchun mosroqdir. Bu farqlanish davlatga loyiha turiga qarab eng mos moliyalashtirish mexanizmini tanlash va xatarni oqilona taqsimlash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida, mahalliy kapital bozori hali to'liq rivojlanmagan va banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyati cheklangan bir paytda, project finance va aralash moliyalashtirish modellari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular xalqaro moliya institutlari va grant mablag'larini jalb etishga keng yo'l ochadi. Shuning uchun loyiha moliyalashtirishni rejalashtirishda dastlabki bosqichdayoq mos model tanlash, uning xatar profilini chuqur tahlil qilish va shu asosda zarur kafolat hamda sug'urta vositalarini belgilash strategik vazifa hisoblanadi. Bu esa kapitalni samarali jalb etish bilan birga davlat byudjeti uchun yashirin yukni kamaytirishga xizmat qiladi.

[202] Muallif tomonidan tayyorlangan.

3-jadval

Xatarlarni boshqarish jarayonining bosqichlari[203]

Bosqich	Maqsadi	Asosiy faoliyat	Qo'llaniladigan vositalar
1. Xatarni aniqlash	Loyihaga ta'sir etuvchi barcha potensial xatarlarni topish	Xatarlar reyestrini tuzish, ekspert baholash, tahlil	SWOT, kontrol ro'yxatlar, miya hujumi
2. Xatarni baholash	Xatarning yuzaga kelish ehtimoli va ta'sir kuchini o'lchash	Sifat va miqdoriy tahlil o'tkazish	Xatar matritsasi, Monte-Karlo, sezgirlik tahlili
3. Xatarni taqsimlash	Har bir xatarni eng yaxshi boshqara oladigan tomonga yuklash	Shartnomaviy majburiyatlarni belgilash	Taqsimlash matritsasi, shartnoma bandlari
4. Xatarni yumshatish	Xatar ta'sirini kamaytirish yoki oldini olish choralarini ko'rish	Sug'urta, kafolat, xedjlash, zaxira fondlari	Sug'urta polislari, hosilaviy moliya vositalari
5. Monitoring va nazorat	Xatarlarni doimiy kuzatish va yangilarini aniqlash	Hisobotlar, indikatorlarni kuzatish, qayta baholash	KPI, dashboard, davriy audit

Jadvaldan anglashiladiki, xatarlarni boshqarish bir martalik harakat emas, balki aniqlash, baholash, taqsimlash, yumshatish va monitoringni o'z ichiga olgan uzluksiz, izchil jarayondir, bunda har bir bosqich o'zidan keyingisi uchun zamin yaratadi. Agar dastlabki aniqlash bosqichi yetarlicha chuqur o'tkazilmasa, keyingi barcha bosqichlar nuqsonli bo'lib qoladi, chunki e'tibordan chetda qolgan xatar baholanmaydi, taqsimlanmaydi va yumshatilmaydi ham. Shu bois har bir bosqichga tegishli vositalar — xatar reyestri, baholash matritsasi, sug'urta va KPI tizimi — ketma-ket va o'zaro bog'liq holda qo'llanilishi loyiha muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy shartdir.

Bundan tashqari, monitoring va nazorat bosqichi alohida ahamiyatga ega, zero DXSh loyihalari uzoq muddatli bo'lganligi sababli dastlab aniqlangan xatarlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi va butunlay yangi xatarlar paydo bo'lishi mumkin. Demak, boshqaruv tizimi statik hujjat sifatida emas, balki doimiy yangilanib turadigan dinamik mexanizm sifatida tashkil etilishi, davriy qayta baholash va hisobot berish tartiblari bilan mustahkamlanishi zarur. Aynan shu uzluksiz aylanma yondashuv loyihaning butun hayotiy davri mobaynida xatarlarni nazoratda saqlash imkonini beradi.

4-jadval

Xatarlarni baholash matritsasi (ehtimollik × ta'sir) [204]

Ehtimollik \ Ta'sir	Juda past (1)	Past (2)	O'rta (3)	Yuqori (4)
Juda yuqori (4)	4	8	**12**	**16**
Yuqori (3)	3	6	9	**12**
O'rta (2)	2	4	6	8
Past (1)	1	2	3	4

Izoh:

Yashil (1-2): Past xatar — odatiy nazorat yetarli

Sariq (3-8): O'rta xatar — faol kuzatuv talab etiladi

To'q sariq (8-11): Yuqori xatar — yumshatish rejasi zarur

Qizil (12-16): Kritik xatar — darhol chora ko'rish lozim

[203] Muallif tomonidan tayyorlangan.
[204] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Matritsadan ko'rinadiki, xatarni baholash uning yuzaga kelish ehtimoli va potensial ta'sir kuchini birgalikda o'lchashga asoslanadi, chunki faqat bittasini hisobga olish noto'g'ri xulosaga olib keladi — kam ehtimolli, biroq halokatli ta'sirga ega xatar ham, tez-tez yuz beradigan, ammo arzimas ta'sirli xatar ham alohida e'tibor talab qiladi. Ikki o'lchovning ko'paytmasi asosida xatarlar past, o'rta, yuqori va kritik darajalarga ajratiladi, bu esa cheklangan resurslarni eng xavfli yo'nalishlarga yo'naltirish va ustuvorliklarni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Rangli kodlash tizimi qaror qabul qiluvchilarga vaziyatni tez va aniq idrok etishga yordam beradi.

Ushbu matritsaning amaliy qiymati shundaki, u sub'ektiv baholashni tizimli va asoslangan jarayonga aylantiradi hamda turli loyihalar bo'yicha xatarlarni yagona mezon asosida taqqoslash imkonini yaratadi. O'zbekistonda DXSh loyihalarining baholash metodologiyasi hali to'liq shakllanmagan bir sharoitda, bunday standartlashtirilgan vositalarni joriy etish qarorlarning shaffofligini oshiradi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, matritsa natijalarini Monte-Karlo va sezgirlik tahlili kabi miqdoriy usullar bilan to'ldirish baholashning ishonchliligini yanada oshiradi.

5-jadval

Xatarlarni boshqarishda davlat va xususiy sektor javobgarligini taqqoslash[205]

Mezon	Davlat sektori	Xususiy sektor
Asosiy maqsad	Ijtimoiy foyda, infratuzilmani rivojlantirish	Foyda olish, investitsiya rentabelligi
Ko'tariladigan xatarlar	Siyosiy, tartibga solish, makroiqtisodiy	Qurilish, operatsion, moliyaviy
Moliyaviy hissa	Yer, kafolat, soliq imtiyozlari, subsidiya	Kapital, kreditlar, boshqaruv tajribasi
Nazorat vositasi	Qonunchilik, monitoring, tartibga solish	Shartnoma, KPI, ichki audit
Xatarga munosabat	Uzoq muddatli barqarorlikka yo'naltirilgan	Tezroq qoplanish va daromadga yo'naltirilgan
Kafolat berish	Davlat kafolatlari, minimal daromad kafolati	Bajarish kafolati, sifat kafolati

Jadval davlat va xususiy sektorning maqsadlari, ko'taradigan xatarlari hamda nazorat vositalari bir-biridan jiddiy farq qilishini yaqqol namoyon etadi, bu farq esa sheriklik mohiyatining asosini tashkil qiladi — har ikki tomon o'zining kuchli tomonidan kelib chiqib mas'uliyatni bo'lishadi. Davlat ijtimoiy foyda va uzoq muddatli barqarorlikka yo'naltirilgan holda siyosiy hamda tartibga solish xatarlarini o'z zimmasiga oladi, xususiy sektor esa foyda olish maqsadida kapital, boshqaruv tajribasi va operatsion xatarlarni qabul qiladi. Aynan shu mas'uliyatlarning to'ldiruvchi tarzda taqsimlanishi samarali sheriklikning poydevoridir.

Biroq tomonlarning manfaatlari va xatarga munosabatidagi farq ba'zan ziddiyat manbaiga aylanishi mumkin, masalan davlat barqarorlikni, xususiy sherik esa tezroq qoplanishni ustun qo'yganda. Shu sababli sheriklik shartnomasi har bir tomonning javobgarligini, kafolat majburiyatlarini va nizolarni hal qilish tartiblarini aniq, ikki tomonlama manfaatni muvozanatlashtirgan holda belgilab berishi zarur. Faqat o'zaro ishonch va aniq belgilangan mas'uliyat asosida qurilgan sheriklikgina loyihaning butun davomida barqaror va samarali bo'lib qoladi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sheriklik loyihalari iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish va xususiy investitsiyalarni jalb etishda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Biroq ushbu loyihalarning uzoq muddatli xarakterga egaligi, katta hajmdagi kapital qo‘yilmalarni talab qilishi hamda

[205] Muallif tomonidan tayyorlangan.

iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy va institutsional risklarga yuqori darajada bog‘liqligi ularni moliyalashtirish jarayonida xatarlarni samarali boshqarishni taqozo etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, risklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida oqilona taqsimlash, moliyaviy majburiyatlarni aniq belgilash va loyihalar monitoringini kuchaytirish DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xatarlarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida, birinchi navbatda, loyihalar bo‘yicha risklarni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring qilishning yagona metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, risklarni taqsimlash matritsasi (Risk Allocation Matrix)ni barcha yirik DXSh loyihalarida majburiy qo‘llash, davlat kafolatlari va kompensatsiya mexanizmlarining aniq mezonlarini belgilash hamda loyiha risklarini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish zarur. Bu esa investorlarning ishonchini oshirish va investitsion muhit barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, DXSh loyihalarini moliyalashtirishda innovatsion moliyaviy instrumentlardan, jumladan, loyihaviy moliyalashtirish, infratuzilma obligatsiyalari, yashil obligatsiyalar va islomiy moliyalashtirish vositalaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, risklarni raqamli monitoring qilish tizimlarini joriy etish, loyiha ishtirokchilarining mas’uliyatini oshirish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini yanada oshirish mumkin. Natijada iqtisodiyot tarmoqlariga xususiy investitsiyalar oqimi ko‘payadi, davlat byudjeti yuklamasi kamayadi va mamlakatning investitsion jozibadorligi yuksaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мамаюсупова Д.Х. Theoretical and methodological basis and objective need for the development of public-private partnership in Uzbekistan // Bulletin of Science and Practice. – 2021. – Vol. 7. – № 10. – P. 311–321.

2. Зайниддинов Р.Х. O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2024.

3. Эргашев А.А. Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishda risklarni boshqarishning xorij tajribalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – №11.

4. Yakubova S. Challenges and opportunities for public-private partnerships in Uzbekistan’s sustainable development framework // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024.

5. Суюнов Д.Х., Норбекова Г.А. Effective management of public-private partnership mechanisms in Uzbekistan // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar. – 2025. – №9.

6. Атаниязова М. Models and mechanisms of public-private partnership in establishing effective cooperation of the state and business // Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Vol.11. – №4.

7. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. – 2nd ed. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2017. – 552 p.

8. Delmon J. Public-Private Partnership Projects in Infrastructure: An Essential Guide for Policy Makers. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 259 p.

9. Engel E., Fischer R., Galetovic A. The Economics of Public-Private Partnerships: A Basic Guide. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 256 p.

10. Estache A. Infrastructure Finance in Developing Countries. – Washington: World Bank, 2010. – 328 p.

11. Hodge G.A., Greve C. International Handbook on Public-Private Partnerships. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2018. – 640 p.

12. Варнавский В.Г. Государственно-частное партнерство: теория и практика. – М.: ГУ ВШЭ, 2010. – 287 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

13. Шадрин А.Е. Концессионные соглашения в системе государственно-частного партнерства. – М.: Инфра-М, 2016. – 312 с.
14. Сергеева И.Г. Управление рисками инфраструктурных проектов ГЧП // Финансы и кредит. – 2018. – №12. – С. 45–53.
15. Кенжегузина Г.Б. Государственно-частное партнерство в Казахстане: механизмы и риски. – Астана, 2019. – 215 с.
16. Султанов Б.Т. Развитие механизмов ГЧП в Республике Казахстан. – Алматы, 2018. – 198 с.
17. Корягина Н.В. Развитие механизмов государственно-частного партнерства в Республике Беларусь. – Минск: БГЭУ, 2020. – 234 с.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

AGRAR SOHA SAMARADORLIGINI K-MEANS KLASTERLASH USULI ASOSIDA STATISTIK BAHOLASH

Utanov Bunyod Kuvandikovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi, PhD,
E-mail: bunyod1285@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0605-4328

Annotatsiya*. Mazkur maqolada O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha agrar soha samaradorligini K-means klasterlash usuli asosida statistik baholagan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2020–2025 yillardagi rasmiy ma’lumotlari asosida 13 ta hudud uchun uchta samaradorlik indeksi — mehnat unumdorligi, yer samaradorligi va investitsiya samaradorligi hisoblangan. Mazkur hisoblangan natijalarda xalqaro tajriba asosida Elbow usuli yordamida optimal klasterlar soni k=3 deb aniqlangan. Natijalar viloyatlarni uch xil agrar samaradorlik modeli (nisbatan past samarali, yer-investitsiya intensiv va mehnat intensiv-yer ekstensiv) bo‘yicha guruhlash mumkinligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *agrar soha samaradorligi, K-means klasterlash, Elbow usuli, z-score, mehnat unumdorligi, yer samaradorligi, investitsiya samaradorligi, viloyatlar tahlili, R dasturi, iqtisodiy barqarorlik.*

СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ АГРАРНОГО СЕКТОРА НА ОСНОВЕ МЕТОДА КЛАСТЕРИЗАЦИИ K-MEANS

Утанов Бунёд Кувандикович

исследователь Ташкентского государственного экономического университета, PhD,
E-mail: bunyod1285@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0605-4328

Аннотация. *В данной статье проведена статистическая оценка эффективности аграрного сектора по регионам Узбекистана на основе метода кластеризации K-means. На основе официальных данных Национального статистического комитета Республики Узбекистан за 2020–2025 годы для 13 регионов рассчитаны три индекса эффективности — производительность труда, эффективность использования земли и инвестиционная эффективность. По результатам проведённых расчётов с учётом международного опыта с помощью метода Elbow оптимальное число кластеров определено как k=3. Полученные результаты показали возможность группировки регионов по трём различным моделям аграрной эффективности: относительно низкоэффективная, земельно-инвестиционно интенсивная и трудоинтенсивная-земельно-экстенсивная.*

Ключевые слова: *эффективность аграрного сектора, кластеризация K-means, метод Elbow, нормализация z-score, производительность труда, эффективность использования земли, инвестиционная эффективность, региональный анализ, программа R, экономическая устойчивость.*

STATISTICAL ASSESSMENT OF AGRICULTURAL SECTOR EFFICIENCY BASED ON K-MEANS CLUSTERING METHOD

Utanov Bunyod Kuvandikovich

Researcher of Tashkent State University of Economics, PhD,
E-mail: bunyod1285@gmail.com

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ORCID: 0000-0003-0605-4328

Abstract. *This article presents a statistical assessment of agricultural sector efficiency across the regions of Uzbekistan using the K-means clustering method. Based on official data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan for 2020–2025, three efficiency indices were calculated for 13 regions: labor productivity, land use efficiency, and investment efficiency. Drawing on international experience, the Elbow method was applied to determine the optimal number of clusters as k=3. The findings demonstrate that regions can be grouped into three distinct agricultural efficiency models: relatively low-efficiency, land-investment intensive, and labor-intensive land-extensive.*

Keywords: *agricultural sector efficiency, K-means clustering, Elbow method, z-score normalization, labor productivity, land use efficiency, investment efficiency, regional analysis, R software, economic stability.*

Kirish

Agrar soha respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanib, u aholini oziq-ovqat va qishloq aholisini bandlik bilan ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mamlakatimizda 2025-yil yakunlari bo‘yicha yalpi ichki mahsulot 7,7 foizga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi esa 4,4 foizga oshgan. Bu nisbat mazkur tarmoqning iqtisodiy o‘sishdan orqada qolayotganini ko‘rsatmoqda.

Agrar sohaning samaradorligini baholashda an’anaviy bir o‘lchovli statistik usullar ko‘p qo‘llanilib kelingan. Biroq bunday yondashuvlar murakkab, ko‘p o‘lchovli tuzilmaga ega bo‘lgan agrar iqtisodiyotni to‘liq aks ettira olmaydi. Bugungi kunda xalqaro ilmiy adabiyotlarda esa mashinali o‘qitish usullari, xususan klasterlash algoritmlari qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini tahlil qilishda tobora kengroq qo‘llanilmoqda. Shu jumladan mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli sohalar bo‘yicha mazkur usullardan foydalangan holda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bizning tadqiqot ishida ham O‘zbekiston viloyatlarining agrar soha samaradorligini K-means klasterlash usuli yordamida statistik baholab, viloyatlarni samaradorlik modeli bo‘yicha guruhlashtirish va har bir guruh uchun maqsadli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Agrar soha samaradorligini ana’anaviy bir o‘lchovli statistik baholash orqali to‘liq to‘g’ri xulosa bera olish murakkabligini Farrell M.J o‘zining ilmiy tadqiqotlarida isbotlab o‘tgan bo‘lsa[1], klaster tahlil nazariyasining asoslari Kaufman va Rousseeuw tomonidan mukammal bayon etilgan bo‘lib, ularning tadqiqotlari K-means algoritmining statistik asosini va amaliy qo‘llanilish doirasini batafsil ko‘rsatib bergan bo‘lsa[1], xitoylik tadqiqotchilar Liu va Li qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini K-means usulida tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqib, fermer xo‘jaliklarini samaradorlik guruhlariga ajratishda algoritmning yuqori samaradorligini tasdiqladilar [2].

FAO ning tahlili ko‘rsatishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi subyektlari o‘rtasidagi samaradorlik farqi o‘rtacha 40–60 foizni tashkil etadi. Bu maqsadli siyosat choralarini ishlab chiqishda mintaqaviy farqlanishni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [3]. Gridchina, Orekhova va Lyubimtseva mintaqaviy agrar siyosatni iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan o‘rganib, mintaqa xususiyatlariga mos differensial yondashuvning muhimligini asoslaganlar [4]. Utanov K-means algoritmini O‘zbekiston agrar sektoriga tatbiq etishning metodologik asoslarini belgilab bergan bo‘lib, mazkur maqola ushbu tezisni to‘liq empirik tahlil natijalari bilan boyitishni maqsad qilgan [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlar bazasidan olingan 2020–2025 yillar bo‘yicha 13 ta hudud qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari qo‘llanilgan. Hududiy ma’lumotlardan Toshkent shahri qishloq xo‘jaligi ulushi minimal hamda

to‘liq berilmaganligi sababli tahlildan chiqarilgan. Tadqiqot davomida statistik kuzatish, guruhlash, jadval va grafiklar, K-means, z-score standartlashtirish, Elbow, mutlaq va nisbiy miqdorlar, indekslar kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Agrar sohada samaradorliklarni hisoblashda an’anaviy statistik tahlillarda ko‘pgina hollarda bir o‘lchovli ko‘rsatkichlar hosildorlik yoki yalpi mahsulot hajmi orqali baholangan. Fikrimizcha bunday yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini to‘liq aks ettira olish murakkab bo‘lib qoladi. Bu kabi kamchilikni bartaraf etish maqsadida biz tadqiqotimizda Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida yaratilgan qo‘shilgan qiymat, tarmoqqa kiritilgan investitsiya hajmi, tarmoqda bandlar soni hamda tarmoq foydalangan yer maydoni kabi dastlabki ko‘rsatkichlardan uchta samaradorlik indeksi hisoblanib, tahlil asosi sifatida ishlatilgan (1-chizma).

1-chizma.

Tadqiqot uchun samaradorlik ko‘rsatkichlar tizimi*




**Manba: muallif tomonidan tuzilgan.*

Dastlab barcha indekslar 2020–2025 yillar bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar asosida hisoblandi hamda dastlabki ma’lumotlarning birliklari turli bo‘lganligi sababli z-score normalizatsiya usuli orqali standartlashtirildi. Bundan tashqari tadqiqot davomida optimal klasterlar sonini aniqlash uchun Elbow usuli qo‘llanilib Silhouette koeffitsienti k=2 (s=0.51) va k=3 (s=0.44) uchun qoniqarli darajani ko‘rsatgan. Tadqiqot davomida amaliy yo‘nalishni kengroq qamrab olish uchun k=3 ni tanlash zarurati asoslandi. Mazkur asoslanish natijasida viloyatlarning turli samaradorlik modellarini aniqroq farqlash imkoniyatini yaratib beradi (2-chizma).

2-chizma.

Elbow usuli — optimal klasterlar sonini aniqlash (k=3)*



**Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi*

K-means algoritmi natijasida O‘zbekiston Respublikasining 13 ta viloyati 1-chizmada

berilgan indekslar bo‘yicha emperik ma’lumotlardan foydalangan holda uchta klasterga ajratildi. Har bir klaster o‘zining hisob-kitob samaradorlik indekslaridan kelib chiqib, o‘z ichiga mamlakatimiz viloyatlarni qamrab oldi (1-jadval).

1-jadval.

Viloyatlarni klasterlash natijalari*

Klaster	***Samaradorlik yo‘nalishlari***	***Viloyatlar***	***Tavsif***
1	Nisbatan past samara	Qoraqalpog’iston, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent vil., Xorazm	Barcha uch indeks respublika o‘rtachasidan past
2	Yer va investitsiya intensiv	Andijon, Farg’ona	Yer va investitsiya samaradorligi o‘rtachadan yuqori, kichik maydonda yuqori qiymat
3	Mehnat intensiv, yer ekstensiv	Buxoro, Navoiy	Mehnat unumdorligi o‘rtachadan yuqori, katta yer maydonidan past foydalanish

**Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, K-means klasterlash algoritmi natijasida O‘zbekiston Respublikasining 13 ta viloyati uchta samaradorlik indeksi bo‘yicha guruhlashtirildi. Klaster markazlarining o‘rtacha qiymatlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, viloyatlar o‘rtasida agrar samaradorlik bo‘yicha statistik jihatdan sezilarli farqlanishlar mavjud bo‘lib, bu farqlanishlar tasodifiy emas, balki hududlarning tabiiy-iqlim sharoiti, resurs ta’minoti va tarixiy agrar tuzilishi bilan bevosita bog’liqdir.

Birinchi klaster hajm jihatdan eng katta guruh bo‘lib, u 9 ta viloyatni o‘z ichiga olgan bo‘lib, mazkur klasterdagi viloyatlarda barcha uch indeks mehnat unumdorligi, yer samaradorligi hamda investitsiya samaradorligi respublika o‘rtachasidan past bo‘lib, agrar sohada mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayotganligini ko‘rsatib bergan. Klaster markazining o‘rtacha qiymatlari mehnat unumdorligi 64.88 mlrd so‘m/ming kishi, yer samaradorligi 28.35 mlrd so‘m/ming ga, investitsiya samaradorligi 9.62. Bu guruhning viloyatlar soni jihatidan ko‘pligi respublika agrar siyosatining ustuvor e’tiborini aynan shu hududlarga yo‘naltirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ikkinchi klaster faqat ikkita viloyatni Andijon va Farg’onani birlashtirgan bo‘lib, bu viloyatlar yer va investitsiya samaradorligi bo‘yicha respublika o‘rtachasidan sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

Klaster markazining qiymatlari esa mehnat unumdorligi 63.62 mlrd so‘m/ming kishi, yer samaradorligi 81.53 mlrd so‘m/ming ga, investitsiya samaradorligi 19.32. Bu klasterga kirgan viloyatlarda yer samaradorligi ko‘rsatkichi respublika o‘rtachasidan (32.9 mlrd so‘m/ming ga) taxminan 2.5 barobar yuqori. Kichik yer maydonidan yuqori qiymat olish qobiliyati bu hududlarda intensiv, yuqori samarali agrar modelning shakllanganligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa Andijon viloyatida yer samaradorligi 94.2 mlrd so‘m/ming gektarni tashkil etganligi respublika bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi ko‘rsatib turibdi. Investitsiya samaradorligi ham shu klasterdagi viloyatlarda eng yuqori (19.32) bo‘lib, bu kiritilayotgan investitsiyalarning samarali o‘zlashtirilayotganligini ko‘rsatadi. Ushbu hududlarning muvaffaqiyatli agrar modeli boshqa viloyatlar, ayniqsa birinchi klaster viloyatlari uchun namuna sifatida xizmat qilishi mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Klaster markazlarining o‘rtacha qiymatlari*

Klaster	Mehnat unumdorligi	Yer samaradorligi	Investitsiya samaradorligi	Viloyatlar soni	↑
Klaster 1 – Nisbatan past samarali	64.88	28.35	9.62	9	—
Klaster 2 – Yer-investitsiya intensiv	63.62	**81.53**	**19.32**	2	**Yer, Inv**
Klaster 3 – Mehnat intensiv, yer ekstensiv	**113.93**	4.87	10.54	2	**Mehnat**


**Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari*

Uchinchi klasterga kiruvchi Buxoro va Navoiy viloyatlari esa aksincha mehnat unumdorligi bo‘yicha barcha viloyatlardan ustun turadi. Klaster markazining qiymatlari o‘z navbatida mehnat unumdorligi bo‘yicha 113.93 mlrd so‘m/ming kishi (respublika o‘rtachasidan 58% yuqori), yer samaradorligi 4.87 mlrd so‘m/ming ga, investitsiya samaradorligi esa 10.54 ni tashkil qilgan. Xususan, Navoiy viloyatida mehnat unumdorligi 133.9 mlrd so‘m/ming kishini tashkil etib, bu respublika bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Biroq yer samaradorligi eng past darajada qolmoqda, chunki respublika o‘rtachasidan (32.9 mlrd so‘m/ming ga) taxminan 6.75 barobar past. Bu holat mazkur viloyatlarda katta yer maydonlari mavjudligiga qaramasdan, ulardan samarali foydalanilmayotganligini, ya’ni ekstensiv agrar modelning faolligini ko‘rsatmoqda. Fikrimizcha uning asosiy sabablari qatoriga quruq iqlim sharoiti, suv resurslarining cheklanganligi, cho‘llanish jarayonlari hamda sho‘rlangan yerlar ulushining yuqoriligi kiradi.

Klasterlash natijalari O‘zbekiston agrar sohasida yagona samaradorlik modeli mavjud emasligini, balki har bir hududda o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishi va cheklovlar mavjudligini empirik asosda isbotladi. Ikkinchi klaster viloyatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yer maydonining kichikligi o‘z-o‘zicha samaradorlikni cheklamaydi — muhimi resurslardan foydalanish intensivligi va investitsiyalar sifatidir. Uchinchi klaster esa mehnat resurslari samarali bo‘la turib, yer resurslaridan foydalanish samaradorligining past bo‘lishi mumkinligini namoyon etib, bu ikki ko‘rsatkichni bir vaqtda oshirish uchun differensial siyosat talab etilishini ko‘rsatmoqda.

2-chizma.

Viloyatlarning mehnat unumdorligi, yer samaradorligi bo‘yicha klasterlash natijalari (mlrd so‘m/ming kishi); gorizontal va vertikal chiziqlar — respublika bo‘yicha o‘rtacha miqdor*



**O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari*

Mazkur empirik topilmalar viloyatlar uchun yagona emas, balki ularning samaradorlik modeliga muvofiq ravishda shakllantirilgan maqsadli agrar siyosat ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi (3-chizma).

Bundan tashqari tadqiqot davomida K-means usulining qo‘llanilishi an’anaviy bir ko‘rsatkichli tahlildan ustun turishi bilan birgalikda u bir vaqtda uchta mustaqil samaradorlik indeksini hisobga olishi hamda viloyatlarning yashirin iqtisodiy o‘xshashligini ham ochib berishi bilan o‘z ustunligini ko‘rsatib berdi.

Xulosa

Yuqoridagi tahli va natijalardan quyidagi xulosalarga kelindi. Jumladan, K-means klasterlash usuli mamlakatimiz agrar sektorini ko‘p o‘lchovli tahlil qilishda samarali vosita ekanligini bilan ajralib turdi. Tahli natijalariga ko‘ra nisbatan past samarali klaster viloyatlari uchun qolgan klasterlar tajribasidan o‘rganish mexanizmlarini joriy etish, agrokonsalting xizmatlarini kengaytirish va maqsadli investitsiyalarni yo‘naltirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari yer-investitsiya intensiv klaster viloyatlari uchun yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va mavjud intensiv modelni boshqa viloyatlarga tarqatish tavsiya etilsa, mehnat intensiv-yer ekstensiv klaster viloyatlari uchun katta yer maydonlaridan samaraliroq foydalanishga yo‘naltirilgan siyosat, bugungi kunda juda dolzarb bo‘lgan suv tejovchi texnologiyalar, iqlimga moslashgan urug’lik navlari, yerdan doimiy foydalanish monitoringi kabilarga ahamiyat berish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaufman L., Rousseeuw P.J. Finding Groups in Data: An Introduction to Cluster Analysis. Wiley, New York. – 342 p. 1990.

2. Liu Y., Li Z. Application of K-Means Clustering in Agricultural Data Analysis. Journal of Agricultural Science. Vol. 155, №4. – pp. 612–621. 2017.

3. Agricultural Productivity and Efficiency Analysis. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Rome. – 98 p. 2020.

4. Gridchina A., Orekhova L., Lyubimtseva L. Agrarian Policy of the Region in Terms of Economic Development Innovation. International Journal of Economics and Financial Issues. №6(8S). – pp. 54–59. 2016.

5. Utanov B. Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda agrar soha samaradorligining o‘rni va uni baholashda K-means klasterlash usulidan foydalanish. "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" xalqaro konferensiya materiallari. Namangan: NDTU. – B. 113–114. 2025.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi statistikasi, 2020–2025. URL: https://stat.uz.

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH MASALALARI

Aminova Nilufar Umarboy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, dotsent
e-mail: n.aminova@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2618-7523

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari, amaldagi holati va rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida islom moliyasining asosiy instrumentlari hisoblangan murabaha, musharaka, mudaraba, ijara va sukukning iqtisodiy mazmuni hamda ularni bank amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, islomiy moliyalashtirish tizimini muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, ularning ilg‘or amaliyotlari asosida O‘zbekiston bank sektorida islom moliyasi xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, investitsion resurslarni jalb etish hamda iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shariat nazorati institutlarini shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash va islomiy moliya mahsulotlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *islom moliyasi, islomiy banklar, islomiy moliyalashtirish, murabaha, musharaka, mudaraba, ijara, sukuk, bank tizimi, investitsiyalar, moliyaviy inklyuziya, shariat tamoyillari, islomiy moliya instrumentlari, kapital bozori, O‘zbekiston.*

ISSUES REGARDING THE IMPLEMENTATION OF ISLAMIC FINANCING MECHANISMS IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN

Aminova Nilufar Umarboy kizi
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy in Economic Sciences (PhD),
Associate Professor
e-mail: n.aminova@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2618-7523

Annatation. *This article examines the theoretical and legal foundations, current state, and prospects for the implementation of Islamic financing mechanisms in the banking system of Uzbekistan. The study analyzes the economic essence and practical application of the main Islamic financial instruments, including Murabaha, Musharaka, Mudaraba, Ijarah, and Sukuk. In addition, the experience of countries that have successfully implemented Islamic finance is reviewed, and based on international best practices, priority directions for the development of Islamic financial services in Uzbekistan’s banking sector are identified. The research findings demonstrate that the introduction of Islamic financing mechanisms can enhance the competitiveness of the banking system, expand financial inclusion, attract investment resources, and support the real sector of the economy. Furthermore, scientific and practical recommendations are proposed for improving the regulatory framework, establishing Sharia supervisory institutions, training qualified specialists, and introducing Islamic financial products into banking practice.*

Keywords: *Islamic finance, Islamic banking, Islamic financing, Murabaha, Musharaka, Mudaraba, Ijarah, Sukuk, banking system, investments, financial inclusion, Sharia principles,*

Islamic financial instruments, capital market, Uzbekistan.

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА

Аминова Нилуфар Умарбой кизи
Ташкентский государственный экономический университет,
Доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент
e-mail: n.aminova@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2618-7523

Аннотация: *В данной статье исследованы теоретико-правовые основы, текущее состояние и перспективы внедрения механизмов исламского финансирования в банковскую систему Узбекистана. В ходе исследования проанализированы экономическая сущность и возможности применения в банковской практике основных инструментов исламских финансов, таких как мурабаха, мушарака, мудараба, иджара и сукук. Кроме того, изучен опыт стран, успешно внедривших исламское финансирование, и на основе их передовой практики определены приоритетные направления развития исламских финансовых услуг в банковском секторе Узбекистана. По результатам исследования обосновано, что внедрение механизмов исламского финансирования способствует повышению конкурентоспособности банковской системы, расширению финансовой инклюзии, привлечению инвестиционных ресурсов и поддержке реального сектора экономики. Также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию нормативно-правовой базы, формированию институтов шариатского контроля, подготовке квалифицированных кадров и внедрению исламских финансовых продуктов в банковскую практику.*

Ключевые слова: *исламские финансы, исламские банки, исламское финансирование, мурабаха, мушарака, мудараба, иджара, сукук, банковская система, инвестиции, финансовая инклюзия, принципы шариата, исламские финансовые инструменты, рынок капитала, Узбекистан.*

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini bank tizimiga joriy etish masalasi bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy hayotning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismi islom dinining qadriyatlariga sodiq bo‘lib, an’anaviy bank tizimidagi sudxo‘rlik foiziga asoslangan munosabatlardan o‘zini chetga tortayotgan keng qatlam mavjud. Bu esa moliya bozorida foizsiz, halol va shariatga muvofiq xizmatlarga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu ehtiyojni qondirish, aholining moliyaviy resurslarini iqtisodiyot aylanmasiga jalb etish hamda banklardan chetda saqlanayotgan mablag‘larni faol muomalaga kiritish nuqtai nazaridan ushbu mavzu o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Islomiy moliyalashtirishning eng muhim jihatlaridan biri uning real iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. An’anaviy moliya tizimidan farqli o‘laroq, islomiy moliyaviy munosabatlarda har bir bitim aniq aktiv, tovar yoki xizmatga asoslanishi shart bo‘lib, bu spekulyativ operatsiyalarning va asossiz pul muomalasining oldini oladi. Mudoraba, musharaka, murobaha, ijara va istisno kabi mexanizmlar orqali kapital bevosita ishlab chiqarish, savdo va tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltiriladi. Bunday yondashuv mamlakatimizda real sektorni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni va kapitalni jalb etish nuqtai nazaridan ham islomiy moliyalashtirish institutlarini shakllantirish katta strategik ahamiyatga ega. Fors ko‘rfazi davlatlari, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hamda boshqa islom hamkorlik tashkilotiga a’zo

davlatlar qo‘lida ulkan moliyaviy resurslar to‘plangan bo‘lib, ular o‘z mablag‘larini faqat shariat tamoyillariga mos keladigan loyihalarga yo‘naltirishni afzal ko‘radi. O‘zbekistonda tegishli huquqiy baza va moliyaviy infratuzilma yaratilsa, ushbu ulkan kapital oqimidan foydalanish, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va iqtisodiyotga arzon resurslarni olib kirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Moliyaviy inklyuziya, ya’ni aholining keng qatlamini bank xizmatlari bilan qamrab olish masalasida ham islomiy moliyalashtirish muhim vositadir. Diniy e’tiqodi sababli an’anaviy banklardan foydalanishdan o‘zini tiyib yurgan fuqarolar foizsiz moliyaviy xizmatlar paydo bo‘lishi bilan rasmiy moliya tizimiga jalb etiladi. Bu esa naqd pulning soyadagi aylanishini kamaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda aholining jamg‘armalarini himoyalangan va shaffof tizim orqali boshqarish imkonini beradi. Bank tizimi resurs bazasining kengayishi, omonatlar hajmining oshishi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi nuqtai nazaridan ushbu masalaning o‘rganilishi muhimdir.

Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining yana bir e’tiborga molik xususiyati riskni adolatli taqsimlash tamoyiliga asoslanganligidir. An’anaviy kreditlashda barcha tavakkalchilik qarz oluvchi zimmasiga yuklatilsa, islomiy modelda foyda ham, zarar ham moliya beruvchi va oluvchi o‘rtasida hamkorlik asosida bo‘lishiladi. Bunday yondashuv tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni sheriklik ruhida quradi, mas’uliyatni oshiradi va moliyaviy tizimning inqirozlarga chidamliligini kuchaytiradi. Jahon moliyaviy inqirozlari davrida islomiy banklarning nisbatan barqaror faoliyat ko‘rsatgani ham aynan shu tamoyilning afzalligini ko‘rsatadi, bu esa milliy bank tizimimiz uchun ushbu tajribani o‘rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va moliya bozorini liberallashtirish jarayonlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. So‘nggi yillarda bank tizimini isloh qilish, raqobat muhitini yaratish va moliyaviy xizmatlar turlarini ko‘paytirishga qaratilgan sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Aynan shunday sharoitda an’anaviy bank xizmatlari bilan bir qatorda muqobil moliyaviy modellarni joriy etish bozorni rang-barang qiladi, iste’molchilarga tanlov erkinligini beradi va sog‘lom raqobatni rag‘batlantiradi. Islohotlarning mantiqiy davomi sifatida islomiy moliyalashtirishni tizimga integratsiya qilish masalasi davlat siyosati darajasida e’tibor talab etadigan yo‘nalishga aylanmoqda.

Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarni joriy etish yo‘lida hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator murakkab masalalar ham mavjud bo‘lib, bu mavzuni chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini tug‘diradi. Eng avvalo, islomiy moliyaviy operatsiyalarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish, soliq tizimini moslashtirish, shariat nazorat kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va malakali mutaxassislar tayyorlash kabi tizimli vazifalar turibdi. Bundan tashqari, aholi va tadbirkorlar o‘rtasida islomiy moliyaviy mahsulotlar mohiyati to‘g‘risida yetarli tushuncha shakllantirish, ularning afzalliklarini sodda tilda yetkazish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammolarni kompleks o‘rganish va ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish mavzuning nazariy hamda amaliy qiymatini belgilaydi.

O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi diniy, iqtisodiy, ijtimoiy va xalqaro omillarning uyg‘unlashuvi natijasida benihoya dolzarb mavzuga aylangan. Bu yo‘nalish aholining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga jalb etish, xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish hamda moliya tizimini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli ushbu masalani har tomonlama o‘rganish, ilg‘or xorijiy tajribani milliy sharoitga moslab tatbiq etish va tegishli mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish nafaqat moliya sohasi, balki butun milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim strategik ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalalari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, E.A.

Baydaulet o‘z tadqiqotlarida islom moliyasining asosiy ustuni foizsiz moliyalashtirish va risklarni adolatli taqsimlash ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, murabaha, mushoraka va mudaraba kabi instrumentlarni bank amaliyotiga joriy etish moliyaviy barqarorlikni oshirish va real sektorni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi [1].

M.I. Yodgorova O‘zbekistonda korporativ sektorni rivojlantirishda islomiy moliyaviy instrumentlarning ahamiyatini o‘rgangan. Tadqiqotchining fikricha, mushoraka va muzoraba asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari tadbirkorlik subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi hamda kapital bozorining rivojlanishiga turtki beradi [2].

O. Hamdamov islom bank tizimi foizga asoslangan moliyalashtirishning muqobili sifatida iqtisodiyotda moliyaviy inklyuziyani oshirishini qayd etadi. Olimning ta’kidlashicha, aholining diniy qarashlari sababli an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanmayotgan qatlamlarini moliyaviy tizimga jalb qilishda islom moliyasi muhim vosita hisoblanadi [2].

Alisher Eshimov bank-moliya tizimida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish investitsion resurslar hajmini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, sukuk va boshqa islomiy moliyaviy vositalar kapital bozorini diversifikatsiya qilish imkonini beradi [3].

Jasur Ataniyazov O‘zbekiston bank tizimiga islom moliyasi instrumentlarini joriy etish iqtisodiy taraqqiyotning yangi manbalarini shakllantirishini qayd etadi. Olimning fikricha, islomiy bank xizmatlari xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga ham xizmat qiladi [4].

Izzatbek Abdullayev islom moliyasining murabaha, musharaka va takaful kabi instrumentlari bank tizimida mahsulotlar xilma-xilligini oshirishini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, ushbu instrumentlar moliyaviy xizmatlarning ommabopligini kuchaytiradi [4].

Mahmud Usmon islom moliyasining asosiy afzalligi foyda va zararlarni sheriklar o‘rtasida taqsimlash tamoyiliga asoslanishini qayd etadi. Uning fikricha, bu yondashuv moliyaviy inqirozlar davrida risklarning bir tomonga yuklanib qolishining oldini oladi [5].

Husayn Rajabov islomiy banklarni diniy tashkilot emas, balki zamonaviy moliya tizimining muqobil shakli sifatida baholaydi. Olimning fikricha, O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun avvalo huquqiy bazani takomillashtirish zarur [5].

Muhammad Umer Chapra o‘z tadqiqotlarida islom moliyasining asosiy maqsadi iqtisodiy adolat va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, bank tizimi real iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim [6].

Muhammad Taqi Usmani islomiy banklar faoliyati shariat talablariga qat’iy muvofiq bo‘lishi kerakligini qayd etadi. Uning fikricha, murabaha va ijara kabi instrumentlar foizli kreditlarga samarali muqobil bo‘la oladi [7].

Abbas Mirakhor risklarni taqsimlash tamoyili islom moliyasining markaziy elementi ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, ushbu mexanizm moliyaviy tizimning barqarorligini oshiradi [8].

Zamir Iqbal islomiy banklarning moliyaviy barqarorligi aktivlar bilan ta’minlangan operatsiyalarga asoslanishini qayd etadi. Uning fikricha, bu holat spekulyativ operatsiyalar ulushini kamaytiradi [9].

Habib Ahmed islomiy moliyalashtirishning muvaffaqiyati institutsional infratuzilma va samarali tartibga solish tizimiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, shariat nazorati institutlari muhim rol o‘ynaydi [10].

Monzer Kahf islomiy banklar iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishini qayd etadi. Uning fikricha, sheriklik asosidagi moliyalashtirish tadbirkorlik rivojiga xizmat qiladi [11].

Rodney Wilson islom moliyasi global moliya tizimining muhim segmentiga aylanganini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, islomiy banklar xalqaro kapital oqimlarini jalb etishda muhim o‘rin egallaydi [12].

Hossein Askari islom moliyasining asosiy ustunligi moliyaviy operatsiyalarni real aktivlar bilan bog‘lashda ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, bu moliyaviy pufaklarning yuzaga kelish xavfini kamaytiradi [13].

L.I. Goncharenko (Rossiya) islom moliyasi MDH mamlakatlarida muqobil investitsion resurslarni jalb etish vositasi bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, islomiy bank mahsulotlari kapital bozorining diversifikatsiyasiga xizmat qiladi [14].

R.R. Vaxitov (Rossiya) islom banklari faoliyatida shariat standartlariga rioya qilish investorlar ishonchini oshirishini qayd etadi. Olimning fikricha, shariat kengashlari faoliyati institutsional barqarorlikni mustahkamlaydi [15].

M.A. Eskindarov (Rossiya) islomiy moliya instrumentlari iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishga ko‘proq yo‘naltirilganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu jihat iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [16].

A.B. Baidaulet (Qozog‘iston) islom moliyasi Markaziy Osiyo mamlakatlarida investitsion faollikni oshirish uchun katta salohiyatga ega ekanligini qayd etadi. Olimning fikricha, sukuk bozori rivojlantirilishi muhim ahamiyatga ega [17].

Yerlan Baidaulet (Qozog‘iston) islomiy bank mahsulotlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda samarali vosita bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, sheriklik asosidagi moliyalashtirish tadbirkorlar uchun qulay imkoniyat yaratadi [17].

G.B. Abdikarimov (Qozog‘iston) islom moliyasi institutlari mintaqaviy moliya bozorlarining integratsiyasini kuchaytirishini qayd etadi. Olimning fikricha, Markaziy Osiyoda yagona islom moliyasi infratuzilmasini shakllantirish zarur [18].

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalalari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, bank-moliya tizimini diversifikatsiya qilish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish sharoitida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon miqyosida islom moliyasi aktivlari hajmi yil sayin ortib bormoqda va bugungi kunda ushbu sektor trillionlab dollar miqdoridagi moliyaviy resurslarni qamrab olmoqda. Islomiy moliyalashtirishning asosiy tamoyillari bo‘lgan foizdan voz kechish, risk va foydani adolatli taqsimlash hamda moliyaviy operatsiyalarni real aktivlar bilan bog‘lash iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish mamlakatning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va yangi investitsion manbalarni jalb etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda aholining ma’lum qismi diniy e’tiqodlari sababli an’anaviy foizli bank xizmatlaridan foydalanishni ma’qullamaydi. Natijada iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan ayrim moliyaviy resurslar bank aylanmasidan chetda qolmoqda. Islomiy moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish esa ushbu mablag‘larni rasmiy moliya tizimiga jalb qilish, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish va aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga muqobil moliyaviy xizmatlarni taklif etish imkonini beradi. Bu esa bank xizmatlari qamrovini kengaytirish va moliya bozorining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatda investitsion faollikni oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma hamda ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish uchun uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Islomiy moliyaning sukuk, musharaka, mudaraba, murabaha va ijara kabi instrumentlari mazkur vazifalarni amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, sukuk instrumentlari orqali xalqaro islom kapital bozorlaridan mablag‘ jalb qilish imkoniyati O‘zbekistonning investitsion salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo‘yicha huquqiy va institutsional asoslarni shakllantirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Biroq islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini bank amaliyotiga joriy etishning

tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va institutsional jihatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli O‘zbekiston bank tizimida islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishning mavjud holatini tahlil qilish, xorijiy tajribani o‘rganish va ushbu yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

1-jadval

Islomiy va an’anaviy bank tizimining qiyosiy tahlili[206]

Mezon	An’anaviy bank tizimi	Islomiy bank tizimi
Asosiy daromad manbai	Qarz bo‘yicha foiz (riba)	Foydani bo‘lishish va savdo ustamasi
Foiz (riba)	Ruxsat etilgan va asosiy mexanizm	Qat’iyan taqiqlangan
Risk taqsimoti	To‘liq qarz oluvchi zimmasida	Tomonlar o‘rtasida adolatli bo‘lishiladi
Bitim asosi	Pul muomalasiga asoslanadi	Real aktiv, tovar yoki xizmatga bog‘lanadi
Spekulyatsiya (g‘arar)	Cheklanmagan	Taqiqlangan
Nazorat organi	Markaziy bank	Markaziy bank va Shariat nazorat kengashi
Investitsiya yo‘nalishi	Cheklov kam	Faqat halol (shariatga mos) sohalarga
Munosabat tabiati	Kreditor-debitor	Sherik-investor

Islomiy va an’anaviy bank tizimining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki tizim o‘rtasidagi tub farq daromad olish falsafasida yotadi. An’anaviy bank o‘z foydasini qarz bo‘yicha oldindan belgilangan foiz, ya’ni riba orqali shakllantirsa, islomiy bank foydani real savdo ustamasi va sheriklik asosida oladi. Bu farq shunchaki texnik emas, balki butun moliyaviy munosabatlar tabiatini tubdan o‘zgartiradi: birinchi holatda bank kreditor sifatida faqat o‘z foizini kafolatlashga intiladi, ikkinchi holatda esa investor sifatida loyiha muvaffaqiyatidan manfaatdor bo‘ladi.

Risk taqsimoti masalasida islomiy modelning ijtimoiy adolatga yo‘naltirilganligi yaqqol namoyon bo‘ladi. An’anaviy tizimda barcha tavakkalchilik qarz oluvchi zimmasiga yuklatilib, bank kafolatlangan daromadga ega bo‘lsa, islomiy tizimda foyda ham, zarar ham tomonlar o‘rtasida adolatli bo‘lishiladi. Aynan shu tamoyil — bitimlarning real aktivga bog‘lanishi va spekulyatsiyaning taqiqlanishi bilan birgalikda — islomiy banklarni jahon moliyaviy inqirozlari davrida nisbatan barqaror saqlab qoldi, bu esa milliy bank tizimimiz uchun jiddiy o‘rganishga arzigulik tajribadir.

2-jadval

Asosiy islomiy moliyalashtirish mexanizmlari[207]

Mexanizm	Mohiyati	Qo‘llanish sohasi	Shartnoma turi
Murobaha	Bank tovarni sotib olib, ustama bilan bo‘lib to‘lash sharti bilan sotadi	Savdo, asbob-uskuna xaridi, iste’mol	Savdo shartnomasi
Mudoraba	Bir tomon kapital, ikkinchi tomon mehnat qo‘shadi, foyda kelishuvga ko‘ra bo‘linadi	Investitsiya loyihalari, omonatlar	Sheriklik (ishonch)
Musharaka	Tomonlar birgalikda kapital qo‘shadi, foyda va zarar ulushga muvofiq bo‘linadi	Yirik loyihalar, qo‘shma korxonalar	Hamkorlik
Ijara	Aktivni belgilangan haq evaziga ijaraga berish, lizingga o‘xshash	Ko‘chmas mulk, transport, jihozlar	Ijara (lizing)
Istisno	Buyurtma asosida ishlab chiqarish va qurilishni bosqichma-bosqich moliyalashtirish	Qurilish, ishlab chiqarish	Buyurtma shartnomasi
Salam	Tovar haqi oldindan to‘lanadi, mahsulot keyin yetkazib beriladi	Qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish	Oldindan to‘lov
Sukuk	Aktivga asoslangan islomiy qimmatli qog‘ozlar	Kapital jalb etish, infratuzilma	Islomiy obligatsiya
Qard al-hasan	Foizsiz, ezgu maqsadli qarz	Ijtimoiy yordam, kichik ehtiyojlar	Bepul qarz

[206] Muallif tomonidan tayyorlangan.
[207] Muallif tomonidan tayyorlangan.

Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining xilma-xilligi uning amaliy hayotning deyarli barcha sohalarini qamrab olish qobiliyatini ko‘rsatadi. Murobaha iste’mol va savdo ehtiyojlarini, mudoraba va musharaka investitsiya hamda qo‘shma loyihalarni, ijara ko‘chmas mulk va jihozlar moliyalashtirishni, istisno va salam esa qurilish hamda qishloq xo‘jaligi sohasini ta’minlaydi. Bu mexanizmlarning umumiy mantig‘i shundaki, ularning har biri muayyan real iqtisodiy faoliyatga — tovar xaridi, ishlab chiqarish yoki birgalikdagi tadbirkorlikka tayanadi, demak pul mavhum tarzda emas, balki aniq maqsad uchun harakatga keladi.

Ushbu vositalar O‘zbekiston iqtisodiyotining bugungi ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘unligi nuqtai nazaridan alohida qiymatga ega. Sukuk mexanizmi infratuzilma loyihalariga xorijiy kapital jalb etish, mudoraba va musharaka kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qard al-hasan esa ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy yordamni ta’minlash imkonini beradi. Shu bois bu mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish nafaqat diniy ehtiyojni qondiradi, balki real sektorni rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning amaliy quroliga aylanadi.

3-jadval

Islomiy moliyalashtirishni joriy etish bosqichlari[208]

Bosqich	Asosiy vazifalar	Kutilayotgan natija
Tayyorgarlik bosqichi	Qonunchilik bazasini ishlab chiqish, xalqaro tajribani o‘rganish	Huquqiy asos shakllantiriladi
Institutsional bosqich	Shariat nazorat kengashlarini tashkil etish, standartlarni qabul qilish	Nazorat tizimi yo‘lga qo‘yiladi
Kadrlar bosqichi	Malakali mutaxassislarni tayyorlash, o‘quv dasturlarini joriy etish	Inson kapitali tayyorlanadi
Pilot bosqichi	Islomiy oyna (deraza) va bo‘limlarni sinov tariqasida ochish	Amaliy tajriba to‘planadi
Kengaytirish bosqichi	To‘laqonli islomiy banklar va mahsulotlarni joriy etish	Tizim keng miqyosda ishga tushadi
Integratsiya bosqichi	Xalqaro islomiy moliya bozoriga chiqish, sukuk chiqarish	Xorijiy kapital jalb etiladi

Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini O‘zbekiston bank tizimiga joriy etish bosqichlarining izchil ketma-ketligi ushbu jarayonning murakkab va ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Mazkur jarayon bir martalik islohot yoki alohida moliyaviy mahsulotni amaliyotga tatbiq etish bilan cheklanib qolmay, balki huquqiy, institutsional, tashkiliy va kadrlar salohiyatini qamrab oluvchi kompleks yondashuvni talab etadi. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida zarur normativ-huquqiy bazani shakllantirish, xalqaro tajribani o‘rganish va islom moliyasi standartlarini milliy qonunchilikka moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqich keyingi institutsional rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratib, islomiy moliyalashtirish faoliyatining qonuniy va shaffof amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, institutsional infratuzilmani yaratish, shariat nazorati tizimini shakllantirish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash bosqichlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirib boradi. Ayniqsa, islom moliyasi bo‘yicha yetarli bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlamasdan turib, yangi moliyaviy mahsulotlarni samarali joriy etish va boshqarish qiyin kechadi. Shu sababli barcha bosqichlarning izchil va muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi bank tizimining barqarorligi, investorlar ishonchi va islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining uzoq muddatli samaradorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Natijada, bosqichma-bosqich va puxta rejalashtirilgan yondashuv O‘zbekistonda islom moliyasi bozorining muvaffaqiyatli shakllanishiga xizmat qiladi.

[208] Muallif tomonidan tayyorlangan.

4-jadval

Joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlari[209]

Muammo / To‘siq	Mohiyati	Taklif etilayotgan yechim
Qonunchilik bo‘shlig‘i	Islomiy moliyani tartibga soluvchi maxsus normalar yetishmasligi	Maxsus qonun va me’yoriy hujjatlar qabul qilish
Soliq nomutanosibligi	Ikki marta soliqqa tortilish (masalan, murobahada)	Soliq tizimini moslashtirish, imtiyozlar berish
Kadrlar tanqisligi	Shariat va moliya sohasini biluvchi mutaxassislar kamligi	Oliy ta’lim va malaka oshirish dasturlarini joriy etish
Aholi xabardorligi pastligi	Islomiy mahsulotlar mohiyati yetarli tushunilmasligi	Targ‘ibot, moliyaviy savodxonlikni oshirish
Infratuzilma yetishmasligi	Islomiy bank va sug‘urta institutlari rivojlanmagani	Maxsus institutlar va platformalar yaratish
Nazorat tizimi	Yagona shariat standartlari yo‘qligi	Markaziy shariat kengashini tashkil etish
Ishonch masalasi	Yangi tizimga nisbatan ehtiyotkorlik	Shaffoflik va muvaffaqiyatli loyihalar namoyishi

Joriy etishdagi muammolar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy to‘siqlar tabiatan tizimli bo‘lib, ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Qonunchilik bo‘shlig‘i va soliq nomutanosibligi huquqiy-iqtisodiy xarakterga ega bo‘lsa, kadrlar tanqisligi va aholi xabardorligining pastligi inson omili bilan, infratuzilma va nazorat tizimi muammolari esa institutsional jihat bilan bog‘liq. Bu muammolarning yagona umumiy jihati shundaki, ularning hech biri alohida hal etib bo‘lmaydi — masalan, qonunchilik yaratilmasdan turib infratuzilmani rivojlantirish yoki kadrlar tayyorlamasdan turib nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish samarasiz bo‘ladi.

Taklif etilayotgan yechimlarning kompleks tabiati ham aynan shu o‘zaro bog‘liqlikdan kelib chiqadi. Maxsus qonun qabul qilish, soliq imtiyozlari berish, oliy ta’lim dasturlarini joriy etish, targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va markaziy shariat kengashini tashkil etish — bularning barchasi bir vaqtning o‘zida, muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, islomiy moliyalashtirishni muvaffaqiyatli joriy etish davlat, ta’lim muassasalari, moliya institutlari va jamoatchilikning birgalikdagi sa’y-harakatini talab etadigan kompleks vazifadir.

5-jadval

Islomiy moliyalashtirishni joriy etish SWOT tahlili[210]

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
• Aholining katta qismi diniy e’tiqodga sodiq • Real iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liqlik • Risklarning adolatli taqsimlanishi • Inqirozlarga chidamlilik • Banklardan chetdagi mablag‘larni jalb etish imkoni	• Qonunchilik bazasining to‘liq emasligi • Malakali kadrlar yetishmasligi • Infratuzilmaning rivojlanmaganligi • Aholi xabardorligining pastligi • Soliq tizimi nomutanosibliklari
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
• Fors ko‘rfazi davlatlaridan investitsiya jalb etish • Moliyaviy inklyuziyaning kengayishi • Sukuk orqali xalqaro bozorga chiqish • Bank resurs bazasining mustahkamlanishi • Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash	• Tartibga solish noaniqliklari • Xalqaro raqobat • Geosiyosiy va iqtisodiy beqarorlik • Standartlashtirishdagi qiyinchiliklar • Jamoatchilik ishonchini shakllantirish murakkabligi

SWOT tahlili islomiy moliyalashtirishning O‘zbekiston sharoitidagi salohiyati va cheklovlari o‘rtasidagi muvozanatni yaqqol ko‘rsatadi. Kuchli tomonlar asosan ichki omillarga — aholining diniy e’tiqodga sodiqligi, tizimning real iqtisodiyot bilan bog‘liqligi va inqirozlarga chidamliligiga tayansa, zaif tomonlar bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan tashkiliy kamchiliklar,

[209] Muallif tomonidan tayyorlangan.
[210] Muallif tomonidan tayyorlangan.

ya’ni qonunchilik, kadrlar va infratuzilma yetishmasligidan iborat. Bu shuni anglatadiki, tizimning tabiiy ustunliklari mustahkam, ammo ularni ro‘yobga chiqarish uchun maqsadli institutsional ishlar talab etiladi.

Imkoniyatlar va tahdidlar tahlili esa tashqi muhitning ham qulay, ham xavfli jihatlarini ochib beradi. Bir tomondan, Fors ko‘rfazi kapitalini jalb etish, sukuk orqali xalqaro bozorga chiqish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish kabi katta imkoniyatlar mavjud; ikkinchi tomondan, xalqaro raqobat, geosiyosiy beqarorlik va standartlashtirish qiyinchiliklari jiddiy tahdid solib turadi. Strategik nuqtai nazardan eng oqilona yo‘l — kuchli ichki tomonlarni imkoniyatlardan foydalanish uchun safarbar etish hamda zaif tomonlarni bartaraf etib, tashqi tahdidlarga chidamli moslashuvchan tizim qurishdir.

Xulosa va takliflar:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, islomiy moliyalashtirish mexanizmlari zamonaviy bank tizimining muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Islom moliyasining murabaha, musharaka, mudaraba, ijara va sukuk kabi instrumentlari moliyaviy operatsiyalarni real aktivlar bilan bog‘lash, risklarni adolatli taqsimlash va iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Jahon amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, islomiy moliya institutlari nafaqat musulmon mamlakatlarda, balki rivojlangan davlatlarda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritib, investitsion resurslarni jalb etish va moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli O‘zbekiston bank tizimida ham ushbu mexanizmlarni joriy etish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo‘lishi mumkin.

Tahlillar natijasida O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirishni rivojlantirish uchun muayyan institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlar mavjudligi aniqlandi. Mamlakatda islom moliyasi xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotgani, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi hamda moliya bozorini diversifikatsiya qilish zarurati ushbu yo‘nalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Biroq islom moliyasini joriy etish jarayonida normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi, malakali mutaxassislar sonining kamligi, shariat nazorati institutlarining mavjud emasligi va aholining moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi muammolar mavjudligi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini bank amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratish va xalqaro islom kapital bozorlariga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, sukuk instrumentlari orqali uzoq muddatli investitsiya resurslarini jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sheriklik asosida moliyalashtirish hamda aholining bo‘sh mablag‘larini iqtisodiyotga safarbar etish imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish O‘zbekiston bank tizimining barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining bank va moliya qonunchiligiga islomiy moliyalashtirish faoliyatini tartibga soluvchi alohida normalarni kiritish hamda islomiy bank xizmatlarini ko‘rsatishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadga muvofiq. Bu islom moliyasi institutlari faoliyatining shaffofligi va huquqiy himoyasini ta’minlaydi.

2. Tijorat banklari huzurida islomiy moliyalashtirish “islomiy darcha” (Islamic Window)larini tashkil etish va dastlabki bosqichda murabaha, ijara hamda musharaka kabi eng talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni amaliyotga joriy etish zarur.

3. Islom moliyasi operatsiyalarining shariat talablariga muvofiqligini nazorat qiluvchi mustaqil Milliy shariat kengashini tashkil etish lozim. Ushbu kengash banklar faoliyatini muvofiqlashtirish va yagona standartlarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

4. Bank tizimi uchun islom moliyasi bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida oliy ta’lim muassasalarida maxsus ta’lim dasturlari va magistratura mutaxassisliklarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

5. Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro islom moliyasi institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali bank xodimlari uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etish hamda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish zarur.

6. Davlat va korporativ infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun sukuk obligatsiyalarini chiqarish mexanizmini yaratish hamda sukuk bozorini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish lozim.

7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida musharaka va mudaraba asosidagi sheriklik moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish tavsiya etiladi.

8. Aholining islom moliyasi bo‘yicha bilim va tushunchalarini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va ta’lim muassasalari orqali keng ko‘lamli moliyaviy savodxonlik dasturlarini amalga oshirish zarur.

9. Raqamli iqtisodiyot sharoitida islomiy fintech xizmatlarini rivojlantirish, jumladan, onlayn murabaha, kraudfanding va mobil bank xizmatlarini joriy etish orqali islom moliyasi mahsulotlarining ommabopligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

10. Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam monitoring qilish, xalqaro standartlar asosida statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ushbu sohaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baydaulet E.A. Islom moliya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. Yodgorova M.I., Hamdamov O. “O‘zbekistonda islom moliyaviy instrumentlaridan foydalanish orqali korporativ sektorni rivojlantirish istiqbollari”. Science and Education, 2022.
3. Eshimov A. “O‘zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar”. Green Economy and Development, 2024.
4. Ataniyazov J.H., Abdullayev I.A. “O‘zbekiston bank tizimiga islom moliyasi instrumentlarini joriy etish istiqbollari”. Yosh olimlar, 2025.
5. Usmon M., Rajabov H. “O‘zbekistonda islomiy banklar ochish, qonunchilik va kadrlar masalasi”. Kun.uz, 2023.
6. Chapra M.U. Islam and the Economic Challenge. Leicester: Islamic Foundation, 1992.
7. Usmani M.T. An Introduction to Islamic Finance. Karachi: Maktaba Ma’ariful Qur’an, 2002.
8. Mirakhor A., Iqbal Z. Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. Singapore: Wiley, 2011.
9. Iqbal Z., Mirakhor A. Islamic Finance and Banking. Singapore: Wiley, 2017.
10. Ahmed H. Product Development in Islamic Banks. Edinburgh University Press, 2011.
11. Kahf M. Islamic Economics: Principles and Analysis. Saudi Arabia, 2003.
12. Wilson R. Islamic Banking and Finance. London: Routledge, 2010.
13. Askari H., Iqbal Z., Krichene N., Mirakhor A. Risk Sharing in Finance. Singapore: Wiley, 2012.
14. Goncharenko L.I. Islamic Finance in Russia: Opportunities and Prospects. Moscow, 2018.
15. Vaxitov R.R. Islamic Banking Development in Russia. Kazan, 2019.
16. Eskindarov M.A. Financial Systems and Islamic Finance. Moscow: Finance University, 2020.
17. Baidaulet Y. Fundamentals of Islamic Finance and Banking. Almaty, 2019.
18. Abdikarimov G.B. Islamic Finance in Central Asia. Almaty, 2021.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

DAVLAT QARZI VA INFLYATSIYA O‘ZARO TA’SIRINING XALQARO TAJRIBASI

Narkuziyev Anvar Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti
E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4211-8548

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning xalqaro tajribasi nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida davlat qarzi dinamikasi hamda inflyatsion jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilib, fiskal va monetar siyosat uyg‘unligining makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri baholanadi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzining inflyatsiyaga ta’siri bevosita emas, balki byudjet taqchilligini moliyalashtirish usullari, qarzning monetizatsiya darajasi, markaziy bank mustaqilligi va institutsional sifat omillari orqali shakllanadi. Ayrim davlatlarda fiskal dominanta sharoitida qarzning ortishi inflyatsion bosimni kuchaytirgan bo‘lsa, boshqa mamlakatlarda qat’iy pul-kredit siyosati va samarali qarz boshqaruvi inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turishga imkon bergan.*

Kalit so‘zlar: *davlat qarzi, inflyatsiya, fiskal siyosat, monetar siyosat, fiskal dominanta, qarz barqarorligi, makroiqtisodiy barqarorlik, xalqaro tajriba.*

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДОЛГА И ИНФЛЯЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

Наркузиев Анвар Рустамович
независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета,
доцент кафедры “Экономическая теория” Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4211-8548

Аннотация. *В данной статье анализируется международный опыт взаимосвязи государственного долга и инфляции с теоретической и эмпирической точек зрения. В исследовании рассматривается динамика государственного долга и инфляционных процессов в развитых и развивающихся странах, а также оценивается роль согласованности фискальной и монетарной политики в обеспечении макроэкономической стабильности. Международная практика показывает, что влияние государственного долга на инфляцию не является автоматическим или линейным и зависит от способов финансирования бюджетного дефицита, степени монетизации долга, независимости центрального банка и институционального качества. В ряде стран фискальное доминирование и чрезмерный рост долга усиливали инфляционное давление, тогда как в других странах эффективное управление долгом и жесткая денежно-кредитная политика способствовали сдерживанию инфляции.*

Ключевые слова: *государственный долг, инфляция, фискальная политика, монетарная политика, фискальное доминирование, устойчивость долга,*

макроэкономическая стабильность, международный опыт.

STATE DEBT AND INFLATION INTERACTION INTERNATIONAL EXPERIENCE

Narkuziev Anvar Rustamovich
Independent researcher of
Tashkent State University of Economics
Associate professor of the department
“Theory of Economics” of
Tashkent State University of Economics
E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4211-8548

Abstract. This article analyzes the international experience of the interaction between public debt and inflation from both theoretical and empirical perspectives. The study examines the dynamics of public debt and inflationary processes in developed and developing countries, assessing the role of fiscal-monetary coordination in maintaining macroeconomic stability. International evidence suggests that the impact of public debt on inflation is not automatic or linear but depends on the method of deficit financing, the degree of debt monetization, central bank independence, and institutional quality. In some countries, fiscal dominance and excessive debt accumulation have intensified inflationary pressures, while in others, prudent debt management and credible monetary policy frameworks have helped contain inflation.

Keywords: Public debt, inflation, fiscal policy, monetary policy, fiscal dominance, debt sustainability, macroeconomic stability, international experience.

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik jahon makroiqtisodiy muhokamalarining markaziy mavzularidan biriga aylandi. Global inflyatsiya ham aynan shu davrda o‘zgaruvchan va keskin xarakter namoyon etdi. 2023-yilda jahondagi yillik inflyatsiya yuqori darajada saqlanib (dunyoda o‘rtacha yoki median ko‘rsatkich — taxminan 6–7% atrofida), 2024-yilda ta’minot zanjiri bosimlarining zaiflashuvi va monetar qat’iylashuv natijasida pasayish boshladi, 2025-yilda esa IMF va boshqa xalqaro tashkilotlar inflyatsiyaning davomiy susayishini qayd etmoqda (IMFning WEO prognozlariga ko‘ra global inflyatsiya 2023-yilda yuqori bo‘lib, 2024–2025 yillarda bosqichma-bosqich kamayishi kutilgan).

Biroq xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi munosabat oddiy chiziqli bog‘liqlik bilan izohlanmaydi. Masalan, yuqori davlat qarzi darajasiga ega bo‘lgan ba’zi rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya va boshq.) inflyatsiya uzoq muddat past darajada qolgan, chunki markaziy banklar mustaqil va pul-kredit siyosati ishonchli. Aksincha, rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan pastroq qarz darajasi bilan birga inflyatsiya yuqori bo‘lgan hollarga ham uchraydi — bu holat asosan fiskal intizom, valuta bozori barqarorligi va qarz moliyalashtirish mexanizmlarining farqliligiga bog‘liq. IMF va World Bank tahlillari davlat qarzi-inflyatsiya bog‘liqligi ko‘p omilli va institutsional kontekstga bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

So‘nggi uch yil (2023–2025) bo‘yicha qisqacha statistik ma’lumotlar (xulosa sifatida, xalqaro rasmiy manbalar bo‘yicha):

Davlat qarzi (general government gross debt, % YAIM): global hukumat qarzi darajalari (guruh-o‘rtacha) 2023–2024 yillarda yuqori darajada qoldi; 2024-yilda global jami qarz 235% atrofida (umumiy — public + private), davlatlar bo‘yicha hukumat qarzining YAIMga nisbati esa WEO ma’lumotlarida yuqori (regionlar bo‘yicha farqlar katta).

Inflyatsiya (headline CPI, y/y %): 2023 yilda global inflyatsiya yuqori bosqichda bo‘lib, jahondagi o‘rtacha/median daraja taxminan 6–7% bo‘ldi; 2024-yilda inflyatsiya pasayish tendensiyasiga o‘tdi (IMF WEO va World Bank ma’lumotlarida 2024 yilda global inflyatsiya 5–

6% oralig‘ida qayd etilgan), 2025 yilda esa davomli pasayish (IMF 2025 prognozi bo‘yicha 2025-yilda global inflyatsiya yana 4–5% atrofida) kuzatildi [1].

Mazkur tadqiqotda yuqoridagi statistik tendensiyalar asos qilib olindi va ustuvor e’tibor quyidagi savollarga qaratildi: davlat qarzining inflyatsiyaga ta’siri qaysi holatlarda kuchayadi; qarzning moliyalashtirish manbalari (ichki vs tashqi, monetizatsiya vs obligatsiyalar) qanday rol o‘ynaydi; hamda institutsional omillar (markaziy bank mustaqilligi, fiskal intizom va moliyaviy bozorlar rivojlanishi) o‘zgaruvchan natijalarni qanday modulyatsiya qiladi. Ushbu yondashuv nazariy konsepsiyalarni (monetar, keynsiy, fiskal-dominanta) global empirik ma’lumotlar bilan bog‘lab, siyosat tavsiyalariga yo‘naltirilgan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi makroiqtisodiyot fanida turli nazariy maktablar va olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu masalaga oid ilmiy qarashlar asosan monetar, keynsiy, neoklassik hamda zamonaviy fiskal-monetar yondashuvlar doirasida shakllangan.

Monetar maktab vakili Milton Friedman inflyatsiyani, avvalo, pul massasi o‘sishi bilan bog‘laydi va “inflyatsiya har doim va hamma joyda monetar hodisa” ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, agar davlat qarzi pul emissiyasi orqali moliyalashtirilsa, bu ortiqcha likvidlikni yuzaga keltirib, inflyatsion bosimni kuchaytiradi. Monetar yondashuv davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni asosan pul-kredit siyosati orqali tushuntiradi [2].

Keyns maktab asoschisi John Maynard Keyns esa davlat qarzini iqtisodiy sikllarni tartibga solish vositasi sifatida baholaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy pasayish davrida qarz hisobidan davlat xarajatlarini oshirish yalpi talabni rag‘batlantiradi va bandlikni tiklaydi. Biroq iqtisodiyot to‘liq bandlikka yaqinlashganda fiskal kengayish inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin. Demak, Keynsiy yondashuvda davlat qarzining inflyatsiyaga ta’siri iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda talqin qilinadi [3].

Neoklassik maktab vakili Robert J. Barro ilgari surgan Rikardo–Barro ekvivalentligi nazariyasiga ko‘ra, davlat qarzi orqali moliyalashtirilgan xarajatlar kelajakda soliqlar oshishi bilan qoplanadi. Ratsional kutilmalar sharoitida xususiy sektor jamg‘armalarni oshiradi va yalpi talab o‘zgarmaydi. Shu bois davlat qarzining inflyatsiyaga ta’siri neytral bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi [4].

Zamonaviy fiskal-monetar o‘zaro ta’sir nazariyasida Thomas J. Sargent va Neil Wallace tomonidan ishlab chiqilgan “fiskal dominanta” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, agar fiskal siyosat ustuvor bo‘lib, markaziy bank byudjet taqchilligini moliyalashtirishga majbur bo‘lsa, inflyatsiya kuchayishi mumkin. Bu yondashuv davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni institutsional omillar bilan izohlaydi.

Empirik tadqiqotlar ham ushbu masalani turli nuqtai nazardan o‘rganadi. Stanley Fischer, Ratna Sahay va Carlos A. Véghyuqori inflyatsiya tajribasini tahlil qilib, byudjet taqchilligining monetizatsiyasi va qarzning nazoratsiz o‘sishi inflyatsion spiralni kuchaytirishini asoslaydi [5].

Shuningdek, International Monetary Fund va World Bank tadqiqotlarida davlat qarzining barqarorligi iqtisodiy o‘sish sur’ati, foiz stavkalari, byudjet muvozanati va institutsional sifat bilan bog‘liq holda baholanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzi o‘zi inflyatsiyani keltirib chiqarmaydi, biroq uning moliyalashtirish mexanizmi va makroiqtisodiy siyosat uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega [6].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha yagona universal xulosa mavjud emasligini ko‘rsatadi. Ushbu bog‘liqlik mamlakatning institutsional rivojlanish darajasi, fiskal intizomi va monetar siyosat mustaqilligi bilan belgilanadigan murakkab va ko‘p omilli jarayon sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda jahon davlat qarzi dinamikasi va global inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi

o‘zaro bog‘liqlik xalqaro miqyosda nazariy va empirik yondashuv asosida tahlil qilindi.

Birinchidan, nazariy tahlil usuli orqali davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi munosabatni tushuntiruvchi monetar, keynsiy va fiskal dominanta konsepsiyalari tizimlashtirildi. Qarzning monetizatsiya qilinishi, fiskal intizom darajasi hamda markaziy bank mustaqilligi asosiy konseptual omillar sifatida ko‘rib chiqildi.

Ikkinchidan, empirik-statistik tahlil asosida 2023–2025-yillar bo‘yicha davlat qarzi (% YAIMga nisbatan) va inflyatsiya darajasi (%) ko‘rsatkichlari xalqaro ma’lumotlar bazalari — International Monetary Fund (WEO Database) hamda Organisation for Economic Co-operation and Development statistik ma’lumotlari asosida o‘rganildi. Ko‘rsatkichlar rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kesimida solishtirildi.

Uchinchidan, dinamik qiyosiy tahlil yordamida pandemiya davridagi fiskal kengayish, global inflyatsion shok va monetar qat’iylashuv bosqichlari o‘zaro bog‘liqlikda baholandi.

Natijada davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiziqli emasligi, balki institutsional sifat, fiskal siyosat xususiyatlari va monetar boshqaruv mexanizmlariga bog‘liq murakkab makroiqtisodiy jarayon ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlil va natijalar

Davlat qarzining oshishi bilan bir vaqtda global inflyatsiya ham o‘zgaruvchan xarakter kasb etdi. World Bank va Organisation for Economic Co-operation and Development statistikalariga ko‘ra, 2022-yilda OECD mamlakatlarida inflyatsiya 9–10 foiz darajaga chiqib, so‘nggi o‘n yillikdagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan birini qayd etdi. Rivojlanayotgan davlatlarda esa inflyatsiya ayrim hollarda 12–14 foizgacha yetdi. 2023-yilda qat’iy pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya pasayish tendensiyasini namoyon qildi.

Biroq xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasida avtomatik yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik mavjud emas. Masalan, Yaponiya kabi mamlakatlarda davlat qarzi YAIMga nisbatan 250 foizdan yuqori bo‘lishiga qaramay, inflyatsiya uzoq yillar davomida past darajada saqlanib kelgan. Aksincha, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda nisbatan past qarz darajasiga qaramay, monetar beqarorlik va fiskal nomutanosibliklar yuqori inflyatsiyani yuzaga keltirgan.

Bu holat davlat qarzi va inflyatsiya o‘zaro ta’sirining institutsional va siyosiy omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Agar byudjet taqchilligi qarz hisobidan moliyalashtirilib, keyinchalik monetizatsiya qilinsa, inflyatsion bosim kuchayishi mumkin. Aksincha, markaziy bank mustaqilligi va inflyatsion targetlash rejimi mavjud bo‘lgan mamlakatlarda davlat qarzining oshishi inflyatsiyani keskin tezlashtirmaydi.

Shuningdek, global inflyatsiya dinamikasida tashqi omillar energiya narxlari, logistika uzilishlari, geosiyosiy ziddiyatlar muhim rol o‘ynaydi. 2022-yildagi inflyatsion sakrash ko‘proq taklif tomoni shoklari bilan izohlanadi, bu esa davlat qarzining o‘zi inflyatsiyaning yagona sababi emasligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Jahon davlat qarzi dinamikasi (% YAIMga nisbatan) [7]

Yillar	Jahon o‘rtacha	Rivojlangan davlatlar	Rivojlanayotgan davlatlar
2023	93–95 %	110–112 %	65–70 %
2024	94–96 %	111–113 %	67–72 %
2025	95–97 %	112–114 %	68–73 %

Keltirilgan ma’lumotlar International Monetary Fundning World Economic Outlook (WEO) Database bazasiga asoslangan bo‘lib, 2023–2025-yillar davomida global davlat qarzining YAIMga nisbatan dinamikasini aks ettiradi. Umuman olganda, jahon davlat qarzi dinamikasi va global inflyatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabat murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, davlat qarzining inflyatsiyaga ta’siri uning hajmidan ko‘ra, moliyalashtirish mexanizmi, fiskal intizom darajasi, monetar siyosat mustaqilligi hamda

institutsional sifat bilan belgilanadi. Shu bois davlat qarzini boshqarishda makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli va uyg‘unligi barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi.

2023-yilda jahon davlat qarzi YAIMga nisbatan 93–95 foiz oralig‘ida shakllangan bo‘lsa, 2024–2025-yillarda bu ko‘rsatkichning 94–97 foizgacha bosqichma-bosqich oshishi prognoz qilinmoqda. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, pandemiyadan keyingi davrda davlat qarzi nisbatan barqarorlashgan bo‘lsa-da, uning qisqarish tendensiyasi aniq kuzatilmayapti.

Ilmiy nuqtai nazardan, bunday holat fiskal konsolidatsiya jarayonlarining sekin borayotgani, davlat xarajatlarining yuqori darajada saqlanib qolayotgani va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining yetarlicha tez bo‘lmaganligi bilan izohlanadi. Demak, qarz yukining pasayishi YAIM o‘sish sur’atlariga bevosita bog‘liq.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzi darajasi 2023-yilda 110–112 foiz bo‘lib, 2025-yilda 112–114 foizgacha oshishi kutilmoqda. Bu yuqori daraja quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Uzoq muddatli fiskal kengayish siyosati;
- Ijtimoiy majburiyatlar va qarz xizmatiga ketadigan xarajatlarning yuqoriligi;
- Demografik bosim (qarish jarayoni).

Shunga qaramay, rivojlangan davlatlarda moliya bozorlarining chuqurligi va past risk primasi tufayli yuqori qarz darajasi moliyaviy inqirozga avtomatik ravishda olib kelmaydi. Biroq foiz stavkalarining global oshishi sharoitida qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari ortib, fiskal barqarorlikka o‘rta muddatli xatar tug‘dirishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz darajasi 2023-yildagi 65–70 foizdan 2025-yilda 68–73 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu o‘sish nisbatan mo‘’tadil bo‘lsa-da, ushbu davlatlar uchun xatar darajasi yuqoriroq hisoblanadi, chunki:

- Tashqi qarz ulushi ko‘pincha yuqori;
- Valyuta kursi o‘zgaruvchanligi kuchli;
- Foiz stavkalari risk premiyasi sababli yuqoriroq.

Shu bois rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda qarz barqarorligi institutsional sifat, fiskal intizom va makroiqtisodiy boshqaruv samaradorligiga bevosita bog‘liq. Jadval dinamikasi davlat qarzining pandemiyadan keyingi davrda strukturaviy yuqori darajada saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu holat global iqtisodiyotda quyidagi tendensiyalarni yuzaga keltiradi. Foiz stavkalari oshishi sharoitida qarz xizmatiga ketadigan xarajatlarning ortishi. Fiskal siyosat imkoniyatlarining qisqarishi (fiskal makonning torayishi).

Shu bilan birga, qarz darajasining o‘sishi inflyatsiyaning avtomatik sababi emas. Agar qarz bozor mexanizmlari orqali moliyalashtirilsa va monetizatsiya qilinmasa, inflyatsion bosim cheklangan bo‘lishi mumkin. Ammo fiskal dominanta sharoitida qarzning monetar kengayish bilan qo‘llab-quvvatlanishi inflyatsion xatarni oshiradi.

2023–2025-yillar uchun prognoz dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, jahon davlat qarzi yuqori, lekin barqarorlashgan darajada saqlanmoqda. Qarzni qisqartirishning asosiy omili fiskal intizom va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tezlashuvi hisoblanadi. Aks holda, yuqori qarz yukining uzoq muddatli saqlanishi moliyaviy barqarorlikka va iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2-jadval.

Global inflyatsiya darajasi (%) [8]

Yillar	OECD mamlakatlari	Rivojlanayotgan davlatlar	Jahon o‘rtacha
2021	5,2 %	7,8 %	4,7 %
2022	9–10 %	12–14 %	8,7 %
2023	6–7 %	8–10 %	6,8 %
2024	5–6 %	7–9 %	5,9 %
2025	4–5 %	6–8 %	4,8–5,2 %

2021–2025-yillar davomida global inflyatsiya dinamikasi jahon iqtisodiyotida yuz bergan

keskin makroiqtisodiy o‘zgarishlarni yaqqol aks ettirdi. Organisation for Economic Co-operation and Development hamda International Monetary Fund ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda pandemiyadan keyingi talabning tiklanishi fonida inflyatsiya darajasi sezilarli oshishni boshladi. OECD mamlakatlarida inflyatsiya 5,2 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda esa 7,8 foizni tashkil etdi. Bu jarayon global iqtisodiyotda talab va taklif nomutanosibligining kuchayishi bilan bog‘liq edi. 2022-yilda inflyatsiya o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. OECD mamlakatlarida narxlar o‘sishi 9–10 foizgacha, rivojlanayotgan davlatlarda esa 12–14 foizgacha yetdi. Jahon o‘rtacha inflyatsiyasi 8,7 foizni tashkil etdi. Ushbu keskin sakrash energiya va oziq-ovqat narxlarining oshishi, ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar hamda geosiyosiy ziddiyatlar bilan izohlanadi. Shuningdek, pandemiya davrida amalga oshirilgan keng ko‘lamli fiskal va monetar rag‘batlantirish choralari inflyatsion bosimning kuchayishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatdi.

2023-yildan boshlab inflyatsiya pasayish tendensiyasini namoyon eta boshladi. OECD mamlakatlarida inflyatsiya 6–7 foizgacha, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 8–10 foiz oralig‘iga tushdi. Bu jarayon markaziy banklarning qat’iy pul-kredit siyosati, foiz stavkalarining oshirilishi va likvidlikning qisqartirilishi bilan bog‘liq. 2024-yilda inflyatsiya yanada pasayib, OECD mamlakatlarida 5–6 foiz, rivojlanayotgan davlatlarda 7–9 foiz darajasida shakllandi. 2025-yilda esa global inflyatsiyaning 4–5 foiz atrofida barqarorlashishi prognoz qilinmoqda.

Mazkur davr tahlili shuni ko‘rsatadiki, global inflyatsiya jarayonlari siklik va ko‘p omilli xarakterga ega. Rivojlanayotgan davlatlar inflyatsiyaga nisbatan yuqoriroq sezgirlik namoyon etadi, bu esa valyuta kursi beqarorligi va importga qaramlik bilan izohlanadi. Rivojlangan davlatlarda esa institutsional barqarorlik va markaziy bank mustaqilligi inflyatsiyani nisbatan tezroq jilovlash imkonini bergan.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar inflyatsiya dinamikasi global iqtisodiyotda shoklar va monetar siyosat o‘zaro ta’sirining yorqin namunasidir. Inflyatsiya jarayonlari davlat qarzi dinamikasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, biroq ularning o‘zaro ta’siri to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas. Asosiy rolni fiskal intizom, monetar siyosat qat’iyligi va tashqi iqtisodiy omillar o‘ynaydi. Shu bois narxlar barqarorligini ta’minlash uchun kompleks va muvozanatli makroiqtisodiy yondashuv zarur hisoblanadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda jahon davlat qarzi dinamikasi va global inflyatsiya darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik xalqaro tajriba asosida nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilindi. 2018–2023-yillar ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, davlat qarzi hajmi, ayniqsa 2020-yildagi pandemiya davrida, keskin oshgan bo‘lsa-da, inflyatsiya jarayonlari barcha mamlakatlarda bir xil ssenariy asosida shakllanmagan. Bu holat davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasida avtomatik yoki chiziqli bog‘liqlik mavjud emasligini tasdiqlaydi.

Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzining inflyatsiyaga ta’siri uning mutlaq hajmiga emas, balki moliyalashtirish mexanizmi va institutsional muhitga bog‘liq. Rivojlangan davlatlarda yuqori qarz darajasiga qaramay, markaziy bank mustaqilligi va qat’iy pul-kredit siyosati inflyatsion bosimni nazorat ostida ushlab turishga imkon bergan. Aksincha, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda fiskal nomutanosibliklar, valyuta kursi beqarorligi va qarzning monetizatsiya qilinishi inflyatsiyani tezlashtirgan.

2022-yildagi global inflyatsion sakrash asosan taklif tomoni shoklari energiya va oziq-ovqat narxlarining oshishi, logistika uzilishlari va geosiyosiy omillar bilan izohlanadi. Bu esa davlat qarzining o‘zi inflyatsiyaning yagona yoki asosiy sababi emasligini ko‘rsatadi. 2023-yilda esa monetar siyosatning qat’iylashuvi inflyatsiya darajasining pasayishiga xizmat qilgan.

Umuman olganda, davlat qarzi va inflyatsiya o‘rtasidagi munosabat murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega bo‘lib, fiskal siyosat sifati, markaziy bank mustaqilligi, moliya bozorlarining rivojlanganligi hamda institutsional barqarorlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun davlat qarzini boshqarishda muvozanatli fiskal strategiya, samarali qarz boshqaruvi va mustaqil monetar siyosat uyg‘unligini ta’minlash barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti hisoblanadi.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://digitallibrary.un.org/record/4065012?ln=en&utm_source=chatgpt.com&v=pdf
2. Friedman, M. (1968). *The Role of Monetary Policy.* American Economic Review, 58(1), 17.JSTOR: https://www.jstor.org/stable/1831652
3. Keynes, J.M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory
4. Barro, R.J. (1974). Are Government Bonds Net Wealth? Journal of Political Economy, 82(6), 1095–1117. https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/260266
5. Sargent, T., & Wallace, N. (1981). *Some Unpleasant Monetarist Arithmetic.*Federal Reserve Bank of Minneapolis Quarterly Review. https://www.minneapolisfed.org/research/qr/qr531.pdf
6. World Bank (2022). *International Debt Report.* https://www.worldbank.org/en/programs/debt-statistics
7. World Economic Outlook (WEO) Database https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database
8. OECD Inflation Data. https://data.oecd.org/price/inflation-cpi.htm

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

ISLOM MOLIYASI RIVOJLANISHI SHAROITIDA RISKLARNI BOSHQARISH HAMDA MAKROIQTISODIY DIVIDENDLARINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Sattorov Ixtiyor Ochilovich
O‘zbekiston Respublikasi
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash
Oliy maktabi xodimi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
E-mail: jackjunior080@gmail.com

Karimov Shohruh Yo‘ldoshali o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi
Strategik tahlil va istiqbolni belgilash
Oliy maktab tinglovchisi
E-mail: bbek55983@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom moliya institutlaridagi risklar va ularni boshqarish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, islom moliyasi orqali makroiqtisodiy dividendlarni oshirish yo‘nalishlari muhokama qilinib, tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *islom moliyasi, risk menejmenti, shariat riski, sukuk (qimmatli qog‘oz), takaful (islomiy sug‘urta), IFSB, AAOIFI.*

DIRECTIONS FOR RISK MANAGEMENT AND INCREASING MACROECONOMIC DIVIDENDS IN THE CONTEXT OF ISLAMIC FINANCE DEVELOPMENT

Sattorov Ikhtiyor Ochilovich
Employee of
the Higher School of Strategic Analysis and
Forecasting of the Republic of Uzbekistan,
doctor of economic sciences, associate professor
E-mail: jackjunior080@gmail.com

Karimov Shokhrukh Yuldoshali ugli
Student of the Higher School of
Strategic Analysis and
Forecasting of the Republic of Uzbekistan
E-mail: bbek55983@gmail.com

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of risks within Islamic financial institutions and their management mechanisms. Directions for increasing macroeconomic dividends through Islamic finance were also discussed, and recommendations were developed.*

Keywords: *Islamic finance, risk management, Shariah compliance risk, sukuk (securities), takaful (islamic insurance), IFSB, AAOIFI.*

НАПРАВЛЕНИЯ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ И УВЕЛИЧЕНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ДИВИДЕНДОВ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ

Сатторов Ихтиёр Очилович
Сотрудник Высшей школы стратегического анализа и прогнозирования

Республики Узбекистан,
доктор экономических наук, доцент
E-mail: jackjunior080@gmail.com

Каримов Шохрух Йулдошали угли
Слушатель Высшей школы стратегического анализа и прогнозирования Республики Узбекистан
E-mail: bbek55983@gmail.com

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются риски в исламских финансовых институтах и механизмы их управления. Также обсуждались направления повышения макроэкономических дивидендов через исламские финансы и разрабатывались рекомендации.*

Ключевые слова: *исламские финансы, управление рисками, риск шариатского соответствия, сукук (ценные бумаги), такафул (исламское страхование), IFSB, AAOIFI.*

Kirish

O‘zbekistonda islom moliyasining rivojlanishi milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish va investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish orqali muhim makroiqtisodiy dividendlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, islom moliyasi institutlarining rivojlanishi moliya bozorida raqobat muhitini kuchaytirib, moliyaviy xizmatlar diversifikatsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Islom moliya instrumentlari real iqtisodiyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, ular ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy moliyaviy tizimda risklarni boshqarish iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning ajralmas elementi hisoblanadi. Moliyaviy tashkilotlar, tijorat banklari, investitsiya va sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatini rejalashtirish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonida turli darajadagi moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash, baholash hamda ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga alohida e’tibor qaratadilar. Ayniqsa, bozor sharoitlarining tez o‘zgarishi, foiz stavkalari va valyuta kurslaridagi tebranishlar, kredit majburiyatlarining bajarilmasligi hamda likvidlik bilan bog‘liq muammolar risklarni samarali boshqarish tizimini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois moliyaviy institutlar risklarni muntazam monitoring qilish, ularni diversifikatsiya qilish va zamonaviy baholash usullaridan foydalanish orqali o‘z faoliyatining barqarorligi va ishonchliligini ta’minlashga intiladilar.

Riskni boshqarish tushunchasi faqatgina yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar ehtimolini kamaytirish bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy munosabatlarda ishonch va barqarorlikni mustahkamlash, mavjud moliyaviy hamda moddiy resurslardan oqilona, halol va samarali foydalanishni ta’minlash, shuningdek, manfaatdor tomonlar o‘rtasida mas’uliyatli sheriklik munosabatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Samarali risk boshqaruvi tashkilot faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonida ehtimoliy xavflarni oldindan baholash hamda ularning salbiy ta’sirini minimallashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan risklarni boshqarish nafaqat moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish vositasi, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik, manfaatlar muvozanati va o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni ta’minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Islomiy moliyalashtirishda risklar va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirining nazariy asoslari hamda amaliy qo‘llanilishini R.A.Abdel Karim, M.K.Hassan, Z.Iqbal Z. va A.Mirakhor, M.Ayub, Md. Shafiqul, J.Islam Shaown va Y. Sultana hamda Y.A.Baydaulet kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan[1]. Xususan, R.A.Abdel Karim audit va moliyaviy hisobot tizimi, islomiy banklar uchun shariat standartlari, risk va likvidlik boshqaruvi, M.K.Hassan islomiy bank instrumentlarining iqtisodiy o‘sish, investitsiya oqimlari va barqarorlikka ta’sirini o‘rgangan


bo‘lsa, Z.Iqbal va A.Mirakhor esa, islom moliyasini iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlovchi muqobil moliyaviy model sifatida talqin qilgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik ma’lumotlar tahlili usullaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, me’yoriy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Islom moliyasida ham boshqa sohalarda bo‘lgani kabi risklarning turli ko‘rinishlari mavjud. Jumladan, 1-rasmdagi grafik islom moliya tizimida uchraydigan asosiy risklarning nisbiy ulushini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, eng yuqori ulush shariat riskiga to‘g‘ri kelib, bu islom moliya institutlari faoliyatida shariat talablariga muvofiqlik masalasi muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, kredit riski va likvidlik riski moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy risk turlaridan hisoblanadi. Bozor riski hamda operatsion risk esa nisbatan past ulushga ega bo‘lsa-da, moliya operatsiyalarining samaradorligi va boshqaruv tizimiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar sifatida baholanadi.



1-rasm. Islom moliyasidagi asosiy risklar[211]

Jumladan, islomiy moliyada yuqorida darajada turuvchi risk turlaridan biri bu, **shariatga muvofiqlik riski** *(Shariah compliance risk)* moliyaviy operatsiyalar, mahsulotlar yoki shartnomalarning shariat tamoyillariga to‘liq mos kelmasligi ehtimolini anglatadi. Ushbu risk, odatda, moliyaviy institut faoliyatida shariat talablariga zid elementlar bilan bog‘liq operatsiyalar yuzaga kelganda paydo bo‘ladi. Shariatga muvofiqlik riski nafaqat moliyaviy yo‘qotishlarga, balki institutning reputatsion barqarorligi va mijozlar ishonchiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli islomiy moliya institutlarida ushbu riskni boshqarish uchun shariat kengashlari, shariat auditi va komplayns mexanizmlari joriy etiladi. Islomiy moliya institutilari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI–Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) va Islomiy moliyaviy xizmatlar kengashi (IFSB–Islamic Financial Services Board)

[211] Tahliliy ma’lumotlar asosidagi mualliflar ishlanmasi.

kabi xalqaro standartlar shariatga muvofiqlik nazoratini institutsional darajada tartibga solish orqali ushbu riskni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliyaviy risklardan biri, **kredit riski** moliyalashtirish shartnomasi bo‘yicha qarz oluvchi yoki kontragent o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmasligi ehtimolini anglatib, murabaha, musharaka, muzoraba va ijara kabi islomiy moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda yuzaga kelishi mumkin. Kredit riski natijasida moliya institutlari kutilgan daromadni ololmasligi yoki moliyaviy yo‘qotishlarga duch kelishi ehtimoli mavjud. Islom moliyasida ushbu riskni boshqarish uchun kontragentlarning kreditga layoqatliligini baholash, aktiv bilan ta’minlangan moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish hamda shartnomaviy nazorat choralarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, prudensial tartibga solish doirasida IFSB standartlari kredit riskini baholash va monitoring qilish bo‘yicha metodologik yondashuvlarni belgilaydi. Natijada samarali kredit riskini boshqarish tizimi islomiy moliya institutlarining moliyaviy barqarorligi va risklarga chidamliligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, **likvidlik riski**, moliya institutining o‘z vaqtida moliyaviy majburiyatlarini bajarish uchun yetarli darajada likvid mablag‘larga ega bo‘lmaslik ehtimolini anglatadi. Ushbu risk islomiy moliya institutlari uchun shariat tamoyillari sababli foiz asosidagi an’anaviy likvidlik instrumentlaridan foydalanish imkoniyati cheklanganligi bilan izohlanadi. Bu esa, qisqa muddatli likvid aktivlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi likvidlik boshqaruvini murakkablashtiradi. Shu sababli likvidlik riskini kamaytirish maqsadida islomiy moliya institutlarida sukuk instrumentlari, shariatga mos pul bozori mexanizmlari hamda prudensial likvidlik standartlari keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, **operatsion risk** – bu ichki tizimdagi xatoliklar, noto‘g‘ri boshqaruv, axborot texnologiyalaridagi muammolar bilan bog‘liq xavf bo‘lib, u ham islomiy moliya institutlari uchun muhim hisoblanadi.

Muzoraba va musharaka islom moliyasidagi eng muhim risk taqsimlovchi instrumentlar hisoblanadi. Jumladan, muzorabada shartnomalarida bir tomon kapital qo‘yadi, ikkinchi tomon esa o‘z mehnati va bilimi bilan qatnashadi. Shartnomaga ko‘ra, foyda aniq nisbatda taqsimlanadi, zarar esa faqat kapital egasi zimmasida bo‘ladi. Bu modelda risk bir tomonning o‘zida emas, balki har ikkala tomon manfaatini muvozanatga keltiruvchi shartnomaga asoslanadi. Musharakada esa ikki tomon ham kapital qo‘shib, foyda va zarar ularning ulushiga qarab taqsimlanadi. Yuqoridagi mexanizmlar islom moliyasining ***“riskni yakkalash emas, taqsimlash”*** tamoyiliga to‘liq tushadi.

Bulardan tashqari, murobaha instrumenti esa tovar oldi – sotdisi orqali moliyalashtirish shakli bo‘lib, unda moliyaviy tashkilot tovarni xarid qilib, mijozga ustama bilan sotadi. Ushbu shartnoma turida risk ko‘p hollarda tovar egasiga, ya’ni moliyaviy tashkilotga tegishli bo‘ladi, chunki u tovarning vaqtinchalik egasiga aylanadi. Bu jarayon shartnomaga asoslanadi, shuning uchun murabaha riskni to‘liq bartaraf etmaydi, ammo uni nazorat ostiga olish imkonini beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, oldindan belgilangan to‘lov shartlari hamda aniq narxlar moliyaviy yo‘qotish xavfini kamaytiradi. Ijara instrumentida esa moliyaviy tashkilot aktivning egasi bo‘lib qoladi, mijoz esa undan muayyan to‘lov evaziga foydalanadi. Bu shartnoma turida mulkka egalik va undan foydalanish huquqi ajratilib, iqtisodiy va yuridik mas’uliyatlar balansda turgan holatda risklar taqsimlanadi. Misol uchun, aktivda yuzaga kelgan nosozlik uchun javobgarlik moliyaviy tashkilot zimmasida qolib, bitim muddati tugagach, aktiv mijozga o‘tkazilishi mumkin, bu holatda ham moliyaviy risk huquqiy mexanizmlar bilan boshqariladi.


Sukuk–islomiy obligatsiyalar, qimmatli qog‘ozlar ya’ni islom moliyasining eng dinamik instrumentlaridan biri hisoblanadi. Sukukda investorlar haqiqiy aktivlarga ulushli egalik qilish orqali foyda olishadi. Sukuk orqali to‘plangan mablag‘lar aniq bir loyiha, xizmat yoki mulk bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu esa investorlar uchun riskni aniq ko‘rinishda baholash imkonini beradi. Shuningdek, sukuk investitsiya riskini bir necha investor o‘rtasida taqsimlashga xizmat qiladigan vosita bo‘lib, yirik infratuzilma loyihalarini shariatga mos ravishda moliyalashtirish imkonini beradi.

Takaful turida ishtirokchilar o‘zaro yordam va xayriya asosida jamg‘arma yaratib, zarur paytda shu fond hisobidan biri-biriga yordam ko‘rsatadilar. Takafulda moliyaviy tashkilot foyda

olish bilan birgalikda, ishtirokchilar manfaatini himoya qiluvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlab, riskni insoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda boshqarish imkonini beradi.

Yuqoridagi ko‘rib chiqilgan moliyaviy risklar va ularga islom moliyasida qo‘llaniladigan amaliy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, muzoraba, musharaka, takaful va sukuk kabi vositalar orqali risklar nafaqat minimallashtiriladi, balki shariatga muvofiq tarzda adolatli taqsimlanadi.

Islomiy moliya kirib kelayotgan mamlakatlarda sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldini olishda xalqaro standartlar, jumladan, Banklar uchun xalqaro regulyativ tizim (Basel III–International Regulatory Framework for Banks), IFSB va AAOIFI standartlarining uyg‘un integratsiyasi moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.



2-rasm. Xalqaro standartlar integratsiya modeli[212]


Yuqoridagi grafik Basel III, IFSB va AAOIFI standartlarining integratsiyasi moliyaviy barqarorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishini tasvirlaydi. Grafikda gorizontal o‘qda standartlar integratsiyasi darajasi**,** vertikal o‘qda esa moliyaviy barqarorlik indeksi ifodalangan. Egri chiziq S-shaklli (logistik) o‘sish ko‘rinishida bo‘lib, bu integratsiya jarayoni dastlab sekin, keyinchalik tezlashib, so‘ngra barqarorlashishini ko‘rsatadi.

Grafik tahliliga ko‘ra, integratsiya darajasi boshlang‘ich bosqichlarda past bo‘lganida moliyaviy barqarorlik indeksining o‘sishi ham nisbatan sekin kechadi. Biroq standartlar o‘rtasidagi muvofiqlik kuchayib borgani sari moliyaviy tizim barqarorligi sezilarli darajada oshadi. Ayniqsa, 5–7 daraja oralig‘ida integratsiya samaradorligi keskin ortib, moliyaviy barqarorlik indeksining tez o‘sishi kuzatiladi. Bu holat prudensial nazorat, shariat muvofiqligi va risk boshqaruvi standartlarining uyg‘unlashuvi tizim samaradorligini kuchaytirishini anglatadi.

Shuningdek, grafikning yuqori qismida egri chiziqning tekislanishi standartlar integratsiyasi ma’lum darajaga yetgandan so‘ng chegaraviy samaradorlik (diminishing returns) yuzaga kelishini bildiradi. Ya’ni integratsiya yanada chuqurlashsa ham moliyaviy barqarorlik

[212] Mualliflar ishlanmasi.

o‘sishi nisbatan sekinlashadi.



3-rasm. Islom moliyasida risk menejmenti modeli[213]

Mazkur grafikdan kelib chiqib aytish mumkinki, Basel III, IFSB va AAOIFI standartlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash islom moliya tizimining institutsional barqarorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa integratsiyaning o‘rta bosqichida moliyaviy tizim samaradorligi eng yuqori sur’atda ortadi. Shu sababli prudensial nazorat standartlari va shariatga muvofiqlik mexanizmlarini uyg‘unlashtirish islom moliya sektorining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Risklarni boshqarish samaradorligi institutsional rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shariat nazorati, regulyativ mexanizmlar, ichki audit tizimi va raqamli monitoring vositalari risklarni kamaytirishda asosiy determinantlar hisoblanadi.

1-jadval


Risklarni kamaytirish ustuvor yo‘nalishlari[214]

№	Yo‘nalish	Ustuvorlik (%)
1.	Shariat audit tizimi	30
2.	Likvidlik instrumentlari	25
3.	Markaziy bank regulyatsiyasi	20
4.	Raqamli monitoring	15
5.	Kadrlar tayyorlash	10

Basel III – IFSB – AAOIFI sinteziga asoslangan integratsion model islom moliyasi institutlarida risklarni boshqarishni uchta xalqaro standartning uyg‘un kombinatsiyasi orqali tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur modelda **Basel III** kapital yetarliligi, likvidlik va makroprudensial barqarorlikni ta’minlovchi asos sifatida qo‘llaniladi. **IFSB standartlari** esa islom moliyasiga xos risklarni baholash imkonini beradi. **AAOIFI talablari** shariat muvofiqligi, audit va boshqaruv mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlaydi. Shu tariqa model moliyaviy barqarorlik, islomiy risk spesifikatsiyasi va diniy legitimlik o‘rtasida muvozanatni

[213] Mualliflar ishlanmasi.
[214] Tahliliy ma’lumotlar asosidagi mualliflar ishlanmasi.

ta’minlaydi. Natijada islom moliyasi tizimi nafaqat prudensial jihatdan barqaror, balki shariat talablariga to‘liq mos va institutsional jihatdan ishonchli modelga ega bo‘ladi.



4-rasm. Islom moliyasida risklarni boshqarish jarayoni[215]

Mazkur model islom moliyasida risklarni boshqarish jarayonining institutsional ketma-ketligini ifodalaydi. Modelga ko‘ra, shariat tamoyillariga muvofiqlik moliyaviy operatsiyalarning asosiy me’yoriy bazasi hisoblanadi. Ushbu talablar asosida risk menejment tizimi shakllanib, kredit, likvidlik va bozor risklari boshqariladi. Mazkur risklarni samarali nazorat qilish moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlaydi. Natijada moliya institutlarining barqarorligi ta’minlanib, umumiy moliyaviy tizimning barqaror faoliyati yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan xolda, islom moliyasi bilan bog‘liq risklarni minimallashtirish hamda makroiqtisodiy dividendlarni oshirishda quyidagilar ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi:

Birinchidan, islomiy risk menejmentiga oid milliy standartlar va metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqilishi hamda har bir moliyaviy tashkilot uchun shariatga muvofiq risk tahlili, monitoringi va nazorati bo‘yicha aniq mezonlar belgilash.

Ikkinchidan, risklarni boshqarish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar va shariat maslahatchilari tayyorlanishi hamda moliyaviy o‘quv markazlarida islom moliyasida risk menejmenti bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va diniy-ma’rifiy tashkilotlar bilan hamkorlikda aholining va tadbirkorlarning islomiy moliyaviy mahsulotlar hamda ularning xavfsizlik mexanizmlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish.

To‘rtinchidan, islomiy moliyalashtirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ya’ni onlayn platformalar, mobil ilovalar va elektron monitoring tizimlari orqali bitimlarni shaffof yuritish, riskni tezkor aniqlash va baholash imkoniyatini kengaytirish.

Beshinchidan, takaful tizimini samarali yo‘lga qo‘yish orqali moliyaviy xavfsizlikni oshirish va risklarni ishtirokchilar o‘rtasida adolatli taqsimlashni imkoniyatini oshirish.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish jarayonida risklarni samarali boshqarish tizimini shakllantirish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning hamda makroiqtisodiy dividendlarni oshirishning muhim

[215] Mualliflar ishlanmasi.

shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda ushbu sohani institutsional va normativ-huquqiy jihatdan mukammal ishlab chiqish orqali shariatga muvofiq moliyaviy instrumentlar faoliyatini samarali tartibga solish imkoniyati kengayadi. Xususan, xalqaro standartlar asosida prudensial nazorat mexanizmlarini joriy etish, risk-menejment tizimini takomillashtirish hamda shariat nazorati institutlarini rivojlantirish islom moliya institutlarining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliya bozorida sukuk, takaful va boshqa islomiy moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish risklarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini oshiradi. Bu jarayon milliy moliya tizimining raqobatbardoshligini kuchaytirish, investitsiya oqimini kengaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rifaat Ahmed Abdel Karim. “Islamic finance” // https://l1nq.com/l05hnoz.
2. Mohammad Kabir Hassan. “Handbook of Islamic banking” // https://sl1nk.com/udwqqt5 va https://l1nk.dev/4dcama3.
3. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. “*An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*.” W.:2011-406p.
4. Ayub, M. “*Understanding Islamic Finance*” John Wiley & Sons. UK.:2007-30p.
5. Md. Shafiqul Islam. “Problems of Islamic Banking: Bangladesh Perspective” // “Journal of Emerging Technologies and Innovative Research (JETIR)”.-№ Volume 11, Issue 3.March.2025. 224-235p.
6. Jubairul Islam Shaown & Yesmin Sultana. “Islamic Banking in Bangladesh: Challenges and Prospects” // “AIUB Journal of Business and Economics”.Volume 14, Number 1, Nov 2017. 153-174p.
7. 7. E.A.Baydaulet Islomiy moliyalar va bank tizimi. Tarjimon: Botirxo‘ja Jo‘raev. – T.: O‘zbekiston, 2014. – 464 b.
8. Islom iqtisodiy modeli va zamon Matn / R.I.Bekkin – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 360 b.
9. Iqbal Z., Mirakhor A. *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*.” W.:2011-406p.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MARKAZIY BANKNING MUSTAQILLIGI VA KOMMUNIKATSIYA SIYOSATI: MILLIY VALYUTA BARQARORLIGINI TA’MINLASH BO’YICHA NAZARIY KONSEPSIYALAR

G‘afurov Olimjon G‘olib o’g’li
Toshkent davlat agrar universiteti
Agroiqtisodiyot kafedrasi
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:olimjon.gafurov.95@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9255-2092

Annotatsiya: *Markaziy bank mustaqilligi va kommunikatsiya siyosatining milliy valyuta barqarorligiga ta’sirini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki keyingi o’rinlarda Markaziy bank misolida mustaqillik darajasi, kommunikatsiya mexanizmlari va so’m barqarorligi o’rtasidagi bog’liqlikning konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat. Metodologiya sifatida sistemali tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, korrelyatsion va regressiya modellari, shuningdek, markaziy bank mustaqilligi indekslarini baholash usullaridan foydalanilgan. 2017-2026-yillar davomida O’zbekistonda pul-kredit siyosatida institutsional islohotlar amalga oshirilgan, inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o’tilgan va markaziy bank kommunikatsiyasi sezilarli darajada takomillashtirilgan. 2022-yilda inflyatsiya 12,3 foizga yetgan bo’lsa, Markaziy bankning izchil siyosati natijasida 2025 -yil boshida bu ko’rsatkich 9,8 foizga tushirilgan va 2025-yil mart oyida asosiy stavka 14 foiz darajasiga ko’tarilgan.*

Kalit so’zlar: *markaziy bank mustaqilligi, kommunikatsiya siyosati, pul-kredit siyosati, inflyatsion targetlash, valyuta kursi, monetar siyosat, markaziy bank ishonchliligi, forward guidance, milliy valyuta, institutsional mustaqillik, narxlar barqarorligi, makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsion kutilmalar.*

НЕЗАВИСИМОСТЬ ЦЕНТРАЛЬНОГО БАНКА И КОММУНИКАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ВАЛЮТЫ

Гафуров Олимжон Голиб угли
Ташкентский государственный
аграрный университет
Кафедра агроэкономики
доктор философии (PhD) по экономическим наукам
E-mail:olimjon.gafurov.95@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9255-2092

Аннотация: *Целью исследования является теоретический и эмпирический анализ влияния независимости центрального банка и коммуникационной политики на стабильность национальной валюты. Основная задача исследования – разработка концептуальной модели взаимосвязи между уровнем независимости, механизмами коммуникации и стабильностью сомона на примере Центрального банка Республики Узбекистан. Использованная методология включает систематический анализ, сравнительный анализ, анализ динамических рядов, корреляционные и регрессионные модели, а также методы оценки индексов независимости центрального банка. В период 2017-2026 годов в Узбекистане были проведены институциональные реформы в денежно-кредитной политике, осуществлен постепенный переход к режиму таргетирования инфляции, а также значительно улучшена коммуникация центрального банка. Инфляция достигла 12,3% в 2022 году, но в результате последовательной политики Центрального*

банка этот показатель снизился до 9,8% к началу 2025 года, а ключевая ставка была повышена до 14% в марте 2025 года.

Ключевые слова: *независимость центрального банка, коммуникационная политика, денежно-кредитная политика, таргетирование инфляции, обменный курс, денежно-кредитная политика, доверие к центральному банку, прогнозирование будущих событий, национальная валюта, институциональная независимость, ценовая стабильность, макроэкономическая стабильность, инфляционные ожидания.*

CENTRAL BANK INDEPENDENCE AND COMMUNICATION POLICY: THEORETICAL CONCEPTS FOR ENSURING THE STABILITY OF THE NATIONAL CURRENCY

Gafurov Olimjon Golib ugli
Tashkent State Agrarian University
Department of Agroeconomics
doctor of philosophy (PhD) in economic sciences
E-mail:olimjon.gafurov.95@mail.ru
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-9255-2092

Abstract: *It aims to theoretically and empirically analyze the impact of the Central Bank's independence and communication policy on the stability of the national currency. The main goal of the study is to develop a conceptual model of the relationship between the level of independence of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, communication mechanisms, and the stability of the soum using the example of the Central Bank. The methodology utilizes methods of systems analysis, comparative analysis, dynamic series analysis, correlation and regression models, as well as the assessment of central bank independence indices. During 2017-2026, Uzbekistan implemented institutional reforms in monetary policy, a gradual transition to an inflation targeting regime, and significantly improved central bank communications. Inflation reached 12.3% in 2022, but as a result of the Central Bank's consistent policy, this indicator decreased to 9.8% by the beginning of 2025, and the key rate was raised to 14% in March 2025.*

Keywords: *central bank independence, communication policy, monetary policy, inflation targeting, exchange rate, monetary policy, trust in the central bank, forecasting future events, national currency, institutional independence, price stability, macroeconomic stability, inflationary expectations.*

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida markaziy banklarning institutsional mustaqilligi va samarali kommunikatsiya siyosati narxlar barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biriga aylangan. Jahon moliyaviy inqirozi 2008-2009, COVID-19 pandemiyasi 2020-2021 va keyingi global inflyatsiya to’lqini 2021-2023 shuni ko’rsatdiki, markaziy bank mustaqilligi shunchaki akademik g’oya emas, balki iqtisodiy barqarorlikning muhim institutsional kafolati hisoblanadi. Global miqyosda so’nggi o’n -yil ichida markaziy bank kommunikatsiyasi sifat jihatidan o’zgarib, sukut siyosati’dan ochiqlik va shaffoflikka asoslangan faol kommunikatsiya modeliga o’tish yuz berdi. Federal Reserve, Yevropa Markaziy Banki YeMB, Bank of England va rivojlanayotgan davlatlar markaziy banklari forward guidance, inflyatsiya hisobotlari, matbuot anjumanlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali bozor ishtirokchilarining inflyatsion kutilmalarini boshqarish strategiyasini joriy etdi. O’zbekiston iqtisodiyoti uchun ushbu masalalar alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2017-yilda boshlangan iqtisodiy islohotlar doirasida Markaziy bankga yangi vakolat va mustaqillik berildi, inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma bosqich o’tildi, valyuta kursi erkinlashtirildi hamda kommunikatsiya siyosati tubdan yangilandi. Biroq so’mning barqarorligi, inflyatsion kutilmalarni boshqarish va bozor ishtirokchilari bilan muloqotning samaradorligi hali chuqur tadqiqotni talab etadi[1].

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Adabiyotlar tahlili

Markaziy bank mustaqilligi nazariyasining asoschilaridan biri Kenneth Rogoff 1985 bo’lib, u ‘konservativ markaziy bankchi’ modelini taklif qildi. Rogoff 1985, 2021 ta’kidlashicha, inflyatsiyaga nisbatan murosasiz markaziy bank rahbariyatiga siyosiy bosimdan mustaqil holda faoliyat yuritish imkoniyatini berish vaqt noto’g’ri ketishlilik muammosini hal qiladi va inflyatsiya bias’ini kamaytiradi. So’nggi tadqiqotlarda Rogoff va hamkasblari Afrouzi, Halac, Rogoff & Yared, 2024 markaziy banklarga tobora ortib borayotgan siyosiy bosim muammosini tahlil qilib, mustaqillikning zamonaviy tahdidlari haqida yangi kontseptual yondashuvlarni ilgari surdi[2].

Alan Blinder 2000 markaziy bank ishonchliligining shakllanish mexanizmlarini o’rgandi. Uning tadqiqotlariga ko’ra, ishonchlilik inflyatsiya maqsadiga sodiqlik, kommunikatsiya shaffofligi va siyosat izchilligi orqali qo’lga kiritiladi. Blinder va boshqalar 2008 markaziy bank kommunikatsiyasi va pul-kredit siyosati o’rtasidagi bog’liqlikni keng ko’lamli empirik tadqiqot asosida o’rgangan va kommunikatsiya nafaqat ma’lumot uzatish, balki bozor kutilmalarini yo’naltirish vositasi ekanligini isbotladi[3].

Michael Woodford 2001, 2005 o’zining zamonaviy monetar nazariysi asarlarida kommunikatsiya siyosatini pul-kredit transmissiyasining mustaqil va muhim kanali sifatida nazariy jihatdan asoslab berdi. Woodford ta’kidlashicha, markaziy bankning kelgusidagi yo’nalishi haqidagi ishonchli kommunikatsiya uzoq muddatli foiz stavkalarini boshqarishning eng samarali usuli bo’lib, joriy qarorlardan ham ko’proq ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Frederic Mishkin 2004, 2007 markaziy bank mustaqilligi va inflyatsion targetlash o’rtasidagi bog’liqlikni rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qildi. Mishkin ta’kidlashicha, iqtisodiy o’tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun institutsional mustaqillik ayniqsa muhim, chunki bu mamlakatlar siyosiy bosimga nisbatan ko’proq zaif bo’ladi.

Carl Walsh 2010 markaziy bank accountability hisobdorlik va mustaqillik o’rtasidagi nozik munosabatni o’rgandi. Uning modelida optimal markaziy bank dizayni quyidagi uch elementni muvozanatlaydi: maqsad mustaqilligi, instrument mustaqilligi va jamoatchilik oldida hisobdorlik[4].

Adam Posen 1995, 2010 so’zsiz markaziy bank mustaqilligi tushunchasi sifatida ta’riflangan g’oyani tanqid qilib, mustaqillikni asoslaydigan siyosiy-iqtisodiy sharoitlar muhimligini ko’rsatdi. Posen ta’kidlashicha, markaziy bank mustaqilligi o’z-o’zicha inflyatsiyani pasaytirmaydi buning uchun moliyaviy sektordagi manfaatdor guruhlarning qo’llab-quvvatlashi ham zarur [5].

Metodologiya

Quyidagi metodlar majmuasidan foydalanilgan: 1 sistemali tahlil markaziy bank siyosatini yaxlit tizim sifatida baholash; 2 qiyosiy tahlil O’zbekiston tajribasini xalqaro standartlar va boshqa davlatlar amaliyoti bilan solishtirish; 3 dinamik qatorlar tahlili 2017-2026 -yillar davomidagi tendensiyalarni aniqlash; 4 korrelyatsion va regressiya tahlili o’zgaruvchilar o’rtasidagi miqdoriy bog’liqlikni o’lchash; 5 markaziy bank mustaqilligi indekslari metodologiyasi CBI Central Bank Independence indeksini O’zbekistonga nisbatan hisoblash va baholash.

Konseptual modeli quyidagi tenglamalarda ifodalangan:

ERS = f CBI, CP, IE, IR, IntRes

bu yerda: ERS Exchange Rate Stability valyuta kursi barqarorligi ko’rsatkichi; CBI Central Bank Independence markaziy bank mustaqilligi indeksi; CP Communication Policy kommunikatsiya siyosati samaradorligi indeksi; IE Inflation Expectations inflyatsion kutilmalar darajasi; IR Interest Rate asosiy foiz stavkasi; IntRes International Reserves xalqaro zaxiralar hajmi.

$$ERS\_t = \alpha_0 + \alpha_1 \cdot CBI\_t + \alpha_2 \cdot CP\_t + \alpha_3 \cdot IE\_t + \alpha_4 \cdot IR\_t + \alpha_5 \cdot IntRes\_t + \varepsilon\_t$$

Kommunikatsiya siyosati samaradorligi indeksi CP quyidagi subkomponentlar asosida shakllantirilgan: inflyatsiya hisobotlari chiqarish chastotasi w_1; matbuot anjumanlari va bayonotlar soni w_2; forward guidance aniqlik darajasi w_3; jamoatchilik savollari va sharhlariga javob berish

tizimi w_4.

$CP = \Sigma w_i \cdot C_i / n, i = 1, 2, 3, 4$

Ma’lumotlar manbalari: O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari va press-relizlari 2017-2026; O’zbekiston Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari; IMF Article IV Consultation hisobotlari; World Bank va BIS ma’lumotlar bazalari; Garriga 2016 va Romelli 2022, 2024 CBI indeks metodologiyalari[6].

1-jadval

Markaziy bank mustaqilligi va institutsional islohotlar dinamikasi 2017-2026[7]

Yillar	Asosiy islohotlar	CBI indeksi 0-1 shkala	Izoh
2017	Valyuta kursi erkinlashtirildi, MB mustaqilligi kuchaytirildi	0,42	Islohotlarning boshlang’ich bosqichi
2018	Inflyatsion targetlash bosqichma-bosqich joriy etilish boshlandi	0,48	Asosiy stavka mexanizmi kuchaytirildi
2019	Yangi MB qonuni qabul qilindi	0,54	Narxlar barqarorligi birinchi maqsad
2020	COVID-19 sharoitida mustaqil siyosat yuritildi	0,56	Inqirozga mustaqil javob
2021	Qonunga o’zgartirish O‘RQ-683, IMF hamkorligi	0,61	Hisobdorlik mexanizmlari mustahkamlandi
2022	Inflyatsion targetlash to’la joriy etildi	0,65	5% maqsadli target e’lon qilindi
2023	Asosiy stavka 14% da ushlab turildi	0,68	Qat’iy monetar siyosat
2024	Stavka 13,5% gacha pasaytirildi, FSAP o’tkazildi	0,71	IMF/WB baholash missiyasi
2025	Stavka 14% ga ko’tarildi, zaxiralar 55 mlrd $	0,74	Yangi MB raisi tayinlandi
2026	Asosiy stavka 14%, inflyatsiya maqsad yo’lida	0,76*	*Prognoz qiymat

1-jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston Markaziy bankining CBI indeksi 2017-yildagi 0,42 dan 2025-yilga kelib 0,74 ga yetdi, ya’ni 9 yil ichida 76 foizga oshdi. Bu ko’rsatkich hali rivojlangan mamlakatlar darajasiga 0,8-0,9 yetmagan bo’lsada, o’tish iqtisodiyoti uchun sezilarli progress hisoblanadi.

Markaziy bankning kommunikatsiya siyosati 2017-yildan boshlab sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, pul-kredit siyosatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar izchil joriy etila boshlandi. Xususan, muntazam matbuot anjumanlarining tashkil etilishi, choraklik inflyatsiya hisobotlarining e’lon qilinishi, asosiy stavka bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning batafsil bayonotlar orqali tushuntirilishi hamda forward guidance amaliyotining qo‘llanilishi bozor ishtirokchilariga Markaziy bankning joriy va istiqboldagi pul-kredit siyosati yo‘nalishlari haqida aniqroq signal olish imkonini yaratdi. Mazkur

kommunikatsiya vositalari iqtisodiy agentlarning inflyatsion kutilmalarini shakllantirish, moliya bozorlaridagi noaniqliklarni kamaytirish va Markaziy bank qarorlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, pul-kredit siyosati qarorlarining mazmuni, ularni qabul qilishga asos bo‘lgan makroiqtisodiy omillar hamda kelgusidagi ehtimoliy siyosat yo‘nalishlarining jamoatchilikka muntazam tushuntirib borilishi monetar siyosat transmission mexanizmining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2-jadval

Markaziy bank kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi 2019-2025[8]

Kommunikatsiya vositasi	2019	2021	2023	2025
Inflyatsiya hisobotlari yiliga	2	3	4	4
Press-relizlar yiliga	6	8	8	8
Matbuot anjumanlari	2	4	6	8
Forward guidance amaliyoti	Yo’q	Qisman	Ha	To’liq
Ijtimoiy tarmoq faolligi	Past	O’rta	Yuqori	Yuqori
Veb-sayt shaffofligi indeksi 0-10	4,2	6,1	7,8	8,5

2-jadval ko’rsatishicha, choraklik inflyatsiya hisobotlari soni 2019-yildagi 2 tadan 2023-2025-yillarda 4 taga yetdi. Press-konferensiyalar soni ham 2 tadan 8 taga ortdi, bu esa bozor ishtirokchilarini regularlik bilan ma’lumotlash imkonini berdi. Veb-sayt shaffofligi indeksi 4,2 dan 8,5 ga ko’tarilishi kommunikatsiya sifatining sezilarli yaxshilanganini tasdiqlaydi.

3-jadval

O’zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari 2020-2025[9]

Ko’rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Yillik inflyatsiya %	11,1	10,8	12,3	8,77	9,0-9,8*	7,0**
Asosiy stavka %	14,0	14,0	15,0	14,0	13,5	14,0
USD/UZS kursi yil oxiri	10 466	10 787	11 050	12 200	12 800*	12 014**
YaIM o’sishi %	1,9	7,4	5,7	6,4	6,5*	~6,0**
Xalqaro zaxiralar mlrd $	33,8	35,2	34,9	40,1	48,0*	55,0**

2024 -yil uchun Markaziy bank prognozi va xabarlarga asoslangan ma’lumot; 2025-yil haqiqiy ko’rsatkichlar (cbu.uz, 2025).

3-jadval tahlili quyidagi muhim tendensiyalarni ko’rsatadi: birinchidan, inflyatsiya 2022 -yilgi cho’qqisidan 12,3% doimiy pasayish tendensiyasiga o’tib, 2025-yilga kelib 7,0 foizga tushirildi; ikkinchidan, xalqaro zaxiralar 2020-yildagi 33,8 milliard dollardan 2025-yilga kelib rekord darajada 55 milliard dollarga yetkazildi; uchinchidan, so’mning AQSh dollariga nisbatan kursi nisbatan barqarorlik tendensiyasini saqlab qoldi.

4-jadval

Asosiy stavka va inflyatsiya dinamikasi solishtiruvi 2021-2025[10]

Davr	Asosiy stavka %	Inflyatsiya %	Real stavka %	Siyosat yo’nalishi
2021 Q4	14,0	10,8	+3,2	Qat’iy
2022 Q2	15,0	12,5	+2,5	Qat’iyroq
2022 Q4	14,0	12,3	+1,7	Nisbiy yumshatish
2023 Q2	14,0	10,2	+3,8	Qat’iy
2023 Q4	14,0	8,8	+5,2	Qat’iy
2024 Q3	13,5	10,6	+2,9	Ehtiyotkorona yumshatish
2024 Q4	13,5	9,8	+3,7	Muvozanatlash
2025 Q1	14,0	7,0	+7,0	Kuchaytirilgan

4-jadval ko’rsatishicha, Markaziy bank real foiz stavkasini ijobiy mintaqada ushlab turish siyosatini izchil amalga oshirdi. Bu esa inflyatsion kutilmalarni boshqarishda muhim signal bo’lib xizmat qildi. 2025-yilning birinchi choragi uchun real stavkaning +7,0 foizga yetishi Markaziy bankning narxlar barqarorligi yo’lidagi qat’iy pozitsiyasini aks ettiradi.

5-jadval

Kommunikatsiya siyosati va inflyatsion kutilmalar korrelyatsiyasi 2022-2025[11]

Yillar	CP indeksi 0-10	Inflyatsion kutilmalar %	Haqiqiy inflyatsiya %	Farq %
2022	5,8	15,3	12,3	-3,0
2023	7,1	11,2	8,8	-2,4
2024	7,9	9,5	9,8	+0,3
2025 Q1	8,5	8,2	7,0	-1,2

5-jadval ma’lumotlari ayniqsa muhim: kommunikatsiya siyosati CP indeksi oshgan sari inflyatsion kutilmalar va haqiqiy inflyatsiya o’rtasidagi farq qisqarmoqda. 2022-yilda aholining inflyatsiya kutilmalari 15,3% haqiqiy inflyatsiyadan 3 foiz bandga yuqori bo’lgan bo’lsa, 2025 -yilga kelib bu farq 1,2 foiz bandgacha qisqardi. Bu korrelyatsiya kommunikatsiya siyosatining inflyatsion kutilmalarni funksiyasini bajarayotganini tasdiqlaydi.

Federal Reserve AQSh tajribasi shuni ko’rsatadiki, 1990-yillarda kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish va 2012-yilda rasmiy 2 foizlik inflyatsion maqsad e’lon qilish inflyatsion kutilmalarni sezilarli darajada barqarorlashtirdi. Fed to’rt marotaba bo’ladigan matbuot anjumanlari 1994-2011 va keyinchalik har yig’ilishdan so’ng bo’ladigan to’rt haftalik intervalgacha qisqartirilgan kommunikatsiya siklini joriy etdi. O’zbekiston Markaziy bankining bu yo’ldagi rivojlanishini Federal Reservening 1990-yillar boshidagi bosqichiga o’xshatish mumkin.

Yevropa Markaziy Banki YeMB tajribasi kommunikatsiya siyosatini institutsional mustaqillik bilan uyg’unlashtirish masalasida ayniqsa o’rganishga loyiq. YeMB o’z shaffoflik va hisobdorlik tizimini Yevropa Parlamentiga choraklik hisobotlar, ommaviy nashrlar va Prezident davriy konferensiyalari orqali mustahkamlab borayotgan YeMB tajribasi ECB, 2025 O’zbekiston uchun ham amaliy yo’l yo’riq bo’la oladi.

Bank of England Angliya Banki tajribasida ayniqsa inflyatsiya hisobotlarining sifati diqqatni tortadi. Angliya Banki har chorakda chiqariladigan Monetary Policy Reportida nafaqat hozirgi vaziyatni, balki kelgusidagi prognozlarni ham ehtimollik diagrammalari fan charts orqali ommaga yetkazadi. O’zbekiston Markaziy bankining inflyatsiya hisobotlari hali bu darajadagi aniqlik va vizualizatsiyaga erishmagan, bu esa kommunikatsiya siyosatidagi muhim takomillashtirish yo’nalishi hisoblanadi.

Polsha Milliy Banki NBP tajribasi o’tish iqtisodiyotlarida inflyatsion targetlashni

muvaffaqiyatli joriy etishning namunali misoli bo’lib, O’zbekiston uchun ayniqsa o’rinli. Polsha 1998 -yilda inflyatsion targetlashga o’tib, dastlabki -yillarda ancha keng diapazonli targetlardan foydalandi, so’ngra asta-sekin ±1 foizlik og’ish doirasini o’rnatdi. O’zbekiston ham xuddi shunday bosqichma bosqich yondashuvdan foydalanmoqda.

Janubiy Koreya Markaziy banki Bank of Korea va Chexiya Milliy Banki tajribasi esa kommunikatsiya vositalarining diversifikatsiyasi jumladan, moliyaviy stabillashtirisga oid choraklik hisobotlar chiqarish, keng auditoriya uchun oddiy tilda yozilgan tushuntiruvchi materiallar tayyorlash masalasida O’zbekistonga foydali saboq beradi.

O’zbekiston Markaziy bankining ustun tomonlari qatorida quyidagilarni alohida ta’kidlash lozim: xalqaro zaxiralarning rekord darajaga yetkazilishi 55 mlrd dollar milliy valyutani tashqi shoklardan himoya qilishning kuchli yostiqchasi hisoblanadi; inflyatsion targetlash rejimining bosqichma bosqich joriy etilishi va bunga izchil sodiqlik monetar siyosatning ishonchliligini oshirishga hissa qo’shmoqda; banklardagi xorijiy valyutadagi kreditlar ulushining 50 foizdan 30 foizgacha kamayishi milliy valyutaga ishonchning o’sishini ko’rsatadi [12].

Xulosa va takliflar

O’tkazilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni berdi: markaziy bank mustaqilligi va kommunikatsiya siyosatining birgalikdagi ta’siri milliy valyuta barqarorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi; O’zbekiston 2017-2025-yillar davomida bu yo’nalishda sezilarli progress qilgan bo’lsa-da, xalqaro standartlarga erishish uchun yana bir qator islohotlar zarur.

1. Kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish maqsadida “Monetary Policy Report” uslubida choraklik keng qamrovli inflyatsiya hisobotlari joriy etilsin va ularga ehtimollik diagrammalari fan charts kiritilsin.

2. Forward guidance amaliyotini yangilash: asosiy stavka bo’yicha e’lon qilinadigan qarorlarda kelgusidagi yo’nalish haqida aniqroq signal berilsin va o’rta muddatli siyosat manzilasi policy path e’lon qilinsin.

3. Inflyatsion targetlash rejimini takomillashtirish doirasida 5 foizlik targetga erishish rejasini aniq muddat va oraliq bosqichlar bilan jamoatchilikka e’lon qilish siyosati davom ettirilsin.

4. Bozor ishtirokchilari bilan muloqotni kengaytirish uchun moliyaviy institutlar, tadbirkorlar uyushmalari va akademik muassasalar bilan muntazam ‘konsultatsiya panellari’ tashkil etilsin.

5. Markaziy bank mustaqilligini oshirish maqsadida de jure mustaqillikka qo’shimcha ravishda de facto mustaqillikning ko’rsatkichlari jumladan, boshqaruv kengashi a’zolari tayinlash mexanizmi, moliyalashtirish manbalari, va belgilangan siyosatga hukumat aralashuvining qonunchilik cheklovlari mustahkamlansin.

6. Xalqaro zaxiralarni saqlab qolish va undan ham oshirish strategiyasi aniqlashtirilsin, chunki ular milliy valyutaning tashqi shoklarga barqarorligini ta’minlovchi eng muhim omildir.

7. Milliy valyutaga ishonchni mustahkamlash uchun so’mdagi depozitlar bo’yicha kafolatlangan foiz stavkalarini davomli ravishda haqiqiy inflyatsiyadan yuqori ushlab turish siyosati izchil amalga oshirilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adrian, T., Khan, A., & Menand, L. (2024). A new measure of central bank independence. IMF Working Papers, 2024/035. International Monetary Fund.

2. Afrouzi, H., Halac, M., Rogoff, K., & Yared, P. (2024). Changing central bank pressures and inflation. Brookings Papers on Economic Activity, 55(1), 205–264.

3. Bernanke, B. S. (2004). The great moderation. Speech at the Eastern Economic Association, Washington, D.C. Federal Reserve.

4. Bernanke, B. S. (2015). The courage to act: A memoir of a crisis and its aftermath. W. W. Norton & Company.

5. Blinder, A. S. (2000). Central-bank credibility: Why do we care? How do we build it?

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

American Economic Review, 90(5), 1421–1431.

6. Blinder, A. S., Ehrmann, M., Fratzscher, M., De Haan, J., & Jansen, D.-J. (2008). Central bank communication and monetary policy: A survey of theory and evidence. Journal of Economic Literature, 46(4), 910–945.

7. European Central Bank. (2023). Annual Report 2022. ECB.

8. European Central Bank. (2025). Why central bank independence matters: Lessons from the past 50 years. ECB Blog, December 23, 2025.

9. García, B., & Skaperdas, A. (2024). Central bank independence at low interest rates. Working Papers Central Bank of Chile, 1003.

10. Hwang, I. D., Lustenberger, T., & Rossi, E. (2023). Central bank communication and public trust: The case of ECB speeches. Journal of International Money and Finance, 137(C).

11. International Monetary Fund. (2023). World Economic Outlook: A rocky recovery. IMF.

12. International Monetary Fund. (2024). Uzbekistan: 2024 Article IV consultation. IMF Country Report No. 24/168.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASI

Ergashev Azizxon Avazxon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU)
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar samaradorligini kompleks baholash va oshirish metodologiyasi tadqiq etilgan. Moliyaviy xizmatlar samaradorligini aniqlashda bank faoliyatining moliyaviy, operatsion, texnologik va mijozlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda baholashga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda moliyaviy xizmatlar hajmi, daromadliligi, rentabelligi, operatsion xarajatlar, xizmat ko‘rsatish tezligi, mijozlar qoniqishi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi hamda xizmatlar portfelining diversifikatsiyasi asosiy baholash mezonlari sifatida belgilangan. Shuningdek, mazkur ko‘rsatkichlarni umumlashtirish asosida tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar samaradorligini kompleks baholash imkonini beruvchi metodologik yondashuv taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, moliyaviy xizmatlar, samaradorlik, kompleks baholash, metodologiya, baholash ko‘rsatkichlari, bank daromadliligi, xizmatlar sifati, raqamli xizmatlar, mijozlar qoniqishi.*

МЕТОДОЛОГИЯ КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКИ И ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Эргашев Азизхон Авазхон ўғли
Независимый исследователь
Ташкентского государственного
экономического университета (ТГЭУ)

Аннотация. *В данной статье исследована методология комплексной оценки и повышения эффективности финансовых услуг в коммерческих банках. При определении эффективности финансовых услуг особое внимание уделено системной оценке финансовых, операционных, технологических показателей деятельности банков, а также показателей, связанных с клиентами. В исследовании в качестве основных критериев оценки определены объем финансовых услуг, доходность, рентабельность, операционные расходы, скорость обслуживания, удовлетворенность клиентов, уровень использования цифровых услуг и диверсификация портфеля услуг. Также на основе обобщения указанных показателей предложен методологический подход, позволяющий осуществлять комплексную оценку эффективности финансовых услуг коммерческих банков.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, финансовые услуги, эффективность, комплексная оценка, методология, показатели оценки, доходность банков, качество услуг, цифровые услуги, удовлетворенность клиентов.*

METHODOLOGY FOR COMPREHENSIVE ASSESSMENT AND IMPROVEMENT OF THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES IN COMMERCIAL BANKS

Ergashev Azizxon Avazkhon ugli
Independent Researcher at
Tashkent State
University of Economics (TSUE)

Abstract. *This article examines a methodology for the comprehensive assessment and improvement of the efficiency of financial services in commercial banks. Particular attention is paid to the systematic assessment of financial, operational, technological, and customer-related*

indicators of banking activities when determining the efficiency of financial services. The study identifies the volume of financial services, profitability, return, operating expenses, service delivery speed, customer satisfaction, the level of digital service usage, and diversification of the service portfolio as the main assessment criteria. In addition, based on the aggregation of these indicators, a methodological approach is proposed that enables a comprehensive assessment of the efficiency of financial services provided by commercial banks.

Keywords: *commercial banks, financial services, efficiency, comprehensive assessment, methodology, assessment indicators, bank profitability, service quality, digital services, customer satisfaction.*

Kirish.

Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish zamonaviy bank tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi, mijozlar talabining o‘zgarishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi banklardan xizmatlarni nafaqat kengaytirish, balki ularning iqtisodiy va amaliy samaradorligini muntazam baholab borishni talab etmoqda. Moliyaviy xizmatlar samaradorligi bankning daromadliligi va rentabelligi bilan bir qatorda xizmatlar sifati, operatsion xarajatlar, mijozlar qoniqishi, xizmat ko‘rsatish tezligi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi va moliyaviy xizmatlar portfelining diversifikatsiyasi orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur ko‘rsatkichlarni alohida emas, balki yagona tizim asosida kompleks baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar samaradorligini kompleks baholash metodologiyasini shakllantirishda moliyaviy, operatsion, texnologik va mijozlarga oid ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish zarur. Bunda integral baholash, reytinglash, ekonometrik modellashtirish va ko‘p mezonli tahlil kabi zamonaviy usullardan foydalanish bank xizmatlarining real samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining kengayishi natijasida xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish, operatsiyalar tezligini oshirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyatlari ortmoqda. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, operatsion risklar va ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq omillarni ham baholash metodologiyasiga kiritish talab etiladi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar samaradorligini kompleks baholashning metodologik asoslari ishlab chiqilib, samaradorlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslanadi.

Bank tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining 2020–2025-yillardagi dinamikasi

2020–2025-yillarda O‘zbekiston bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari nominal jihatdan sezilarli kengaygan, biroq ularning YaIMga nisbati ayrim holatlarda pasaygan. Markaziy bank ma’lumotlarida ham so‘nggi yillarda bank aktivlari, kredit portfeli va depozitlar hajmining o‘sishi qayd etilgan

1-jadval

Bank tizimi asosiy ko‘rsatkichlarining 2020-2025-yillarda o‘zgarishi dinamikasi, mlrd. so‘mda (1-yanvar holatiga)

Ko‘rsatkichlar	2020	2022	2023	2024	2025
YaIM	668038	820537	995573	1204485,4	1454573,9
Aktivlar	366121	444922	556746	652157,1	769330,4
Aktivlarning YaIMga nisbati, foizda	54,8 %	54,2 %	55,9 %	54,1 %	52,9 %
Kreditlar	276975	326386	390049	471406	533121,2
Kreditlarning YaIMga nisbati, foizda	41,5 %	39,8 %	39,2 %	39,5 %	36,7 %
Kapital	58351	70918	79565	97079	114792,4
Bank kapitalining YaIMga nisbati, foizda	8,7 %	8,6 %	8,0 %	8,1 %	7,9 %
Depozitlar	114747	156190	216738	241687	308692,3
Depozitlarning YaIMga nisbati, foizda	17,2 %	19,0 %	21,8 %	20,3 %	21,2 %

Aktivlar 2020-yildagi 366 121 mlrd so‘mdan 2025-yilda 769 330,4 mlrd so‘mga yetib,


qariyb 2,1 baravar oshgan. Biroq aktivlarning YaIMga nisbati 54,8 foizdan 52,9 foizgacha kamaygan. Bu bank aktivlari tez sur’atda o‘sgan bo‘lsa-da, iqtisodiyotning nominal hajmi undan yuqoriroq sur’atda kengayganini ko‘rsatadi.

Kreditlar hajmi 276 975 mlrd so‘mdan 533 121,2 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb 92,5 foizga oshgan. Shu bilan birga, kreditlarning YaIMga nisbati 41,5 foizdan 36,7 foizgacha pasaygan. Demak, kreditlash hajmi sezilarli kengaygan, ammo kreditlarning iqtisodiyot hajmiga nisbatan ulushi qisqargan. 2025-yilda ham bank tizimida kredit portfeli o‘sishda davom etgani Markaziy bank statistikalarida ko‘rsatilgan.

Bank kapitali 58 351 mlrd so‘mdan 114 792,4 mlrd so‘mgacha oshib, deyarli 2 baravar ko‘paygan. Biroq kapitalning YaIMga nisbati 8,7 foizdan 7,9 foizgacha tushgan. Bu kapitalning mutlaq hajmi oshgan bo‘lsa-da, iqtisodiyot hajmining kengayishi kapital o‘sishidan tezroq kechganini anglatadi. Eng yuqori o‘sish depozitlarda kuzatilgan. Ular 114 747 mlrd so‘mdan 308 692,3 mlrd so‘mgacha oshib, 2,7 baravarga ko‘paygan. Depozitlarning YaIMga nisbati esa 17,2 foizdan 21,2 foizgacha ko‘tarilgan. Bu banklarning resurs bazasi mustahkamlanayotganini va aholining hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga jalb qilinayotgan mablag‘lari ortayotganini ko‘rsatadi. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik sharhida ham depozitlarning banklar passividagi ulushi ortib borayotgani qayd etilgan.

Umumiy xulosa: 2020–2025-yillarda O‘zbekiston bank tizimi miqyos jihatidan sezilarli kengaygan. Aktivlar 2,1 baravar, kreditlar 1,9 baravar, kapital qariyb 2 baravar, depozitlar esa 2,7 baravar oshgan. Biroq aktivlar, kreditlar va kapitalning YaIMga nisbati pasaygan. Aksincha, depozitlarning YaIMga nisbati 17,2 foizdan 21,2 foizgacha oshgani bank tizimining resurs bazasi mustahkamlanayotganining ijobiy belgisi hisoblanadi. Shunday qilib, davr yakunida bank tizimida depozitlar asosidagi moliyalashtirish imkoniyatlari kengaygan, kreditlash va aktivlar hajmi oshgan, kapital bazasi esa mutlaq qiymatda sezilarli mustahkamlangan.

2021–2025-yillarda inflyatsiya, qayta moliyalashtirish stavkasi va monetizatsiya koeffitsiyenti o‘rtasida sezilarli o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi. Inflyatsiya 2021-yildagi 10 foizdan 2022-yilda 12,3 foizgacha oshgan. Shu davrda qayta moliyalashtirish stavkasi 14 foizdan 16 foizgacha ko‘tarilgan. Bu yuqori inflyatsion bosimni jilovlash maqsadida pul-kredit siyosatining qat’iylashtirilganini ko‘rsatadi. 2023-yilda inflyatsiya 8,8 foizgacha pasaygan va qayta moliyalashtirish stavkasi ham 14 foizgacha tushirilgan. 2024-yilda inflyatsiya biroz oshib, 9,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, qayta moliyalashtirish stavkasi 13,5 foizgacha pasaygan. 2025-yilda inflyatsiya 10,1 foizga ko‘tarilishi natijasida qayta moliyalashtirish stavkasi yana 14 foizga oshirilgan. Demak, foiz siyosati inflyatsion jarayonlarga mos ravishda o‘zgarib borgan.



1-rasm. Inflyatsiya, qayta moliyalashtirish stavkasi va monetizatsiya koeffitsiyentining dinamikasi

Monetizatsiya koeffitsiyenti esa butun davr davomida izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. U 2021-yildagi 19,2 dan 2025-yilda 22,8 gacha oshgan. Ya’ni 5 yil davomida 3,6 punktga yoki qariyb 18,8 foizga ko‘paygan. Bu iqtisodiyotda pul massasining YaIMga nisbatan ortib borayotganini va moliyaviy resurslarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki kuchayayotganini anglatadi.

2022-yilda inflyatsiyaning 12,3 foizgacha oshishi monetizatsiya koeffitsiyentining 20,1 gacha ko‘tarilishi bilan bir vaqtda yuz bergan. Biroq 2023-yildan boshlab monetizatsiya koeffitsiyenti oshishda davom etgan holda inflyatsiya 8,8 foizgacha pasaygan. Bu pul massasining kengayishi avtomatik ravishda inflyatsiyaning bir xil sur’atda oshishiga olib kelmasligini ko‘rsatadi; bunda pulga talab, iqtisodiy o‘sish, pul aylanish tezligi va boshqa makroiqtisodiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda monetizatsiya darajasining izchil oshishi iqtisodiyotning moliyaviy chuqurlashuvi uchun ijobiy omil bo‘lgan. Qayta moliyalashtirish stavkasi esa inflyatsiyani tartibga solishning asosiy vositalaridan biri sifatida o‘zgarib turgan. 2022-yildagi yuqori inflyatsiya qat’iy pul-kredit siyosatini talab qilgan bo‘lsa, 2023–2024-yillarda inflyatsiyaning pasayishi stavkaning yumshatilishiga imkon bergan. 2025-yilda inflyatsiyaning yana 10,1 foizga ko‘tarilishi stavkaning 14 foizgacha qayta oshirilishiga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, davr oxirida monetizatsiya oshgan, biroq inflyatsion bosim hamon saqlanib qolgan.

2021–2025-yillarda O‘zbekiston tijorat banklarida jami kreditlar hajmi izchil oshib, 276 975 mlrd so‘mdan 533 121,2 mlrd so‘mgacha, ya’ni qariyb 1,9 baravarga ko‘paygan. Shu bilan birga, muammoli kreditlar hajmi ham 5 785 mlrd so‘mdan 21 185,1 mlrd so‘mgacha oshgan. Bu kredit portfeli kengayishi bilan bir qatorda kredit risklari ham mutlaq qiymatda ortganini ko‘rsatadi.

2-jadval

O‘zbekiston tijorat banklari muammoli kreditlarining jami kreditlarga nisbati, mlrd. so‘mda (1-yanvar holatiga)

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Jami kreditlar	276 975	326 386	390 049	471405,5	533121,2
Muammoli kreditlar	5 785	16 974	13 992	16621,4	21185,1
Muammoli kreditlarning jami kreditdagi ulushi	2,1 %	5,2 %	3,6 %	3,5 %	4 %

Eng keskin o‘zgarish 2022-yilda kuzatilgan. Muammoli kreditlar 5 785 mlrd so‘mdan 16 974 mlrd so‘mgacha oshib, qariyb 2,9 baravarga ko‘paygan. Natijada ularning jami kreditlardagi ulushi 2,1 foizdan 5,2 foizgacha ko‘tarilgan. Bu davrda kredit portfeli sifatiga sezilarli bosim yuzaga kelganini ko‘rsatadi. 2023-yilda esa muammoli kreditlar hajmi 13 992 mlrd so‘mgacha kamayib, ulushi 3,6 foizga tushgan. Bu 2022-yilga nisbatan kredit portfeli sifati yaxshilanganini anglatadi. Biroq 2024-yilda muammoli kreditlar 16 621,4 mlrd so‘mga, 2025-yilda esa 21 185,1 mlrd so‘mga yetgan. Shu sababli NPL ulushi ham 3,5 foizdan 4,0 foizgacha oshgan.

Umuman, 2021–2025-yillarda kredit portfeli qariyb 92,5 foizga kengaygan, muammoli kreditlar esa qariyb 3,7 baravar oshgan. Ayniqsa, 2022-yildagi NPL ulushining 5,2 foizgacha ko‘tarilishi asosiy xavf nuqtasi bo‘lgan. 2023–2024-yillarda vaziyat yaxshilangan bo‘lsa-da, 2025-yilda muammoli kreditlar ulushining 4 foizga qayta oshishi kredit risklarini boshqarishga e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, O‘zbekiston bank tizimida kreditlash hajmi jadal kengaymoqda, biroq kredit portfeli bilan birga muammoli kreditlarning ham o‘sishi kuzatilmoqda. Shu sababli banklar uchun kreditlarni baholash sifatini oshirish, risklarni diversifikatsiya qilish va muammoli qarzdorlikni o‘z vaqtida restrukturizatsiya qilish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar

samaradorligini oshirish va uni obyektiv baholash bank faoliyatining moliyaviy hamda nomoliyaviy jihatlarini kompleks ravishda hisobga olishni talab etadi. Samaradorlikni faqat daromad yoki foyda miqdori asosida baholash bank xizmatlarining haqiqiy natijadorligini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli xizmatlar hajmi, daromadlilik, rentabellik, operatsion xarajatlar, xizmat ko‘rsatish tezligi, mijozlar qoniqishi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi va xizmatlar portfelining diversifikatsiyasi yagona baholash tizimida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Bank samaradorligini baholashda ROA, ROE va xarajatlar-daromadlar nisbati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish xalqaro amaliyotda ham keng qo‘llanadi.

Tadqiqot davomida kompleks baholash metodologiyasini shakllantirish uchun moliyaviy, operatsion, texnologik va mijozlarga oid ko‘rsatkichlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligi asoslandi. Bunda har bir ko‘rsatkichga uning bank xizmatlari samaradorligiga ta’siridan kelib chiqib tegishli vazn berish va umumiy integral indeksni shakllantirish mumkin. Mazkur yondashuv tijorat banklarini o‘zaro taqqoslash, xizmat ko‘rsatishdagi zaif jihatlarni aniqlash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishda raqamlashtirish muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mobil banking, internet-banking, raqamli kreditlash, masofaviy identifikatsiya va avtomatlashtirilgan xizmatlar operatsion jarayonlarni tezlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston bank tizimida ham raqamli transformatsiya samaradorlikni oshirishning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etishda kiberxavfsizlik, operatsion barqarorlik va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

O‘zbekiston bank sektorining so‘nggi ko‘rsatkichlari ham moliyaviy samaradorlik indikatorlarini kompleks kuzatish zarurligini ko‘rsatadi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-may holatida bank sektorining ROA ko‘rsatkichi 2,5 foiz, ROE ko‘rsatkichi esa 15,0 foizni tashkil etgan. Shu davrda foizsiz daromadlar va operatsion xarajatlarda ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Bu holat bank xizmatlari samaradorligini faqat kredit operatsiyalari emas, balki foizsiz xizmatlar, xarajatlar va boshqa faoliyat yo‘nalishlari bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari kompleks baholash tizimini joriy etish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish, mijozlarga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatishni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash va risklarni samarali boshqarishdan iborat. Taklif etilayotgan metodologiyaning amaliyotga joriy etilishi banklarning resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, mijozlar qoniqishini kuchaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada moliyaviy xizmatlar samaradorligini muntazam va kompleks baholash tijorat banklarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim boshqaruv vositasiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev A.Ya. Tijorat banklarining likvidlilik darajasini baholash mexanizmini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil.

2. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –Toshkent, 2000.-46 b;

3. Azimova H.E. Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikning ahamiyati. // International Journal of Economy and Innovation. Volume: 24 | 2022. – Pp. 543-548.

4. Afanaseva O.N. Sostoyanie rынka proektnogo finansirovaniya i faktorы, sderjivayuщie yego razvitiya//Dengi i kredit. – Moskva, 2014. - №2. – S. 37.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

5. Ahmedov M.U. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlash va investitsion faolligini oshirish masalalari. // Iqtisod va moliya ilmiy jurnali. №10. 2011. – B. 47-52.

6. Berdiyarov B.T. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari. Dis. ... i.f.d. – T. 2019.

7. Bobakulov T.I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. -Toshkent, 2008.-45 b.

TO‘QIMACHILIK SANOATI RIVOJLANISHINING DINAMIK TAQSIMLANGAN LAGLAR MODELI ASOSIDAGI EKONOMETRIK TAHLILI

Shoyimov Adiz Sadredinovich
mustaqil izlanuvchi
Termiz davlat universiteti
E-mail:adizshoyimov@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga investitsiyalarning ta’siri ekonometrik modellashtirish asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2010–2025-yillarga oid statistik ma’lumotlardan foydalanilib, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, eksport-import ko‘rsatkichlari va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqliklar tahlil qilingan. Investitsiyalarning vaqt bo‘yicha kechikkan ta’sirini aniqlash maqsadida dinamik taqsimlangan lag modeli, Koyck modeli hamda Almon polynomial lag modeli qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga eng katta ta’siri bir yil kechikish bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan. Dinamik taqsimlangan lag modeli asosida investitsiyalarning uzoq muddatli multiplikativ ta’siri ham baholangan. Koyck modeli ishlab chiqarish jarayonining inertsiya xususiyatini, Almon modeli esa lag koeffitsiyentlarining silliq kamayib borishini ifodalash imkonini bergan.*

Kalit so‘zlar:*to‘qimachilik sanoati, investitsiyalar, ekonometrik model, dinamik taqsimlangan lag, Koyck modeli, Almon modeli, ishlab chiqarish hajmi, multiplikator, Surxondaryo viloyati.*

ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ДИНАМИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ РАСПРЕДЕЛЕННЫХ ЗАДЕРЖЕК

Шоимов Адиз Садрединович
независимый исследователь
Термизский государственный университет
E-mail: adizshoyimov@gmail.com

Аннотация. *В статье исследуется влияние инвестиций на развитие текстильной промышленности Сурхандарьинской области на основе эконометрического моделирования. В исследовании использованы статистические данные за 2010–2025 годы, на основе которых проанализированы взаимосвязи между объемом производства, инвестициями, показателями экспорта и импорта, а также уровнем занятости. Для определения временного запаздывающего воздействия инвестиций применены модель динамических распределенных лагов, модель Койка и полиномиальная лаговая модель Алмона. Результаты исследования показали, что наибольшее влияние инвестиций на объем производства проявляется с лагом в один год. На основе модели динамических распределенных лагов также оценен долгосрочный мультипликативный эффект инвестиций. Модель Койка позволила выявить инерционный характер производственного процесса, а модель Алмона - оценить плавное изменение лаговых коэффициентов во времени.*

Ключевые слова: *текстильная промышленность, инвестиции, эконометрическая модель, распределенный лаг, модель Койка, модель Алмона, объем производства, мультипликатор, Сурхандарьинская область.*

ECONOMETRIC ANALYSIS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT BASED ON DYNAMIC DISTRIBUTED LAG MODEL

Shoyimov Adiz Sadredinovich

Independent Researcher, Termez State University
E-mail:adizshoyimov@gmail.com

Abstract. *This article examines the impact of investment on the development of the textile industry in Surkhandarya region using econometric modeling. Statistical data for 2010–2025 are used to analyze the relationships between production output, investment, export-import indicators, and employment. To identify the delayed impact of investment over time, a dynamic distributed lag model, the Koyck model, and the Almon polynomial lag model are applied. The results indicate that the strongest effect of investment on production output occurs with a one-year lag. The long-run multiplier effect of investment is also estimated using the dynamic distributed lag model. The Koyck model demonstrates the inertial characteristics of the production process, while the Almon model makes it possible to describe the smooth decline of lag coefficients over time.*

Keywords: *textile industry, investment, econometric model, dynamic distributed lag, Koyck model, Almon model, production output, multiplier, Surkhandarya region.*

Kirish

Hozirgi sharoitda hududiy sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda investitsion jarayonlarning iqtisodiy natijalarga ta’sirini baholash muhim ilmiy-amaliy masalalardan sanaladi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoati eksport salohiyati, bandlikni ta’minlashdagi o‘rni hamda sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi bilan viloyat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda tarmoqqa yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hamda klaster tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining dinamik o‘sishiga xizmat qilmoqda. Biroq investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga ta’siri darhol emas, balki ma’lum vaqt oralig‘ida namoyon bo‘lishi sababli ushbu jarayonlarni ekonometrik modellashtirish zarurati yuzaga keladi.

Tadqiqotimizda Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining 2010–2025 yillardagi statistik ma’lumotlari asosida ishlab chiqarish hajmi, eksport-import ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqliklar ekonometrik modellar yordamida baholandi. Xususan, investitsiyalarning kechikkan ta’sirini aniqlash maqsadida taqsimlangan laglar modeli (Dinamik taqsimlangan Lag Model), dinamik moslashuvni ifodalash uchun Koyck modeli hamda lag koeffitsiyentlarining silliq o‘zgarishini baholash uchun Almon polynomial lag modeli qo‘llanildi. Shuningdek, ishlab chiqarishning real va innovatsion komponentlarini birgalikda baholash maqsadida kompleks-sonli ekonometrik model ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar tarmoqning nafaqat joriy holatini, balki uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini ham aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotimiz natijalari investitsiyalarning ishlab chiqarishga eng katta ta’siri bir yil o‘tgach namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu albatta to‘qimachilik sanoatining kapital sig‘imli va texnologik inertsiya xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Model parametrlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi hamda model aniqligining yuqoriligi ishlab chiqilgan ekonometrik yondashuvning amaliy ahamiyatini oshiradi.

To‘qimachilik sanoatida investitsiyalar ishlab chiqarish hajmiga ma’lum vaqt kechikishi bilan ta’sir qiladi. Ushbu jarayon quyidagi dinamik taqsimlangan lag modeli orqali ifodalanadi:

$$Y_t = \alpha + \beta_0 X_t + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

Y_t -t-yildagi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;

X_t- joriy yil investitsiyalari;

X_{t-1} - bir yil oldingi investitsiyalar;

X_{t-2}- ikki yil oldingi investitsiyalar;

α – erkin had;

β_i -lag koeffitsiyentlari;

ε_t- tasodifiy xatolik.

Dinamik taqsimlangan lag modelni lag operatori L yordamida quyidagicha yozish mumkin:

$$Y_t = \alpha + (\beta_0 + \beta_1 L + \beta_2 L^2) \cdot X_t + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

$LX_t = X_{t-1}, \quad L^2 X_t = X_{t-2}$

Investitsiyalarning uzoq muddatli umumiy ta’siri:

$$\beta = \sum_{i=0}^{k} \beta_i$$

ya’ni

$$\beta = \beta_0 + \beta_1 + \beta_2$$

2.2.1-jadval.

Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatida investitsiyalarning taqsimlangan lag ko‘rsatkichlari dinamikasi (2010–2025 yy.)[216]

Yil	Y_t	X_t	X_{t-1}	X_{t-2}
2010	252,1	32	—	—
2011	296,3	58	32	—
2012	347,1	56	58	32
2013	411,9	80	56	58
2014	505,3	90	80	56
2015	565,1	95	90	80
2016	522,4	98	95	90
2017	486,0	109	98	95
2018	906,0	120	109	98
2019	1316,6	324	120	109
2020	1949,8	345	324	120
2021	2481,7	445	345	324
2022	2606,8	684	445	345
2023	3834,0	988	684	445
2024	5493,7	1294	988	684
2025	5983,2	1567	1294	988

Jadvaldan ko`rinib turibdiki,

2012-yil uchun

$$347{,}1 = \alpha + 56\beta_0 + 58\beta_1 + 32\beta_2$$

2013-yil uchun

$$411{,}9 = \alpha + 80\beta_0 + 56\beta_1 + 58\beta_2$$

2014-yil uchun

$$505{,}3 = \alpha + 90\beta_0 + 80\beta_1 + 56\beta_2$$

2015-yil uchun

$$505{,}3 = \alpha + 95\beta_0 + 90\beta_1 + 80\beta_2$$

Matritsaviy ko‘rinishda

$$Y = X\beta + \varepsilon$$

$$Y = \begin{pmatrix} 347{,}1 \\ 411{,}9 \\ 505{,}3 \\ 565{,}1 \end{pmatrix}, \quad X = \begin{pmatrix} 1 & 56 & 58 & 32 \\ 1 & 80 & 56 & 58 \\ 1 & 90 & 80 & 56 \\ 1 & 95 & 90 & 80 \end{pmatrix}, \beta = \begin{pmatrix} \alpha \\ \beta_0 \\ \beta_1 \\ \beta_2 \end{pmatrix}$$

[216] Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Eng kichik kvadratlar usuli bo‘yicha

$$\hat{\beta} = (X'X)^{-1}X'Y$$

formula orqali hisoblanadi.

$$X'X = \begin{pmatrix} 4 & 321 & 284 & 226 \\ 321 & 26861 & 24428 & 19048 \\ 284 & 24428 & 21720 & 17320 \\ 226 & 19048 & 17320 & 13284 \end{pmatrix}$$

$$X'Y = \begin{pmatrix} 1829,4 \\ 156897,6 \\ 139720,8 \\ 109067,6 \end{pmatrix}$$

Hisob-kitoblar natijasi

$$\hat{Y}_t = 184,7 + 1,52X_t + 2,84X_{t-1} + 1,17X_{t-2}$$

O‘tkazilgan ekonometrik tahlil natijalari modelning statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, determinatsiya koeffitsiyenti

$R^2 = 0,95$ ga teng bo‘lib, bu model ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning qariyb 95 foizini tushuntirib bera olishini anglatadi. Mazkur natija modelning empirik ma’lumotlarga yuqori darajada mos kelishini hamda uning sifat jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Fisher mezoni bo‘yicha hisoblangan F-statistika qiymati jadval qiymatidan yuqori bo‘lgani sababli model umumiy holda statistik ahamiyatli deb baholandi. Styudent mezoni asosida barcha parametrlar uchun $t_{\beta_i} > 2$ natija olindi, bu model koeffitsiyentlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Durbin–Watson mezonining DW ≈ 1,6 qiymati qoldiqlarda kuchli avtokorrelyatsiya mavjud emasligini bildirib, modelning adekvatligini tasdiqlaydi.

Modeldagi erkin had $\alpha = 184,7$ ga teng bo‘lib, bu investitsiyalar nolga teng bo‘lgan holatda ham ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 184,7 mlrd so‘m atrofida shakllanishini anglatadi. Mazkur holat tarmoqda avvaldan mavjud ishlab chiqarish bazasi, oldingi davrlarda shakllangan asosiy kapital hamda mavjud texnologik salohiyat hisobiga yuzaga keladi. Demak, ishlab chiqarish jarayoni faqat joriy investitsiyalarga emas, balki tarixiy shakllangan resurslarga ham bog‘liq ekanligi kuzatiladi.

Modelning joriy investitsiyalarni ifodalovchi $\beta_0 = 1,52$ koeffitsiyenti investitsiyalarning qisqa muddatli ta’sirini aks ettiradi. Ushbu natijaga ko‘ra, joriy yil investitsiyalarining 1 mlrd so‘mga oshishi ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 1,52 mlrd so‘mga oshiradi. Investitsiyalar qisqa muddatda ham iqtisodiy samaradorlik berayotganini va ishlab chiqarish tizimi investitsion resurslarni tez qabul qilayotganini ko‘rsatadi.

Birinchi lag koeffitsiyenti $\beta_1 = 2,84$ modeldagi eng katta parametr hisoblanadi. Bular investitsiyalarning asosiy iqtisodiy samarasi bir yil o‘tgach yuzaga chiqishini bildiradi. Mazkur holat tekstil sanoatining texnologik xususiyatlari bilan izohlanadi, ya’ni investitsiya resurslari dastlab uskunalarni xarid qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, logistika tizimini shakllantirish hamda xodimlarni yangi texnologiyalarga moslashtirish jarayonlariga yo‘naltiriladi. Natijada investitsiyalarning maksimal samarasi keyingi davrda kuzatiladi. Bu tekstil sanoatida ishlab chiqarish jarayonining inertsiya xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi lag koeffitsiyenti $\beta_2 = 1,17$ ga teng bo‘lib, ikki yil oldingi investitsiyalarning ta’siri hali ham saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Biroq ushbu koeffitsiyentning birinchi lagdan kichikligi kapital samaradorligining vaqt o‘tishi bilan pasayishini anglatadi. Bu holat amortizatsiya jarayonlari, texnologik eskirish, uskunalar samaradorligining kamayishi hamda bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Dinamik taqsimlangan lag modeli asosida investitsiyalarning uzoq muddatli umumiy ta’siri ham baholandi. Uzoq muddatli multiplikator formula yordamida

$$\beta = 1,52 + 2,84 + 1,17 = 5,53$$

natija olindi. Olingan natija investitsiyalarning 1 mlrd so‘mga oshishi uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 5.53 mlrd so‘mga oshirishini bildiradi. Investitsion siyosatning tekstil

sanoatini rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini ko‘rsatadi hamda tarmoqda investitsiyalar yuqori multiplikativ samaraga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Dinamik taqsimlangan lag modeli bilan bir qatorda Koyck va Almon modelini ham ko`rib chiqamiz.

Koyck modeli dinamik taqsimlangan lag modelining soddalashtirilgan va dinamik ko‘rinishi hisoblanadi. Distributed lag modelda laglar soni nazariy jihatdan cheksiz bo‘lishi mumkin, ya’ni ishlab chiqarishga joriy investitsiyalar bilan bir qatorda o‘tgan davrlardagi investitsiyalar ham ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu model quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\mathbf{Y_t = \alpha + \beta_0 X_t + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \cdots + \varepsilon_t}$$

Biroq amaliy hisob-kitoblarda laglar sonining ortib ketishi bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, parametrlar soni ko‘payib ketadi, natijada model murakkablashadi hamda laglangan o‘zgaruvchilar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik, ya’ni multikollinearlik muammosi paydo bo‘ladi. Model parametrlarining barqarorligini pasaytiradi va baholash natijalarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dinamik taqsimlangan lag modelini soddalashtirish maqsadida Koyck transformatsiyasi qo‘llaniladi.

Koyck transformatsiyasi taqsimlangan laglar modelining soddalashtirilgan dinamik ko‘rinishi hisoblanadi. Ma’lumki, cheksiz lagli dinamik taqsimlangan lag modelida investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta’siri bir necha davr davomida saqlanib qoladi va model quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$\mathbf{Y_t = \alpha + \beta X_t + \beta \tau X_{t-1} + \beta \tau^2 X_{t-2} + \cdots + \varepsilon_t}$$

Koyck modelining asosiy g‘oyasi lag koeffitsiyentlari geometrik progressiya bo‘yicha kamayib borishini faraz qilishdan iborat. Bu holat quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$\beta_i = \beta \cdot \tau^i, \qquad 0 < \tau < 1$

bu yerda β - boshlang‘ich ta’sir koeffitsiyenti, τ moslashuv yoki pasayish koeffitsiyenti hisoblanadi. Agar τ qiymati 1 ga yaqin bo‘lsa, lag ta’siri uzoq davom etadi, aksincha τ kichik bo‘lsa, ta’sir tez pasayadi.

Hisob-kitoblardan $\beta = 1{,}8$ va $\tau = 0{,}68$ bo‘lganda lag koeffitsiyentlari quyidagicha hisoblanadi:

Birinchi lag:

$$\beta_1 = 1{,}8 \cdot (0{,}68)^1 = 1{,}224$$

Ikkinchi lag:

$$\beta_2 = 1{,}8 \cdot (0{,}68)^2 = 0{,}832$$

Uchinchi lag:

$$\beta_3 = 1{,}8 \cdot (0{,}68)^3 = 0{,}565$$

Hisob-kitob natijalari lag koeffitsiyentlarining vaqt o‘tishi bilan asta-sekin kamayib borishini ko‘rsatadi. Dastlab investitsiyaning ishlab chiqarishga ta’siri kuchli bo‘lsa, keyingi davrlarda ushbu ta’sir pasayib boradi. Bu holat iqtisodiy jihatdan amortizatsiya jarayonlari, texnologik eskirish, uskunalar samaradorligining kamayishi hamda kapitalning vaqt o‘tishi bilan kamroq foyda bera boshlashi bilan izohlanadi.

Cheksiz lagli dinamik taqsimlangan lag modelida lag koeffitsiyentlari geometrik progressiya bo‘yicha kamayib boradi. Biroq amaliy hisob-kitoblarda cheksiz laglarni baholash murakkab hisoblanadi. Shu sababli Koyck transformatsiyasi qo‘llanilib, model quyidagi ixcham ko‘rinishga keltiriladi:

$$\mathbf{Y_t = \alpha(1 - \tau) + \beta X_t + \tau Y_{t-1} + u_t}$$

Bu yerda:

β- joriy investitsiyaning qisqa muddatli ta’siri;

τ- moslashuv yoki inertsiya koeffitsiyenti;

Y_{t-1} - oldingi yil ishlab chiqarish hajmi.

Hisob kitoblar natijasida $\alpha = 120$ ekanligidan Koyck modelining umumiy ko‘rinishi

$$\mathbf{Y_t = 38{,}4 + 1{,}8 X_t + 0{,}68 Y_{t-1}}$$

Mazkur modelning iqtisodiy talqini shuni ko‘rsatadiki, joriy investitsiyalarning 1 birlikka oshishi ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 1.8 birlikka oshiradi. Bu investitsiyalarning qisqa muddatda ham ishlab chiqarishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Modeldagi $0{,}68Y_{t-1}$ komponenti oldingi yil ishlab chiqarish hajmining 68 foizi joriy yil ishlab chiqarishiga o‘tishini anglatadi. Bu Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining inertsiya xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni ishlab chiqarish hajmi keskin o‘zgarmaydi, balki oldingi davrda shakllangan ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik baza va kapital resurslari keyingi davrda ham faoliyatini davom ettiradi.

Koyck modelining muhim jihatlaridan biri investitsiyalarning uzoq muddatli ta’sirini baholash imkonini berishidir. Uzoq muddatli multiplikator quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\frac{\beta}{1-\tau}$$

Hisob natijasida

$$\frac{\beta}{1-\tau} = \frac{1{,}8}{1-0{,}68} = \frac{1{,}8}{0{,}32} = 5{,}625$$

natija olindi. Bu investitsiyalarning 1 birlikka oshishi uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha $5{,}625$ birlikka oshirishini anglatadi. Mazkur natija investitsiyalarning tekstil sanoatida yuqori multiplikativ samaraga ega ekanligini hamda uzoq muddatli investitsion siyosat tarmoq rivojlanishida muhim omil hisoblanishini tasdiqlaydi.

Almon lag modeli dinamik taqsimlangan lag modelining takomillashtirilgan ko‘rinishi hisoblanadi. Ma’lumki, distributed lag modelda laglar soni ortib borgani sari X_t, X_{t-1}, X_{t-2} kabi laglangan o‘zgaruvchilar o‘zaro kuchli bog‘lanib qoladi. Bu ekonometrik tahlilda multikollinearlik muammosini yuzaga keltiradi. Natijada model parametrlarini aniq baholash qiyinlashadi va regressiya koeffitsiyentlarining barqarorligi pasayadi. Ayniqsa, uzoq muddatli dinamik jarayonlarni tahlil qilishda ushbu muammo yanada kuchayadi. Shu sababli lag koeffitsiyentlarini silliq va tartibli ravishda baholash imkonini beruvchi Almon polynomial lag modeli qo‘llaniladi.

Almon modelining asosiy g‘oyasi lag koeffitsiyentlarini alohida-alohida emas, balki polynomial funksiya orqali ifodalashdan iborat. Ushbu yondashuv quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\beta_i = \alpha_0 + \alpha_1 i + \alpha_2 i^2$$

Bu yerda:

$\alpha_0, \alpha_1, \alpha_2$ – polynomial parametrlar;

i - lag tartibi;

β_i- lag koeffitsiyenti.

Tadqiqotda polynomial parametrlar sifatida quyidagi qiymatlar qabul qilindi:

$$\alpha_0 = 2{,}5, \alpha_1 = -0{,}7, \alpha_2 = 0{,}08$$

Mazkur parametrlar yordamida lag koeffitsiyentlari bosqichma-bosqich hisoblandi.

Birinchi lag uchun ($i = 0$):

$$\beta_0 = 2{,}5 - 0{,}7 \cdot 0 + 0{,}08 \cdot (0)^2 = 2{,}5$$

Ikkinchi lag uchun ($i = 0$):

$$\beta_1 = 2{,}5 - 0{,}7 \cdot 1 + 0{,}08 \cdot (1)^2 = 1{,}88$$

Uchinchi lag uchun ($i = 0$):

$$\beta_2 = 2{,}5 - 0{,}7 \cdot 2 + 0{,}08 \cdot (2)^2 = 1{,}42$$

Olingan natijalar lag koeffitsiyentlarining silliq kamayib borishini ko‘rsatadi. Ya’ni investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta’siri dastlab kuchli bo‘lib, keyingi davrlarda asta-sekin pasayadi. Bunda keskin sakrashlar kuzatilmaydi. Ushbu holat modelning statistik barqarorligini oshiradi hamda uzoq muddatli prognozlarning aniqligini yaxshilaydi.

Almon modelining yana bir muhim jihati investitsiyalarning elastiklik darajasini baholash imkonini berishidir. Elastiklik quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$E_i = \beta_i \cdot \frac{X_{t-i}}{Y_t}$$

Bu yerda:

E_i – lag elastikligi;

β_i- lag koeffitsiyenti;

X_{t-i}- laglangan investitsiya;

Y_t - ishlab chiqarish hajmi.

Elastiklik ko‘rsatkichlarini baholashda Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining oxirgi yillardagi ma’lumotlaridan foydalanildi. 2025 yil uchun ishlab chiqarish hajmi $Y_t = 5983,2$ mlrd so‘m, bir yil oldingi investitsiyalar $X_{t-1} = 1294$ mlrd so‘m hamda ikki yil oldingi investitsiyalar $X_{t-2} = 988$ mlrd so‘mni tashkil etdi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, birinchi lag elastikligi:

$$E_1 = 2,84 \cdot \frac{1294}{5983,2} = 0,614$$

ga teng bo‘ldi. Bu investitsiyalarning 1 foizga oshishi ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 0,614 foizga oshirishini anglatadi.

Ikkinchi lag elastikligi:

$$E_2 = 1,17 \cdot \frac{988}{5983,2} = 0,193$$

Natijani berdi. Bu investitsiyalar ta’sirining vaqt o‘tishi bilan kamayib borishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar tekstil sanoatida investitsiyalarning eng katta samarasi bir yil o‘tgach yuzaga chiqishini hamda tarmoqda kapital samaradorligining dinamik xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan ekonometrik tahlillar natijasida qo‘llanilgan dinamik taqsimlangan lag modeli, Koyck modeli va Almon polynomial lag modeli o‘zaro taqqoslandi hamda ularning afzallik va cheklovlari aniqlandi. Dinamik taqsimlangan lag modeli investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmiga joriy va oldingi davrlardagi ta’sirini alohida koeffitsiyentlar orqali baholash imkonini berdi. Ushbu model investitsiyalarning qaysi davrda eng katta samara berishini aniq ko‘rsatib bera oldi. Ayniqsa, birinchi lag koeffitsiyentining yuqori chiqishi investitsiyalarning asosiy ta’siri bir yil o‘tgach yuzaga chiqishini tasdiqladi. Biroq modelda laglar sonining ortishi multikollinearlik muammosini yuzaga keltirishi va parametrlar sonining ko‘payishi uning nisbatan murakkablashishiga olib keladi.

Koyck modeli dinamik taqsimlangan lag modelning soddalashtirilgan dinamik ko‘rinishi sifatida investitsiyalarning uzoq muddatli ta’sirini ixcham shaklda ifodalash imkonini berdi. Ushbu modelda parametrlar sonining kamayishi modelning statistik barqarorligini oshirdi hamda ishlab chiqarishning inertsiya darajasini baholash imkonini yaratdi. Koyck modelida oldingi yil ishlab chiqarish hajmining joriy yilga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi tekstil sanoatining kapital sig‘imli va dinamik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Model uzoq muddatli multiplikatorni baholashda ham samarali natijalar berdi.

Almon polynomial lag modeli laglangan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni kamaytirish orqali modelning barqarorligini oshirdi. Ushbu model lag koeffitsiyentlarini polynomial funksiyalar orqali silliq shaklda taqsimlab, investitsiyalarning ishlab chiqarishga ta’sirini yanada realroq baholash imkonini berdi. Almon modeli ayniqsa uzoq muddatli prognozlashda va dinamik jarayonlarni tahlil qilishda yuqori aniqlik ko‘rsatdi. Natijada uchala model ham investitsiyalarning ishlab chiqarishga kechikkan holda ta’sir qilishini tasdiqladi, biroq Almon modeli statistik barqarorlik va prognoz sifati jihatidan nisbatan ustun ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, investitsiyalarning uzoq muddatli multiplikativ samarasi yuqori ekanligi sababli tarmoqqa yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmini yanada oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning maksimal samarasi bir yil o‘tgach yuzaga chiqayotganligi ishlab chiqarish quvvatlarini tezroq ishga tushirish va texnologik moslashuv jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Buning uchun

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda logistika tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish talab etiladi. Bu yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham muhim omillardan sanalib, malakali mutaxassislarni tayyorlash, dual ta’lim tizimini rivojlantirish va texnologik treninglarni tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlar asosida sertifikatlash tizimlarini joriy qilish hamda eksport geografiyasini kengaytirish Surxondaryo viloyati to‘qimachilik sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gujarati DN, Porter DC Asosiy Ekonometrika . Nyu-York: McGraw-Hill, 2009.
2. Wooldridge JM Kirish Ekonometrikasi: Zamonaviy yondashuv . 7-nashr. Boston: Cengage Learning, 2020.
3. Greene WH Ekonometrik tahlil . 8-nashr. Pearson, 2018.
4. Gujarati DN, Porter DC, Gunasekar S. Asosiy ekonometrika . 5-nashr. Yangi Dehli: McGraw-Hill Education, 2017.
5. Johnston J., DiNardo J. Ekonometrik usullar . 4-nashr. Nyu-York: McGraw-Hill, 1997.
6. Koyck LM Tarqatilgan kechikishlar va investitsiya tahlili . Amsterdam: North-Holland nashriyot kompaniyasi, 1954.
7. Almon S. Kapital mablag'lari va xarajatlar o'rtasidagi taqsimlangan kechikish // Econometrica . 1965 33-jild, 1-son. 178–196-betlar.
8. Enders W. Amaliy ekonometrik vaqt seriyasi . 4-nashr. Wiley, 2014.
9. Verbeek M. Zamonaviy ekonometrika bo'yicha qo'llanma . 5-nashr. Wiley, 2017.
10. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid statistik ma'lumotlar, 2010-2025-yillar . Termiz.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

“SMART BANKING – FINANCIAL STABILITY” KONSEPTUAL YONDASHUVI ASOSIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH

Saidov Doniyor Abdullayevich
“Bank ishi” kafedrasi dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com
ORCID: 0009-0007-3605-2274

Annotatsiya. *Tadqiqotning maqsadi “Smart Banking – Financial Stability” konseptual modelini asoslash va banklarning raqamli ko‘lami bilan moliyaviy barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholashdan iborat. Smart Banking indeksi masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari, bank kartalari, elektron to‘lovlar hamda terminal va bankomatlar infratuzilmasining logarifmlangan va normallashtirilgan ko‘rsatkichlarini birlashtiradi. Bank va yil qat’iy effektlari hamda bank darajasida klasterlangan standart xatolar qo‘llanildi. Indeks 2021-yildagi 0,612 dan 2024-yilda 0,675 gacha oshgan. Ilmiy yangilik raqamli resurslar, tranzaksiya faolligi, analitik qatlam va moliyaviy barqarorlikni yagona uzatish mexanizmida birlashtiruvchi to‘rt qatlamli model hamda banklar kesimidagi bevosita operatsion ko‘rsatkichlarga asoslangan kompozit indeks taklif etilganidadir.*

Kalit so‘zlar: *smart banking, raqamlashtirish, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kompozit indeks, ROA, CIR, NPL, panel ma’lumotlar.*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД «SMART BANKING – FINANCIAL STABILITY» К КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА

Саидов Дониёр Абдуллаевич
доцент кафедры «Банковское дело»,
Ташкентский государственный
экономический университет
E-mail: saidovdoniyor2022@gmail.com
ORCID: 0009-0007-3605-2274

Аннотация. *Цель исследования - обосновать концептуальную модель «Smart Banking – Financial Stability» и оценить взаимосвязь цифрового масштаба банков с их финансовой устойчивостью. Индекс Smart Banking объединяет логарифмированные и нормализованные показатели пользователей дистанционного банковского обслуживания, банковских карт, электронных платежей, терминалов и банкоматов. Оценены модели с фиксированными эффектами банков и лет и кластеризованными по банкам стандартными ошибками. Среднее значение индекса выросло с 0,612 до 0,675. Научная новизна состоит в четырёхуровневой модели передачи эффекта от цифровых ресурсов через транзакционную активность и аналитику к финансовой устойчивости.*

1-rasmda Dehqonobod kaliy zavodi AJning joriy aktivlari va debitorlik qarzlari dinamikasi o‘zaro yaqin yo‘nalishda o‘zgargani kuzatiladi. Xususan, 2022–2023-yillarda joriy aktivlarning umumiy hajmi deyarli barqaror saqlangan bo‘lsa-da, ularning tarkibida debitorlik qarzlari ulushi ortgan. 2024-yilda esa har ikkala ko‘rsatkich keskin kamaygan. Bu holat debitorlik qarzlarining korxona aylanma aktivlari tarkibida salmoqli o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur pasayishni faqat qarzlarni undirish samaradorligining oshishi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Chunki debitorlik qarzlari tarkibida xaridorlarning mahsulot va xizmatlar uchun qarzlaridan tashqari boshqa turdagi qarzdorliklar ham mavjud. Jumladan, ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzlaridagi o‘zgarish umumiy debitorlik qarzlari hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, joriy aktivlar va debitorlik qarzlari kamaygan bir paytda tovar-moddiy zaxiralarning o‘sishi aylanma kapital tarkibida muayyan nomutanosiblik yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Zaxiralar ishlab chiqarish faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lsa-da, ularni qisqa muddatda pul mablag‘lariga aylantirish har doim ham oson emas[7]. Ayniqsa, tayyor mahsulotlarning sotilishi kechikkan yoki xomashyo zaxiralari ishlab chiqarish ehtiyojidan ortiq shakllangan sharoitda mablag‘larning aylanish muddati uzayishi mumkin. Shu sababli korxonaning moliyaviy holatini faqat joriy aktivlar hajmiga qarab baholash yetarli emas. Ularning tarkibi, likvidlik darajasi va pul mablag‘lariga aylanish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarur.

Aylanma kapital tarkibida zaxiralarning ortishi kimyo sanoati korxonalari uchun alohida e’tiborga loyiq. Ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayonining texnologik xususiyatlari, xomashyo yetkazib berish muddatlari va mahsulot tayyorlash bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligi

muayyan miqdorda zaxiralar saqlashni talab qiladi. Xomashyo va materiallarning yetishmasligi ishlab chiqarish uzluksizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq zaxiralarni iqtisodiy jihatdan asoslanmagan holda ko‘paytirish ham korxona uchun maqbul emas. Bunday sharoitda moliyaviy resurslarning ma’lum qismi uzoq muddat zaxiralarda band bo‘lib qoladi, saqlash xarajatlari ortadi va qo‘shimcha moliyalashtirishga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin[8]. Ayniqsa, tayyor mahsulot qoldiqlarining ko‘payishi ishlab chiqarish hajmi bilan sotish imkoniyatlari o‘rtasidagi muvozanatni baholash zarurligini ko‘rsatadi. Mahsulot zaxiralarining ortishi ayrim hollarda kelgusidagi sotuvlar uchun oldindan shakllantirilgan zahiralar bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa holatlarda realizatsiya jarayonining sekinlashganini anglatishi mumkin. Ushbu omillarni farqlash uchun zaxiralar hajmini sotishdan olingan tushum, mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash lozim. Shu jihatdan Dehqonobod kaliy zavodi AJning 2023–2024-yillardagi tovar-moddiy zaxiralari tarkibini alohida tahlil qilish ularning qaysi qismlari hisobiga o‘sish yuz berganini aniqlash hamda aylanma kapitalni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

2-jadval.

Dehqonobod kaliy zavodi AJ tovar-moddiy zaxiralari tarkibining o‘zgarishi


Ko‘rsatkichlar	*2023*	*2024*
Ishlab chiqarish zaxiralari	*85 898 754*	*117 270 646*
Tugallanmagan ishlab chiqarish	*732 993*	*1 109 246*
Tayyor mahsulot	*129 580 402*	*159 256 336*
Tovar-moddiy zaxiralar jami	*216 212 149*	*277 636 228*

Manba: Dehqonobod kaliy zavodi AJning 2024-yilgi moliyaviy hisoboti

2-jadval natijalariga ko‘ra, korxonada tovar-moddiy zaxiralar 2024-yilda oldingi yilga nisbatan 28,4 foizga oshgan. Jumladan, ishlab chiqarish zaxiralari 36,5 foizga, tayyor mahsulot hajmi esa 22,9 foizga ko‘paygan. Zaxiralar tarkibida tayyor mahsulotning salmoqli o‘rin egallashi ularning sotilish tezligini nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulotning omborlarda uzoq muddat saqlanishi moliyaviy resurslarning navbatdagi ishlab chiqarish sikliga qaytishini sekinlashtiradi.

2-rasm.

Dehqonobod kaliy zavodi AJ tovar-moddiy zaxiralari tarkibining 2023–2024-yillardagi o‘zgarishi



Manba: muallif tomonidan korxonaning 2024-yilgi yillik hisoboti asosida shakllantirilgan

2-rasmda ishlab chiqarish zaxiralari bilan tayyor mahsulot qoldiqlari bir vaqtda ortib borgani aks etgan. Bu holat korxonada zaxiralarni rejalashtirish va mahsulot sotish jarayonlarini o‘zaro muvofiqlashtirish masalasiga e’tibor qaratish kerakligini bildiradi. Biroq zaxiralar qiymatining o‘sishi avtomatik ravishda ortiqcha mahsulot to‘planib qolganini anglatmaydi.

Buning uchun ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi va zaxiralar aylanish muddatini ham hisobga olish lozim.

Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligini baholashda uning tarkibiy tuzilishi bilan bir qatorda korxonaning joriy majburiyatlarini o‘z vaqtida qoplash imkoniyatlarini ham o‘rganish zarur. Chunki aylanma aktivlarning yuqori hajmda shakllanishi har doim ham korxonaning moliyaviy barqarorligi mustahkam ekanligini anglatmaydi[9]. Ayniqsa, aktivlarning asosiy qismi ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va debitorlik qarzlarida jamlangan sharoitda joriy likvidlik koeffitsiyenti yuqori bo‘lishiga qaramay, korxona kundalik to‘lovlarni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatda debitorlik qarzlarining o‘z vaqtida undirilmasligi yoki tayyor mahsulotlarning sotilishi kechikishi pul mablag‘lari tushumini sekinlashtirib, qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, kreditorlik qarzlarining ortishi ayrim hollarda qo‘shimcha moliyalashtirish manbai vazifasini bajarsa-da, ularning to‘lov muddatlari bilan pul tushumlari o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi moliyaviy xavflarni kuchaytirishi mumkin[10]. Kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun xomashyo xaridlari, energiya xarajatlari va boshqa joriy to‘lovlarni muntazam moliyalashtirish talab etilishi ushbu masalaning ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli aylanma kapitalni boshqarishda joriy aktivlar va majburiyatlarning mutlaq hajmidan tashqari ularning o‘zaro nisbati, pul mablag‘larining yetarliligi hamda sotishdan tushgan daromadlarning o‘zgarish dinamikasini birgalikda tahlil qilish muhim hisoblanadi. Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda Dehqonobod kaliy zavodi AJning joriy majburiyatlari, pul mablag‘lari va mahsulot sotishdan olingan sof tushumi o‘rtasidagi nisbatlar alohida baholandi. Bu esa korxonada aylanma kapitalning joriy to‘lov qobiliyatiga ta’sirini aniqlash, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi mavjud nomutanosibliklarni baholash hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi[11].

3-jadval.

Dehqonobod kaliy zavodi AJning moliyaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2023	2024
Joriy aktivlar	2 185 384 686	534 017 423
Joriy majburiyatlar	140 697 258	59 199 418
Joriy kreditorlik qarzlari jami	140 697 258	59 199 418
Mahsulot sotishdan sof tushum	696 482 923	707 732 069
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	14 714 619	26 503 858

Manba: Dehqonobod kaliy zavodi AJning 2024-yilgi yillik moliyaviy hisoboti.

3-jadval ma’lumotlari korxonaning joriy majburiyatlari 2024-yilda 57,9 foizga qisqarganini ko‘rsatadi. Shu davrda mahsulot sotishdan sof tushum 1,6 foizga oshgan. Demak, sotishdan olingan tushumning nisbatan barqaror saqlanishi joriy aktivlar hajmining keskin kamayishi bilan bir vaqtda yuz bergan. Bu ikki ko‘rsatkichning turlicha yo‘nalishda o‘zgarishi moliyaviy barqarorlikni baholashda aktivlar tarkibini chuqurroq o‘rganish zarurligini bildiradi.

Korxonaning mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlari esa 2023-yildagi 14 714 619 birlikdan 2024-yilda 26 503 858 birlikka oshgan. Bunday o‘sish yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilish shartlari o‘zgargani yoki xarid hajmining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq mavjud ma’lumotlar ushbu sabablarning qaysi biri ustun bo‘lganini aniqlash uchun yetarli emas. Shuning uchun kreditorlik qarzlarini boshqarishda ularning umumiy hajmidan tashqari to‘lov muddatlari va qarzlarning tarkibiy tuzilishiga ham e’tibor qaratish lozim.

Korxona moliyaviy barqarorligining ayrim jihatlarini aniqlashtirish uchun joriy likvidlik, sof aylanma kapital va mutlaq likvidlik ko‘rsatkichlari hisoblandi. Bunda joriy likvidlik koeffitsiyenti joriy aktivlarning joriy majburiyatlarga nisbati, mutlaq likvidlik koeffitsiyenti pul mablag‘larining joriy majburiyatlarga nisbati, sof aylanma kapital esa joriy aktivlar va joriy

majburiyatlar o‘rtasidagi farq sifatida olindi[12].

4-jadval.

Dehqonobod kaliy zavodi AJning aylanma kapital va likvidlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	***2022***	***2023***	***2024***
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	*70,20*	*15,53*	*9,02*
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	*8,90*	*0,09*	*0,21*
Sof aylanma kapital	*2 160 947 146*	*2 044 687 428*	*474 818 005*
Zaxiralarning joriy aktivlardagi ulushi, %	*6,58*	*9,89*	*51,99*

Manba: muallif tomonidan 2023–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlar asosida hisoblangan.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, korxonaning joriy likvidlik koeffitsiyenti 2022-yildagi 70,20 dan 2024-yilda 9,02 gacha pasaygan. Shunga qaramay, joriy aktivlar joriy majburiyatlardan sezilarli darajada yuqori bo‘lib qolgan. Biroq koeffitsiyentning avvalgi yillardagi favqulodda yuqori qiymatlariga debitorlik qarzlari, xususan, ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli yuqori joriy likvidlik korxonaning barcha majburiyatlarini pul mablag‘lari hisobidan darhol qoplash imkoniyati mavjudligini anglatmaydi.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyentidagi o‘zgarishlar bu fikrni yanada aniqlashtiradi. Mazkur ko‘rsatkich 2022-yilda 8,90 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 0,09 gacha kamaygan, 2024-yilda esa 0,21 ga yetgan. Demak, 2024-yilda korxonaning pul mablag‘lari joriy majburiyatlarining taxminan 21 foiziga teng bo‘lgan. Bu holat umumiy joriy aktivlar bilan bevosita foydalanish mumkin bo‘lgan pul resurslari o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi.

Sof aylanma kapital ham tahlil davrida kamaygan. Uning 2024-yildagi qiymati 474 818 005 birlikni tashkil etgan. Shu bilan birga, tovar-moddiy zaxiralarning joriy aktivlar tarkibidagi ulushi 2022-yildagi 6,58 foizdan 2024-yilda 51,99 foizgacha oshgan. Mazkur o‘zgarish aylanma kapital tarkibida ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulotning nisbiy ahamiyati kuchayganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kimyo sanoati korxonalarida aylanma kapitalni boshqarishni takomillashtirish bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda olib borilishi lozim. Avvalo, xomashyo va tayyor mahsulot zaxiralarini ishlab chiqarish hamda sotish hajmlariga mos ravishda rejalashtirish zarur. Debitorlik qarzlarini boshqarishda esa xaridorlarning to‘lov intizomini baholash, shartnomalarda to‘lov muddatlarini aniq belgilash va qarzlarning yuzaga kelish sabablarini muntazam tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, pul tushumlari bilan joriy majburiyatlarni qaytarish muddatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyatini saqlashga xizmat qiladi[13].

O‘rganilgan ko‘rsatkichlar aylanma kapitalning maqbul hajmini belgilashda yagona moliyaviy koeffitsiyentga tayanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Joriy aktivlarning ko‘payishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin, lekin ushbu o‘sish asosan sekin aylanadigan zaxiralar yoki undirilishi kechikayotgan qarzlar hisobiga yuz bersa, kutilgan natijaga erishilmaydi[14]. Shu sababli kimyo sanoati korxonalari uchun aylanma kapitalni boshqarish tizimida likvidlik, zaxiralar aylanuvchanligi, pul oqimlari va qisqa muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash ustuvor ahamiyatga ega.

Xulosa

Dehqonobod kaliy zavodi AJning 2022–2024-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili aylanma kapital tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Xususan, joriy aktivlar va debitorlik qarzlari hajmi keskin kamaygan bo‘lsa, tovar-moddiy zaxiralar muntazam ortib borgan. Joriy aktivlarning qisqarishiga ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi nolga tushgani katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli mazkur o‘zgarishni korxona operatsion faoliyati samaradorligining pasayishi yoki ortishi bilan bevosita bog‘lash to‘g‘ri emas.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kimyo sanoati korxonalarida aylanma kapitalni boshqarish

samaradorligini oshirish uchun zaxiralar hajmini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, tayyor mahsulotlarning omborlarda saqlanish muddatini nazorat qilish, debitorlik qarzlarini undirish jarayonini takomillashtirish va pul mablag‘lari harakatini joriy majburiyatlarning to‘lov muddatlari bilan muvofiqlashtirish taklif etiladi. Bunda aylanma kapitalning umumiy qiymatini oshirishdan ko‘ra, uning tarkibini maqbullashtirish va mablag‘larning pul shakliga qaytish tezligini ta’minlash muhimroqdir.

Kimyo sanoati korxonalarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun joriy likvidlik koeffitsiyentini sof aylanma kapital, mutlaq likvidlik va zaxiralar aylanuvchanligi bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv aylanma mablag‘lar tarkibidagi nomutanosibliklarni aniqlash, moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni oldindan baholash va boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, aylanma kapitalni samarali boshqarish korxonaning faqat joriy to‘lov qobiliyatini saqlash bilan cheklanmaydi. U ishlab chiqarish uzluksizligi, moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bilan ham uzviy bog‘liq. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari bitta korxonaning uch yillik ma’lumotlariga asoslangani sababli, xulosalarni boshqa kimyo sanoati korxonalariga tatbiq etishda qo‘shimcha qiyosiy tahlil talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish vazifalari belgilandi". 2026-yil 2-iyun. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

2. Deloof M. Does Working Capital Management Affect Profitability of Belgian Firms? // Journal of Business Finance & Accounting. 2003. Vol. 30, No. 3–4. P. 573–588.

3. Baños-Caballero S., García-Teruel P. J., Martínez-Solano P. Working Capital Management, Corporate Performance, and Financial Constraints // Journal of Business Research. 2014. Vol. 67, No. 3. P. 332–338.

4. Aktas N., Croci E., Petmezas D. Is Working Capital Management Value-Enhancing? Evidence from Firm Performance and Investments // Journal of Corporate Finance. 2015. Vol. 30. P. 98–113.

5. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ. 2023-yil yakunlari bo‘yicha yillik moliyaviy hisobot. O‘zbekiston Respublikasi Yagona korporativ axborot portali (Openinfo). 2024.

6. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ. 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik moliyaviy hisobot. O‘zbekiston Respublikasi Yagona korporativ axborot portali (Openinfo). 2025.

7. García-Teruel P. J., Martínez-Solano P. Effects of Working Capital Management on SME Profitability // International Journal of Managerial Finance. 2007. Vol. 3, No. 2. P. 164–177.

8. Lazaridis I., Tryfonidis D. Relationship Between Working Capital Management and Profitability of Listed Companies in the Athens Stock Exchange // Journal of Financial Management and Analysis. 2006. Vol. 19, No. 1.

9. Enqvist J., Graham M., Nikkinen J. The Impact of Working Capital Management on Firm Profitability in Different Business Cycles: Evidence from Finland // Research in International Business and Finance. 2014. Vol. 32. P. 36–49.

10. Kieschnick R., Laplante M., Moussawi R. Working Capital Management and Shareholders’ Wealth // Review of Finance. 2013. Vol. 17, No. 5. P. 1827–1852.

11. Afrifa G. A. Net Working Capital, Cash Flow and Performance of UK SMEs // Review of Accounting and Finance. 2016. Vol. 15, No. 1. P. 21–44.

12. Afrifa G. A., Padachi K. Working Capital Level Influence on SME Profitability // Journal of Small Business and Enterprise Development. 2016. Vol. 23, No. 1. P. 44–63.

13. Richards V. D., Laughlin E. J. A Cash Conversion Cycle Approach to Liquidity Analysis // Financial Management. 1980. Vol. 9, No. 1. P. 32–38.

14. Shin H. H., Soenen L. Efficiency of Working Capital Management and Corporate Profitability // Financial Practice and Education. 1998. Vol. 8, No. 2. P. 37–45.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Shukurullayev Davron Lutfullo o’g’li
Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi
O’zbekistondagi filiali - PR Manager.
E-mail: dshukurullaev@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada yashil loyihalarni moliyalashtirishda yuzaga keladigan moliyaviy, kredit, texnologik, ekologik, iqlim va institutsional risklarning iqtisodiy mohiyati, ularni baholash hamda boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, aralash moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik va sug‘urta instrumentlarining investitsiya risklarini kamaytirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Xalqaro tajriba asosida yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni aniqlash, baholash, taqsimlash va monitoring qilishning zamonaviy yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, moliyaviy va ekologik ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtirishga asoslangan integral risklarni baholash modeli, riskga moslashtirilgan kreditlash mexanizmi, iqlim stress-testlari hamda raqamli erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yashil investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, investitsion jozibadorligini oshirish va O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish, yashil investitsiya loyihalari, risklarni boshqarish, moliyaviy risklar, iqlim risklari, ekologik risklar, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, aralash moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, integral risklarni baholash, risk-menejment, iqlim stress-testlari, raqamli monitoring, moliyaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik.*

RISK MANAGEMENT MECHANISMS IN GREEN PROJECT FINANCING

Shukurullayev Davron Lutfullo ugli
Uzbekistan Branch of the Regional Environmental Centre for Central Asia (CAREC),
Public Relations Manager (PR Manager)
E-mail: dshukurullaev@gmail.com

Annotation: *This article examines the economic nature of financial, credit, technological, environmental, climate-related, and institutional risks arising in green project financing, as well as approaches to improving their assessment and management mechanisms. The study analyzes the role of green loans, green bonds, blended finance, public-private partnerships, and insurance instruments in mitigating investment risks. Drawing on international experience, the article explores modern approaches to risk identification, assessment, allocation, and monitoring in green project financing. Furthermore, the study develops scientific and practical recommendations for implementing an integrated risk assessment model combining financial and environmental indicators, a risk-adjusted lending mechanism, climate stress testing, and digital early warning systems. The research findings are intended to contribute to ensuring the financial sustainability of green investment projects, enhancing their investment attractiveness, and improving the green financing system in Uzbekistan.*

Key words. *Green economy, green finance, green investment projects, risk management, financial risks, climate risks, environmental risks, green loans, green bonds, blended finance, public-private partnerships, integrated risk assessment, climate stress testing, digital monitoring, financial sustainability, investment attractiveness.*

МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ФИНАНСИРОВАНИИ ЗЕЛЁНЫХ ПРОЕКТОВ

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Шукуруллаев Даврон Лутфулло угли
Филиал Регионального экологического центра Центральной Азии в Узбекистане, менеджер по связям с общественностью (PR Manager)
E-mail: dshukurullaev@gmail.com

Аннотация. *В данной статье исследованы экономическая сущность финансовых, кредитных, технологических, экологических, климатических и институциональных рисков, возникающих при финансировании зелёных проектов, а также направления совершенствования механизмов их оценки и управления. Проанализирована роль зелёных кредитов, зелёных облигаций, смешанного финансирования, государственно-частного партнёрства и страховых инструментов в снижении инвестиционных рисков. На основе международного опыта изучены современные подходы к выявлению, оценке, распределению и мониторингу рисков при финансировании зелёных проектов. Кроме того, разработаны научно-практические предложения по внедрению интегральной модели оценки рисков, основанной на сочетании финансовых и экологических показателей, механизма кредитования с учётом уровня риска, климатических стресс-тестов и цифровых систем раннего предупреждения. Результаты исследования направлены на обеспечение финансовой устойчивости зелёных инвестиционных проектов, повышение их инвестиционной привлекательности и совершенствование системы зелёного финансирования в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Зелёная экономика, зелёное финансирование, зелёные инвестиционные проекты, управление рисками, финансовые риски, климатические риски, экологические риски, зелёные кредиты, зелёные облигации, смешанное финансирование, государственно-частное партнёрство, интегральная оценка рисков, риск-менеджмент, климатические стресс-тесты, цифровой мониторинг, финансовая устойчивость, инвестиционная привлекательность.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari, tabiiy resurslar cheklanganligi hamda ekologik muvozanatni ta’minlash zarurati iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy modellarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdorining ortishi, energiya resurslariga bo‘lgan talabning oshishi, suv tanqisligi va ekologik muammolarning keskinlashuvi sharoitida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonlar mamlakatlar oldiga iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish bilan bir qatorda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish kabi strategik vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, ekologik barqaror investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va ularni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliya institutlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish tizimini rivojlantirish faqat moliyaviy resurslar hajmini oshirish bilan cheklanmaydi, balki investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi, ekologik natijadorligi va moliyaviy barqarorligini o‘zaro uyg‘unlashtirishni ham talab qiladi. Jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan iqlim bilan bog‘liq risklar fizik va o‘tish risklariga ajratilib, ularni investitsiya qarorlariga integratsiyalash, baholash hamda boshqarish zarurligi ta’kidlanmoqda. Fizik risklar tabiiy ofatlar, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi va haroratning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘tish risklari ekologik talablarning kuchayishi, qonunchilikdagi o‘zgarishlar, yangi texnologiyalarning paydo bo‘lishi hamda bozor talabining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu risklarning investitsiya loyihalariga ta’sirini yetarli darajada hisobga olmaslik moliyalashtirish xarajatlarining oshishi, investitsiyalarning kutilgan samaradorligiga erishilmasligi va moliyaviy yo‘qotishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yashil loyihalarni moliyalashtirish jarayonida risklarning murakkabligi ularning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarida texnologik risklar ishlab chiqarish quvvatlarining rejalashtirilgan darajada ishlamasligiga, bozor risklari elektr energiyasi narxlarining o‘zgarishiga, moliyaviy risklar esa kredit resurslari qiymatining oshishi yoki valyuta kurslari tebranishiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik va me’yoriy-huquqiy talablarning o‘zgarishi loyihalarning dastlabki texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini qayta hisoblash zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur holat yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni alohida omillar sifatida emas, balki yagona kompleks tizim doirasida baholash, ularning ehtimollik darajasi va kutilayotgan iqtisodiy oqibatlarini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash zarurligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil loyihalarni moliyalashtirishda uzoq muddatli va maqbul qiymatdagi moliyaviy resurslarning cheklanganligi, investitsiya bozorlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ekologik loyihalarni baholash bo‘yicha ishonchli ma’lumotlar bazasining shakllanmaganligi hamda risklarni taqsimlash instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi muhim muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur sharoitda davlat budjeti mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari resurslari, xususiy investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, kafolatlar va sug‘urta instrumentlaridan o‘zaro uyg‘unlikda foydalanish zarurati ortmoqda. Biroq ushbu moliyalashtirish manbalarining samaradorligi risklarni loyiha ishtirokchilari o‘rtasida oqilona taqsimlash, moliyaviy majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash hamda investorlarga maqbul risk va daromadlilik nisbatini shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyotga o‘tish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini ko‘paytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatning tabiiy-iqlim sharoiti, suv resurslarining cheklanganligi, ayrim hududlarda ekologik muammolarning mavjudligi va iqtisodiyotning energiya sig‘imi yuqoriligi yashil investitsiya loyihalarini kengaytirish zaruratini kuchaytirmoqda. Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha iqlim va rivojlanish hisobotida ham suv tanqisligi, qurg‘oqchilik, ekstremal issiqlik va boshqa iqlim omillarining iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda iqlimga moslashuvchan iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish hajmini oshirish bilan bir qatorda mazkur jarayonda yuzaga keladigan risklarni boshqarishning samarali tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan yashil loyihalarni kreditlashda qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini baholashning an’anaviy usullari bilan cheklanmasdan, loyihaning ekologik samaradorligi, uglerod chiqindilarini qisqartirish salohiyati, iqlim o‘zgarishiga chidamliligi, texnologik barqarorligi va uzoq muddatli pul oqimlarini shakllantirish imkoniyatlarini ham hisobga olish talab etiladi. Bunda loyihalarni moliyalashtirishning dastlabki bosqichidan ularni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish davrigacha bo‘lgan jarayonlarda risklarni baholash mezonlarini ishlab chiqish, kredit portfelining ekologik risklarga ta’sirchanligini aniqlash va monitoring tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, yashil loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish, investitsion kafolatlar va ekologik sug‘urta vositalarini rivojlantirish, shuningdek, risklarni kamaytirishga yo‘naltirilgan aralash moliyalashtirish modellarini keng joriy etish zarurati mavjud. Bunday mexanizmlar xususiy investorlarning yashil loyihalarda ishtirok etish rag‘batlarini kuchaytirish, kapital qiymatini pasaytirish va investitsiya resurslarining barqaror oqimini ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy risklarni taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqishda davlat kafolatlari va imtiyozli moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanishning iqtisodiy asoslanganligini ta’minlash, budjet uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan shartli majburiyatlarni

hisobga olish hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yakuniy natijadorligini baholash talab etiladi.

Yashil loyihalarni moliyalashtirishning yana bir dolzarb jihati investitsiya samaradorligini baholashda an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy natijalarni hisobga oluvchi kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq. Bunda sof joriy qiymat, ichki rentabellik me’yori, investitsiyalarning qoplanish muddati va qarzga xizmat ko‘rsatish koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlarni ekologik samaradorlik, resurs tejamkorligi, emissiyalarni kamaytirish va iqlim risklariga chidamlilik indikatorlari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ssenariyli tahlil, sezgirlik tahlili, stress-testlash hamda ehtimollikka asoslangan modellashtirish usullaridan foydalanish yashil loyihalarning turli makroiqtisodiy, moliyaviy va ekologik sharoitlardagi barqarorligini baholash imkonini kengaytiradi.

Shu bilan birga, yashil moliyalashtirish amaliyotida ekologik natijalarni noto‘g‘ri aks ettirish yoki loyihaning haqiqiy ekologik samaradorligini oshirib ko‘rsatish bilan bog‘liq greenwashing riskining mavjudligi investitsiya qarorlarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur riskni kamaytirish uchun yashil loyihalarni tasniflashning aniq mezonlarini belgilash, ekologik ko‘rsatkichlarni mustaqil tekshirish, moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish va axborot oshkoraligini ta’minlash zarur. Bu esa xalqaro ekologik va moliyaviy hisobot standartlariga mos risk-menejment tizimlarini rivojlantirish, raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish hamda yashil investitsiya loyihalari bo‘yicha yagona axborot bazasini shakllantirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Jumladan, o‘zbek iqtisodchi olimlaridan M.M. Ikramov o‘z ilmiy tadqiqotlarida O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimining shakllanishi, ekologik investitsiyalarni hududlar kesimida taqsimlash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini tadqiq etadi. Muallif yashil loyihalarni moliyalashtirishda hududlarning iqtisodiy salohiyati, ekologik holati va investitsiyaviy imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutlar moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etishini ilmiy jihatdan asoslashga intiladi. Tadqiqotda klaster tahlili va regressiya modellaridan foydalanish orqali ekologik investitsiyalarni hududiy taqsimlashning mavjud xususiyatlari o‘rganilgan. Muallifning tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yashil loyihalarni moliyalashtirishda hududiy investitsiya risklarini hisobga olish, ekologik investitsiyalar samaradorligini kompleks baholash hamda davlat va xususiy sektor moliyaviy resurslarini ustuvor yo‘nalishlarga jalb etish muhimligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin. Ushbu yondashuv yashil loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda hududiy risklarni baholash mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi [1].

Sh.A. Masharipova o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda yashil moliyalashtirishning rivojlanish imkoniyatlari, xalqaro tajribadan foydalanish yo‘nalishlari va ekologik barqaror investitsiyalarni rag‘batlantirishning strategik mexanizmlarini tadqiq etadi. Muallif yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar va boshqa barqaror moliyalashtirish instrumentlarining iqtisodiyotga joriy etilishi ekologik loyihalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni safarbar qilish imkoniyatini kengaytirishini ko‘rsatadi. Tadqiqotda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan institutsional va iqtisodiy to‘siqlarni aniqlash, xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish hamda moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur ilmiy yondashuv asosida yashil loyihalarni moliyalashtirish risklarini kamaytirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investorlar manfaatlarini himoya etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini iqtisodiy jihatdan asoslash zarurligini qayd etish mumkin [2].

Sh.S. Qorriyeva o‘z ilmiy izlanishlarida O‘zbekistonda yashil moliyalashtirishni rivojlantirishning xorijiy tajribasi, ekologik investitsiyalarni jalb etish hamda moliyaviy risklarni kamaytirishga yo‘naltirilgan instrumentlardan foydalanish masalalarini tahlil qiladi. Muallif yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlat tomonidan tartibga solish, imtiyozli moliyalashtirish, kreditlash va xususiy investorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqotda xalqaro va milliy moliya institutlarining yashil investitsiyalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki hamda rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan iqtisodiy rag‘batlantirish usullari yoritilgan. Muallifning yondashuvi yashil loyihalarni moliyalashtirishda investorlar duch keladigan moliyaviy va institutsional risklarni kamaytirish uchun kredit kafolatlari, imtiyozli moliyaviy instrumentlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini uyg‘unlashtirish muhimligini asoslashga xizmat qiladi [3].

Z.R. Boribayeva o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, ekologik investitsiyalarni kapital bozori instrumentlari orqali moliyalashtirish hamda yashil qimmatli qog‘ozlar emissiyasiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni o‘rganadi. Muallif yashil obligatsiyalar qayta tiklanuvchi energetika, ekologik infratuzilma va resurslarni tejashga qaratilgan loyihalar uchun uzoq muddatli kapital jalb etish imkoniyatini yaratishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, milliy kapital bozoridagi tartibga solish talablari, emitentlarning moliyaviy imkoniyatlari va ixtisoslashgan bilim hamda tajribaning yetishmasligi yashil obligatsiyalar bozorining rivojlanishini cheklovchi omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif yashil sukuk kabi muqobil moliyalashtirish instrumentlarining imkoniyatlarini ham tahlil qiladi. Mazkur tadqiqot yashil loyihalarni moliyalashtirishda kapital bozori risklarini baholash, emitentlarning ishonchliligini oshirish va investitsiyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish masalalarining dolzarbligini ko‘rsatadi [4].

M. Alinazarov o‘z ilmiy tadqiqotlarida yashil moliyalashtirish instrumentlarining O‘zbekiston korxonalari moliyaviy barqarorligiga ta’sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Muallif yashil obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko‘rsatkichlarini oshkor etish tizimlari hamda yashil kreditlash dasturlarini korxonalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi instrumentlar sifatida ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda ushbu instrumentlarning moliyaviy barqarorlikka ta’siri signal berish nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi va resurslarga asoslangan yondashuv orqali izohlanadi. Muallifning ilmiy yondashuvidan kelib chiqib, yashil loyihalarni moliyalashtirishda axborot assimetriyasini kamaytirish, investorlarning ishonchini mustahkamlash va korxonalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash risk-menejment tizimining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi [5].

S.S. Soxibjonova o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga investitsiya siyosatini takomillashtirish, yashil loyihalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda investitsiyaviy risklarni taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish masalalarini o‘rganadi. Muallif yashil investitsiyalarni faqat jalb etilgan kapital hajmi bilan baholash yetarli emasligini, bunda moliyalashtirish manbalarining tarkibi, tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti, mavjud risklar va ekologik-iqtisodiy natijadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham inobatga olish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotda yashil obligatsiyalar, ekologik moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik va yashil taksonomiya kabi instrumentlarning investitsiya jarayonidagi o‘rni ochib beriladi. Mazkur yondashuv yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni loyiha ishtirokchilari o‘rtasida optimal taqsimlash, investitsiyalarning moliyaviy samaradorligini ekologik natijalar bilan uyg‘unlashtirish hamda yashil moliyalashtirishning kompleks baholash tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi [6].

C. Flammer o‘z ilmiy tadqiqotlarida korporativ yashil obligatsiyalarni chiqarishning investitsion faollik, korxonalarning ekologik samaradorligi va moliyaviy bozor ishtirokchilari qarorlariga ta’sirini empirik ma’lumotlar asosida o‘rganadi. Muallif yashil obligatsiyalarni emissiya qilish kompaniyalarga ekologik yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun resurslar jalb etish bilan bir qatorda, investorlar oldida o‘zlarining barqaror rivojlanishga bo‘lgan majburiyatlarini namoyish qilish imkonini berishini asoslaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra,

yashil obligatsiyalar emissiyasi to‘g‘risidagi e’lonlarga investorlarning ijobiy munosabati, ayniqsa, ilk marta emissiya qilayotgan kompaniyalarda va uchinchi tomon tomonidan sertifikatlangan obligatsiyalarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Muallifning fikricha, yashil obligatsiyalarni mustaqil tekshirish va sertifikatlash mexanizmlari investorlar uchun ishonchli axborot signallarini shakllantirib, moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi noaniqlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy yondashuv yashil loyihalarni moliyalashtirishda axborot assimetriyasi va greenwashing risklarini kamaytirish uchun mustaqil baholash hamda ekologik hisobot tizimlarini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi [7].

S. Battiston hammualliflar bilan olib borgan tadqiqotlarida iqlim o‘zgarishi va kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarning bank tizimi hamda kapital bozorlariga ta’sirini o‘rganadi. Muallif moliyaviy institutlarning o‘zaro bog‘liqligi sababli alohida tarmoqlarda yuzaga keladigan iqlim va tartibga solish risklari butun moliya tizimiga tarqalishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Tadqiqotda yashil va yuqori uglerodli iqtisodiy rivojlanish ssenariylari asosida moliyaviy tizimning iqlim risklariga chidamliligini baholovchi tarmoqli stress-testlash metodologiyasi ishlab chiqilgan. Muallifning yondashuviga ko‘ra, risklarni faqat alohida investitsiya loyihasi darajasida baholash yetarli emas, balki ularning kredit portfeli, moliyaviy institutlar va butun moliya tizimi barqarorligiga ta’sirini ham aniqlash zarur. Mazkur ilmiy qarash yashil loyihalarni moliyalashtirishda ssenariyli tahlil, iqlim stress-testlari va tizimli risklarni baholash modellaridan foydalanishning metodologik asoslarini shakllantiradi [8].

E. Campiglio hammualliflar bilan olib borgan ilmiy izlanishlarida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarning moliyaviy aktivlar qiymati, investitsiya daromadliligi va moliyaviy barqarorlikka ta’sirini nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qiladi. Muallifning yondashuvida iqlim risklari fizik va o‘tish risklari orqali korxonalarning ishlab chiqarish xarajatlari, daromadlari, pul oqimlari va aktivlarining bozor qiymatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi asoslanadi. Tadqiqotda iqlim omillarining moliyaviy aktivlar narxiga uzatilish kanallari hamda istiqboldagi risklarni baholashga yo‘naltirilgan uslubiy yondashuvlar o‘rganilgan. Muallifning ilmiy natijalaridan kelib chiqib, yashil investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarni iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq uzoq muddatli risk omillari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlash mumkin. Bunday yondashuv investitsiya loyihalarining kutilayotgan pul oqimlarini iqlim ssenariylari asosida baholash va risklarni hisobga olgan holda moliyalashtirish shartlarini belgilash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [9].

P. Bolton M. Kacperczyk bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlarida korxonalarning uglerod emissiyalari, investitsiya daromadliligi va moliyaviy bozorlarda iqlim risklarining baholanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Mualliflar AQSh fond bozori ma’lumotlarini empirik tahlil qilish asosida uglerod chiqindilari yuqori bo‘lgan kompaniyalar aksiyalari yuqoriroq daromadlilik bilan tavsiflanishini aniqlaganlar. Ushbu natija investorlar uglerod riskiga duchor bo‘lish evaziga qo‘shimcha daromadlilik talab qilayotganiga mos keladi. Tadqiqotda institutsional investorlarning ayrim yuqori emissiyali tarmoqlarga investitsiya kiritishni cheklashi ham aniqlangan. Muallifning ilmiy qarashlari yashil loyihalarni moliyalashtirishda uglerod intensivligi, ekologik tartibga solish va iqtisodiyotning dekarbonizatsiyalashuvi bilan bog‘liq risklarni kapital qiymatini aniqlash jarayoniga integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa yashil investitsiyalarning riskga moslashtirilgan daromadliligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi [10].

P. Krueger hammualliflar bilan amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlarida institutsional investorlarning iqlim risklarini idrok etishi, ushbu risklarning investitsiya portfellariga ta’siri va ularni boshqarish strategiyalarini tahlil qiladi. Mualliflar institutsional investorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga asoslanib, iqlim risklari, ayniqsa, ekologik tartibga solish bilan bog‘liq risklar kompaniyalarning moliyaviy faoliyatiga ta’sir ko‘rsata boshlaganini aniqlaganlar. Tadqiqotda uzoq muddatli investitsiya strategiyasiga ega va ekologik, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv mezonlariga e’tibor qaratadigan investorlar iqlim risklarini boshqarish hamda kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilishni investitsiyalardan voz kechishga nisbatan ko‘proq afzal

ko‘rishi ko‘rsatilgan. Muallifning ilmiy yondashuvi yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklardan qochish bilan cheklanmasdan, ularni faol boshqarish, ekologik ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilish va investorlar hamda loyiha tashabbuskorlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini kuchaytirish zarurligini asoslaydi [11].

S. Giglio B. Kelly va J. Stroebel bilan birgalikda olib borgan tadqiqotlarida iqlim o‘zgarishi va moliyaviy bozorlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, iqlim risklarining turli aktivlar qiymatida aks etishini hamda investorlarning ushbu risklardan himoyalanish strategiyalarini tizimli ravishda tahlil qiladi. Mualliflar iqlim risklarini makromoliyaviy modellashtirish, ko‘chmas mulk, aksiyalar va qarz qimmatli qog‘ozlari bozorlarida baholash hamda investitsiya portfelini shakllantirish orqali ulardan himoyalanish yo‘nalishlarini o‘rganadilar. Mualliflarning fikricha, iqlim risklarini investitsiya qarorlariga integratsiyalash uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va aktivlar portfelining kutilmagan ekologik o‘zgarishlarga ta’sirchanligini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur ilmiy yondashuv yashil loyihalarni moliyalashtirishda investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, turli aktivlarning iqlim risklariga sezgirligini baholash va risklardan himoyalanish strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy asoslarini kengaytiradi [12].

O.S. Miroshnichenko N.A. Mostovaya bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlarida yashil kreditlashning iqtisodiy mohiyati, ekologik loyihalarni bank kreditlari orqali moliyalashtirish imkoniyatlari va ushbu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy risklarni o‘rganadi. Mualliflar yashil kreditlarni qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa ekologik loyihalarni moliyalashtirishning muhim instrumenti sifatida ko‘rib chiqadilar. Tadqiqotda yashil kreditlashning rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar, ekologik loyihalarning yuqori riskliligi va moliyalashtirishning iqtisodiy asoslanganligi masalalariga e’tibor qaratiladi. Muallifning yondashuvidan kelib chiqib, yashil loyihalarni kreditlashda qarz oluvchining moliyaviy barqarorligini baholash bilan bir qatorda loyihaning ekologik xususiyatlari, texnologik imkoniyatlari va uzoq muddatli pul oqimlarini shakllantirish salohiyatini inobatga olish zarurligini qayd etish mumkin. Ushbu ilmiy qarash banklarda yashil kredit portfeli risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega [13].

N.A. Mostovaya O.S. Miroshnichenko bilan birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarida yashil kreditlarning an’anaviy bank kreditlaridan farqlanuvchi xususiyatlari, ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi o‘rni va mazkur moliyaviy instrumentni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Mualliflar yashil kreditlash ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishini ko‘rsatadilar. Shu bilan birga, yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligini asoslashdagi murakkabliklar va risklarning yuqoriligi banklar uchun moliyalashtirish qarorlarini qabul qilishda muhim to‘siq bo‘lishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Mazkur ilmiy yondashuv asosida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda ekologik loyihalarni tanlab olish mezonlarini aniqlashtirish, moliyalashtirish shartlarini loyiha xususiyatlariga moslashtirish va risklarni kamaytiruvchi qo‘shimcha instrumentlardan foydalanish zarurligini ta’kidlash mumkin [13].

Tadqiqot metodologiyasi.

Yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlari bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon amaliyotida yashil loyihalarni moliyalashtirish qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza transport infratuzilmasini yaratish, suv resurslarini tejash, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishning asosiy moliyaviy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday loyihalarni amalga oshirish katta hajmdagi uzoq muddatli kapital qo‘yilmalarni,

zamonaviy innovatsion texnologiyalarni va turli moliyalashtirish manbalarini jalb etishni talab qiladi. Shu bilan birga, yashil loyihalar an’anaviy investitsiya loyihalariga nisbatan o‘ziga xos iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ekologik va institutsional xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning rentabelligi, investitsiyalarning qaytish muddati va kutilayotgan pul oqimlari turli noaniqliklar ta’sirida shakllanadi. Natijada bunday loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni o‘z vaqtida aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilishga yo‘naltirilgan kompleks boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Yashil loyihalardagi har bir risk turi uchun alohida himoya mexanizmi mavjudligini ko’rsatadi. Kredit riski davlat yoki xalqaro moliya institutlarining kafolati, garov va sug’urta orqali kamaytiriladi. Bozor riski esa uzoq muddatli PPA shartnomalari, foiz svoplari va valyuta forvardlari bilan boshqariladi. Bu vositalar loyihaning kelajakdagi pul oqimlarini bashorat qilinadigan qiladi, bu esa uzoq muddatli va kapital talab qiladigan yashil loyihalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Texnologik, operatsion va fizik risklar bo’yicha mexanizmlar loyihaning qurilish va ekspluatatsiya bosqichlariga qaratilgan. Mustaqil texnik ekspertiza va ishlab chiqaruvchining ishlash kafolati texnologik nosozlik xavfini kamaytiradi. “Kalit topshirish” asosidagi EPC shartnomalari qat’iy narx va muddatni belgilab, kechikish uchun jarima orqali pudratchini javobgar qiladi. Parametrik sug’urta va resurslarni puxta baholash esa quyosh nurlanishi yoki shamol tezligining prognozdan past bo’lishi kabi tabiiy omillarning ta’sirini yumshatadi. Natijada risk loyiha homiysidan uni eng yaxshi boshqara oladigan tomonga o’tkaziladi.

1-jadval

Risklarni boshqarish mexanizmlari*

Risk turi	Boshqarish mexanizmi	Qo’llanish usuli
Kredit riski	Kafolatlar, garov, sug’urta	Davlat yoki XMI (xalqaro moliya institutlari) kafolati, qisman kredit kafolati
Bozor riski	Xedjing, uzoq muddatli shartnomalar	PPA, foiz svoplari, valyuta forvardlari
Texnologik risk	Texnik ekspertiza, pilot loyihalar, ishlab chiqaruvchi kafolati	Mustaqil texnik auditor, ishlash kafolati (performance guarantee)
Siyosiy risk	Siyosiy risk sug’urtasi, xalqaro arbitraj	MIGA kafolatlari, ikki tomonlama investitsiya bitimlari
Operatsion risk	EPC “kalit topshirish” shartnomalari	Qat’iy narx va muddat, kechikish uchun jarima
Fizik/iqlim risk	Sug’urta, resurslarni baholash	Parametrik sug’urta, ob-havo ma’lumotlari tahlili
Likvidlik riski	Zaxira hisoblar, ko’p manbali moliyalashtirish	DSRA (qarzga xizmat ko’rsatish zaxirasi), sindikatsiyalangan kreditlar
Greenwashing	Tashqi sertifikatlash va hisobot	Second Party Opinion, ICMA Green Bond Principles, ta’sir hisoboti
Kontragent riski	To’lov kafolatlari, escrow hisoblar	Akkreditiv, “take-or-pay” shartlari

Siyosiy, likvidlik, kontragent va greenwashing risklari bo’yicha mexanizmlar loyihaning tashqi muhitga bog’liqligini kamaytiradi. MIGA sug’urtasi va xalqaro arbitraj qonunchilik o’zgarishi yoki shartnoma buzilishidan himoya qiladi, DSRA zaxira hisobi va sindikatsiyalangan kreditlar qarzga xizmat ko’rsatishning uzluksizligini ta’minlaydi. Akkreditiv, escrow hisoblar va “take-or-pay” shartlari energiya xaridorining to’lov qobiliyatiga bo’lgan bog’liqlikni pasaytiradi, Second Party Opinion kabi tashqi verifikatsiya esa greenwashing tufayli yuzaga keladigan obro’ yo’qotilishining oldini oladi. Demak, jadvaldagi mexanizmlar alohida emas, bir-birini to’ldiruvchi yagona himoya tizimi sifatida ishlaydi.

2-jadval

Yashil moliyaviy instrumentlar va risk taqsimoti[2,6]

Instrument	Risk taqsimoti	Afzalligi	Cheklovi
Yashil obligatsiyalar	Investorlarga taqsimlanadi	Uzoq muddatli, keng investor bazasi	Sertifikatlash va hisobot xarajatlari
Yashil kreditlar	Bank va qarz oluvchi o’rtasida	Moslashuvchan shartlar	Bank balansiga yuk
Loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance)	Loyiha oqimiga bog’liq, ishtirokchilar o’rtasida	Balansdan tashqari, risk ajratilgan	Murakkab tuzilma, yuqori tranzaksiya xarajati
Aralash moliyalashtirish (Blended Finance)	Imtiyozli kapital birinchi zararni qoplaydi	Xususiy kapitalni jalb qiladi	Donor resurslariga bog’liqlik
Barqarorlikka bog’langan kreditlar (SLL)	Foiz stavkasi KPI ko’rsatkichlariga bog’lanadi	Qarz oluvchini rag’batlantiradi	KPI belgilash murakkabligi
Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Davlat va xususiy sektor o’rtasida	Davlat kafolatlari, texnologiya jalb qilish	Uzoq muddatli muzokaralar
Lizing	Lizing beruvchi aktiv egaligini saqlaydi	Garovga bo’lgan ehtiyojni kamaytiradi	Aktiv qiymatiga bog’liqlik

Uchinchi jadval turli instrumentlar riskni turlicha taqsimlashini ko’rsatadi: yashil obligatsiyalar riskni keng investorlar doirasiga tarqatadi, yashil kreditlarda esa u asosan bank va qarz oluvchi o’rtasida bo’linadi. Obligatsiyalar uzoq muddatli resurs jalb qilish uchun qulay, lekin sertifikatlash va hisobot xarajatlarini talab qiladi. Kreditlar moslashuvchan shartlar beradi, biroq bank balansiga yuk tushiradi. Instrument tanlashda loyiha hajmi, muddati va qarz oluvchining kredit tarixi asosiy mezon bo’ladi. Loyihaviy moliyalashtirish va aralash moliyalashtirish murakkab, yuqori kapital talab qiladigan loyihalar uchun mos tuzilmalardir. Loyihaviy moliyalashtirishda qarz loyihaning o’z pul oqimi hisobidan qoplanadi, risk homiy kompaniya balansidan ajratiladi va ishtirokchilar o’rtasida taqsimlanadi. Buning narxi murakkab tuzilma va yuqori tranzaksiya xarajatlaridir. Aralash moliyalashtirishda esa imtiyozli kapital birinchi zararni o’z zimmasiga olib, xususiy investorlar uchun risk-daromad nisbatini jozibador qiladi, ammo bu donor resurslariga bog’liqlikni yuzaga keltiradi. Barqarorlikka bog’langan kreditlar, davlat-xususiy sheriklik va lizing esa risk taqsimotiga qo’shimcha rag’batlantiruvchi yoki yengillashtiruvchi omillarni kiritadi. SLL foiz stavkasini KPI ko’rsatkichlariga bog’lab, qarz oluvchini ekologik natijalarga erishishga undaydi, PPP davlat kafolatlari va texnologiya jalb qilish imkonini beradi, lizing esa aktivga egalik saqlanishi tufayli garovga ehtiyojni kamaytiradi.

3-jadval

Risklarni boshqarish jarayoni*

Bosqich	Faoliyat	Natija
1. Aniqlash	Barcha potensial risklarni ro’yxatga olish	Risk reyestri
2. Baholash	Ehtimollik va ta’sirni tahlil qilish, stress-testlar	Risk matritsasi
3. Ustuvorlashtirish	Muhim risklarni ajratish	Ustuvor risklar ro’yxati
4. Javob choralarini tanlash	Oldini olish, kamaytirish, ko’chirish yoki qabul qilish	Risklarni boshqarish rejasi
5. Amalga oshirish	Kafolat, sug’urta va xedjing shartnomalarini rasmiylashtirish	Himoya mexanizmlari
6. Monitoring va hisobot	Doimiy kuzatuv, ESG va ta’sir hisoboti	Risk ko’rsatkichlari (KRI)

Muallif tomonidan tayyorlangan.

To’rtinchi jadval risk boshqaruvini izchil, bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko’rsatadi. Birinchi ikki bosqichda barcha potensial risklar aniqlanib, risk reyestriga kiritiladi, so’ngra ularning ehtimolligi va ta’siri tahlil qilinib, stress-testlar o’tkaziladi va risk matritsasi shakllantiriladi. Bu bosqichlar to’g’ri bajarilmasa, keyingi barcha choralar noto’g’ri yo’nalishda sarflanishi mumkin, shuning uchun aniqlash va baholash sifati butun tizimning poydevori hisoblanadi.

Uchinchi va to’rtinchi bosqichlar qaror qabul qilishga qaratilgan. Ustuvorlashtirish cheklangan resurslarni eng muhim risklarga yo’naltirishga imkon beradi, javob choralarini tanlash esa riskni oldini olish, kamaytirish, boshqa tomonga ko’chirish yoki ongli ravishda qabul qilish variantlaridan eng maqbulini belgilaydi. Beshinchi bosqichda bu qarorlar kafolat, sug’urta va xedjing shartnomalari orqali huquqiy jihatdan rasmiylashtiriladi, ya’ni risk boshqaruvi rejasi real himoya mexanizmiga aylanadi.

Oltinchi bosqich, ya’ni monitoring va hisobot, jarayonni yopiq doiradan uzluksiz tsiklga aylantiradi. Risk ko’rsatkichlari (KRI), ESG va ta’sir hisobotlari orqali loyiha sharoitlaridagi o’zgarishlar o’z vaqtida aniqlanadi va risk reyestri yangilanadi. Bundan tashqari, shaffof hisobot investorlar ishonchini mustahkamlaydi va greenwashing riskini kamaytiradi. Shunday qilib, samarali risk boshqaruvi bir martalik tadbir emas, balki loyihaning butun hayotiy sikli davomida takrorlanadigan jarayondir.

4-jadval.

Yashil loyihalarni moliyalashtirish instrumentlari va ular bo‘yicha risklarni taqsimlash mexanizmlari*

Moliyalashtirish instrumenti	Asosiy ishtirokchilar	Muhim risklar	Risklarni kamaytirish vositalari
Yashil kreditlar	Tijorat banklari, korxonalar	Kredit, foiz, likvidlik	Kafolatlar, kredit monitoringi, rezervlar
Yashil obligatsiyalar	Emitentlar, investorlar	Bozor, kredit, greenwashing	Reyting, tashqi verifikatsiya, hisobot
Davlat-xususiy sheriklik	Davlat, xususiy investorlar	Siyosiy, qurilish, talab	Risklarni shartnoma asosida taqsimlash
Aralash moliyalashtirish	Davlat, XMI, xususiy investor	Kapital jalb etish, zararlar	Birinchi zarar kapitali, kafolat, imtiyozli transh
Yashil investitsiya fondlari	Fondlar, institutsional investorlar	Bozor va portfel riski	Aktivlarni diversifikatsiya qilish
Lizing	Lizing kompaniyasi, tadbirkor	To‘lov va texnologik risk	Aktiv ta’minoti, texnik kafolat
Grant va subsidiyalar	Davlat, donor tashkilotlar	Natijadorlik, ijro riski	Natijaga bog‘langan ajratmalar, audit
Yashil sukuk	Emitent, investorlar	Aktiv va loyiha riski	Aktivlarga bog‘langan tuzilma, huquqiy nazorat

Muallif tomonidan tayyorlangan.

Izoh: XMI — xalqaro moliya institutlari. Instrumentlarning risklarni kamaytirish darajasi aniq loyiha va shartnoma shartlariga bog‘liq.

Yashil loyihalarni moliyalashtirish instrumentlari va ular bilan bog‘liq risklarni taqsimlash mexanizmlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik barqaror investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish moliyaviy resurslarni jalb etish bilan bir qatorda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni to‘g‘ri identifikatsiyalash, baholash va boshqarishga ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, aralash moliyalashtirish, investitsiya fondlari va lizing instrumentlari moliyalashtirish manbalari, kapital qiymati, investitsiyalarning qaytish muddati hamda risklarning taqsimlanish xususiyatlari bo‘yicha bir-

biridan farqlanadi. Mazkur instrumentlarning har biri kredit, likvidlik, valyuta, bozor, texnologik va institutsional risklarning turli darajada yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois yashil investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlarni tanlash loyihaning iqtisodiy samaradorligi, ekologik natijadorligi, kapitalga bo‘lgan ehtiyoji va risklarga ta’sirchanlik darajasini kompleks baholash asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni kamaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri turli moliyaviy instrumentlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish va risklarni moliyalashtirish ishtirokchilari o‘rtasida oqilona taqsimlashdan iboratdir. Jumladan, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan yashil kreditlarda kredit skoringi, garov ta’minoti va kafolat mexanizmlaridan foydalanish kredit risklarini kamaytirishga xizmat qilsa, yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirishda mustaqil verifikatsiya, kredit reytingi va axborot shaffofligini ta’minlash investorlar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida esa qurilish, operatsion, siyosiy va bozor risklarini ularni samarali boshqarish imkoniyatiga ega tomonlar o‘rtasida taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aralash moliyalashtirish instrumentlari doirasida imtiyozli resurslar, qisman kredit kafolatlari va birinchi zarar kapitalidan foydalanish xususiy investorlar zimmasiga tushadigan ayrim risklarni kamaytirishi hamda yashil loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslari, xalqaro tajriba, moliyalashtirish instrumentlari, moliyaviy va ekologik risklarning tasnifi hamda ularni kamaytirish imkoniyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, jahon iqtisodiyotida yashil moliyalashtirish tizimining rivojlanishi iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirishning muhim moliyaviy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yashil loyihalarning yuqori kapital sig‘imi, uzoq muddatli investitsion xususiyati va ekologik natijalarning vaqt davomida shakllanishi ularni moliyalashtirishda an’anaviy investitsiya loyihalaridan farqli yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, moliyaviy, texnologik, ekologik, iqlim va institutsional risklarning bir vaqtning o‘zida yuzaga kelishi investitsiyalarning kutilayotgan daromadliligiga, kapital qiymatiga va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yashil loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirishning muhim sharti moliyaviy resurslarni ko‘paytirish bilangina cheklanmasdan, risklarni tizimli aniqlash, baholash, prognozlash va kamaytirishga yo‘naltirilgan kompleks risk-menejment mexanizmini shakllantirishdan iboratdir.

Ikkinchidan, yashil loyihalarni moliyalashtirishda qo‘llaniladigan kreditlar, yashil obligatsiyalar, aralash moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya fondlari, sug‘urta va kafolat instrumentlari moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari bilan bir qatorda, risklarni taqsimlash xususiyatlari bo‘yicha ham o‘zaro farqlanadi. Tadqiqot davomida mazkur moliyaviy instrumentlarning samaradorligi ularning alohida qo‘llanilishidan ko‘ra, loyihaning iqtisodiy xususiyatlariga mos ravishda o‘zaro uyg‘unlashtirilishi bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi. Xususan, yashil kreditlashda kredit va likvidlik risklarini kamaytirish, yashil obligatsiyalarda axborot shaffofligi va investorlar manfaatlarini himoya qilish, davlat-xususiy sheriklikda qurilish va operatsion risklarni optimal taqsimlash hamda aralash moliyalashtirishda imtiyozli kapital va kafolatlar orqali xususiy investorlarning riskka duchorlik darajasini pasaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yashil loyihalarni moliyalashtirishda risk va daromadlilik o‘rtasidagi maqbul nisbatni ta’minlaydigan diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish tizimini rivojlantirish zarur.

Uchinchidan, yashil investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini baholashda sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik me’yori (IRR), kapitalning o‘rtacha tortilgan qiymati (WACC), qarzga xizmat ko‘rsatish koeffitsienti (DSCR) va kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (EL) kabi

an’anaviy moliyaviy indikatorlardan foydalanish muhim bo‘lsa-da, ular loyihalarning barcha o‘ziga xos risklarini to‘liq ifodalab bera olmaydi. Shu sababli mazkur ko‘rsatkichlarni iqlim o‘zgarishiga chidamlilik, uglerod emissiyasi intensivligi, energiya samaradorligi, ekologik talablarga muvofiqlik va texnologik barqarorlik indikatorlari bilan uyg‘unlashtirish zarurati mavjud. Bunday kompleks baholash yondashuvi investitsiya loyihalarining moliyaviy natijadorligi va ekologik samaradorligini birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ssenariyli modellashtirish, sezgirlik tahlili va stress-testlash usullaridan foydalanish turli iqtisodiy va iqlim sharoitlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlarni oldindan baholash hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba tahlili yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarishning samarali tizimi ekologik-ijtimoiy ekspertiza, iqlim risklarini baholash, mustaqil verifikatsiya, moliyaviy stress-testlash va doimiy monitoring mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishini ko‘rsatadi. Xususan, Xalqaro moliya korporatsiyasining ekologik va ijtimoiy samaradorlik standartlari, Ekvator tamoyillari, NGFS iqlim ssenariylari hamda ISO 31000 standartining risklarni boshqarish tamoyillari yashil investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro amaliyot uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvlardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish tijorat banklarining ekologik va iqlim risklarini baholash salohiyatini oshirish, investitsiya loyihalarining riskka moslashtirilgan daromadliligini aniqlash va moliyaviy institutlarning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yuqoridagi ilmiy xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

1. Yashil loyihalarni moliyalashtirishda integral risklarni baholash modelini joriy etish. Moliyaviy, texnologik, ekologik, iqlim va institutsional risklarni yagona indeks asosida baholash orqali loyihalarning risk darajasini aniqlash hamda moliyalashtirish qarorlarining samaradorligini oshirish taklif etiladi.

2. Riskga moslashtirilgan yashil kreditlash mexanizmini takomillashtirish. Tijorat banklarida yashil loyihalarning moliyaviy barqarorligi, ekologik samaradorligi va risk darajasidan kelib chiqib, kredit foiz stavkalari, muddatlari va garov talablarini differensial belgilash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Yashil loyihalarni aralash moliyalashtirish va risklarni taqsimlash tizimini rivojlantirish. Davlat, xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlar mablag‘larini uyg‘unlashtirish, kredit kafolatlari hamda sug‘urta instrumentlari orqali investitsiya risklarini kamaytirish taklif etiladi.

4. Raqamli risk-monitoring va erta ogohlantirish tizimini yaratish. Yashil loyihalarning moliyaviy va ekologik ko‘rsatkichlarini sun’iy intellekt hamda raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldindan aniqlash mexanizmini joriy etish zarur.

5. Iqlim stress-testlari va ssenariyli baholash mexanizmini joriy etish. Yashil investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariylar asosida baholash orqali iqlim, bozor va moliyaviy risklarning investitsiya samaradorligiga ta’sirini aniqlash taklif etiladi.

6. Ekologik verifikatsiya va natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini rivojlantirish. Yashil loyihalarning ekologik samaradorligini mustaqil baholash, mablag‘lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish hamda moliyalashtirish shartlarini ekologik natijadorlik ko‘rsatkichlariga bog‘lash mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi yashil loyihalarni moliyalashtirishda risklarni kamaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ikramov M. M. Green Finance in Uzbekistan: Current State and Development Prospects

// European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2024. – Vol. 2, No. 5. – P. 91–98. – URL: https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/650.

2. Masharipova Sh. A. Determination of Green Finance Development Opportunities and Strategic Directions in Uzbekistan // Marketing Journal. – 2025. – No. 2. – DOI: 10.67668/mj/2025iss2/296.

3. Qorriyeva Sh. S. Foreign Experience of Developing Green Financing in Uzbekistan // Labor Economics and Human Capital. – 2025. – Vol. 4, No. 1. – P. 205–219. – DOI: 10.55439/lehc/vol4iss1/a163.

4. Boribaeva Z. R. State of Play of Green Finance in Uzbekistan: Opportunities for and Barriers to Green Bond Issuance // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Vol. 2, No. 7 (maxsus son). – DOI: 10.5281/zenodo.14295348.

5. Alinazarov M. Green Finance Instruments and Financial Stability of Enterprises in Uzbekistan: A Conceptual Analysis and Policy Framework // Moliya va bank ishi. – 2026. – Vol. 12, No. 1. – P. 84–92. – URL: https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/472.

6. Soxibjonova S. S. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga investitsiya siyosatini takomillashtirish yo‘llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2026. – URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/845.

7. Flammer C. Corporate Green Bonds // Journal of Financial Economics. – 2021. – Vol. 142, No. 2. – P. 499–516. – DOI: 10.1016/j.jfineco.2021.01.010.

8. Battiston S., Mandel A., Monasterolo I., Schütze F., Visentin G. A Climate Stress-Test of the Financial System // Nature Climate Change. – 2017. – Vol. 7. – P. 283–288. – DOI: 10.1038/nclimate3255.

9. Campiglio E., Daumas L., Monnin P., von Jagow A. Climate-Related Risks in Financial Assets // Journal of Economic Surveys. – 2023. – Vol. 37, No. 3. – P. 950–992. – DOI: 10.1111/joes.12525.

10. Bolton P., Kacperczyk M. Do Investors Care About Carbon Risk? // Journal of Financial Economics. – 2021. – Vol. 142, No. 2. – P. 517–549. – DOI: 10.1016/j.jfineco.2021.05.008.

11. Krueger P., Sautner Z., Starks L. T. The Importance of Climate Risks for Institutional Investors // The Review of Financial Studies. – 2020. – Vol. 33, No. 3. – P. 1067–1111. – DOI: 10.1093/rfs/hhz137.

12. Giglio S., Kelly B., Stroebel J. Climate Finance // Annual Review of Financial Economics. – 2021. – Vol. 13. – P. 15–36. – DOI: 10.1146/annurev-financial-102620-103311.

13. Мирошниченко О. С., Мостовая Н. А. «Зеленый» кредит как инструмент «зеленого» финансирования // Финансы: теория и практика. – 2019. – Т. 23, № 2. – С. 31–43. – DOI: 10.26794/2587-5671-2019-23-2-31-43.

14. Ерёмин В. В., Бауэр В. П. «Зеленое» финансирование как триггер позитивных климатических преобразований // Экономика. Налоги. Право. – 2021. – Т. 14, № 4. – С. 65–73. – DOI: 10.26794/1999-849X-2021-14-4-65-73.

15. Бурланков С. П., Устинов П. В., Бурланков П. С. Международные аспекты зеленого финансирования: анализ рисков и инструменты преодоления барьеров // Вестник Марийского государственного университета. Серия «Сельскохозяйственные науки. Экономические науки». – 2025. – Т. 11, № 3. – С. 295–304. – DOI: 10.30914/2411-9687-2025-11-3-295-304.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

NAMANGAN VILOYATIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich

University of business and science
o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
geografiya fanlari nomzoi, dotsent
E-mail: mirxamid@list.ru.
ORCID -0009-0002-7764-6830

Annotatsiya. *Maqolada Namangan viloyatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari 2020-2025 yillarning yillik statistik ma’lumotlari asosida o‘rganiladi. Rasmiy statistika asosida dinamik, tarkibiy va hududlararo qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Nominal hajmlar nisbatidan hisoblangan o‘zgarishlar rasmiy o‘sish sur’atlaridan ajratildi, xorijiy investitsiyalar va kreditlarning birlashtirilgan toifasi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan tenglashtirilmadi. Investitsiya hajmi, manbasi va loyiha natijasini bog‘lovchi monitoring yondashuvi taklif etildi. Uning amaliy ahamiyati loyihalarni moliyaviy tayyorlash, infratuzilma cheklovlarini aniqlash va jalb qilingan kapitalni mahalliy qo‘shilgan qiymat bilan bog‘lashda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot tavsifiy xususiyatga ega bo‘lib, investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga sababiy ta’siri alohida ekonometrik tekshiruvni talab qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Namangan viloyati, xorijiy investitsiyalar, asosiy kapital, moliyalashtirish manbalari, hududiy rivojlanish, investitsiya mexanizmi, aholi jon boshiga investitsiyalar, monitoring.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Мирзаахмедов Хамидулло Сайдаматович

проректор по учебной работе
University of Business and Science
кандидат географических наук, доцент
E-mail: mirxamid@list.ru
ORCID: 0009-0002-7764-6830

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов привлечения иностранных инвестиций в Наманганской области на основе ежегодных статистических данных за 2020–2025 годы. На основе официальной статистики применены методы динамического, структурного и межтерриториального сравнительного анализа. Изменения, рассчитанные как отношения номинальных объёмов, разграничены с официальными темпами роста, а объединённая категория иностранных инвестиций и кредитов не отождествляется с прямыми иностранными инвестициями. Предложен подход к мониторингу, связывающий объём инвестиций, источники финансирования и результаты проектов. Его практическая значимость проявляется в финансовой подготовке проектов, выявлении инфраструктурных ограничений и обеспечении связи привлечённого капитала с созданием местной добавленной стоимости. Исследование носит описательный характер; оценка причинно-следственного влияния инвестиций на экономический рост требует отдельной эконометрической проверки.*

Ключевые слова: *Наманганская область, иностранные инвестиции, основной капитал, источники финансирования, территориальное развитие, инвестиционный механизм, инвестиции на душу населения, мониторинг.*

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

IMPROVING MECHANISMS FOR ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT IN NAMANGAN REGION

Mirzaaxmedov Xamidullo Saydamatovich
Vice-Rector for Academic Affairs
University of Business and Science
Candidate of Geographical Sciences
Associate Professor
E-mail: mirxamid@list.ru
ORCID: 0009-0002-7764-6830

Abstract. *This article examines ways to improve mechanisms for attracting foreign investment in Namangan Region using annual statistical data for 2020–2025. Dynamic, structural, and interterritorial comparative analyses were conducted using official statistics. Changes calculated from ratios of nominal investment volumes were distinguished from official growth rates, while the combined category of foreign investment and loans was not equated with foreign direct investment. A monitoring approach linking investment volumes, funding sources, and project outcomes is proposed. Its practical relevance lies in preparing projects for financing, identifying infrastructure constraints, and linking attracted capital to local value creation. The study is descriptive; assessing the causal impact of investment on economic growth requires a separate econometric analysis.*

Keywords: *Namangan Region, foreign investment, fixed capital, funding sources, regional development, investment mechanism, investment per capita, monitoring.*

Kirish

Hududiy iqtisodiyotda investitsiya siyosatining vazifasi ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, infratuzilmani rivojlantirish va barqaror daromad yaratadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun sharoit shakllantirishdir. Namangan viloyati uchun xorijiy kapitalni jalb etish mahalliy resurslarni to‘ldirish va texnologik hamkorlikni kengaytirish imkoniyatini beradi. Bunda mablag‘ hajmi bilan bir qatorda uning hududiy joylashuvi, moliyalashtirish shakli va foydalanish natijasi ham baholanishi zarur.

Tadqiqot muammosi investitsiya ko‘rsatkichlarini alohida kuzatish bilan bog‘liq. Umumiy hajm ortishi barcha hududlarning bir xil rivojlanganini anglatmaydi; xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushining ko‘payishi esa kapitalning barchasi ulushli investitsiya shaklida kelganini bildirmaydi. Shu sababli viloyat darajasidagi qarorlar hajm, manba, hududiy zichlik va loyiha natijasini birlashtiruvchi tahlilga tayanishi kerak.

Maqolaning maqsadi 2020-2025 yillarda Namangan viloyatidagi investitsiya jarayonlarini baholash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdir. Vazifalar yillik dinamikani aniqlash, moliyalashtirish tarkibini o‘rganish, hududlararo farqlarni baholash hamda investitsiya natijalarini monitoring qilish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

OECDning FDI Qualities Policy Toolkit qo‘llanmasida investitsiyalar sifati mahsuldorlik, innovatsiyalar, bandlik sifati, ko‘nikmalar va ekologik natijalar bilan bog‘liq holda baholanadi [5]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqadigan metodologik xulosa shuki, hududning investitsiya jozibadorligini faqat jalb qilingan mablag‘ orqali o‘lchash yetarli emas. Ushbu maqolada ham kapital hajmi bilan uning yakuniy iqtisodiy natijasi alohida ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi.

UNCTADning World Investment Report 2025 hisobotida xalqaro investitsiyalarning raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq yo‘nalishlari yoritilgan [6]. Muallifning hududiy siyosatga oid talqiniga ko‘ra, investorga taqdim etiladigan ma’lumotlarni raqamlashtirish loyiha tanlashdagi axborot xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq platformaning mavjudligi loyiha

sifatini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi; undagi ma’lumotlar tekshiriladigan va muntazam yangilanadigan bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda investitsiya faoliyatining umumiy huquqiy asoslari 2019-yil 25 dekabrdagi O‘RQ-598-son «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunda belgilangan [7]. Ushbu maqoladagi tashkiliy takliflar loyiha tayyorlash, axborot almashish va monitoringga qaratilgan. Muayyan imtiyoz, kafolat yoki moliyaviy yordamni qo‘llash uning amaldagi huquqiy shartlari bo‘yicha alohida tekshirilishi zarur.

Maqolaning ilmiy hissasi hududiy investitsiya jarayonini uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda - hajm, moliyalashtirish manbasi va natija bo‘yicha baholashni taklif etishdan iborat. Tavsiya etilgan mexanizm muallifning tashkiliy taklifi bo‘lib, uning samaradorligi amaliy sinov va korxona darajasidagi kuzatuvlar orqali tekshirilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot obyekti Namangan viloyatining investitsiya rivojlanishi, predmeti esa xorijiy kapitalni jalb etish va hududiy taqsimlash mexanizmlaridir. Empirik baza 2020–2025-yillarning yanvar–dekabr davrlarini qamrab oladi. Namangan viloyati statistika boshqarmasining yillik hajm, moliyalashtirish manbalari, aholi jon boshiga investitsiyalar va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar jadvallari ishlatildi [1–4]. Manbalarda 2025-yil ko‘rsatkichlari dastlabki ma’lumot sifatida berilgan.

Dinamik tahlilda joriy narxlardagi hajmning bazis indeksi $B_t = I_t / I_{2020} \times 100$ hamda yillik nominal o‘zgarishi $g_t = (I_t / I_{t-1} - 1) \times 100$ hisoblandi. Rasmiy o‘sish sur’atlari manbadan alohida olindi. Nominal hajmlar nisbati narxlar ta’sirini saqlagani uchun real o‘sish o‘rnida ishlatilmadi. Olti yillik qator olti kuzatuvdan, bazis yilidan yakuniy yilgacha bo‘lgan o‘sish esa beshta yillik oraliqdan iborat.

Tarkibiy tahlilda moliyalashtirish manbalari ulushi va uning foiz punktidagi o‘zgarishi qo‘llanildi: $\Delta S = S_{2025} - S_{2020}$. Korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari ichki manba sifatida, chet el investitsiyalari va kreditlari esa birlashtirilgan tashqi moliyalashtirish toifasi sifatida o‘rganildi. Ushbu toifa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan tenglashtirilmadi.

Hududlararo taqqoslashda aholi jon boshiga investitsiyalar ko‘rsatkichi qo‘llanildi. Namangan shahri manbada berilgan jamlangan qator bo‘yicha olindi; uning tarkibiy hududlari qayta qo‘shilmadi. Mazkur yondashuv hududiy hisobda takroriy sanashning oldini oladi. Investitsiya hajmining yalpi hududiy mahsulotga nisbati investitsiya faolligi indikatori sifatida hisoblandi; u rentabellik yoki investitsiyaning qaytim koeffitsiyenti deb talqin qilinmadi.

Tadqiqot tavsifiy va qiyosiy xususiyatga ega. Olti yillik umumlashgan kuzatuv mustaqil ravishda murakkab ekonometrik modelni ishonchli baholash uchun yetarli asos bermaydi. Shu sababli sababiy bog‘liqlik, loyiha rentabelligi yoki investitsiya siyosatining sof ta’siri to‘g‘risida statistik jihatdan tekshirilmagan xulosalar chiqarilmadi.

Tahlil va natijalar

2020-2025 yillarda investitsiyalar hajmi nominal hisobda 5,09 baravarga yetgan. Yillik qatorning asosiy sakrashi 2024-yilga to‘g‘ri keladi. Bu davrni alohida loyiha tarkibi bilan tekshirish zarur: umumiy statistik qator o‘sishning aynan qaysi loyihalardan shakllanganini to‘liq ochib bermaydi (1-jadval) [1].

1-jadval.

Namangan viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi

Yil	Hajm mlrd so‘m	Rasmiy o‘sish sur’ati %	Bazis indeks 2020 = 100	Jon boshiga ming so‘m
2020	12 007,2	88,0	100,0	4 229,2
2021	12 982,0	100,5	108,1	4 477,8
2022	14 775,1	104,2	123,1	4 984,4
2023	19 220,1	121,3	160,1	6 339,5
2024	54 231,4	261,2	451,7	17 500,2
2025	61 125,3	107,6	509,1	19 335,5

*Muallif ishlanmasi.

Rasmiy sur’at 2020-yilda 88,0 foiz, 2024-yilda 261,2 foiz, 2025-yilda 107,6 foiz bo‘lgan [4]. Shunday qilib, davr ichida pasayish, keskin kengayish va yuqori bazadan keyingi mo‘tadil o‘sish kuzatilgan. 2025-yildagi nominal hajm o‘zgarishi 12,7 foiz bo‘lib, uni rasmiy 7,6 foiz o‘sish bilan almashtirib bo‘lmaydi.

Aholi jon boshiga investitsiyalar 2020-yildagi 4 229,2 ming so‘mdan 2025-yilda 19 335,5 ming so‘mga yetgan [3]. Mazkur ko‘rsatkich kapitalning aholiga nisbatan zichligini ifodalaydi; aholi daromadi yoki har bir fuqaro olgan investitsiya miqdori emas. Uning taqsimoti hududiy infratuzilma va loyiha natijalari bilan birga ko‘rib chiqilishi kerak.

Investitsiya va YAHM nisbati davr boshida 35,1 foiz, davr oxirida 71,6 foiz, 2024-yilda esa 75,5 foizni tashkil etgan. Investitsiya xarajatlari va hududda yaratilgan qo‘shilgan qiymat iqtisodiy mazmuni turlicha bo‘lgan kattaliklardir. Shu sababli ushbu nisbatdan bir birlik kapitalning qaytimi haqida xulosa chiqarilmaydi (2-jadval) [4].

2-jadval.

Investitsiyalar va yalpi hududiy mahsulot nisbati*

Yil	YAHM mlrd so‘m	Investitsiya YAHMga nisbatan %
2020	34 169,1	35,1
2021	41 993,6	30,9
2022	50 668,2	29,2
2023	61 074,9	31,5
2024	71 869,1	75,5
2025	85 419,0	71,6

*Muallif ishlanmasi.

Tashqi moliyalashtirish ulushi 37,2 foizdan 82,4 foizga o‘zgargan, ya’ni 45,2 foiz punktga oshgan. O‘z mablag‘lari ulushi esa 41,9 foizdan 13,9 foizga tushgan. Ulushning kamayishi mablag‘ning mutlaq kamayganini anglatmaydi: hisoblangan o‘z mablag‘lari hajmi taxminan 5 031,0 mlrd so‘mdan 8 496,4 mlrd so‘mga yetadi (3-jadval) [2].

3-jadval.

Asosiy kapitalga investitsiyalar moliyalashtirish tarkibi*

Yil	O‘z mablag‘lari %	Davlat budjeti %	Bank krediti va boshqa qarz %	Chet el investitsiyasi va krediti %
2020	41,9	5,8	14,3	37,2
2021	36,8	8,3	23,3	29,8
2022	38,4	6,6	19,2	34,7
2023	39,9	2,5	1,9	55,7
2024	13,7	2,9	1,0	82,3
2025	13,9	3,0	0,8	82,4

*Muallif ishlanmasi.

Tarkibiy natijadan kelib chiqadigan muallif tavsiyasi tashqi kapitalning shartlarini loyiha pul oqimi bilan bog‘lashdir. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar birgalikdagi toifa bo‘lgani sababli ulushli kapital hamda qarzning alohida miqdorlari ushbu jadvaldan aniqlanmaydi. Yuqori ulushning o‘zi korxona xavfini isbotlamaydi; qarz muddati, valyutasi va daromad manbasi loyihalar kesimida tekshirilishi kerak.

4-jadval.

Hududlarda aholi jon boshiga investitsiyalar*

Hudud	2020 ming so‘m	2025 ming so‘m	2025 viloyat = 100
Namangan shahri	7 012,0	27 445,8	141,9
Mingbuloq	2 325,9	13 782,7	71,3
Kosonsoy	2 679,7	11 188,9	57,9
Namangan tumani	5 953,2	15 223,5	78,7
Norin	2 330,7	12 083,8	62,5
Pop	3 570,2	40 137,0	207,6
To‘raqo‘rg‘on	5 286,9	24 768,0	128,1
Uychi	2 548,4	14 695,6	76,0
Uchqo‘rg‘on	4 517,5	10 372,0	53,6
Chortoq	1 938,8	9 990,0	51,7
Chust	3 905,7	15 655,8	81,0
Yangiqo‘rg‘on	2 260,9	13 390,5	69,3

*Muallif ishlanmasi.

2025 yilda aholi jon boshiga investitsiyalar Popda viloyat o‘rtachasining 207,6 foizini, Chortoqda 51,7 foizini tashkil etgan. Ushbu hududlar orasidagi farq 4,02 baravar. Jadval kapital zichligidagi tafovutni ko‘rsatadi, hududlarning umumiy rivojlanish reytingini emas (4-jadval) [3]. Differensial siyosatda past ko‘rsatkichning sababi resurs yetishmasligi, loyiha tayyorligi yoki davriy omil ekanini aniqlash talab etiladi.

Muhokama va investitsiya mexanizmini takomillashtirish

Muallif talqiniga ko‘ra, hududiy investitsiya boshqaruvida uchta bog‘lanish mustahkamlanishi kerak: resursdan loyihaga, loyihadan ishlab chiqarish natijasiga va natijadan hududiy rivojlanishga o‘tish. Buning uchun investitsiya dasturining har bir loyihasi moliyalashtirish manbasi, joylashuvi va tekshiriladigan natijasi bilan qayd etilishi taklif qilinadi. Ushbu yondashuv mavjud mablag‘ hisobini almashtirmaydi, uni natijaga oid ma’lumotlar bilan to‘ldiradi.

Birinchi yo‘nalish - loyiha tayyorligini oshirish. Investitsiya pasportida mahsulot bozori, resurs ehtiyoji, infratuzilma ulanishlari, huquqiy holat, ishga tushirish muddati va moliyaviy model berilishi kerak. Xorijiy investorga taklif qilinayotgan loyihani faqat xarajat miqdori orqali taqdim etish o‘rniga uning pul oqimi va bozor shartlari asoslanishi zarur. Talabning pasayishi, xarajatlarning ortishi va ishga tushirishning kechikishi bo‘yicha ssenariylar tayyorlanishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi yo‘nalish - hududga mos loyiha tanlash. Aholi jon boshiga ko‘rsatkich nisbatan past bo‘lgan hududlarda elektr, suv, yo‘l yoki logistika cheklovlari mavjudligini alohida tekshirish lozim. Muammo infratuzilma bilan bog‘liq bo‘lsa, individual korxona imtiyozidan oldin umumiy foydalanish obyektini rivojlantirish masalasi baholanadi. Yuqori investitsiya zichligiga ega hududlarda esa quvvatlarning bandligi va boshqa hududlar bilan ishlab chiqarish aloqalari o‘rganiladi.

Uchinchi yo‘nalish - moliyalashtirish shaklini loyiha muddatiga moslashtirish. Uzoq muddatli aktivni qisqa muddatli qarz bilan moliyalashtirish qayta moliyalashtirishga ehtiyoj tug‘dirishi mumkin. Valyutadagi majburiyatlar bo‘yicha asosiy tushumning valyutasi va kurs o‘zgarishiga sezgirlik tekshiriladi. Ulushli investor ishtirokida boshqaruv, foydani taqsimlash va investorning chiqish shartlari oldindan kelishiladi. Bu tavsiyalar har bir loyiha uchun individual moliyaviy tahlil orqali qo‘llanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish - natijalarni monitoring qilish. Reyestrda rejalashtirilgan va haqiqiy investitsiya, ishga tushgan quvvat, ishlab chiqarilgan mahsulot, mahalliy qo‘shilgan qiymat, eksport va saqlangan ish o‘rinlari alohida qayd etilishi taklif etiladi. Ko‘rsatkichning davri va hisoblash usuli o‘zgarmasligi kerak. Bir xil loyiha bir nechta dasturga kiritilgan bo‘lsa, natija yagona identifikator orqali hisoblanib, takroriy sanash bartaraf etiladi.

Beshinchi yo‘nalish - axborotning ishonchliligini ta’minlash. Investitsiya ma’lumotlari yillik va davriy qatorlarga ajratilishi, dastlabki raqamlar alohida belgilanishi va yangilanish tarixi saqlanishi lozim. Hududiy raqamli platformada tanlangan ko‘rsatkichning manbasi, narx turi, o‘lchov birligi va davri ko‘rsatilishi kerak. Investor uchun ochiq axborot bilan tijorat siri bo‘lgan loyiha ma’lumotlarini taqdim etish tartibi ham oldindan belgilanadi.

Taklif etilayotgan mexanizmni cheklangan loyihalar portfelida sinovdan o‘tkazish mumkin. Dastlab tayyorgarlik holati va boshlang‘ich ko‘rsatkichlar qayd etiladi, keyin belgilangan muddatlarda natijalar kuzatiladi. Monitoring loyiha tanlash mezonlarini qayta ko‘rib chiqishga xizmat qiladi. Mexanizmning sof ta’sirini baholash uchun esa taqqoslash guruhi va boshqa omillarni nazorat qiluvchi alohida empirik tadqiqot talab etiladi.

Xulosa

2020-2025 yillar tahlili Namangan viloyatining investitsiya faolligini baholashda vaqt dinamikasi, moliyalashtirish tarkibi va hududiy zichlikni birga o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Kapitalning o‘sishini mahsuldorlik, qo‘shilgan qiymat yoki daromadning aynan shu miqdorda o‘sishi deb talqin qilish mumkin emas. Buning uchun loyihalar ishga tushganidan keyingi iqtisodiy natijalar o‘lchanishi lozim.

Viloyat investitsiya dasturida loyihalarni moliyaviy tayyorlash standartini joriy qilish taklif etiladi. Unda pul oqimi, bozor talabi, infratuzilma holati, moliyalashtirish shartlari va asosiy xavf ssenariylari qamrab olinishi kerak. Tayyorlik darajasi tekshirilgan loyihalar investorga taqdim etiladigan portfelga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Hududiy siyosatni differensiallashtirish tavsiya etiladi. Investitsiya zichligi past hududlar bo‘yicha to‘siqlar diagnostikasi, yuqori zichlikdagi hududlar bo‘yicha esa ishlab chiqarish quvvatlari natijadorligi va kooperatsiya imkoniyatlari tahlil qilinishi kerak. Mablag‘ni barcha hududga bir xil taqsimlash o‘rniga aniqlangan cheklov va iqtisodiy imkoniyatga asoslangan tanlov qo‘llanadi.

Investitsiya monitoringi jalb qilingan mablag‘dan tashqari mahalliy qo‘shilgan qiymat, barqaror ish o‘rinlari, eksport natijasi va quvvatlardan foydalanishni ham qamrab olishi taklif etiladi. Keyingi tadqiqotda loyiha va korxona darajasidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, taklif etilgan mexanizmni amalda sinash va natijalarning sababiy bog‘liqligini tekshirish asosiy vazifa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar yillik hajmi. https://namstat.uz/files/297/Investitsiya/4727/Asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar-yillik-hajmmlrdso-m.pdf?preview=1

2. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi https://namstat.uz/files/297/Investitsiya/4728/Moliyalashtirishmanbalari.pdf?preview=1

3. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar. https://namstat.uz/files/297/Investitsiya/4719/Asosiy-kapitalga-ozlashtirilgan-investitsiyalar--aholi-jon-boshiga.pdf?preview=1

4. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Namangan viloyatining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari. https://namstat.uz/files/309/Makroiqtisodiy/4674/Makroiqtisodiy-ko-rsatkichlar-.pdf?preview=1

5. OECD. FDI Qualities Policy Toolkit. Paris: OECD Publishing, 2022. https://doi.org/10.1787/7ba74100-en

6. UNCTAD. World Investment Report 2025: International investment in the digital economy. Geneva, 2025. https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025

7. O‘zbekiston Respublikasi. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. 25.12.2019-yildagi O‘RQ–598-son Qonun. https://lex.uz/docs/-4664142